**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“KREDIT-IQTISOD” FAKULTETI**

**“KASBIY TA’LIM” KAFEDRASI**

# «TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI» fanidan O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**TOSHKENT-2018**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“KREDIT-IQTISOD” FAKULTETI**

**“KASBIY TA’LIM” KAFEDRASI**

# «TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI»

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Ta’lim yo’nalishi:** | 5111000 | – | Kasb ta’limi (5230600 – Moliya) |
| | 5111000 | - | Kasb ta’limi (5230700 – Bank ishi) |
| | 5111000 | - | Kasb ta’limi (5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit) |
| **Bilim sohasi:** | 100 000 | – | Gumanitar soha; 200000 – Ijtimoiy soha, Iqtisod va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 110 000 | – | Pedagogika; 230000 –Iqtisod |

**TOSHKENT – 2018**

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” faninidan O’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2018__ yil “___” ______dagi “___”-sonli buyrug’ining ____ ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

Sarsenbayeva R. – TMI, “Kasbiy ta’lim ” kafedra o’qituvchisi p.f.n.,dotsent

**Taqrizchilar:**

Ashurov N.R. – Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI “Pedagogika va kasbiy ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent (*turdosh OTMdan*.)

Mahmudov A. – Toshkent bank kolleji direktori, i.f.n., dotsent *(kadrlar buyurtmachisi)*

Fanning o’quv uslubiy majmuasi kafedraning 2018 yil “___” _____ dagi “___”-sonli yig’ilishi muhokamasidan o’tkazilgan va fakultet Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

**“Kasbiy ta’lim ”**
**kafedrasi mudiri** **dots. SH.Allayarov**

Fanning o’quv uslubiy majmuasi “Moliyaviy menejment” fakulteti Kengashi muhokamasidan o’tkazilgan va fakultet Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

**“Kredit-iqtisod” fakulteti dekani** **dots. R.Saidov**

**Kelishildi:**

**O’quv-uslubiy bo’lim boshlig’i** **dots. T.Baymuratov**

**O’quv ishlari bo’yicha prorektor** **dots. I. Qo`ziyev**

Fanning o’quv uslubiy majmuasi institut o’quv-uslubiy Kengashining 2018 yil “__” _____dagi “____”-sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

Fanning O’quv uslubiy majmua muhokama etilgan va qo’llashga tavsiya etilgan institut Kengashi bayoni (“____”-soni 2018 yil “___” ________) keltiriladi.

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISH……………………………………………………………….** | **5** |
| **I** | **O`QUV MATERIALLARI** | |
| 1.1 | Ma`ruza bo`yicha o`quv materiallari ………………………………. | **7** |
| 1.2 | Amaliy mashg`ulotlar bo`yicha o`quv materiallari…………….……. | **258** |
| **II** | **MUSTAQIL TA’LIM MASHG`ULOTLARI …………………….** | **401** |
| **III** | **GLOSSARIY…………………………………….…….…………….** | **408** |
| **IV** | **ILOVALAR** | |
| 4.1 | Fan dasturi ………………………….………………………………… | **418** |
| 4.2 | Ishchi dastur …………………………….………………………….. | **431** |
| 4.3 | Interfaol ta’lim metodlari …………………………………………….. | **454** |
| 4.4 | Tarqatma materiallar………………………………………………….. | **459** |
| 4.5 | Testlar ………………………………………………………………… | **463** |
| 4.6 | Baholash mezoni bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar……………………... | **470** |

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilikka erishishi boshqa sohalar kabi ta’lim tizimini yetuklikka isloh qilishni taqozo etmoqda. Bundan maqsad zamon talabiga mos yangicha fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash bo‘lib, uni amalga oshirish yosh mutaxassislarni ma’naviy yetuklikka va aqliy salohiyatini yanada oshirishdir. Respublikamizning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun mutaxassislar va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ham ta’lim tizimi, jumladan, oliy ta’lim tizimining bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi talabalarini har tomonlama yetuk, barkamol insonlar-mutaxassislar qilib tarbiyalash masalasi qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respblikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasigamuvofiq “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” bugungi kunda muhim vazifalar hisoblanadi.

Jahon miqyosida shaxsning ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi o‘quv-tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari vositasida shakllantirishning yangi modellarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish, o‘quvchilarni ijodiy ishlarga yo‘naltirish, umuminsoniy va ta’limiy-tarbiyaviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘quvchilarning ta’limiy-tarbiyaviy qobiliyatini milliy va jahon ta’lim tajribasiga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq maktabdan tashqari ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.[1]

Ma’lumki, ma’naviyatsiz hech qanday taraqqiyot bo‘lmaydi. Shunday ekan, mustaqil Respublikamiz tobora rivojlanib, taraqqiy etib, jamiyatimiz ma’rifat, madaniyat tomon boraveradi. Bu esa, zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarning iqtidorini shakllantirishni va ularni yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Bunda birga “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani dasturilamal bo‘ladi.

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining maqsadi** bo‘lajak bakalavrlarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etilishining ham nazariy, ham amaliy asoslari bilan tanishtirish, ta’lim muassasalarida guruh rahbari ishini ilmiy-uslubiy jihatdan tashkil etish metodikasini o‘rgatish, tarbiyaviy tadbirlarni tashkillashtirihs va sifat samaradorligini oshirishda yngicha ishlash metod, vosita va shakllaridan foydalanish san’atiga ega bo‘lishning mazmun-mohiyti, tamoyili, metodlari va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalariga oid bilim, ko‘nikma va malakalar berishdan iborat.

---

[1]O‘zbekiston Reespublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.– T., 2017 .– B.39.

**Fanning vazifasi** talabalarni bugungi bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlar qilib tarbiyalash hamda tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda, amalga oshirishda mohir mutaxassis tashkilotchi sifatida yetishtirish, shuningdek, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasiga oid ilmiy-amaliy ma’lumotlar bilan qurollantirishdan iborat, xususan:

– Sharq mutafakkirlari va birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishni bilish;

– pedagogik texnika pedagoglik mahoratning tarkibiy qismi ekanligini o‘rganish;

– o‘zini-o‘zi boshqarish, idora qilish va tarbiyalashni bilish;

– pedagogik mahorat va pedagogik texnikaga ega bo‘lish;

– tarbiyaviy ishlarni olib borishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanishni bilish;

– pedagoglarning talabalar bilan o‘zaro muomalasi haqida ilmiy-amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lish;

– talabalarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish metodikasini bilish;

– guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;

– shaxsga jamoaviy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning shakl va metodlarini bilish;

– tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish metodikasiga oid ilmiy-amaliy ma’lumotlar hosil qilish kabilardir .

# I. O`QUV MATERIALLARI

## 1.1 MA`RUZA MASHG`ULOTLARI BO`YICHA MATERIALLAR

### 1-mavzu: “TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

**REJA:**

1. Tarbiyaning umumiy ta’rifi. Tarbiya jarayoni va mohiyati
2. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning pedagogik tahlili.
3. Mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari
4. Tarbiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo’lishi
5. Tarbiyada milliy urf-odatlar va an’analar

**TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Komil inson, milliy model, shaxs, davlat, jamiyat, uzluksiz ta’lim, pokiza, hulq-atvor, tarbiya faoliyat o’z-o’zini tarbiyalash qadriyatlar g’oya tarbiya vositalari tushuntirish va hokazo.

### 1. Tarbiyaning umumiy ta’rifi. Tarbiya jarayoni va mohiyati

**Tarbiya nima?**

Uning ta’limda qanday farqli tomonlari mavjud?

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta’lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta’lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o‘xshash emas. Ta’lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.

1-rasm




Bir butun pedagogik jarayonda ta’lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishda mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko‘p qirralidir. Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarni bilimlar bilan

qurollantirish bo‘lsa, tarbiya yoshlarning jamiyatimizning qonunlariga javob bera oladigan e’tiqodini, axloqiy tushuncha va ko‘nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir (1-rasm).

Abdulla Avloninyning «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog‘langan kabidur» deb ta’kidlashi bejiz emas. Ma’lum bo‘ladiki, ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko‘ra tarbiyalab, bilim berish bo‘lmog‘i lozim. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining predmeti (1-rasm):

**Bu fanning maqsadi esa**, kasb-hunar ta’lim muassasasilari akademik litseylar talabalariga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lgan bunda boy qadriyatlarimizdan keng va oladigan zarur metodlarini tanlab bilishga qodir bo‘lgan iqtisodchi-pedagoglarni tayyorlashdan iboratdir.

Tarbiya maxsus faoliyat sifatida anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta’sir ko‘rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asosiy berilgan vositalari shakllari metodlarini qo‘llanishi bilan ajralib turgan.

**Kasb-hunar ta’lim muassasai talablari** shaxsini davr talabiga javob bera oladigan darajada tarkib toptirishga erishish imkonini beradigan, biror bir salbiy jihatning oldini oladigan tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish asoslarini ishlab chiqish kabilar **tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining muhim maqsadi va vazifalari sanaladi** (2-3-rasmlar).

2-rasm

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” faninng bosh maqsadi**

yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, ma’naviy-tarixiy an’analariga, urf–odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amalda joriy etishdir.

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o‘z Vatanining ilg‘or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

**Mazkur “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining o’qitilishi metodikasi ham aynan ushbu qarorga asosoan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan**

Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro‘yobga chiqarish usullarining vositalari, yo‘llari va shakllaridan iborat bo‘lishi lozim. Tarbiyaviy ish metodikasini o‘rganish talabalarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor shaxsga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi “Pedagogika” fanining bir qismi bo‘lib, fan sifatida ajralib chiqdi va o‘zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga bo‘lib o‘rganiladi. Bular quyidagilardir: “Odobnoma fanini o‘qitish” metodikasi, “Jamoani tashkil qilish” metodikasi, “Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarini tashkil etish” metodikasi hamda “Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish” metodikasi va hakozolar.

3-rasm

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining asosiy vazifasi esa** shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. **Buning uchun:**

yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko‘maklashish, o‘z – o‘zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg’otish;

talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, ularni tobora o‘stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

har bir o‘smirning bilim olish qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish;

insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir–birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik), muomala odobi kabi tarbiya vositalaridan kengroq foydalanish:

tarbiyada tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olinishi, har bir shaxs, o‘smir va yosh yigit-qizning betakror va o‘ziga xosligini e’tiborga olish;

amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksizligiga hamda turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish:

o‘smir yigit va qizlar nafaqat bo‘lg’usi katta hayotga tayyorgarlik ko‘radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar, shu bois ularni aniq hayotga tayyorlash kabilar.

Demak, bu fanni o‘qitishdan maqsad, kelajakda talabalarga ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashishni, ishni sifat, mazmun jihatdan to‘g‘ri tashkil etishni o‘rgatishdan iboratdir.

Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat masalasidir” deya ta’kidlaganida qanchalik haqli ekanligini, hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Tarbiyaning eng muhim vazifasi yosh avlodda mustahkam e’tiqod hamda ularga asoslangan ma’naviy xulq-atvorni xosil qilishdir. Bu vazifani shaxsni faol va muayyan maqsadni ko‘zlagan holda tarkib toptirishning psixolok qonuniyatlarini, axloqiy taraqqiyot qonuniyatlarini umumiy va o‘ziga xos yakka psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda to‘g‘ri hal etish mumkin.

O‘quv jarayonini boshqarish nisbatan oson. Uning natijalari darhol namoyon bo‘ladi va ularni tekshirish mumkin. Tarbiya haqida esa bu fikrni aytish mumkin emas.

O‘quvchining o‘sishi va tarbiya olishi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin va o‘qish faoliyati, bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar o‘quvchilarning hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘quvchilarning xilma xil faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etish, uni shaxs sifatida alohida sifatlari, xarakter xislatlari, odatlarini tarkib toptirishga e’tibor yaratish tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

## 2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning pedagogik tahlili

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni oila, davlat oldidagi mas’uliyatini anglab etadigan, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy kuchlarni taraqqiy ettiruvchi yuksak talablarni belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasida ta’lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish, intellektual va ma’naviy kuchlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga molikligi qayd etib o‘tildi. Bugungi kunda shunchaki, bilim egasi bo‘lgan insonni emas, balki ijodkor, o‘z iqtidori bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon talabidir (4-rasm).

4-rasm

**Bakalavr pedagoglarni yetishtirib berishda tarbiyaviy ishlar pedagogikasi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan vazifalar bilan birga quyidagi mqsadlarni ham amalga oshiradi:**

1. Bo’lajak iqtisodchi pedagoglarda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishga oid nazariy va amaliy bilimlarni, ko’nikmalarni, malakalarni tarkib toptirish;
2. O’quvchilarni to’g’ri tarbiyalashda jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob mezonlariga mos keladigan axloqiy malakalarni shakllantirish.

Tarbiya va uni amalga oshirish muammosi barcha zamonlarda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Chunki jamiyatning qay darajada taraqqiy etganligi shu jamiyatda yashayotgan odamlarning ma’naviy saviyasi bilan o‘lchanadi. Kasb-hunar ta’lim muassasasii, akademik litseylarda talabalar shaxsini kamolga yetkazish, ma’naviy boylikni, axloqiy komillikni, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi yoshlarni tarbiyalashni taqazo etadi.

Bo‘lajak pedagoglar, murabbiylar birinchi navbatda tarbiyachi va jamiyat siyosatini hamda mafkurasini yoshlar ongiga yetkazuvchi asosiy shaxs bo‘lganligi bois, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» mohiyatini yana bir bor chuqur tahlil o‘rganish zarur.

1997 yil iyul oyida har ikki me’yoriy hujjat mazmuni o‘rganib chiqilib, umumxalq e’tiboriga havola etildi. Muhokama jarayonida bildirilgan fikr-mulohazalar mas’ul komissiya tomonidan o‘rganildi. Umumxalq muhokamasidan o‘tkazilgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilindi.

Mazkur hujjat Respublika ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini ochib beruvchi muhim hujjatdir. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir (5-rasm).

5-rasm

**Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi talab qilinadi:**

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish va rivojlangan huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslashish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagog faoliyatining nufuzi va ijtimoiy mavqeini ko’tarish;
- ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va amalda joriy etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalari xodimlarini attestatsiyadan o’tkazish va muassasani akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy etish;
- kadrlar tayyorlash sohasida o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar.

Har qanday mamlakatning kuchi fuqarolarning ma’naviy yetukligidadir. Intellektual salohiyati esa ta’lim tizimining mazmunini shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun moddiy va ma’anaviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda

qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e’tiqodlari asosida shakllantiradi.

Komil inson va yetuk malakali mutaxassis milliy model mohiyatini to‘laqonli ifoda etadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta’lim-tarbiyadangina iborat bo‘lib qolmay, bir-biriga bog‘liq ko‘pgina hayotiy bosqichlarni ham o‘z ichiga oladi. Milliy model – bu shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro hamkorligi, ularning bir-biriga aloqasini aks ettiradi (6-rasm).

6-rasm

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:**

1. **Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi.
2. **Davlat va jamiyat** – ta’lim va kadrlar tayyorlash faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.
3. **Uzluksiz ta’lim** – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini, tuzilmasi va faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.
4. **Fan** – yukori malakali mutahassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.
5. **Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, ular sifatiga qo‘yilgan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, tizimni moliyalashtiruvchi va moddiy-texnik baza bilan ta’minlash qatnashchisi

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Kuch – bilim va tafakkurda» degan hikmat bugun va ertangi kunni ko‘zlagandir.

Xulosa qilib aytganda, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi barkamol shaxsni – insonni va shu tariqa ongli jamiyatning shakllanishiga, ya’ni yangicha ongga, tafakkurga ega bo‘lgan shaxslarning ko‘payishiga va bu o‘z navbatida, ijobiy ravishda «Portlash effekti»ning sodir bo‘lishiga olib keladi.

Bu to‘g‘rida O‘zbekiston Respublikamizning birinchi Prezidenti «Tafakkur» jurnali bosh muharririga bergan intervyusida aytganidek «Ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har bir insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to‘liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoit mavjud bo‘lsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos

bo‘ladi. Men «Portlash effekti» deganda aynan shunday holatni nazarda tutmoqdaman».

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarni o‘zida aks ettira olgan qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi. Barkamol inson va yetuk mutaxassis o‘qituvchilar qo‘lida kamolga yetar ekan, eng avvalo ularning shaxsi ham bir qator ijodiy sifatlarni o‘zida aks ettira olishi lozim. Shundagina biz o‘zimiz orzu qilayotgan shaxsni tarbiyalay olishga muyassar bo‘lamiz.

7-rasm

**Yuqorida bayon etilgan fikrlarga tayanib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:**

1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» O’zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o’zida aks ettirgan muhim me’yoriy hujjat bo’lib, istiqbol uchun yo’llanmadir.
2. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da alohida ta’kidlangan Milliy modul – Respublikamizning milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg‘or fan, texnika va texnologiya yutuqlari vositalarida tayyorlangan kadr – komil inson va yetuk mutaxassis qiyofasini o’ziga aks ettiruvchi me’yordir.
3. O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g’oyalarini amalga oshirish jarayonida o’qituvchi kadrlar o’ziga xos muhim rolni bajaradilar

Xalqimiz milliy uyg‘onish, milliy ongning tiklanishi va shakllanishi, millatning o‘zligini anglashi, hayotimizning barcha jabhalarida yangicha mezon va tamoyillarning rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan bir davrda yashamoqda. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi. Jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. O‘quvchi kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o‘zlashtiradi, bu o‘zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Abu Nosr Forobiyning ta’limotida komil inson muammosi u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jamiyatni mukammallashtirish, fozil jamoa qurish, insonga baxt-saodat eshiklarini ochish vositalarini yaratish masalalari markaziy o‘rinni egallaydi.

Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada bilimni o‘zlashtira olmaydilar. O‘quvchining yoshi ulg‘aygani sari bu faollik tobora ko‘proq mustaqil xususiyatlarga ega bo‘lib boradi. Tarbiyalanuvchilar o‘zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga ko‘nika boradilar.

## 3. Mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari

**«Kitob al axl al-madina al-Fozilo»** («Fozil shahar odamlarining qarashlari haqida risola») asarida ta'kidlashicha, insonning bu olamga kelishi va yashashidan maqsad baxt-saodatga erishishdan iboratdir. Baxt-saodat eshiklarining kaliti insonning o'z qo'lidadir: bu maqsadga odamlar fazilatli ishlari va yaxshi axloqiy sifatlari sohiblari bo'lish orqali erishadilar.

**Fozil jamoa (Forobiy fozil shahar ahli, deydi)** odamlarning turmush tarzi va faoliyati boshqa nomukammal shahar odamlarining turmushidan farqi shundaki, «bir guruh (fozil) odamlar birgalikda ana shu xislatlar (fazilatlar)ga ega bo'lishsa (ya'ni, birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshqa (go'zal) xislatlar bo'lsa), ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga ko'yish zarur. Shu guruhning a'zolari birlashib, o'zaro kelishib harakat qilsa, har biri fozil odam bo'lishi mumkin, Fozillar shahri, uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt-saodat nima ekanligini bilishlari zarur. Yana «fozillar shahri» aholisi oxiratda nelarga erishuvini, nelardan (qanday ijtimoiy illatlardan) saqlanishini bilishlari zarur». Fozil shahar yoki ideal davlat oqil talablari, adolat va muhabbat asoslari ustiga quriladi. Jamoat hayotining osoyishtaligi, kishilar o'rtasidagi hamjihatlik, hamkorlik, jamiyatning yaxlitligi, adolatli siyosat va undan kelib chiqadigan namunali ishlari orqali ta'minlanadi hamda yuzaga chiqadi.

**Forobiy ruh tarbiyasi tan (vujud)** tarbiyasidan ustun degan fikrni ilgari surmaydi, balki ular o'rtasidagi muvozanat, uyg'unlik ko'zda tutiladi.



Chunki, sog'lom tanda ruh o'z xatti-harakatlarini to'laroq bajarish imkoniyatiga ega bo'la oladi, tan xastaligi ruh, vujud va uning qismlari yordami bilan qilinadigan harakatlardan ham mahrum etilishi mumkin. Adolat tushunchasi, Forobiyning fikricha, kishilarning bir-biriga bo'lgan muhabbatiga asoslanadi. Muhabbat esa fozil shahar odamlarining fazilatli ishlariga moyilligidan kelib chiqadi hamda ularning baxtga erishish uchun nimalarni bilish va qanday vositalardan foydalanish mumkinligi to'grisida hamfikrligi va umumiy intilishlariga asos bo'ladi.

Komil inson faoliyatida bilim va yetuk axloq uzviy ravishda bir-biri bilan boglangandir: bilim narsalarning mohiyatini, ichki sababiyatlarini bilish imkonini beradi, axloq (ma'naviyat) esa odamni yaxshi fazilatlarga da'vat etadi. Chunki kamolotga erishish odamdan o'zining so'nggi maqsadi – baxtga yetish, baxtni ko'lga kiritish uchun foydali narsalarni bilishni talab qiladi. Forobiy ta'limotiga ko'ra, nazariy jihatdan bilimga ega bo'lish, amaliy jihatdan baxtga erishish vositalarini, yo'llarini bilish kerak ekanligi, ya'ni nazariya bilan amaliyotning birligi shart qilinadi.

Ammo, davlat arbobining nafs xastaligini davolashdan maqsadi unda yaxshi fazilatlarni, yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishdan, ruhni sog'lomlashtirish orqali insonni tarbiyalashdan iboratdir. Hukmdor yuksak mahoratli shifokor sifatida jamiyatning va fuqarolarning ruhiy sog'lomligini ta'minlashi lozim, bu maqsadga

hukmdor davlat boshqaruv san'atini mukammal egallash yo'li bilan erisha oladi, deyiladi. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi kishilarni o'zaro hamjihatlikka va hamkorlikka undaydi, ularda bir-birlariga mehr-muhabbat va ishonch tuyg'ularini shakllantiradi, odamlarni jipslashtirib, har qanday yovuzlik va adolatsizlikning yo'qotilishi uchun zamin yaratadi.

Mana shu ikki omilni bir-biriga qiyos qilar ekan, Abu Ali ibn Sino birinchi o'ringa jamiyat hayotidagi axloqiy munosabatlarni qo'yadi. Chunki axloqiy munosabatlar, uning fikri bo'yicha, xalqning ma'naviy sog'lomligini belgilaydi, ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishiga yordam beradi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlaydi. Komil insonning ma'naviy kamoloti uning go'zallikka intilishida ifodalanadi. Go'zallikka erishish vositasi muhabbatdir. Insonning ma'naviy jihatdan kamol topishi uning nafsini tarbiyalash orqali amalga oshadi.



Tashqi qiyofasi chiroyli odamning ichki olami mayib, tashqi qiyofasi xunuk odam go'zal axloqiy sifatlar sohibi bo'lishi mumkin. Shuning uchun insondagi jismoniy go'zallik bevosita uning insoniy nafsi bilan bog'liq ichki go'zalligi bilan belgilanmaydi: ichki axloqiy go'zallikning tashqi go'zallikdan afzalligi shubhasizdir. Bu g'oyalar Ibn Sinoning «Risola fil-ishq» asarida har tomonlama keng bayon qilingan. Alloma muhabbatga insonni ma'naviy kamolot sari eltuvchi muhim vosita sifatida qaraydi.

Insonning ichki go'zalligi – go'zal xulqlari, yuksak ma'naviylikka moyilligi ko'p jihatdan uning tashqi ko'rinishidagi xusnidan afzalroqdir, deydi. Demak, Ibn Sinoning fikriga ko'ra, xayolan fikrda go'zal narsalarni mushohada qilish ayni vaqtda olam hodisalarini faol o'rganish, kuzatish va bilish demakdir. Mana shunday mushohada orqali inson ma'naviy kamolot sari yuksaladi. Bu jarayonda nafsning har uch qismi ishtirok etadi: nafsning quyi qismlari aqliy (insoniy) nafs bilan hamkorlikda bo'ladi.



Aqliy faoliyatdan mamnuniyatli hisob qilish – inson uchun eng oliy darajali lazzatdir. Hissiy lazzatlar (maishat, shahvoniylik) tashqi kuchlarining ta'siri bilan paydo bo'ladi. Ma'naviy lazzatlanish, mamnun bo'lish nafsning aqliy (insoniy) kuch-quvvatidan paydo bo'ladi va insonni ma'naviy yuksalish sari eltadi. Shayx Aziziddin Nasofiy komil (yetuk) inson haqida so'z yuritar ekan, bunday odam yuksak axloqli, o'zini tanigan, dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan bo'lishi zarur, deb aytadi. Ular nafsning quyi qismlari aqliy faoliyat bilan uzviy ravishda bog'langan holda kamolotga erishish qobiliyatiga egadir. Inson o'zining aqliy faoliyati bilan yuksak g'oyalarni mushohada qilish orqali lazzatlanishi mumkin.

«Bilgiliki, - deydi Nasofiy, - komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk boʻlgan odamga aytiladilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil shunday insondirkim, unda quyidagi toʻrt narsa kamolga etgan boʻlsin: yaxshi soʻz, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va ma'orif».

## 4. Tarbiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida boʻlishi

Hamma davrlarning ilgʻor kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr, Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz Oʻtar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Oʻquvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish madaniy va diniy bilimlarni egallashga boʻlgan talablarni shakllantirish, malakalarini oshirib tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muhimdir.

Oʻzbek xalqini ma'naviy merosini oʻrganishda va rivojlantirishda milliy oʻziga xosligi, ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib xalq pedagogikasi an'nalariga suyangan holda ish koʻrilishi maqsadga muvofiq. Kishilik jamiyatiga muhabbat tabiat muhofazasi, madaniy yodgorliklarni saqlash ishlariga jalb qilish lozim. Ma'naviy qadriyatlar va gʻoyalar har xil millat oʻquvchilarini birlashtiradi, oʻquv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. Xalq pedagogikasining oʻquvchi tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga toʻla tatbiq etilmaganligi, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari sharqona urf-odatlari, boy an'analari hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay qusurlarning yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Xalqimizning koʻp asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan milliy oʻzlikni anglash, milliy gʻurur tuygʻusini qaror toptirish mumkin emas.

Oʻzbek xalqi koʻp asrlik tarixiy taraqqiyotda katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan manaviy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Ismoil–al Buxoriy, al Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino Yusuf-Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Fariddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali oʻquvchilar goʻzal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega boʻladilar. Insoniylik oʻz tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar oʻrtasida oʻzaro yaxshi munosabatda boʻlish, doʻstlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-booʻquvchirimiz oʻquvchilarda yoshlikdan ana shu goʻzal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat berganlar.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini oʻz ichiga olgan ikkiyoqlama jarayon. Tarbiyachilar – bilim va tarbiyaga ega boʻlgan kishilar, tarbiyalanuvchilar bilim va tarjiba oʻrganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat koʻrsatmasalar tajriba va bilimlar oʻrgana olmaydilar. Umumxalq muhokamasidan oʻtkazilgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilindi. Mazkur hujjat Respublika ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar mazmunini ochib beruvchi muhim hujjatdir. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning

maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir (8-rasm).

8-rasm

**Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini talab qiladi:**

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish va rivojlangan huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslashish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagog faoliyatining nufuzi va ijtimoiy mavqeini ko’tarish;
- ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish va akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy etish
- Kadrlar tayyorlaasida o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqilligiga erishgan kunidan boshlab jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan, uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi jarayonida ham ma’naviy, ma’rifiy va mafkuraviy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, o‘zining ma’ruzasida “Milliy istiqlol mafkurasi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi; xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi ...”,- deydi[2].

Darhaqiqat, hozirgi davr pedagogikasi, tarbiyashunoslik ilmi, ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini qayta qurish hamda taraqqiy ettirish milliy istiqlol mafkurasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Shuningdek, xalqimizning an’ana va udumlari donishmand, mutafakkir bobolarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi. Faylasuf olim, akademik E.Yusupov o‘zining qator asarlarida qadriyatlarning ta’rifi va xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadi. U, qadriyat tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan quyidagicha ta’rif

[2] Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. –T.: “O’zbekiston”, 2001. – 80 b. [– 43-b.]

beradi: "Qariyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy kasb etgan moddiy, ma’naviy hodisa, jarayon bo‘lsa ham, uning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchaning o‘zi ham qadr-qimmat ma’nosini bildiradi"[3] (9-rasm).

9-rasm

**Qadriyatlar**




Olim, jamiyat taraqqiyotida insoniyat tomonidan bunyod etilgan, o‘tmish va kelajakda rivojlanish uchun ijobiy ta’sir etadigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar, fikrlar, g‘oyalarga qadriyat sifatida qaraydi. Shaxsning xislatlari, fazilatlari, dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan, o‘tmishda yaratilgan, kelajakda foydalaniladigan omillar yoshlarning ta’lim-tarbiyasida foydalanish lozim bo‘lgan qadriyatlar deb tushunildi.

Shuningdek, barcha qadriyatlar ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular, yosh avlod ongi, dunyoqarashining shakllanishiga, ichki ruhiy dunyosining, aqliy faoliyatining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pgina qadriyatlar jarayon xususiyatiga ega bo‘lib, ushbu jarayonni amalga oshirilishida bo‘lg‘usi shaxs – bola ishtirok etadi, uning xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi, ba’zi qoidalarini o‘rganib, ongiga singdirib boradi. Bular jumlasiga an’analar, urf-odatlar, o‘gitlar, nasihatlar, bayramlar yo‘nalishidagi qadriyatlarni misol keltirish mumkin. Ba’zi qadriyatlar esa, namoyon bo‘lishi natijasida turli xil buyumlar, asarlar, jihozlar, qurilmalar, moddiy boyliklar ko‘rinishida yaratiladi hamda moddiy borliqning o‘zligiga nisbatan ushbu tasvir uzoq vaqt saqlanib qoladi. Borliq yaratilishiga sabab bo‘ladigan qadriyatlar shartli ravishda moddiy qadriyatlar deb belgilandi. Ko‘p yillik kuzatishlar va olib borilgan tadqiqot natijasida, o‘quvchi shaxsining shakllanishi va

[3] Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o’rni. /Uslubiy qo’llanma. –T.: O’zMU, 1998. – 30 b.

10-rasm

**Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:**

1. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishish hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etilishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatlariga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak: a) nutqning to'g'riligi; b) nutqning aniqligi; v) nutqning ifodaviyligi; g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi), jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni o'rinsiz qo'llanishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqlarda) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchi nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak; d) nutqning ravonligi; j) nutqning boyligi (so'zlar, maqollar, matallar hamda ko'chirma so'zlardan foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining turli xil diqqatni tez jalb etuvchi bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlardan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi) ega bo'lishi.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotida pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

rivojlanishiga ta'sir etadigan tarixiy, madaniy, ma'naviy, moddiy qadriyatlar umumlashtirilib, quyidagi tuzilmaga keltirishga harakat qilindi. Jarayon qadriyatlari shartli ravishda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, namoyon qadriyatlar esa moddiy borliq ko'rinishidagi moddiy qadriyatlar deb belgilandi .

Qadriyatlar ***umuminsoniy*** (mustaqillik, do'stlik, vatanparvarlik kabi), ***mintaqaviy*** (mehmondo'stlik, sahovatlilik, bolajonlik kabi) va ***milliy*** (*ma'naviy-ma'rifiy, moddiy*) qadriyatlarga guruhlandi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, o'quvchi har bir qadriyatlarni o'rganish jarayonida o'zi alohida shakllana olmas ekan. Binobarin, har bir qadriyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan, u holda o'quvchi ushbu bog'liqlik jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

Uning shakllanib, kichik hunarmand bo'lib yetishishiga imkoniyat yaratiladi. Ushbu imkoniyat ta'lim va tarbiyaning shakli, vositasi va metodlari hamohang holatda olib borilsagina, ijobiy natijalarni beradi (10-rasm).

O'quvchilar *umuminsoniy* (mustaqillik, do'stlik kabi), *mintaqaviy* (mehmondo'stlik, sahovatlilik kabi) hamda *milliy* (ma'naviy-ma'rifiy, moddiy) qadriyatlar orqali ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya olishadi. Ushbu jarayonda, ularning bir-birlariga bo'lgan hurmati, do'stligi, hamkorligi kabi insoniy fazilatlari shakllanadi. Umuminsoniy, mintaqaviy va milliy qadriyatlarning o'zaro bir-birlari bilan chambarchas aloqadorligi tarkib topadi. Ma'lumki, umuminsoniy, mintaqaviy, milliy, ma'naviy-ma'rifiy, moddiy kabi qadriyatlarning nomi va atamalari soni yuzdan ortiqdir. Biz bilamizki, milliy qadriyatlar shartli ravishda ma'naviy va moddiy qadriyatlarga bo'linadi.

## 5. Tarbiyada milliy urf-odat, qadriyat va an'analarning o'rni

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "... xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda **milliy urf-odatlarimiz** va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda ..."[4] deb ta'kidlagan edilar.

Darhaqiqat, bugungi kunda milliy urf-odatlarimizni qayta tiklash, takomillashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Barkamol inson va yetuk mutaxassis o'qituvchilar qo'lida kamolga yetar ekan, eng avvalo ularning shaxsi ham bir qator ijobiy, sifatlarni o'zida aks ettira olishi lozim. Shundagina biz o'zimiz orzu qilayotgan shaxsni tarbiyalay olishga muyassar bo'lamiz.

Tarbiyaviy ishlarning ra'sirchanligi, samaradorligi ko'p jihatdan xalqimizning boy milliy, ma'naviy me'rosining tarixiy ildizlarini o'rganishga bog'liq. Har bir xalqning ijtimoiy-ma'naviy hayotida azaliy urf-odat, marosim, an]ana tarzida o'ziga xos bir qadriyat meros sifatida namoyon bo'lib, ajdoddan avlodga yetib keladi. Millatning ma]naviy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni muhimdir. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'p qadriyat shakllarini qamrab oladi. "Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa

[4] I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2009. – 176 b. (-96 b.)

bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari, moddiy-ma'naviy boyliklari, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy hayotining barcha tomonlaridir"[5].

Tarbiyaviy ishlar mazmunida milliy qadriyatlarning quyidagi bosqichlaridan ketma-ket foydalanish mumkin: milliy qadriyat haqida tushuncha berish; ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy, moddiy boyliklar; xalq og'zali ijodi; urf-odatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati; xalq yaratgan an'ana va marosimlarning o'rganish va nishonlash kabilar. Milliy qadriyatlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini ochib berish o'quvchilarda milliy g'oya, milliy g'urur, milliy iftixor kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

Talabalar har doim o'z ustozlariga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'ladilar. Bu nafaqat talabalik davrida, balki keyinchalik ish faoliyati davomida ham o'z kuchini yo'qotmaydi. Yaqin kunlargacha kishining o'qituvchilik mahorati va uning hamkasblari hamda ta'lim muassasalarining hurmatiga sazovor bo'lganligi uning lavozim jihatdan o'sishiga yoki mukofotlanishiga hech qanday hissa qo'shmagan. Bugungi kunda esa ko'plab davlatlar, shu jumladan, Buyuk Britaniya bunga katta e'tibor bermoqda. Ushbu bo'limda shu haqda fikr yuritamiz.

Milliy siyosat, moliya, bozor kuchi va o'qituvchilik kasbi ahamiyatining oshib borishi ta'lim-tarbiyaning barcha shakllariga alohida urg'u beradi. Britaniyaning deyarli barcha universitet hamda institutlarida, hattoki, eng ilg'or tadqiqot guruhlarida talabalarning ta'lim sohasida o'z ish faoliyitini yuritishlari, shu jumladan, tadqiqotchi talabalarni nazorat qilishlari nazarda tutiladi.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan qiyofasi uning o'qituvchilar, talabalar hamda ota-onalar o'rtasida obro' e'tibor qozonishini ta'minlaydi. Inson o'zining aqliy faoliyati bilan yuksak g'oyalarni mushohada qilish orqali lazzatlanishi mumkin. Aqliy faoliyatidan mamnuniyat – inson uchun eng oliy darajali lazzatdir. Hissiy lazzatlar (maishat, shahvoniylik) tashqi kuchlarning ta'siri bilan paydo bo'ladi.

*Oliy Ta'lim Sifatini Ta'minlash bo'yicha Agentlik kvalifikatsiya xarakteristikalariga asosan, odatda muvaffaqiyatli, oliy pog'onadagi talabalar dalillarni tanqidiy baxolash, farazlar tuzish, abstrakt kontseptsiyalar va ma'lumotlar tuzish, baholash, muammoni yechish yo'lida kerakli savollarni shakllantirish, yoki muammoni echimi uchun bir qator yechimlarni aniqlash borasida qobiliyatga ega bo'lishlari mumkin" (QAA, 2001).*

*Ba'zida biz o'ylashimiz osonki, talabalar tahlil, tanqidiy tushunish, interpretatsiya, baholash, dalillar keltirish kabi terminlar nima anglatishini biladilar deb. Ushbu terminlarni ma'nosi mahsus fanlarga tegishli bo'lib, masalan bir fan doirasida o'qituvchilar talabalardan ushbu terminlarni o'z ishlarida qo'llashda har xil natijalar kutishlari mumkin. Natijalar va baholash mezonlari yordamida ko'proq ochiqlikka erishish mumkin, lekin shu narsa, o'qituvchilar etarli vaqt ajratib talabalar bilan ushbu terminlarni ma'nosi haqida suhbat qurishlari va ani shu terminlarni qo'llab talabalar bilan qayta aloqa o'rnatishlari zarur.*[6]

[5] "Pedagogika" fanidan izohli lug'at. 324-bet.

[6] A handbook for teaching and learning in higher education: enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 122,123.

Xulosa qilib aytganda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi barkamol shaxsni – insonni va shu tariqa ongli jamiyatning shakllanishiga, ya’ni yangicha ongga, tafakkurga ega bo‘lgan shaxslarning ko‘payishiga va bu, o‘z navbatida, ijobiy ravishda «Portlash effekti»ning sodir bo‘lishiga olib keladi.

## 2-mazvu. SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA I.A.KARIMOV ASARLARINING ILMIY-IJODIY ME’ROSIDAN TARBIYAVIY MAQSADLARDA FOYDALANISH

**REJA:**

1. Forobiyning komil inson haqidagi fikrlari
2. Beruniyning moddiy va ma’naviy olam yaxlitligi to’g’risidagi qarashlari
3. Alisher Navoiy o’qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida
4. Mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy me’rosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish masalasi

**TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Komil inson, mutafakkirlar, shaxs, uzluksiz ta’lim, pokiza, hulq-atvor, tarbiya faoliyat o’z-o’zini tarbiyalash, qadriyatlar, g’oya tarbiya vositalari tushuntirish va hokazo.

### 1-§. Forobiyning komil inson haqidagi fikrlari

Barkamol inson va yetuk mutaxassis o‘qituvchilar qo‘lida kamolga yetar ekan, eng avvalo ularning shaxsi ham bir qator ijobiy sifatlarni o‘zida aks ettira olishi lozim. Shundagina biz o‘zimiz orzu qilayotgan shaxsni tarbiyalay olishga muyassar bo‘lamiz. Xalqimiz juda muhim mas’uliyatli bir davrni boshidan kechirmoqda. Bu davr milliy uyg‘onish, milliy ongning tiklanishi va shakllanishi, millatning o‘zligini anglashi, hayotimizning barcha jabhalarida yangicha mezon va tamoyillarning rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, davlatimizning birinchi rahbari Islom Karimov ta’kidlaganidek: «Ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirayotgan ishlarimizni izchil va qat’iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turganini» alohida qayd etish lozim.

«Milliy istiqlol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» asarida komil inson g‘oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g‘oya ekanligi alohida ta’kidlanadi. Komil inson g‘oyasi – qadimdan xalkimizning ezgu orzusi va milliy falsafamizning markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan»….

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan bo‘lgan komil inson g‘oyasining ma’naviy, axloqiy negizlari dastlab insoniyat tarixidagi eng qadimgi tarixiy yozma manbaalaridan biri «Avesto»da qayd etilgan.

Odamzodning eng muhim ma’naviy extiyojlaridan biri shu ki, u hamisha komillikka intilib yashaydi. «Avesto»da o‘zbek xalki ajdodlari dunyodagi eng qadimgi va qudratli, ma’naviyatli inson sifatida tilga olinadi. Zardusht ta’limoti odamzodni er yuzida farovon yashashga, tinchligi va inson manfaatlariga alohida ahamiyat beradi, tirik hayot tamoyillariga chukur ehtirom ko‘rsatadi. «Avesto» o‘gitlari uch muhim asosga – ezgu niyatga, ezgu fikrga, ezgu amallarga, shuningdek, adolat va haqiqatga tayangan. Forobiyning ta’limotida komil inson muammosi shu bilan bevosita bog‘lik bo‘lgan jamiyatni mukammallashtirish, fozil jamoa kurish, insonga baxt-saodat eshiklarini ochish vositalarini yaratish masalalari markaziy o‘rinni egallaydi. Komil inson muammosi, uning turmush tarzi, yashash tamoyillari, ahloqiy kamol topish yo‘llari va baxtga erishish vositalari xususida Forobiy uni shunday targ‘ib etib, yozadi (11-rasm).

**«Kitob al axl al-madina al-Fozilo»** («Fozil shahar odamlarining qarashlari haqida risola») asarida ta’kidlashicha, insonning bu olamga kelishi va yashashidan maqsad baxt-saodatga erishishdan iboratdir.



Baxt-saodat eshiklarining kaliti insonning o‘z qo‘lidadir: bu maqsadga odamlar fazilatli ishlari va yaxshi axloqiy sifatlari sohiblari bo‘lish orqali erishadilar. Adolat tushunchasi, Forobiyning fikricha kishilarning bir-biriga bo‘lgan muhabbatiga asoslanadi. Muhabbat esa fozil shahar odamlarining fazilatli ishlariga moyilligidan kelib chiqadi hamda ularning baxtiga erishish uchun nimalarni bilish va qanday vositalardan foydalanish mumkinligi to‘grisida hamfikrligi va umumiy intilishlariga asos bo‘ladi

Forobiy ta’limotiga ko‘ra, nazariy jihatdan bilimga ega bo‘lish, amaliy jihatdan baxtga erishish vositalarini, yo‘llarini bilish kerak ekanligi, ya’ni nazariya bilan amaliyotning birligi shart qilinadi.

Komil inson faoliyatida bilim va yetuk axloq uzviy ravishda bir-biri bilan boglangandir: bilim narsalarning mohiyatini, ichki sababiyatlarini bilish imkonini beradi, axloq (ma’naviyat) esa, odamni yaxshi fazilatlarga da’vat etadi. Chunki kamolotga erishish odamdan o‘zining so‘nggi maqsadi – baxtga etish, baxtni ko‘lga kiritish uchun foydali narsalarni bilishni talab qiladi.

Forobiy ruh tarbiyasi tan (vujud) tarbiyasidan ustun degan fikrni ilgari surmaydi, balki ular o‘rtasidagi muvozanat, uygunlik ko‘zda tutiladi. Chunki, sog‘lom tanda ruh o‘z xatti-harakatlarini to‘laroq bajarish imkoniyatiga ega bo‘la oladi, tan xastaligi ruh, vujud va uning qismlari yordami bilan qilinadigan harakatlardan ham mahrum etilishi mumkin. Ammo davlat arbobining nafs xastaligini davolashdan maqsadi unda yaxshi fazilatlarni, yuksak ahloqiy sifatlarni shakllantirishdan, ruhni sog‘lomlashtirish orqali insonni tarbiyalashdan iboratdir. Hukmdor yuksak mahoratli shifokor sifatida jamiyatning va fuqarolarning ruhiy

sog‘lomligini ta’minlash lozim. Bu maqsadga hukmdor davlat boshqaruv san’atini mukammal egallash yo‘li bilan erisha oladi, deyiladi.

11-rasm

**O‘zida o‘n ikki tug‘ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo‘la oladi, bular quyidagilar:**

**birinchidan**, bunday odamning barcha a’zolari shu darajada mukammal tarakkiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu a’zolari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin; **ikkinchidan**, barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin; **uchinchidan**, xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo‘lsin; **to‘rtinchidan**, zehni shu darajada tez va o‘tkir bo‘lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishligini ravon va ravshan bayon eta olsin; **beshinchidan**, so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin; **oltinchidan**, bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin; **yettinchidan**, ovqatlanishda, ichimlik iste’mol etishda ochko‘z bo‘lmasin, tabiati qimor o‘yinlarini o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo‘lsin; **sakkizinchidan**, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin; **to‘qqizinchidan**, ruhining g‘ururi va vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo‘lsin; **o‘ninchidan**, dirxam, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin; **o‘n birinchidan**, o‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin, o‘z odamlari va boshqalarga adolatli bo‘lsin, go‘zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarini adolatga targ‘ib etadigan, adolasizlik oqibatlarini yo‘qotadigan, ularga yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lsin; **o‘n ikkinchidan**, adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o‘zibilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo‘lsin, o‘zi zarur deb bilgan narsani amalga oshirishda qat’iylik ko‘rsatsin, qo‘rqmasin, jasur bo‘lsin, qo‘rqish va ojizlikni bilmasin.

Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab, «munosib inson» bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yo'ldir, deydi.

## 2-§. Beruniyning moddiy va ma'naviy olam yaxlitligi to'g'risidagi qarashlari

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy axloqiy ideali – tirikilikni o'z mehnati bilan o'tkazuvchi, birovlarning ko'ngliga ozor bermaydigan, mol-mulkiga va joniga qasd qilmaydigan, aksincha, miskinu g'ariblarga yordam beradigan odam bo'lgan. Uning tasavvuridagi komil inson o'z or-nomusi bilan va qadr-qimmatini saqlagan, olijanob muruvvat egasi. Olijanob odam o'zining joni va o'zining mulkidan boshqa hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o'ziga tegishli mulkni boshqaradi».

Beruniyning fikricha, oqil odamlarning taraqqiyoti va uning ruhiyatining rivojlanishi hech bir to'siqlarsiz ijobiy rivojlanishga ega bo'ladi. Alloma «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Osar ul-boqiya») asarida qadimgi Eron podshohlarining raiyatini boshqarish odatlari haqida hikoya qiladi. Rivoyatga ko'ra, Eron shohlari Hur Moh Xurram Ro'z oyining birinchi kuni xalq bilan uchrashar ekanlar.



Beruniy 953-1050 yillarda o'zining qator falsafiy asarlarida psixologik va pedagogik qarashlarini bayon qiladi. Bular inson shaxsining shakllanishi, axloqiy kamoloti, aql-idroki, tafakkuri haqida fikrlaridir. Beruniyning «Qadimgi avlodlar obidalari» asarida ba'zi odamlar shaxsining shakllanishida ularning xulq-atvorida mavjud bo'lgan ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida to'xtalib o'tadi. Bu illatlarga qarama-qarshi oqil odamlar haqida o'z fikrini bayon qiladi.

Jamiyatdagi zulmni, yovuzlikni yo'qotish, uni to'gri yo'lga solishdagi muhim vositalardan biri sifatida alloma hukmdorlar va ularning atrofidagi noiblarning nafsini tarbiyalash, ularda ezgu insoniy fazilatlarni shakllantirish orqali ochko'zlik, xudbinlik, garazgo'ylik, munofiqlik kabi illatlardan xalos etish zarurligini tavsiya etadi.

Ilm insonga yaxshilik bilan yomonlikni ajratish imkonini beradi, qalbni poklaydi, ravshanlashtirada, ruhni sog'lomlashtiradi va mustahkamlaydi. Ilm tufayli inson nafs illatlaridan xalos etiladi. Nafs o'z mohiyatini taniydi va pirovard-natijada inson o'zini anglaydi. Shu sababli Beruniy ilm olish, ilm tarqatish hukmdorlarning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini qayd etadi: «Ilm sohalari ko'p, ular yanada ko'paymoqda».

**Jamiyatda qonun ustuvor bo'lgandagina, yovuzlik va undan kelib chiqadigan** ochko'zlik, yirtkichlik, nodonlikka barham berilgandagina ilm-

ma'rifatning oldidagi buyuk vazifasi – insonlar qalbini tozalash, jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish, odamlarni kamol toptirish kabi ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari tug'iladi.

**Pokiza xulq-atvor, go'zal axloq-odob, halollik** ma'rifat va komillik manbaidir. Halol va ma'rifatli, komil kishilar insonlar, millatning yorqin ko'zgusidir. Xuddi shunday kishilar umumxalq va o'zi yashayotgan davlat manfaati va ravnaqi yo'lida qayg'urishga qodirdirlar.

**Komil insonlar** odamgarchilik, mardlik va muruvvatlilik kabi go'zal fazilatlarga ega bo'ladilar. Ular haqida Abu Rayxon Beruniy shunday deb yozadi: «Odamgarchilik, ya'ni muruvvatli, mard kishi o'zidagi va o'ziniki ekanligiga hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi».

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Beruniyning axloqiy, ijtimoiy ideali insonparvarlik, halqparvarplik, adolatparvarlik kabi fazilatlarga ega bo'lgan jo'mard shaxs, komil insondir.

Komil inson g'oyasini yana bir yuksak pog'onaga ko'targan alloma Abu Ali ibn Sinodir. Buyuk donishmand odamlarning jamiyat hayotida bir-birlaridan farqi va bunday farqlanishning asosiy sabablarini ko'rsatadi. Bu masalada asosan, ikki omil ko'zda tutiladi: kishilarning xulq-atvorlari, urf-odatlari va turli xalqlarning yashash tabiiy-geografik shart-sharoitlari.

## 3-§. Mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy me'rosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish masalasi

Alisher Navoiy o'qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida

Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki u ta'lim-tarbiya masalalariga a'lohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tgan. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.



O'z davridagi musulmon ta'lim tizimilarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, ta'lim tizimidorlari ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jarayonini sevishi kerak, deydi. O'ziga xos o'qituvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi. Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta o'quvchiga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta o'quvchi-guruh jamoasini tashkil etadi va ilmu adab o'rgatadi.

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko'rsatadi.

O'z davridagi musulmon ta'lim tizimilarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, ta'lim tizimidorlari ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jarayonini sevishi kerak, deydi. O'ziga xos o'qituvchi

jamiyatda obro‘li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e’zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Bu jarayonda guruh rahbari ko‘p mashaqqatlarga duch keladi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilmog‘i kerak.

Haq yo‘lida senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamoq bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

Komil inson g‘oyasini yana bir yuksak pog‘onaga ko‘targan alloma – Abu Ali ibn Sinodir. Buyuk donishmand odamlarning jamiyat hayotida bir-birlaridan farqi va bunday farqlanishning asosiy sabablarini ko‘rsatadi. Bu masalada asosan, ikki omil ko‘zda tutiladi: kishilarning xulq-atvorlari, urf-odatlari va turli xalqlarning yashash tabiiy-geografik shart-sharoitlari.

Mana shu ikki omilni bir-biriga qiyos qilar ekan, Ibn Sino birinchi o‘ringa jamiyat hayotidagi ahloqiy munosabatlarni qo‘yadi. Chunki axloqiy munosabatlar, uning fikricha xalqning ma’naviy sog‘lomligini belgilaydi, ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishiga yordam beradi, u jamiyatning ma’naviy-axloqiy sog‘lomligi va sobitligini ta’minlaydi. Jamiyatning ma’naviy-axloqiy sog‘lomligi kishilarni o‘zaro hamjihatlikka va hamkorlikka undaydi, ularda bir-birlariga mehr-muhabbat va ishonch tuyg‘ularini shakllantiradi, odamlarni jipslashtirib, har qanday yovuzlik va adolatsizlikning yo‘qotilishi uchun zamin yaratadi.

Komil insonning ma’naviy kamoloti uning go‘zallikka intilishida ifodalanadi. Go‘zallikka erishish vositasi muhabbatdir. Insonning ma’naviy jihatdan kamol topishi uning nafsini tarbiyalash orqali amalga oshadi Bu g‘oyalar Ibn Sinoning «Risola fil-ishq» asarida har tomonlama keng bayon qilingan. Alloma muhabbatga insonni ma’naviy kamolot sari eltuvchi muhim vosita sifatida qaraydi. Insonning ichki go‘zalligi – go‘zal xulqlari, yuksak ma’naviylikka moyilligi ko‘p jihatdan uning tashqi ko‘rinishidagi xusnidan afzalroqdir deydi. Tashqi qiyofasi chiroyli odamning ichki olami mayib, tashqi qiyofasi xunuk odam go‘zal axloqiy sifatlar sohibi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun insondagi jismoniy go‘zallik bevosita uning insoniy nafsi bilan bog‘liq ichki go‘zalligi bilan belgilanmaydi: ichki axloqiy go‘zallikning tashqi go‘zallikdan afzalligi shubhasizdir.



Ibn Sino o‘z asarlarida bir qancha axloqiy fazilatlarga ta`rif beradi. Chunonchi, iffat, hikmat, shijoat, adolat, saxiylik, qanoat, qat’iyat, sadoqat, hayo, kamtarlik va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, alloma ularning aksi bo‘lgan o‘g‘rilik, aldamchilik, fisqu fasod, nafrat, rashk, adovat, bo‘hton, irodasizlik, takabburlik, nodonlik kabi illatlarni ham tavsiflaydi; har ikki turdagi mazkur tushunchalarning bir-biri bilan bog‘liqligini, bir-biriga o‘tib turishini va bunday bog‘lanish ijobiy hol ekanini ta`kidlaydi.

Demak, axloqshunoslik ilmida faqat fazilatlar emas, balki illatlar ham o‘rganilishi zarur. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, xayolan fikrda go‘zal narsalarni mushohada qilish ayni vaqtda olam hodisalarini faol o‘rganish, kuzatish va bilish demakdir. Manna shunday mushohada orkali inson ma’naviy kamolot sari yuksaladi. Bu jarayonda nafsning har uch qismi ishtirok etadi. Nafsning quyi qismlari aqliy (insoniy) nafs bilan hamkorlikda bo‘ladi. Ular ham, ya’ni nafsning kuyi kismlari aqliy faoliyat bilan uzviy ravishda bog‘langan holda kamolotga erishish qobiliyatiga egadir.

Abu Ali Ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o‘rniga alohida to‘xtalib; Farzand tug‘ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo‘yishi, so‘ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Abu Ali Ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o‘rniga alohida to‘xtalib; Farzand tug‘ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo‘yishi, so‘ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi.

**Ibn Sino jamoadan, jamiyatdan ajralib, tarbiya topgan o’quvchining baxtsiz bo’lib qolishini ta’kidlaydi**

Inson o’zining aqliy faoliyati bilan yuksak g‘oyalarni mushohada qilish orqali lazzatlanishi mumkin. Aqliy faoliyatdan mamnuniyatli hisob qilish inson uchun eng oliy darajali lazzatdir. Hissiy lazzatlar (maishat, shahvoniylik) tashqi kuchlarining ta’siri bilan paydo bo’ladi.

Ma’naviy lazzatlanish, mamnun bo’lish nafsning aqliy (insoniy) kuch-quvvatidan paydo bo’ladi va insonni ma’naviy yuksalish sari eltadi.

Shayx Aziziddin Nasofiy komil (yetuk) inson haqida so‘z yuritar ekan, bunday odam yuksak axloqli, o‘zini tanigan, dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan bo‘lishi zarur, deb aytadi. «Bilgilki, - deydi Nasofiy, - komil inson shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytiladilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va ma’orif».

## Ibn Sinoning pedagogik qarashlari

- Alloma asarlarida quyidagi pedagogik va didaktik tamoyillar, o‘quv-tarbiya shakl va usullari xususida so‘z yuritiladi:
- tajriba;
- sabablarning o‘zaro bog‘liqligi tamoyili, tahlil, sintez, umumlashtirish;
- bolani darhol kitob o‘qish bilan bog‘lab qo‘ymaslik;
- jamoa bo‘lib o‘qish;

- mashqlar;
- o‘qitishning asta-sekin, ketma-ketlikda, osonidan murakkabiga qarab o‘tib borish;
- o‘quvchi-talabalarning individualliklarini hisobga olish;
- nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi;
- kuzatish, tajriba, amaliyot va b.

Tarbiyaning muhim sohasi sanalmish jismoniy tarbiya haqidagi o‘zbek mutafakkir olimi, yetuk pedagog **Abdulla Avloniyning** "Turkiy guliston yohud axloq" kitobidan olingan ushbu parchani o‘rganish o‘rinlidir.

"Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. Chunki, o‘qimoq, o‘qutmoq.. o‘rganmoq, va o‘rgatmoq, uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog‘ badanga bo‘lgan insonlar amallarida, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar.

Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yub, astarini yuvub, ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun malham va sog‘lom bir vujud kerakdur”.

**Muomala mahorati**

Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyalanganligi, odobliligi uning muomalasida namoyon bo‘ladi. Muomalaning asosiy vositasi – til. Xalqimizda shunday naql bor: «O‘quvchi shirin so‘zning gadoyi», bas shunday ekan tarbiyachi muomalasida tilga juda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Tili shirin, xushmuomala o‘qituvchi eng obro‘lidir. Husayn Voiz Koshifiy shunday degan edilar: «Haq vaqtini so‘zlar aytursizlar yaxshi so‘zdin bo‘lakni aytmangizlar va ko‘p so‘zlamoq ko‘ngilni qaro qilur» yoki «Mumkin ersa yaxshi so‘z qil oshkor, yaxshi so‘zdin xo‘b yo‘qdur yodgor»; «Nasihatin shirin so‘zu muloyimlik birla ibtido qilgin, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushro‘ylik ko‘rgazmayiy nasihat korga kelmas». Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahoratida eng avvalo til shirinligi, zarurligini ta’kidlab, «Shirin so‘z ko‘ngillar uchun bamisoli asaldir» degan edi.

Kaykovus o‘zining «Qobusnoma» asarida «Suxandonlik bila baland martabali bo‘lmoq» zikrida shunday hikoyatni keltiradi: Xorun-ar Rashid bir tush ko‘rdiki, og‘zidan barcha tishlari to‘kilmish. Erta tong turib, bul tushning ta’birini aytuvchini chaqirib so‘radikim, .. bu tushning ta’biri nedur?», «Andog‘kim, sendan o‘zga yaqinlaringdan hech kim qolmag‘uvsidir». Bu so‘zni eshitibog‘on Xorun ar-Rashid "Mening yuzimga bundoq dardlig‘ va anduqlig‘ so‘zni aytding.

Mening barcha qarindoshlarim o‘lsalar, so‘ngra men qandog‘ ishga yararman va na yanglig‘ ro‘zg‘or so‘rarman?» – dedi va unga yuz tayoq urmoq buyurdi.

So‘ngra yana bir ta’birchini chaqirib, so‘radi. ...Ta’birchi dedi: «Ey amir al mo‘min-in, sening umring barcha aqrabotlaring umridan uzoq bo‘lur». Xorun ar-Rashid dedi: «Barcha aqling yo‘li birdur va ikkovingning ta’biring negizi bir yerga borur, ammo bu iborat bila ul iboratning orasida farq bag‘oyat ko‘pdur». Buyurdi, so‘nggi ta’birchiga yuz tillo berdilar.

Bir donishmand jamoaga qarab: – Bir gapim bor, uni ming so‘mga sotaman, istovchilar bo‘lsa, marhamat! – dedi. Suhbat ishtirokchilari hayron qolishib «qanday gap ekan» – deb so‘rabdilar. Shunda donishmand, bu gap: – «O‘ylab ish qil»! degani, debdi, donishmandning bu g‘oyasidan shuni anglamoq lozimki, o‘ylab ish qilgan odam muomalasida qiyofasi bo‘lishi (bosh, yuz va xatti-harakatlarini odob yuzasidan boshqarishi) kerak ekan. Qo‘pol, odobsiz gaplarga o‘rin qoldirmaslik, o‘quvchi izzat-nafsiga tegadigan qo‘pol muomala qilish o‘qituvchining hurmati va obro‘siga putur yetkazadi.

Pedagog olim Suxomlinskiy muomala mahoratini kuchi va uning yashirin sirlarini "O‘quvchilarga fido" asarida shunday bayon etgan edi: «... Yuksak tuyg‘u madaniyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi bolaning kayfiyati noxushligini darhol fahmlaydi. Bu eng avvalo uning ko‘zidan bilinadi, ...U o‘quvchi ko‘nglidagi tashvishni sezganini, qanday yo‘l bilandur ma’lum qilish yo‘lini topadi. ...Keyin o‘quvchini tanho topib, surishtirishi ham mumkin.

O‘quvchining ahvolini tushunish, unga hamdard bo‘lish, madad berish kerak. Ko‘pincha hamdardlik, rahmdillik, chin ko‘ngildan gaplashish o‘quvchining diliga xush keladigan eng yaqin yordam bo‘ladi. Beparvolik, loqaydlik esa o‘quvchining dilini larzaga soladi!». O‘quvchi qalbini nurafshon qiluvchi vosita o‘qituvchining jonli so‘zi, uning ruhini tushiruvchi ham o‘sha so‘zning bayonidir. Xalqda «Gapdan gapning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor» deb bejiz aytilmagan.

Ekologik bilim bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o‘rtasida bo‘lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo‘llarini o‘zlashtirishdan iboratdir.

Ekologik ta’lim va tarbiyaning tub ma’nosi – bu insonni tabiatga qadam qo‘ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarini ko‘paytirish, bog‘u rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uygotishdan iboratdir.

**Tarbiyachining adolat bilan ish tutish mahorati**

Adolat iymon e’tiqodni, pok niyatga eltuvchi, haqni nohaqdan ajratuvchi bir o‘lchovdir. Adolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir. O‘tmish ajdodlarimiz adolat va adolatsizlyakka alohida e’tibor berib, bu tushunchani siyosiy, falsafiy, huquqiy, axloqiy nuqtai nazardan turlicha talqin etab, komil inson tarbiyasida u katta vosita ekanligani o‘z asarlarida bayon etganlar. Misollarga murojaat qilamiz.

**Amir Temur** saltanatni boshqarishning bosh mezoni adolat deb hisoblagan. U o‘zining pand-nasihatlarida ham yosh avlodni adolatli bo‘lishga chorlaydi: «Har

mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim. ...Qaysi mamlakatni zabt etkan bo‘lsam, o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inilarimdek, yoshlari va o‘quvchilarini bo‘lsa o‘z farzandimdek ko‘rdim» degan edi.



Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mutafakkirlikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o‘zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirish kifoya. “Tuzuki Temuriy” (“Temur tuzuklari”), “Marfuzaota Temuriy” (“Temurning aytganlari”) va “Vakioti Temuriy” (“Temurning boshidan kechirganlari”) jahonga mashhur asarlaridir.

**Voiz Koshifiy** «Axloqi Muhsini» asarida shunday yozgan edi: «Adolat – bu insonlarni bir-biriga yaxshilik ko‘rsatishidir». Adolat va adolatsizlikning asriy ko‘rinishlari insonni qilmishi, harakati, tili, muomala madaniyati, tashqi qiyofasida o‘z aksinn topadi. Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatning atrof-muhit bilan o‘zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o‘rtasida katta tashvish uygotmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o‘zgarib bormoqda.

Tabiatning ekologik barqarorligi, turgunligi va uning tabiiy qonunlarining buzilishiga insonda ekologik bilimlarning yetishmasligi, tabiatning kelajakdagi ekologik holati qanday bo‘lishini oldindan ko‘ra bilmasligi sabab bo‘lmoqda. Bir necha million yillar davomida bunyod bo‘lgan koinotning tabiiy ko‘rinishi keyingi 10-15 yil ichida juda og‘ir holatga tushdi.

Odam har nafas olganda uning o‘pkasiga yarim litrgacha havo kiradi. Odam bir daqiqada 16-18 marta nafas oladi yoki tanaga 8-9 litr havo kiradi. Bu miqdor bir kecha-kunduzda 11 ming litrdan ortadi. Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zurar tabiat in’omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o‘pkada gaz almashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu insonning sog‘lig‘ini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi.

Tabiat shunday odil mo‘’jizaki, u atrof-muhitni muvozanatga keltiradi.

Muhammad alayhissallom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: «Ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo‘ying».

Abu Ali Ibn Sino «Dunyoda chang va tutun bo‘lmaganida, odamzot ming yil umr ko‘rishi mumkin edi» - degan edi. Xalqimiz bog‘ yaratgan odamlarni hech qachon eslaridan chiqarmaydilar. Go‘zal bog‘lar yaratish, yurtni gullar bilan burkash qadimdan eng yaxshi odatlarimizdan biri bo‘lib kelgan. Hayvonot dunyosi – insonning eng qadimiy hamrohidir. Ota-bobolarimiz o‘z farzandlarini tabiatga mehr-muruvvat ruhida tarbiya qilganlar. Beziyon bo‘lgan oddiy qurt-qumursqalarni ham

o‘ldirish gunoh deb ularning qulog‘iga quyganlar. Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning xozirgi asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat (12-rasm):

12-rasm

**Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning xozirgi asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:**

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish. Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va boshqa tarmoqlardagi tabbiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo‘llash ustidan qattiq nazorat o‘rnatish, havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta’sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to‘xtatish.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini, eng avvalo, go‘zani sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kollektor zovur suvlarini daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqova suvlarni chiqarib yuborishni batamom to‘xtatish zarur.

2. Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengaytirishni ta’minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat’iy mezon asosida iste’mol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor.

3. Katta-katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta’minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan tarzda o‘zgartirish lozim.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko‘paytirish hisobiga boshlang‘ich baza sifatida saqlab qolish kerak.

5. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo‘li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish zarur.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e’tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kunda keng ko‘lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo‘lib qolganligini, uning ta’siri hozirning o‘zidayoq biologik muvozanatni buzayotganligini, bepayon hududlarda aholining genofoniga halokatli ta’sir ko‘rsatayotganligini nazarda tutish lozim

Buyuk alloma **Muhammad al-Xorazmiy** (782-847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: «Bilingki, dunyoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar». Dunyoning yoshli ko‘zlari deganda Muhammad al-Xorazmiy nimalarni ko‘zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo‘lishini nazarda tutgandir? U eng avvalo daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishishlari, o‘zaro mehr-muhabbat qo‘yishlarini nazarda tutgan.

**Abu Nasr Forobiy** (870-960) tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, «Kitob xol-hajm va al-miqdor», «Kitob al-mabadi al-insonia» («Insoniyatning boshlanishi haqida kitob»), «Qalam fia’zo al hayvon» («hayvon a’zolari haqida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi.

Forobiy tabiiy va inson qo‘li bilan yaratiladigan sun’iy narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan, degan xulosaga keladi. Inson omilining ta’siri katta ekanligini, tabiiy va sun’iy tanlash hamda tabiatga ko‘rsatiladigan boshqa ta’sirlarni atroflicha baholagan.

**Abu Rayhon Beruniy** «Saydana» asarida 1116 turdagi dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o‘simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 707 tasi esa minerallardan olinadi, har bir o‘simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.

Tarbiyaning muhim sohasi sanalmish jismoniy tarbiya haqida o‘zbek mutafakkir olimi, yetuk pedagog **Abdulla Avloniy**ning "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobidan olingan ushbu parchani o‘rganish o‘rinlidir. "Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. Chunki, o‘qimok, o‘qutmoq.. o‘rganmoq, va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog‘ badanga bo‘lgan insonlar amallarida, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar.

Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh, ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yub, astarini yuvub, ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun malham va sog‘lom bir vujud kerakdur”

## 4. Ma’naviyat - insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbaidir. Ma’naviyatni anglash[7]

Biz odatda ma’naviyat haqida, uning ma’no-mazmuni, hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqida ko‘p gapiramiz. Lekin negadir aksariyat hollarda ko‘pchilik ma’naviyat o‘zi nima, degan savolga aniq va lo‘nda javob berishga qiynaladi.Men bunday holatga o‘z shaxsiy tajribamda ko‘p bor guvoh bo‘lganman. Mas’ul rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tanlashda o‘tkaziladigan suhbat jarayonida ularning professional malakasi, bilimi, tashkilotchiligi, hayotiy tajribasi, insoniy fazilatlari bilan bir qatorda ma’naviy saviyasiga ham alohida e’tibor qarataman.

Va ko‘p hollarda, ma’naviyat haqida beriladigan savollarga har xil, ba’zan esa bir-biriga qarama-qarshi, qandaydir noaniq, sayoz javoblarni ham eshitishga to‘g‘ri keladi. Albatta, «ma’naviyat» tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarini keltirish mumkin. Umuman, o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma’rifatli inson o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va tavsiflar berishi tabiiy.

[7] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch (-T.: “Ma’naviyat”, -2008.) asaridan parchalar.



Shuning uchun ham bu masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir-biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan, ularni har qaysi muallifning o‘ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi yillarda bu mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy risolalar, o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlarda «ma’naviyat» tushunchasi va uning asosiy tamoyillariga o‘ziga xos ta’riflar berilayotganini kuzatish mumkin.

Men bu boradagi fikrlarni inkor etmagan holda, «ma’naviyat» tushunchasining mazmuni faqat «ma’ni», «ma’no» degan so‘zlar doirasida chegaralanib qolmaydi, deb o‘ylayman. Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi. Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o‘z tasdig‘ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo‘lamiz.

Mening nazarimda, «ma’naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi.



Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’nodagi «ma’naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.Mening nazarimda, «ma’naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’nodagi «ma’naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

**Ma’naviyatning negizi va ma’no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar**, birinchi galda insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg‘ayishi haqida gapirar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim.Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o‘zi uchun hayotiy e’tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug‘ olamda ma’naviyat hamisha barqaror bo‘lib keladi.Lekin, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo‘lib yashaydigan, hayotning ma’no-mazmunini o‘zicha talqin qiladigan shaxslar ham oz emas. Ming afsuski, ular o‘zini xuddiki dunyoning haqiqiy egasidek, bekamu ko‘st, boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek,

baxt qushi boshiga qo'ngandek his qilishga urinadi.Tabiiyki, bunday holatlarni ko'rib-kuzatib, o'zi uchun ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib qo'ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo'lishi mumkin. Odamlarni o'ylantirib qo'yadigan bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Bunga qanday izoh berish mumkin? Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azobu uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi.Agarki e'tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, «Yo'lini topibdimi, qandini ursin», «Uzumini eng-u, bog'ini surishtirmang» degan maqollar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi.

Binobarin, biz hayotning ma'no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz. Lekin, mening nazarimda, bunday gaplar odamning boylik va mol-dunyoni qanday yo'llar bilan topayotganiga loqayd va beparvo qaraydigan, manfaatparast shaxslar tomonidan to'qib chiqarilgandek tuyuladi. Ularning fikricha, inson o'z boyligini peshona teri to'kib, Olloh bergan aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing'ir-qiyshiq, harom-xarish yo'llar bilan orttiryaptimi - bu go'yoki hech kimni qiziqtirmasligi kerak.

## 3-mavzu. O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH, IDORA QILISH VA TARBIYALASH

### REJA:

1. O'zini-o'zi boshqarishning nazariy asoslari
2. O'zini-o'zi idora qilish metodlari
3. O'zini-o'zi tarbiyalash metodlari va shakllari

### TAYANCH IBORALAR:

Shaxs, mulohaza va munozara usuli, muloqot, tarbiya nazariyasi, tarbiya jarayoni, faoliyat, idrok , shaxs, o'quvchi, tarbiya, suxbat, muomala, axborot vositasi, o'qituvchi rahbar, axloq va h.k.

### 1. O'zini-o'zi boshqarishning nazariy asoslari

O'zini-o'zi boshqarish darajasi hayotning turli bosqichlarida turli odamlarga bir xil bo'lavermaydi. O'zini-o'zi nazorat darajasi, shaxsiy boshqarishi u yashayotgan va mehnat kilayotgan muxitga bog'lik. Bundan tashkari  uning shaxsiy sifatlari,

zakovati, gayrati, fe'li, ruxiy va jismoniy, kolaversa nasl-nasabiga bog'lik. Nizoli va tang holatlar yuzaga kelganda ayrim odamlar o'zini-o'zi boshqara olmaydi, ba'zilari esa oddiy xollarda o'zini yo'qotib kuyadi. Inson o'zining fikrlari, xulqiga doimo tanqidiy yondashishi, hayot talablari va o'z imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

Talaba shaxsi ta'lim jarayoni davomida ham, ta'limdan tashkari vaqtda ham shakllanib boradi. Talabaning shaxs sifatida kamol topishida pedagogning, ota-ona, kuni-kushni va mahallaning ta'siri nixoyatda katta, ammo har bir talaba, talaba o'z ustida tinmay ishlashi, o'zini-o'zi bilim darajasini, madaniyatini, tarbiyasini, ma'naviyat va ma'rifatini yuksaltirish ustida ish olib borishi zarur.

Masalan, ijtimoiy hayotni boshqaruv nazariyasi shu sohani boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlar tartibi va bosqichlarini aniqlab beradi (13-rasm).

13-rasm




Boshqaruv nazariyasi nisbatan yangi va istikbolli fan tarmog'i bo'lib, ob'ektiv borlikni ilmiy bilishga asoslanadi. U o'z faoliyatini bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlar zamirida kuradi. Akademik Todor Pavloning aytishicha, istisnosiz barcha fanlar pirovard maqsadda boshqaruvga xizmat kiladi. CHunki har qanday ilmiy tadqiqot olib borishdan maqsadi – tabiat, jamiyatdagi ob'ektiv qonuniyatlarni aniqlab, ularni inson extiyojiga xizmat kildirishdir. Bu esa – boshqaruv. Boshqaruv jarayonining moxiyati va qonuniyatlarini aniqlash, bu jarayonda sodir bo'ladigan munosabatlarni ochib berish, uning tizimini ishlab chiqish va boshqaruv sub'ektining asosiy tamoyillarni ishlab chiqish boshqaruv nazariyasining vazifalaridir. SHu munosabat jamiyatning ob'ektiv ijtimoiy qonuniyatlari hamda boshqaruv qonuniyatlari orasidagi uzviylik boshqaruvni to'g'ri amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham boshqaruv jarayonini shakllantirishda ijtimoiy fanlardagi qonuniyatlarga suyanish kerak.

Boshqaruv sub'ekti va boshqarilish ob'ekti orasidagi munosabatlar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish nazariyasi tadqiqot predmetiga kiradi. Boshqaruv munosabatlari muayyan bir maqsadga intilgan kishilarning o'zaro qonuniy ravishda kelishib kilgan harakatidir. Ammo ayrim shaxslar va ijtimoiy guruhlar boshqarilishi jarayonida bir xil vazifani bajarib, bir xil ahamiyat kasb etmaydilar.

Boshqarilish jarayoni hamma vaqt «boshqaruv organlari» deb nomlangan maxsus ijtimoiy guruhlar tomonidan amalga oshirib kelingan. Ular ijtimoiy jarayonlarning kechish qonuniyatlarini o'rganib chiqib, ularni maqsadga yo'naltiradilar va nazorat qilib turadilar.

Boshqarish maqsadida olib borilgan munosabatlarni boshqa ijtimoiy munosabatlardan, jumladan, ishlab chiqarish, axloq-odob, o'zaro muloqot va boshqalardan farqlash uchun ular faqat jamiyatni tartibga soluvchi munosabatlar ekanini anglash kerak. Ular boshqarilish jarayonining umumiy faoliyatidan kelib chiqib, jamiyatdagi mavjud qonuniyatlarga asoslanadilar. Boshqaruv deb tegishli qonuniyatlar asosida (bu jarayonni optimallash orkali) boshqariluvchi majmuani bir holatdan ma'lum bir boshqa maqsadga mos holatga keltirishga aytiladi. Buni majmuani iqtisodiy boshqarish deyiladi. Ijtimoiy jarayonlarni boshqarish nazariyasining asosiy vazifalaridan biri boshqarishni tashkil qilish qonuniyatlarini aniqlab berishdir. Jamiyatning asosiy uch ijtimoiy jabhadan iborat ekanligi 14-rasmda ifodalandi (14-rasm):

Ijtimoiy hayotni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qilish uchun boshqariluvchining muayyan holati to'g'risida to'liq va ob'ektiv ma'lumotga ega bo'lish kerak. SHuning uchun ham boshqarilish holatiga kelishdan oldin boshqaruv jarayonining ilmiy asoslangan loyihasi, undagi tamoyillar, qo'llaniladigan uslublar, boshqarilish bosqichlari va boshqa jabxalar ijodiy ishlab chiqilib, qog'ozga tushiriladi. Bunga majmuani ilmiy boshqarish deyiladi.

Boshqaruvning ilmiy jihatdan amalga oshirishda asosiy omillardan biri boshqaruv jarayonini iqtisodiy jihatdan asoslab berishdir. Bunga boshqariluvchi ob'ektni muayyan holatdan jamiyatga kerak bo'ladigan holatga o'tkazish jarayonida sarflanadigan kuch, mablag' va vaqtni hisoblab chiqish hamda ularni jalb qilish manbalarini aniqlash, bu jarayon amalga oshgandan keyin jamiyatga keladigan ijtimoiy va iqtisodiy samaralarni ko'rsatib berishi kerak.

14-rasm

**Jamiyatning asosiy uch ijtimoiy jabhasi**




Boshqaruvni tashkil qilish organlari deganda, jamiyat hayotini boshqarish maqsadida birlashgan kishilar jamoasiga aytiladi. Ular tuzilishi jihatidan piramidasimon shaklga ega va bir-biriga buysingan bosqichlardan iboratdir. Boshqaruvning bu bosqichini ma'muriy boshqarish deyiladi. Ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning maqsad va strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Arastu o’z vaqtida aytganidek, har doim va har joyda ezgulikka etishish ikki shartning bajarilishiga: 1)har qanday faoliyatning yakunidagi maqsadni to’g’ri belgilashga; 2) pirovard maqsadga erishish tadbir va choralarini izlab topishga bog’likdir. Boshqaruvning maqsadi va ko’rsatgichlari o’zgarmas narsa emas, maqsad amalga oshishi bilan birga ular ham o’zgarib turadi. **Har qanday jamiyat uch ijtimoiy jabha (hayot)dan tashkil topadi**, ular o’zaro uzviy bog’lik bo’lib, birgalikda «jamiyat hayoti» degan kompleksni tashkil kiladi.

**Ijtimoiy hayot**. Inson o’zini o’zi namoyon qilishini ijtimoiy hayot jabxasi deyiladi. Bu jabxada kishi o’qiydi, dam oladi, fukaro sifatida, shaxs sifatida, oila va millat a’zosi sifatida o’zini namoyon kiladi, hamda jamiyat ishlab chiqkan moddiy va ma’naviy boyliklardan foydalanadi. Jamiyatning farovonligi (15-rasm):

15-rasm

**Jamiyatning farovonligi** –

har bir jamiyat a’zosi o’zini to’la namoyon kila olish sharoiti bilan belgilanadi. Siyosiy va iqtisodiy jabxalarning pirovard maqsadi va faoliyatning samaradorligi ijtimoiy faoliyatga to’liq sharoit yaratilganligida ko’rinadi. Demak, iqtisodni rivojlantirishda boshqaruv idoralari jamiyatni to’g’ri yo’ldan eltishni o’z faoliyatining asosiy mezoni qilib olishadi

**Siyosiy hayot.** Jamiyatni boshqarish jarayonida «davlat» deb nomlangan va boshqarishning mas’uliyatini zimmasiga olgan, maxsus bilim va iktidorga ega bo’lgan muayyan bir ijtimoiy guruhning boshqa barcha ijtimoiy guruhlar bilan, ularni tinchlik va farovonlikka boshlash maqsadida, amalga oshiriladigan munosabatlari ichki siyosat deyiladi. Demak, boshqaruvga aloqador mas’ul kishilar tinchlik va farovonlikka erishish mezonlarini va jamiyat taraqqiyotining bokiy qonuniyatlarini to’liq bilishlari va shu qonuniyatlar asosida o’z siyosatlarini shakllantirishlari shart.

Barcha ijtimoiy guruh vakillari, boshqacha qilib aytganda, butun fukaro kayokka boshqarilayotganliklarini va unga erishishning yagona to’g’ri yo’li shu ekanligini yaxshi bilishlari shart. SHundagina ular siyosiy hayotda faol katnasha oladilar. SHundagina demokratik jamiyatga erishish mumkin.

**Iqtisodiy hayot.** Inson boshqa mavjudodlardan o’zining bunyodkorlik faoliyati bilan ajralib turadi. U tinmay moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratadi. Bunday boyliklarni yaratishda mahsulot ishlab chiqarish, uni saqlash, savdo-sotik va boshqa sohalar ishtirok etadilar. Bu sohalar o’zaro uzviy bog’lik bo’lib, jamiyat iqtisodiyotini tashkil kiladi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, Markaziy Osiyo xalqlari o’zining ijtimoiy hayotini kup kismini oilada o’tkazar ekanlar. SHundan kelib chiqib, fukarolarning oilaviy sharoitlariga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Ikkinchi navbatda ma’rifat sohasi turadi, chunki ma’rifat sohasida kishi ham ishchi, ham oila a’zosi, ijtimoiy guruh va millat sifatida shakllanadi va rivojlanadi.

Ma’rifat sohasiga e’tibor sust bo’lgan jamiyatda yaxshi mutaxassislar, bilimdon olimlar yetishib chiqishi qiyin. Davlat iqtisodiy va ma’muriy boshqarishni to’liq o’z zimmasiga olgan bo’lsa, ijtimoiy sohani boshqarishda faqat iqtisodiy va ma’muriy ta’sir etish yo’li bilan ishtirok etadi. Ijtimoiy sohani boshqarish turlati (16-rasm):

16-rasm

**Ijtimoiy sohani boshqarish turlati**




**Ilmiy boshqaruv**. Bunda ta’lim-tarbiya sohasining avvalgi holati atroflicha taxlil kilinib, uning ko’rsatkichlari ijtimoiy byurtmaning ko’rsatkichlariga muvofiq keladiganlari rivojlantiriladi, muvofiq kelmaydiganlari o’zgartiriladi. Bu vaqtda butun ta’lim-tarbiya jarayonining tizimi, uning bosqichlari, har bir bosqichda beriladigan bilimlar mazmuni, ta’lim-tarbiya bilan shug’ullannuvchilarni ijtimoiy muxofazalashning ilmiy asoslangan loyihasi, bajarilishi shart bo’lgan ishlar, ularning ketma-ketligi va bajarilish muddatlari, boshqaruvni amalga oshiruvchi mo’tassaddilar va bu jarayonning tadbir choralari ishlab chiqiladi. Odatda bu ilmiy asoslangan loyiha bir necha variantlarda tuziladi.

**Iqtisodiy boshqaruv**. Bu bosqichda ta’lim-tarbiyani maqsadga mos holatga keltirish uchun boshqarish bosqichida rejalashtirilgan ishlarni bajarishga ketadigan sarf-harajatlar mikdori aniq hisoblanib, moliyaviy ta’minlanish manbalari hamda huquqiy asoslari ishlab chiqiladi.

Boshqaruv jarayonining muvaffakiyatli kechishi kup jihatdan iqtisodiy boshqaruv bosqichining ilmiy asosda xal kilinishiga bog’likdir. Iqtisodiy boshqaruv bosqichi to’g’ri xal kilinishi uchun bajariladigan ishga ish xaki to’g’ri belgilanishi, moliyaviy manbalari aniq va barkaror bo’lishi, hamda bu jarayonning barcha masalalari iqtisodiy qonuniyatlardan kelib chiqib bajarilishi zarur.

**Ma’muriy boshqaruv bosqichi**. Bu boshqaruvning eng so’nggi bosqichi bo’lib, uni muvaffakiyatli amalga oshirish uchun boshqaruv modelini to’g’ri to’zib chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu uch bosqich o’zaro uzviy bog’lik bo’lib, «boshqaruv» degan ijtimoiy xodisani tashkil kiladi.

Har qanday faoliyat sohasining, ayniqsa, ijtimoiy sohalarning, shu jumladan ma’rifat sohasi faoliyatining samaradorligiga erishishda uning ilmiy tadqiqot ishlarini tartibga keltirish va rivojlantirishdan boshlash kerak.

Talabalarni olingan bilimlarni hayotda qo’llay bilishga o’rgatish zarur. Bunga quyidagilar kiradi: o’zini-o’zi boshqara olish; ijtimoiy talablarni ongli ravishda

bajarish; siyosat, huquqshunoslik, iqtisodiyot, ekologiya va boshqa fanlardan olgan bilimlariga amalda rioya qilish, tabiat va jamiyatdagi vokealarni mustaqil taxlil kila bilish. SHunday holatga erishish kerakki, bilim kishining barcha harakat va faoliyatining asosi bo'lib kolsin.

SHaxsga ma'rifiy fikrlashni o'rgatish, umumiy ruxshunoslik qonuniyatlarini berish lozim. CHunki bugungi talaba ertaga ota-ona, rahbar, tarbiyachi bo'ladi. Undan tashkari, har qanday shaxs o'zi bilan muloqotda bo'lgan kishilarga ozmi-kupmi tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqarish tamoyillari bilan birga uning vazifalari ham mavjud. Boshqarishning vazifasi kishilarning sub'ektiv faoliyatini birinchi navbatda boshqarish sohasidagi faoliyatini ob'ektiv qonunlarning talablariga ana shu qonunlar belgilab beradigan progressiv tendenstiyalarning talablariga muvofiqlashtirishdan iborat. SHu sababli iqtisodiy qonunlarning moxiyatini, ularni amal qilish sharoitini bilish xalq xo'jaligining hamma bosqichlarida ilmiy asosda boshqarishni tashkil etishning eng muhim omili hisoblanadi. SHunday ekan boshqarishning quyidagi vazifalari (funkstiyalari) amal kiladi: rejalashtirish, muvofiqlashtirish, ishlab chiqish, o'zgartirish kiritish, nazorat qilish.

Ma'lumki, birinchi chakirik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul kilingan edi. Ushbu qonunning 10-moddasida ta'lim turlari bayon etilgan bo'lib, unda o'quv muassasasigacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, o'quv muassasasidan tashkari ta'lim kabilarni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi. SHunday ekan, ushbu ta'lim muassasalarini ham boshqarish nazardan chetda qolmaydi.

## 2. O'zini-o'zi idora qilish metodlari

*O'zini-o'zi idora qilish metodlari* talabalar o'quv faoliyatining muhim elementlaridan biridir. SHunday bo'lsa-da, ko'pchilik talabalarning o'quv malakalari orasida aynan o'zini-o'zi idora qilish metodi juda bushlig'idan ko'pgina tadqiqot ham dalolat beradi. SHu tufayli talabalarda o'zini-o'zi idora qilish mahoratini shakllantirishni yaxshilashga yo'naltirilgan maxsus ishlarni amalga oshirish lozim bo'lib qoldi. O'zini-o'zi nazorat qilish va hisob berish (17-rasm).

Talabalarga uy vazifasini bajarayotganda o'zini-o'zi tekshirishning quyidagi usullarini qo'llashni tavsiya etish lozim. Darslik matnini o'qib chiqilgandan so'ng uning muhim joylarini ifodalovchi qisqa rejani mustaqil tuzish, so'ngra shu rejadan foydalanib matnni asosiy mazmunini gapirib berishni, har bir mavzu, reja oxirida keltiriladigan nazorat savollari yoki pedagog uy vazifasi berayotganida sodir bo'ladigan savollar ustida maxsus ishlashni, agarda bunday savollar bo'lmasa, javob rejasini matn yuzasidan nazorat savollari ko'rinishida tuzishni ularga topshirish tavsiya etiladi. Bunday ish usulini barcha guruhlarda qo'llash mumkin. Talabalarga masalalarning echilishi, mashqlarning to'g'ri bajarilganligini tekshirishning xilma-xil usullaridan foydalanishni tavsiya qilish lozim. Bu usullar turli predmetlar uchun o'ziga xosdir. Masalan, iqtisodiyot fanlari natijani taxminan solishtirish, echimni javobga taqqoslash, bir iqtisodiy amalni boshqalari (teskarilari) bilan taqqoslashlar

o’tkaziladi. Bo’lishning to’g’riligi ko’paytirish bilan, ayirish-qo’shish bilan va analiz qilish bilan amalga oshiriladi.

17-rasm

**O‘zini-o‘zi nazorat qilish va hisob berish**

o‘z faoliyati natijalarini hisobga olib borishni, bugun qilingan ishlarni umumlashtirishni, o‘z hulkiga baho berish va uni analiz, ya’ni tahlil qilishni talab etadi va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning maksadi, vazifalarini qaytadan kurib chikish, o‘z ustida ishlashning yangi dasturini tuzib chiqish bilan tugallanishi kerak. SHuning uchun ham ta’lim muassasalarida birinchi navbatda, o‘quvchi-talabalarni o‘zini-o‘zi tekshirish yuzasidan hisobot tayyorlashga odatlantirish, ularning hisobot berishining muhim sharti o‘quvchi-talabalar jamoasida sog‘lom tanqid va o‘zini-o‘zi tanqidning bo‘lishidir, aks holda hisobot maqtonchoqlikka o‘zini-o‘zi ta’riflashga aylanib ketishi mumkin

Talabalarga olingan natijaning to’g’riligini tekshirishni o’rgatish foydalidir. Nazorat va o’zini-o’zi nazorat qilish metodlarini o’zaro moxirona biriktirish barcha o’quv predmetlari bo’yicha ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu metodni nafaqat o’quv muassasasilarda qo’llash mumkin, balki ta’lim muassasasi va listeylarda, oliy o’quv yurtlarida ham qo’llash maqsadga muvofiq bo’lar edi.

YUqorida yozilganidek, talaba va talabalar uy vazifasini bajarayotganlarida, talaba talabadan farq kilinishini unutmaslik lozim. Talaba albatta bitta darslikdan foydalanib, o’zini-o’zi nazorat kilsa, talaba undan bir pogona yuqori bo’lgani uchun bitta adabiyot bilan cheklanib kolmasligi kerak. Balki kushimcha adabiyotlarni kutubxonalardan kidirib, yoki xozirgi kunda zamon talabiga javob beradigan internetdan foydalanib, uy vazifalarini mustaqil bajarishi mumkin. SHunda talaba mustaqil izlanishga, mustaqil fikrlashga o’zini ustida ishlashga hamda o’zini-o’zi nazorat qilishga o’rganadi va ko’nikma hosil kiladi. Bu zamon talabiga javob beradigan metodlardan biridir. Undan tashkari yana bir metodni qo’llash mumkin. YA’ni o’zi mustaqil shu predmetga, mavzuga taalluqli bo’lgan savollarni, testlarni to’zib, mustaqil javob berishi va yangiliklarni yaratishi mumkin. SHuningdek ilmiy ishlar ham qilishi mumkin.

## 3. O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari va shakllari

O‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayonida qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchi-talaba shaxsining ideallari, hayotiy maqsadlari, tutgan yo‘li, asosiy ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog‘likdir. O’zini-o’zi tarbiyalash metodlari (18-rasm).

18-rasm

## O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari:

- **shaxsiy majburiyat** (kunlik, haftalik yoki oylik bajarilishi mumkin bo’lgan ishlarni rejalashtirish);
- **o‘z ishi haqida hisobotlarni nazorat qilish** (ushbu rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishini nazorat qilish);
- **xatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi tahlil qilish** (rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishini tahlil qilish, yani nima bajarildi-yu, nimalar bajarilmadi);
- **o‘ziga-o‘zi baho berish** (rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishi nazorat ba tahlil qilinganidan so’ng o’ziga-o’zi baho berishi, yani hamma rejalashtirilgan ishlar bajarildi – a’lo, ayrimlari bajarilmadi o’ta yoki qoniqarli, deb baho beriladi va o’zini-o’zi rag’batlantiradi)

Ular tarbiya jarayonidagi ishontirish metodlariga qo‘shimcha buladi. Ayniqsa, tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, u tarbiyachidan yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lishni, tarbiyaviy ta’sir vositalari va metodlarini samarali qo‘llashni taqozo etadi.

Har bir o‘quvchi-talabaning imkoniyatlarini ko‘ra olish va baholashda kuchi etadigan istiqbolni belgilashda, iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi. O‘quvchi-talaba o‘zini-o‘zi tarbiyalash borasida istiqbolini yaratishga intilishi hayotda ma’lum mustaqillikka intilishda namoyon bo‘ladi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash oilada va o‘quv muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning ta’siri ostida ro‘y beradi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash jamoadagi shaxslarda faolroq amalga oshirish mumkinligi ularda iroda, tirishqoqlik intizomini tarbiyalaydi.

O‘qituvchi-pedagoglar qo‘llayotgan tarbiya metodlari va vositalari ta’sirida o‘quvchi-talabalarning ongida va xulqida, o‘z shaxsini o‘zgartirish, kundalik faoliyatida o‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o‘z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, hatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘ziga-o‘zi baho berish istagi vujudga keladi.

Har bir o‘quvchi-talaba o‘zini-o‘zi tarbiyalasa, aql-farosatni ishga solmasa tarbiyadan ko‘zlangan maqsad va natijaga erishib bo‘lmaydi. Har bir o‘quvchi-talaba o‘zining xulq-atvoriga talabchan bo‘lishi va o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarning tarkib topishi uchun faol bo‘lib astoydil tirishmog‘i lozim. O’zini-o’zi tarbiyalash deyilganda (19-rasm).

O‘zini-o‘zi tarbiyalash o‘qituvchi-talabalarning o‘z oldida muayyan vazifa qo‘ya olishini, uni bajarishda ichki ishtiyoq bilan bajarish jarayonida shu vazifani bajarishi mumkinligini anglashni. Nima qilganligi haqida hisobot berilishini nazorat qilishni va to‘plangan vazifalarni aniq natijalarga qarab baho berishni o‘z ichiga oladi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o‘z ishi haqida hisobotlarni tahlil

qilish, xatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘ziga-o‘zi baho berish metodlariga bo‘linadi.

O‘zini-o‘zi tarbiyalash o‘qituvchi-talabalarning o‘z oldida muayyan vazifa qo‘ya olishini, uni bajarishda ichki ishtiyoq bilan bajarish jarayonida shu vazifani bajarishi mumkinligini anglashni. Nima qilganligi haqida hisobot berilishini nazorat qilishni va to‘plangan vazifalarni aniq natijalarga qarab baho berishni o‘z ichiga oladi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o‘z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘ziga-o‘zi baho berish metodlariga bo‘linadi.

19-rasm

**O‘zini-o‘zi tarbiya-lash –**

bu o‘z irodasini, his-tuyg‘usini, kayfiyatini boshqarishga, nojo‘ya harakatlardan o‘zini tiyishga yoki to‘g‘ri xarakatni har qanday sharoitlarda ham davom ettirishga qaratish demakdir. Tevarak-atrofidagi muhit bilan shaxs o‘rtasida ixtiloflar va o‘zaro kelishmovchiliklar chiqishiga, o‘zaro tushunmovchiliklarga, yakkalanib qolishga ko‘pincha sababchi bo‘ladigan jizzakilik, beparvolik kabi salbiy xislatlar ahloqiy nuqsonlargina bo‘lmay, balki irodaviy nuqsonlar hamdir. O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlarini qadimgi yunon (grek)lar qo‘llagan, u aslida «oddiy kerak, hohlayman va bajaraman» degan ma’noni bildiradi. Aytaylik, serjahl shaxs vazmin bo‘lish kerakligini, odatlanganidek emas, boshqacha yashash, ish yuritish zarurligini tushunish – bu o‘zini-o‘zi ishontirishning boshlanish davri hisoblanadi

O‘qituvchi-pedagoglar yoshlarda uquvli o‘zini tuta bilish, odamlar bilan qay yusinda muomala qilish, rost so‘zlash, kattalarga hurmatda bo‘lish, o‘zidan kichiklarga mehribonlik ko‘rsatish kabi ahloqiy barkamollik fazilatlarini shakllantirishlari lozim. Umuman, o‘quvchi-talaba shaxsini o‘zini-o‘zi tarbiyalash ahloqiy barkamollikka ishtiyoq tug‘dirishdir.

Zero, **o‘zini-o‘zi tarbiyalash shakllari** shaxsni o‘z kuchi, layoqati va qobiliyatini ishga solishga undaydi, uning ideallarini, shaxsiy mulohazalarini, e’tiqodini tarkib toptiradi. Natijada, o‘quvchi-talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayoniga aylanadi (20-rasm).

Keyinchalik shaxs u yoki bu holatlarda o‘zini qanday tutishni yaqin kishilari, qarindoshlari, shuningdek, o‘qituvchi-talabalar, ish joyidagi hamkasblarining o‘ziga, ta’lim muassasasidagi hamkurslariga nisbatan munosabatini ko‘z oldiga keltiradi, o‘zi

kutayotgan hursandchiliklarni yoki ko‘ngilsizliklarni fikran boshdan kechiradi. Natijada, ijobiy tomonga o‘zgarishga bo‘lgan zaruriyat «SHunday bo‘lishni xohlayman» degan topshiriqqa aylanadi, o‘zini-o‘zi ishontirishning uchinchi davrida o‘z istagiga erisha olish mumkinligiga ishonch hosil bo‘ladi.

20-rasm

**O‘zini-o‘zi tarbiyalash shakllari**

**O‘zini-o‘zi tarbiyalash shakllari**

- **O‘zini-o‘zi ruhlantirish**
- **O‘ziga-o‘zi buyruq berish**
- **O‘zini-o‘zi ishontirish yoki qoralash**

**O‘zini-o‘zi ruhlantirish** – o‘zini tarbiyalashning boshlanish davrida qo‘llaniladi. Bu davrda o‘z kuch va qobiliyatlarini sinab ko‘rish maqsadida foydalaniladi va u ham shaxsning o‘zini-o‘zi bilishi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi (21-rasm).

Masalan, sport, madaniy yoki o‘tkir zehnlilar zakovat klublariga, xavaskorlik va turli fan to‘garaklari qatnashchilari — o‘quvchi-talabalar o‘zlari boshlagan ishlarda, mashqlar va topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelganda, biror ishi yurishmayotgan, mashqiy xarakatlari qovushmayotgan yoki topshiriqlarni bajaraolmayotgan bo‘lsada: “YOmon emas, yaxshi bo‘lishi kerak!”, «Endi ancha durust! YAna bir oz zo‘r bergin!» – deb o‘zini ruhlantiradi. O‘zini-o‘zi ruhlantirish, ayniqsa, har bir shaxs ijobiy namunaga intilganda kuchli ta’sir etadi. O‘ziga-o‘zi talabchan bo‘lib, «Boshqalar qila oladi-ku demak, uni men ham qila olaman» – deydi

**O‘zini-o‘zi ruhlantirish** (ma’qullash) –

O‘zini-o‘zi ruhlantirishni o‘ziga ortiqcha ishonish, katta ketish, maqtanishdan farq qilish lozim. Ba’zan ayrim o‘quvchi-talabalar “Nima, agar o‘zim hohlasam, buni men ham bajarishim mumkin” deb maqtanadilar. Lekin ular unday yoki bunday harakatni bajarish uchun uni bilish, malakaga ega bo‘lish zarurligini ko‘pincha tushunib etmaydilar. O‘zini-o‘zi ruhlantirish o‘zini analiz, ya’ni tahlil qilish bilan birga namoyon bo‘ladi. Har bir o‘quvchi-talaba o‘zi, o‘z kuchi va qobiliyatlari haqida qachonki to‘g‘ri va aniq tasavvurga ega bo‘lsa, unda o‘zini-o‘zi ruhlantirish shuncha samarali bo‘ladi

SHaxs qiyin ahvoldan qanday qutilganini, murakkab vaziyatdan chiqib ketaolganini eslaydi, o‘z kuchi, irodasini analiz ya’ni tahlil qiladi, o‘zini «harakat qilishga, boshqacha odam bo‘lishga» undaydi (22-rasm).

22-rasm

**O‘zini-o‘zi ishontirish –**

izchillikni maxsus psixologik (ruhiy) mashq qilishni talab etadi. Masalan, kishi ertalab uyg‘ongandan keyin: «Rohat qilib uxladim, bugun bajaradigan ishlarim, boradigan joylarim ko‘p, tetik va dadil bo‘lishi kerak. Buning birdan-bir yo‘li ertalabki gimnastika. Qani tur o‘rningdan, mashqni boshla!» deydi va darhol gimnastika mashqlarini bajarishga kirishadi. Ikki-uch hafta davom ettirilgan mashqlardan keyin kishi hamma vaqt ruhan tetik, jismonan sog‘lom, mehnat faoliyatiga osongina va kayfiyati chog‘ kirishadigan bo‘lib qoladi. Har bir ish uchun mana shunday o‘zini-o‘zi ishontirish shakllarini tayyorlash va qo‘llash mumkin

**O‘ziga-o‘zi buyruq berish** – o‘zini majbur etish kuchli irodani talab qiladi. Bunday faoliyat kabul qilingan karorni bajarish uchun barcha kuchlarini to‘plash, o‘zini faol ishlashga, xarakat qilishga majbur etishdan iboratdir. O‘zini majbur etish ayniqsa, o‘z kamchiliklari va nuqsonlarini bilganda va ularni bartaraf etishda qo‘llaniladi. Buning uchun esa shaxs o‘z irodasini ishga solish, o‘zini qat’iy intizomga bo‘ysunishga odatlantirishi zarur. O‘zida kuchli irodani tarbiyalashni xohlagan shaxs birinchi navbatda boshlagan ishini oxiriga etkazishi, bir yo‘la ko‘p ishga qo‘l urmasdan, oldin bittasini, keyin ikkinchisini bajarishi, vijdonan ishlashi, vaqtincha yuz bergan muvaffaqiyatsizliklardan esankiramasligi (birinchi marta va takror bajarishga) o‘z injiqliklarini jilovlashi, o‘z xato va kamchiliklarini bartaraf etish ustida ishlashi, hattoki o‘zi uchun qiziqarli narsalardan ham kerak bulganda voz kecha bilishi kerak. O‘zini-o‘zi tarbiyalash deyilganda (23-rasm).

**O‘zini-o‘zi ishontirishga** oxirgi yakuniy davrida shaxs o‘zini xuddi boshqacha shaxs bo‘lib qolgandek his etadi. Og‘ir damlarda u o‘ziga «Sen o‘zingni tuta biladigan odamsan, o‘ylab ko‘r-chi, shu arzimagan narsa uchun o‘zingni va boshqalarning asabini buzish yaxshimi? Ha barakalla! Mana sen o‘zingni qo‘lga olding, endi nima deyish, qanday javob berish qoldi. O‘ylab ko‘r, sen eslik odamsan-ku! Yo‘q bu bo‘lmaydi. Mana bu yaxshiga o‘xshaydi. Ko‘raylikchi, bundan nima chiqadi. Mana hammasi to‘g‘ri. Qani boshla, ishga kirish» kabi o‘zini-o‘zi ishontirish, o‘ziga-o‘zi buyruq berishga aylanadi.

**O‘zini-o‘zi qoralash** shaxsda iroda, kuch etishmaganda, erinchoqlik va sustkashlikni engish istagi paydo bo‘lganda qo‘llaniladi. Buning tub mohiyatini

noto‘g‘ri tushunish natijasida o‘zini qoralash o‘rniga o‘zini erga urish, o‘z kuchi va qobiliyatlarini kamsitib baholash hollarida uchraydi.

23-rasm

**O‘zini-o‘zi tarbiyalash**

O‘zini-o‘zi tarbiyalashni faollashtirish, o‘z ustida ishlashda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishda o‘zini rag‘batlantirish va nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Bular o‘zini-o‘zi ma’qullash, ruhlantirish, qoralash, tekshirish, o‘ziga-o‘zi hisobot berishdan iboratdir. “To‘g‘ri, barakalla, ishni shunday davom ettiraver” deb, o‘zini-o‘zi ma’qullash o‘quvchi-talabani ruhlantiradi, unda yanada muvaffaqiyat qozonish istagini uyg‘otadi. O‘zini-o‘zi ma’qullashni o‘z faoliyati natijalariga tanqidiy qaramaslik natijasida paydo bo‘ladigan o‘zini-o‘zi sevishdan farq qilmoq lozim. O‘zini-o‘zi ma’qullash o‘zini-o‘zi tanqid bilan birgalikda namoyon bo‘ladi

Masalan, ayrim hollarda ba’zi bir shaxslar “Bari bir mendan hech kim chiqmaydi”, “bunga qurbim etmaydi” deb loqayd bo‘lib qolishadi, o‘zlarining ichki kechinmalariga berilib, tevarak-atrofdagi, dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar bilan qiziqmay qo‘yadi. SHunday ekan, o‘zini-o‘zi qoralash, odilona o‘zini-o‘zi ma’qullash va ruhlantirish bilan bog‘langan bo‘sagina o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayonini faollashtira oladi.

## 4-mavzu. PEDAGOGIK MAHORAT VA PEDAGOGLIK TEXNIKA

### REJA:

1. Pedagogik mahoratning predmeti, maqsad va vazifalari
2. Pedagogik mahorat tushunchasi va tuzilishi
3. Pedagogik faoliyat va mahorat
4. Pedagogik texnika

### TAYANCH IBORALAR:

Pedagogik mahorat; pedagogik qobiliyat; ishontirish, pedagogik ta’sir usullari, talab, istiqbol, rag’batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri, ta’sir etish texnikasi, nutq texnikasi: pedagogik texnika, nutq malakalari, mimika, pantomimika

### 1. Pedagogik mahoratning predmeti, maqsad va vazifalari

Zamonaviy, ilg‘or o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari - qobiliyat va mahoratlari “Pedagogik mahorat” ning predmeti hisoblanadi. Mazkur qobiliyat, mahoratning mazmuni quyidagicha (24-rasm):

24-rasm

**Mazkur qobiliyat, mahorat-ning mazmuni**

mohiyati, tarkibini sistema sifatida o’rganishda, oliy o’quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda “Pedagogik mahorat” kursini o’rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. “Pedagogik mahorat” o’qituvchilar, jumladan, bo’lajak o’qituvchilarni ta’lim-tarbiyaviy ishlarga ilmiy metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Uning asosiy vazifalari: bo’lajak tarbiyachi, o’qituvchida pedagogik ijodkorlik, topqirlik, pedagogik muloqot, o’qituvchi nutqi, o’quvchiga har tomonlama ijobiy ta’sir etish usullari, pedagogik texnika hamda tarbiyachining tarbiyachilik mahoratini shakllantirishdan iboratdir

Amaliy seminar darslarida esa o‘qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, pedagogik ta’sirning rang-barang usullari, tarbiyachi o‘qituvchining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar o‘rganiladi.

*Dalillar shuni ko’rsatadiki, qiziqish va ishtiyoq bilan dars olib borgan ma’ruzachilar talabalarni ta’lim olish borasida rag’batlantirishda katta yutuqlarga erishishgan. Bu kabi izlanishlar samarali ta’lim beruvchi ma’ruzachilarni faqatgina ma’lumot beruvchi emas, balki talabalarga haqiqiy ilm berishini qayd etadi. Samarali va ajoyib tashkil etilgan ma’ruza PowerPoint taqdimoti nusxasini olib yurgandan ko’ra afzalaroq ekanini va ma’ruza o’rnini bosa olmasligini alohida aytib o’tish lozim.*[8]

Amaliy darslarda diqqat va xayolni to‘plash mashqlari bajariladi. Laboratoriya va mustaqil ishlarga ajratilgan soatlarda pedagogik vaziyatlar hosil qilinib, talabalar hamkorligida yechiladi. Bunday masala yoki pedagogik vaziyatlar o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomala qilia bilish malakasini tarbiyalashga xizmat qiladi. “Pedagogik mahorat” kursining amaliy darslaridan muayyan qismi ta’lim muassasasi va ta’lim muassasalarda o‘tkazilishi mumkin va ular nazariy bilimlarni mustahkamlashni ko‘zda tutadi. “Pedagogik mahorat” fanining boshqa pedagogik tizimdagi fanlardan asosiy farqi shundaki, u o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarida

[8] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 61.

keng ijodiy imkoniyatlardan foydalanish uchun bitmas-tuganmas ijodiy faoliyat uchun maydon hisoblanadi.

## 2. Pedagogik mahorat tushunchasi va tuzilishi

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldiga juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi, respublika ravnaqi, taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko‘ndalang turdi. Natijada “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“qabul qilindi. Yetuk mutaxassis va yangicha fikrlovchi shaxslarni shakllantirish uchun chuqur bilimning o‘zigina kifoya qilmasligi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Barkamol avlod – O‘zbekiston kelajagining poydevori” nomli nutqida quyidagicha o‘z ifodasini topdi: “Bizga ta’lim muassasasini bitirganlar emas, ta’lim muassasasi tarbiyasini ko‘rganlar kerak”. Bu bilan Prezident bilimlar yig‘indisini egallashga emas, balki ularni egallab, turli kasb-hunarlar siri, mahoratini o‘zlashtirishga xizmat etuvchi bilimlarni o‘rganish lozimligini ko‘rsatib berdi.

**Pedagogik mahoratning tuzilishi**

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
2. Pedagogik iste’dod, qobiliyat.
3. Pedagogik texnika (san’at).
4. O‘qituvchining shaxsiy intilishi.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o‘z-o‘zicha ijodiy izlanish olib boradi: o‘quvchilar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topishish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ishida o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi. Pedagogik mahorat (25-rasm):

25-rasm

**Savol tug’iladi: Pedagogik mahorat nima?**

**Pedagogik mahorat bu –** fahm-farosat va chinakam ilmiy bilimlarning, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan obro‘li rahbarlikning, o‘quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati (empatiya), ichki dunyosi, nozik va zaif bo‘lgan o‘quvchi shaxsiga mohirona, avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga boy bo‘lgan qobiliyat majmuasidir

Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning faoliyati uchun zarur bo‘lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib,

mazkur muammoni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g‘ayrat, qat’iyat, tirishqoqlik, ijodiylikni, o‘z faoliyatini to‘g‘ri baholay bilish, shuningdek, o‘quvchilar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo‘la olishni talab etadi. Ibn Sino “Tadbiri manzil” asarida o‘quvchi uchun o‘qituvchi tanlayotganda uning to‘g‘riso‘z, halol, toza-ozoda va o‘quvchilarni sevuvchi kishi bo‘lishiga e’tibor berish lozimligini ta’kidlaganida o‘qituvchining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi. Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo‘ladi. Ba’zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi:

1. **O‘rtaga tusha bilish.**
2. **Tashkilotchilik.**
3. **O‘zini idora eta bilish.**
4. **Mo‘ljallay olish, chamalay bilish.**
5. **Kuchlilik, zehnlilik.**
6. **Faoliyatga ijodiy yondashish.**

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo‘lgan, insonparvarlik nuqtai nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin. Pedagogik texnika quyidagicha (26-rasm).

3. Pedagogik texnika pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning jinsi, yoshi, mijozi, fe’l-atvori, anatomik-psixologik xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi.

Har yigitning aslin bilay desangiz
Ma’rakada o’tirib-turishin ko’ring.
(Maxtumquli)

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma’lum darajada pedagogning umumiy tayyorgarlik darajasini, ya’ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogning nutqi tartibsiz, qashshoq bo‘lsa, o‘zi jizzaki bo‘lsa, didi past, madaniyatsiz bo‘lsa, topib gapirgan to‘g‘ri so‘zi ham tarbiyalanuvchilarga ta’sir etmaydi, balki teskari natijaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham, tarbiyachi avvalo o‘zi tarbiyalangan, o‘tirib-turish, suhbatlashish madaniyatini qon-qoniga singdirgan bo‘lishi lozim.

4. O‘qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o‘rin egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli bir qolipdagi fikrlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko‘p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta’sirlarga javob bera oladi. Chunonchi, o‘quvchilar bilan albatta xushmuomalada bo‘lish, dilkashlik, o‘quvchi shaxsiga qonun-qoidalarial yondashishning yuqori darajada bo‘lishi, o‘zining birorta ham o‘quvchisi yomon emasligi, buning ustiga ishonchsiz bo‘lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar.

26-rasm

**Pedago-gik texnika**

pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, u o‘qituvchidan o‘quvchilar bilan muomala qilganda zarur so‘z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o‘tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini caqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagogik ta’sir ko‘rsatishda o‘qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko‘rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo‘ladi

Lekin, bunday bir qolipdagi fikrlar salbiy rol o‘ynashi ham mumkin. Masalan, hamkasbi o‘quvchilar bilan haqiqatda noto‘g‘ri munosabatda bo‘lganda unga qarshi turish o‘rniga, uni himoya qila boshlaydi. O‘qituvchining xohish-istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo‘lsagina, bunday chekinishlarga yo‘l qo‘ymasligi mumkin bo‘ladi.

## 3. Pedagogik faoliyat va mahorat

### 1. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish

Pedagogika o‘z metodlarini yo‘q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, o‘quvchilar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik faoliyat ta’lim-tarbiya jarayonida juda muhim hisoblanadi. Pedagogik faoliyat (27-rasm):

27-rasm

**Pedagogik faoliyat –**

yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish ishi bilan shug‘ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasi o‘quvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantiradi, qiyin va murakkab

vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o‘quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

*Talabalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish va shakllantirish ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirishi ehtimoldan holi emas. Ma’ruzalarning boshlang‘ich qismi eng muhim masala hisoblanib, talabalarni ishontiruvchi va ushbu ma’ruzani eshitishlari kerakligini ifodalaydi.*[9]

**2. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari**

Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari – ishontirish, talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.

O‘zaro hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi. M.: Kommunizmga ishonish.

Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. Bilim; 2. Hissiyot; 3. Xulq-atvor. U tushunish – kechinma – qabul qilish orqali amalga oshadi.

Ishontirish shakllari quyidagilar: ma’ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko‘rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna. Pedagogik talab (28-rasm):

28-rasm

**Pedagogik talab –**

ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bo‘lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usuli bo‘lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Rag’batlantirish va jazolash (29-rasm)

29-rasm

**Rag’batlantirish va jazolash** –

tarbiyaning eng an’anaviy usuli bo’lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya’ni foydali xatti-harakatlarni qo’shimcha rag’batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to’xtatishni ta’minlaydi, bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta’sir ko’rsatish yo’lidan foydalaniladi.

Rag’batlantirish va jazolash metodi o’ziga xos xususiyatga ega bo’lganligi sababli uni qo’llashda juda ehtiyot bo’lish lozim.

[9] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 59.

Agar yagona pedagogik talablar o‘quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag‘batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan o‘quvchilarning harakatlari birligiga erishish yo‘llarini ta’minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, o‘quvchilarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

**Istiqbol** – ta’sir ko‘rsatishning juda ta’sirchan usuli bo‘lib, u o‘quvchilarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qoyish yo‘li bilan ta’minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul ta’lim muassasasi o‘quvchilarida shaxsning eng muhum fazilatlaridan biri bo‘lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi.

**Jamoatchilik fikri** – ta’sir ko‘rsatishning qudratli usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag‘batlantirib borishni ta’minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to‘liq amalga oshiradi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir.

## 4. Pedagogik ta’sirning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni

Respublikamiz istiqlolga erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo‘iladi, lekin ikkinchi tomondan, shaxsga katta hurmat ko‘rsatiladi. Bu shaxsga bo‘lgan talablarni va unga bo‘lgan izzat-hurmatni birga qo‘shish – ikki xil zarur shart bo‘lib, pedagogning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari o‘z tarbiyalanuvchilari taqdiriga beparvo bo‘lgan kishilar qo‘lida sof kasb-korlik vositalari emas, balki insonlar orasidagi jonli munosabatlar majmuidir. Ijtimoiy ruhiyat nazariyasida va pedagogik amaliyotda o‘zaro fikr almashishda ta’sir ko‘rsatish ikki usulda olib boriladi: ishontirish va ta’sir etish. Rus pedagogi Uspenskiy “Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirishdir, odamning e’tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta’sir qilish mumkin”, degan edi.

**Ishonch o‘zaro hamkorlikdagi ta’sir etishning natijasi ekanligini ko‘ramiz.** Ishonch ikki xil, ya’ni haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi. Haqiqiy ishonch real borliq, hayot talablariga mos bo‘lib, u insonni qadrli, obro‘li qiladi. “O‘quvchilikka buyuk hurmat-ehtirom bilan qarash lozim”, degan Iuvenal (123-b). Inson o‘z ishonchini himoya qilish uchun o‘limga ham boradi. Soxta ishonch o‘zi va birovlarning salbiy tajribasi, qarashlari asosida hosil bo‘ladi. O‘quvchilardagi soxta ishonchni o‘zgartirish uchun o‘qituvchi ko‘p kuch sarflaydi. U uch yo‘nalishda olib boriladi: sinf jamoasida sog‘lom ijtimoiy fikrni shakllantirish, qimmatli maxsus individual tajribani yaratish, noto‘g‘ri ishonchdagi qarash, bilim, tasavvur, tushunchalarni bartaraf etish.

O‘qituvchi faoliyati o‘z o‘quvchilarini ishontirish va ta’sir etishni talab qiladi. Pedagogning barcha ta’sirlari: tarbiyalanuvchilarning munosabatlari, fikrlari, his-tuyg‘ulari, harakatlarini o‘zgartirishga va mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, u muhit va tabiatning hamkorligiga ta’sirlanadi. O‘zaro hamkorlikda ta’sir

ko‘rsatishning natijasi ishonchdir. Ishonch asosida o‘qituvchining bilimlar tizimi, dunyoqarashlari, munosabatlari va xulq-atvori shakllanadi (30-rasm).

30-rasm

**Ishontirish hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishda maksimum ta’sirli bo‘lishi uchun quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak:**

- ishontirish mazmuni, shakli o‘quvcnining rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi (kichik o‘quvchilarda ertak, fantastik hikoyalar va boshqa);
- ishontirishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ishontirish umumlashgan, konkret asoslarga, misollarga, boshlang’ich sinflarda ovozli materiallarga tayanishi;
- ishontirishda o‘qituvchi o‘zi xabar qilayotgan narsaga o‘zi chuqur ishonishi va h.k.

Ishontirishning o‘zaro hamkorlikdagi ta’sir ko‘rsatish samarasi quyidagi shartlarda yuz beradi:

- o‘zaro hamkorlikda ta’sirning kuchi ishontiruvchining obro‘siga va voqeaning mazmuniga bog’liq (o‘quvchi o‘qituvchiga qanchalik ijobiy munosabatda bo‘lsa, shunchalik unga tez ishonadi);
- ishontirishda o‘quvchining individual ruhiy holatini hisobga olish;
- ishontirishda ishontiruvchining intellektual hissiy holati bilan ishonuvchining holati mos bo‘lishi kerak. Masalan, o‘quvchi haddan tashqari hayajonlanganda noxush his-tuyg’ular unda hukmronlik qilganda uning xulqidagi kamchiliklarni ko‘rsatish orqali ta’sir ko‘rsatish samara bermaydi

Ishonch odamlarning dil rishtalarini bog‘lovchi katta kuch. Buning uchun odam boshqalarga ishonmog‘i, ixlos qilmog‘i kerak. Halollik, adolat sof vijdonlilik, poklik, so‘z va ish birligi ishonchning mezonlaridir. Ikkiyuzlamachilarga, firibgarlarga, munofiqlarga hech kim ishonmaydi. Insonda ishonch uchta tarkibiy qismdan tarkib topadi: bilim - hissiyot - xulq-atvor. Ishonch quyidagi formula: tushunish - kechinmalar - o‘ziga qabul qilish - bajarish (o‘z faoliyati va atrofidagilar tajribasi) asosida amalga oshiriladi.

Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki o‘zgaradi. Iishontirish shakllari quyidagilar: munozara, bahs, suhbat, hikoya qilish va namuna. Ishontirish metodi, fikr, hissiyot va iroda bir butun holda muvofiqlashganda ta’sirli bo‘ladi. Ishontirishning samarasi o‘qituvchining so‘z va ish harakat birligiga ham bog‘liq.

*Ko‘p yillardan beri ta’lim sohasidagi ilmiy izlanuvchilar shu narsa ustida izlanishlar olib borishganki, oliy ta’lim samarali bo‘lishi uchun oily ta’lim aniq sohaga yo‘naltirilgan holatda o‘qitilishi kerak.*[10]

---

[10] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 215.

Ta’lim va tarbiyada o‘qituvchining ishontirishi haqida Ibn Sinoning quyidagi ibratli so‘zlari qimmatlidir: “Har bir so‘z harakat va mimika bilan tasdiqlanishi, o‘quvchilarda hissiyot uyg‘otadigan bo‘lishi zarur”. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishda ishontirish metodi bilan bir qatorda ta’sir ko‘rsatish metodi ham qo‘llaniladi. Uzoq yillar pedagogik jarayonda ta’sir etish tan olinmas edi. Biz xohlasak, xohlamasak ta’sir ko‘rsatish elementlari hayotda o‘zaro hamkorlikda muhum rol o‘ynaydi. So‘z yordamida biz o‘quvchilarda ziyraklik yoki qo‘rquvni, o‘ziga ishonch yoki ishonchsizlikni, zerikish, ishonch yoki shubha singarilarni hosil qilamiz.

O‘quvchilarga ta’sir qilish so‘zning fandagi ma’nosiga qarab emas, so‘z va nutq intonatsiyasi, aniqligini ifodalovchi hamda bularni mustahkamlovchi imo-ishoralar – yuz, qo‘l harakatlari bilan bevosita hissiyotga ta’sir etadi. Bu haqda Makarenko: “... Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, o‘z yuzida zarur ma’nolarni bera bilmaydigan yoki o‘z kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo‘lishi mumkin emas”, - deb o‘rinli ta’kidlagan. Suxomlinskiyning so‘zning ta’siri haqida: O‘qituvchining so‘zi - tarbiyalanuvchining qalbiga ta’sir o‘tkazadigan yagona so‘z. Tarbiyachilik san’ati  avvalo, gapirish, inson yuragiga murojaat qila olish san’atidir. Men shunga astoydil ishonamanki, ko‘pincha katta janjal bilan tugaydigan, ta’lim muassasasida tez-tez sodir bo‘lib turadigan mojarolar – o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan gaplashishni bilmasliklari oqibatidir”, - degan fikrlari qimmatlidir.

Pedagogik ta’sirning samarali bo‘lishi shartlaridan biri quyidagilardir: o‘quv materialining mazmuni: ta’sir ko‘rsatishda o‘qituvchining bunga bo‘lgan munosabati; ta’sirning o‘quvchi yosh va individual sifatlariga va ta’sir ko‘rsatishdagi holatiga bog‘liqligi; o‘qituvchining ta’sir ko‘rsatish texnikasiga, ta’sir ko‘rsatishning asoslangan sifatiga va amalda qo‘llash uchun yaratilgan sharoitga va boshqalarga bog‘liq (31-rasm).

31-rasm

**Ta’sir ko‘rsatish ko‘pincha quyidagi asosga ko‘ra tasniflanadi, ular 5 ta turda olib boriladi:**

1. Harakat manbaiga asoslanib ta’sir ko‘rsatish:
a) boshqa kishi orqali ta’sir ko‘rsatish;
b) o‘ziga-o‘zi ta’sir qilish - ta’sir etish obyekti bilan subyekti mos tushadi.
2. Subyektning holatiga asoslanib, ta’sir ko‘rsatish:
a) uyg‘oq holda ta’sir ko‘rsatish;
b) uxlagan holda ta’sir ko‘rsatish;
c) gipoteza holida ta’sir ko‘rsatish (faraziy, taxminiy).
3.Ta’sir ko‘rsatuvchining bor yoki yo‘qligi, ta’sir ko‘rsatish maqsadiga qarab, ongli ravishda, zo‘r berish orqali amalga oshiriladi:
a) oldindan mo‘ljallab, ta’sir ko‘rsatish;
b) mo‘ljallamasdan, ta’sir ko‘rsatish.

Mo‘ljallangan ta’sir ko‘rsatishda o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan maqsad asosida ruhiy ta’sir ko‘rsatishni ongli tashkil etib, o‘z oldiga qo‘ygan natijaga erishadi. Masalan, o‘qituvchi yaxshi o‘qigan o‘quvchining o‘qishdagi ijobiy tomonlarini

o‘quvchilar oldida maqtaydi va unga kuchli ta’sir etadi. Mo‘ljallanmaganda ta’sir ko‘rsatuvchi o‘z oldiga maqsad qo‘ymaydi. Ba’zan o‘qituvchi o‘zi tushunib yetmay, odatdagidan murakkab bog‘lanishda bir o‘quvchiga murojaat qilib, unga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sen hamma vaqt shundaysan. Senga biror ishni topshirsam, baribir sen uni uddalay olmaysan, kabi;

c) o‘ziga-o‘zi ta’sir etish ham mo‘ljallangan va mo‘ljallanmagan bo‘ladi. Inson ongli ravishda o‘zidagi salbiy sifatlarni yo‘qotishga intiladi. Mo‘ljallanmaganda esa buni ongsiz, erkin, o‘z xohishicha amalga oshiradi.

4. Ta’sir etish natijasiga qarab ikkiga bo‘linadi:

a) ijobiy; b) salbiy. Ijobiy ta’sirda ijobiy ruhiy sifatlar shakllanadi (odat, qiziqishlar, munosabatlar). Salbiy ta’sir ko‘rsatishda salbiy sifatlar shakllanadi. Masalan, tahqirlash, ma’naviyasizlik va h.k.

5. Ta’sir etish mazmuniga qarab farqlanadi:

a) ochiqchasiga ta’sir ko‘rsatish. Ta’sir ko‘rsatishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiq-chasiga ta’sirlanuvchi biror aniq harakatga da’vat etadi. Masalsn, bundan keyin hech qachon chekmaysan;

b) yashirin holda ta’sir ko‘rsatish. Ta’sir ko‘rsatishda maqsad yashirinadi, to‘g‘ri aytilmaydi, u yoki bu mo‘ljal qilingan ta’sir harakat orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shakllari (32-rasm)

Ta’lim muassasasida pedagogik ta’sir etishning quyidagi shakllari qo‘llaniladi.

I. Bevosita, oldindan mo‘jallab, ta’sir etish (bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etish deyiladi) bunda jamoaviy, buyruq va murabbiy ta’sir etish qo‘llaniladi.

II. Bilvosita ta’sir ko‘rsatisn o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bilvosita ta’sir ko‘rsatishning quyidagi shakllari mavjud sha’ma shaklida (o‘qituvchiga jamoat isnlaridagi faolligi uchun uni qo‘llab-quvvatlaydi”. “Mabodo, sen charchamadingmi?” ta’sir ko‘rsatishning bilvosita ma’qullashi).

32-rasm

**Buyruq va jamoaviy o‘quv-tarbiyaviy jarayonda quyidagi shakl (tur)larda qo’llaniladi:**

1. Ogohlantiruvchi yoki yo‘naltiruvchi shaklda. Bunda vazifa qisqa vaqtda bajarishga da’vat qilinadi. Masalan, Diqqat! Tayyorlaning!

2. Bajaruvchi shaklda. Masalan, To‘g’irlaning! Smirno! Stop!

3. Taqiqlovchi shaklda. Masalan, To‘xta! Tugat! Bas!

4. Namuna asosida bajariladi. Masalan, men shunday bajarsam, sen han shunday bajar. Validek bajar. Murabbiy ta’sir ko‘rsatish shakli. Masalan, “Sen yaxshi o‘qiy olishing mumkin. Bugun sen uch soat dars tayyorlaysan” kabi

## 5. Pedagogik texnika

Pedagogik texnika tushunchasi va uning tuzilishi

33-rasm

| **Pedagogik texnika –** | O‘qituvchi faoliyatining botiniy mazmunini hamda zohiriy ifodasining uyg‘unlik birligidan iboratdir. Pedagog mahoratining ma’naviy madaniyati hamda pedagogik jihatdan maqsadga muvogiq bo‘lgan zohiriy ifodasi sintezidan iboratdir (N.N.Tarasovich). Shunday qilib texnika usullar majmuasidir. Uning vositalari esa nutq va muloqot vositalaridir |
|---|---|

***Ta’sir ko‘rsatishning pedagogik ta’sir texnikasi***

Ta’sirning samarasi, ta’sir ko‘rsatuvchining ovoz tuzilishi, qarashlari (aft-bashara holati), harakatlarning uzviyligiga bog‘liq. Murabbiyning ta’sir ko‘rsatuvchiga ko‘rsatgan ta’siri so‘z bilan ta’sir ko‘rsatish mazmuni uning intonatsiyasini, imo-ishorani, yuz, aft harakatlarini qo‘llab-quvvatlaganda kuchli bo‘ladi. Bular mazmunga zid bo‘lmasligi kerak (33-rasm).

To‘g‘ri aloqa usulini shakllantirishda o‘zini tuta bilish, o‘zini bilish, haqqoniy bo‘lish, boshqalar tarbiyasiga ijodiy yondashish, pedagogik texnikani rivojlantirish, hazilni sezish singari sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda albatta, o‘qituvchi doimo o‘z o‘quvchilarini hurmat qilishi va ular shaxsini himoya qilishi shart. Baholashga doir turli xil fikr-mulohazalar, baholashga asos va sabab bo‘luvchi fikrlar izlanmoqda. Bu fikr-mulohazalar aniq maqsadlar, aniq talabnomalar uchun yig‘ilmoqda. Asosan, shaxsiy yoki kursning jamoalari bu fikr- mulohazalarni o‘zining maqsadlari uchun, o‘z saviyasini oshirish uchun yig‘moqdalar (34-rasm).

Boshqacha qilib aytganda, ularga ma`lum bir aniq namunaviy mulohaza beriladi. Misol uchun, ular o‘qitishga doir turli xil ko‘rinishdagi rasmlar topadilar va yaratadilar. Bu esa ularga ma`lum bir namunaviy oyna vazifasini bajaradi. Tizim kursdagi dizayn va strukturalarni, o‘qitish strategiyalarini, ilmiy boshchilik va qo‘llab-quvvatlashni  qamrab oladi va bular bir-biri bilan bo‘gliqdir.

*Bundan ko‘rinadiki baholashni turli fikrlar bilan izlash asta-sekin yaxshilanib bormoqda. Bunda tajriba o‘tkazish keng tarqalgan, misol uchun, talabalarning tanlovi bilan kurslarga qo‘shimcha narsalar kiritish; bunda talabalarning kurs davomida o‘tkazgan tajribasidan foydalanib mulohaza yuritiladi. Natijada talabalar tajribaviy kurslarni mazmun-mohiyatini tushunadi va bir necha oylar davomida bu kurs ishini topshiradi.*[11]

---

[11] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 199,200.

34-rasm

**Pedagogik ta'sir usullari**

Ustoz-pedagoglar erishgan muvaffaqiyatlarining sirini bilishga harakat qilar ekanmiz, biz ularning pedagogik ta'sir usullaridan ustalik bilan foydalangan holda turli-tuman amaliy ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etishlariga guvoh bo'lamiz. Bunda muhim rolni maxsus ko'nikmalar egallaydi: o'quvchilarni ijtimoiy foydali o'quv faoliyatiga safarbar eta bilish, muammo qo'ya bilish, jamoa va alohida shaxs bilan til topish, kuzata bilish, o'z kechinmalarini boshqara bilish: ovoz, nutq, mimika, harakatlarini erkin boshqara bilish va h.k.

Quyida biz pedagogik texnikaning, pedagogning odob-axloqi bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini qarab chiqamiz. Pedagogik *maqsadga* qaratilganlik va pedagogning tashqi qiyofasi. Tarbiyachining tashqi qiyofasi estetik jihatdan ko'rimli bo'lishi lozim. O'qituvchi juda ham bashang va juda ham pala-partish kiyinmasligi lozim (34-rasm).

**Uning tashqi qiyofasi kiyim-kechaklari** tarbiyachi shaxsini shakllantirish vazifasini hal etishga bo'ysindirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy kiyinish normalaridan keyinda qolmagan holda u o'rtacha me'yorga amal qilgani tuzuk. Tarbiyachining estetik did bilan kiyinishi, uning o'zini erkin tuta bilishi, nutqi, mimik va pantomimik harakatlariga mos bo'lishi lozim. Chunki uning har bir harakati: auditoriyaga qay tahdidda kirishi, stulda qanday o'tirishi, yurish-turishi – barchasi tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. U o'zini xotirjam, jiddiy, o'rni kelganda esa o'quvchilarning yoshiga mos ravishda xushchaqchaq tuta bilsa, tarbiyalanuvchilarga ta'siri talab darajasida bo'ladi. "Pedagogik texnika" tushunchasi 2 guruh tarkibiy elementlarni qamrab oladi (35-rasm).

***Emotsional holatni boshqarish***. Boshlovchi pedagog birinchi marta o'zini juda ishonchsiz sezadi. O'ziga qarab turgan ko'zlarning ta'siri natijasida uni titroq bosadi, nutqi uzuq-yuliq, pala-partish, o'zini yo'qotib qo'yadi (chunki u o'z ustidan kulishlaridan qo'rqadi). Bularning barchasi o'qituvchidan bo'lajak mashg'ulot oldidan o'zini ruhiy-fiziologik jihatdan tayyorlashni, muloqot paytida o'z emotsional holatini boshqara bilishni talab etadi. "Ha va yo'q" javoblarini hisoblab, xulosa chiqarish mumkin. Agar barcha javoblar ijobiy bo'lsa, vazminlik, o'z-o'zini boshqara bilish yoki o'ziga ortiqcha baho berishni ko'rsatadi. Agar barcha javoblar yoki ularning ayrimlariga salbiy javob to'g'ri kelsa, bu kishining notinchligi, o'ziga ishonchsizligi, o'ziga tanqidiy qarashidan dalolat beradi. Aralash javoblar ("ha" ham "yo'q" ham) o'z nuqsonlarini ko'ra bilishni ko'rsatadi, bu esa o'z-o'zini tarbiyalash tomon birinchi qadamdir.

35-rasm

**“Pedagogik texnika” tushunchasi 2 guruh tarkibiy elementlarni qamrab oladi:**

1. O‘qituvchining odob-axloqiy ko‘nikmalari bilan bog‘liq bo‘lgan elementlar: o‘z jismini (mimika, pantomimika) boshqara bilish; his-tuyg‘u, hayajon, ta’bini boshqara bilish (ortiqcha ruhiy zo‘riqishlardan osonlik bilan xalos bo‘la olish, ijobiy muhitni to‘g‘rlay bilish): diqqat qila bilish, kuzatuvchanlik, tasavvurning kengligi; nutq texnikasi (nafas, ovozni boshqarish, diksiya, nutq tezliqi (sur’ati)).

2. Shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsata bilish texnikasi ta’lim-tarbiyaning texnalogik tomoni bilan bog‘liq bo‘lib, bularga: didaktik, tashkiliy, ijodiylik, muomala ko‘nikmalari; talab qila bilish, pedagogik muloqotni boshqara bilish, jamoatchilik ijodiy faoliyatini tashkil eta bilish va boshqalar kiradi

**O‘z-o‘zini boshqarish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:**

- yaxshilik, mehribonlik va optimizimni tarbiyalash;
- o‘z xulq-atvorini nazorat qilish (mushak zo‘riqishi, harakat tezligi, nutq, nafas olish);
- faoliyatda dam olish (mehnat, musiqa, kitobxonlik, yumor, imitatsion o‘yinlar).

**Navbatdagi usullar organizm faoliyatini nazorat qilishga asoslanadi**. Xususiy qayg‘urishlar chuqurligini o‘zgartirish mumkin. Buning uchun tashqi ta’sir zarur bo‘ladi. Bunda nazoratni nimaga qaratish lozim? Albatta mimika, muskullar, nutq tezligi, nafas olishni mo‘tadillashtirish lozim bo‘ladi.

**Jismoniy va ruhiy jihatdan organizmni bo‘shashtirish uchun autogen mashqlar** (psixik o‘z-o‘zini boshqarish) o‘ziga xos psixofizik gimnastik mashqlar bo‘lajak o‘qituvchi uchun nafas olish va nutq ohangini tarbiyalashda xizmat qiluvchi mashqlar qatoridan joy olmog‘i lozim.

Psixik o‘z-o‘zini boshqarish o‘z tarkibiga relaksatsiya (bo‘shashuv holati) va kasbiy zarur bo‘lgan sifatlarni egallash uchun o‘zi-o‘zini ishontirish formulalaridan foydalanishni qamrab oladi. Buning uchun chordona qurib o‘tirgan holda maxsus formulalar yordamida og‘irlik va issiqlik sezgisini organizm a’zolari - qo‘l-oyoqda hosil qilish, muskullarni bo‘shashtirish, tinchlanishni mashq qilish mumkin. Shundan so‘ng quyidagi formula asosida quyidagilarni ovoz chiqarib aytib o‘z-o‘zini u yoki bu faoliyatda safarbar etish mumkin. O‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini aniqlash uchun B.M.Cherniy tuzgan testdan foydalanish mumkin (36-rasm):

**“Men xotirjamman**. Darsimni yaxshi o‘tyapman. Talabalar yaxshi tinglashyapti. O‘zimni erkin his etyapman. Men darsga yaxshi tayyorlanganman.

Dars qiziqarli. Talabalarning barchasini bilaman va ko‘ryapman. Men darsni yaxshi o‘taman. Mening darsimga talabalar qiziqishadi. Men o‘zimga ishonaman, kuchliman. Men o‘zimni yaxshi tuta olaman. Ruhiyatim yaxshi. O‘qitish qanday yaxshi. Talabalar meni hurmat qilishadi, tinglashadi va mening talablarimni ijro etishadi. O‘qituvchilik kasbi menga yoqadi. Men – o‘qituvchiman!”. Biroq pedagogik faoliyatning boshida ro‘y beradigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun katta bardosh, iroda, sabr-toqat talab etilishini yoddan chiqarmaslik lozim.

**Pantomimika.** Gavda, qo‘l va oyoqning harakatiga pantomimika deyiladi. Pantomimikadan mohir pedagoglar o‘z fikrlarining asosiy o‘rnini ta’kidlash, obraz yaratish maqsadida foydalanadilar.

O‘qituvchi dars paytida o‘quvchilar oldida to‘g‘ri turish malakasini egallashi kerak (oyoqlar oralig‘i 12-15 sm, bir oyoq biroz oldinga tashlangan holda). Uning barcha harakatlari nazokatli, oddiy va tabiiyligi bilan ajralib turishi lozim. Gavdani tutish estetikasi salbiy odatlardan holi bo‘lishni talab etadi; ular orqa-oldga tomon chayqalish, bir oyoqdan ikkinchisiga og‘irlikni tashlash, stul suyang‘ichini tutish, qo‘lda darsga aloqasiz buyumlarni aylantirish, bosh qashish, burun qoqish, quloq kavlash va h.k (36-rasm).

36-rasm

**O‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini aniqlash uchun B.M.Cherniy tuzgan testdan foydalanish mumkin.**

“Ha yoki yo’q” so’zlari bilan hissiyot-holatingizga tegishli bo’lgan savollarga javob bering.

- Har doim xotirjam, toqatlimisiz?
- Sizning ta’bingiz har doim tuzukmi?
- Auditoriyada mashg’ulot o’tayotganda, unga diqqat va saranjomlik sizni tark etmaydimi?
- Siz o’z his-hayajoningizni boshqara olasizmi?
- Siz o’z o’rtoqlaringiz va yaqinlaringizga nisbatan diqqat-e’tiborli va mehribonmisiz?
- Siz o’rganish kerak bo’lgan materialni oson o’zlashtira olasizmi?
- Sizda o’zingiz xalos bo’lishni istagan salbiy odatlar yo’qmi?
- Siz qaysidir vaziyatda o’zimni noto’g’ri tutdim, deb afsuslanasizmi?

**Uning imo-ishoralari aniq tushunarli, ma’noli bo‘lmog‘i lozim.** Imo-ishoralar tasviriy va psixologik turlarga bo‘linadi. Tasviriy ishoralar fikr yo‘nalishini tasavvur etish, chizib berish uchun xizmat qiladi. Eng muhimi, psixologik testlar bo‘lib, ular his-hayajon, tuyg‘ularni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchi to‘g‘ri javobdan mamnunligini boshini 3 marta ohista pastga egish orqali, javobdan qoniqmaganligini esa boshini ikki tomonga “sarak-sarak” qilib, chayqash orqali ifodalashi mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, ishoralar aytilmoqchi bo‘lgan fikr to‘g‘risida oldindan ogoh etish uchun ishlatiladi, aytilgan fikrdan keyin ularni

qo‘llashning foydasi yo‘q. O‘quvchilarga aytiladigan fikr ta’sirini oshirish uchun oldinga qarab yurish, ularga dam berish uchun esa orqaga qaytish lozim.

**Mimika.** O‘z fikri, hissiyoti, ruhiy holatini ifodalash san’atiga mimika deyiladi. Ba’zan o‘qituvchi yuz ifodasi u aytmoqchi bo‘lgan so‘zdan ham ko‘ra kuchli ta’sirga ega. Imo-ishora va mimika axborotning emotsional ta’sir kuchini oshirib, yaxshi qabul qilishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qituvchining fikrini uning yuz ifodasidanoq bilib oladilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘z kechinmalarini yashira olishi ham lozim. Yuz harakatlari faqatgina o‘quv tarbiya maqsadida qo‘llanilishi lozim.

**Yuz ifodasi butun qiyofa** kabi o‘zga ishonch, xayrixohlik, hukm, norozilik, xursandlik, faxrlanish, loqaydlik, qiziquvchanlik, xafalik kabilarni ifodalay olishi lozim. Insonning barcha hissiyotlari uning tabassumida mujassamlashgan bo‘ladi, u kishining ma’naviy sog‘lomligi va axloqiy qudratini o‘zida ifodalaydi. Mimikani ifodalovchi detallar qosh va ko‘zdir. Qoshning yuqoriga ko‘tarilishi hayratlanishni, chimirilishi - diqqatni to‘plashni, qimirlatmasdan turish-xotirjamlikni, loqaydlikni, tez harakatga kelishi - tang qolishni ifodalaydi.

**Ko‘z kishining eng ta’sirchan organidir**. O‘qituvchi o‘z yuz tuzilishining imkoniyatlarini yaxshilab o‘rganib chiqishi lozim.



U har bir hodisaga nisbatan o‘z ko‘z qarashlari bilan o‘zining ijobiy, salbiy, betaraf munosabatini ifodalay bilishi lozim. Uning ko‘zi “olma-kesak” termasligi, yoki “baliq ko‘z” bo‘lmasligi lozim.

Mana masalan, quvonchli holatni ifodalovchi belgilar: tabassum, ko‘z yashnaydi, haddan tashqari imo-ishoralar, so‘zamollik, boshqalarga yordam berish istagi ko‘zga tashlanadi. Qo‘rquv belgilari: ko‘zlar katta-katta ochilgan, gavda shalpaygan, qoshlar biroz ko‘tarilgan, ovoz titraydi, ko‘z olma-kesak teradi, harakatlar shiddatli, gavda titraydi.

**O‘qituvchining nazari o‘quvchilarda bo‘lishi lozim.** Ular orasidagi ko‘z aloqasi mashg‘ulotlar davomida mustahkamlanib borishi kerak. Biroq shuni ham unutmaslik lozimki, katta yig‘in, mitinglarda so‘zga chiqqanda bunday aloqadan voz kechish lozim. Chunki, ko‘pchilik tomonidan hosil bo‘ladigan biomaydon notiqqa salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham olomonga xuddi devor yoki gulzorni kuzatgan kabi nazar tashlagan maqsadga muvofiq bo‘ladi: olamon biomaydoni notiqqa salbiy ta’sir ko‘rsata olmaydi. O‘qituvchi nutqi - pedagogik mahorat ko‘zgusi sifatida.

# 5-mavzu. PEDAGOGLARNING O'QUVCHILAR BILAN O'ZARO MUOMALASI

**REJA:**
1. Muloqot haqida tushuncha
2. Muloqot va faoliyat
3. Pedagogik muomala madaniyati
4. Tarbiya pedagogik kategoriya sifatida
5. Muloqot tarbiya vositasi sifatida, muloqotning ijtimoiy asoslari
6. Pedagogik muloqot vazifalarini amalga oshirish vositalari
7. Bugungi kun pedagoglarining o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi

**TAYANCH IBORALAR:**

Muloqot, pedagogik muloqot; pedagogik muomala, pedagogik faoliyat; pedagogik madaniyat, tarbiya, muomala va munosabat, motivatsiya, insonparvarlik, muloqot jarayoni

## 1. Muloqot haqida tushuncha

Muloqot (arabcha so'z bo'lib – "uchrashish, ko'rishish; qabul qilish" ma'nosini anglatadi) insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va fikr almashuv shaklining bir turidir.

Shunday ekan, inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab, ijtimoiylashadi va barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Tarixiy tajriba va amaliy faoliyat shundan dalolat beradiki, insonni jamiyatdan va shaxslararo bo'ladigan o'zaro muloqotidan ajratib qo'yish uning shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradigan ijtimoiy sifat, xususiyat hamda fazilatlardan mahrum bo'lishiga olib keladi. Chunki muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini aks ettiradi.

Kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlaridagi shirinsuxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik "muosharat odobi" deyiladi. Mushorat odobi, ya'ni ilk muomala madaniyati bolaning go'dakligida ota-ona bag'rida, oilada shakllanadi. Shu bois ham xalqimiz "qush uyasida ko'rganini qiladi" deydi. Yosh avlodda muosharat odobini, ya'ni muomala madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi-pedagogning o'zi xushmuomalaligini namoish etib, o'quvchi-talabalar qalbiga va yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikr bo'lib, o'rnak bo'lishi muhim ahamiyatga egadir.

Muomala va munosabatda o'quvchi-talabalar qalbiga yo'l topa olgan, xushfe'l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi yaxshi, tili shirin o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarni yoqtirishadi va hurmat-e'tibor qilishadi, ulardan ibrat olishadi.

Darhaqiqat, o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarning muomala madaniyati, aql-zakovati, fikri, his-tuyg'ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi.

Shunday ekan, oʻqituvchi-pedagog va murabbiylar oʻz soʻziga, tiliga nihoyatda ehtiyot boʻlmogʻi lozim. Eng avvalo, oʻquvchi-talabalarga muomala madaniyatini, yoshi kattalar oldida oʻzini tuta bilishini, ularning gapini boʻlmaslik va yoshi ulugʻlarga gap qaytarmaslikni oʻrgatishi zarur.

Kelajagimiz boʻlgan yoshlarning ichki dunyosi, maqsadi, muomala va soʻzlashuv munosabatlari nihoyatda goʻzal boʻlishida ota-ona bilan birga pedagog oʻqituvchilarning ham roli katta. Shu bois oʻquvchi-talabalarni bir-biriga, qolaversa, insonlarga mehru-muruvvatli boʻlishga oʻrgatish diniy aqidaparastlik, jaholat tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Aslida bu vazifa inson va jamiyat paydo boʻlgandan buyon kun tartibida turgan boʻlib, hali-hanuz muloqot va muomala madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Atoqli dib Bernard Shou soʻzlari bilan aytganda: “Biz hozir havoda qush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni oʻrganib olgan boʻlsak-da, bizga bir narsa-yerda insondek yashashni oʻrganib olish etishmaydi”.

Shunga koʻra, muloqot va muomala madaniyatiga boʻlgan ehtiyojni oqilona anglab olish muhim ahamiyatga ega. Zero, pedagogik muloqot va muomala madaniyati asosida erishiladigan yutuqlar oʻqituvchi-pedagogning ijodiy mehnati mahsulidir. Oʻqituvchi-pedagog har bir vaziyatni oqilona baholashi, uni toʻgʻri rejalashtirishi, ta’lim va tarbiya jarayonlarida aql-idrok bilan muloqot va muomala madaniyatini shakllantirishi lozim.

37-rasm




**Muloqot** – bu «Shaxsning eng yaxshi tomonlarini aniqlash va ochib berishga yordam beruvchi ijodkorlik shaklidir. U boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan axloq, odatlarning oddiy qoidalariga amal qilishga asoslanishi», shaxslararo muloqot funksiyalarini amalga oshirish-muloqot subyektining ma’naviy-axloqiy koʻrsatmalari, shuningdek, insonparvarlik, emotsional-ijobiy, shaxsiy yondashuv, individuallik va oʻziga xoslik kabi yoʻnalishlari bilan belgilanadi (37-rasm).

Muloqot funksiyasi faqat muloqot subyektlarining ma’naviy-axloqiy yoʻnalishigina emas, balki koʻp jihatdan, uning insonparvar-axloqiy mazmuniga bogʻliq boʻladi. Muloqotning shakli, lahzali, tasodifiy, tematik rejalashtirilgan –

bayon etish, axborot, xabar, suhbat, suhbatlashish, gaplashish, munozara kabilardan iborat.

E'tibor berish, qiziqish, ma'qullash, hamdardlik, istiqbolni ko'ra bilish yordamida ta'sir ko'rsatish, tushunilgan va anglab etilgan motivatsiya asosidagi faoliyat kabilar muloqot turiga kirib, masalani hal etishga yo'naltirish, emotsional muhit yaratish, rag'batlantirish, yo'naltirish bilan hamkorlikdagi harakatlar yakunini yasashga yo'naltirish, shuningdek, muloqotning samaraliligi, uning mavzusiga ijobiy motivatsiyasi, e'tibori, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Motivatsiya muloqot jarayonining boshqaruvchisi sifatida ma'no, onglilik, ishonch va qat'iylikni talab qiladi.

Muloqotning ma'noli jihatlariga uning maqsad hamda umumiylikka erishishda o'z individualligini ko'rsatishi, shuningdek, muloqotning turli funksiyalaridan foydalanish – qo'zg'atuvchi, ekspressiv, tashkiliy, informativ, emotsiyali, dalilga asoslanganligi va boshqalarni kiritish mumkin. Shaxslararo yuzma-yuz muloqotlarda individning potensial-shaxsiy, kasbiy-ehtiyojli hamda amaliy-idrok etish jarayoni sodir bo'ladi.

## 2. Muloqot va faoliyat

"Muloqot va faoliyat" tushunchasiga ijtimoiy faollikning o'ziga xos shakli va ayni bir vaqtda, individual mustaqillik sifatida qaraladi. Bu yerda muammoni qo'yish, uning maqsadi, vazifasi, masalalari, muloqot vaziyat-sharoit, muhit omillari, elementlari, muloqot subyektiga talab (bir so'z bilan aytganda, bu faoliyat subyekti bilan shaxslararo muloqotni modellashtirish) muhim hisoblanadi. Bu jarayonda boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan odob, axloq, etiket bo'yicha oddiy qoidalarga amal qilish zarur. Shu bilan birga, emotsional-ijobiy omil, simpatiya, empatiya muhim o'rin tutadi. So'z, nutq, hikoya qilib berish, xabardor qilish, gapirish, suhbatni olib borishni bilish (sherigiga e'tibor, diqqat, tushunish va hurmat bilan qarash, so'zsiz-emotsional tipdan mohirona foydalanish) muhim ahamiyatga ega. Muloqot, albatta, ma'naviy, insonparvarlik hamda yuksak odoblilik darajasida bo'lishi kerak, asosiysi-shaxslararo muloqotda o'zini suhbatdoshi o'rniga qo'yishni bilish zarur (38-rasm).

38-rasm

**Shaxslararo muloqot –** O'zaro aloqali, o'zaro bir-birini tushunish, idrok etish, axborot almashish, o'rgatish, rivojlantirish, tarbiyalash, o'zini namoyon etish, o'zini dolzarblashtirish, o'zini tasdiqlash, ijtimoiy o'zaro aloqalar orqali ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega

**Insonparvarlik (lotincha humfnis-insoniylik)** – inson o'z huquqlari va qadr-qimmati, shaxs sifatidagi qimmatini hurmat qilishni ifoda etuvchi qarashlar to'plami,

uning farovonligi, har tomonlama rivojlanishi, hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikdir.

Shaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish jihati suhbatdoshlarning intellektual ma’naviy imkoniyatlarini faollashtirish va shaxsiy-ijtimoiy o‘zligini amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Mana shunday muloqotda o‘quvchi-talabalar shaxsi shakllantiriladi, chunki bu jarayonda ularning ichki imkoniyatlari, shaxsiy insonparvarligi to‘la namoyon etiladi. Bu erda bo‘lajak mutaxassislarni shaxs, inson va insoniylik sifatlari to‘g‘risidagi bilimlari va muloqot madaniyati namoyon bo‘ladi.

**Insonparvarlik asosidagi muloqot** – bo‘lajak mutaxassislar uchun shaxsiy, ijtimoiy, hayotiy va kasbiy faoliyatlarining turli sohalarida insonparvarlik g‘oyalari va qadriyatlarini amalga oshirishning muhim shart-sharoitlari hisoblanadi. Bu davlat ta’lim siyosati hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning asosiy qoidalariga mos keladi (39-rasm).

Muloqotning insonparvarlik jihatlari ma’naviy-amaliy asosga axloqiylikka asoslanadi. Inson ijtimoiy hayoti jarayonida ishlab chiqilgan (avlodlar hayotiy tajribalari asosida) va axloqiy kategoriyalarda aks ettirilgan g‘oyalar, ideallar, qoidalar – me’yoriy axloqiylikka asoslanadi.

Shaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- muloqotda asosiysi-insondir;
- muloqotda asosiysi-insonparvarlarcha muloqotda bo‘lish – do‘stonalilik, samimiylik, inoqlik, totuvlikdir.

Ushbu muloqotda suhbatdosh o‘zini obyekt sifatida emas, balki muloqotda teng ishtirokchi sifatida his etadigan yo‘l, vosita, metod hamda shakllarni topishi zarur.

SHerigiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish uchun muloqot subyekt-obyekt xususiyatida, insonparvarlashtirilgan mazmunda mahsuldor-ijodiy asosda amalga oshiriladi. Muloqotda insonparvarlik (39-rasm).

39-rasm




Shunday qilib, muloqot jarayoni erkin, tabiiy, qiziqarli, bir-birini boyituvchi, bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi, o‘zini namoyon etuvchi bo‘lishi kerak. Quyidagilar insonparvarlik asosiga quriladi: suhbatdoshi (sherigi) shaxsiga e’tibor, do‘stona suhbat, muloqot sharoitlariga mos, suhbatning ritorik jihati ko‘zda tutiladi. Suhbatlashuvchi odob, axloq, ma’naviy sifatlarini namoyon etadi, suhbatdoshida

kerakli sezgilarni uyg‘otib, istalgan fikr va mulohazalarni yuzaga keltiradi.

## 3. Pedagogik muomala madaniyati

Hozirgi kunda yosh avlodning aql-idrokini o‘stirish, ilmu ma’rifat ziyosidan bahramand qilish uchun o‘qituvchi-pedagogning bilim saviyasi, kasbiy mahorati va muomala madaniyat yuksak bo‘lishi hayotiy ehtiyojdir.

Ayniqsa, pedagog-ustoz bo‘lish uchun pedagogik faoliyatda tarbiyalanuvchilarga pedagogik tashxis qo‘ya bilish qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim-tarbiyani aniq maqsadlar asosida amalga oshirish, o‘quvchi-talabalarning holati, aqliy va jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash hamda ularga amaliy jihatdan ko‘mak berish kabi bir qator pedagogik talablarga rioya qilishni taqozo etadi. Tashxis har bir o‘quvchi-talabaning ichki va tashqi qiyofasini aniqlash, ta’lim-tarbiyaning zamon talablariga mosligini e’tiborga olish o‘quvchi-talabalarning har tomonlama rivojlanishiga ta’lim-tarbiya metodlari samarasini belgilab olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va o‘quvchi-talaba shaxsi qobiliyatining rivojlanish darajasini, me’yorlarini aniqlash imkonini beradi. O‘qituvchi-pedagog jamoa o‘quvchi-talabalar guruhlari bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, ma’ruza, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman, butun ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olishi lozim. O‘quvchi–talabalar jamoasi bilan muomala ko‘pincha suhbat, ma’ruza, axborot va hokazolar shaklida bo‘ladi. Birinchi navbatda, suhbatni qanday boshlash, qanday qilib o‘qituvchining gaplariga o‘quvchi-talabalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida quyidagi fikrlarni bildiramiz.

Eng muhim so‘zlar va iboralarni intonatsiya bilan ajratib ko‘rsatish va aksincha, intonatsiyani o‘zgartirish, unchalik muhim bo‘lmagan materialni bayon qilish kerak, ovoz va nutq ohangini o‘zgartirish foydalidir.

Hamkorlik muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘qituvchi-pedagog ma’lum yo‘l-yo‘riqlarga ega bo‘lishi, o‘quvchi-talabalar bilan hamkorlikni muayyan natijaga erishishning zarur sharti deb bilishi, hamkorlikka barcha o‘quvchi-talabalarning jalb etilishi, hamkorlik jarayoniga o‘zining hissiy jalb qilinganligi zarur ekanligini anglab etishi lozim.

Mavzuga o‘quvchi-talabalar diqqatini tortishga urinib ko‘rish lozim. Bunda mavzuni bayon etishni erkin, qiziqarli faktni ma’lum qilishdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Suhbat o‘quvchi-talabalarda doimiy qiziqish uyg‘otishi uchun bir qator murakkab bo‘lmagan usullardan foydalanish zarur.



O‘quvchi-talabalarning faoliyati jamoa faoliyati sifatida tashkil etilsagina o‘qituvchi-pedagogning o‘quvchi-talabalar bilan hamkorligi paydo bo‘ladi, ya’ni hamkorlik qilishni talab etadi va buning uchun shart-sharoit yaratadi.

Hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo‘lgan ishlar dolzarb yoki o‘quvchi-talabalarning xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. O‘quvchi-talabalarni biror faoliyat sohasiga, biror aniq ishga jalb etar ekan, o‘qituvchi - pedagog ularga psixologik va pedagogik jihatdan to‘g‘ri vazifa qo‘yishi, ya’ni to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq berishi kerak.

O‘quvchi-talabalar belgilangan vazifani amalga oshirishga kirishganlarida o‘qituvchi-pedagog ayni bir vaqtning o‘zida ham ishtirokchi, ham kuzatuvchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

**Muomala bilish jarayonidir.** Bilish o‘quvchi-talabalarning miqdorlar tizimini o‘zlashtirish va hosil qilish tarzida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchi-talabalarga olamni va unda o‘zini tushunish imkonini beradi. Bilish faoliyati va uning jarayonidagi muomala o‘quvchi-talabalarga o‘zlarining bilishga doir qiziqishlari va mayllarini to‘garak mashg‘ulotlarida, ilmiy jamiyatlarda, olimpiada va tanlovlarda ro‘yobga chiqarish imkonini beradi.

Muomala har qanday axborotni idrok etishga va ularning o‘quvchi-talabalar tomonidan talqin qilinishiga ham ta’sir o‘tkazadi. O‘quvchi-talabalarning muomalasini tashkil etish pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shunday guruhiga kiradiki, u faqat alohida bir o‘quvchi-talabaga qaratilib qolmasdan, balki o‘quvchi-talabalarning muayyan birligiga-ta’lim muassasasi jamoasidan tortib o‘rtoqlari guruhiga ham mo‘ljallangan. Shu munosabat jarayonining mazmuni o‘quvchi-talabalar jamoasining mazmuni asosiga aylanadi. Jamoada muomalani tashkil etish butun ta’lim-tarbiya jarayonidan va jamoaning butun faoliyatini tashkil etishdan ajralib qolgan qandaydir bir narsa emas.

**Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligining eng muhim sharoitlaridan biri** – bu jarayonning o‘quvchi-talabalar muomalasi uchun ma’lum darajada imkon yaratib berishdir.

Ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya ishining butun mazmuni amalda o‘quvchi-talabalar muomalasi mazmunining asosi hisoblanadi. Biroq o‘qituvchi-pedagoglar har bir o‘quvchi-talabani o‘z subyektiv vaziyatiga qo‘yish uchun ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etganlaridagina bu imkoniyatni faollashtirish sodir bo‘ladi. Bir qator shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda, o‘quvchi-talaba jamoa faoliyatining subyektiga aylanadi. Bu shart-sharoitlarning eng muhimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchidan, jamoaning faoliyati o‘z mazmuniga ko‘ra xilma-xil bo‘lsa, ikkinchidan, bu faoliyatni o‘qituvchi-pedagoglar boshqarib borishi lozim. Uchinchidan, o‘quvchi-talabalar jamoasida tashkil etiladigan faoliyat, ularning ijodkorligiga katta imkoniyatlar yaratib bersa, to‘rtinchidan, bu faoliyat o‘quvchi-talabalar jamoasini uyushtrishining xilma-xil shakllarini birga qo‘shib olib borishi lozim.

O‘quvchi-talabalarning jamoa topshiriqlarini bajarishlari boshqa shaxslar – yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kursdagi talabalar o‘z jinsidagi va boshqa jinsdagi tengdoshlari bilan aniq maqsadga qaratilgan muomalasini taqozo etadi. Katta yoshdagi o‘smir jamoat topshirig‘ini bajarar ekan, ko‘pincha faoliyatning tashkilotchisi maqeida bo‘ladi. Uning oldida birgalikda bajariladigan ishga o‘rtoqlarini jalb etish zarurati bo‘ladi. Xilma-xil pedagogik vazifalar doimo vujudga kelib turadigan pedagogik faoliyatda hal qilishning mazkur tarkibiy qismi alohida

ahamiyat kasb etadi. Chunki u biror faktga pedagogik faoliyatning umumiy materiallariga baho berish imkonini beradi. Tasavvur qiling: siz darsda savol berdingiz va o‘quvchi-talabalar javob berish uchun qo‘l ko‘tardilar. Endi kimdandir savolning javobini so‘rash kerak. Bu jarayon, ancha oddiy bo‘lib tuyuladi. Ko‘pdan beri kimdandir so‘ramagan bo‘lsangiz, shuni turg‘azaman deb o‘ylaysiz yoki vaqt oz, Jamshiddan yoki Anvardan so‘rayman, ularning ikkalasi ham har gal to‘g‘ri javob beradi deysiz.

Tarbiyaviy jarayonni yoki alohida tarbiyalovchi ta’sirni rejalashtirish faqat pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shakllari, usullari va yo‘llarini aniqlashdangina iborat bo‘lmay, balki pedagogik muomala tizimini, albatta, aniqlashni ham bildiradi.

Aniq maqsadli vazifa va tarbiya usulini tanlash vazifasi bo‘lgan umumiy pedagogik vazifani hal qilib bo‘lgandan keyin ulardan bevosita o‘zaro aloqani tashkil etish uchun vosita bo‘lgan fikr almashishga doir vazifani vujudga keltirish zarur. O‘zaro fikr almashishga doir vazifa muammoli aloqa vaziyatidan iborat bo‘lib, uni hal qilish tarbiya usullarini pedagogik muomala tizimi orqali amalga oshirish uchun zarurdir.

## 4. Tarbiya pedagogik kategoriya sifatida

Ma’lumki, tarbiya tushunchasi o‘sib kelayotgan avlodda xosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va mas’uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda tarbiya deb tarbiyachi o‘zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadga ko‘ra tizimli ta’sir ko‘rsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tug‘ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu tufayli tarbiya so‘zi ko‘p vaqtlarda ta’lim, ma’lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Tarbiya ta’lim va ma’lumot natijalarini o‘zida aks ettiradi.

**Tarbiya nazariyasi**

Pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o‘rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘lig‘ jarayonni ham qaytadan ko‘rib chiqishni taqazo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma’lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo‘limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi, ta’lim muassasasishunoslik bilan uzviy bog‘langandir.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi

shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

O'quvchi kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. O'quvchining yoshi ulg'aygani sari bu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatlarga ega bo'lib boradi; tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z-o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy kabilar inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bilganlar.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy qobiliyati rivojlanganligi darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi.

*Munosabatlar muhokama qilinishi va rivojlantirilishi kerak, sababi, ko'plab muammolarning negizi, xohlaysizmi yo'qmi, ikki tomonlama munosabat o'rnatishda muvaffaqqiyatsizlikka uchrashdan yuzaga keladi.*[12]

Odamning ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak.

Shaxsing kamol topishi va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga, aloqalariga yoshi, bilishi, odatlari, tajribasi va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi.

## 5. Muloqot tarbiya vositasi sifatida. Muloqotning ijtimoiy asoslari

Pedogogika shaxsning kamolga yetishini murakkab ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning kamolga etishida nasl - irsiyat, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya, o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan bahramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtrok etadi. Agar shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligi yuksak bo'lsa, u shaxsga shu qadar katta ta'sir ko'rsatadi.

---

[12] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 167.

Hammamizga ma'lumki o'zbek xalqi oilasidagi tarbiyada islom dinining hissasi katta. Islom dinining boshqa dinlardan farqli tomonlari bo'lgani kabi, o'zbek oilasidagi tarbiyada ham o'zining sezish qiyin bo'lgan nozik xususiyatlar mavjud.

**R.Mahmudov Koshifiyning axloqiy g'oyalarga, insonni kamolga yetkazish maqsadida uni tarkib toptirish uchun zarur bo'lgan xislatlarni o'nga bo'lib turkumlashtiradi:**

1. Komil inson yetuk axloqliligi haqidagi fikrlarni, an'anaga ko'ra, buyuk donishmandlar - hakimlar, sarkardalar, shohlar tilidan bayon etadi va ularni adolatli, dono, oqil va kamtar inson sifatida ta'riflab, o'zining komil inson haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi.

2. Koshifiy faqat podsholardagina emas, har bir oddiy insonda ham eng olijanob xislatlar tarkib topishini istaydi.

3. U o'zining ijtimoiy-axloqiy idealini yuzaga chiqarishda asosiy vosita deb ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiyani tushunadi.

4. Koshifiy odobli insonni axloqli deb tushunadi. Inson faqat odobli, sahovatli, to'g'ri, halol, pok bo'lgandagina haqiqiy inson bo'lishi mumkin, deydi.

5. Voiz Koshifiy insonparvarlik va halollikni eng yuksak insoniy fazilatlardan deb biladi.

6. Koshifiy insonning eng yuksak xulq-atvor egasi bo'lishi uchun o'n qoidaga amal qilishi zarurligini ilgari suradi, ular:

a) elga teskari ish qilmaslik;
b) o'z nafsiga insof tilash;
v) kishi aybini ochmaslik;
g) kishilarda uchraydigan yomon xulq-atvorni yaxshilikka tomon burish;
d) o'z aybiga iqror bo'lib, uzr so'ragan kishining uzrini qabul qilish;
e) och-yupunlarning hojatini chiqarish;
yo) inson uchun mashaqqat tortish;
j) o'z nafsini tiyish;
z) xalqqa toza yuz bilan ko'rinish;
i) kishilarga yaxshi so'z aytish;

7. Kishilarni inoqlikka, tinch-totuv yashashga chaqirish.

8. Xalqlar o'rtasidagi do'stlikni targ'ib etadi.

9. Kasb-hunar, ilm-ma'rifatni egallashga chaqiradi.

10. Ilmli kishilarning jamiyatda tutgan o'rnini ta'kidlab, olimlarni, umuman, ilm ahlini e'zozlash kerak, deydi.

Islom aqidalari, uning axloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai «Qur'on»dir.

G'arb va Sharq tadqiqotchilari «Qur'on»ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan deb hisoblaydilar.

40-rasm

**Mazkur oyatlarda eng oliy insoniy muomala qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:**

– ota-ona xatti-harakatining farzandga malol kelmasligi;
– ota-ona bilan gaplashganda ularga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
– ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
– ota-onaga rahm-shafqat qilish;
– ularning haqiga duo qilish.

Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi. «Qur'on»da insonda imonning o'ziga xos mezoni hisoblangan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan. Insoniy muomalaqoidalari (40-rasm).

«Qur'oni Karim»da ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-ona kiritiladi va ota-ona haqqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23-24-oyatlarida ota-onaga yaxshilik - Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday inson bo'lishidan qat'i nazar, farzand ularga nisbatan hurmat saqlashi, ularning so'zlarini qaytarmasligi; ota-ona ham bolani dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, hizmatiga doimo tayyoer turish ta'kidlanadi. Shuningdek, tarbiya haqida ko'pgina faylasuflarning yozib qoldirgan asarlari mavjud, quyida shu faylasuflarning asarlaridan parchalar keltirilgan.

Rizouddin ibn Faxrutdinning «Oila» nomli asarida o'quvchining vazifasi haqida quyidagilar keltirilgan: «O'quvchi tarbiyasida bo'lgan mashaqqatlarning eng mushkuli onalar ustida bo'lib, bular hatto shariat hukmiga ko'ra o'zlariga yuklanmagan ko'p xizmatlarni o'z yaxshiliklari bilan bajararlar.

## 6. Pedagogik muloqot vazifalarini amalga oshirish vositalari

Bechora ona o'zi och bo'lgani holda o'quvchisini to'ydirar. Uxlashga fursati bo'lmagani holda, o'quvchisini uxlatishga tirishar, o'quvchisining shodligi bilan shodlanar, qayg'usi bilan qayg'urar. Bu xizmatlar ustiga yana erining ust boshini, mehmonu xodimlarini ham tarbiya qilar. Juda ko'p onalar yosh o'quvchilarini arava bilan tortib, bir necha chaqirim yerga borarlar-da kun bo'yi o'roq o'rarlar, boshqa dala xizmatini bajararlar. To'g'risi, bu kabi xizmatlarni onalardan boshqa hech kimsa bajara olmas. Bunday xotunlarning har biriga rahmat aytib, ko'ngillariga tasalli bermoq lozim bo'lgani holda, ba'zilari raxmat o'rniga erlaridan qayin onalaridan tanbeh eshitib turarlar. Bunday xotunlarning umidlari faqat o'quvchilaridan bo'lar.

Shuning uchun shodligu qayg‘u kunlarida ota-onalarni unutish emas, balki har vaqt molu tan bilan yordam bermoq, yiroq yerda bo‘lganlarida ziyoratlariga bormoq, maktublar bilan bo‘lsa-da, hollaridan xabardor bo‘lib turmoq, xayri duolarini olib, ezgu ishlarning savobini ularga bag‘ishlamoq lozimdir. O‘quvchilar kelajak bir kunda naqadar buyuk bir zot bo‘lsalar ham, ushbu burchlaridan hech bir vaqt xalos bo‘lmaslar. Ota-onasining nasihatlariga xiloflik etuvchi o‘quvchi emas, balodir.

Bu kabi o‘quvchi yoki bu kabi baloga hech bir insof sohibi mubtalo bo‘lmasin.

O‘quvchilar, agarda ota-onalariga muhabbat bilan xizmat qilsalar, o‘z o‘quvchilaridan ham xizmat ko‘rarlar. Agar ularning hurmatini o‘rniga qo‘ymasalar, o‘z o‘quvchilaridan ham hurmat ko‘rmaslar. Bu esa, tajribadan ko‘rilgan bir ishdir.

Er o‘quvchilar ko‘pincha balog‘at yoshiga yetib, erlar qatoriga kirarlar va biror kasbu san’at bilan ota-onalarini bir oz bo‘lsada, mashaqqatlardan xalos etarlar. Qiz o‘quvchilar esa, katta bo‘lguncha ota-onaning tarbiyasiga-yu ko‘p sarf- xarajatlariga muxtoj bo‘ladilar. Qizlar balog‘atga yetib, xatto erga tekkanlaridan keyin ham ota-onalarining xotiralaridan chiqmaslar, ota-onalari hamisha bular uchun qayg‘uda bo‘larlar. Shuning uchun qiz o‘quvchilar ota-onaning qadrini nihoyatda ortiq bilishi-yu ularga cheksiz muhabbat va hurmat ko‘rsatishi kerak.

Qiz o‘quvchi tug‘ishganlariga nisbatan shafqatli bo‘lishi, har vaqt ularni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun intilishi lozim. Ota-onaga itoat etish, qarindoshlarini yaqin ko‘rish ham qizlarning oldidagi vazifalardandir. Qizlik umrlari sanoqli kunlar bo‘lib, tez o‘tib ketadi. Bugun qo‘g‘irchoqlarni kiyintirib yoki joynamoz tikib, onasi yonida o‘tiruvchi qiz, ertaga bir uyga ona bo‘lar va o‘quvchilarning tizilib turganlarini ko‘rar. Ota-onaga itoatli bo‘lib, ularning xayri duolarini olgan qizlar o‘z o‘quvchilaridan ham izzatu hurmat ko‘rarlar, ota-onaga itoatlik bo‘lish qanday sharafli bir ish ekanligini shu kunda tajribadan o‘tkazarlar.

Ota-ona bu dunyodan o‘tganlarida ularga xayri duo qilmoq, sadaqa-yu ehson va boshqa yaxshi ishlar bilan ruhlarini shodlantirmoq o‘quvchilarning ulug‘ burchlaridandir. Mollari qolgan bo‘lsa maslahat bilan «Qur’on»da taqsimlanishiga ko‘ra bo‘lmoq kerak.

Ota-onalari vafot etganda, meros bo‘lmoq to‘g‘risida tug‘ishgan-u boshqa yaqinlari bilan da’volashib, qarindoshlik iplarini uzuvchi, bir-biri haqida yomon so‘zu ahmoqona gumonlar qilib, vaxshiy jonivorlar qilmagan yovuzliklar natijasida mollarning ko‘p qismini da’vo vakillariga berib, molni nobud qiluvchi o‘quvchilar ham bo‘lar. Bunday o‘quvchilar ota-onalariga nisbatan bo‘lgan vazifalarini oyoq osti qiluvchilardir. Ular ota-ona nomini xor qilib, o‘zlari ham baxtsiz bo‘lurlar.

Oilaning sharofatini, ota-onaning hurmatini joyiga qo‘yishni niyat qiluvchilar insof yo‘lidan chiqmasliklari zarur. Insofli kimsa jonini fido etar, ammo dunyosi uchun qarindoshidan voz kechmas va boshqalarni ham hurmatsiz etmas. Qiz o‘quvchilar quyidagi adablarga ko‘proq rioyat etishlari kerak: ota-ona huzurida adab uzra o‘tirmoq, qo‘l, oyoq, yuz, quloq, burun, og‘iz kabi a’zolarni, kiyimlarini pok tutmoq va tishlarini har vaqt misvok (tish tozalagich) bilan yuvmoq, sochni har kuni taramoq va boshqa yaxshi amallar».

**Bundan tashqari mazkur asarda yaxshi tarbiya va yomon tarbiya haqida quyidagilar bayon etilgan:**

«O‘quvchi besh-olti yoshidan oshganida so‘zlashishga, ko‘ziga ko‘ringan, aqli yetgan narsalarni so‘rashga va ularni sinchiklab tekshirishishga boshlaydi. Yosh o‘quvchilarning har narsani kuzatib, aslini bilishga intilishlari ko‘pincha go‘zal va kerakli narsalar haqida bo‘ladi. Yaqin qarindoshlarimiz, do‘st mehmonlarimiz uzoq bir safardan kelganlarida hol-ahvolimizni juda mehribonlik bilan so‘raganlari kabi, yosh o‘quvchilarning bu xil xar narsani so‘rashlari bularga qaraganda ham ma’noli bo‘lur.

Nafas oladigan havo, ichadigan suvimizning foydalarini, yeydigan non, kiygan kiyimlarimizning qanday amallar bilan vujudga kelganini, qorumuz, yomg‘iru qirov, shudringu o‘simliklar, yashinu kamalaklarning nimadan xosil bo‘lganini, hayvonlarning zararli va foydalilarini, qog‘ozni nimadan yasalganini, kitoblar qanday ravishda bosilib, dunyoga tarqalganini, kechayu kunduzlarning uzayib, qisqarganini, kema-yu poezdlarning, aloqa vositalariyu telegrafning qanday qilib odamlarga yetib kelishini, shamolu bulutlarning yurishlarini va boshqa shu kabi hollarni o‘quvchilarga o‘yin orasida ham, o‘yin o‘ynayotgan paytida ham o‘rgatish mumkin. Agarda bu narsalarni o‘z onalaridan o‘rgansalar, tamom ko‘ngillarida qoladi va shunday narsalarni bilishga muhabbatlari ortadi.

Tarbiya ilmini biluvchi onalar fazilatlarga muhabbat bilan qaramoq, razolatlardan nafrat qilmoq yo‘llarini o‘quvchilarning zehnlariga soladilar. Buyuk odamlarning kamolotlarini bayon qilurlar, odil hokimlar, imonli savdogarlar hamda zohid, hunarmandlar, dindor kasbchilarni suyukli qilib ko‘rsaturlar, xastalik va salomatlik sabablarini, majlis-u suhbat adablarini anglatadilar. Hayvonlar og‘izlaridan so‘zlatilmish hikoyatlar tarbiya ilmini biluvchi xotunlar uchun bitmas-tuganmas xazinadir. Ular bu hikoyatlarni so‘zlaydilar, ammo shu hikoyatlar vositasida fazilat va razolatni butunlay o‘quvchilarning ko‘ngillariga singdirib, avvalgisiga muhabbat qo‘yish, so‘nggisidan nafrat qilish yo‘llarini aniq ko‘rsatadilar» - deydi.

O‘quvchi tarbiyasi xifz-i sihhatu ilm-i axloq ilm-i ruhu shariat qoidalaridan ko‘p narsalar bilishga va ko‘p tajribalar hosil qilishga zarurat bo‘lganidan qisqacha bo‘lsa ham bu narsalar haqida bir qadar ma’lumot berish va shu ma’lumotni kundan kunga orttirib borishga tirishmoqlik xotunlar zimmasidagi vazifalardandir. O‘quvchini vaqtli uxlatish zaruratga qarab yuvintirish, kiyimlari va tanasini pok tutish, go‘zal xulqlarga odatlantirish, atak-chechak qilishidan boshlab, to tili chiqqanga qadar alohida e’tibor berish lozim.

**Bugungi kun pedagoglarining o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalasi**

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yyetakchi o‘rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb hisoblash bilan bog‘liq ehtiyojini qondiradi, shuning uchun ham har bir inson uchun uning ahamiyati katta.

Ta’lim jarayonida faqat induktiv analiz, ya’ni ayrim-ayrim olingan bilimlarning umumlashgan bilimlarga aylanishi yoki boshqacha qilib aytganda, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga o‘tishi qonun-qoidalarida kechishi bilan cheklanmay, xususiy o‘ziga xosliklarni deduktiv ravishda ajratib chiqarish jarayonini to‘laligicha ko‘rsatkichlari bilan birgalikda ko‘rish, hollari ham uchraydi.

O‘quvchilar amalga oshiradigan ta’lim jarayonini ikki tomonlama tasavvur etish mumkin. Birinchidan, dars davomida o‘qituvchi axborot vositasi sifatida ta’lim

shaklini amalga oshiradi. Ikkinchidan, oʻquvchilarning dars paytida va darsdan tashqarida amlga oshiradigan oʻquv ishlari tarzida yuz beradi.

*Ta'limni rivojlantirish xizmatlari talabalarni oʻquv dasturlarida yana ham koʻproq muvaffaqiyatlarga erishishlariga qaratilgan. Universitet yoki fakultet miqyosidagi ta'limni rivojlantirish xizmatlari maqsadi talabalarni bilim olishlarini kuchaytirishga va ularni koʻnikmalarini har xil strategiyalar orqali rivojlantirishga moʻljallangan, xususan konfidensial maslahat va uchrashuv, maslahat markazlari, maxsus kurslar, individual va guruh yigʻilishlari, akademik kurslarni integral ta'minlash – bularning hammasi oʻqituvchi va boshqa yordamchi xizmatlarning rolini ideal tarzda birlashtiruvchi yondashuv yaratish uchun qaratilgan.*[13]

Ta'lim jarayoni bevosita oʻqituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan oʻquvchilar oʻqituvchi tomonidan taklif etilgan oʻquv vazifalarini oydinlashtiradilar, oʻquv faoliyati davomida oʻz-oʻzlarini nazorat qiladilar, nazorat natijariga asoslanib, oʻquv faoliyatlarini kuchlari yetgancha toʻgʻrilaydilar, oʻquv faoliyatlari natijalarini oʻzlari va oʻquvchilararo tahlil etadilar.

Ta'lim jarayonida oʻqituvchining rahbarlik, ta'lim berish faoliyati bilan oʻquvchilarning oʻquv faoliyatlari chambarchas bogʻlanib ketadi. Oʻqituvchilar oʻquv harakatlarini nazorat qilish bilan birga oʻz faoliyatini ham uning ta'sirida toʻgʻrilab borishadi. Oʻqituvchi bilan oʻquvchilarning oʻquv faoliyatlari mana shunday uygʻunlashgandagina ta'lim jarayoni yaxlit boʻladi, oʻqituvchi butun vujudi bilan faoliyat koʻrsatsayu, oʻquvchilarni oʻz ortidan ergashtira olmasa, ta'lim jarayonining vazifalari amalga oshmay qoladi.

Oʻqituvchi goʻzallik sohibidir. Bu olijanob, sharafli kasb egalari haqida ne-ne aziz odamlar qoʻllariga qalam olib, joʻshqin hislarini, eng yaxshi ezgu tilaklarini oq qogʻozlarga bitmagan. Hayot abadiy. Ammo u yosh avlod bilan barhayot. Avlod bor ekan, unga ta'lim-tarbiya beradigan mehri daryo oʻqituvchilar ham abadiy barhayot yashayveradi. Oʻqituvchi bamisoli bogʻbon, u yoshlik gulshanining rahnamosi. U oʻz bogʻidagi mevalarini rang-barang va sogʻlom boʻlishiga umid qiladi. Kasblar ichida alohida faxr va iftixor bilan tarona etiladigan kasb, oʻqituvchilik kasbidir. Chunki, biror soha yoʻqki, unga oʻqituvchining bevosita va bilvosita qoʻshgan hissasi boʻlmasin. Oʻqituvchining bilimidan, aql-zakovatidan, mehr-muhabbatidan bahramand boʻlmagan kishi yoʻq.

«Jahonda boʻlmasa muallim agar, hayot ham boʻlmasdi goʻzal bu qadar», - deb yozadi, Sharq mutafakkirlaridan biri Abdurahmon Jomiy. Shu oʻrinda quyidagi oʻqituvchi haq hikmatlar alohida ahamiyatga ega.

---

[13] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 115.

# 6-mavzu. O’QUVCHILARNI O’RGANISH, KUZATISH VA TA’SIR KO’RSATISH METODIKASI

## REJA:

1. O’quvchilarni turli xil metodlar yordamida o’rganish
2. O’quvchilarni pedagogik kuzatish yo’llari
3. O’quvchilarga ta’sir ko’rsatishning shakl va metodlari
4. Pedagogik ta’sir ko’rsatish metodikasi

## TAYANCH IBORALAR:

O’quvchi, guruh rahbari, metod, tarbiyaga kompleks yondashish, individual xususiyat, o’quvchilarni o’rganish, faoliyati, individual yondashish, xulq-atvor, o‘quvchilarini yaxshi o‘rganish, ta’sir ko‘rsatish metodi, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, pedagogik talab

### 1. O‘quvchilarni turli xil metodlar yordamida o‘rganish

Guruh rahbarining faoliyati ko‘p qirrali va sermazmundir. U o‘zi rahbarlik qilayotgan guruh o‘quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o‘quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi.

Tarbiyaga kompleks yondashishi, biror o‘quvchini ham e’tibordan qochirmaslik guruh rahbari uchun alohida masaladir. Tarbiyalash uchun guruh rahbari tarbiya obyekti bo‘lgan o‘quvchini yaxshi bilishi, uni yaxlit idrok etishi kerak. Ko‘pchilik guruh rahbarlari o‘quvchini darsda o‘quvchi, musobaqada sprotchi sifatida, ya’ni har bir aniq ish sharoitidan kelib chiqib idrok etadi va shunga ko‘ra muomala qiladi, o‘quvchi shaxsining boshqa tomonlari esa hozircha hisobga olinmaydi. Ammo har bir o‘quvchining o‘z tajribasi, o‘z emotsional madaniyat darajasi, qadrlaydigan narsalar, ehtiyotlari, talablari, umidlari, aloqalari, munosabatlari kabi butun bir dunyosi bor. Tarbiyada ana shular hisobga olinishi kerak. Guruh rahbari o‘z o‘quvchisining ichki dunyosini, kechinmalarini, xulqida vujudga kelayotgan holatlarning sababini, irodasini yaxshi bilsagina uning qalbiga yo‘l topa oladi va o‘quvchiga ta’sir etishning to‘g‘ri yo‘lini aniqlaydi. Ana shunday sifatlarga e’tibor bergan guruh rohbari tarbiyada yyetakchi o‘rinni egallaydi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, o‘quvchiga tarbiyaviy ta’sir yetuvchi omillar hozirgi davrda g‘oyat darajada ko‘paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Guruh rahbarining o‘quvchiga tarbiyaviy ta’sir etishdagi yyetakchilik, birdamlik rolini tarbiyaviy ta’siri bu qadar ko‘p tarmoqlari orasida saqlab qolish qiyinlashib boryapti. Ba’zan o‘quvchiga tarbiyachidan ko‘ra o‘rtog‘i, qo‘shnisi,

ko‘chadagi do‘stlari kuchliroq ta’sir etishi hollariga duch kelamiz. Ammo buning aksi bo‘lgan taqdirdagina tarbiyada muvaffiqiyatga erishiladi. Bunga esa tarbiyachining nuqtai nazari ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Chunki, har bir o‘quvchida ma’lum kurtaklar: yaxshilik va poklik bilan bir qatorda salbiy, aktivlik va passivlik sifatlari mavjud. U munosabatlarga e’tibori jihatidan ham har xil sifatlarga ega.

Agar tarbiyachi unga optimistik nuqtai nazardan yondashsa, o‘quvchi yaxshilikka intilib, uning umidini oqlaydi va aksincha, o‘quvchiga oldindan noshud, yalqov, tartibsiz deb qaralsa hamda, o‘jarlik va terslik ushbu o‘quvchining sifati deb hukm chiqarilsa, u holda tarbiyalanuvchi o‘zining xuddi shunday qilib ko‘rsatadi. Natijada u bu borada ham tarbiyachining «umidini oqlaydi».

Guruh rahbari o‘quvchilarni yaxshi bila olishi uchun ularni o‘rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman, o‘quvchining hayoti o‘tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. O‘quvchini o‘rganish bilan guruh rahbari uning individual xususiyatlari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘ladi.

Guruh rahbari o‘ziga berilgan guruhni qabul qilib olish bilan o‘quvchilar haqida ko‘pgina ma’lumotlarni aniqlaydi. Bu ma’lumotlar o‘quvchining oilasidan, o‘qituvchilardan, o‘rtoqlaridan olinadi va tarbiyaga yagona ta’sir birligi ham shu asosda vujudga keladi

O‘quvchining individual xususiyati uning xulqiga, o‘zlashtirishiga munosabatlariga, jamoadagi o‘rniga ta’sir etadi. Shu boisdan ham jamoadagi individlar tarbiyalanayotganda alohida o‘quvchini unitish yaramaydi. Chunki, guruh rahbari ko‘pgina tashkiliy ishlarni uyushtirishda kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga muntazam yordam berish kerakligini faqat ularning individual xususiyatlarini yaxshi bilish tufayligina bexato aniqlaydi. Demak, individual munosabat o‘quvchiga tarbiyaviy ta’sir etishning eng samarali yo‘lini topish imkoniyatini beradi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini ham o‘rganishi kerak.

Mana shu o‘rinda o‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalasiga alohida e’tibor berish lozim. Bu uchlik markazida o‘quvchi turadi, ta’lim tizimi va oila esa unga ikki tomondan ta’sir etadi. Ayni vaqtda o‘quvchi ta’lim tizimi bilan oilasidagi aloqani ta’minlovchi vosita rolini ham bajaradi. Lekin uning ta’lim tizimi haqidagi oilaga yetkazadigan ma’lumotlari hamisha ham haqiqatga to‘g‘ri kelavermaydi va u hatto kundalik orqali beriladigan axborotlarni ham o‘zicha talqin etib boradi. Ko‘pincha oila bilan ta’lim tizimi o‘rtasida vujudga keladigan anglashilmovchilik ham mana shu tufayli ro‘y beradi. O‘quvchi kattalarning o‘zi bilan muomola qilayotgan vaqtdagi pozitsiyasini solishtirib ko‘rish orqali ma’lum xulosaga keladi va o‘ziga hukm chiqaradi. Xuddi shu hol uning xulqida o‘z aksini topadi va u bir gal o‘qituvchining, boshqa vaqt ota-onasining tarbiyasini oladi. Hatto eng vijdonli o‘quvchida ham bu hol ro‘y berishi tabiiydir.

## 2. O'quvchilarni pedagogik kuzatish yo'llari

Guruh rahbari tarbiyaviy ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning o'quvchilar ichki dunyosiga chuqur kirib borishiga, ularning kechinmalari hamda xulq-atvorini tushunishiga bog'liqdir. O'quvchining nima bilan yashayotganligini, uning qiziqishi va mayillari qandayligini irodasining o'ziga xosligi hamda xarakteri xususiyatlarini o'rganish deganimiz, uning qalbiga mumkin qadar ishonchli yo'l topish, unga tarbiyaviy ta'sir etishning maqbul metodlaridan foydalanish demakdir.

Guruh rahbari guruhni qabul qilib olgandan keyin, uning birinchi ishi, odatda, o'quvchilarni o'rganishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu ish uning o'zi birikitirilgan guruhdagi butun ish faoliyati mobaynida davom etadi va uning tarbiyaviy ishi sistemasida muhim bir tomonni tashkil etadi. O'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning xulqlari va mayllarini, ular olgan tarbiya darajasini bilgan holda, ma'lum maqsadga qaratilgan va ta'sirchan reja tuzish oson bo'ladi. O'quvchilarni o'rganish (41- rasm)

41-rasm

**O'quvchilarni o'rganish**

**Tarbiyachi o'quvchining individual xususiyatlarini yaxshi o'rgangach** va tushungan taqdirdagina, bu o'quvchi shaxsini muvaffaqiyatli tarbiyalab, yetishtira oladi. O'quvchilarni o'rganish o'qituvchining, ayniqsa guruh rahbarining vazifasidir. U o'quvchilarni faqat darsdagima emas, balki guruhdan tashqari vaqtda ularga tarbiya berish vaqtida ham, o'quvchilar uylariga borganda ham, har xil ekskursiyalar vaqtida ham o'rganadi

Ma'lumki, o'quvchi shaxsning tarkib topishi va rivojlanishi bir tekis bormaydi. Guruh rahbarining mazkur o'quvchi to'g'risida qilgan belgilari bugunga kelib yetarli bo'lmay qolishi mumkin. To'g'ri, o'quvchilarni o'rganish ko'p vaqt va kuch talab etadi. Ammo keyinchalik bular hammasi katta natijalar beradi. Guruh rahbari o'quvchilarni, ularning xususiyatlarini bilgan holda, ular kamoloti jarayonini muvaffaqiyatli tarzda yo'lga solib, etishish mumkin bo'ladi. O'quvchilarni o'rganishga boshqa o'quvchilar, yyetakchilar va ota-onalar jalb etiladi.

Shuningdek, *kuzatish eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, akademiklarning pedagogik qobiliyatlarini namoyish etishda foydalaniladi. Mazkur usul o'qituvchining o'z kasbini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi hamda uning dars uslubini summativ baholashda ishlatiladi. Kuzatuv jarayonida o'qituvchi haqida olingan ma'lumot, sinov muddati so'ngida o'qituvchini o'z o'rniga to'g'ri belgilanganligini tasdiqlashda yordam beradi*[14]

[14] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 472.

Bunda o‘qituvchilar hamda guruh rahbarlari ishidagi mutanosiblikka rioya qilish juda muhimdir. O‘quvchilarni o‘rganish natijalari bilan barcha o‘qituvchilarni tanishtirib borish zarur. Shu bilan birga, ularning har qaysi o‘quvchi to‘g‘risida bilganlarini ham hisobga olish lozim. Bular o‘quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga bir xilda talablar qo‘yish va bir xil muomala qilishga erishishga yordam beradi. O‘quvchilarni o‘rganish ularga induvidual yondashishining zarur shartidir. O‘quvchilarni ularga ta’lim va tarbiya berish jarayonida har qaysi o‘quvchiga indivudual yondashishga erishish maqsadida o‘rganmoq lozim. O‘quvchilar o‘z xarakteriga, qiziqishi va mayliga ko‘ra bir xil emas. Ulardan bir xillari birmuncha chaqqon, boshqa bir xillari esa sustkash, uquvsiz, ba’zi o‘quvchilar jasur va shijoatkor, boshqa birlari esa uyatchan va tortinchoq bo‘lishadi. Ba’zi bir o‘quvchilar o‘z tashkilotchiligi va qat’iyligi bilan ajralib tursa, boshqa birlarida esa bu xususiyatlar mavjud emas. Xullas, guruh bir biriga o‘xshamagan, turli xususiyatdagi o‘quvchilardan tashkil topadi. Guruhda tashqi ko‘rinish jihatidan bir-biriga o‘xshash o‘quvchilar bo‘lmagani singari, o‘z ichki xususiyatlari jihatidan bir biriga o‘xshaydigan o‘quvchilar ham bo‘lmaydi. Ularning xarakteri, qiziqishlari, kayfiyatlari va xohishlari, ularning xulq-atvorlari sabablari, ko‘nikma va malakalari, odatda, turlicha bo‘ladi. Har qaysi o‘quvchi o‘ziga xos, boshqalarga o‘xshamaydigan xususiyatga ega bo‘ladi. U alohida shaxs sifatida kamol topib boradi.

Odatda, guruh rahbari guruhdagi barcha o‘quvchilarga nisbatan yagona tarbiyaviy vazifalar qo‘yadi va hal etadi. Masalan, u o‘zining barcha o‘quvchilarini mehnatsevarlikka, bir jon bir tan bo‘lishga, haqqoniylikka o‘rgatishga harakat qiladi. Ammo bu vazifalarning hal etish yo‘llari, vosita va metodlari o‘quvchilarning induvidual xususiyatlariga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning ba’zilarini o‘z vaqtida rag‘batlantirish, ba’zilariga buyurish xulq-atvor qoidalarini buzgan o‘quvchilarni jazolash darkor. Binobarin, o‘quvchilarga to‘g‘ri tarbiya bermoq uchun tarbiya jarayonida ularga individual yondashishni amalga oshirmoq kerak. Buniig uchun esa ularni chuqur va har tomonlama o‘rganmoq zarur. Guruh rahbari o‘z o‘quvchilarini bilmasa, u o‘quvchilarga yondashishda, pedagogik ta’sir ko‘rsatish metoddarini tanlashda katta xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin.

O‘quvchilarga individual yondashishning amalga oshirilishi tarbiya va ta’lim berish prinsiplaridan biridir. Bu tamoyil o‘quvchilar va guruh rahbarlarining o‘quv-tarbiyaviy ish tajribalaridan o‘quvchilarni sevish va hurmat qilinishing nomoyon bo‘lishi, ularning kamoloti to‘g‘risida kundalik g‘amxo‘rlik qilish asosida keng qo‘llanadi.

## 3. O‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishning shakl va metodlari

Tarbiyachi o‘quvchilar jamoasini tarbiyalar ekan, hech qaysi o‘quvchini nazardan chetda qoldirmasiligi darkor. O‘quvchilarning xulq-atvori, tartib- intizomi, o‘zlashtirishi ko‘p jihatdan ularning individual xususiyatlariga bog‘liqdir. Ba’zi bir o‘quvchi o‘zining o‘qishga bardoshsizligi tufayli darslarga ulgurmaydi, ikkinchi birining darsda yaxshi javob berishga o‘z jur’atsizligi, tortinchoqligi halaqit beradi, yana birining yaxshi o‘qishi, o‘zlashtira olmasligining sabablarini bilgandan

keyingina, unga ta'sir o'tkazish borasida, real va ta'sirchan tadbirlar qo'llash mumkin bo'ladi.

***1. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hamisha va hamma joyda hisobga olmoq zarur***

O'quvchilarga individual yondashish bu, har qaysi o'quvchining xususiyatlariga faol tarzda moslashish degani emas. Bu, eng avvalo, har qaysi o'quvchining individual xislatlarini, uning psixologik taraqqiyoti xususiyatlarini, uning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning yanada samarali yo'llarini faol ravishda qidirib topishdir. Bunday yondashishga faqat tarbiyalash va o'qitish qiyin bo'lgan o'quvchilargina emas, balki istisnosiz hamma o'quvchilar muhtojdir, tarbiyachining, o'qituvchining vazifasi faqat qoloqlarni va intizomsizlarni ilg'orlar va intizomlilar qatoriga yetkazib olishdagina iborat emas, balki shu bilan birga barcha o'quvchilarning, jumladan, eng yaxshi intizomli, bilimli, san'atga havasmand o'quvchilarning ham aqliy, ham quvvatlarini va tashkilotchilik qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir.

Hatto o'quvchilarni guruhda joylashtirish kabi ishlarda ham ularga individual yondashishga rioya qilmoq darkor. O'quvchilarni o'rganish qator talablarga javob bergan taqdirdagina, u o'z oldiga qo'yilgan natijalarni beradi. Ta'lim tizimilari o'z tarbiyaviy ishini ko'p darajada yengillashtirish, bu tarbiyaviy ishni yanada aniq va maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borish ekanligi guruh rahbari uchun qoida tusiga kirmog'i zarur. O'quvchilarga tarbiya berish (42-rasm):

42-rasm

**O'quvchilarga tarbiya berish**

O'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga individual tarzda yondashish har qaysi o'quvchini o'z nazar-e'tiborida tutishdan, uning xususiyatlarini bilishdan, uning ijobiy xislatlariga tayanishdan, unga og'ir paytlarda muntazam yordam ko'rsatib borishdan va uni yaxshi xatti-harakati uchun rag'batlantirib turishdan iboratdir

***2. O'quvchilarni o'rganib, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.***

O'quvchi shaxsini o'rganish ham piravord maqsad emas, balki ularga ta'lim-tarbiya berish uchun zaruriy shart-sharoitdir. Odatda, tajribali guruh rahbarlari o'rganayotib tarbiya berish, tarbiyalayotib o'rganib borish qoidasiga amal qiladilar. O'quvchilarni o'rganishi bu tarbiyachilar uchun muvaffaqiyatli tarbiyalashning zaruriy shart-sharoiti bo'lib xizmat qiladi, tarbiyalashdan esa o'z navbatida o'quvchilarni kamol toptirish jarayonida ularni o'rganishning asosiy yo'llaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchilarni o'rganish borasidagi ishlar shaxsni kamol toptirishning tabiiy tarzda faol ishtirok etish bilan, o'quvchilarda zaruriy ma'naviy

xislatlari va xarakter xususiyatlarini tarkib topish bilan organik ravishda qo'shilib ketadi.

Guruh rahbari o'quvchilar xulq-atvoridagi ijobiy xislatlarni rivojlantirish, salbiy xususiyatlarga barham berishni «loyihalashtiradi».

***3. O'quvchilarni o'rganishni rejali tarzda va muntazam olib borish darkor.***

O'quvchilarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo'ysindirilmog'i lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlang'ich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi. O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib berish bilangina cheklanib qolish noto'g'ri bo'lur edi. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganishda demak, ularning tashqi tomoni emas, balki xulq-atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

***4. O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish.***

O'quvchini ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali jamoat ishlariga jalb qilish lozim.O'qituvchilarning o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va tevarak-atrofidagi kishilar bilan kirishadigan munosabatlarini o'rgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxsning qiyofasi yanada to'laroq ochiladi. O'quvchilarni tabiiy ish va kundalik xatti-harakat jarayonida o'rganish o'quvchiga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

O'quvchilarni xilma xil metodlar va usullar bilan o'rgatish.

O'rganish metodlari qanchalik turlicha bo'lsa, o'quvchilarni shunchalik to'la va asosli o'rganishi mumkin bo'ladi. O'quvchi shaxsini o'rganishining asosiy metodlaridan biri uning ish faoliyati va xatti-harakatlarini o'rganishdan iboratdir. Ayni bir vaqtda qo'shimcha metodlar sifatida o'quvchilar bilan, mazmun sifatida ish olib boradigan o'qituvchilar bilan o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlardan foydalaniladi.

O'quvchilarning ish faoliyatlari natijalarini tahlil qilish singari metodlar ham qo'llanadi. O'quvchilarni o'rganish metodikasi ta'sirchan bo'lmog'i kerak. O'quvchini o'rganish asosida uning xarakteri va xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarining oldini olish ham ijobiy xislatlarni mustahkamlash yo'llarini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

***5. O'quvchilarni o'rganib, ular hayoti va turmush sharoitlari bilan tanishish.***

O'quvchilarning axloqiy xislatlari, uning yutiqlari va kamchiliklari, eng avvalo, uning ta'lim va tarbiya olish jarayonida ijtimoiy uy sharoiti, tevarak-atrofi ham ahamiyat kasb etmaydi. O'quvchilarni o'rgatish dasturi ularni faqat ta'lim tizimidagina emas, balki shu bilan birga, uy sharoitida, oilada ham o'rganishni nazarda tutmog'i darkor.

***6. Shaxsning alohida xususiyatlarini emas, balki butun shaxsni o'rganmoq darkor.***

Ilmiy natijalar o'quv dasturi orqali qo'lga kiritilgan maxsus bilim va malakalarning oshkora namunasidir. Biz bir nechta savollar tuzishimiz mumkin: Talabalar oldin bilmagan nimani o'rgandi hamda ilgari ularning qo'lidan kelmagan

nimani hozir qila olishadi? Hissiy natijalar ham bir necha quyidagi kabi savollarni aniqlashtirishda muhim: Talabalarning o‘quv tajribasi ularning qadriyatlari, maqsadlari, munosabatlari, o‘z-o‘ziga bahosi, dunyoqarashi va xulq-atvoriga qanday ta’sir qildi? Ularning kuch va imkoniyatlari qanchalik rivojlandi? O‘z-o‘zi, do‘stlari, oilasi va jamiyatga nisbatan munosabatlari qanchalik o‘zgardi? *Umuman, pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarini mukammal egallamasdan va undan mohirona foydalanmasdan turib ta’lim-tarbiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib bo‘lmaydi.*[15]

Guruh rahbari tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o‘quvchi xulq-atvorining ayrim tomonlarini o‘rgatishga e’tiborini qaratishi mumkin. O‘quvchini har tomonlama o‘rgatishga erishmoq uchun dasturni oldindan yaxshi o‘ylab tuzish, o‘quvchilarni o‘rgatish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularini tayyorlab olish zarur.

## 4. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasi

Pedagogika o‘z metodlarini yo‘q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, o‘quvchilar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasi o‘quvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o‘quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

**Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari**

Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari - ishontirish, talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir. O‘zaro hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi. M.: Kommunizmga ishonish.

Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. Bilim; 2. Hissiyot; 3. Xulq-atvor. U tushunish - kechinma - qabul qilish orqali amalga oshadi. Ishontirish shakllari quyidagilar: ma’ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko‘rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna.

**Istiqbol** – ta’sir ko‘rsatishning juda ta’sirchan usuli bo‘lib, u o‘quvchilarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qoyish yo‘li bilan ta’minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul ta’lim muassasasi o‘quvchilarida shaxsning eng muhum fazilatlaridan biri bo‘lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi.

**Rag‘batlantirish va jazolash** – tarbiyaning eng an’anaviy usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya’ni foydali xatti-harakatlarni

[15] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 217.

qo‘shimcha rag‘batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to‘xtatishni ta’minlaydi. Bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta’sir ko‘rsatish yo‘lidan foydalaniladi. Rag‘batlantirish va jazolash metodi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganligi sababli uni qo‘llashda juda ehtiyot bo‘lish lozim.

**Pedagogik talab** – ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bo‘lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Pedagogik ra’sir ko’rsatish (43-rasm):

43-rasm

**Pedagogik ta’sir ko‘rsatish**

usuli bo‘lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar o‘quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag‘batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan o‘quvchilarning harakatlari birligiga erishish yo‘llarini ta’minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, o‘quvchilarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir

**Jamoatchilik fikri** – ta’sir ko‘rsatishning qudratli usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag‘batlantirib borishni ta’minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to‘liq amalga oshiradi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir.

**Pedagogik ta’sirning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni**

Respublikamiz istiqlolga erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo‘iladi, ikkinchi tomondan esa shaxsga katta hurmat ko‘rsatiladi. Bu shaxsga bo‘lgan talablarni va unga bo‘lgan izzat-hurmatni birga qo‘shish - ikki xil zarur shart bo‘lib, pedagogning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari o‘z tarbiyalanuvchilari taqdiriga beparvo bo‘lgan kishilar qo‘lida sof kasb-korlik vositalari emas, balki insonlar orasidagi jonli munosabatlar majmuidir.

Umuman, pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarini mukammal egallamasdan va undan mohirona foydalanmasdan turib ta’lim-tarbiya sohasida katta muvaffaqi-yatlarga erishib bo‘lmaydi. Ijtimoiy ruhiyat nazariyasida va pedagogik amaliyotda o‘zaro fikr almashishda ta’sir ko‘rsatish ikki usulda olib boriladi: ishontirish va ta’sir

etish. Rus pedagogi Uspenskiy “Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirishdir, odamning e’tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta’sir qilish mumkin”, degan edi. O‘qituvchi faoliyati o‘z o‘quvchilarini ishontirish va ta’sir etishni talab qiladi.

**Pedagogning barcha ta’sirlari:** tarbiyalanuvchilarning munosabatlari, fikrlari, his-tuyg‘ulari, harakatlarini o‘zgartirishga va mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, u muhit va tabiatning hamkorligida ta’sirlanadi. O‘zaro hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishning natijasi ishonchdir. Ishonch asosida o‘qituvchining bilimlar tizimi, dunyoqarashlari, munosabatlari va xulq-atvori shakllanadi.

Bundan tashqari, ko‘pchilik talabalarni birinchi yili oliy ta’lim muassasasida o‘qishini boshlaganlarida va har xil yordamlarga muxtoj bo‘lganlarida, ularni hissiy holatlarini inobatga olish zarur. Odatda, ular hayajonlanadilar, o‘zlarini muaamolarini hal qilishlarida ishonch yetishmasligini sezadilar va ulardan nimalar talab qilinishidan bexabar bo‘ladilar hamda boshqa talabalar va o‘qituvchilar bilan aloqalar o‘rnatish masalasida tashvishlanadilar.[16]

**Ishonch** – o‘zaro hamkorlikdagi ta’sir etishning natijasi ekanligini ko‘ramiz. Ishonch ikki xil, ya’ni haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi. Haqiqiy ishonch real borliq hayot talablariga mos bo‘lib, u insonni qadrli, obro‘li qiladi. “O‘quvchilikka buyuk hurmat-ehtirom bilan qarash lozim”, degan Iuvenal (123-b). Inson o‘z ishonchini himoya qilish uchun o‘limga ham boradi. Soxta ishonch o‘zi va birovlarning salbiy tajribasi, qarashlari asosida hosil bo‘ladi. O‘quvchilardagi soxta ishonchni o‘zgartirish uchun o‘qituvchi ko‘p kuch sarflaydi. U uch yo‘nalishda olib boriladi: sinf jamoasida sog‘lom ijtimoiy fikrni shakllantirish, qimmatli maxsus individual tajribani yaratish, noto‘g‘ri ishonchdagi qarash, bilim, tasavvur, tushunchalarni bartaraf etish.

Ishonch odamlarning dil rishtalarini bog‘lovchi katta kuch. Buning uchun odam boshqalarga ishonmog‘i, ixlos qilmog‘i kerak. Halollik, adolat sof vijdonlilik, poklik, so‘z va ish birligi ishonchning mezonlaridir. Ikkiyuzlamachilarga, firibgarlarga, munofiqlarga hech kim ishonmaydi. Quyida ishonch formulasi berildi (44-rasm).

Ishontirish hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishda maksimum ta’sirli bo‘lishi uchun quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak:

- ishontirish mazmuni, shakli o‘quvcnining rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi (kichik o‘quvchilarda ertak, fantastik hikoyalar va boshqa);
- ishontirishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ishontirish umumlashgan, konkret asoslarga, misollarga, boshlang‘ich sinflarda ovozli materiallarga tayanishi;
- ishontirishda o‘qituvchi o‘zi xabar qilayotgan narsaga o‘zi chuqur ishonishi va h.k.

**Ishontirishning o‘zaro hamkorlikdagi ta’sir ko‘rsatish samarasi quyidagi shartlarda yuz beradi:**

---

[16] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 118.

- o‘zaro hamkorlikda ta’sirning kuchi ishontiruvchining obro‘siga va voqeaning mazmuniga bog‘liq (o‘quvchi o‘qituvchiga qanchalik ijobiy munosabatda bo‘lsa, shunchalik unga tez ishonadi);

44-rasm

**Ishonch formulasi**

**Insonda ishonch uchta tarkibiy qismdan tarkib topadi: bilim – hissiyot – xulq-atvor. Ishonch quyidagi formula:**

Tushunish – kechinmalar – o‘ziga qabul qilish – bajarish (o‘z faoliyati va atrofidagilar tajribasi) asosida amalga oshiriladi.

Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki o‘zgaradi. Iishontirish shakllari quyidagilar: munozara, bahs, suhbat, hikoya qilish va namuna

- ishontirishda o‘quvchining individual ruhiy holatini hisobga olish;

- ishontirishda ishontiruvchining intellektual hissiy holati bilan ishonuvchining holati mos bo‘lishi kerak. Masalan, o‘quvchi haddan tashqari hayajonlanganda, noxush his-tuyg‘ular unda hukmronlik qilganda, uning xulqidagi kamchiliklarni ko‘rsatish orqali ta’sir ko‘rsatish samara bermaydi.

Ishontirish metodi fikr, hissiyot va iroda bir butun holda muvofiqlashgandagina ta’sirli bo‘ladi. Ishontirishning samarasi o‘qituvchining so‘z va ish harakat birligiga ham bog‘liq.

Ta’lim va tarbiyada o‘qituvchining ishontirishi haqida Ibn Sinoning quyidagi ibratli so‘zlari qimmatlidir: “Har bir so‘z harakat va mimika bilan tasdiqlanishi, o‘quvchilarda hissiyot uyg‘otadigan bo‘lishi zarur”.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatishda ishontirish metodi bilan bir qatorda ta’sir ko‘rsatish metodi ham qo‘llaniladi. Uzoq yillar pedagogik jarayonda ta’sir etish tan olinmas edi. Biz xohlasak-xohlamasak ta’sir ko‘rsatish elementlari hayotda o‘zaro hamkorlikda muhum rol o‘ynaydi. So‘z yordamida biz o‘quvchilarda ziyraklik yoki qo‘rquvni, o‘ziga ishonch yoki ishonchsizlikni, zerikish, ishonch yoki shubha singarilarni hosil qilamiz.

O‘quvchilarga ta’sir qilish so‘zning fandagi ma’nosiga qarab emas, so‘z va nutq intonatsiyasi, aniqligini ifodalovchi hamda bularni mustahkamlovchi imo-ishoralar – yuz, qo‘l harakatlari bilan bevosita hissiyotga ta’sir etadi. Bu haqda Makarenko: “... Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, o‘z yuzida zarur ma’nolarni bera bilmaydigan yoki o‘z kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo‘lishi mumkin emas”, - deb o‘rinli ta’kidldgan.

**Suxomlinskiy so'zning ta'siri haqida** – "O'qituvchining so'zi - tarbiyalanuvchining qalbiga ta'sir o'tkazadigan yagona so'z. Tarbiyachilik san'ati - avvalo, gapirish, inson yuragiga murojaat qila olish san'atidir. Men shunga astoydil ishonamanki, ko'pincha katta janjal bilan tugaydigan, ta'lim muassasasida tez-tez sodir bo'lib turadigan mojarolar – o'qituvchilarning o'quvchilar bilan gaplashishni bilmasliklari oqibatidir", - degan fikrlari qimmatlidir.

Pedagogik ta'sirning samarali bo'lish shartlaridan biri quyidagilardir: o'quv materialining mazmuni; ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining ta'sir ko'rsatishga bo'lgan munosabati; ta'sirning o'quvchi yosh va individual sifatlariga va ta'sir ko'rsatishdagi holatiga bog'liqligi; o'qituvchining ta'sir ko'rsatish texnikasiga, ta'sir ko'rsatishning asoslangan sifatiga va amalda qo'llash uchun yaratilgan sharoitga va boshqalarga bog'liq.

**Pedagogik ta'sir ko'rsatish turlari**

Ta'sir ko'rsatish ko'pincha quyidagi asosga ko'ra tavsiflanib, ular 5 ta turda olib boriladi (44-rasm).

**1. Harakat manbaiga asoslanib ta'sir ko'rsatish:**

a) boshqa kishi orqali ta'sir ko'rsatish;

b) o'ziga-o'zi ta'sir qilish - ta'sir etish obyekti bilan subyekti mos tushadi.

**2. Subyektning holatiga asoslanib, ta'sir ko'rsatish:**

a) uyg'oq holda ta'sir ko'rsatish;

b) uxlagan holda ta'sir ko'rsatish;

c) gipoteza holida ta'sir ko'rsatish (faraziy, taxminiy).

**3.Ta'sir ko'rsatuvchining bor yoki yo'qligi, ta'sir ko'rsatish maqsadiga qarab,_ongli ravishda, zo'r berish orqali amalga oshiriladi:**

a) oldindan mo'ljallab, ta'sir ko'rsatish;

b) mo'ljallamasdan, ta'sir ko'rsatish. Mo'ljallangan ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi oldiga qo'yilgan maqsad asosida ruhiy ta'sir ko'rsatishni ongli tashkil etib, o'z oldiga qo'ygan natijaga erishadi. Masalan, o'qituvchi yaxshi o'qigan o'quvchining o'qishdagi ijobiy tomonlarini o'quvchilar oldida maqtaydi va unga kuchli ta'sir etadi. Mo'ljallanmaganda ta'sir ko'rsatuvchi o'z oldiga maqsad qo'ymaydi. Ba'zan o'qituvchi o'zi tushunib yetmay, odatdagidan murakkab bog'lanishda bir o'quvchiga murojaat qilib, unga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sen hamma vaqt shundaysan. Senga biror ishni topshirsam, baribir sen uni uddalay olmaysan, kabi. Quyida pedagogik ta'sir ko'rsatish turlari keltirildi (45-rasm).

c) o'ziga-o'zi ta'sir etish ham mo'ljallangan va mo'ljallanmagan. Inson ongli ravishda o'zidagi salbiy sifatlarni yo'qotishga intiladi. Mo'ljallanmaganda esa bu holatni ongsiz, erkin, o'z xohishicha amalga oshiradi.

**4. Ta'sir etish natijasiga qarab, ikkiga bo'linadi:**

a) ijobiy; b) salbiy. Ijobiy ta'sirda ijobiy ruhiy sifatlar shakllanadi (odat, qiziqishlar, munosabatlar). Salbiy ta'sir ko'rsatishda salbiy sifatlar shakllanadi. Masalan, tahqirlash, ma'naviyasizlik va h.k.

**5. Ta'sir etish mazmuniga qarab farqlanadi:**

a) ochiqchasiga ta'sir ko'rsatish. Ta'sir ko'rsatishni to'g'ridan-to'g'ri, ochiqchasiga ta'sirlanuvchi biror aniq harakatga da'vat etadi. Masalan, bundan keyin hech qachon chekmaysan;

b) yashirin holda ta’sir ko‘rsatish. Ta’sir ko‘rsatishda maqsad yashirinadi, to‘g‘ri aytilmaydi, u yoki bu mo‘ljal qilingan ta’sir harakat orqali amalga oshiriladi.

**Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shakllari** (46-rasm).

**Ta’lim muassasasida pedagogik ta’sir etishning quyidagi shakllari qo‘llaniladi:**

**I.** Bevosita oldindan mo‘ljallab ta’sir etish (bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etish deyiladi) bunda buyruq va murabbiy ta’sir etishi qo‘llaniladi.

45-rasm

**Pedagogik ta’sir ko‘rsatish turlari**




**Buyruq o‘quv-tarbiyaviy jarayonda quyidagi turlarda qollaniladi:**

1. Ogohlantiruvchi yoki yo‘naltiruvchi shaklda. Bunda vazifa qisqa vaqtda bajarishga da’vat qilinadi. Masalan, Diqqat! Tayyorlaning!

2. Bajaruvchi shaklda. Masalan, to‘g‘irlaning! Smirno! Stop!

3. Taqiqlovchi shaklda. Masalan, To‘xta! Tugat! Bas!

4. Namuna asosida bajariladi. Masalan, men shunday bajarsam, sen han shunday bajar. Validek bajar. Murabbiy ta’sir ko‘rsatish shakli. Masalan, “Sen yaxshi o‘qiy olishing mumkin. Bugun sen uch soat dars tayyorlaysan” kabi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shakllari (46- rasm)

**II.** Bilvosita ta’sir ko‘rsatisn o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bilvosita ta’sir ko‘rsatishning quyidagi shakllari mavjud: sha’ma shaklida (o‘qituvchiga jamoat isnlaridagi faolligi uchun uni qo‘llab-quvvatlaydi”. “Mabodo, sen charchamadingmi?” ta’sir ko‘rsatishning bilvosita ma’qullashi).

**Ta’sir ko‘rsatishning pedagogik ta’sir texnikasi**

Ta’sirning samarasi, ta’sir ko‘rsatuvchining ovoz tuzilishi, qarashlari (aft-bashara holati), harakatlarning uzviyligiga bog‘liq. Murabbiyning ta’sir ko‘rsatuvchiga ko‘rsatgan ta’siri so‘z bilan ta’sir ko‘rsatish mazmuni uning intonasiyasini, imo-ishorani, yuz, aft harakatlarini qo‘llab-quvvatlaganda kuchli bo‘ladi. Bular mazmunga zid bo‘lmasligi kerar. To‘g‘ri aloqa uslubini shakllantirishda o‘zini tuta bilish, o‘zini bilish, haqqoniy bo‘lish boshqalar tarbiyasiga ijodiy yondashish, pedagogik texnikani rivojlantirish, hazilni sezish

singari sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda albatta, o‘qituvchi doimo o‘z o‘quvchilarini hurmat qilishi va ular shaxsini himoya qilishi shart.

46-rasm

**Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shakllari**

**Ta’sir ko‘rsatish shakllari**

- Bevosita oldindan mo‘ljallab ta’sir etish (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etish)
  - Ogohlantiruvchi yoki yo‘naltiruvchi shaklda
    Bajaruvchi shaklda
    Taqiqlovchi shaklda
    Namuna asosida bajariladi
- Bilvosita ta’sir ko‘rsatisn o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositasi
  - Sha’ma shaklida: o‘qituvchiga jamoat isnlaridagi faolligi uchun uni qo‘llab-quvvatlaydi”. “Mabodo, sen charchamadingmi?” ta’sir ko‘rsatishning bilvosita ma’qullashi

## 7-mavzu. GURUH JAMOASINI TASHKIL ETISH VA UNI TARBIYALASH METODIKASI

### REJA:

1. Jamoa haqida tushuncha
2. SHaxsning jamoada qaror topishi.
3. Jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi tamoyili
4. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalash
5. O’quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o’zaro hamkorlik

### TAYANCH IBORALAR:

Jamoa, shaxs, jamoada shaxs, tarbiya, ijtimoiy muhit, Sharq mutafakkirlari, ijtimoiy hayot, munosabat, jamoa hayoti, o‘zini-o‘zi boshqarish, jamoa xususiyati, jamoa a’zolari, o‘quvchining jamoada, o‘quvchilar jamoasi, jamoani shakllantirish, guruh rahbari, Jamoa munosabatlari, oila

### 1. Jamoa haqida tushuncha

**Jamoa** (lotincha «jamoaviyus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

## 2. Shaxsning jamoada qaror topishi

**Shaxs** psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a’zosi bo‘lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi.



Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma’naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy me’yorlar mohiyatini o‘zlashtiradi. Jamiyatning a’zosi sifatida uning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yadi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo‘lida ham atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi.

**Shaxs** ijtimoiy muhitdan uzilgan holda mavjud bo‘la olmaydi. Buning misoli sifatida R.Kipling tomonidan yaratilgan asardagi Mauglini keltirish mumkin. Garchi, inson o‘quvchisi bo‘lsada, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etish ko‘nikma va malakalari shakllanmaganligi bois odamlar hayotiga moslasha olmaydi.

O‘quvchi yoshligidan o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit o‘quvchiga borliqni anglash uchungina emas, balki o‘zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. O‘quvchining doimiy ravishda jamoa orasida bo‘lishi, uning jamoa ta’sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roliga alohida e’tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o‘zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta’sir etishi, shu bois o‘quvchilarni tarbiyalashda u mansub bo‘lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta’kidlaydi. O‘quvchini yomon ta’sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Quyida jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash haqida berildi (47-rasm):

47-rasm

**Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash**

Tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi

Shuningdek, alloma o‘qitish samaradorligini ta’minlashda o‘quvchilarga jamoa asosida bilimlarni berish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, ularning yordami va qo‘llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo‘lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi. Abu Rayxon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o‘zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrihohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o‘rnini belgilab beradi, deb hisoblaydi. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so‘z yuritamiz.

**Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi** hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o‘z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo‘lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o‘zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

Shu bois, jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi.

**Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud bo‘ladi.** Muayyan jamoaning har bir a’zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘z jaomasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a’zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo‘yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va rolini to‘g‘ri baholay olish jamoa a’zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o‘rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo‘linishga yo‘l qo‘ymaydi.

Har bir jamoa **o‘zini-o‘zi boshqarish organiga** ega va bu umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari

orqali umummilliy jamoa bilan bog‘lanadi. **Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat** jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o‘z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o‘rnata olishdagi usul, ya’ni, jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblandi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa, xususan, uning a’zolari o‘rtasida o‘zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg‘urish, mazkur yo‘lda amaliy harakatlarni tashkil etish hamda javobgarlik hissi qaror topadi (48-rasm).

48-rasm




**Jamoaning o’ziga xos xususiyatlari**

Demak, jamoa o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas’uliyat hissini uyg‘ota borib, jamoa a’zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a’zolarda jamoaga mansublik hissini paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo‘lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a’zolari orasida o‘zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko‘pincha o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi hamda ular o‘qituvchining ta’sir ko‘rsatishi uchun qo‘l keladi. Jamoa a’zolari o‘rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo‘lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog‘liqdir.

**Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim**

**Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda** jamoa faoliyatining turli ko‘rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy jihatlari ko‘zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomondan, jamoa a’zolari o‘rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a’zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo‘lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

**Norasmiy tuzilma jamoaning barcha** a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo ma’naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a’zolar o‘rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a’zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o‘rinni egallaydi. O‘quvchining jamoadagi o‘rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasa yoki sinfdagi rasmiy va

norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo‘lganda, jamoaning rasmiy etakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko‘zga ko‘ringan o‘rinni egallagan holdagina, u chinakam jamoa bo‘la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo‘lgandagina, jamoa o‘zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o‘zaro birikkan o‘quvchilar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo‘lmasin haqiqiy jamoa bo‘la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o‘qituvchiik rahbarligining yo‘lga qo‘yilishidir.

Shunday qilib, jamoa bir necha (a’zo) kishidan iborat guruh bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad asosida tashkil topadi. Jamoa tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat uning oldiga qo‘yilgan maqsad mazmunini ifoda etadi. Jamoa a’zolari o‘rtasida qaror topgan o‘zaro birlik, shuningdek, ular o‘rtasida tashkil etiluvchi munosabat jarayonidagi tenglik jamoaga rahbarlik qilish, jamoa a’zolarining guruh yetakchilariga bo‘ysunishlari, shuningdek, ular tomonidan jamoa oldidagi javobgarlik hissini anglashlari uchun zamin yaratadi (49-rasm).

Jamoa va uni shakllantirish o‘qituvchiik faoliyatining maqsadi hisoblanadi. Muhim tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan subyektlarning alohida namuna ko‘rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib, ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a’zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi. Jamoa tomonidan hal etilishi ko‘zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o‘rta ta’lim hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida jamoani shakllantirish mas’uliyatli vazifa sanaladi.

49-rasm

**Jamoa tashkil etish**

Jamoa tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir. bunda mazkur ish o‘quvchilarning tarkibiy jihatdan (eng ko‘pi bilan besh kishi) guruhlarida amalga oshiriladi. Shunday kichik guruhlarda barcha a’zolar bir-birlari bilan bevosita muomalada bo‘ladilar va bir-birlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadilar.

O’qituvchilarning guruhlarda muammolarning o‘ziga xos xusuiyatini o‘rganishi guruhlarni o‘quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi

Ta'lim muassasa jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida ta'lim muassasa jamoasi shakllanadi. Ta'lim muassasa jamoasi ikki muhim bo'g'in – o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda o'quvchilardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'zini-o'zi nazorat qilish hamda o'zini-o'zi boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan **uzoq muddatli murakkab** jarayondir.

Oliy ta'lim tizimida repititorlikni o'rganish tadqiqotlari davomida xodimlar bayon qilishdiki, talabalar o'rganilayotgan fan haqida tayyorgarlikka muhtoj, ammo talabalar guruhlarda yangi usulda ishlashga qay darajada tayyorlanishi, ko'mak berilishi kerakligi haqida bayon qilinmadi (Griffiths et al., 1996). Ushbu xulosa isbotga ega: "O'qituvchilar bizni guruhlarda qanday ishlashni biladi deb hisoblashadi" deya ma'lum qiladi talabalar (Griffiths and Partington, 1992). Talabalarni guruhda ishlashga tayyorlash ma'ruzachilar o'zini-o'zi tayyorlashi kabi muhimdir.[17]

## 3. Jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yyetakchi tamoyili

Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning yetakchi qonun-qoidalaridir.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to'liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etilgan bo'lib, u jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish; faollarni aniqlash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, va ko'paytirish. Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (ta'lim tizimi, guruh jamoasi, ta'lim tizimidan tashqari o'quvchilar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarning jamoaviy turmush, me'yorlari va qoidalari intizomini bo'zilishiga munosabatlarini kuzatib, jamoaning tashkiliy tuzulishi ta'sirchanligi

[17] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 76.

ishonch xosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida o‘quvchilar tarqoq bo‘lib, ularda yakdil fikr va guruh rahbari tayanishi mumkin bo‘lgan ta’sirchan faollar bo‘lmaydi. Shuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi va mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamoa rivojlanishning 2-bosqichida bo‘lsa, nomigagina emas balki harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo‘lsa, uning ayrim o‘quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo‘yishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri – o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi makulatura yoki metallolom to‘plash, kechaga tayyorgarlik ko‘rish kabi ta’lim tizimi tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o‘quvchilarning faqat guruhdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi.

Guruh rahbari ishining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy o‘quvchini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat. Shuning uchun guruh rahbari dastavval o‘quvchilarning o‘qishga qanday munosabatda ekanliklari, o‘zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi – ularning o‘qishdagi o‘zlashtirishlari ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi.

Bir guruhda shpargalkalar, aytib turishlar, ko‘chirib yozishlar avj olgan edi. O‘quvchilar buni tan olishdan ham uyalishmas, bunday holni o‘ziga xos do‘stlik jamoatchilik deb hisoblashar edi. Aksincha, savollarga javob olishda «Sen shpargalkaga qanday munosabatdasan?» degan savolga faqat bir o‘quvchi – Nargiza bunday deb yozdi: «Aytib turishni va aytib turishdn foydalanishni o‘zim ep ko‘rmayman». Anketa savollariga javob qaytarish natijalarini muhokama qilish chog‘ida ko‘pchilik Nargizaning tutgan yo‘lidan g‘azablanishdi: Qaranglar qanday mag‘rurlanib ketibdi! Qadr-qimmat bizda ham bor, lekin u algebra bo‘yicha nazorat ishiga nisbatan ancha muhimroq. Guruh rahbariga bu guruhda ishlash juda qiyin edi. Bu yerda ko‘pgina qobilyatli va yaxshi o‘zlashtiradigan, ayni paytda, qoloq o‘quvchilar ham bor edi.

Darsdan tashqari payitlarda turli tadbirlar-kechalar, uchrashuvlar, ekskursiyalar o‘tkaziladi. Lekin, bularning hammasi eng muhim narsaga – o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga, munosabatiga va bu jarayondagi o‘zaro munosabatiga ta’sir ko‘rsatmasdi. Ko‘pchilik 8-guruh o‘quvchilari: O‘qish har bir kishining shaxsiy ishi, - degan prinsipga amal qiladilar. Yuqorida bayon etilgan guruh jamoasi rivojlanish darajasining pastligidan dalolat beradi.

Mana shunday holatlar ro‘y bermasligi uchun jamoaning rivojlanish usulini aniqlab olishimiz kerak. Buning eng ishonchli usuli – o‘quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida o‘zaro faol hamkorlik qilish jarayonida kuzatishdan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar, masalan: anketa tarqatish, pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish, boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Lekin bu usullar guruhda juda ehtiyotkorlik bilan, katta pedagoglik odobi bilan qo‘llanishi lozim. O‘quvchilarni o‘rganishning har bir usuli ayni vaqtda tarbiya usuli ham ekanligi o‘qituvchilar uchun qonun bo‘lishi kerak.

## VII.4-§. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalash

**Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalashdan** maqsad ta’lim tizimi o‘qituvchisini o‘z-o‘zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

**Tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishni tan olmaydigan, tarbiyasi qiyin o‘quvchilar** – bu albatta, yomon o‘zlashtiruvchilar emas. Zamonaviy guruh rahbar o‘quvchilar yomon xulq-atvorining, past o‘zlashtirishning sabablarini puxta o‘rganadi. Bunda o‘quvchining guruhdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma’naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir.

**Jamoa munosabatlari** – dastavval muayyan prinsiplarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga yo‘naltirib turadigan o‘zaro mas’uliyatli munosabatlardir.

Guruhlardagi talabalar soni kattalashib borgani sari asosan ikki turdagi muammo vujudga kela boshlaydi. Birinchidan, guruhda turli mutaxassisliklardan va turli bilim va malakaga ega talabalar soni ko‘payadi. Bu masala esa o‘qituvchidan sergaklik va talabalarning qiziqishlarini inobatga olib turishni talab etadi. Ikkinchidan, turli universitetlar tomonidan ta’kidlanib kelinayotgani kabi, katta guruhlarda o‘qituvchi turli xil xulqi buzuq talabalar bilan ham ishlashiga to‘g‘ri kelib qoladi.[18]

Guruh o‘quvchilari ko‘p bo‘lgan sharoitda har bir o‘quvchiga yakka tartibda yondashish, qalbiga to‘g‘ri yo‘l topish juda qiyin. Agar o‘quvchilar jamoasi qo‘llab-quvvatlasa, bunday yo‘lni topish mumkin.

Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o‘quvchini jamoa faoliyatigan jalb etishdan, jamoani esa mazkur o‘quvchi bilan qiziqtirib qo‘yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoada tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bo‘ladi, lekin «ajratib qo‘yilgan» o‘quvchilar bo‘lmaydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning xulq-atvori, muntazam o‘rganishni o‘z oldiga maxsus maqsad qilib qo‘ymasa, ular sezilmagan tarzda o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani tashkillashtirish, yuzasidan olib boriladigan ish albatta, ayrim o‘quvchilarning rivojlanishga ta’sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon stixiyali emas, balki maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo‘lishi kerak.

Guruh rahbari o‘quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda guruh rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba «Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi»dir. Mazkur dastur o‘quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil mashg‘ulotlarni birga qo‘shib olib borishni ko‘zga tutadi.

Dasturda o‘quv yili mobaynida ikkita umum ta’lim mashg‘ulotini va har bir guruh ota-onalari uchun 6 tadan 9 tagacha mashg‘ulot o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Mashg‘ulotlar shunday tarzda quriladiki, ota-onalar pedagogika, psixologiya va

[18] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 58.

fiziologiya asoslari izchil kursini o‘zlashtirib, farzandlari bilan guruhdan-guruhga o‘tgandek bo‘lishadi. Kurs o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq va ta’limning har bir yildagi ta’lim-tarbiya vazifalarini hisobga olib, qurilgan.

## 5. O‘quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik

Ota-onalarning yuksak ta’limiy va madaniy darajasi pedagogik va psixologik ta’sir etish sifatini oshirish uchun o‘qituvchilar ular bilan bevosita muomalada, bu yo‘nalishdagi ijodiy jamoa ishini o‘rganishi mumkin (50-rasm).

Agar ta’lim tizimi guruh rahbarlari orqali ota-onalarga ularning pedagogik bilimini oshirishda yordam berar ekan, o‘z navbatida, ota-onalar ham ta’lim tizimiga o‘quvchilarni tarbiyalashni tashkil etish ishda har tomonlama yordam berishlari mumkin va lozim. Guruh rahbarining ota-onalar qo‘mitasi bilan mohirona, yaxshi uyushtirilgan va yo‘lga qo‘yilgan ishi, o‘quvchilar bilan olib boriladigan butun tarbiyaviy ishlarning muvafaqqiyatli bo‘lishiga garov hisoblanadi. Tashabbuskor, ijodiy ishlaydigan ota-onalar qo‘mitasi guruh rahbariga guruh jamoasini tashkil qilishdagi bebaho yordamchisidir.

50-rasm

**Ota-onalar bilan ish olib borishning an’anaviy tarkib topgan shakl bu ota-onalar yig’ilishlaridir. Ota-onalar majlislari turli xil ko’rinishda bo’ladi:**

1. Tashkiliy ishlar uchun ota-onalar qo‘mitasi saylanadi. Bunda asosan jamoatchi o‘qimishli kishilar saylanadi.
2. Chorakdagi yakunlovchi guruh majlislari ota-onalarning e’tiborini o‘quvchilarning bilishga doir qiziqishlari, axloqiy qobilyatlari, irodaviy fazilatlarini, rivojlantirishdagi yutuqlari, kamchiliklari, foydalanilmagan imkoniyatlarga qaratish maqsadini ko‘zda tutadi. Agar har bir ota-ona majlisdan keyin o‘z farzandigaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish tizimiga tuzatishlar kiritishning asosiy yo‘llarini aniq tasavvur etsagina, guruh rahbari o‘tkazilgan majlislardan qanoat xosil qilishi mumkin.
3. Biror mavzuga bag‘ishlangan yig‘ilishlar tarbiyaning eng dolzarb muammoalari yuzasidan o‘tkaziladi.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat guruh rahbarining o‘quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli hisoblanadi. Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-

onalar bilan ishonchli munosabatlar oʻrnatish, oʻquvchilarning oilaviy sharoitlari haqida qoʻshimcha maʼlumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, oʻquvchining yakka tartibdagi rivojlanish dasturining birgalikdagi pedagogik harakatlar tizimini ishlab chiqish, ota-onalarning tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishlarini va tarbiyasi qiyin oʻquvchi xulqini tuzatish va oʻquvchilar oʻrtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng koʻlamdagi taʼlim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

Oʻqituvchilar u yoqi bu oʻqituvchining biror oʻquvchi uning darsida intizomni buzganligi xususidagi shikoyatiga javoban ota-onani taʼlim tizimiga chaqirtiradilar. Guruh rahbari hamma narsani sinchiklab oʻrganib chiqishi kerak. Baʼzan oʻquvchilarning darsda yomon ishlashga, gap qaytarishga va hakozolarga oʻqituvchining oʻzlari aybdor boʻladilar. Bunday holda oʻqituvchida pedagogik odobning yoʻqligi yoki uning darsdan, guruhdan tashqari taʼlim-tarbiya jarayonini yomon tashkil etganligi uchun masʼuliyatni oʻqituvchi va ota-onalarga agʻdarish notoʻgʻri boʻlur edi. Agar oʻquvchi birmuncha tarbiyasiz, intizomsiz boʻlsa ham guruh rahbari ota-onalarga faqat uning kamchiliklari haqida gapirmasligi kerak. Bu ular uchun yoqimsiz boʻlib, ular va pedagog oʻrtasida ishonchli munosabatlar oʻrnatishga yordam bermaydi.

Har bir ota-ona oʻz farzandini yaxshi koʻradi, shuning uchun ular, oʻz farzandida xosil boʻlgan yangi, ijobiy kurtaklar xususida quvonchni oʻrtoqlashadigan va oʻquvchilarning xulqidagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan, birgalikdagi xarakatlar xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan guruh rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar. Bunday sharoitda ota yoki ona juda xayrixoh boʻladi va guruh rahbari bilan bajonidil aloqa bogʻlaydi.

Guruh rahbarining oʻquvchilar oilalarida boʻlishi taʼlim tizimi va oilaning oʻzaro hamkorligining muhim shakli hisoblanadi. Oilada boʻlishning maqsadini aniq vaziyat belgilab beradi. Guruh rahbari nima maqsadda oilaga borishga muvofiq tarzda unga oldindan tayyorgarlik koʻradi (Oʻqituvchilar bilan maslahatlashadi, oʻquvchining oʻzlashtirishi, xulqini aniqlaydi, avvalgi borishi natijalari toʻgʻrisidagi mavzularni koʻrib chiqadi, suhbat mazmunini va shaklini belgilaydi, muhokama qilish, ota-onalar bilan kelishish uchun masalalarni tanlaydi, yaqin kelajak uchun ota-onalarning tarbiyaviy vazifalarini, tavsiyanomalarini va hakazolarni belgilab oladi).



Oilada boʻlganda faqat maslahatchi boʻlib qolmasdan, oʻzi ham ota-onalarning fikri va takliflariga quloq solishi kerak, chunki ular farzandlarining muvaffaqiyatidan bizga nisbatan kam manfatdor emaslar. Yuqori guruh oʻquvchilarining oilalariga borishni zarur deb hisoblaydigan guruh rahbari nohaqdir.

Yuqori guruh oʻquvchilari oldida kasb tanlash mummosi turadi, ota-onalar esa bunga oʻz farzandlarining u yoki bu faoliyatga qiziqishi va qobilyatini inkor etib, oʻz hayotiy tajribalari asosida yondashadilar. Bu jihatdan guruh rahbari tomonidan odob bilan yordam berish zarurligi ravshandir. Nobop oilalar bilan ishlash guruh rahbari uchun alohida qiyinchilik tugʻdiradi. Odatda, oʻquvchi oilaviy notinchlikning qurboni

bo‘ladi, binobarin uni pedagogikaga zid oilaviy munosabatlardan asrash ta’lim tizimining vazifasidir.

Masalan, guruh o‘quvchisi Javlonning ota-onasi o‘zaro qattiq ziddiyatda edilar. Otasi muhandis, spirtli ichimlikka berilib, rafiqasini haqoratlardi. Onasi munosabatlarini yumshatishni istab, uning bu qilmishlariga chidab kelardi. Lekin o‘g‘li Javlon aralashib, otasidan onasini taqirlashni bas qilishini talab qiladi. Ish mushtlashishgacha borib yetadi.

Shundan so‘ng, Javlon darslarga bormay qo‘yadi. Guruh rahbari shoshilinch chora ko‘radi, ya’ni Javlonning otasi ishlaydigan joyga borib, tushuntirish ishlarini olib boradi. Shundan so‘ng, oilada vaziyat asta-sekin yaxshilana boradi. Ona ham, o‘g‘il ham o‘qituvchining ota bilan suhbatlashganini bilishmaydi. Jamoatchi va bilimli guruh rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan guruh jamoasini tashkil qiladi.

**Ta’lim tizimi, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta’sirini muvofiqlashtirishda** oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta’sir ko‘rsatishga qodir va odatda, ta’sir ko‘rsatadi, oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqiyosi uning mafkuraviy va psixologik ta’sir ko‘rsatishining chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu esa uni oila darajasida ta’sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga, shaxsiy tiklanish jarayonining zarur bo‘g‘iniga aylantiradi.

Ta’lim tizimilari tajribasida faoliyat, odatda ommaviy jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Tabiiyki individual shakllar muammolarni nazarda tutmaydi.

Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya’ni, ularda o‘quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi), o‘z mohiyatiga ko‘ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadiga (masalan, ma’ruza, kontsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarning o‘zaro muammosini nazarda tutmaydi.

Jamoa tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir. Bunda mazkur ish o‘quvchilarning tarkib jihatdan (eng ko‘pi bilan besh kishi) guruhlarda amalga oshiriladi. Shunday kichik guruhlarda barcha a’zolar bir-birlari bilan bevosita muomalada bo‘ladilar va bir-birlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadilar.

O‘qituvchilarning guruhlarda muammolarning o‘ziga xos xusuiyatini o‘rganish uning guruhlarni o‘quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

## 8-mavzu. SHAXSGA JAMOA ORQALI TARBIYAVIY TA’SIR KO’RSATISHNING SHAKL VA METODLARI

### REJA:

1. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta’lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi.
2. O‘quvchilar jamoasining shakllanish bosqichlari.
3. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi
4. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati

## TAYANCH IBORALAR:

O‘quvchilar jamoasi, jamoa, jamoa rivojlanishi, shaxs, ijtimoiy munosabatIjtimoiy munosabatkomil inson, uzluksiz ta’lim, hulq-atvor, tarbiya, faoliyat, oila, oila muhiti, tarbiya vositalari, jamiyat va hokazo.

### 1. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta’lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi

Ijtimoiy munosabatlar ko‘lamining kengayishi o‘sib kelayotgan avlodni o‘ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk etib tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan yetuk inson hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, nosog‘lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o‘zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omildir. O‘zbekiston Respublikasida, demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabtini bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o‘zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko‘rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxs o‘z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi.

Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu xususda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e’tirof etgan: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o‘z qobiliyatini, o‘z talantini ishga solib, hayotini yanada yaxshilashi, ma’nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir»[1].

Mavzuning maqsadi va vazifasi shaxsning shakllanishida oila muhiti, jamoa va jamiyatning ta’sirini ifodalash, shaxsning jamoaga, jamiyatga aloqadorligi tushunchalarini shakllantirishdir.

Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta’kidlansa, islom ta’limoti g‘oyalariga ko‘ra yetuklikning bosh mezoni – ilmlilik, bilimli bo‘lishdir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy **komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo‘nalishi** ekanligiga urg‘u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa’yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois, mamlakatni boshqaruvchi shaxs o‘zida eng oliy insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql to‘g‘risida»gi risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan **o‘n ikki fazilat**ni keltirib o‘tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar

[1] Karimov I.A. Bunyodkorlik yo’lidan. – Toshkent, “O’zbekiston”, 1996. – 116-bet.

har bir zamonaviy shaxsda o‘z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini mo‘‘tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham **komillikning asosini ilmli bo‘lish**da deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg‘u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to‘g‘rilik, odillik, tadbirkorlik, o‘zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo‘lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo‘lgan eng asosiy sifatlardir.

Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida **bilimli bo‘lish**ni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo‘lishi esa uning yanada yuksalishini ta’minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim ko‘rsatkichi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o‘rinni egallaydi va o‘z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi borasidagi g‘oya ilgari suriladi: **aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, sahovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog‘lom, jismonan baquvvat, mard va jasur**[191]**.**

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, **vatanparvarlik, hamda intizomlilik sifatlari** ham namoyon bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Alloma millat taqdirining jonkuyari sifatida **milliy til taraqqiyoti** jamiyat ma’naviy rivojini ta’minlovchi asosiy omil, deya baholaydi.

## 2. O‘quvchilar jamoasining shakllanish bosqichlari

Jamoaning vujudga kelish uchun **to‘rt bosqich zarur**. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruhga talab qo‘yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a’zolari oldiga ma’lum talablarni qo‘yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a’zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So‘nggi (to‘rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a’zosi o‘z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo‘yish layoqatiga ega bo‘ladi. Ushbu jarayon mohiyatini quyidagicha bayon etish mumkin:

Jamoaga qo‘yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko‘rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a’zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko‘rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, zero, jamoaning shakllanishi muayyan chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay

---

[19] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 119.

o‘qituvchiik nuqtai nazaridan jamoaning shakllanishini muayyan bosqichlariga ajratish juda muhimdir. O‘quvchilar jamoasini ma’lum rivojlanish bosqichlarga ajratish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar jamoasi rivojlanishining har bir bosqichi jamoa a’zolariga nisbatan samarali o‘qituvchiik ta’sir ko‘rsatishning maqbul shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi (51-rasm).

51-rasm




**O‘quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari**

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o‘qituvchilar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan talablarning qo‘yilishiga e’tiborsiz qaraydilar. Jamoa a’zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi.

O‘quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a’zolarida mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo‘lishi, o‘quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo‘lishiga olib keladi. O‘quvchilarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasdagi tajribaga ega emasliklari bois so‘z yuritilayotgan bosqichda o‘qituvchining asosiy maqsadi jamoa a’zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo‘ladi.

Ushbu bosqichda o‘qituvchining talabchanligi, jamoaning barcha a’zolariga birday talabni qo‘ya olishi, u tomonidan qo‘yilayotgan talabning qat’iyligi, izchilligi hamda murosasizligi muhim omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o‘qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligi, bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma’lum bo‘lsada, ayni vaqtda guruh a’zolarining faolliklarini

rivojlantirish uchun zarur boʻluvchi sharoitning hali mavjud boʻla olmaganligini hisobga olish zarur.

Jamoa hayotining **birinchi bosqichi**da jamoa faolining paydo boʻlishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a’zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, oʻqituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda boʻladilar. Faollar oʻqituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining **ikkinchi bosqichi**. Ushbu bosqich jamoa faolining oʻqituvchi talabini qoʻllab-quvvatlash hamda oʻz navbatida uning oʻzi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qoʻyishi bilan tafsiflanadi. Endilikda oʻqituvchi jamoada paydo boʻlgan va u bilan bogʻliq muammo, masalalarni yolgʻiz oʻzi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya’ni, jamoa oʻzini-oʻzi boshqarishga oʻtadi.

Oʻquvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini oʻquvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni oʻtkazishga tiyyorgarlik, uni oʻtkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini koʻrsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a’zolarida motiv (ragʻbat)larning paydo boʻlishi, ijodiy hamkorlik va oʻzaro yordam munosabatlarining tez sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelshida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a’zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna boʻlishi, oʻz burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda oʻz mavqelaridan nooʻrin foydalanmasliklari juda muhimdir. Bu oʻrinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «jamoa vijdoni» deya bergan ta’rifini eslab oʻtish joizdir. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega boʻlsada, ayni paytda uning oʻziga ham oshirilgan talablarning qoʻyilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda toʻxtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat koʻrsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina, xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda toʻxtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a’zolari bilan qarama-qarshi qoʻyish xavfi tugʻilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a’zolarining alohida faollik koʻrsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining **uchinchi bosqichi**. Jamoa faliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashiga koʻra, bu davrda butun jamoa «ayrim oʻzini chetga olib qochuvchi, injiq shaxs»larga talab qoʻya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a’zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Oʻqituvchi mazkur yoʻnalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a’zolari xatti-harakati jamoa boʻlib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma’ruzalar uyushtiriladi, oʻquvchilar oʻrtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-

g‘oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ‘iboti tashkil etiladi. O‘qituvchi jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a’zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo‘shish imkonini beradigan o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi. A.S.Makarenko jamoa a’zolari o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarining ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi. Pedagog jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko‘rsatgan edi (52- rasm):

52-rasm

**A.S.Makarenko jamoa a’zolari o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarining ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi. Pedagog jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko‘rsatgan edi:**

1) major - doimiy tetiklik, o‘quvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorliklari;
2) o‘z jamoasining qadriyatlari mohiyatini tushunish, uning uchun g‘ururlanish asosida o‘z qadr-qimmatini anglash;
3) jamoa a’zolari o‘rtasidagi do‘stona birlik;
4) jamoaning har bir a’zosida qaror topgan do‘stona birlik;
5) tarbiyali, ishchan harakatga yo‘llovchi faollik;
6) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish ko‘nikmasi

Jamoaning har bir a’zosida, ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish ko‘nikmasini hosil qila olish jamoa a’zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Jamoada barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishining sababi uning a’zolarini ijobiy, madaniy-ma’rifiy mazmunga ega bo‘lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlaridir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichda ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlari shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faoligina emas, balki jamoaning har bir a’zosi bir-birlariga nisbatan axloqiy mazmundagi talablarni qo‘ya boshlaydilar.

Jamoa rivojlanishining **to‘rtinchi bosqichi**. Bu bosqich uning barcha a’zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o‘z-o‘zlariga talablar qo‘ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga nisbatan muayyan talab qo‘yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo‘yilgan har bir talab o‘ziga xos yo‘nalishi (masalan, o‘yindan umuminsoniyat baxti yo‘lida kurashishga intilish o‘rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To‘rtinchi bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo‘ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a’zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni

oʻzini-oʻzi tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va oʻrnini pasaytirmaydi. Toʻrtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas’uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qoʻyish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi. O’qituvchilar tomonidan qo’yilgan talablar bir-qator sharoitlarda ijobiy natija beradi (53-rasm).

53-rasm

**Oʻqituvchilar tomonidan qoʻyilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:**

1. Qoʻyilayotgan talablar oʻquvchi shaxsini hurmat qilish tuygʻusi bilan uygʻunlashgan boʻlishi kerak.

2. Talablar muayyan kollej yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qoʻyilishi lozim.

3. Jamoaga nisbatan qoʻyilayotgan talablar aniq boʻlishi lozim.

4. Oʻquvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qoʻyilayotgan talablar, ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Bugungi kunda oʻqituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) oʻquvchilar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni quyidagi uch bosqichga boʻladilar:

a) jamoani dastlabki jipslashtirish;

b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a’zosini individual rivojlantirish;

v) jamoaning umumiy faoliyatini yoʻlga qoʻyish.

Jamoa hayotida muhim oʻrin tutuvchi har bir bosqichni ajratib koʻrsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolari va ularning faoliyatlariga qoʻyiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona talab oʻquvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarini oʻz ichiga oladi.

Puxta oʻylab, qoʻyilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi ta’lim muassasada muayyan tartibning oʻrnatilishini ta’minlaydi (53-rasm).

Oʻquvchi qoʻyilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qoʻyish metodikasini ham oʻzlashtira olgan boʻlishi kerak.

O‘quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo‘yish metodikasi o‘quvchilarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o‘quvchilar faoliyati, shuningdek, qo‘yilayotgan talablarning bajarilish holatini muntazam suratda nazorat qilib turishdan iborat.

O‘quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko‘pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta’lim muassasasining direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha oorish o‘rinbosari istiqbol rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko‘rsatish, keyinroq sinflar bo‘yicha sinf majlislari yoki maxsus suhbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo‘shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O‘quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois, muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo‘yilishi jarayonida ularga o‘quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o‘rnatish lozim. Nazorat qilib oorish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib oorish va boshqalar. Qo‘yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo‘lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o‘quvchilarni ogoh etib oorish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Har bir o‘qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi. Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o‘quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini o‘quvchilarning o‘zlari, albatta, o‘qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi. Jamoa faolining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo‘yadi. O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘zini-o‘zi boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois, o‘qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarishi bu o‘qituvchilar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o‘quvchilarning faol ishtirok etishidir. O‘zini-o‘zi boshqarishning shakllari orasida jamoa a’zolarining yig‘ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar (masalan, o‘quv komissiyasi yoki tozalik komissiyasi) faoliyati muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda an’analar muhim o‘rin tutadi. **Jamoa an’analari** jamoa a’zolari tomonidan birdek qo‘llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo‘lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an’analari shartli ravishda ikkiga bo‘linadi:

a) kundalik faoliyat an’analari;

b) bayram an’analari.

Kundalik faoliyat an’analari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati (o‘zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko‘chatlar o‘tqazish, xasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi.

Jamoa va uning shaxsni shakllanishidagi o‘rni va roli muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar shaxs va jamoa o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishini ta’minlaydi (54-rasm):

Tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda o‘qituvchilar jamoasi yoki o‘qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o‘quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an’analarni davom ettirishga o‘rgatish masalasiga alohida e’tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi.

Bayram an’analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog‘liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro‘z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

An’anaviy bayramlar o‘quv muassasalarida turlicha o‘tkaziladi. O‘quvchilar an’analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo‘lsalargina uning ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi. An’analarning yuzaga kelishida o‘quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Ta’lim muassasa rahbariyati va o‘qituvchilar o‘quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag‘ishlab, haddan ziyod ortiqcha tadbirni uyushtirish talabini qo‘ymasligi zarur.

**O‘quvchilar jamoasi** ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o‘quvchilar birlashmasi, guruhidir. O‘quvchilar jamoasi (shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘quvchilari jamoasi)ga rasmiy saylangan (tayinlangan) o‘quvchi hamda o‘qituvchilar yo‘lboshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (xususan, guruh yetakchisi (starosta), «Kamolot» tashkilotining guruh bo‘limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va boshqalar) kiradi.

O‘quvchilar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo‘lboshchilarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Odatda, rasmiy yo‘lboshchilar tarkibini a’lo baholarga o‘qiydigan, jamoat ishlarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar, garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko‘ra tengdoshlarini o‘z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o‘quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat’iyatliligi, hech narsadan cho‘chimasligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi bilan ajralib turadilar. Norasmiy liderlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o‘quvchilarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, sinf rahbari hamda ta’lim muassasa pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini bevosita va bilvosita nazorat qilib borishlari zarur.

54-rasm




**Shaxs va jamoa o’rtasidagi munosabatlarning rivojlanish andozasi**

O‘quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli, sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a’zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to‘laqonli ma’lumotlarga ega bo‘lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a’zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o‘zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishlariga ko‘ra, to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi.

4. Jamoani shakllantirish o‘ziga xos metodika asosida amalga oshriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo‘yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

5. Jamoaning mustahkam bo‘lishi, uning a’zolari o‘rtasida o‘zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an’analari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi uyga berilgan ikki topshiriq haqida gaplashib bo‘lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki topshiriq haqida gaplashib bo‘lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki o‘quvchidan so‘raydi. O‘quvchilar avvalo ota-onalaridan yoki opa-akasidan, keyin esa tarbiyachilari, o‘qituvchilari, mahalla-kuydan minnatdor ekanligini aytadilar, o‘qituvchi xulosa qiladi:

Javobingizdan ma’lum bo‘ldiki, shaxsning kamol topishi avvalo oila muhitiga bog‘liqdir. O‘zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning quyidagi she’riy parchasiga e’tibor bering.

Ulcha erur tiflga shoyista ish,
Bilki kichiklikda erur parvarish.
Qatraga chun tarbiyat etdi sadaf,
El boshiga chiqqunga topdi sharaf.

Tifl, ya’ni o‘quvchini kichikligida parvarishlash, ya’ni tarbiyalash kerak, sadaf qatoriga kirgan qatra, ya’ni dur odamlarning boshida turish sharafiga muyassar bo‘ldi. Xuddi shuningdek, ota-ona go‘yo sadaf, o‘quvchilar esa ularning bag‘ridagi qatralar – durlardir.

Oiladagi sharoit, oziq-ovqat va jihozlar ta’minoti, o‘zaro munosabatlar: er-xotin, bobo-buvi qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, tog‘a-amaki hamda boshqa qarindoshlarning bir-biriga muomalasi oila a’zolarining birgalikda ishlash, dam olishi, adabiyot, san’at, ilm-fan va sport bilan shug‘ullanish, daromad, ruhiy-ma’naviy holatlar, qo‘ni-qo‘shnichilik aloqalari, mahalladagi to‘y-ma’rakalarga qatnashish va hakozolar oila muhitini tashkil etadi.

Oila muhiti axloq-odob, madaniyat qoidalari asosida tashkil topsa, o‘quvchi shaxsining to‘g‘ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, bunda oiladagi o‘quvchilar to‘g‘ri kamol topadi.

Hamqishloqlar bir oiladek yashab, bir-biridan xabardor, bir-birlariga mehribon bo‘ladilar, qishloqning, jamoaning ishi haqida hisob berib turadilar, bir-birlarini va shu asnoda o‘quvchilarini ham jamoa ruhida tarbiyalaydilar.

Ibn Sino jamoadan, jamiyatdan ajralib, tarbiya topgan o‘quvchining baxtsiz bo‘lib qolishini ta’kidlaydi.

Inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordir. Forobiyning fikricha, «insonning va jamiyatni qo‘lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi, inson va jamoaning o‘z qo‘lidadir».

Jamiyatning qanchalik rivojlanganligini oila farovonligida, shaxsning kamolotida ko‘rish mumkin. Yoki shaxsning barkamolligi, oilaning to‘la-to‘kisligiga qarab, jamiyatnig iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy ahvolini bilish mumkin. Chunki, shaxs-oila-jamiyat munosabatlari o‘zaro mustahkam bog‘langan. Shuning uchun shaxs oila-jamiyat muhitida shakllanadi, kamol topadi.

O‘qituvchi faoliyatida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq, uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish, faollarni tarbiyalash, o‘quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniyat faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish va ko‘paytirish.

Ta’riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma hisoblanadi. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi tarbiyaviy ishni guruhdan jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O‘qituvchining yangi guruh bilan ko‘p marta ish boshlashiga to‘g‘ri keladi: o‘z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, guruhni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba’zan esa ta’lim tizimida vujudga kelgan vaziyat taqozo bilan. Guruh rahbari o‘zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uch yoki to‘rtta darajasi ajratib ko‘rsatiladi.

Boshlang‘ich daraja pedagogning kuch-g‘ayrati natijasida guruhda o‘rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, o‘quvchilarning uncha katta bo‘lmagan qismi guruh rahbarining harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya jarayonidan o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga o‘tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o‘quvchilar va umuman, jamoa o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o‘ziga va bir-biriga talablar qo‘yadi va o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Guruh rahbari va o‘quvchilar jamoasi o‘y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo‘l uzoq bo‘lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir. Bu guruh rahbarining asosiy ishidir. Umuman, ta’lim tizimi o‘quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o‘tishiga bog‘liq bo‘ladi. Agar o‘quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo‘lsa, o‘quvchi ta’lim tizimini hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik ta’lim tizimi yillarini eslamaydi ham. O‘quvchilarni inoq jamoaga birlashtirish mohir guruh rahbari qo‘lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg‘ayayotgan kishining hyotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo‘lini belgilashda o‘z vazifasini anglash guruh rahbarining o‘quvchilar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat’iy faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

### 3. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi

Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta’rifini aniq jamoa ta’rifi bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadning, pedagoglar bilan o‘quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o‘zaro mas’uliyatli munosabatlarning mavjudligi, o‘z-o‘zini boshqarish organlarining faoliyati va h.k.

O‘quvchilarning jamoa turkum normalari va qoidalarining, intizomning buzilishga munosabatlarini kuzatib, jamoaning tashkiliy tuzilishi ta’sirchanligiga ishonch xosil qilish mumkin.

Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichida o‘quvchilar tarqoq bo‘lib, ularda yakdil va guruh rahbari tayanishi mumkin bo‘lgan ta’sirchan faollar bo‘lmaydi. Shuning uchun bunday jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi, mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi va hakozo. Agar jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichida bo‘lsa, nomigagina emas, balki pedagogning harakatlarini

qo‘llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo‘lsa, uning ayrim o‘quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo‘yishini kuzatish mumkin.

Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga ishtiyoqi makulatura yoki metallom to‘plash, kechaga tayyorgarlik ko‘rish kabi ta’lim tizimi tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Guruh rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun o‘quvchilarda ularning hozirgi va bo‘lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari mavjudligini bilishi muhim, ya’ni jamoaning hayotiy faoliyati istiqbollarini barcha yoki yarim o‘quvchilar qabul qilishi va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo‘lajak shanbalik yoki bayram kechasi o‘quvchilar uchun faoliyatga undovchi bo‘lsa va u kun istiqbol faqat ayrim o‘quvchilar uchun ahamiyatli bo‘lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi haqida gapirish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o‘quvchilarning faqat guruhdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatilarini tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi. Guruh rahbari ishining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy o‘quvchini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat. Shuning uchun guruh rahbari dastavval o‘quvchilarning o‘qishga qanday munosabatda ekanlilarini, o‘zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazfalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi – ularning o‘qishdagi mo‘ljallari nimalardan iborat, bu mo‘ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi.

Pedagog guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Guruhda haqiqiy jamoa munosabatlari bo‘lmasligi mumkin, bunda o‘qituvchi ishni boshidan boshlashiga to‘g‘ri keladi. Ko‘pincha bunday holat yangi shakllangan, «yig‘ma» guruhlarda, yangi qurilgan TA’LIM tizimilarida bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri, boshqa hollarda ham shunday bo‘lishi, avvalgi guruh rahbarining kuch-g‘ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo‘lishi, tarkibi o‘zgarmagan jamoa VII-VIII cinflarda ham shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan guruh rahbari guruh bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishining boshlang‘ich davri bilan ish ko‘radi, deb mo‘ljallab bo‘lmaydi. Boshlang‘ich ta’lim tizimidayoq (I-IV guruhlarda) ko‘pincha yaxshi guruh jamoalari shakllanadi. O‘qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo‘llaydi. Shunday qilib, hududni belgilash birlamchi muhim bosqich, ammo bu barcha talabalarni tushunishi va butun dastur nima haqida ekanligi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi bilan amalga oshirilishi kerak. Bu yana rag‘batlantiruvchi ham bo‘ladi. Bu sohalarda talaba tushunib yetishida millat jihatidan ulkan farq bor va ba’zi hollarda alohida institutlarda bu farq deyarli katta miqyosga ega. O‘qituvchilar hozirda oldingidan ko‘ra ko‘proq turli qobiliyat guruhlariga dars bermoqdalar va buning davom etishi va yoyilishidan dalolat beruvchi ishoralar mavjud bo‘lib, hatto institutlar ham juda yuqori malakali ilg‘or nomzodlarni qabul qilishga odatlangan. Umuman, o‘qitish va ta’limga jalb etish ahamiyatli, ammo o‘quv rejasini tuzish uchun ham o‘ziga xos jalb qiluvchanlik kerak.

## 4. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati

Oʻquvchining rivojlanishi muhim jarayon sanaladi. Bizga ma’lumki, hyoti davomida inson jismoniy va psixik tomondan oʻzgarib boradi, lekin oʻquvchilik va oʻsmirlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli boʻladi. Oʻquvchi manbasi shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan oʻsishi oʻzgarishi shaxs sifatida kamolga yetadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta’sir etishi natijasida oʻquvchi jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida oʻziga munosib oʻrin egallaydi. Shaxsning fazilatlarini toʻgʻri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib koʻrish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari roʻyobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini toʻgʻri hal qilish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Oʻquvchining kamolotiga, ruhiyatiga, fe’l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir etadi: biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya.

Oʻrta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta’sir etadigan omillar ahamiyatiga e’tibor berib kelganlar Forobiy inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning muhimligini ta’kidlab: «munosib inson» boʻlishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta’lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yoʻldir, deydi. Abu Ali Ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning oʻrniga alohida toʻxtalib: Oʻquvchi tugʻilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qoʻyishi, soʻngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli boʻladi, degan fikrni ilgari suradi.

Oʻquvchi shaxsining rivojlanishiga, kamol topishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi (ta’sirlar) omillar ta’sir etadi. Oʻquvchi shaxsining rivojlanishiga naslning ta’siri deganda, ota-onalarga oʻxshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir oʻquvchi ota-onasidan meros shaklida ba’zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, koʻzning, terisining rangi, boʻy-basti va boshqalar) ega boʻlgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bulardan tashqari, oliy asab tizimi faoliyatining xususiyatlari ham tugʻma oʻtadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Inson kamolotiga ta’sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir. Muhit deganda kishiga stixiyali ta’sir etadigan tashqi voqealar majmuasi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. Shular bilan birga, muhit-oila sharoiti ham katta ta’sir kuchiga ega. Chunki oʻquvchi koʻz ochib ota-onasini, qarindosh-urugʻini koʻradi. Oʻquvchi kamolotida ijtimoiy muhit boʻlib hisoblanadi. Chunki bu yerda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta’sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam oʻquvchisi hayotda tajriba va bilimlarni egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta’siri turli tarixiy davrda turlicha boʻladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta’sir etadi.

# 9-mavzu. OILA VA JAMOATCHILIK BILAN OLIB BORILADIGAN TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

## REJA:

1. Oila haqida tushuncha
2. Oila tarbiyasining mohiyati
3. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari
4. Oila muammolari
5. Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari

## TAYANCH IBORALAR:

Oila, oila tarbiyasi, ota-onala, jamiyat, jamiyat taraqqiyoti, shaxs, ota-ona, farzand, oila va islom, oila qurish, oila tarbiyasi, oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik, oila muhiti, axloqiy tarbiya

## 1. Oila haqida tushuncha

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida, oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Quyida oilaviy munosabatlar haqida berildi (55-rasm):

55-rasm

**Oilaviy Munosabatlar –**

Ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini ko'rish holati ro'y beradi

.

Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag‘rida mavjud bo‘lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo‘yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo‘lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta’minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo‘llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta’minlash ko‘rsatkichi shuncha yuqori bo‘ladi.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Shaxsning ma’naviy sifatlarga ega bo‘lishi, unda ma’naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo‘lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi. Quyidagi 56-rasmda oilaning maqsadi va vazifalari berildi (56-rasm).

**Ota-onaning farzand oldidagi burchlari**

Farzandga chiroyli ism qo‘yish, savodini chiqarish, iqtidoriga qarab bilim berish, imkoniyatiga yarasha o‘qitish va kasb-hunar o‘rgatish.

Uylantirish, turmushga chiqarish.

Uyli-joyli qilish.

Farzandlar orasidagi meros taqsimotida adolatli bo‘lish.

**Farzandning ota-ona olididagi burchlari**

Ota-onaning pand-nasihatlariga quloq solish, ularga har doim yordam berish, mehribon, e’tiborli bo‘lish, oila ishlariga ham, ma’naviy, ham iqtisodiy yordam berish.

56-rasm

**Oila, uning maqsadi va vazifa-lari**

Oila jamiyatning bir bo‘lagi. Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi.

Oila-murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarni birlashuvi natijasida vujudga keladi.

**Oilada** oila a’zolarining huquq va burchlari. Oila mustahkam va totuv bo‘lishi uchun oiladagi har bir shaxs o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilishi va ularga amal qilishi darkor

Oiladagi barcha a'zolarga e'tiborli va mehribon bo'lish.

Oilaga berayotgan yordamlarini minnat qilmaslik.

Tavallud, bayram va hayit kunlarida yo'qlashni kanda qilmaslik.

Ota-ona orzu-niyatlari bilan qiziqish va ularni amalga oshirishda ko'maklashish.

Vaqti-soati yetib bandalikni bajo keltirsalar, izzat-ikrom bilan oxirgi manzilga kuzatish. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida, fuqarolarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligi, o'tmish qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etgan: «Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi.

O'zbekiston xalqining aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilaning, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir». Davlatning oilaga nisbatan g'amxo'rligi qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o'z ifodasini topmoqda. Respublikada «Oila» ilmiy-amaliy Markazi tashkil etilganligi buning yorqin dalilidir.

Oila va islom. Donishmandlar oila haqida

Ma'lumki, Islom dinining muqaddas manbalari – «Qur'oni Karim» va «Hadisi Sharif»da oila, oilaviy munosabatlarga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. «Qur'oni Karimda»: «Xotinlaringiz zirotgohingizdir» deyiladi. Buning ma'nosi oila qurishdan ko'zlangan asosiy maqsad – farzand ko'rish, ularning komil insonlar bo'lib voyaga, etishlarini ta'minlash ekanligidir. Shuningdek, islom ma'naviyatida oilani halol, pok saqlash, erkak va ayolning bir-biriga bo'lgan sadoqati, maishiy buzuqlikning katta gunoh ekanligi takror-takror uqtiriladi. Chunonchi, «Agar bir shaharda loaqal bir ayol bir marta buzug'lik ko'chasiga kirib, harom orttirsa, bu shahardan qirq yil fayzu barakat ko'tarilib ketadi» deyilgan. Shunday ekan, ma'naviy jihatdan kamolotga etishmay turib, iqtisodiy farovonlikni ta'minlash mumkin emas.

Oila qurish balog'atga yetgan har bir yigit-qiz uchun hayotiy zaruriyat bo'lib, ularning o'zaro ahdu paymoni asosidagi ijtimoiy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Oilaning mustahkamligi, oila a'zolarining totuvligi, er-xotinning oila yuritish ko'nikma va malakalariga egalik darajasiga bog'liq. Oilaning mustahkamligida ayolning alohida roli bor. Zero, oila tashvishlarining aksariyati uning zimmasida bo'ladi. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy quyidagilarni qayd etadi: «... Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi undan va uylanganning tinchligi undan. Husni bo'lsa ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa turmush intizomli va ro'zg'or kerak yorog'i tartibli va saranjomli bo'ladi.

Kishi bu xildagi juftga erishsa, balki bunday baxt qo'lga tushsa, yashirin g'am va kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur. Turmushdan har jafo yersa, hasratdoshing

ul va aylanuvchi osmondan har balo kelsa, koʻmakdoshing ul. Koʻngling gʻamidin ul gʻam chekadi, badaning zaifligi horgʻinligidan u qiynaladi. ... Nosoz juft uy uchun ham ochiq, ham yashiring qoʻrqinchli kasallikdir. Uyatsiz boʻlsa, koʻngil undan ozorlanadi, yaramas boʻlsa, undan azob tortadi. Tili yomon boʻlsa, kuyovning koʻngli yaralanadi, yomon ishlik boʻlsa erga yuz qoralik keladi. Mayxoʻr boʻlsa, uy obodligi yoʻqoladi va buzuqi boʻlsa, uy ichi rasvogarchilikka aylanadi".

## 2. Oila tarbiyasining mohiyati

Oila tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sogʻlom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar obyektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari oʻrtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi oʻzaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi.

Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga boʻlgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil boʻlib, bu oila tarbiyasini muvaffiqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri.

Shaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas boʻlagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga oʻziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar toʻqnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmining ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur boʻlgan moʻʻtadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuygʻu xalqimiz ruhiyatidagi oʻziga xos xususiyatlardan biridir. Quyidagi 57-rasmda oila tarbiyasi haqida ma'lumotlar berildi (57-rasm):

Oila tarbiyasida bolalar hayotini toʻgʻri yuritish ularni vaqtdan toʻgʻri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini oʻyin, mehnat va oʻqish faoliyatlari boʻyicha toʻgʻri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sogʻlom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yoʻnalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-gʻoyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat koʻnikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oila muhitida tashkil etiladigan **jinsiy tarbiya** oʻzida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka oʻrgatish, oʻz sogʻligi uchun gʻamxoʻrlik qilish va mas'uliyatli boʻlishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sogʻlom boʻlishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta avlodi vakillari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkmlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga, uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi.

Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uxlash bosh miya asab hujayralarini to‘la orom olishini ta’minlaydi. Bu esa butun organizmning mo‘‘tadil o‘sishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi.

57-rasm

## Oila tarbiyasi

Oila tarbiyasi, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas’ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Ota-onalar o‘zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg‘usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko‘rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og‘ishmay rioya etish, sog‘lom turmush tarzini yaratish, o‘z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so‘z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko‘rsatadi

Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug‘ullanishga ko‘niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o‘rgatib boradi.

Ovqatlanishning to‘g‘ri tashkil etilishi ham bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo‘lni yuvish, ovqatdan keyin og‘izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho‘milish, qo‘l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi.

**Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o‘rin tutadi.** Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko‘ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg‘ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha bolada qg‘iziqishni uyg‘ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa

a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi.

**Axloqiy tarbiya** oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondashuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Oilada muayyan an'ananing qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi.

Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa, muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) ning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim. Oilada tarbiyaviy ishlar haqida 58-rasmda berildi (58-rasm):

Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go'zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, «chuchvara»lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, xushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashiqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. Shu bois ta'lim muassasagacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich

sinf o‘quvchilari bilan tabiat bag‘riga, muzey, ko‘rgazma, kino va teatrlarga uyushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir.

58-rasm

**Oilada tarbiyaviy ishlar**



**Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayon bolalarda «inson-tabiat-jamiyat» tushunchalari o‘rtasida yuzaga keluvchi o‘zaro muvofiqlik borasidagi g‘oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi**

**Mehnat tarbiyasi** ham oila tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat’iy iroda egasi bo‘lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to‘g‘ri tarbiyalashda oila xo‘jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo‘jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo‘lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo‘lishlariga sabab bo‘lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo‘lgan havasini oshiradi, unda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni yuzaga keltiradi.

Oilada, mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajrilishiga erishish katta ahamiyatga ega. Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo‘lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo‘lish, shuningdek, o‘zgalar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo‘lgan ne’matlarni asrab-avaylashga o‘rgatadi.

Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko‘chatlarni o‘tqazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas’ullik tuyg‘usini shakllantiradi.

Oilaviy hayotning me’yorida bo‘lishi ko‘p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog‘liq. Shu bois, oila a’zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag‘larni tejab-tergab, ulardan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o‘rgatish, o‘zining shaxsiy hamda oila a’zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas’uliyatli yondashishga ko‘niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to‘nadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan

bo‘lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a’zolarining namunasi tarbiyaviy ta’sir kuchiga egadir (iqtisodiy tarbiya).

## 3. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e’tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko‘rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas’ullik, e’tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.

Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berib borish, o‘z navbatida, huquqlaridan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini hosil qiluvchi o‘ziga xos maskan sanaladi. Bolalar «Vatan», «xalq» tushunchalarining mohiyatini dastlabana shu maskanda o‘zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o‘zi Vatanning bir bo‘lagidir. Oila sha’nini himoya qilish, uni saqlash to‘g‘risida qayg‘urishning Vatanning sha’ni,el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo‘lishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo‘ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a’zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma’naviy dunyosi o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo‘lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g‘oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko‘rsatishdan iboratdir.

Farzand dastlabki ma’lumot va ijtimoiy me’yorlarga amal qilish borasidagi ko‘nikmalarga oilada ega bo‘ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy muosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o‘zlari sezmagan, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to‘qnash keladilar, natijada bu tarzdagi muloqotlarning doimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas’uliyatlarini tushunib yetishga yordam beruvchi ijtimoiy obyektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

Shu jihatdan, pedagogika fani oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila - ta’lim muassasasi – jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma’rifiy roli, ular o‘rtasidagi o‘zaro birlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va

jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan unumli foydalanish talabi qo‘yilmoqda.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Bu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o‘tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz.

**Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar**

**I. Ota-onalar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar**

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog‘ida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma’naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta’minlash kafolati bo‘lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglilik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so‘rovlarini o‘tkazish mumkin. So‘rovnomalar ikki turda bo‘lib, ulardan birinchisi har bir o‘quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so‘rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, farzandlar ma’naviy madaniyatini shakllantirishga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so‘rovnomalardir. Quyida birinchi turdagi so‘rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz.

**Siz o‘z farzandingizni qay darajada bilasiz?**

Farzandingiz ushbu o‘quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?

Farzandingizni so‘nggi o‘quv yilidagi o‘zlashtirish darajasi Sizni qoniqtiradimi?

Farzandingizning fanlarga bo‘lgan munosabati qanday?

Uning fanlarga bo‘lgan qiziqishini baholay olasizmi?

Ijtimoiy munosabatlar (oila, jamoa hamda keng jamoatchilik o‘rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?

Farzandingiz mansub bo‘lgan mikro hamda makro muhitning ma’naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bilan do‘stlashgan, ularning ma’naviy qiyofasi Sizning talablaringizga javob bera oladimi?

Siz farzandingizga nisbatan salbiy aloqa yoki ta’sir ko‘rsatganliklarining guvohi bo‘lganmisiz?

Uning oilada tutgan o‘rni qanday?

O‘quv yurti yoki oila o‘rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo‘nalishi va mazmunini belgilab beradi.

**II. Ta’lim muassasada o‘quv yili davomida ota-onalar bilan olib boriladigan ishlari:**

**1. Sinf ota-onalar majlisi.** Majlis o‘quv yili davomida besh marta o‘tkaziladi, ya’ni, o‘quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o‘quv yurti ichki-tartib qoidalari, umumjamoa ijtimoiy me’yorlariga rioya etish holatlari, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil etiladi, navbatdagi davr uchun belgilangan ishlarni rejalashtirish, ularni hal etish yo‘llari, chora-tadbirlari belgilanadi. Ta’lim muassasada ta’lim olayotgan, jamoa hayoti, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar faollik

ko‘rsatayotgan, o‘qishda, mehnatda alohida o‘rnak bo‘layotgan o‘quvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

Ayrimlarning o‘quv yurtida tashkil etilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etmasliklari aytib o‘tiladi va buning sabablari aniqlanadi, bunday holatlarga barham berish borasida fikrlashib olinadi.

**2. Umumta’lim muassasa ota-onalar majlisi.** Ota-onalarning umumiy yig‘ilishida o‘quv yili davomida o‘quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar ta’lim muassasa hayoti va o‘quvchilarning intizomi, xulq-atvori, ijtimoiy me’yorlarga amal qilishlari, o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishayotgan natijalar bilan tanishtiriladi.

O‘quv yili yakunida bo‘lib o‘tgan umumta’lim muassasa ota-onalar majlisida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, turli fanlar bo‘yicha uyushtirilgan tadbirlarda alohida ibrat ko‘rsatgan, shuningdek, muayyan fanlar bo‘yicha olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashgan o‘quvchilar va ularning ota-onalarini rahmatnomalar bilan taqdirlash maqsadga muvofiqdir.

**3. Ijtimoiy-ma’naviy mazmundagi suhbat va ma’ruzalar.** Bunday ma’ruza va suhbatlar ota-onalarda ijtimoiy, shuningdek, ta’lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzand tarbiyasi ishiga jiddiy e’tibor berish, bu borada ta’lim muassasasi bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega.

## 4. Oila muammolari

Mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiya va oila tarbiyasini tashkil etishda ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi.

**Mavjud sharoitda oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Bular quyidagilardan iborat:**

- ota-onalarning pedagogik bilimlardan yetarli darajada xabardor emasliklari;
- o‘tish davri sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida ta’lim muassasa yoshidagi bolalarning muayyan qismining bozor bilan bog‘lanib qolib, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarining susayganligi;
- zamonaviy axborot vositalari, shu jumladan, kompyuterning ijtimoiy hayotga tobora chuqur kirib borayotganligi, natijada uning ijobiy ta’siri bilan birga bolalarda badiiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarning sezilarli pasayishi;
- axborot vositalari sahifalarida jangari kayfiyatdagi tomoshalar sonining ortib borayotganligi va buning oqibatida bolalarda berahmlik kayfiyatining paydo bo‘layotganligi;
- o‘quvchilarning o‘quv adabiyotlari bilan to‘la qurollantirilmaganligi;
- noto‘liq oilalarning mavjudligi hamda ular sonining ortib borayotganligi va hokazolar.

Oilaning farzandlar o‘quv faoliyatiga g‘amxo‘rlik qilishi tarbiyadagi bosh masalalardan biridir. Ota-onalar farzandlarining ta’lim jarayonida bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari yo‘lida mas’uliyatni chuqur his etishlari zarur.

Ota-onalarning bu borada quyidagilarga rioya etishlari maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning mashg‘ulotlarga kechikishlari va uyga o‘z vaqtida qaytmasliklariga yo‘l qo‘ymasliklari;
- ularning dars tayyorlashlari uchun uyda qulay sharoitni yaratib berishlari;
- bolalarda uy vazifalarini bajarishga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni qaror toptirishlari;
- bolalarga o‘quv topshiriqlarini bajarish hayotiy zaruriyat ekanligini uqtirishlari, vazifalarni mustaqil, vijdonan bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga ko‘maklashishlari;
- bolalarning kun tartibiga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga e’tibor qaratishlari;
- bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishlarini nazorat qilib borishlari.

Oilada bola tarbiyasiga ijodiy yondashish, bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga erishish ularning shaxs sifatida to‘laqonli shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega.

**Tashkilotchining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlari**

Ta’lim muassasasi va ta’lim muassasasidan tashqari muassasalarning tashkiliy shakllarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishini talab etmoqda.

Guruh va ta’lim muassasasidan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo‘lishi lozim:

Ulg‘ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o‘quvchi, o‘smir va yosh yigitning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e’tiborda tutish zarur.

Pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish. Guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari ishlar o‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlardagi o‘quv tarbiya jarayonini to‘ldiradi va kengaytradi, o‘quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Guruhdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlarda fan o‘qituvchilari o‘z faniga qiziqqan o‘quvchilar bilan mashg‘ulot o‘tkazib, o‘quvchilarning qiziqishlarini o‘stiradi. Quyida to’garaklar turlari 59-rasmda berildi (59-rasm):

59-rasm

**Guruhdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xilda bo‘lishi mumkin, masalan:**

A) fan to‘garaklari
B) “mohir qo‘llar” to‘garaklari
V) sport to‘garaklari
G) badiiy havaskorlik to‘garagi va b.

O‘rta umum ta’lim ta’lim muassasasilarida bu ishlarni guruh rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Guruh rahbari guruhdan tashqari ishlarni uyushtirishda to‘garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo‘lgan o‘z o‘quvchilarini biror to‘garakka a’zo bo‘lishga chorlaydi. Ularni qaysi to‘garakda mashg‘ul bo‘lishlari hisboga olinadi.

Ta’lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarni ijodkorlikka da’vat etuvchi tarbiyaviy maskandir. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi sharoitda ta’lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi O‘quvchilar uylari, Yoshlar saroylari, Yosh texniklar saroylari, Yosh texniklar uylari ta’lim muassasasi tarbiyasining uzviy davomchisi bo‘lib qolishi kerak. O‘zbekiston Respublikasining «Guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi» bu ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishda asos bo‘ladi.

Ma’lumki, o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, nafosat va jismoniy jihatdan to‘liq shakllangan kishilar qilib tarbiyalash dars jarayonidan boshlanadi. Biroq o‘quvchilarning kundalik o‘sib borayotgan ehtiyojlari, talablari va barcha qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilangina cheklab bo‘lmaydi. Bunday ko‘p qirrali qiziqishlarni guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarni uzviy bog‘lash asosidagina qondirish mumkin. Shu sababli, keyinga davrda o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko‘ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Darsdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashini to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘lanishiga zamin yaratadi. Guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko‘p qirralidir.

**Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- darsdan tashqari tarbiyavity ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
- o‘quvchilarning guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari ko‘p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o‘quvchilar tashkilotlari, guruh faollari yordamida yo‘lga qo‘yish;
- guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o‘qituvchilar, ota-onalar, guruh faollari uslubiy yordam ko‘rsatishi;
- umumta’lim muassasasi va ta’lim muassasasilararo o‘tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;
- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Quyidagi 60-rasmda tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomoni turlari berildi (60-rasm):

**Bular ko‘pincha o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:**

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish
- tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarini aniqlash

- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;

- guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Milliylikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish

60-rasm

**Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini ko’rish mumkin:**

**1-tashkilotchilik, 2- usuliy, 3-ma’muriy.**

Ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan, uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma’lum bir tizimga solmasdan turib ko‘zda tutilgan maqsadga erishish qiyin.

**Oila – tarbiya o‘chog‘i. Oila – jamiyat negizi.** Har bir insonda ilk yoshligidan boshalb ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma’naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhit oiladir. O‘zbek oilasi o‘zida ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Agar oiladagi muhit sog‘lom bo‘lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga ezgu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo‘ladi.

Oila manfaatlarini ta’minlash borasida 1998 yilda qabul qilingan va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan tadbirlar to‘g‘risida Davlat dasturi va ushbu dasturda belgilangan tadbirlarning strategik yo‘nalishlariga e’tibor berilsa, ular mamlakatimizdagi oilalarning mustahkam bo‘lishiga imkon beruvchi vazifalarni nazarda tutadi.

1998 yilning «Oila yili» deb e’lon qilinishi va shu yilning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining qabul qilinishi hamda mamlakatimiz tarixda ilk bor tashkil etilgan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatiga hamohang bo‘lib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o‘rganish, oilaviy hayotga bog‘liq muammolarni tadqiq etish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir.

Markazning muhim maqsad va vazifalaridan biri oila konsepsiyasini yaratish va uni hayotga joriy etishning uslub va vositalarini joriy etish orqali

Hukumatimizning ijtimoiy sohadagi insonparvar siyosatini amalda har bir fuqaro ongiga oila instituti orqali singdirishdan iboratdir.

Quyidagi 61-rasmda G‘ulomiddin Akbarzodaning fikr-mulohazalari berildi (61-rasm):

61-rasm

**G‘ulomiddin Akbarzoda «Ilm demak jon. Ilm demak madaniyat «dini odobiga sabib» demak, deb yozgan edi. Bas, shunday ekan ota-ona 1-guruh o‘quvchisining ilm dargohidan ko‘p bilim va tarbiyaga ega bo‘lishi uchun nimalar qilishi kerak:**

1. O’qituvchi muqaddas siymo u sizning maslahatchingiz, uni ardoqlab, obro‘-e’tiboriga sadoqatli bo‘lish.
2. Guruh va kollej jamoasining ta’lim-tarbiya tadbirlariga faol qatnashib, taklif va mulohazalaringizni aytish.
3. O’quvchingizda nima yaxshi, nima yomon ekanligani uqtirib, sharqona rasm-rusm, udum, an’analarimizdan xabardor qilish o‘qituvchiga ko‘makdosh bo‘lish.
4. O’quvchingizning o‘quv ishlariga yordam berib borish. Unga beriladigan topshiriqlarni bajarishda ularga yordamingizni berish.
5. O’quvchingizda kollej, guruh, o‘qituvchi va o‘rtoqlarga nisbatan yaxshi fikr uyg’otish, chunki 1-guruh o‘quvchisining kollej sharoitiga moslashtirish ancha murakkab ruhiy holatdir.
6. Farzandingizdan kundalik ish faoliyatidagi munosabatini kuzatib, so‘rab borish. Bunday suhbatda yaxshi, juda yaxshi, marhamat, rahmat, baraka top kabi sehrli so‘zlarni, nojo‘ya harakat sodir bo‘lgan bo‘lsa, «chakki ish bo‘libdi», «men kutmagan edim» kabilarni ishlatish.
7. Ota-ona kollejning yaqin yordamchisi bo‘lishi, ko‘makdoshi o‘z farzandining kamoli bilan yashashi kabilar

Davlatimizning birinchi rahbari I.A.Karimov har chiqishlarida oila masalalariga katta e’tibor berar ekanlar, uning tarbiya beradigan maskanlar orasida eng muhimi ekanligiga oid fikrlari alohida ahamiyatga ega. «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanligini tan olishimiz darkor». Mustaqillik yillarida Respublika Hukumati va birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan oilaga ko‘rsatilayotgan e’tibor, yillarga maqom berilayotganda oilani mustahamlash, nikohni qadriyat sifatida e’zozlashga qaratilgan chora-tadbirlar tom ma’noda yurtimizda oila va farzandlar hukumatning doimiy g‘amxo‘rligi ostida ekanligidan dalolatdir.

Taqdim etilgan konsepsiya oila institutini yurtimizda yanada mustahkamlash, u orqali milliy istiqlol g‘oyasini fuqarolar ongiga singdirish ishlari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar, yangilanish jarayonlari va islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ozod va obod Vatan, rivojlangan fuqarolik jamiyati barpo etish, shu tarzda xalq farovonligini ta’minlash, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallash, oilaning barqarorligiga erishish ekan, oilaga bag‘ishlangan konsepsiyaning vujudga kelishi o‘ta dolzarbdir.

Zero, Respublikamiz o‘z iqtisodiyotini yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyatni erkinlashtirish va demokratiyalash siyosatini izchil olib borar ekan, bizga jamiyatning negizi bo‘lgan oilalar muammolari va istiqboliga qaratilgan konsepsiya zarur edi. Darhaqiqat, konsepsiya O‘zbekistondagi oilalarning rivojlanishi istiqbolini tasavvur qilish, oila borasidagi ijobiy va muammoli masalalarni oldindan bashorat qilish uchun, mavjud muammolarning sabab va omillarini belgilab olish uchun ham xizmat qiladi.

## 5. Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari

Oila va jamiyat - mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, oilada jamiyatning tub mohiyati va muammolari o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a’zosi oila bag‘rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi.

Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o‘z himoyasiga oladi. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni ko‘ngildagiday olib borishda o‘sib kelayotgan yosh avlodni yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalashda oila va mahalla hamkorlikda ish olib orishi lozim. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, apil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo‘lishlari lozim.

***Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi***

Har bir o‘quv yilining boshida o‘tkaziladigan ota-onalarning guruh majlisini ilmiy, nazariy, ma’naviy va metodik jihatdan namunali tashkil qila bilish ota-onaning bunday majlislarni orziqib kutib, doimiy qatnashuvchi bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Bundan majlis o‘qituvchidan ko‘p bilim va mahorat talab etadi.62-rasm

**Guruh ota-onalar qo‘mitasini saylash**

Birinchi ota-onalar majlisi samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiga bog‘liqdir. Uning o‘zini tutishi, muomalasi, ishbilarmonligi, har bir o‘quvchi va uning oilasi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, ota-onalarda ijobiy taassurot qoldiradi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasasidagi ota-onalar majlisini yuqori saviyada bo‘lmasligi ota-onalarni ta’lim muassasasidan sovutadi. Tayyorgarliksiz majlis - bu sizning o‘quvchingiz yaxshi, sizniki yomon deyish yoki tabellarni berib, qo‘l qo‘ydirishdir. Ayniqsa, «yomon» o‘qiydigan o‘quvchilarning ota-onalarini jamoa orasida obro‘sizlantirishga intilish holatlari, ota-onalarni ta’lim muassasasidan uzoqlashib ketishiga sabab bo‘ladi.

Quyidagi 62-rasmda o'qituvchi-guruh rahbari sifatida haqidagi ma'lumotlar berilgan (62-rasm):

**O'qituvchi-guruh rahbari sifatida**

O'qituvchi-guruh rahbari, mehribon tarbiyachidir. Kollejning boshlang'ich guruhlaridagi muhim xususiyatlardan biri-biriga qadrdon o'qituvchi rahbarligida 4 yil hamkor, hamdard bo'ladilar. Shu sababdan boshlang'ich guruh o'quvchilarning ota-onalar jamoasi bilan ham ishlash o'ziga xos xususiyatga ega.

Birinchi farzandlarini kollejga kuzatadigan ota-onalarning ish shakl va uslublari ko'p tajribali ota-onalaridan farq qiladi. Bular uchun «1-guruh o'quvchisi», «Yosh ota-onalarga esdalik»larni tavsiya etish talabga muvofiqdir.

**Bu ish shaklidan maqsad:**

ota-onaning – o'quvchi ota-onasi nomiga sazovor bo'lish hissini uyg'otib, kollej oldidagi burchini anglatish;

ota-onaning pedagoglik, tarbiyachilik faoliyatini faollashtirish;

yosh ota-onalar uchun esdalik.

Har bir inson farzand ko'rish va uni voyaga yetib borishini to'rt ko'zlab, kuzatayotganidan Allohga hamdu sanolar aytib, u buyuk ne'matni qadriga yeta bilishi lozim. Bu ne'mat o'quvchining kollejga birinchi qadamidir

Bunday majlislardan voz kechish kerak. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining milliy istiqlol mafkurasini mustahkamlovchi yangicha munosabat: ta'lim muassasasi – ota-onalar munosabatlari yosh avlodning tarbiyasi uchun muhimdir.

Majlis maqsadiga ko'ra mavzuning e'lon qilinishi (yuqorida ko'rsatilgan majlis turiga ko'ra uning mazmuni asoslab beriladi). Ota-onalar fikr va mulohazalari eshitiladi. O'quv-tarbiya ishlaridan savol va talablarni muhokama etiladi.

Turli masalalar hal qilinadi. Guruh majlisi qarori chiqarilib, tasdiqlanadi. O'qituvchi kelgusi majlis rejasi bilan tanishtiradi. Majlis o'tkazish tartibi mavzuning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra o'zgarib boradi.

**Ota-onalarga pedagogik bilim berish shakli va rejalari**

Inson kamoloti shunchalik murakkabki unga hayotiy tajriba yetarli emas uning uchun o'rganish, bilim, o'qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogik adabiyot orasida»gi risolalarida ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. O'quvchi tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug'orilgan-xalqchillik g'oyasiga asoslangandagina, ota-ona bilimdon tarbiyachilik san'atiga ega bo'la oladilar», –

deyilgan. Pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarur. Bu bilim ta’lim muassasasida, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi muammolar pedagogik bilimni yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Quyidagi 63-rasmda har bir oila a’zosi va ularning shart-sharoiti haqidagi ma’lumorlar berildi (63-rasm):

63-rasm

**Undagi masalalar yuzasidan tayyorgarlikni bir oy oldin boshlash kerak. Bular: har bir oila a’zosi va ularning shart-sharoiti haqidagi ma’lumotta ega bo‘lish:**

- oila va atrofdagi ijtimoiy munosabat muhitini soz yoki nosozligini aniqlash;
- har bir o‘quvchi shaxsi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish;
- oilada o‘quvchini kollejga tayyorlash tartibi kabilar.

Birinchi majlisni o‘tkazishdan oldin o‘qituvchining tayyorgarligi:
Majlis mavzusi va maqsadini aniqlash.
Majlis o‘tadigan joyni jihozlash.
Majlis o‘tkazish metodini tanlash; suhbat, tushuntirish.
Kollej tarixi va kelajakdagi rejalari haqida qisqa ma’lumot tayyorlash.
Ota-onalar jamoasi nizomini ko‘rgazma tariqasida tayyorlash (kollej rahbariyatining nizom haqidagi chiqishini hozirlash)

**Ta’lim muassasasidagi pedagogik bilim turli shakllarda amalga oshiriladi ya’ni:**

Pedagogik ma’ruza, ilmiy, metodik kengash.

«Savollaringizga javob beramiz» (ota-onalar kuni).

Ota-onalar uchun ma’ruza.

Ma’ruza ota-onalarga pedagogik bilim beradigan turlardan biridir. Ota-onalar uchun mo‘ljallangan ma’ruza ta’limi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

*Ma’ruzani ta’minlovchi manbalar:*

a) o‘tmishdagi ma’rifatparvar va mutafakkirlarning asarlari (Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Alisher Navoiyning «Mahbubul qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqiy Muxsiniy» asarlaridagi oila tarbiyasiga oid g‘oyalar 4

b) ko‘rgazmalar-allomalarning rasmlari va kitob namunalari. v) didaktik materiallar, dono so‘zlar yozilgan kartochkalar, faktlar.

*Ma’ruzaning kirish qismi*

Quyidagi 64-rasmda har bir ota-onalar majlisi ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar berildi (64-rasm):

64-rasm

**Har bir ota-onalar majlisi ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lishi uni turli shakllarda tashkil qilish talabga muvofiqdir. Ya’ni:**

– «Pedagog maslahatiga amal qilamiz» mavzusidagi majlislar;
– «Uchrashuvchi majlis» (olim, tibbiy xodim, san’at madaniyat arboblari v.b.);
– bahs majlislari: ta’lim-tarbiyaga doir mummolar yoki pedagogik adabiyotlar yuzasidan; «Merosga ixlos» majlislari;
– o‘quvchi tarbiyasiga doir Qur’oni Karim, Hadis va mutafakkirlarning dono fikrlaridan foydalanish;
– guruh ota-onalar majlisini o‘tkazish tartibi;
– guruh o‘qituvchisi va ota-onalar qo‘mitasi a’zolarining oldingi majlislarida qabul qilingan qarorlarining bajarilishi haqida axborotlari eshitiladi.

Mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi hamda milliy meros haqida tushuncha. Bu boradagi O‘zbekiston rahbariyatining olib borayotgan siyosati. Quyida 65-rasmda ota-onalar uchun pedagogik bilim beradigan ma’ruzalar mavzulari berildi (65-rasm).

65-rasm

**Ota-onalar uchun pedagogik bilim beradigan ma’ruzalar mavzulari:**

– milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va barkamol inson tarbiyasida ota-onalarning o’rni;
– oilada iqtisodiy tarbiya;
– ma’naviy meros va oila;
– siz o’tmish ajdodlaringizni bilasizmi? Oilanoma yaratish masalalari;
– mutafakkirlar ijodiyotida oila tarbiyasi;
– farzand tarbiyasida xalqimiz qo’llagan usullar;
– oiladagi adolat to’g’ri tarbiya asosidir;
– farzandingiz saxiy, muruvvatli bo’lsin desangiz…
– oilada iymon-e’tiqod tarbiyasi

*Ota-onalar uchun tanlangan mavzular quyidagicha rejalashtiriladi.*

Mavzu: «Ma’naviy meros va oila».

Maqsad: Ota-onalarga o‘tmish merosimizdan o‘quvchini oilada tarbiyalash haqidagi mutafakkir va ma’rifatparvarlar asarlaridagi ta’limotlar haqida bilim berish.

*Ma’ruzaning asosiy qismi*

Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va Voiz Koshifiylarning asarlaridagi davomiylik g‘oyalarining bir-biri bilan bog‘langanligi, asarlarning yaratilishi haqida ma’lumot beriladi. So‘ngra, asardagi oila, ota-onaga hurmat, vazifa, burchlari haqidagi ma’lumotlar. Oilada ayol va erkak fazilatlari qanday qilib farzand burchini anglatish muammolari. Axloq-odob tarbiyasidagi dono fikrlar, rivoyat, hikoyat, tanbehlar orqali asoslab, tushuntirib, ta’lim muassasasi hayoti bilan bog‘lanadi.

*Ma’ruzaning yakuniy qismi*

Millik merosimizdan qanday foydalanishga doir uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar beriladi. Ta’lim muassasasida «Ota-onalar kuni»ni tashkil qilish pedagogik bilim berish turlaridan biridir. Ota-onalarni ta’lim muassasasiga ma’lum kunda taklif etib, turli o‘quv-tarbiya ishlaridan xabardor qilish an’anaviy ahamiyatga ega bo‘lib, u «Ta’lim muassasasida ota-onalar kuni» yoki «Ochiq eshiklar kuni» deyiladi.

*Bu kundagi ish tartibi quyidagicha bo‘lishi mumkin:*

Pedagogik maslahat burchagani tashkil etish.

O‘quvchilar ijodiyotidan ko‘rgazmalar uyushtirish.

Ochiq darslarga ota-onalarni taklif qilish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Ota-onalar uchun konsert dasturini namoyish etish.

Ota-ona va ta’lim muassasasi hamkorligidagi ishlar metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilsa, ijobiy natija beradi.

## 10-mavzu. O’QUVCHILARNI BILIMGA BO’LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH ORQALI TARBIYALASH

### REJA:

1. Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish
2. SHarq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan
3. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi
4. Ekologik tarbiya o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi
5. O’quv ishlari va mehnatiga ongli munosabatda bo’lish

### TAYANCH IBORALAR:

Ilmiy dunyoqarash, tafakkur, ijtimoiy jamiyat, shaxs, shaxs dunyoqarashI, aqliy tarbiya, aqliy ta’lim, aqliy tafakkur, o‘quvchilar, bilimga qiziqish, o‘quv mehnati, guruh rahbari, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiyot, iqtisodiy tarbiya

## 1. Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

SHaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. YOsh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

SHaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi.

SHaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. SHaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarnii berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e’tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligiga urg‘u beriladi. YUksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo‘lib etishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin,

chuqur bilimlarga ega bo‘lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘ra va baholay olishga imkon beradi.

Quyidagi 66-rasmda aqliy tarbiya jarayonidagi vazifalar haqida berildi (66-rasm):

66-rasm

**Aqliy tarbiya jarayo-nida quyidgi vazifalar hal etiladi:**

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

Ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.

Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirishbilishi va ularga amal qilishi darkor

Aqliy tarbiya o‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy ta’lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko‘rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo‘lib, quyidagi belgilarga ko‘ra aniqlanishi mumkin:

Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.

Mavjud ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib olish jarayoni.

Fikrlash ko‘nikmasiga egalik.

Bilimlarni egallashga bo‘lgan qziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e’tiqod o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi

Ilmiy qarash (yunoncha «idea»- g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo‘lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o‘zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma’lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

E’tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch bo‘lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma’naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e’tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo‘lish borasidagi qarashlar muhim o‘rin egallagan bo‘lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omil ekanligiga alohida urg‘u beriladi. CHunonchi, «... ilmu ma’rifat insonni yuksaklikka ko‘taradi.

XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma’rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo‘yadigan yangi avlod paydo bo‘ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu olijanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug‘ kunlarga erishishi muqarrar»[1].

**O‘quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifalari**

O‘quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg‘otish.

O‘quvchi bilimga qiziqmasdan turib o‘qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o‘qiy olmaydi. O‘quvchida o‘z kuchiga va qobiliyatiga ishonch xosil etish, o‘qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag‘batlantirish ayniqsa, ahamiyatlidir. O‘quvchidagi o‘qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg‘otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

---

[1] Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar SH.Qurbonov, H.Saidov R.Ahliddinov. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konsterni, 1999. – 57-bet.

2. O‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lish va unga mas’uliyat bilan yondashish.

O‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lishlik ta’limning, ijtimoiy, o‘qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Guruh rahbarlari o‘quvchilarga ularning bosh vazifasi – o‘qish ekanligini tushuntirishi kerak. O‘qishga mas’uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘z oldidagi mas’uliyat, ularning fikrlari, ma’qullashlarini eshitishga intilish, guruh, o‘quv jamoasida munosib o‘rinni egallashga ham tegishlidir. Guruh rahbarining va fan o‘qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog‘liq (67-rasm)

3. O‘quv madaniyatini oshirish.

O‘zlashtirishning past bo‘lishi aksariyat hollarda, o‘quvchilarda o‘quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko‘nikmasining shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Endi bevosita ana shu ishlar mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

67-rasm

**Guruh rahbarining va fan o‘qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog‘liq:**

faoliyatni reja asosiga qurish;
qunt bilan ishlash;
pala-partishlikka yo‘l qo‘ymaslik, saranjomlikka o‘rganish;
bilim sifatini oshirish;
qiyinchiliklarni yengish;
o‘quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish;
o‘quv mehnatini o‘quvchining dam olishi bilan to‘g‘ri almashtirib borilishidir;
o‘qishda o‘rtoqlarcha o‘zaro yordam uyushtirish;
o‘rtoqlarcha o‘zaro yordam guruhda ulgurmovchilikning oldini oladi, guruh jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi;
guruh o‘qituvchilari bilan hamkorlik qilish;
guruh rahbari ta’lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o‘zi emas, balki shu guruhda dars beruvchi boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlikda olib borish kabilar

Guruh rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o‘qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ish ekanligini o‘quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz ta’lim muassasasi dargohidan chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning mutaxassis yetishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida guruh majlislarida, har bir o‘quvchi bilan alohida yoki bir guruh o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda guruh rahbari batafsil gapirib

beradi. O‘qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas’uliyat bilan qarash kerakligi o‘quvchilarga tushuntirib boriladi.

«Bilim – takrorlash mevasidir», – degan edi Abu Rayhon Beruniy. Guruhda va uyda ko‘p va jiddiy ishlaydigan o‘quvchilar, odatda o‘qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. O‘quvchilarni o‘qishga mas’uliyat bilan qarash ruhida, ko‘chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak.

Guruh majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o‘quv mashg‘ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o‘quvchilarga sezilarli ta’sir o‘tkazish kerak.

Guruhning o‘zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada guruh devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa, muhimdir. Bu tajriba juda ko‘p ta’lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinmoqda. O‘quvchilarga biror bir fan bo‘yicha ko‘rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo‘lingdan keladi» degan gapni uning qulog‘iga quyish kerak. Buni o‘quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o‘qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi.

To‘g‘risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o‘quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o‘rganishga, o‘z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o‘zi yasayotgan o‘quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda, har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, guruh va ta’lim muassasasi jihozlarini avaylashga o‘rganadi.

## 2. SHarq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan

Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi»[2].

[2] Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1966. – 7-bet.

Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko‘pdir. Ular zamoni iqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi»[1].

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo‘ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsayu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi»[2].

Hech gap qolmadi ma’lum bo’lmagan,
Juda oz sir qoldi, mavhum bo’lmagan.
Bilimim haqida chuqur o’ylasam –
Bildim-ki, hech narsa ma’lum bo’lnagan

YUsuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta’bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta’minlovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi:

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to‘qqiz-o‘n asr vaqt o‘tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo‘ldi.

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma’rifatni rivojlantirishga yo‘naltirish etakchi o‘rin tutadi. Binobarin, ilm-ma’rifat zulm va bid’atdan forig‘ bo‘lish yo‘lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g‘oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo‘lgan ilm puxta va mustahkam bo‘ladi.

---

[1] Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1965. – 125-bet.
[2] O’zbek pedagogikasi antologiyasi /Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Safo Ochil. – Toshkent, O’qituvchi, 1995. – 137-bet.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz oʻzlashtirish zarurligini uqtiradi. SHuningdek, ilm oʻrganish mashaqqatli yumush boʻlib, uni oʻrganishda ayrim qiyinchiliklarni engib oʻtishga toʻgʻri kelishi, bu yoʻlda chidamli, qanoatli, bardoshli boʻlish orqaligina mukammal bilimga ega boʻlish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida toʻxtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi[1]:

Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urgʻu beradi: «Ilm bizni jaholat qorongʻusidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, gʻayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bogʻliqdur»[2].

> «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun gʻoyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga oʻz ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi koʻrsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi oʻtkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur»

Oʻquvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari boʻlib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-gʻoyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida oʻquvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik oʻyinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida oʻquvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yoʻllash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor boʻlib xizmat qiladi. Oʻsmir hamda oʻspirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning gʻoyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish koʻrishga undash ham oʻzining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda, aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda, fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish koʻrish koʻzlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini koʻra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga oʻtishini kuzatish, ularning oʻzaro bogʻliqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning oʻzaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda

[1] Avloniy A. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. – Toshkent, O'qituvchi, 1994. – 10-bet.
[2] Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992. – 22-23-betlar.

ijtimoiy munosabatlar ta’sirida shaxs kamolotini ta’minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim muassasalarida oʻquv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining oʻquvchilar tomonidan chuqur oʻzlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Oʻqituvchilar oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida gʻamxoʻrlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan oʻzlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qoʻllay olinishiga e’tibor berishlari zarur. Fan oʻqituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan oʻquvchilarni tanishtirib borar ekanlar, oʻquvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish koʻrish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor oʻrin tutgan mafkuraviy gʻoyalar va ularning mohiyatidan toʻlaqonli xabardor boʻlish oʻziga xos ahamiyatga ega. SHu bois ta’lim muassasalarida yoʻlga qoʻyilayotgan ta’lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan oʻquvchilarni tanishtirish jarayonida Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e’tirof etilgan milliy istiqlol gʻoyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma’lumotlar berib borish, ularga nisbatan oʻquvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yoʻl hisoblanadi.

### 3. Iqtisodiy tarbiya oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi

Oʻzbekiston Respublikasida, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda oʻquvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish koʻnikma, malakalarni shakllantirish oʻziga xos ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiya ta’lim muassasalarida yoʻlga qoʻyilayotgan iqtisodiy ta’lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik oʻrtasidagi mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Shuningdek, oʻquvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xoʻjaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va oʻrta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, byujdetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar) borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya – oʻquvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, oila xoʻjaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, koʻpaytirish, savdo-sotiq munosabatlarini toʻgʻri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish koʻnikma va malakalarini shakllantirishdan iborat boʻlib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi

Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, hamda treninglar, ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar, tadbirkorlik yoki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o‘yinlari, o‘quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko‘rik-tanlovlar, ularning iqtisodiy tafakkurini o‘stiruvchi iqtisodiy yo‘nalishdagi konferensiya, seminar va munozaralarni tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini ta’minlaydi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi (68-rasm):

68-rasm

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;

2. Ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

3. Ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;

4. O‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;

5. Ular tomonidan tor doirada bo‘lsada tadbirkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilishiga erishish

3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda xalqning tub manfaatlarini ko‘zlash, davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tashkilotchisi va etakchisi bo‘lishi[3].

4. Pul siyosatini olib borishda mustaqil bo‘lish, valyuta zahiralarini boyitish[4].

5. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qonun ustuvorligiga erishish, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi[5].

---

[3] Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent, O’zbekiston, 1994. – 5-bet.
[4] Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlari. – Toshkent, O’zbekiston, 1993. – 48-49-betlar.
[5] Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent, O’zbekiston, 1994. – 271-273-betlar.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Xalqimizning yo‘li – mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo‘lidir» nomli asarida quyidagilarni bayon etadi: «Bozor munosabatlariga o‘tish davrida o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida bizning iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarnig mohiyati va roli borasida ko‘proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqdir», - deya ta’kidlagan edi.

Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish uning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida respublika iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, omillari hamda tamoyillari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif bozor munosabatlarini shakllantirishning quyidagi tamoyillariga alohida urg‘u beradi:

1. Iqtisodiyotning har qanday siyofiy mafkuralardan ozod qilish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash[1].

2. Iqtisodiyotni, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish –iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning muhim sharti[2].

Bozor munosabatlari sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash[6].

Iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich, evolyutsion tarzda amalga oshirilishi[7].

Iqtisodiy tarbiyani uzluksiz amalga oshirishda ta’lim muassasalarida dars va darsdan tashqari sharoitlar, shuningdek, oilada amalga oshirilayotgan harakatlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mazmundagi suhbatlar, uchrashuvlar, ekskursiyalar, to‘garaklar ko‘rinishidagi amaliy tadbirkorlik faoliyati (u yoki bu hunar yo‘nalishidagi ijodiy ishlar)ni tashkil etish o‘quvchilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi.

## 4. Ekologik tarbiya o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi

«Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo‘llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha «oikos» -turar joy, makon, «logos» -fan) o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni «O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi»da o‘z ifodasini topgan.

Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to‘xtalib, O‘zbekiston Respublikasi birinchi

---

[1] Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlari. – Toshkent, O’zbekiston, 1993. – 5-bet.

[2] O’sha asar, 7-bet.

[6] Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konsterni Bosh tahririyati, 1993, - 15-bet.

[7] Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent, O’zbekiston, 1994. 273-betlar.

Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: «Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos boʻlib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi koʻp jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bogʻliqdir»[1].

Oʻquvlarda tabiatga nisbatan toʻgʻri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uygʻotish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yoʻlida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik ta’lim oʻquvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yoʻnaltirilgan ta’limiy jarayonidir. Ekologik tarbiyaning vazifalari –rasmda berildi (65-rasm):

Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yoʻlida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi boʻlib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon boʻladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi boʻlib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur (69-rasm).

69-rasm

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi boʻlib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. Oʻquvchilarning ta’lim jarayonida oʻzlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish.
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi toʻgʻrisidagi tasavvurini boyitish.
3. Oʻquvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi toʻgʻrisidagi e’tiqodni shakllantirish.
4. Oʻquvchilarda ekologik faoliyat koʻnikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Ekologik madaniyat oʻquvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

---

[1] Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.: O’zbekiston, 1997.- 137-bet.

Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat, davra suhbati, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, koʻkalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, ragʻbatlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish oʻquvchilarda ekologik madaniyatni qaror topishini taʼminlaydi.

Oʻquvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan subʼektlarning shaxsiy namunalari, oʻquv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, Internet) materiallari va ularning gʻoyalari oʻquvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

**Maʼnaviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili**. SHaxs dunyoqarashining shakllanishida maʼnaviy-axloqiy tarbiya ham muhim oʻringa ega boʻlib, uni samarali tashkil etish oʻquvchida maʼnaviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur boʻlgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini oʻquvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat koʻnikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon boʻlib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy meʼyorlardir. Axloq (lotincha «moralis» xulq-atvor maʼnosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur boʻlgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yigʻindisi. Axloqiy meʼyorlar toʻgʻrisidagi bilimlar oʻquvchilar ongiga taʼlim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi oʻquvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat koʻnikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida koʻrinadi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri boʻlib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur boʻlgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol gʻoyasining oʻquvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy ong, axloqiy faoliyat koʻnikmalari hamda axloqiy madaniyat taʼlim-tarbiya jarayonida yoʻlga qoʻyilayotgan axloqiy, ijtimoiy-gʻoyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xoʻjaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qoʻlga kirish bilan Oʻzbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obroʻ-eʼtiborining oshishiga oʻzining munosib hissasini qoʻshayotgan shaxslar hayoti va faoliyat toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini koʻrsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiya oʻquvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuygʻu hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligida maʼlum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham oʻquvchilarning komil shaxs boʻlib kamol topishlariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va eʼtiqodlar tizimidir.

YUksak maʼnaviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yoʻlida fidokorona mehnat qilish, oʻziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan boʻlish, oʻzida

irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlarni mustaqil O‘zbekiston Respublikasi hayotida ustuvor bo‘lgan tamoyillar sifatida e’tirof etish mumkin.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida axloqiy mazmundagi suhbat, ma’ruza, bahs-munozara, konferensiya, seminar hamda debatlardan foydalanish o‘zining ijobiy natijalarini beradi. O’quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifalari. O’quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg’otish.

O’quvchi bilimga qiziqmasdan turib, o’qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o’qiy olmaydi. O’quvchida o’z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o’qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag’batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. O’quvchidagi o’qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni engishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg’otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

**O‘quv madaniyatini oshirish va o‘qishda o‘rtoqlarcha o‘zaro yordam uyushtirish**

Ma’lumki, ongli intizom va mas’uliyat hissini sezish ta’lim muassasasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

O‘quvchilarning intizomli bo‘lishida guruh rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, o‘quvchilarda intizomni tarbiyalab boradi, guruhda aniq rejim va ichki tartib o‘rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni guruh rahbari bir o‘zi emas, balki o‘qituvchilar, guruh jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Guruhda intizomni saqlash va joriy qilish faqat guruh rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri fikr. Intizom uchun butun guruh, pedagogik jamoa mas’uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko‘p vaqt qilingan mehnatni bir paytning o‘zidayoq yo‘qqa chiqarish mumkin. Masalan, guruh rahbari va ayrim fan o‘qituvchilari darslarida o‘quvchilar jim, intizomli o‘tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o‘quv yumushlari bilan band bo‘lishadi; ba’zi o‘qituvchilarning darslarida buning aksi: o‘quvchilar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog‘oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o‘qituvchi tajanglashadi, o‘quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir ta’lim muassasasi hayotida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo‘ladi? Bu holatda o‘sha fan o‘qituvchisining o‘zi aybdordir. Negaki u dastlabki mashg‘ulotlaridayoq o‘z «siri»ni o‘quvchilarga oldirib qo‘ygan. O‘ta ko‘ngilchan, so‘zlari, harakatlari ta’sirsiz, bo‘shang, muloyim, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilolmaydi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo‘sh natija nima bo‘ladi? O‘qituvchi o‘z kayfiyatini buzadi, jismonan charchaydi, o‘quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u yoqda tursin, darsni to‘liq o‘tolmaydi, bundan ham yomoni, o‘quvchilar intizomini buzadi, guruhda tarqoqlikni,

boshboshdoqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo‘shang o‘qituvchining keltirgan ziyoni.

O‘quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni ta’lim muassasasiga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o‘rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash – ta’lim muassasasining‘ asosiy vazifasi hisoblanadi.

Sharqning faylasuf shoiri Shayx Sa’diy:
*Agarda muallim bo’lsa beozor,*
*O’quvchilar sinfni qilishar bozor,* - deb bejiz aytmagan

Guruh rahbarlari xuddi shunday holatlarga o‘z e’tiborlarini qaratishlari lozim. Butun guruh o‘qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo‘llikni, guruhda intizomni saqlash, o‘quvchilarga bo‘lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo‘yish lozim.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda o‘quvchilarning partada qimirlamay o‘tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zicha intizom o‘rnatmoqchi bo‘lib guruhga qosh-qovog‘idan qor yog‘dirib kiradilar, dag‘dag‘a qilib, o‘quvchilarni siquvga oladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo‘lmaydi. Zo‘ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg‘ak qalblarga adovat urug‘ini sochadi, ularni sovuqqon, qo‘rqoq, jur’atsiz, yolg‘onchi, ozurda qilib qo‘yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o‘quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg‘in, ijodiy, ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘tib, ularning havasini va hayratini uyg‘otish, lol qoldirish, dars o‘tilgach birorta ham o‘quvchini «beish» qoldirmaslik – har biriga o‘ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo‘lish nafaqat ta’lim muassasasida, balki o‘quvchining kelgusi hayotida ham asqotishadi. Chunki, inson hayotidagi har qanday holatda ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

## 5. O’quv ishlari va mehnatiga ongli munosabatda bo’lish

Ta’lim muassasasi o’quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog’liqdir. Ta’lim muassasasi hovlisidagi bog’, tokzor, issiqxonada o’tkaziladigan amaliy jarayon – daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o’tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar etishtirish qoidalari o’quvchilarda katta qiziqish uyg’otadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, jo’g’rofiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o’rganishga rag’bat uyg’otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo’lib etishish mumkinmi? O’quvchilarga ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Huddi shuningdek, fizika, ximiya, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o’quvchilarda havas o’yg’otadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo’lgan qiziqishni shakllantirish va o’stirishda guruhlarni, o’quv

xonalarini va ta’lim muassasasi binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o’quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg’otadi, tegishli ma’lum sohalarga havas uyg’otadi.

Bugungi kunda turli fanlar bo’yicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmoqda: «Mashhur kishilar hayotidan», «Qiziqarli matematika», «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli jo’g’rofiya», «O’simliklar hayoti», «Bizni o’rab turgan olam», «Tariximizga bir nazar» va hokazo ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar o’quvchilar qo’liga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq do’st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi o’zi?

O’quv jarayonida fanlar bo’yicha o’zaro bog’lanishga katta e’tibor berish kerak. Bundan o’qituvchiyu o’quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar echish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o’lchov birliklari qo’llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o’rganadigan mavzular bo’ladiki, ularda ikkala fan o’qituvchisi ham bir darsda o’z sohalari bo’yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo’ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-jo’g’rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. O’quvchining muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini o’rganishga havas uyg’otish mumkin bo’ladi.

O’quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to’garak, fakul’tativ mashg’ulotlari jarayonida kengroq foydalanish lozim. Guruh rahbari o’z o’quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma’lumotlar bilan fan o’qituvchilarini tanishtiradi, o’quvchiga qanday munosabatda bo’lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo’ladiki, biror fandan o’zlashtirmayotgan o’quvchi bilan guruh rahbarining o’zi bevosita ish olib boradi. «Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo’ymaymiz», deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo’lganda, a’lochi o’quvchilarni yoki ushbu fan o’qituvchisini ham ko’makka chaqiradi. Bundan o’quvchini ko’ngli tog’dek ko’tariladi, yolg’iz emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o’zlashtirishga harakat, havas uyg’onadi.

O’quvchilarda o’quv mehnatiga javobgarlik va mas’ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas’ullikni sezmagan o’quvchi pala-partish o’qiydi. Mas’ullik kishini sergak torttiradi, o’quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi. Ma’lumki, ongli intizom va mas’uliyat hissini sezish ta’lim muassasasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

O’quvchilarning intizomli bo’lishida guruh rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, o’quvchilarda intizomni tarbiyalab boradi, guruhda aniq rejim va ichki tartib o’rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi. Bu ishlarni guruh rahbari bir o’zi emas, balki o’qituvchilar, guruh jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Guruhda intizomni saqlash va joriy qilish faqat guruh rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto’g’ri fikr. Intizom uchun butun guruh, pedagogik jamoa mas’uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. SHunisi ham borki, ko’p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o’zidayoq yo’qqa chiqarish mumkin. Masalan, guruh rahbari va ayrim fan

o'qituvchilari darslarida o'quvchilar jim, intizomli o'tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o'quv yumushlari bilan band bo'lishadi; ba'zi o'qituvchilarning darslarida buning aksi: o'quvchilar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog'oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o'qituvchi tajanglashadi, o'quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir ta'lim muassasasi hayotida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo'ladi? Bu holatda o'sha fan o'qituvchisining o'zi aybdordir. Negaki u dastlabki mashg'ulotlaridayoq o'z «siri»ni o'quvchilarga oldirib qo'ygan. Uta ko'ngilchan, so'zlari, harakatlari ta'sirsiz, bo'shang, muloyim, o'quvchilarni o'ziga jalb qilolmaydi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo'sh natija nima bo'ladi? O'qituvchi o'z kayfiyatini buzadi, jismonan charchaydi, o'quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u yoqda tursin, darsni to'liq o'tolmaydi, bundan ham yomoni o'quvchilar intizomini buzadi, guruhda tarqoqlikni, boshboshdoqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo'shang o'qituvchining keltirgan ziyoni.

O'quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni ta'lim muassasasiga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash – ta'lim muassasasining' asosiy vazifasi hisoblanadi. Guruh rahbarlari huddi shunday holatlarga o'z e'tiborlarini qaratishlari lozim. Butun guruh o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo'llikni, guruhda intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim.

YAna shuni ham aytish kerakki, intizom deganda o'quvchilarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Guruhga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag'-dag'a qilib o'quvchilarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg'aqk qalblarga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqoq, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini «beish» qoldirmaslik – har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir. Intizomli bo'lish nafaqat ta'lim muassasasida, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. CHunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

## 11-mavzu. O'QUVCHILARDA INTIZOMLILIKNI TARBIYALASHNING USUL VA METODLARI

### REJA:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha
2. Tarbiyaning maqsad va vazifalari
3. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari
4. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari
5. O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari
6. Guruhlarda darslarni turli shakllarda tashkil etish

**TAYANCH IBORALAR:**

Tarbiya, metod, tarbiya metodlari, xalq pedagogikasi, o’quvchi, guruh rahbari, dars, guruh xonasi, intizomlilikni tarbiyalash, jamoa topshiriqlari, tarbiyaviy ishlar, ijodkorlik, iqtidor, hulq-atvor, faoliyat va hokazo.

## 1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha

Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari. Ta’lim muassasasi amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. YOsh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

## 2. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari

Xalq pedagogikasi o‘zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ko‘p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

Tushuntirish (hikoya qilish, o‘rgatish).

Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).

Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, yaxshiliklar haqida so‘rash, o‘rnak bo‘lish).

Nasihat qilish, o‘git (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma’qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash va hokazolar)

Qoralash va jazo (ta’kidlash, ta’na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo‘rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e’tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya’ni, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e’tibor beriladi. Bu holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o‘g‘iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordiyu, bu holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e’tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so‘nggi chora sifatida qoralash va jazo metodida foydalanishga to‘g‘ri keladi. Biroq, bu eng so‘nggi chora. Zamonaviy pedagogika g‘oyalariga ko‘ra qoralash va jazo metodlarini so‘nggi, aniqrog‘i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlangan.

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta’sirlar muayyan vositalar yordamida qo‘llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to‘y marosimlari), sayillar,

oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasisanaladi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. YOshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo'llaniladi.

O'quvchilarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichik va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim. Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga etishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. SHu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasining mohiyati tushuntirialdi.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin (70-rasm).

Shuningdek, suhbatlarning ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigienik mavzularda ham tashkil etilishi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish juda muhimdir. Bu borada bahs-munoazaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boylar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

70-rasm

Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

a) etik mavzular (ijtimoiy ma’naviy-axloqiy me’yorlar, jamiyatda ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o‘zini tutish qoidalari va boshqalar);

b) estetik mavzular (tabiat go‘zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go‘zalligi);

v) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);

g) ta’lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar)

Namuna. O‘quvchilar o‘z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko‘rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim. O‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining darsda va hayotda o‘zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o‘z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O‘quvchilar o‘zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba’zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi. SHuning uchun o‘qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o‘zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo‘lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so‘zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo‘lmasligi kerak.

Ilg‘or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma’lumotlar, adabiy asar, kinofilm va spektakllar qahramonlarining xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta’sir qiladi.

Ta’lim muassasalarida ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunada xalq pedagogikasi g‘oyalaridan ham foydalaniladi. Ota-onalar o‘z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da’vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko‘rganini qiladi». Juda oddiy xulosa. SHu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotgavnligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq xalq «uyingda tartibli bo‘l, aks holda bolang ko‘chada tartibsiz bo‘ladi», «bola oldida birovlarning g‘iybatini qilma, bolang g‘iybatchi bo‘ladi», demoqchi.

## 3. Abu Ali ibn Sino ta’limga bo’lgan qarashlarining falsafiy poydevori

### *I. Inson va ruhiy bo’limlar*

*Abu Ali ibn Sino qarashlariga ko'ra inson ikki narsadan, yashirilgan (sirr) va ochiq ('alin) elementlardan tashkil topadi. Biz bilganimiz inson tanasida uning organlari va hujayralar mavjud. 'Bizga anatomiya ichki qismlarli o'rganishga imkon berganda, tashqi sezish to'xtaydi; yashirilgan qismlar esa o'zlarida quvvatga ega bo'ladi.' Bu ruhiy kuchlar insonni ruhlantiradi va uning inson sifatida turli harakatlar qilishga undaydi. Abu Ali ibn Sino uchun, inson tanasi aniq bo'lgan, bu huddi biz bugungi kunda anatomiya orqali bila olishiz bo'lgan narsalar singari, biz bularni hozirda hech qanday qiyinchiliksiz qabul qila olamiz.*

*Lekin bu ruhiy kuchlar nima va ularning tanani ruhlantirishdan vazifasi nimada? Abu Ali ibn Sino bu ruhiy bo'limlarni uch guruhga ajratgan. Birinchisi vegetative bo'limlar, bunda insonlar va daraxtlar ulashilib turadi. Ular insonlardan manfaatdor, oziqlanish hisobiga o'sadi, va qayta ishlash orqali ko'plab turlarni saqlab qoladi. Shuning uchun, uchta bo'limni o'z ichiga oladi: boqish, o'sish va qayta ishlash.*

*Bu guruh hayvonlarning daraxtlardan ustun qiluvchi va so'ngra insonlar va hayvonlar tomonidan bo'lishiladigan bo'limlarga ajraladi. Odatda, ular insonlarni ularga foydli va o'zlari xoxlagan narsaga yaqinlashishiga va unga ziyon keltiradigan yoki havli narsalardan uzoqlashishiga undaydi. Bu qarashlarda ular ikkita bo'limni o'z ichiga oladi: harakat bo'limi va tushunish yoki sezish bo'limlari. Har biri esa o'z o'rnida yana boshqa bo'limlarga bo'linadi: Harakat bo'limi insonni harakatga undashi yoki uni harakatdan to'xtash uchun intriktiv reaksiya va aqlli harakat bo'limlariga bo'linadi. Sezish bo'limi ham o'z o'rnida tashqi olamni sezish va unga javob qaytara olishi uchun beshta bo'limga bo'linadi – ko'rish, eshitish, hid bilish, tatib ko'rish, va ushlab his etish (71-rasm):*

71-rasm




*Vanihoyat, bu yerda insonni hayvonlardan farqlab turuvchi oxirgi bo'lim mavjud; Abu Ali ibn Sino qarashlariga ko'ra bu ikkita bo'limni o'z ichiga oladi: faol bo'lim insonning tajribaviy hulqiga yo'nalgan va bilim bo'limi uning ilmiy bilimlariga yo'nalgan. Ikkalasiga ham bitta is "bilim" berilgan faqat bittasi tajribaviy va ikkinchisi nazariy.*

***II. Inson qalbi***

*Barcha bo'limlar inson qalbidan kelgan vazifalarni bajaradi. Inson qalbi bitta va uchchala bo'limning ham uning uchun har xil vazifasi mavjud.*

*Abu Ali ibn Sino uchun, yurak bu nomoddiy, va u tananing boshqa qismlaridan farq qiladi. Bu oldindan mavjud emas, tana bilan birga keladi; lekin u yashayveradi va inson tanasi o'lgani bilan halok bo'lmaydi. Abu Ali ibn Sino shunday deydi: "Qachonki inson tanasi halok bo'lganda va chiriganda, uning qalbi tana bilan bog'lovchi rishtasi uziladi; agar u donolik, bili va yaxshi harakatlari bilan maqtana olsa, u huddi kichik zarra magnit yordamida tog'larga chiqib keta olgani singasi qalb ham farishtalarning ilohiy nurlari bilan Jannat saroyiga chiqib olib chiqib ketiladi; ilohiylik atrofida oqib yuradi va haqiqiy hotirjamlikka erishadi, bu huddi jannatdan ovoz keladi: "ey qalb dam ol, o'z hojangga qayt, Hizmatchilarim orqali ichakiga kir! Jannatimga kir!".'*

### *III. Inson tabiati: yaxshi yoki yomon?*

*Abu Ali ibn Sinoning fikricha inson "tabiat ustida" tug'ilgan va yomondan ko'ra yaxshiga ko'proq intiluvchan bo'lsada, tabiatdan yaxshi yoki yomon bo'lmaydi; va uning insoniyati tashqi atrofdagi imkoniyat va sharoitga va o'qitilishiga qarab o'zgaruvchan bo'ladi. Agar u yovuzlarga o'rganib qolsa o'zi ham yovuz bo'ladi; va agar yaxshilarga ko'nikib qolsa, yaxshi bo'ladi. Bu borada Abu Ali ibn Sino shunday deydi: "Bola ona sutidan ichgandan so'ng u tashqi olamning malomatli ruhiyatlari va obyektional harakteristikalari tomonidan jalb qilnmay turib avval ta'limiy va ruhiy mashg'ulotlari boshlanadi. Yovuz ruhiyatlar yosh bola qalbida juda tez ulg'ayadi,  va tez orada yomon odatlar ustunlik qila boshlaydi; va so'ngra uni ustidan hukmronlik qilishga intiladiga har qanday ta'sirlar natijasida u o'zini ulardan ajratish yoki ularga bag'ishlashni bilmay qoladi". Abu Ali ibn Sino bunga yana shunday deydi: "barcha ruhiy harakteristika, yaxshi yoki yomon, ular erishiladi; va inson uchun yana hech qanday aniq harakterga ega bo'lmaslik ham hosdir; va uning yuragi uchun ham bu o'rinlidir, u o'z hoxishi bilan harakatlana olishi av o'zi istamagan jihatlardan uzoqlasha olishi mumkin."*

### *IV. Jamiyatning ro'li*

*Biz Abu Ali ibn Sinoning bu soxada yozishmalariga e'tibor bersak, biz inson jamiyati tabiati va jamiyatning ilohiy tabiati haqidagi Abu Ali ibn Sinoning jamiyat nazariyasi haqida ma'lumot olamiz.*

*Olloh tomonidan yaratilgan Inson alohida yashashga qodir emas, va jamiyat u o'sishi, yashashi, va ta'lim olishi uchun juda ham muhim. Abu Ali ibn Sino shunday deydi: " Inson barcha boshqa hayvonlardan alohida yolg'iz, unga yordam beradigan va uning ehtiyojlarini qondiradigan sheriksiz yashay olamgani bilan farq qiladi. U o'ziga o'xshagan bir tur vakili tomonidan qo'llab quvvatlanishi lozim va uning o'zi ham yana kimnidir qo'llashi kerak, masalan u kimdandir sabzavot bilan ta'minlanishi kerak va yana kimdandir go'sht yetkazilib berilishi lozim, o'z o'rnida u ham kimgadir non yetkazib beradi; kimdir tikmoxchi bo'lsa, boshqasi igna yetkazib beradi. Ular kuchlarini birlashtirganda qo'shimcha bo'ladi. Shuning uchun insonlar jamiyatga birlashishga majburlar.*

*Barcha jamiyat Ollohning vahiy bilan yuborilgan va Payg'ambar qonun deb belgilagan ilohiy haqiqatiga amal qilmog'i lozim. Jamiyat zarurati uchun kimdir yangi qonunlar joriy etishi mumkin, ammo bu qonunlar insonlarni o'ziga ergashtira*

*oladigan va asrlar davomida shakllangan an'analarga qarshi bo'lmasligi lozim. Bu Abu Ali ibn Sinoning Payg'ambar mavjudligi, Ollohning mo'jizalari, va bashoratlar muhimligi haqidagi haqiqati. Abu Ali ibn Sino shunday deydi: "Payg'ambar mavjud bo'lishi muhim, u insonlardan bo'lishi ham muhim, va u boshqainsonlarda uchramaydigan maxsus qobiliyatlarga ega bo'lishi lozim, va odamlar unda o'zlarida yo'q narsa borligidan doim habardor bo'lishi lozim; shuning uchun unda sexrli kuch mavjud bo'ladi".*

*Abu Ali ibn Sinoning Arabchada va Lotinchada yozgan fikri shuni anglatadiki: "tana yaxshi shakllanishi uchun hamkorlik qil va insonlar orasida yasha" va bu imzo Abu Ali ibn Sinoga tegishli.*

### *V. Qalb bu Bilimga yo'l*

*Abu Ali ibn Sino yurakni va uning turli bo'limlarini bilimga olib boruvchi yo'l yoki hissiy sezishlar va aqliy sezishlar o'rtasida farqni seziuvchi deb hisoblagan. Hissiy sezishlarning ma'nosi allaqoch tushintirildi, bular beshta tashqi hislar va beshta ichki hislar ham hissiy sezishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Hissiy sezishlar qachonki, hissiy stumili sezish organlariga yetib borganda va ular sezish bo'limlari tomonidan tushunib yetilganda paydo bo'ladi. Abu Ali ibn Sino shunday deydi: "sezish bu har bir narsani bir yoki boshqa yo'lda idrok etishning qabul qilinishidir." Va u hissiy sezish haqida shunday deydi: "his qiluvchi organlar yordamida sezilgan barcha tasavvurlar his qilish organlariga yetkaziladi, ular tomonidan taassurotlanadi va his etish bo'limlari tomonidan seziladi". Abu Ali ibn Sinoning fikricha, his qilish bilimi bu sotib olingan bilim, uning manbasi his etilgan stimuli, va u ichki va tashqi sezgi bo'limlari bo'ladi. Intellektual bilim fani bu oddiygina sezilgan narsalardir, va u insonning Olloh tomonidan berilgan spekulyativ bo'limidir va bu aqliy bilimni sotib olishga qodir.*

*Intellektual bilim ta'siri kuchli bo'lishi uchun, u o'z vazifasini bajarishi uchun aniq structurada bo'lishi lozim, va tovushsiz fikrlar va sabablarni o'qiy olishi lozim; bu qurilma esa logikadir. Logika bu nazariya yoki bir mavjud qurilma va u intellekni hato qilishdan himoya qiladi.*

### *VI. Etika, Sabab, va Aqliy xulq*

*Abu Ali ibn Sino ruhiy harakterni huddi "qalbdan harakatlarni sokinlik va eski hayollarsiz aniqlikda joylashuvi" deb hisoblagan. Bu shuni anglatadiki, harakter bu faqat yaxshi hulq uchun tajriba qilish emas, balki har qanday kutilmagan holat uchun tayyorgarlik ko'rishdir chunki bu holda inson ko'nikib qoladi va boshqa vaziyatda hech narsa qilolmaydi.*

*Biz haqgo'y odam deb gapirganda faqat rost gapiradigan odamga nisbatan aytamiz, va ajoyib tuhiy harakterga ham huddi shunday ta'rifni ishlatsak bo'ladi. Bir xil usulda, biz yolg'onchi odam deb faqat yolg'on gapiradigan odamga nisbatan aytamiz va shunga o'xshab boshqacha harakterlilarga shu ta'rif bo'ladi.*

*Inson uchun yana shu narsa majburki, agar uning qalbi ruhiy yovuzlikka duch kelsa, uning qarama qarshisini tushunib yetish uchun o'z qalbini a'lo himmat yo'lidan qalbini u yo'lning o'rtasidan borishga majburlashi va unga bu yo'lni o'rgatishi lozim.*

Inson a'lo darajada ruhiyatga erishish uchun, u o'z xulqini boshqara olishi lozim, agar hato yo'ldan yursa qalbini jazolay olishi va agar u to'g'ri yo'ldan yursa, uni taqdirlab ruhlantirib borishi talab qilinadi. Avitsenna shunday deydi: **"Inson o'z qalbini mukodot uchun ham, jazo uchun ham tayyorlab borishi lozim va uni o'zi nazorat qilishi kerak"**

*Barchasini bir qilib, manziliy nuqta bu sabab. Qachonki inson bu sababga itoat qilishni o'rgangandagina, u tarbiyali va fazilatli bo'lish yo'lida bo'ladi. Sabab bu yaxshi xulqni aniqlovchi, yo'lning o'rtasida aniqlangan sandartar, agar bir qo'l bo'lsa u boshqa bittasi bilan barobar bo'lishidir. Sabab o'zi har qanday ikkita yomon harakter o'rtasida turgan himmat uchun meyorni aniqlay oladi. Sabab fazilatlar o'rtasidagi garmoniyani tenglashyirib turadi, demak, hech qaysi bir fazilat boshqasidan ustun bo'lmaydi, va inson o'z ruhiyatidagi barcha tenglikka bir fazilatni boshqasidan orttirib yubormasdan erisha oladi. Bu yerda e'tiborga olish kerakki, ruhiyat va etikaning qiymatlari avvalo Qur'onda belgilangan va Payg'ambarning barcha amallari inson qalbining chuqur diniy cheklovlariga amal qilgani, Abu Ali ibn Sino uchun bu sababning barcha yomon ishlar ustidan hukmron bo'la olshiga sabab bo'lgan. Endi shu aniqki, ruhiy qiymatlarni tushunish uchun Sababning shunchaki qabul qilinishi yetarli emas. Ularning ildizi yurakdan joy olishi, va "ruhiy his" inson tabiati strukturasining bir bo'lagi bo'lib qolishi juda ham muhim.*

*Abu Ali ibn Sinoning fikricha, ahloq bu inson hayotida erishiladigan narsa, u birga tug'ilmaydi balki keyinchalik unga erishiladi, va uning qanchalik erishilishi insonning 'odat', 'taqlid', 'qo'rquv' va 'donolik' haqidagi niyatlariga bog'liq bo'ladi. Abu Ali ibn Sino ahloqqa erishish jarayoni tug'ilgan go'daklik vaqtidayoq boshlanadi, chunki, bolakay yoshligidan tug'ilgandan ko'p o'tmay qiyinchiliklarga duchor qilinadi va bular natijasida uning psoxologiyasiga, va etik rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi deb hisoblagan. Shu sababdan Abu Ali ibn Sino bolalik va u bilan bog'liq hamma narsaga juda qattiq e'tibor bergan: enaganing ahloqi va tabiatiga, o'qituvchisi, bola o'qigan joydagi uning do'stlari va raqiblari.*[20]

## 4. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari

O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini o'zi idora

[20] Abd al-Rahman al.Naqib (Egypt). Professor and director of the Department of Educational Fundamentals at Mansoura University. Author of numerous articles and books; has participated in several national and international conferences on education. Among his works are: Avicenna's Educational Philosophy; Muslim Theoretical and Practical Medical Training; Studies on Islamic Education; The Degree of Islamic Involvement among Students; and Islamic Education: Vocation and Structure (in Arabic)

qilishlari, turli o‘quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo‘llaniluvchi usullardir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilish va o‘quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta’sirchan vositasidir. O‘quvchilar o‘qish, tarbiya va dam olishda o‘z-o‘zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o‘quvchilarni o‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari (72-rasm).

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. SHu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

72-rasm

**O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari**

- O‘zi-o‘ziga kunlik, haftalik, oylik ishlarining tartibini tuzishi
- O‘zi-o‘ziga har bir qilingan ishlarning nazoratini olishi
- O‘zi-o‘ziga olingan nazoratining tahlilini qilishi
- O‘zi-o‘ziga baho berishi va izohlashi
- O‘zi-o‘ziga qilgan ishi uchun rag’batlantirishi
- O‘zi-o‘ziga keyingi kunning ishlarini tuzishi

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganligidir. Ushbu metodni qo‘llash sinfning o‘quvchilarining umumiy yoki jamoa a’zolarining shaxsiy xususiyatlarini bilishga asoslanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo‘llaniladi: «Shunday harakat qilish kerak», «Hamma shunday qiladi». O‘smirlar bilan ishlaganda ma’naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma’nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo‘llaniladi:

yangi ma’naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko‘nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;

tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o‘quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to‘g‘ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Ta’lim muassasa amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o‘quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma’lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular («Did haqida bahs», «Mashhur bo‘lish yo‘llari», «Biz madaniyatli kishilarmizmi?» va hokazolar)da o‘tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5-6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba’zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o‘zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisq bo‘lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining eying bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, tjobiy jarayondir. Mashq natijasini ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir. O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

faoliyatda mashq qilish;

kun tartibi mashqlari;

maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o‘zaro munosabatni yo‘lga qo‘yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Topshiriq o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul. O‘quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘Quvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar, Mehnat qilish o‘quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma’lum harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoki to‘xtatuvchi hamda o‘quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Rag’batlantirish turlari (73-rasm).

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir. Ta’lim muassasalar tajribasida rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llaniladi:

O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglash olishi zarur. SHundagina o‘quvchi o‘zining kamolga etayotganligini his qiladi, unda o‘z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o‘z o‘rniga ega. O‘qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanadi. O‘quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo‘lishga intilishiga yordam beradi.

Har qanday rag‘batlantirish mavjud  edagogic talablarga muvofiq bo‘lishi, ketma-ket bo‘lmasligi zarur, shuningdek, o‘quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o‘quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo‘shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo‘llaniladi.

73-rasm




Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o‘quvchining individual xatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo‘llaniladigan eng so‘nggi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo‘llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydlanish mumkin emas, o‘quvchini qo‘rqitish, g‘azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o‘quvchi qo‘rqqanda yolg‘on gapirishni o‘rganadi, ikki yuzlamachi bo‘lib qoladi.

74-rasm




Ta'lim muassasalarda qo‘llash mumkin bo‘lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi (74-rasm):

Tanbeh berish – eng muhim jazo chorasi. O‘qituvchi o‘qituvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin.

Ogohlantirish – sodir etilishi mumkin bo‘lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.

Hayfsan berish – o‘quvchining ma’lum xatti-harakatlarini qat’iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o‘quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo‘lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e’lon qilish mumkin.

Uyaltirish – o‘quvchining ma’lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan sub’ektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg‘ularni ehtiyotkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo puxta o‘ylab qo‘llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka xarakterda, ya’ni, birgina usulni qo‘llash asosida bo‘lsin, o‘quvchining aybiga mos, muvofiq bo‘lishi, tez-tez qo‘llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to‘g‘ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug‘ilmasin va ular o‘z ayblarini sezsin. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta’sir kuchi yanada oshadi. Barcha holatlarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlariga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha’nini erga urmasligi kerak. Yuqorida ta’riflangan tarbiyaning umumiy metodlari o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish sohalarini qamrab olmaydi. Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

75-rasm




Tarbiya jarayonining umumiy holatidan kelib chiqqan holda tarbiya metodlarini quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin (75-rasm).

Bu guruhlar o‘z navbatida bir qator tarbiya elementlarini tashkil etadi. CHunonchi, shaxs ongini shakllantirish metodlariga: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma’ruza, etik suhbat, ishontirish, nasihat, yo‘riqnoma, munozara, ma’ruza, namuna; faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlariga mashqlantirish, odatlantirish, pedagogik talablar, jamoat fikri, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat; xulq

va faoliyatni rag‘batlantirish metodlariga: musobaqa, rag‘batlantirish va jazolash kiradi.

**5. O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari**

O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari. Guruh rahbari o’z o’quvchisini doimo o’rganib borishi uchun faqat o’quvchilar bilangina emas, balki o’qituvchilar bilan, o’quvchilarning ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak.

Pedagogik texnologiyalarni qo’llashda o’qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim (76-rasm).

76-rasm

**Pedagogik texnologiyalarni qo’llashda o’qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:**

1. Zamonaviylik – ta’lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o’tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish.
2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o’rganib borish.
4. Tarbiya jarayonida o’quvchi bilan o’quvchi faoliyatini optimal-lashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.
5. Ilmiylik – yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o’quvchilarni mustaqil fikrlash va o’zini anglashga o’rgatish.
6. Buning uchun o’quvchilarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.
7. Ilg’or tajribalarga suyanish.
8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma’naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o’quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, ertaklardan o’rinli foydalanish, o’yin teks savollari, ko’rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.
9. YAngi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o’qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo’lishi kerak

Guruh xonasining jihozi va ko’rinishi o’quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Guruh rahbarining ko’rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o’quvchilarni darsdan bo’sh vaqtlaridan foydalanish va o’quvchilar ijodiy

qobiliyatlarini o'stirishda ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak. O'quvchilarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor o'quvchi shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

Guruhlarda darslarni turli shakllarda tashkil etish:

1. O'yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarda, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyligi va zamonaviyligi bilan odob-ahloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.

2. O'quv mashg'ulotini rang-barang usullar: audio, video, ko'rgazmalilik, jonli so'z ta'sirida tashkil etilishi.

3. O'qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo'lishi va ijodkorligi.

Tarbiyaviy soatlarni maqsadiga ko'ra xilma-xil shakllarida tashkil etish mumkin:

1. Ijodiy dars.
2. Ertalik darsi.
3. Bahs.
4. Suhbat.
5. Sayohat darslari.
6. Uchrashuvli dars kabilar.

YAngi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televidenie, ma'naviy o'yinlar, mushoiralar qo'llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi u yoki ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq og'zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono, ma'rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. SHu asarlardan o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyasi odobligi, uning muomalasida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun

tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor o'quvchi shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy tarxiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishidir;

shaxsning aqliy, ahloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishi;

yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi 'issini uyg'otish;

o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

har bir o'quvchini bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarda joriy qilib ko'rish. O'quvchilar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlar uchun shart-sharoitlar yaratish;

insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, birg'birini tushunadigan, mehribonlik, shaftaqlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuxmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim;

vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat – muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstituttsiyasiga, bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

qonuniy jamoa ahloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

mustaqil respublikamiz O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va holisona baho berishga o'rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatni to'g'ri tushuntirmog'i kerak.

turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o’rgatish;

barkamol avlodga xos odoblilik san’ati va madaniyatini o’rgatish;

o’zbek xalqining milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarini amalda qo’llash malakalarini shakllantirish;

insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma’naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-ahloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

marakaziy Osiyo mutafakkir va ma’rifatparvarlarning asarlaridagi xikmat, o’git va nasihatlarni o’rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

tabiatga to’g’ri munosabatning mohiyatini, tabiyatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo’yicha bilimlar berish;

ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

o’z-o’zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va xurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, ma’naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo’lish, yaxshini-yomondan ajrata olish bilimiga ega bo’lishini tushuntirish;

ta’lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma’naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

o’quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o’rgatish;

darslarda ma’naviy, ma’rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

odob-ahloqqa xos sifatlarni o’quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

o’quvchilarda mehnat ko’nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

ahloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari bo’lishi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e’zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi. O’quvchilarni tarbiyalashda (o’quvchi) o’qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

tarbiyaning o’quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;

o’quvchilarning aqliy-ma’naviy munosabatlari ta’sirini o’rganish;

o’qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san’at va mahorati;

O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan’anaviy, suhbat, o’yin, tabiatda, baxs-munozara, uchrashuv shaklida bo’lishi maqsadga muvofiqdir.

## 12-mavzu. GURUH RAHBARI ISHINI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OLISH

### REJA:

1. Rejalashtirish haqida tushuncha

2. Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti
3. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjat
4. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi majburiy pedagogik hujjatdir

## TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Guruh rahbari, reja, rejalashtirish, istiqbol, yillik, yakuniy rejalar, tarbiyaviy ishlar, o'quvchilar, guruh, ta'lim myassasasi, pedagog xodim, bilim, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash

## 1. Rejalashtirish haqida tushuncha

Bizga ma'lumki, guruh rahbari – boshqaruvchi hisoblanadi. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarish va amalga oshirishning asosi maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iboratdir. Boshqarish va amalga oshirishning asosiy maqsadi – ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad – rejaning asosi. Amalga oshirishda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo'shimcha maqsad qo'yiladi. Ta'lim muassasasi ishini rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma'lum bir muddat davridagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng qabul qilinishi mumkin. Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi (77-rasm):

77-rasm

**Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi:**

**1) istiqbolli (perspektiv);**

**2) yillik;**

**3) yakuniy**

**Istiqbolli rejalashtirish** qoidaga muvofiq so'nggi yillarda, ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo'ljallab qabul qilinadi.

78-rasm

**Ta’lim muassasasida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan muddatli reja quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:**

1. Rejalashtirilgan muddatda ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalar.
2. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning yillik o‘zlashtirish darajasi muddatlari.
3. Ta’lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.
4. Ta’lim muassasasini pedagogik kadrlariga qo‘yilgan talablar.
5. Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.
6. Ta’lim muassasasini texnika hamda o‘quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko‘rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko‘lamini rivojlantirish.
7. O‘qituvchi va o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish

**Yillik rejalashtirish** butun o‘quv yili hamda yozgi ta’tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va ta’lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab, bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

**Yakuniy rejalashtirish** o‘quv choraklari uchun tuziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko‘rinishi hisoblanadi. Shu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko‘rinishlari o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar qo‘mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o‘qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejalari bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to‘la amalga oshirilishi ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi. Ta’lim muassasasida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan muddatli reja quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin (78-rasm):

## 2. Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyati

Guruh rahbari o‘z ishlarini ta’lim muassasasi ma’muriyati rahbarligi va o‘quvchilar tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. Shuning uchun uning faoliyatini rejalashtirish umumta’lim muassasasi hamda o‘quvchilar va o‘smirlar, «Kamolot» jamg‘armasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog‘langandir.

Rejasiz ish olib borilganda guruhdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va uslublari o‘lda-jo‘lda, tarqoq, noaniq, tasodifiy holatlarda bo‘ladi va ko‘r-ko‘rona harakat qilishga olib keladi. Bunday taqdirda tarbiyaning asosiy vazifalarini hal etish

qiyinlashadi, ba’zan esa butunlay samarasiz bo‘ladi. Reja guruh rahbarining tarbiya berish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun juda katta imkoniyatlar ochib beradi.

**Reja – o’quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir**

Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quvchilarning o‘zlari faol ishtirok etadilar, biroq unga guruh rahbari boshchilik qiladi. Guruh rahbarlari oldida juda qiyin vazifa – tarbiyaviy maqsadlarda o‘ylangan har bir narsani o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy fikr va g‘oyalari sifatida qabul qilishlariga erishish vazifasi turadi. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?

Guruh rahbarlari o‘tkazilayotgan ishlarni hamda ularning o‘quvchilar tarbiyasiga ko‘rsatgan ta’sirini har kuni tahlil qilishlari, o‘zlari erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tushunishga harakat qilishlari, jamoasining rivojlanishida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni qayd qilishlari kerak. Shunday qilib, rejalashtirishning har bir bosqichiga tayyorlanish muntazam olib boriladi. Jamoani va ayrim o‘quvchilarni o‘rganish yuzasidan olib borilgan barcha ishlar yakunida guruhga pedagogik tavsifnoma yoziladi. Mazkur tavsifioma guruh jamoasininig o‘ziga xos aniq xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Har bir guruh rahbari o‘z-o‘zini boshqarishning saylab qo‘yiladigan o‘quvchilar qo‘mitasi hamda o‘quvchilar va yoshlar tashkilotlari bilan birga ishlab, guruh jamoasiga rahbarlik qilish yuzasidan olib boriladigan amaliy ishlarda bu talabni ro‘yobga chiqaradi. Tajribali guruh rahbarlari o‘zining kuzatishlari va xulosalarini alohida varaqlarga qisqacha qilib yozib boradi. Bular maxsus jildlarda saqlanadi. To‘plangan ma’lumotlar o‘quvchilar jamoasi hayotini, uning erishgan yutuqlari va kamchiliklarini keyinchalik tahlil qilish uchun xizmat qiladi.

Guruh rahbari o‘quv yili oxirida guruh jamoasi ishini tahlil qilishga alohida e’tibor beradi. Bunda rejada belgilangan vazifalarni qanday hal etilganligini, guruh ijtimoiy hayotida qanday ishtirok etganligini, mamlakatimizdagi va chet ellardagi voqealarga qanday qaraganligini, amalga oshirilgan ishlardan qaysilari muvaffaqiyatli bo‘lgan va an’anaga aylanishi kerakligini, o‘quvchilar o‘rtasida qanday munosabatlar vujudga kelganligini, guruh faollarining tashabbuskorligi, mustaqilligi, obro‘-e’tibori va boshqa masalalarni atroflicha tahlil qilish muhimdir.

Guruh rahbari tajriba orttirgan sari ancha murakkab masalalar bilan qiziqa boshlaydi. Uni guruhdagi ishlar qanchalik muvaffaqiyatli o‘tgani emas, balki ular o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatgani, guruhning ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishi emas, balki ishtirok etish sabablari qiziqtiradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, guruh rahbari o‘z guruhi jamoasi oldiga qo‘yadigan aniq tarbiyaviy vazifalari dastlabki vaqtlarda uncha murakkab bo‘lmasligi mumkin. Masalan, guruh rahbari guruhga kelgandan so‘ng deyarli hamma o‘quvchilar yaxshi ishlashini, lekin ularning bir-biri bilan aloqasi yo‘qligini aniqladi. Bunday guruhda shunday bir ish topish kerakki, bu ish hamma o‘quvchilarni yagona

maqsadga olib borsin. O‘quvchilarga bu vazifa, mamlakatimizdagi O‘zDEU avtomobil zavodi uchun metallom yig‘ish va jo‘natish shaklida yetkazildi. O‘z mazmuniga ko‘ra juda oddiy bo‘lgan bu topshiriq o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, ularda temir-tersak yig‘ishda bir-birlari bilan musobaqalashib, rejani tezroq bajarish ishtiyoqini xosil qiladi.

Boshqa bir guruh rahbari o‘z ishlarini tahlil qilib chiqib, shunday xulosaga keldi: guruhda ko‘p ishlarni o‘zi bajaradi, o‘quvchilar esa shaxsiy hayot egalari bo‘lib emas, balki ko‘pincha ishning ijrochilari bo‘lib qoladilar. Shuning uchun u o‘quvchilarning tashabbus va mustaqilligini rivojlantirish, barcha o‘quvchilarni guruh ijtimoiy faoliyatiga jalb etish va har bir o‘quvchida o‘ziga yoqadigan ish bo‘lishiga erishish vazifasini qo‘ydi. Shunday vazifa qo‘ygach, guruh rahbari o‘quvchilarning ko‘pchilik qismini zarur malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish uchun o‘z diqqat-e’tiborini guruh faollarini tarbiyalashga qaratish kerakligini tushunadi.

Ana shu tahlitda izchil ish olib borilsa, tarbiyaviy vazifalar o‘quvchilar uchun qiziqarli, istiqbolli vazifalarga aylanadi. Guruh rahbari turli rejalar tuzib olishi mumkin: kelajakka mo‘ljallangan, ya’ni istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik). Xo‘sh, rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo‘lishi kerak? Bosh manba – Hukumatimizning farmon va qarorlari, Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning qator risolalari hamda xalq ta’limi tizimining rasmiy yo‘l-yo‘riqlari, hujjatlari hisoblanadi. Rejaning yana bir muhim manbai – o‘tgan o‘quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir.

## 3. Rejaga qo‘yiladigan talablar

**Ushbu talablarning qisqacha mazmuni bilan tanishib chiqamiz.**

Rejaga mustaqillik g‘oyalarining singdirilishi. Barcha tarbiyaviy vazifalar ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadni – o‘quvchilarni har tomonlama, «Sog‘lom avlod uchun» dasturi asosida ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, ularni hayotga, mustaqil davlat qurilishiga faol qatnashishga tayyorlash maqsadini amalga oshirishga qaratilmog‘i darkor.

«Har qanday ulug‘ maqsadlarga yetishish yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go‘zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a’zolari bo‘lgan komil odamlarga, kelajagi barkamol avlodga bog‘liqdir, – degan edi birinchi Prezidentimiz I. Karimov.

**Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak:**

1. Rejaga istiqlol g‘oyalarini singdirish.
2. Rejaning shakl va yo‘nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo‘lishi.
3. Reja uzluksiz va izchil bo‘lishi.
4. Rejaning aniqligi

Rejaning shakl va yo‘nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo‘lishi. Tarbiyaviy ishning xilma-xil shakl va uslublari bo‘yicha ish olib borish tarbiyaviy ishlarni o‘quvchilar uchun yanada rang-barang va qiziqarli tarzda olib borishga yordam beradi. Rejada o‘quvchilar bilan faqat umumiy holda emas, balki shu bilan birgalikda o‘quvchilarning qiziqishlari va mayllarini hisobga olgan holda ham ish yuritishni nazarda tutish muhimdir.

Reja uzluksiz va izchil bo‘lishi. Rejada belgilanadigan tarbiyaviy tadbirlar yagona tarbiyaviy jarayonning tadrijiy bo‘laklaridan iborat bo‘lmog‘i kerak. Har bir tadbir o‘zidan oldingi tadbirning davomi bo‘lishi va erishilgan tarbiya natijalariga asoslanishi lozim. Bu uzluksizlik va izchillikni ta’minlaydi, erishilgan yutuqlar, qimmatli ko‘nikmalarni yo‘qolib ketishdan saqlaydi.

Rejaning aniqligi. Rejaga bajarib bo‘lmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Ishni rejalashtirishda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish lozim. Rejada hamma narsa: ish vaqti, joyi, mas’ullar aniq bo‘lsin.

***1. Bilim***

Biz o‘quvchilarning nimani bilishini kutmoqdamiz? Misol uchun, ko‘rsatilgan fe’llar berilgan savollar ustunida ishlatilishi mumkin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| yozib olish | tekshirish | qayta ishlab chiqarish | taqsimlash |
| aniqlash | qisqacha ma’lumot | ta’kidlash | namoyish etish |
| tasvirlash | belgilash | ko’rsatish | sitata keltirish |

***2. Tushunish***

Bu o‘quvchilarning nimani tushunganliklarini yetkazib berish qobiliyatini qamrab oladi. O‘quvchilar bilganlarini tushuntirib bera oladilarmi? Ular bilgan narsalaridan nimani kengaytirib ayta oladilar? O‘quvchilar tomonidan ishlatilishi mumkin bo‘lgan quyidagi fe’llarni ko‘rib chiqing:

| | | | |
|---|---|---|---|
| muhokama qilish | aniqlashtirish | turkumlash | tushuntirish |
| tarjima qilish | kengaytirish | talqin qilish | qayta ko’rib chiqish |
| tanlash | umumlashtirish | ko’rsatish | baholash |

### *3. Qo'llash*

Bu yangi vaziyatda nazariya yoki ma'lumotlardan foydalanish uchun o'quvchi qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'quvchilar bu g'oyaning o'sha vaziyatga taalluqliligini ko'ra oladilarmi? Quyidagi fe'llar ishlatilishi mumkin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| hal etish | tekshirish | to'g'irlash | qo'llash |
| ishlatish | amaliyot | tasvirlash | tanlash |
| bog'lash | hisoblash | turkumlash | namoyish etish |

### *4. Tahlil qilish*

Bunda ma'lumot yoki g'oyalarni tarkibiy qismlarga bo'lishda o'quvchining qobiliyati qamrab olinadi hamda ularning bir-biriga qanday bog'liqligi va tashkillashtirilgani ko'rsatib beriladi. Fan sohasining tarkibiy qismlarini o'quvchilar tahlil qila oladilarmi? Ular sohadagi bog'liqlikni tahlil qila oladilarmi? Ular tashkiliy tamoyillarni tahlil qila oladilarmi? Bu savollarga javob topishda quyidagi fe'llar o'rganish natijalarini qurishga yordam berishi mumkin.

| | | | |
|---|---|---|---|
| farqlash | tergov o'tkazish | tasniflash | baholash |
| tanqid qilish | muzokara olib borish | solishtirish | qiyoslash |
| ajratish | hal etish | tahlil qilish | hisoblash |

### *5. Sintez qilish*

Bu o'quvchining tarkibiy qismlarni va ularni avval u yerda bo'lmagan namuna yoki tuzilma tashkil qilish mumkin bo'lgan yo'l bilan birlashtirish qobiliyatini qamrab oladi. O'quvchilar bu sohada o'ziga xos muloqot ishlab chiqarishi mumkinmi? Ular reja yoki jarayonlar taklifini ishlab chiqa oladilarmi? Ular mavhum munosabatlar majmuini chiqara oladilarmi?

Bu savollarga javob topishda quyidagi fe'llar o'rganish natijalarini qurishga yordam berishi mumkin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| yig'ish | tashkillashtirish | tuzish | taklif etish |
| qurish | reja tuzish | yaratish | shakllantirish |
| birlashtirish | o'zgartirish | chiqarib olish | rivojlantirish |

***6. Baholash***

Bu dalillar topish, qarshi dalillarni solishtirish, qaror qabul qilish va hokazolar uchun o'quvchining qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'quvchilar ichki dalillarga asoslanib, qaror qabul qila oladilarmi?

Ular tashqi dalillarga asoslanib, qaror qabul qila oladilarmi? Bu savollarga javob topishda quyidagi fe'llar o'rganish natijalarini qurishga yordam berishi mumkin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| muhokama qilish | tanlash | zaruriyatni baholash | tanlash |
| samaradorlikni baholash | solishtirish | baho berish | narxlash |
| o'lchash | bahslashish | himoy qilish | jamlash |

Guruh rahbari g'oyaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirishda o'quvchilarni faqat kitobiy bilimlar bilan emas, balki amaliy, hayotiy tajribalar bilan qurollantirishni nazarda tutishi zarur. Bu ma'ruzachilar, siyosiy ta'lim muassasasilar, siyosiy klublar va hokazolarni tashkil qilish mo'ljallanayotgan vaqtda o'quvchilarning o'z g'oyaviy e'tiqodlarini qay darajada ekanligini sinab ko'rishga imkon beradigan vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadi. Bu ishlarni munozaralarda, bahslarda, og'zaki va yozma jurnallarda, mehnat harakatlarida, bayramlarda, o'quvchilar va yoshlar tashkilotlari ishlarida, tabiatni, hayvonot dunyosini, tarixiy yodgorliklarni qo'riqlash kabi rang-barang tadbirlarda amalga oshirish mumkin.

Axloqiy va vatanparvarlik tarbiyalariga istiqlol ruhi tom ma'nosi bilan singib ketgan bo'lishi kerak. Ba'zan ayrim guruh rahbarlari ish faoliyatida ko'ngilochar o'yinlarni ko'proq o'tkazish an'anasi ko'zga tashlanadi. Rejalashtirishda shuni nazarda tutish kerakki, o'yinmi, u ishmi biror maqsadga qaratilganligiga, uning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

## 4. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi majburiy pedagogik hujjatdir

Uni amalga oshirish uchun guruh rahbari shaxsan mas'uldir. «Guruh rahbari haqida Nizom»-da: «Guruh rahbarining ishi reja asosida olib borilishi lozim» deb belgilab qo'yilgan.

Guruh rahbari umumta'lim muassasasi ish rejalari, o'quvchilar yetakchisi, «Kamolot» jamg'armasi kotibi ish rejalari bilan tanishib, direktor o'rinbosarlari, guruh o'qituvchilari, guruh faollari, ota-onalar bilan fikrlashib, ularning qimmatli takliflarini hisobga olgan holda ishning istiqbolli rejasiii tuzadi.

Ishning istiqbolli rejasi guruh jamoasi tomonidan to'plangan tajribaga qarab va guruh rahbarining o'z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin. Nizomda «Guruhning yillik ish rejasi tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlaydi» deyilgan.

Rejaning ifodalash shakli juda oddiy bo'lgani ma'qul: ishning nomi, bajarish muddati, mas'ul kishi. Reja qisqa va aniq bo'lishi kerak. Bo'lar-bo'lmas ishlar ro'yxatini qalashtirib, qappaygan reja tuzishga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o'quv yili davomida muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlarnigina kiritmoq lozim. Kiritilgan tadbirlar tarbiyaviy ishlar tizimida bir-biri bilan bog'langan, bir-birini to'ldiradigan holda bo'lishi zarur.

Reja o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Biz quyida guruh rahbari ish rejasining asosiy bo'limlari va mazmunini beramiz:

**I. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash.** O'quvchini o'rganish (o'quvchi haqida ma'lumot to'plash, uning aqliy, jismoniy, ruhiy rivoji, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini, tarbiyalanganlik, jamoatchilikka intilish darajalarini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), guruh jamoasini o'rganish (o'quvchilar soni, jinsi, millati, yoshi, rasmiy va norasmiy liderlar, ilg'orlar, qoloqlar, intizomsiz va tarbiyasi qiyin o'quvchilar, ularning guruhga ta'siri, guruhning jamoatchilik topshiriqlariga munosabati, guruhning tarbiyalanganlik, jipslik, rivojlanganlik darajalarini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), guruh jamoasini tashkil etish va yo'naltirish (tashkiliy ishlar, guruh faollari bilan ishlash, umumiy ishlar ustidan nazorat, o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish, navbatchilikni, o'zaro yordamni yo'lga qo'yish, gazeta tahririyati bilan ishlash, kasalmand va nogiron o'quvchilarga g'amxo'rlik, vaqtli matbuot nashrlariga obuna bo'lish, mehnat harakatlarida qatnashish, guruh mulkini saqlash, kundalik rejimga bo'ysunish va hokazolar).

**II. O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi (yoshlar ittifoqi) bilan birgalikda olib boriladigan ishlar.** Ushbu bo'limda o'quvchilar Yetakchisiga, «Kamolot» jamg'armasi kotibiga ularning tarbiyaviy ish faoliyatlarida beriladigan yordamning aniq shakllari ko'rsatiladi.

**III. Guruh o'qituvchilari bilan ishlash.** Darslarda o'quvchilarni o'rganish (o'quvchining darsda o'zini tutishi, ularning o'zlashtirmasligi, bilimdagi nuqsonlar, xulqi), o'quvchilardagi bilim ko'nikmalarini aniqlash (o'quvchilar kundaliklari, daftarlarini ko'rib chiqish, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning o'quv ishlarini kuzatish, darsliklar, ma'lumotnomalar, jadvallar va hokazolar bilan ta'minlanish ahvolini o'rganish, nutq madaniyati, uyga vazifa, kasb tanlash masalalari bilan qiziqish), o'quvchi-o'qituvchi munosabati (o'quvchi bilan

o‘qituvchining chiqishimligi, o‘qituvchiniig pedagogik odobga, pedagogik talablarning bir xilligiga erishishi masalalari), o‘zaro yordamni tashkil etish (qoloq o‘quvchilarni aniqlash, fan o‘qituvchisi bilan birgalikda uning sabablarini tahlil qilish va tegishli tadbir belgilash, a’lochi o‘quvchilardan o‘zaro yordam harakatini uyushtirish), o‘qituvchilarga yordam berish (o‘quvchilar haqida tegishli ma’lumotlar, maslahatlar berish, fanga oid tadbirlarni o‘tkazishda ko‘maklashish).

**IV. Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish.**

Bunda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy va boshqa tarbiyalar bo‘yicha belgilangan ishlar va tadbirlar, kasb tanlash ishlari (kasblar ro‘yxatini tuzib chiqish, kasb haqida burchak tashkil qilish, mehnat ahllari bilan uchrashuvlar, o‘quvchilarga anketalar tarqatish, javoblarni tahlil qilish, qiziqishlar kartasini to‘ldirish, kasb haqida insho yozdirish, o‘quvchilarning texnik ijodiyoti ko‘rgazmasini tashkil qilish, guruhdan tashqari o‘qishni tashkil qilish), fan o‘qituvchilari bilan birgalikda adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqish, o‘qilgan asarlar yuzasidan suhbat uyushtirish, guruhda adabiy ko‘rgazma tashkil qilish, kutubxona bilan aloqa bog‘lash va hokazolar), guruhda ko‘rgazmali tashviqot ishlari olib borish (guruh burchagi, devoriy gazetalar, varaqalar chiqarish, guruhni mazmunli bezash, ekologik burchak tashkil etish va hokazolar).

**V. Ota-onalar bilan ishlash.** Bu bo‘limda oilalarni o‘rganish (oilaning ijtimoiy ahvoli, o‘quvchiga yaratilgan shart-sharoitlar, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganish), ota-onalar faollari bilan ishlash (ular yordamida va ishtirokida o‘quvchilar tarbiyasiga oid turli-tuman ishlar rejasini tuzish, ular tomonidan ba’zi oilalarga ko‘mak va ta’sir o‘tkazish), ota-onalarning tarbiyaga oid bilimlarini oshirish (ota-onalar majlislari, universitetlari tashkil qilish, yaxshi oilalar tashviqoti bilan shug‘ullanish, o‘zaro tajriba almashish).

Keltirilgan reja tartibini majburiy deb qaramaslik kerak. Guruh rahbarlari ish rejasi turlicha tuzilishi va har xil shaklda bo‘lishi mumkin. Bu guruh rahbarlarining ish saviyasi, tajribasi, o‘z kasbiga qiziqishi, har xil guruhlarda ish sharoitlarining turlichaligiga bog‘liqdir. Shuni nazarda tutish lozimki, ish rejasi qaysi shaklda bo‘lishdan qat’i nazar, tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari mazkur rejaning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lishi shart.

*O‘quvchi xulq-atvorini namoyish etadigan holatlarning murakkabligini va/yoki ahamiyatini aniqlash maqsadida ta’lim natijalari to‘g‘ri darajada ishlatilishi kerak.*[21]

Ish rejasini tuzish va uni hayotga tatbiq qilish ishlariga o‘quvchilar va ota-onalar faollarini jalb qilish kerak. Avvalo ular alohida topshiriqlarni, asta-sekin esa rejada ko‘rsatilgan keng hajmdagi ishlarni amalga oshiradi.

Rejaga kiritiladigan ish va tadbirlar, ularning mazmun-mohiyati, amaliyotga tatbiq qilish haqida mazkur kitobning tegishli bo‘limlarida atroflicha fikr yuritilgan.

---

[21] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 44.

# 13-mavzu. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

**REJA:**

1. Tashkilotchi[22] faoliyatining maqsadi, vazifalari va unga qo‘yiladigan talablar
2. O‘quvchilarning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishning o‘ziga xos qoidalari
3. O‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni
4. O‘qituvchi shaxsining xususiyatlari
5. O‘qituvchi shaxsining xususiyatlari
6. Tashkilotchining huquqlari

## 1. Tashkilotchi faoliyatining maqsadi, vazifalari va unga qo‘yiladigan talablar

Tarbiya jarayonining mazmuni o‘quvchilarga beriladigan ma’naviy-axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e’tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi. Mustaqil O‘zbekistonning istiqlol va istiqboli uchun fidoiylik ko‘rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o‘zgacha xarakter kasb etmoqda: Ya’ni ular 96-rasmda ifodalangan (96-rasm).

96-rasm

**Mustaqil O‘zbekistonning istiqlol va istiqboli uchun fidoiylik ko‘rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o‘zgacha xarakter kasb etmoqda: Ya’ni ular:**

- huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
- Vatan himoyasiga hamisha shay turuvchi;
- diniy bag‘rikenglik va mehr-muravvatli bo‘lish;
- Davlat siyosatini tushunish unga amal qilish;
- o‘zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
- o‘zida yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalash;
- maqsadning aniqligi va uni to‘g‘ri yo‘naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o‘qituvchi va tarbiyalanuvchini hamkorlikdagi faoliyati;
- mustaqil fikrlovchi va qaror qabul qiluvchi e’tiqodi mustahkam bo‘lmog‘i zarur.

[22] Tashkilotchi deyilgabda – direktorning ma’naviy, ma’rifiy va tarbiyaviy ishlari bo’yicha muovibi yoki o’rinbosari nazarda tutiladi

Ta'lim tizimigacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining tarbiyachilik faoliyati va uni amalga oshirish metodikasini «Uchinchi ming yillikning o'quvchisi» qo'llanmasidan foydalangan holda bajarishni tavsiya etamiz. "Nizom" belgilangan vazifalar bilan bog'liq ravishda tegishli pedagogik xodimlarga ko'rsatmalar ham beradi.

Ta'lim tizimi va undan tashqari muassasalarning tashkiliy shakllari, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qarorlarini hisobga olishni talab etmoqda. Guruhdan va ta'lim tizimidan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va yangi to'garaklarni ochish masalalari (97-rasm).

97-rasm

**Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va yangi to'garaklarni ochish masalalari:**

– guruh rahbarining ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha erishgan yutuqlarini hisobga olib, uni taqdirlash uchun direktorga taklif kiritish;

– guruh rahbarlarining o'z vazifasiga nisbatan mas'uliyatsizligi yoki suiiste'mol qilinganligi uchun direktor bilan kelishilgan holda tanbeh berish;

– o'quvchini yaxshi tarbiyalagan ota-onalarni, ta'lim tizimiga yordam bergan mahalla faollarini taqdirlash uchun direktorga taklif berish huquqiga ega.

**Direktor o'rinbosari bilan quyidagi ishlar kelishilishi kerak:**

– guruh rahbarlari ish rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

– ta'lim tizimida o'tkaziladigan sport musobaqalari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

– turli xildagi to'garak ishlari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash

Guruhdan va ta'lim tizimidan tashqarida tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Guruhdan va ta'lim tizimidan tashqaridagi ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Guruhdan va ta'lim tizimidan tashqaridagi tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi (98-rasm).

## 2. O'quvchilarning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishning o'ziga xos qoidalari

Tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning kundalik hayotidan olingan aniq dalillar va voqealarni, badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, kinofilmlardan olingan misollarni tahlil etish hamda muhokama qilish asosida o‘tkaziladi. Bu tadbirlar o‘quvchilarning o‘zini axloqiy xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishga va ularga to‘g‘ri baho berishga o‘rgatadi.

Shu sababli keyingi davrda o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko‘ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Guruhdan va ta’lim tizimidan tashqarida tashkil qilingan tarbiyaviy ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi.

98-rasm

**Mazkur muammolarni ijobiy hal etish uchun guruhdan va ta’lim tizimidan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo‘lishi lozim:**

– ulg’ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o‘quvchining betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e’tiborda tutish;

– milliylikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish;

– pedagoglar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish;

– ta’lim tizimining jamoat tashkilotlari, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;

– o‘quvchilar nazoratsizligi va qonun buzilishlarining oldini olish;

– yashash joyi bo‘yicha o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish;

– o‘quvchilarning oilalariga borish va o‘quvchilarni tarbiyalashda ota-onalarga yordam berish;

– yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o‘ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg’ularini tarbiyalash

Ularni ongini o‘stirib,, dunyoqarashini shakllantiradi (99-rasm).

Guruh jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning hajmi, asosiy yo‘nalishlari, mazmuni har bir yosh bosqichda o‘quvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim. Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo‘lishi kerak.

Ta’lim tizimida bashlang‘ich guruhlarda tarbiyaviy ishlarni olib borish uni yo‘lga qo‘yish guruh rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan uyushtiriladi. Tarbiyaviy ishning asosiy yo‘nalishlari: o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash; o‘quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish; o‘quvchilarda axloq madaniyatini, ularning o‘z huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirilgan.

99-rasm

**Guruhdan va ta'lim tizimidan tashqaridagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
- o'quvchilarning guruhdan va ta'lim tizimidan tashqaridagi ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, guruh faollari yordamida yo'lga qo'yish;
- guruhdan va ta'lim tizimidan tashqaridagi ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'quvchilar tashkilotlari guruh faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;
- umumta'lim tizimi va ta'lim tizimilariaro o'tkaziladigan muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish

Boshlang'ich guruh o'quvchisi va guruh rahbari faoliyatining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning ahil jamoasini tashkil etishdir. Boshlang'ich jamoa ishi shunday quriladiki, undan guruhning boshqa jamolari bilan aloqasi doimiy ravishda amalga oshiriladi, umumta'lim tizimi an'analari saqlanadi. Boshlang'ich jamoa o'qituvchi-tarbiyachi va guruh rahbari, o'quvchilar o'zini-o'zi boshqarish organlari rahbarligida umumta'lim tizimi ijtimoiy-foydali ishlari faoliyatida ishtirok etadi. O'qituvchi va guruh rahbari sog'lom, ahil o'quvchilar jamosini shakllantirish bilan birga o'quvchilar qiziqishlarini doimiy qo'llab-quvvatlaydilar, ularning ijtimoiy-foydali faoliyatini yo'naltirib boradilar.

## 3. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni

Ma'lumki, yoshlarimiz o'z murabbiylari va professor-o'qituvchilari mashg'ulotlari darslaridan har jihatdan mamnun bo'lishsinlari zarur. Ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish-o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan so'ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma'naviy oziq olganliklarini his qilsinlar.

100-rasm

**Zamonaviy o‘qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar bo‘lishi kerak:**

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchi-talabalarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni berib borishi lozim.
2. Zamonaviy o‘qituvchi ilm-fan, texnika va zamonaviy texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor, dunyoqarashi keng bo‘lishi talab etiladi.
3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.
4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatini tashkil etishi kerak.
5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i darkor.
6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi shart.
7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.
8. O‘qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo‘lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.
9. O‘qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning diqqatini ko‘p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o‘rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishiga odatlanish kabilar) ega bo‘lishi lozim.
10. O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga va hamkasblariga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

Ta’limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo‘lishi ustoz bilan shogirdlar qalbini, ruhini bir-biriga mustahkam bog‘laydi, ular o‘rtasidagi samimiy hurmat va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o‘qituvchi avvalo, o‘z fanini va uni o‘qitish yo‘l-usullarini mukammal o‘zlashtirib olishi, murabbiy-pedagogga xos madaniyatning yuqoriligi, o‘z shogirdlariga hurmat va muhabbat, ular hayotiga qiziqish va ruhiy holatlarini sezish va tushunish, bosiqlik, his-tuyg‘ularini boshqara olishlari, tashqi ko‘rinishi, kiyinish madaniyatiga e’tibor berishlari, nutq madaniyatining yuqoriligi, jamoat ishlarida faolliklari, ayniqsa, omma o‘rtasida ilmiy-ma’rifiy va ma’naviy-madaniy ishlar targ‘ibotchilari bo‘lishlari lozim. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar bo‘lishi kerak (100-rasm).

Shundagina, mamlakatimizning kelajagi bo‘lgan o‘quvchi-talaba yoshlarimiz o‘z ustozlarini nomini zo‘r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. Buning uchun har bir o‘qituvchi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ko‘rsatilganidek, o‘z fanlari bo‘yicha tegishli ma’lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarligi va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo‘lishi kerak. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisining pedagogik faoliyati va uning shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglashiniladi.

O‘qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma’lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasi 7-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta’lim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsining mazkur talablarni o‘zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o‘quvchi-talabalar va hamkasblari hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko‘rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o‘qituvchining pedagogik faoliyati salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi)ga talablar kuchaytirilmoqda. Kasbnoma (professiogramma) quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari; o‘qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar; maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni; ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

## 4. O‘qituvchi shaxsining xususiyatlari

O‘qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– milliy istiqlol g‘oyasi va milliy mafkuraning mazmun-mohiyatini va pedagogik asoslarini chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik;

– kasbiy pedagogik faoliyatida – o‘quvchi-talaba yoshlarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik kasbini sevish; psixologik-pedagogik takt, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat’iylik va maqsadga intilish; vazminlik, o‘zini tuta olish;

– bilish sohasida – keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma’lumotga intilish va h.k.

**Ko‘nikma va malakalar hosil qilish sohasida:**

– har qanday pedagogik vaziyatni tahlil qilish; pedagogik ta’sirlarni rejalashtirish va natijalarini mo‘ljallay olish, ijtimoiy-pedagogik hodisalarning amaldagi holatini, ularning paydo bo‘lish va rivojlanish sabablarini, shart-sharoitlari va xarakterlarini tahlil qila bilish va baholay olish;

– o‘quvchi-talabalarni shaxs uchun va ijtimoiy qimmatli istiqbollarga qiziqtirish va jalb qilish ko‘nikmasi;

– umumiy vazifalarni bajarish uchun o‘quvchi-talabalarni guruhlarga bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olish ko‘nikmasi;

– tezda qarorlar qabul qilish va pedagogik ta’sirning ancha kuchli vositalarini tez topa olish ko‘nikmasi;

– to‘g‘ri talablar qo‘ya bilish, pedagogik vaziyat va har bir o‘quvchi-talabaning xususiyatlariga qarab, ularni o‘zgartira olish ko‘nikmasi;

– ayrim o‘quvchi-talabalar jamoasi va kichik guruhlar, shuningdek, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o‘rnata olish ko‘nikmasi;

– har xil odamlar bilan turli sharoitda aloqa qilish, umumiy til topa bilish va to‘g‘ri muomala qila olish ko‘nikmasi;

– o‘quvchi-talabalarni o‘ziga qarata olish ko‘nikmasi;

– zarur hollarda jamoaga va ayrim o‘quvchi-talabalarga nisbatan munosabatni o‘zgartira olish, ularga individual yondashish yo‘llarini topa olish ko‘nikmasi;

– ruhiy xususiyatlar va ma’naviy-ruhiy vaziyatlar, ijtimoiy pedagogik-psixologik holatlar va xatti-harakatlarning sabablarini ko‘ra olish ko‘nikmasi;

– sinf va guruhdagi ijobiy yoki salbiy, ijtimoiy, pedagogik-psixologik hodisalarning, jamoadagi munosabatlarning xarakterini ocha bilish ko‘nikmasi va h.k.

**O‘qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar:**

– pedagogika, psixologiya va metodologiya asoslarini, shaxsning shakllanish va rivojlanishi qonuniyatlarini bilish;

– tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarini tushunish, bolalar, o‘smir va o‘spirinlar fiziologik rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini bilish;

– o‘quvchi-talabalar gigiyenik va sog‘lom turmush tarzi tarbiyasining nazariy, tabiiy-ilmiy asoslari va vositalarini bilish;

– shaxs rivojlanishining psixik qonuniyatlarini, har xil yoshda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini bilish.

**Pedagogik jarayonni to‘g‘ri uyushtirish sohasida:**

– qo‘yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o‘zgartira olish ko‘nikmasi;

– tashqi ta’sirlarga moslashish yoki ulardan saqlanish; sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash va qayta o‘zgartira olish malakasi;

– o‘quvchi-talabalarning jamoadagi o‘zaro munosabatlariga rahbarlik qila olish, ularni to‘g‘ri yo‘lga sola bilish, paydo bo‘lgan o‘zaro nizolarni hal qila bilish bilish; o‘quvchi-talabalar orasida do‘stlik va o‘rtoqlikni rivojlantira olish ko‘nikmasi;

– ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqlarni amalga oshirish, o‘quvchi-talabalarning ishi ustidan joriy nazariy nazorat qilish, faoliyatning xarakter va yo‘nalishini almashtirib turish ko‘nikmasi (101-rasm).

**Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga quyidagilar kiradi:**

ixtisosga doir bilimlarni bilish; ilmiy bilimlarni, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlarini bilish; fanning nazariy va amaliy ahamiyatini hozirgi darajasi, qonuniyatlari, tarixi va rivojlanishining keyingi asosiy yo‘nalishlarini bilish; pedagogika va psixologiya fani asoslarini tushunish; ayrim fan sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish, mustaqil ilmiy-tadqiqot ishidan dastlabki malakalar hosil qilish, bilimlarni mustaqil to‘ldirish uchun bibliografik ma’lumotnomalar, ko‘rsatmalar, prospekt, tematik kataloglardan foydalana bilish va h.k.

101-rasm

**Yakuniy hisob, olingan natijalarni baholash va pedagogik vazifalarni belgilash sohasida:**

– olingan natijalarni dastlabki ma’lumotlar va topshirilgan pedagogik maqsadga taqqoslab tahlil qila bilish ko‘nikmasi;

– o‘quv-tarbiyaviy ishlarning samarali shakl, metod va vositalarini topa bilish ko‘nikmasi;

– ta’lim va tarbiya usullarini qo‘llashning qulay sharoitlarini aniqlay bilish ko‘nikmasi;

– pedagogik faoliyatning yutuq va kamchiliklarini tahlil qila bilish ko‘nikmasi;

– ilg‘or tajribalarni umumlashtirish, ishning samarali shakl va usullarini o‘zlashtirib olish maqsadida boshqa o‘qituvchilar tajribasini tahlil qila bilish ko‘nikmasi; o‘z tajribasi bilan pedagogika nazariyasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash, tadqiqotchilik vazifalarini o‘z oldiga qo‘ya bilish ko‘nikmasi;

– erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida galdagi pedagogik vazifalarni belgilay olish va amalga oshira olish ko‘nikmasi

**Ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni:**

– uzluksiz ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichida fanlarni o‘qitishning maqsadi va vazifalarini bilish, Davlat ta’lim standarti, amaldagi fan bo‘yicha o‘quv dasturlarini, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini har tomonlama puxta bilish;

– fanning qaysi masalalari o‘quvchi-talabalarda qiyinchilik tug‘dirishini tez payqash, bu qiyinchiliklar mohiyatini tushunish, ularni bartaraf etish yo‘llarini, o‘qitish metodikasining nazariy asoslarini bilish;

– ma’lum sharoitlarda didaktikaning, pedagogik psixologiyaning asosiy qoidalariga tayangan holda o‘qitishning qulay muqobillarini tanlay olish; zarur hollarda ishning ma’lum usullarini boshqasi bilan almashtira bilish, didaktikaning

asosiy qismlari (tushuncha, qonuniyatlar, ko‘nikma va malaka)ni, ularni shakllantirish metodikasini bilish;

– o‘quv-tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlay olish;

– rejalashtirilgan pedagogik ta’sirlarga o‘quvchi-talabalarning javob harakatlarini oldindan chamalay bilish ko‘nikmalari va h.k.

O‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida quyidagilar amalga oshiriladi (102-rasm):

102-rasm

**O‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida:**

– o‘quvchi-talabalarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o‘quv materialini tanlash, uni tahlilanaliz va sintez qila olish ko‘nikmasi;

– ilmiy materialni qayta ishlab, o‘quv materialiga aylantira olish ko‘nikmasi;

– ma’lum didaktik vazifaga muvofiq o‘quvchi-talabalar tajribasini hisobga olgan holda murakkab matnlarni va o‘quv materialini o‘zlashtira olish ko‘nikmasi;

– darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko‘nikmasi

**O‘quvchi-talabalar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida:**

– tarbiyaviy maqsadga muvofiq ayrim o‘quvchi-talabalar va jamoa uchun vazifalar belgilash, qo‘yilgan maqsad asosida ularning tushunchasini o‘zgartira olish ko‘nikmasi;

– o‘quvchi-talabalarga ta’sir o‘tkazish va ular faoliyatiga rahbarlik qilishni rejalashtirish ko‘nikmasi;

– ta’lim va tarbiya uslublarini pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llash ko‘nikmasi;

– o‘quvchi-talabalar xulqi va faolligini boshqarish;

– o‘quvchi-talabalarda fanga qiziqishni uyg‘otish va rivojlantira bilish;

– mutaxassislik bo‘yicha barcha o‘quv-tarbiyaviy ishlarni hozirgi zamon didaktikasi, pedagogik-psixologik, tizimli, texnologik yondashuvlar va texnik talablar darajasida tashkil qila bilish;

– ta’lim jarayonida o‘quvchi-talaba shaxsini rivojlantirish, shuningdek, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga va kasbiy faoliyatga tayyorlash ko‘nikmasi;

– oddiy ko‘rgazmali qurollar tayyorlay bilish, o‘qitishning texnika vositalari bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish va ulardan foydalanish metodikasini bilish va h.k.[23]

---

[23] Malla Ochilov. Muallim - qalb me’mori. – T.: “O’qituvchi”, 2001, 202-208-betlar.

“Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir”, – degan shior kun tartibiga o‘rinli kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning yechimi o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo‘lib qoldi. Boisi, o‘qituvchi tajriba va malakasining uyg‘unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O‘qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo‘lishi lozimligini mazkur darslik epigraifdagi buyuk nemis pedagogining fikri ham tasdiqlaydi. Ta’lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalash) muammosi kun tartibiga qo‘yilgan bugungi kunda o‘qituvchi shaxsining insonparvarlik jihati oldingi o‘ringa chiqdi.

O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya’ni sahovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma’naviy poklik, qanoatlilik, rostgo‘ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlilik, muloyimlik va boshqalardir.

O‘qituvchining kasbiy fazilatlari: o‘z sohasining puxta bilimdoni bo‘lish, hunar sirlarini sodda usulda o‘rgata olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo‘lish, shaxsiy namuna bo‘la olishlik va shu kabilardir.

Shogirdlik odobi bo‘yicha quyidagicha mezonlar qayd qilinadi: “Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita degin”. 1) avvalo: o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish; 2) o‘z ishiga e’tiqod qo‘yish va unga ishonish; 3) ustoz oldida xokisor bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish; 4) ko‘rish (nojoiz) lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; 5) eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; 6) barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish; 7) ustoziga qarshi bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Ana shu kesimlarda o‘qituvchi va o‘rganuvchi o‘rtasidagi dialektik munosabat to‘laqonli amalga oshiriladi (103-rasm).

103-rasm

**O‘qituvchidan birinchi navbatda quyidagilar talab qilinadi:**

- jismoniy va aqliy sog‘lomlik;
- yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar;
- kuchli va keng qamrovli bilim;
- metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat;
- nutq madaniyati, notiqlik san’ati va imlo savodxonligi;
- muttasil o‘z ustida ishlash va malakasini oshirish va boshqalar

Odatda, ko‘pchilik o‘qituvchilar shaxsni o‘rgatish va tarbiyalashdagi vazifasini o‘z o‘quv fani doirasida o‘quvchini tegishli bilim va ko‘nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularda tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash sifatlarini shakllantirishda ko‘radilar. Vaholanki, o‘qituvchining mehnati va uning pedgogik

faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning uchta muhim ijtimoiy funksiyasi – ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarini bajarishga mas'uldir. Biroq oliy o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlar o'qituvchining amalga oshiradigan amaliy-pedagogik faoliyati bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Umuman, bu fikrni quyidagi obyektiv va subyektiv omillar bilan izohlash mumkin:

**birinchidan,** bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashni ko'zda tutib o'quv rejasiga kiritilgan mashg'ulotlar aksariyatining mazmuni aynan o'qituvchi-o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vaziyat o'qituvchining malakali mutaxassis sifatida shakllantirilishida ijobiy ta'sirga ega bo'lsada, uning kasbiy-pedagogik faoliyatida bevosita qo'llay oladigan ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodlarini egallashiga xizmat qilmaydi;

**ikkinchidan,** bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodkorlik tushunchasi ma'lum bir cheklangan ma'noda, odatda, texnik ijodkorlikni amalga oshirish va boshqarishga tayyorlash ma'nosida talqin qilinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarish jarayonida shakllantiriladigan shaxsda esa nafaqat texnik yoki badiiy ijodkorlik bilan bog'liq, balki yanada chuqurroq bilimlarni talab qiluvchi tadqiqotchilik ijodkorligini shakllantirish loim bo'ladi (104-rasm).

104-rasm

**Bunga javoban maktab, akademik litsey, kasb-hunar ta'lim muassasalari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchi:**

– pedagogik qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;

– milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, dplly gshmlardal ham xabardor, ma'naviy barkamol shaxs;

– O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;

– ixtisosiga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan mutaxassis;

– o'qituvchilik kasbiga mehr qo'ygan, yoshlarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchisi va talabasi ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, uning shaxc sifatida rivojlanib, barkamol inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan murabbiy;

– erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli kasb egasi bo'lmog'i darkor

O‘qituvchining ko‘p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni barkamol shaxc sifatida tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o‘qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog‘liq: o‘quvchi-talabalarni o‘qitish va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashknl eta bilish va o‘tkazish, ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ibot qilish ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o‘qituvchidan chuqur bilimga ega bo‘lishni, o‘z sohasini, o‘quvchi-talabalarni sevishni talab qiladi. O‘zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo‘shayotgan ijodkor va fidoyi o‘qituvchilar soni yildan yilga ko‘payib bormoqda va bunday pedagoglarni el-yurt izzat-hurmatga qilmoqda. Hukumatimiz esa ularning mehnatlarini munosib taqdirlamoqda.

Ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaxs – bu o‘qituvchi. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariya o‘quvchi-talabalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan, uslubiy g‘oyalarni bayon etadi. Biroq ta’lim berish jarayonida pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ham uchrab turadiki, ularning oqilona yechimini topish uchun o‘qituvchidan bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahopat va ijodkorlik talab qilinadi.

O‘qituvchi yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, o‘quvchi-talabalarga ta’lim-tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, kasbiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanayotgan insondir. Bu yerda “kasbiga muvofiq” jumlasiga e’tibor berish lozim, chunki nokasbiy pedagogik faoliyat bilan deyarli barcha odamlar shug‘ullanadi, ammo faqat o‘qituvchigina qachon, qayerda, qanday tarbiya berish kerakligini biladi va bu tarbiyaning samarali usullaridan foydalanish hamda pedagogik qoidalarga mos holda olib borishni uddalay oladi, o‘z kasbiy burchini bajarish uchun mas’uliyatni his qilgan holda mehnat qiladi. O‘qituvchilik ishi inson faoliyatining murakkab turlaridan biridir. “O‘qituvchi o‘zi nima ish qiladi? Uning pedagogik vazifalarini qanday so‘zlar bilan ifodalash mumkin?”, – degan savolga mohirona javob topishga harakat qilamiz. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar pedagogik professiogrammada keltirilgan ixtisoslik xususiyatlarini bilishlari lozim. Professiogramma quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi (105-rasm):

105-rasm

**Professiogramma quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:**

- o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari;
- o‘qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar;
- maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;
- ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni

O‘quvchi-talabalarni tarbiyalashda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o‘rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o‘zida aks ettruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Ammo odamlarning aksariyat qismi o‘qituvchi aynan nnma bilan shug‘ullanishlaridan to‘liq xabardor emas va pedagogik faoliyatning ko‘zga tashlangan tashqi belgilarini ko‘rsatish bilan cheklanadi. Agar savolni: «O‘qituvchining boshqa odamlardan nima farqi bor?», – deb bersak, ko‘p narsa oydinlashadi. O‘qituvchilik faqat fanni bilgan kishining vazifasi emas, u shu barobarida pedagogik faoliyatni ham eplay olishi kerak.

## 5. O‘qituvchi shaxsining xususiyatlari

G‘oyaviy yo‘nalishda: ilmiy dunyoqarash va e’tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish; ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash; ijtimoiy-siyosiy faollik. Pedagog kasbi yo‘nalishda: o‘quvchilarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik faoliyatdan huzurlanish; ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati; haqqoniylik; dilkashlik; talabchanlik; qat’iylik; maqsadga intilish; vazminlik; xushmuomalalik; o‘zini tuta bilish; kasbiy layoqatlilik. Bilish borasida: keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, itellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish; o‘zining pedagogik ma’lumotini oshirishga intilish.[24]

Pedagogning vazifasi pedagoglarga xos kasbiy bilim va mahoratni qo‘llashga intilishdir.

Albatta, pedagoglarning o‘z mahoratlarini ishga solishlari bilan bog‘liq asosiy yo‘nalish – bu o‘qitish, bilim berish, tarbiya berish, o‘quvchi-talabalarning bilim caviyacini oshirish va ularning malakalarini shakllantirishdir. Bu yo‘nalishlarning har biri doirasida ko‘p muayyan xatti-harakatlar bajariladi va bu ishlardan ko‘zda tutilgan vazifalar ko‘p holatlarda yashiringan bo‘lib, hamma vaqt oshkora ko‘rinib turmaydi.

Shunga qaramasdan, pedagog ishining mohiyatiga qarab, kasbiy pedagogik asosi nima ekanligini aniqlaymiz: o‘qituvchining asosiy vazifasi – bu ta’lim va tarbiya berish, malakalarni shakllantirish jarayonlarini boshqarish; o‘qitish emas, o‘qishga yo‘l ko‘rsatish, tarbiya berish emas – tarbiyalash jarayoniga rahbarlik qilishdir.

U o‘z vazifasini yaqqolroq anglagan sari o‘z o‘quvchi-talabalariga ko‘proq mustaqillikni, tashabbuskorlik va erkinlikni taqdim qiladi. O‘qituvchi shaxsiy rejasi haqidagi ma’lumotlar 106-rasmda berildi (106-rasm).

Shuniig uchun ham Suqrat mohir pedagoglarga “fikr akusherlari” nomini bergan. Uning nomi “mayetika”, tarjimada “doyalik san’ati”dir.

[24] Z.Ismoilova. O’qituvchi va uning jamiyatda tutgan o’rni.//UZLUKSIZ TA’LIM, 2004 yil 2-son, 81-82-betlar.

106-rasm

**Shunga ko‘ra, o‘qituvchi shaxsiy rejasini quyidagi talablar asosida ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir:**

– pedagogik muammolarni prognoz qilish: o‘qituvchi pedagogik prognoz qilishda muammolarni oldindan ko‘ra bilish va uni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim;

– muammolarni hal etishning metodik jihatdan maqbul yo‘llarini izlab topish va shakllantirish: o‘qituvchi muammoni metodik jihatdan hal etishda eng samarali va optimal usulpi tanlashi va uni qo‘llagan holda muammolarni bartaraf etishi zarur;

– o‘quvchi-talaba shaxsiga “pedagogik ta’sir” ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lishi: o‘qituvchi o‘quvchi-talaba shaxsiga «pedagogik ta’sir» ko‘rsatish usul va vositalaridan o‘rinli foydalanishda ta’lim-tarbiya jarayonining markazida o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirishni nazarda tutishi zarur;

– o‘z vazifasini faqat ta’limiing sinf-dars shakli bilan chegaralamaslik: iidividual o‘zlashtirish jarayonini hisobga olgan holda darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil qilish orqali ta’limda samaradorlikka erishish kerak;

– sinf yoki guruh rahbari vazifasiga mas’uliyat bilan yondashish: sinf-guruh jamoasi va har bir o‘quvchi-talabaning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z vazifasiga jiddiy yondashish lozim;

– sinf-guruh rahbari va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati asosida yagona ta’lim-tarbiya maqsadini amalga oshirish zarur;

– sinfdan va darsdan tashqari darslarni izchil va tizimli tashkil etish: mazkur darslarda birdamlik, jamoaviylik, do‘stlik, bir-biriga ijobiy munosabat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim;

– o‘quvchi-talabalarni maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o‘quv yurti kutubxonasidagi kitoblarni asrab-avaylashga jalb qilish: kutubxonalar bilan aloqani yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchi-talabalarda kitobga bo‘lgan ijobiy munosabatni, kitobxonlikni hamda keng dunyoqarashni shakllantirish zarur;

– o‘quvchi-talabalarning darsdan tashqari faoliyatini yagona ta’lim-tarbiya uyg‘unligida rejalashtirish: o‘quvchi-talabalarning bo‘sh vaqtlarini kerakli mashg‘ulotlar bilan band qilish, ularni to‘garaklarga jalb qilish, kasbga yo‘llash kabilarga ahamiyat berish lozim;

– rejalashtirilgan ishlarni tizimli va majmuaviy yondashuvlar asosida olib borish: ishlab chiqilgan tizim asosida ta’lim muassasasi jamoasi bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish zarur

Tajribali pedagog tayyor ma’lumot berish emas, balki o‘quvchi-talabaning miyasida fikr tug‘ilishiga yordamlashishi kerak. Demak, pedagog mehnatining mohiyati – bu barkamol inson shakllanishiga hamroh bo‘ladigan barcha jarayonlarni boshqarishdir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pedagog-o‘qituvchi omili yoshlarning g‘oyaviy-siyosiy bilimlarni egallashlari orqali kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy hisoblanadi. Davr taraqqiyoti va ehtiyojlari asosida pedagog-o‘qituvchi “shaxsi”ni rivojlantirish, pedagogik ta’sir etish vositasida ulardagi qobiliyat, qiziqish, iste’dod, e’tiqod hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Shu bois, yoshlar ta’lim-tarbiyasida yuksak samaradorlikka erishishda har bir fan o‘qituvchisidan chuqur pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma va malakalar, o‘qituvchi-talabalarning har birini o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘lish talab etiladi.

Bundan tashqari, ta’lim samaradorligiga erishish uchun bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga quyidagi pedagogik-psixologik talablar qo‘yiladi (107-rasm).




**107 –rasm. O‘qituvchi shaxsiga quyidagi pedagogik-psixologik talablar**

O‘qituvchining bunday faoliyati o‘quvchi-talabalarni har tomonlama bilimlar bilan qurollantirish, ta’lim jarayonining subyekti sifatida rivojlantirib hamda shakllatirib borishning muhim omili hisoblanadi. O‘qituvchi faoliyatini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganish natijalarining ko‘rsatishicha, o‘quvchi-talabalarning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogning shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy-

shaxsiy mahoratga ega bo‘lishi, ilmiy jihatdan bilimdonligi va uning shaxsiga xos ijobiy fazilatlari o‘quvchi-talabalarda faollik hamda mustahkam ijodiy bilimga intilishni shakllantirishning hal qiluvchi asosi hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun keng imkoiiyatlar yaratiladi va bu jarayon kasbiy faoliyatga maksimal yaqinlashtiruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Pedagogik amaliyot davrida talabada o‘qituvchilik kasbiga ijobiy munosabatlar, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish, sinfga rahbarlik qilish qobiliyatini shakllantirish, o‘quvchi-talabalar shaxsini, sinf yoki guruh jamoasini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganish, milliy tarbiya masalalarini hal etishda o‘quv-tarbiya muassasalariga yordam berish, madaniy-ommaviy ishlarda faol ishtirok etish, bilim, ko‘nikma va malakalarni yanada tarkib toshirish kabi jihatlar faollashib, mustahkamlanib, ularni o‘qituvchilik kasbiga va

Yuqoridagi sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lajak o‘qituvchi, o‘z o‘quvchi-talabasi shaxsida: olijanoblik, aqliy qobiliyat, ma’naviy yetuklik va boshqa yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalay oladi.

## 6. Tashkilotchining huquqlari

Kichik yoshli o‘quvchilar juda faol va harakatchan bo‘ladilar. Faollikka intilish bu yoshdagi o‘quvchilarning organik ehtiyoji. Biroq bunda o‘quvchilar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo‘lmaydi va kundalik pedagogik rahbarlikka ehtiyoj sezadi.

108-rasm

**Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarning yoshiga xos pedagogik-psixologik individual xususiyatlarni hisobga olgani holda:**

– o‘quvchi-talabalarni ongli intizomga rioya qilishga odatlantirish;

– pedagogik faoliyatda adolatli yo‘l tutish;

– sinf va guruh faollar harakatini qo‘llab-quvvatlash;

– o‘quvchi-talabalarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag‘batlantirib borish;

– berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishni talab qilish;

– sinf va guruh jamoasidagi tarbiyaviy ishlarni izchil olib borish kabi usullardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari bo‘lajak o‘qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishda ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, turli axborot zaxiralari, o‘quv-metodik adabiyotlar ko‘lamini kengaytirish hamda pedagogik amaliyot davrida olib borgan kuzatishlari natijasida to‘plagan materiallarni amalda qo‘llash ham muhim ahamiyat kasb etadi

Boshlang‘ich guruh o‘qituvchisi o‘quvchining ilk ta’lim tizimidagi qadamidanoq tarbiyaviy ishning chinakam jamoatchilik munosabatlarini yaratishga zo‘r imkoniyat beradigan, o‘quvchilarda bir-birlariga g‘amxo‘r munosabatda bo‘lishni tarbiyalaydigan, individual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadigan usullarni tanlaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarning yoshiga xos pedagogik-psixologik individual xususiyatlarni hisobga olgani 108-rasmda ifodalangan.

O‘qituvchi boshlang‘ich guruhlarda o‘quvchilarga o‘zlarini qiziqtiruvchi faoliyat turini tanlashga yordam beradi. Biroq ko‘pincha kichik yoshdagi o‘quvchilar yosh xususiyatlariga ko‘ra, o‘z xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olmaydilar.

O‘quvchilarning o‘sishi ularda jamoatchilik malaka va ko‘nikmalarining shakllanib borishi bilan o‘qituvchi-tarbiyachining o‘quvchilar jamoasiga rahbarlik qilishidagi jarayonini o‘zgartirib boradi. O‘qituvchi boshlang‘ich guruhlardayoq ahil o‘quvchilar jamoasini yaratish asosida sog‘lom jamoatchilik fikrini yaratadi.

Boshlang‘ich guruh o‘qituvchilarining o‘quvchilar tarbiyaviy jamosini yaratish sohasidagi ishini yuqori guruhlarning guruh rahbarlari davom ettiradilar. Boshlang‘ich guruh o‘qituvchisi o‘quvchilarni ta’lim va tarbiyaning tabiiy sharoitida, ularning jamoa faoliyati jarayonida o‘rganadilar.

*Pedagogika sohasida chuqur shaxsiy tajriba yoki ilmiy yo‘nalishda ko‘rsatilgan ijobiy natija katta o‘qituvchi lavozimi uchun juda muhim ko‘satkichlardir. Ta’lim berish va kerakli adabiyotni mutolaa qilish, o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglab yetish domla yoki ”professor” unvonini olishning negizidir. Pedagogning lavozimini oshirganda o‘tkaziladigan suhbat yoki test tekshiruvlari kishi o‘sha bog‘liqlikni yaxshi tushunishini tekshirishga qaratilgan.*[25]

Guruhdan tashqari ish o‘quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta’sir vaqtini uzaytiradi, u o‘qituvchining darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, o‘quvchilarning qobilyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olishlarini uyushtirish imkonini beradi. Guruhdan tashqari ish o‘quvchilarni jamiyat hayotiga jalb qilishning katta imkoniyatlariga ega.

## 14-MAVZU. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHINING ISHLASH METODIKASI

### REJA:

1. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatining maqsadi va vazifalari
2. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish
3. Tarbiyaviy ishlar o’quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to’ldiradi

[25] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 492.

## TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Tashkilotchi[26], faoliyat, maqsad, vazifa, tarbiyaviy ishlar, o’quvchi, guruh rahbari, ma’naviyat, to’garaklar, rejalashtirish, shakl, usul, guruhlashtirish, tarbiyaviy tadbirlar va hokazo.

### 1. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatining maqsadi va vazifalari

O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o‘zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog‘liqdir. Guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Darsdan tashqari ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi (79-rasm).

79-rasm

**Darsdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko‘p qirralidir. Darsdan tashqari ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:**

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

O’quvchilarning guruhdan va kollejdan tashqari ko’p qirrali ishlarini o’quvchilar tashkilotlari guruh faollari yordamida yo’lga qo’yish.

Guruhdan va kollejdan tashqari ishlar yo’nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o’qituvchilar, guruh rahbarlari, ota-onalar, guruh faollariga uslubiy yordam ko’rsatish.

Umumkollej va kollejlararo o’tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

O’quvchilarning bo’sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligining uchta asosiy tomonini ko’rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma’muriy

Ularning dunyoqarashi, to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi. Darsdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko‘p qirralidir.

O‘quvchilarning guruhdan tashqari ishlari o‘z mazmuniga ko‘ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki guruhdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar xosil qilinadi. O‘quvchilar ta’lim muassasasidan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning

[26] Tashkilotchi deyilgabda – direktorning ma’naviy, ma’rifiy va tarbiyaviy ishlari bo’yicha muovibi yoki o’rinbosari nazarda tutiladi

uchun ham o‘quvchilarning ta’lim muassasasidan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ularning munosabatlari doirasi keng va ma’naviy o‘sishi samarali bo‘ladi.

Ta’lim muassasasidan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilar jamoadagi ishlarni o‘rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo‘shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo‘ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga otlanadilar.

Bular ko‘pincha o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin (80-rasm):

80-rasm

**Bular ko‘pincha o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:**

Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.

Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.

Guruhdan, kollejdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

**Darsdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:**

Og‘zaki ish usullari: majlislar, yig‘inlar, ma’ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

Amaliy ish olib borish usullari: turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to‘garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko‘rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadagi butun qobiliyatlarni ishga solishni taqozo etadi. Guruh rahbarligi kursi bilan ta’lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog‘liq va uning davomiyligidir.

Yuqorida qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar turli qo‘llanmalar, asboblar, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o‘rganadilar, o‘z-o‘zini tekshirish uchun turli ma’lumot va tayanch materiallarni jalb etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Darsdan tashqari ishni rejalashtirish o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ta’lim muassasasining joylashgan joyi va shart-sharoitlari, ijodiy birlashmalari, ilmiy markazlar bilan o‘zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o‘rinbosarining faoliyati, o‘z ifodasini topgan hujjatlar ro‘yxati xalq ta’limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

## 2. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi boʻlgan barcha gʻoyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Guruhdan tashqari ishlarni tashkil etishda oʻqituvchining yoʻnaltiruvchi ta'siri ostidagi oʻquvchilarning oʻz-oʻzini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida oʻtkaziladigan mustaqil mashgʻulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda guruhdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qoʻshimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, koʻrgazmali qoʻllanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish koʻzda tutiladi (90-rasm):

90-rasm

**Ular quyidagilarni qamrab oladi:**

- darslik va qoʻshimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini qamrab olgan, nazariy bilimlarni oʻzlashtirishni ta'minlovchi;
- tajribalar, ijodiy tusdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni oʻz ichiga olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar tizimi maqsadga muvofiqdir

Darsdan tashqari ishlar metodikasi fani va boʻlimiga guruh rahbarlarining ishlari, ta'lim muassasasi ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda oʻqituvchilarning oʻquvchilar bilan muomalasi, adolatli boʻlishi ta'sir koʻrsata olishi kerak (91-rasm).

91-rasm

**Oʻquvchi atrofini oʻrab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, oʻqituvchilar, ta'lim muassasasining muhiti, oʻquvchilar tarbiyasini toʻgʻri, ongli ravishda oʻrganish va qabul qilish. Darsdan tashqari ishlarni toʻla qamrab olgan toʻgaraklar bir necha xilda boʻlishi mumkin:**

**Toʻgarak turlari:**

Fan toʻgaraklari.
Mohir qoʻllar.
Duradgorlik.
Sport musobaqalari.
Badiiy havaskorlik va boshqalar

O‘quvchi yoshlar ongini hozirgi zamon ma’naviyati bilan sug‘orish, ya’ni singdirish kerak. O‘quvchilarni qadriyatlarimiz, urf-an’analarimiz asosida tarbiyalash har bir o‘qituvchining vazifasi.

Ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor o‘quvchi shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma’naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma’naviy an’analarшga, urf-odatlari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy-axlooqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud. Darsdan tashqari ta’lim muassasalarining to‘garak qatnashchilari ongida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo‘lishi kerak. To‘garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish asosiy o‘rin tutadi. To‘garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo‘lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilishi kerak (92-rasm).

92-rasm

**Darsdan tashqari ta’lim o‘qishlari, xohishlariga asoslangan holda darsdan bo‘sh vaqtlarda o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi va quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha to‘garak qatnashchilariga talablar qo‘yilishi kerak:**

Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;
Estetik ta’lim;
Sayyohlik yo‘nalishi bo‘yicha to‘garaklarga qatnashish.
Ekologik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha to‘garaklar;
O’quvchilarni ma’naviy-axloqiy yo‘nalishi bo‘yicha;
Huquqiy ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha;
Texnik ijodkorlik yo‘nalishi bo‘yicha;
Istiqlol o‘quvchilari va iste’dodli yoshlar;
Iqtisodiy ta’lim

O‘quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo‘lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olish muhim. Bu esa ular shaxsining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim o‘quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o‘quvchilarning o‘zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo‘llarini ancha yaxshi tushunadilar.

O‘quvchilar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat o‘quvchilarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

O‘quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o‘z ishini tarbiyalashning fikri va baxosiga bog‘liq qilib qo‘ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish

qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud boʻladi.

## 3. Tarbiyaviy ishlar oʻquvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni toʻldiradi

Guruh rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan oʻquvchilar orasida majburiy ijro etish holati paydo boʻladi. Bunda oʻquvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular koʻpincha guruh rahbaridan yordami soʻrab, murojaat qiladilar, kuchli oʻquvchilarning qoʻllab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qoʻllab-quvvvatlash boʻlmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday oʻquvchilarda tashqaridan majbur qilinsagina harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror boʻlib qolsa, u oʻquvchining faqat aqli emas, shu bilan birga, ma’naviy rivojlanishiga ham toʻsqinlik qilishi mumkin.

Darsdan tashqari ishlarda oʻquvchilarning bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda oʻquvchilarning bir-biriga boʻlgan muomala madaniyati ham shakllanadi. Oʻquvchi oʻqituvchiga taqlid qilishi yoki doʻstlarining tarbiyasi muomalasiga ta’sir qilishi mumkin. Oʻqituvchi oʻquvchilar orasida muomala madaniyatini shakllantirish uchun avvalo oʻquvchining oʻziga boʻlgan muomalasiga e’tiborini qaratishi kerak.

**Oʻquvchi ta’lim muassasasi qoidalariga rioya qilish bilan birga, oʻqituvchi talabiga ham javob berishi lozim. Oʻqituvchi talablariga:**

Darslarga toʻliq qatnashish.
Oʻquv qurollari bilan ta’minlanganligi.
Oʻqituvchini diqqat bilan eshitish.
Topshiriqlarni oʻz vaqtida bajarish.
Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
Guruh intizomiga rioya qilish.
Tozalikka rioya qilish kabilar kiradi.

Darsdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan oʻquvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud boʻlishiga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi, aks holda oʻquvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo boʻladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yoʻqqa chiqaradi. Guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqaridagi ishlarda oʻquvchilarning xatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qoʻyilganligi xususida e’tirozlar bildirilmoqda.

Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qoʻyilmagan, oʻquvchining har bir qadami pedagogning irodasiga boʻysungan joylarda ana shunday holat mavjuddir. Xuddi shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, oʻquvchilarning mustaqilligini rivojlantirish toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qiladigan oʻqituvchi, guruh rahbari oʻquvchilarga ta’sir koʻrsatish vositalarini puxta oʻylab, tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar. Ta’lim muassasasi oʻquvchilarining

mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilishi kerakki, u o‘quvchilarni charchatib qo‘ymasin, doim bir xil tusda bo‘lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g‘ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo‘lmasin (93-rasm).

93-rasm

***Talaba bilan shug‘ullanishning turli usul va darajalari mavjud***

*Birinchidan,* *talabalar ilm olsih borasida o’z-o’zlaridan minnatdor bo’lishlari lozim. Guruhdagi ayrim talabalar bilan suhbatlashish orqali ular bilan aloqa o’rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, darsni boshlashdan oldin talabalar bilan gaplashib oling. Ular dars tugagach, ma’lum savollar yuzasidan sizga qanday murojaat qilishlarini bilishlari kerak. Ularga do’stona va iliq munosabatda bo’ling.*

*Ikkinchidan,* *quyida e’tirof etib o’tiladigan ayrim usullar, ma’ruza qiziqarli, ishtiyoq bilan olib borilishi hamda yaxshi tashkil etilishi lozimligi bilan belgilab beriladi. Ma’ruza davomidagi diqqat markazi didaktik usul kabi ma’lum muammoni o’z ichiga olishi mumkin. Ma’ruza davomida talabalar 20 daqiqagina muddatda passiv o’rganuvchi sifatida diqqatni jamlashlari mumkinligi ko’p olimlar tomonidan qayd etib o’tilgan (Stuart va Rutherford, 1978). Shu sababli ularni chal’gitish hamda lirik chekinish qilib turish muammoni ijobiy hal etishi mumkin. Uchinchi va ehtimol, eng asosiy jihat, talabalar bilan shug’ullanishni ta’minlashda ularning ma’ruzada faol ishirok etishlarini shakllantirish lozim. Quyida keltirib o’tiladigan takliflar katta guruhlarda talaba bilan shug’ullanish muammosini hal qiluvchi ayrim yo’nalishlarni aks ettiradi. Bu yo’nalishlar keys-*

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazishda tarbiyachining eng muhim vazifasi o‘quvchilarni o‘quv vazifalarini hal etishga o‘rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to‘g‘ri tanlashdan, o‘z xatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko‘nikmalarini boshqa muhim hayotiy vaziyatlarga o‘tkazishdan kelib chiqishdan lozimligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi to‘rt tarkibiy qism kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish guruhdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o‘qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o‘quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O‘qituvchi guruh-dars faoliyati uchun xos bo‘lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo‘llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o‘quvchilarga xomaki yozuv bilan ishlash huquqi beriladi. Unda qoida ko‘rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o‘quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo‘ladi, lekin u o‘quvchining fikrlashi qanday borganligini ko‘rsatadi.

Darsdan tashqari ishlarda o‘quvchilarni ayrim ko‘nikmalarga o‘rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O‘z-o‘zini tekshirish, o‘zaro tekshirish usullariga o‘rgatish o‘qituvchining o‘quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘zlari harakatni taklif etadilar va shu bilan pedagogga muayan ma’lumot beradilar.

Darsdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko‘p qirralidir. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish (94-rasm).

94-rasm

**Tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi ishlarni kiritish mumkin:**

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
2. Tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni hamda shakl
4. Guruhdan va kollejdan tashqari ishlarni guruhlashtirishni boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Guruh rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to‘la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish, faollarni tarbiyalash, o‘quv-mehnat, ijtimoiy-

siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, jamoatchilikning sog‘lom fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish va ko‘paytirish.

Ta’riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma hisoblanadi. O‘rta umumta’lim ta’lim muassasasilarida guruh va ta’lim muassasasidan tashqari ishlar guruh rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Darsdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi.

Darsdan tashqaridagi ishlarda o‘quvchilar jamoaviy ishlashni o‘rganadilar. Ijodkor rahbar hamda ilg‘or o‘qituvchi tarbiyachilar o‘z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar (95-rasm)

95-rasm

**Ijodkor rahbar hamda ilg‘or o‘qituvchi tarbiyachilar o‘z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:**

- tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish;
- ma’naviyatni yosh avlod ongiga singdirishning e’tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lab, o‘quvchi qalbiga va ongiga ta’sir ko‘rsatish;
- tarbiyaviy ishlarni o‘quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyaning ta’lim bilan uzviyligini ta’minlash;
- tarbiyaviy jarayonda o‘quvchilarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o‘stirish;
- o‘quvchi shaxsiga hurmat va talabchanlik;
- o‘quvchilarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish qilish barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, uni qay darajada olib borish guruh rahbari va tarbiyachining pedagogik mohoratiga bog‘liq

O‘quvchilarni darsdan tashqari ko‘p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o‘quvchilar, tashkilotlar, guruh faollari yordamida yo‘lga qo‘yish. Guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o‘qituvchilar, guruh rahbarlari, ota-onalar o‘quvchilar, tashkilotchilar guruh faollariga yordam ko‘rsatish. Umumta’lim muassasasi va ta’lim muassasasilararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

*Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini ko‘rish mumkin: tashkilotchilik, umumiy va ma’muriy. Bular o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘ladi.*

*Talabalarning ilm olishga bo'lgan ishtiyoqlarini so'ndiradigan asosiy sabablar monologga aylanib qoladigan ma'ruzalar hamda ketma-ketligi va keyingi slaydlar aniq bo'lgan PowerPoint taqdimotidir. Bu holat talabalarning qiziqishlarini so'ndirib, ma'ruza bilan bog'liqlik hislarini kamaytiradi. Talaba bilan shug'ullanib turish esa ularning qiziqtirib, ilm olishga jalb qiladi. Ma'ruzalar talabalar uchun, ularning ilm olishlari uchun xizmat qilishiga ishonch hosil qilish lozim.*[27]

Shular asosida yangi bilimlar xosil bo'ladi. O'quvchilar ta'lim muassasasidan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham ta'lim muassasasidan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi.

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari o'z ishi rejasi asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qiladi. Tarbiyaviy ishlar rejasida ta'lim muassasasining umumiy rejasi, o'qituvchilar, guruh rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo'mitasi ish rejalarini ham e'tiborga olish kerak.

Ish reja ta'lim muassasasi direktorii tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida boalalrning yosh xususiyatlariga ta'lim muassasasining joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga olinadi. Direktor o'rinbosarining faoliyati aks etgan hujjatlar ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi. A. Jo'rayevning «Tarbiyaviy darslarni o'tish» risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'liq tarbiyaviy tadbirlar qoidalariga asoslangan namuna belgilangan.

## 15-mavzu. O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN HAMKORLIKDA ISH OLIB BORISH METODIKASI

### REJA:

1. O'quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayoni maqsadi, vazifalari va bosqichlari
2. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar
3. Do'stlik – inson axloqining bebaho go'zalligi
4. Rivoyat va hikoyatlar

### TAYANCH TUSHUNCHALAR:

O'quvchi, o'quvchilar jamoasi, jamoa, jamoani shakllantirish, hamkorlik, pedagog olimlar, jamoa faoliyati, o'z-o'zini boshqarish, tarbiya jarayoni, do'stlik, odob-axloq, rivoyat, hikoyat

---

[27] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 64.

## 1. O‘quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayoni maqsadi, vazifalari va bosqichlari

Har bir jamoa o‘z-o‘zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog‘lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatlaridir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o‘z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

**Bugungi kunda pedagog-olimlar o‘quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekanlar, uni quyidagi ikki bosqichga bo‘ladilar:**

a) jamoani dastlabki jipslashtirish;
b) jamoani shakllantirish uning har bir a’zosini individual rivojlantirishning qurolidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichlarni ajratib ko‘rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlaniganida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta’kidlaydi. Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolari va ularning faoliyatlariga qo‘yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o‘quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, guruhdan tashqari ishlar vaqtidagi jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi. Puxta o‘ylab qo‘yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi ta’lim muassasasida muayyan tartibning o‘rnatilishini ta’minlaydi. Pedagoglar tomonidan qo‘yilgn talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi.

Qo‘yilayotgan talablar o‘qo‘vchi shaxsini hurmat qilish bilan qo‘shilishi kerak. Qo‘yilayotgan talablar muayyan ta’lim muassasasi yoki guruhdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo‘yilishi lozim. Qo‘yilayotgan talablar aniq bo‘lishi kerak.

**Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan quyidagi eng muhim belgilarni ajratib ko‘rsatgan edi:**

o’z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun guruhlanish asosida o’z qadr-qimmatini anglash;
uning a’zolari o’rtasidagi do’stona birlik;
jamoaning har bir a’zosidagi do’stona birlik;
tarbiyali, ishchan harakatga yo’llovchi faollik;
o’z hissiyot va so’zlarini boshqara olish ko’nikmasi.

O‘quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar, ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart. O‘qituvchi tomonidan qo‘yilayotgan talablar hajmi, tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo‘yish metodikasini ham o‘zlashtira olgan bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga talablar qo‘yish metodikasi o‘quvchilarni talablar mazmuni bilan tanishtirib ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularning muntazam suratda nazorat qilib borishdan iborat.

O‘quvchilarni talablar bilan tanishtirish, ko‘pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta’lim muassasasi direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari istiqbolli rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko‘rsatish, keyinroq guruhlar bo‘yicha guruh majlislarida, maxsus suhbatlar uyushtirish chog‘ida amalga oshiriladi.

Xulq-atvor tarkib toptirishga yo‘naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo‘shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda murakkab ish. O‘quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois, muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo‘yilishi jarayonida ularga o‘quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o‘rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shartlar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, guruhdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Nazorat haqqoniy va muntazam bo‘lishi kerak. Uning natijalaridan o‘quvchilarni ogoh etib borish lozim.

## 2. O‘quvchilar jamoasini uyushtirish va jinslashtirish

Unda faolni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Har bir pedagogning jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini, ularning jamoa ishlarida ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi, har bir o‘quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur (109-rasm).

Jamoa faolini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini o‘quvchilarning o‘zlari, albatta, pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashishni tashkil etadi. Jamoa faolining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim. Pedagog aynan shu faolga oshirilgan talab qo‘yadi. O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘z-o‘zini boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois, pedagog faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

109-rasm

**Har bir ishning o‘ziga xos, ma’lum qonun-qoidalari bo‘lganidek, bola tarbiyasining ham o‘ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi, chunonchi:**

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O‘zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo‘lida qilinayotgan fidoiy ishlar bilan bog‘lanishi;
- o‘quvchini jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada o‘quvchilarning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o‘quvchilarning faol ishtirok etishidir. O‘z-o‘zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a’zolarining yig‘ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar faoliyati o‘rin tutadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish usuli ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat (110-rasm):

**Quyida tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko‘rib chiqamiz**

1. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi.

110-rasm

**Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish usuli ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat:**

1. Talablar qo‘yish;
2. Faollarni tarbiyalash;
3. O‘quv mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarini tashkil etish;
4. Sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish;
5. Ijobiy an’analarni yaratish va ko‘paytirish.

2. Tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan-mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir. O‘qituvchilar jamoasi va har bir o‘qituvchi-tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarni, vazifalarni belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda ta’lim muassasasi ish sharoitlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

3. Tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi qoidasi tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog‘lar ekanlar, ularga o‘zlarida iymon-e’tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar. Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq; jalb qilinadi, bu esa o‘quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasining ko‘rsatishicha, o‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushgandagina tarbiya ishlarini faol o‘quvchilarga tayanmog‘i, o‘quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoatchilik ruhini singdirib borishi lozim. Sinf rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash-tarbiyaning yetakchi tamoyillari hisoblanadi.

Yuqorida ta’riflangan barcha qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma hisoblanadi.

Tarbiya usullarini tanlashda ularni jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi ko‘p tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa muvaffaqiyatining munosabatlarini rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O‘qituvchining esa yangi sinf bilan marta ish boshlanishiga to‘g‘ri keladi: o‘z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba’zan esa ta’lim muassasasida vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan.

Tarbiya jarayoni o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayoniga o‘tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o‘quvchilar va umuman, jamoa o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va jamoani tashkil etadi, o‘ziga va bir-biriga talablar qo‘yadi va o‘zini-o‘zi nazorat qiladi.

Sinf rahbari va o‘quvchilar jamoasi o‘z niyatlari va ishlarida birgadirlar. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar juda qiziqarli bo‘lib, bu ish sinf rahbarining asosiy ishi bo‘lib hisoblanadi. O‘quvchilarni inoq jamoaga birlashtirgan mohir sinf rahbari qo‘lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulayayotgan kishi, shaxsning hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo‘lini belgilashda o‘z vazifasini anglash sinf rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat’iy faoliyatining zarur sharti hisoblanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o‘quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatlarini tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi. Sinf rahbarinnng o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi.

**O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat**. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o‘qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o‘zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi, ularning o‘qishdagi maqsadlari nimalardan iborat, bu maqsadlar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasi 111-rasmda ifodalangan (111-rasm):

111-rasm

**Jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasi**

Shunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ular salbiy tomonlarni emas, har bir bolada odatdagi sharoitda boshqalardan yashiringan ijobiy tomonlarni ham ochib bersin. Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab, tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qoʻshimcha shart hisoblanadi. Bu haqda gapirmasa ham boʻlardi, chunki bu shart pedagogik tamoyillardan biridir. SHu bilan birga ishni endi boshlagan oʻqituvchi, ayniqsa sinf rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda oʻz tarbiyalanuvchilari yoshini hisobga olishi muhimdir. Bunda bir xil usullar talablar, topshiriqlar va hokazolar turlicha izohlanadi. Ta’lim jarayonida jamoa munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari sinf rahbarining katta e’tibor berishini talab etadi. Jamoa faoliyatida koʻproq muomala qilishga boʻlgan ehtiyoj yotadi.

Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli – oʻquvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida, ta’lim muassasasida, ta’lim muassasasidan tashqarida oʻzaro faol hamkorlik qilish darajasida kuzatishdan iboratdir. Oʻqituvchi jamoaning kuchli va zaif tamoyillarini aniqlash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga keltirishni qoʻllaydi. Lekin bunda shuni esda tutish kerakki, oʻquvchi kamchiliklarini hamma oʻrtasida yorqin namoyish qilish uni ma’naviy halok etishi, qalbini jarohatlashi mumkin.

**Darslarda bu ehtiyoj kam qondiriladi**. Agar darsdagi muomalaga boʻlgan ehtiyoj toʻgʻri tushunilsa, uning negizida oʻquvchilarning oʻzaro yordami, darslarga birgalikda foydali tayyorgarlik koʻrish, qiziqishlar boʻyicha mashgʻulotlar tashkil etiladi. Ta’lim jarayonidagi jamoatchilik tuygʻusi ana shu, ya’ni birgalikdagi mehnat bolalarda katta qoniqish hosil qilish ijobiy kechinmadan boshlanadi. Shu tariqa oʻzaro yordam tashkil etish sinfdagi jamoa munosabatlarini shakllantirishning yoʻllaridan biridir.

Ta’lim muassasasi tajribasida faoliyat odatda, ommaviy, jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya’ni ularda oʻquvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi) oʻz mohiyatiga koʻra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadiga (masalan, ma’ruza, konsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarining oʻzaro muomalasini nazarda tutmaydi. Oʻquvchilar jamoasini shakllantirish (112-rasm)da ifodalanhan.

Oʻqituvchi yana oʻquvchilarni yosh xususiyatlarini, sinf jamoasining xususiyatlarini, uning shakllanganlik darajasini hisobga oladi, oʻsha talablarida jamoa fikrining qoʻllab-quvvatlanishiga tayanadi. Jamoa rivojlanishining har qanday darajasida sinf rahbari muayyan usullardan foydalanib, jamoatchilik fikrini shakllantirish toʻgʻrisida maxsus gʻamxoʻrlik qiladi.

Biroq, bundan oldingi holda boʻlgani kabi, bu shakllarda bevosita tengdoshlar bilan birgalikda qatnashish ba’zi hollarda ularning faoliyatidagi ishtirokini faollashtiradi, boshqa hollarda aksincha boʻladi. Bu koʻp jihatdan oʻquvchilarning

faoliyat mazmuniga, munosabatiga (ijobiy, passiv yoki salbiy) bog‘liq bo‘ladi. Faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning maqsadiga erishish uchun o‘quvchilarning o‘zaro muomalaga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari jamoa shakllari deyiladi, bu muomala jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida jamoa aloqalari vujudga keladi. Bu shakllar obyektiv jihatdan o‘zida muomala uchun muayyan shart-sharoitlarga ega bo‘ladi.

112-rasm

**O‘quvchilar jamoasini shakllantirish**

O‘quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonini past darajadan yuqori darajaga boradigan vaqt davomidagi harakat, ijtimoiy talablar avval shaxsan sinf rahbaridan, o‘qituvchidan faqat yakka bolalar, keyinchalik ko‘pchilik bolalar idrok etadigan va nihoyat, barcha uchun va har bir bola uchun hayot qonuni bo‘lib qoladigan tarzda jo‘n tushunib bo‘lmaydi. Hatto uyushgan jamoada ham jamoatchilik xususiyatlari zaif rivojlangan ayrim o‘quvchilar bo‘ladi. Sinf rahbari jamoa va har bir alohida o‘quvchining tarbiyasi uchun mas’uldir. Shuning uchun uning jamoa tarzidagi va yakka tartibdagi shakllarini qo‘shib olib borishi tarbiyaviy ishdagi o‘ziga xos xususiyatlardan biridir. Jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.

Ular o‘quvchilarga ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun vazifalarni o‘zaro taqsimlab chiqish imkonini beradi, qatnashchilar o‘rtasida aloqa ta’sirining paydo bo‘lishiga olib keladi. Misol tariqasida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning jamoa shakllaridan biri-bilimlarning ijtimoiy ko‘rigini qarab chiqamiz. U biror fan bo‘yicha o‘tkaziladi. Unda ikkita parallel sinf yoki bir sinfdan ikkita jamoa ishtirok etishi mumkin. Ko‘rikning dasturi ishlarning har-xil turlaridan (yozma, og‘zaki, grafik masalalar yechish, topshiriq uchun topshiriqlarni bajarish va shu kabilar) tashkil topadi, ularni bajarish umuman olganda, 40-60 daqiqadan oshmaydi. Ko‘rik oxirida hay’at a’zolari har bir qatnashchiga va umuman jamoadagi o‘rtacha bahoni e’lon qiladi. Bu o‘rinda bilish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muomala ko‘rikka hozirlik ko‘rish vaqtidayoq boshlanadi va uni o‘tkazish jarayonida juda samarali davom etadi. Bunga sabab shuki, ko‘rikka doir dastlabki topshiriqlar jamoadan tayyorgarlik rejasini muhokama etishni, vazifalarni taqsimlashpi yoki guruh bo‘lib ishlashni talab qiladi. Ko‘rik jarayonida muomala uning hamma qatnashchilari o‘rtasida sodir bo‘ladi, chunki ulardan har biri muayyan vazifaga ega bo‘lib, o‘z harakatlarini boshqa qatnashchilar bilan muvofiqlashtirgandagina, vazifani muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Jamoaviy muomalani tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir, bunda mazkur ish bolalarning tarkib jihatidan uncha katta bo‘lmagan (eng ko‘pi bilan 5 kishi bo‘lishi kerak) guruhlarida amalga oshiriladi. Bunday kichik guruhlarda barcha a’zolar bir-birlari bilan bevosita muomalada bo‘ladilar va bir-birlariga bevosita biror ta’sir ko‘rsatadilar.

O‘quvchilar guruhida muomalaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish uning guruhlarini o‘quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiradigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Umumiy tarzda ular quyidagicha tasvirlanishi kerak: guruhi ish jarayonida o‘quvchilarning muomalasi

juda samarali bo‘ladi. Bunga sabab shuki, birinchidan, guruh muayyan topshiriq, ya’ni o‘ziga xos yo‘l-yo‘riq oladi. U guruh a’zolari uchun maqbul bo‘lgan maqsadlarni ma’lum qiladi, lekin bungacha bu maqsadlarni uning o‘zi ilgari surmagan bo‘ladi. Yo‘l-yo‘riq, muammo, masala topishmoqni o‘z ichiga oladi. Bu hol jamoa a’zolarida taxminiy-tadqiqodchilik javobini va ish maqsadiga intilishni vujudga keltiradi. Jamoadagi muomala munozara tusiga ega bo‘ladi, bu hol qatnashchilardan ilgari surilgan qoidalarni isbotlashni talab qiladi, jamoaga muammoni noto‘g‘ri hal etishga intilishga tezda javob qilish, bir-birini tuzatish va to‘ldirish imkonini beradi.

## 3. Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolari va ularning faoliyatlariga qo‘yiladigan yagona talablar

Jamoada muomalani tashkil etganda, o‘quvchilar muhitida mavjud bo‘lgan haqiqiy guruhlarni nazarda tutish, bir-biriga mehr bilan qaraydigan va o‘zaro do‘stlashadigan bolalarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarning xususiyatlarini, ularning yo‘nalishi, qiziqishlari, malakasini va hokazolarini bilishi, hisobga olishi va ulardan foydalanishi kerak.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o‘quvchilarning shaxslararo real, ya’ni aniq mavjud bo‘lgan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga: guruh a’zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o‘rtasidagi muomalaga ta’sir ko‘rsatish bundan tashqari, o‘z oldilariga qo‘ygan har bir maqsadiga erishish imkonini beradi.

Jamoa ishini tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish ishning samaradorligini oshiradi. Bu hol guruhdagi muomalani jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomala sohasiga olib kiradi. Masalan, jamoa yetarli darajada obro‘ qozongan, jamoatchilik yo‘nalishiga ega bo‘lgan guruhga muayyan bir tadbirni tayyorlash va o‘tkazishga boshchilik qilishni topshirsa bo‘ladi. Qandaydir o‘ziga xos qiziqishlarii bor guruhga butun jamoa uchun bu qiziqishlarga mos keladigan ishning tashabbuskori va tashkilotchisi bo‘lish taklif etiladi va hokazolar.

Odam bolasining rivojlanishi muhim jarayon sanaladi. Bizga ma’lumki, hayoti davomida inson jismoniy va psixik tomonidan o‘zgarib boradi, lekin bolalik va o‘smirlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo‘ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o‘sishadi, o‘zgarishadi, shaxs sifatida kamolga yetadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta’sir etishi natijasida bola jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta’sir kuchi hamisha bir xil bo‘lavermaydi. Sababi, odamning xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat, vaziyat ham ta’sir etadi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri aniqlash va bexato

baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko‘rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro‘yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal qilish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillarni, bu omillarning, tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe’l-atvori shakllanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta’sir etadi. O‘rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta’sir etadigan omillarga katta ahamiyat berganlar.

Forobiy inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning muhimligini ta’kidlab: «munosib inson» bo‘lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta’lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yo‘llar, deydi. Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishga yordam beradi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o‘rniga alohida to‘xtalib: bola tug‘ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo‘yishi, so‘ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo‘ladi degan fikrni ilgari suradi.

Bola shaxsining rivojlanishiga, kamol topishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta’sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta’siri deganda, ota-onalarga o‘xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bolaga ota-onasidan meros shaklida ba’zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, ko‘zning, terisining rangi, bo‘yi-basti va boshqalar) ega bo‘lgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bulardan tashqari, oliy asab faoliyatining xususiyatlari ham tug‘ma ravishda utadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi.

## 4. Inson kamolotiga ta’sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir

Muhit deganda kishiga stixiyali ta’sir etadigan tashqi voqealar komplekti tushuniladi. Bunga tabiiy muhit ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. Shular bilan birga miromuhit – oila sharoiti ham katta ta’sir kuchiga ega. Chunki bola ko‘z ochib ota-onasini, qarindosh-urug‘ini ko‘radi. Bola kamolotida ijtimoiy muhit muhim hisoblanadi. Chunki bu yerda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta’sir qiladi.

> Ezgu xulq do‘stlikni,
> Yomon xulq dushmanlikni keltiradi

Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta’siri turli tarixiy davrda turlicha bo‘ladi, turli ijtimoiy guruhlarga ham turlicha ta’sir etadi.

Shunday ekan, hozirgi zamon muhitga, uning inson rivojlanishidagi ta’sirining roliga alohida e’tibor beriladi. Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta’sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Uning farqli tomoni va xususiyati shundaki, tarbiya

aniq maqsadni koʻzlab, tizimli ravishda insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yoʻlida tarbiyachining rahbarligida amalga oshirib boriladi.

**Doʻstlik – inson axloqining bebaho goʻzalligi**, ijobiy fazilatlar gavhari. Insondagi barcha goʻzal fazilatlar bir marvarid shodasi boʻlsa, uning dur-gavhari chin insoniy muhabbatga asoslangan doʻstlikdir, Doʻstlik tufayli xonadonimiz obod, dunyoda tinchlik va dasturxonimizda toʻkinlik hukmron. Shuning uchun ham dono kishilar hamma jamiyatda ham doʻstlikni ulugʻlab, qadrlab kelganlar va odamlarni doʻst boʻlib yashashga, koʻproq doʻst orttirishga undaganlar.

Paygʻambarimiz Muhammad mustafo sallollohu alayhi vassalam hadislaridan birida: «Bir-biringizga xayr-ehsonli, mehr-muhabbatli boʻlib, qoʻl berib soʻrashib yuringlar, shunda dillaringizdagi gʻillu gʻamlik ketadi»,- deganlar.

Doʻstlik insonning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qoʻshadigan, kishini baxtli qiladigan, hayotini bezaydigan eng muhim omillardandir. Mazkur hikmatli soʻzlarda doʻstlik va oʻrtoqlikka xos boʻlgan eng yaxshi xislatlar ifodalanganki, biz oʻz hayotimizda ularga har qadamda duch kelib turamiz.

113-rasm

**Xalqimiz oʻrtasida doʻstlik munosabatlariga bagʻishlab juda koʻp hikmatli soʻzlar yaratilganki, ular orqali doʻstlikning kishi hayotida tutgan oʻrni ifoda etilgan. Jumladan:**

Qora kuningda doʻsting yaraydi.
Doʻst achitib, dushman kuldirib gapirar.
Qoqilganingda doʻsting suyab qoladi.
Oʻzini siylamagan, oʻrtoqlarini ham siylamas.
Oʻzingni qurbon qilib boʻlsa ham, oʻrtoqlaringni saqlab qol.
Kuning quvnoq oʻtishini istasang, oʻrtoqlaring bilan boʻl.
Ulfat qancha koʻp boʻlsa, kulfat shuncha oz boʻladi.
Aqli koʻpni dov olmas, doʻsti koʻpni yov olmas.
Yaxshilar boʻlsa oʻrtoq, kunda boʻlurlar qoʻnoq.
Chin doʻst chin yurakdan soʻzlaydi.
Arpa, bugʻdoy bir kuninga yaraydi, sodiq doʻsting oʻlguningcha yaraydi.
Qalin oʻrtoq – qarindoshdan ortiq.
Yaxshi doʻst-davlat.
Yaxshi libos – tanga oroyish, yaxshi yoʻldosh jonga osoyish

Doʻstlik-birodarlikning eng yaxshi xislatlaridan biri kishilarga mehr-shafqatli boʻlishni anglatadi. Masalan, bir sinfda oʻqiydigan oʻrtoqlarimizdan biri betob boʻlib qoldi yoki xonadonida biror koʻngilsizlik roʻy berdi deylik, shunday paytda darhol hol-ahvol soʻrab, dardiga malham boʻla olsak, nur ustiga a’lo nur boʻladi. Buning natijasida kishilar oʻrtasida yaqinlik mehr-oqibat ortib boradi. Doʻstlikka xos boʻlgan

yana bir xislat, o‘zaro yordam hisoblanadi. Biz o‘qishda, mehnatda, jamoat ishlarida o‘rtoqlarimizdan yordamimizni ayamasligimiz kerak (113-rasm).

Do‘stlik, o‘rtoqlik rishtalarining bog‘lanishi va mustahkamlanishini ta’minlovchi birmuncha xislatlar bor. Jumladan, rostgo‘ylik, bir-birini o‘zaro hurmat qilish va sirdosh bo‘lish, o‘rtoqlarga doimo g‘amxo‘r bo‘lish kabilarni o‘z vaqtida amalga oshirib borsak, bizning o‘rtoqligimiz ortib, haqiqiy do‘stlik darajasiga ko‘tarila oladi. Shuning uchun ham do‘stlik o‘rtoqlikning oliy shaklidir, deyiladi, chunki do‘stlik, avvalo o‘rtoqlikdan boshlanadi.

Kishi o‘z o‘rtoqlaridan birini boshqalardan ortikroq sevadi. Uni boshqalardan ko‘proq hurmat qiladi, unga nisbatan o‘z moyilligini amalda ko‘rsatishga tirishadi. Ikkinchi tomon ham bu hurmatga hurmat bilan javob berishi ayni muddao bo‘ladi. Do‘stlar doimo bir-birlaridan maslahat oladilar, bir-birlariga muntazam yordamlashib turadilar, moddiy va ma’naviy jihatdan bir-birlarini qo‘llab-qo‘vvatlaydilar. Shunday qilib, avvalgi oddiy o‘rtoqlar keyinchalik yaqin do‘st bo‘lib ketadilar.

Do‘stlikni tor ma’noda, ya’ni ikki kishi orasidagi aloqadangina iborat, deb tushunmaslik darkor. Do‘stlik tushunchasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, million-million kishilarning ahil yashashi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamjihatligini bildiradi. Hozir ham, bundan avval ham yer kurrasi xalqlari orasidagi baynalmilal do‘stlik jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan, bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Do‘stlik – oltindan qimmat, pul bilan o‘lchab bo‘lmaydigan bebaho narsa. Do‘stlikni saqlash yer yuzidagi barcha xalqlarning, katta-yu kichik – hammaning hayotiy vazifasidir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, do‘stlik avval ikki kishi orasida boshlanib, ko‘payib, kengayib boradi va ijtimoiy tus oladi. Do‘st orttirish hamma yoshda ham zarur, lekin yoshlikda boshlangan do‘stlikning ildizi juda chuqur va mustahkam bo‘ladi. Shuning uchun ham yoshlarimiz iloji boricha ko‘proq do‘st orttirishlari va bir-birlari bilan ahil yashamoqlari kerak. Do‘stlik shirinsuhanlikdan boshlanadi va xushmuomalalik, ochiq ko‘ngillilik, mehr-sadoqat bilan mustahkamlanib boradi. Yengiltaklik, jizzakilik, ig‘vo-bo‘htonga berilish va o‘zaro hurmatning yo‘qolib borishi do‘stlikka rahna soladi, uning yemirilishiga olib keladi. Do‘stlik o‘rnini dushmanlik, g‘arazgo‘ylik egallaydi.

Ota-bobolarimiz do‘stlikni yuqori darajada qadrlashgan. Do‘sti yo‘q odamni qurigan daraxtga, jisman mavjud bo‘lsa ham qalbini o‘lik murdaga o‘xshatishgan. Do‘sti ko‘p odamni hurmat qilishgan. Do‘st orttirish uchun mehnat qilish, birovlarning yukini ko‘tarib, mushkulini oson qilish kerakligini uqtirishgan.

## 5. Rivoyat va hikoyatlar

**Rivoyat.** Ulug‘ shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirdi ham do‘sti bor ekan. Shoir uni juda yaxshi ko‘rar, shogirdi bo‘lsa ham qadrdon, sirdosh do‘sti, deb bilar ekan. Kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad kichik bir gunoh qilib qo‘yib, shu tufayli Sulton Husaynning qattiq g‘azabiga uchrabdi. Voqea bunday bo‘libdi: Sulton Husayn g‘azab otiga minib turgan bir paytda Pahlavon Muhammadning gunoh ish qilib qo‘yganini yetkazishibdi, Husayn Boyqaro:

- Pahlavonning soqol-mo‘ylovini qirib tashlanglar, so‘ng kaltadum libos kiydirib, ko‘cha-ko‘yda sazoyi qilinglar,- deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo‘lganini Alisher Navoiyga aytishibdi. Navoiy, agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavon Muhammadning izzat-nafsi kamsitilib, u bunga chiday olmasligini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqazish harakatiga tushibdi. Tezlikda Husayn Boyqaro huzuriga yetib borib:

- Sultoni bokaram, ma’lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo‘ylov qo‘yib, do‘st-birodar bo‘lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o‘rtadagi ahd buzilib, gapimiz tuzsiz, o‘zimiz subutsiz bo‘lib qolamiz. Buyursangiz, mening soqol-mo‘ylovlarimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga berilgandek kalta libos kiygizilib, do‘stim bilan birga sazoyi qilsinlar,- debdi.

Navoiyning shogirdi hamda do‘stiga bo‘lgan sadoqatini, mehr-oqibatini ko‘rgan Husayn Boyqaro g‘azabidan tushib qolganini o‘zi ham bilmay qolibdi-da:

Pahlavonning gunohidan o‘tdim, jazo qoldirilsin, - deb farmon beribdi.

Biz tarixda katta ijobiy fazilatlari bilan nom qozongan ulug‘ bobolarimizdan hamisha ibrat olib yashaymiz. Oilada, ta’lim muassasasida, ko‘cha-kuyda, mahallada, davralarda yoshlarimizni do‘st orttirishga chaqiramiz. Yoshlikda bog‘langan do‘stlik iplari mustahkam bo‘ladi, uni g‘iybat, tuhmat shamollari uza olmaydi. Do‘sting bilan bir umrga bog‘lanib qolsang, kayfiyating yaxshi bo‘lsa, uni baham ko‘rgani, diqqat bo‘lsang uni yozgani do‘stingnikiga borasan, mehmon bo‘lasan yoki do‘sting ham shunday holatlarda senikiga keladi, ko‘nglini yozadi.

Mehmonnavozlik do‘stlikni mustahkamlovchi omillardan biridir. Chunki mehmonni kuzatish jarayonida mezbondagi saxiylik, pazandalik, tozalik inson ko‘nglini olish kabi olijanob fazilatlar namoyon bo‘ladi. Do‘stlik an’analariga sadoqatli oilaga mehmon kelishi bayramga, xursandchilikka aylanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning «Do‘st bilan obod uying» g‘azalida bu haqda ajoyib fikrlari bor:

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham,
Do‘st qadam qo‘ymas esa
Vayronadir koshona ham.

**Abu Ali ibn Sinoning fikricha**, iisonda axloqiy sifatlarning kamol topishida yaxshi xushtabiat, ilmli do‘st katta o‘rin tutadi. «Yaxshi do‘st oyizdir,— deydi olim, — unda kishinkng butun yaxshi yoki yomon tomonlari aks etadi». Yaxshi do‘st o‘z vaqtida o‘rtorining yomon qiliqlarini ko‘rsatadi,o‘zining maslahati va xulq-odobi bnlan ularni bartaraf etishga yordam beradi (114-rasm).

Birov bilan do‘st tutingan kishi o‘z do‘stining kamchiliklarini bartaraf qilishga, yaxshi xulq-sifatlarini e’zozlashga yordam berishi kerak. Lekin, ikkinchi tomondan, do‘stlarining aybini o‘zigagina aytish lozim, ammo begonalar oldida kamchiligini aytib, mulzam qilish chin do‘stning ishi emas. Hayotda haqiqiy do‘stlardan tashqari, soxta nodon do‘stlar ham uchrab turadi. «Soxta do‘stdan oshkora dushman afzal»

deyishadi. Ayrim soxta do‘stlar borki, ular boshqalarning boyligiga uchib, shaxsiy manfaatlari yo‘lida do‘st bo‘lishga intiladilar.

114-rasm

**Ibn Sino do‘stlikning uch xil ko‘rinishini aytib o‘tadi:**

**1. Haqiqiy do‘stlik** – bunda do‘stlar har qanday sharoitda, jumladan hayotda yuz bergan eng og‘ir damlarda ham birga bo‘ladilar.

**2. Boylik, amal –** daraja tufayli bog‘langan do‘stlik.

**3. YAgona maqsad va g‘oyaviy birlik asosidagi do‘stlik**

Fors-tojik adabiyotining mumtoz namoyandasi Abdu-Rahmon Jomiyning fikricha, kishi muayyan hayot kechirib, tarbiyalanar ekan, demak, boshqa odamlar bilan aloqasiz yashay olmaydi. Har bir kishining do‘stsiz, o‘zgalarning yordamisiz kamolotga erishishi juda qiyin (115-rasm).

115-rasm

**Shuning uchun ham har bir kishining o‘ziga munosib, haqiqiy do‘sti va yor-birodari bo‘lishi lozim**

Chin do‘st ul do‘stligi oshaversa gar,
Do‘stidan yomonlik ko‘rganida ham,
Boshiga ming jafo toshi yog‘ilsa,
Mehr uyi u toshdan bo‘lar mustahkam,-
deb Jomiy do‘stlikka katta baho beradi.

Jomiy haqiqiy do‘st do‘stlikning hamma qonun-qoidalariga rioya qilishi, do‘stiga har qanday yo‘l bilan yordam ko‘rsatishga intilishi, agar zarur bo‘lsa, hatto jonini berishi kerakligini ta’kidlaydi. Bunday do‘stlikning namunalari o‘zbek xalq; og‘zaki ijodi qo‘lyozma adabiyotida ham ardoqlanib, og‘izdan-og‘izga kuchib, ulug‘lanib kelinadi. Masalan, o‘zbek xalq doston «Alpomish» da uning yetakchi obrazlari Alpomish va Qorajon o‘rtasidagi do‘stlik tufayli asar voqealaridagi ziddiyatlar yaxshilik zva nitelydasnga hal bo‘ladi.

Chunki, bu do‘stlik Alpomish bilan Qorajon o‘rtasidagi samimiyat, adolat g‘alabasi uchun kurash qo‘lidagi yagona maqsad bilan mustahkam bog‘langan do‘stlikdir. Alisher Navoiy do‘stlik, rostgo‘uylik, o‘rtoqlik madhini baralla kuylagan va shu g‘oyani rivojlantirishga hissa qo‘shgan. U Farhod bilan Shopur, Majnun bilan Navfal, Shirin bilan Mehinbonu obrazlarini yaratib, ana shu obrazlar timsolida kishi kishiga do‘st, birodar bo‘lishi haqidagi azaliy orzularini madh etgan. Inson va uning qadr-qimmati Navoiy ijodida markaziy o‘rinni egallaydi. Navoiyning fikricha, xalqni o‘ylagan kishigina haqiqiy insondir. Shuning uchun ham shoirning:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami

- degan bayti xalq hikmatiga aylanib ketgan.

Navoiy insonlarni milliy, irqiy va diniy e’tiqodlaridan qat’i nazar, bir-birlari bilan inoq yashashga da’vat etadi.

Navoiy do‘stlikni ulug‘laydi. Shu bilan birga, soxta g‘araz bilan do‘st bo‘luvchi kishilarni qoralaydi. Haqiqiy do‘st kishining og‘ir, alamli-dardli kunlarida hamdam bo‘ladi. Do‘stlikning eng muhim va asosiy sharti vafodir,- deydi shoir. - Vafo - xalqqa, davlatga, do‘st-yorlarga har qanday qiyinchiliklardan qo‘rqmay, sadoqat bilan xizmat etish va yordam berish demakdir. Vafodorlik insonni, do‘stlarni sevish, hurmat qilish demakdir:

«Yorki, bora anda vafo yor bil,
Umr degan yori vafodor bil».

Hukmron doiralardan vafosizlik va hayosizlik ko‘rgan Navoiy kishilarning vafodor bo‘lishi zarurligi haqida juda ko‘p fikrlarni aytadi. U, avvalo, bu xislatga o‘zi amal qiladi va barcha asarlarida bunga da’vat etadi.

«Boburnoma»da ham do‘stlashish, uni e’zozlash haqida yoshlarga ibrat bo‘larli nasihatlar jamlangan. Chunonchi, do‘stga hamisha e’tiborli bo‘lish, ziyoratga borish, yaxshi-yomon kunida hamdardlik qilish, do‘sti ko‘p kishining ayblari sir tutilishi, fazilatlari ko‘payishi, yangi do‘st topganda eskisidan yuz o‘girmaslik va boshqalar uqtiriladi.

*Bir kuni Iskandardan so‘rabdilar:*

«Buncha oz sarmoya bilan bu miqdor ko‘p mulkni qanday xislat bilan qo‘lga kirgizding?»

*Iskandar javob qildi:*

«Dushman birlan iltifotli muomala qilish, o‘zaro kelishuvchi hamda do‘stlarga sadoqatli bo‘lish ila shuncha mamlakatni qo‘lga oldim, yana bilginki, do‘stlarning do‘stlari ham do‘stlaringdir. Agar do‘sting sening dushmaningni sevsa, bunday do‘stdan ehtiyot bo‘l, bunday do‘st dushman tarafidan senga yomonlik qilishdan ham andisha qilmagay. Sening do‘stingga dushman bo‘lg‘on do‘stdan parhez etgil-muruvvatsiz, fazilatsiz kishini do‘st tutmagilki, bunday kishining hosiyati bo‘lmas va

ularni osh-non do‘stlari toifasidan bilg‘il, or va nomus do‘sti emasdurlar. Yaxshilarga ko‘ngil bila va yomonlarga til bila do‘stlik qilg‘il, toki ikki toifaning hamustligi senga nisbatan hosil bo‘lsun, nedinkim, kishining hojati tanho do‘stiga tushmag‘usidir.

Do‘stlikka loyiq odamni ikki narsa bila bilsa bo‘lur: biri ulki, do‘stiga tangdastlik yetishg‘on vaqtda qudrati yetguncha molin do‘stidan darig‘ qilmas va qashshoqlik vaqtida undin yuz o‘girmas; yana biri ulki, do‘sti bu jahonda o‘tg‘ondan so‘ng ul do‘stining farzandlarini, qarindoshlari va do‘stlarini yo‘qlab, ularga yaxshilik ko‘rgizg‘ay. Goh-goh ul do‘stnning mazori ziyoratiga borg‘ay va xasrat chekib, duolar qilg‘ay.

**Hikoyat.** Suqrot hakimni o‘ldirish uchun olib borishayotgan chog‘da shogirdlardan bir jamoa unga hamroh bo‘lib borar edilar. Ular yig‘lab, zorlig‘ qilib so‘radilar: «Hay hakim, endi o‘limga ko‘ngil qo‘ymishsan, aytgil, seni qaysi yerga dafn etaylik?» Suqrot tabassum qilib dedi: «Qay joyni ko‘nglingiz tilasa, ul joyga dafn qiling, ya’ni mening jasadim qayda bo‘lsa, so‘ngaklarim unda bo‘lg‘ay, faqat meni yod qilsangiz bas».

Odamlar bila do‘stliging o‘rtacha bo‘lsun,
Do‘stlaringning e’tiqodidan g‘ofil bo‘lmang

Do‘stlikni farog‘likda va tangdastlikda imtihon qilg‘il, farog‘likda roz va taom bila, tangdastlikda sud va ziyon bila. Har do‘stki, sening dushmaningni dushman tutmas, uni do‘st demag‘il. Ta’magir, kekchi do‘stdin uzoq bo‘lg‘ul.

Yusuf Xos Hojib ham «Qutadg‘u bilig» asarida ulfat tutish haqida, ularga hamisha e’tiborli bo‘lish, hamdardlik ko‘rsatish, zinhor dillariga ozor yetkazib, do‘stni dushmanga aylantirmaslik haqida fikr bildradi. Chunonchi:

Ko‘ngil deganlari misoli shisha,
Sinib qolmasin u, uni hamisha.
Ko‘ngil nozikligi bu so‘zga nishon,
U issiq-sovuqda bog‘liq har qachon.
Jo‘ra ko‘ngli sinsa, bo‘ular ichki yov.,
Qayda yov bo‘larkan, keki-beayov

Yovi bor odamning hayoti totli bo‘larmidi? Yovi bo‘lgan, yovi bilan urisha-urisha qarigan kishi nima deydi, eshitgin:

Dushmanim kichik deb g‘aflatda qolma,
Nega qo‘rqayin deb sen shov-shuv solma.
Yoving bo‘lmasa, aslo g‘ofil bo‘lmagin,
Yovga yov, yaxshiga yaxshi bo‘l, tolma

Muallif fikrini davom ettirib, kimning do‘sti ko‘p bo‘lsa, uning ismi yoyiladi. Barcha ishlari o‘z vaqtida ado etiladi. Do‘stlar kishining yaxshi tomonini oshiradi, ayb-nuqsonlarini yashiradi, deydi. Agar yaqin do‘stlar, qarindosh-urug‘lar sendan oyoq uzib ketgudek bo‘lsalar, sen o‘zing yaqinlik iplarini ulagin, deb nasihat qiladi.

Yaqin bo‘lsa ko‘ngil, yiroq yer yaqin,
Vafo bilan, ammo yaqinlik tag‘in.
Sharqu G‘arb orasi bir o‘rlam yerdir,
Vafo deb bilsa kim, yaqinlik haqin

Inson hamma vaqt yaxshi kishilarga yaqinlashishga harakat qiladi, bu xususiyat juda erta, bolalik chog‘idan boshlanadi. Har birimiz yoshlikdanoq o‘z tengimiz bilan o‘ynab, do‘st tutinishga intilamiz, hayot va mehnatda, boshga har xil ish tushganda sinashta bo‘lganlar bilan do‘stlashamiz. Ba’zi do‘stlar sodiq bo‘lib qoladi, ba’zilari ajrashib ketadi. Zotan, dono do‘st, shinavanda ulfat, g‘amguzor o‘rtoq orttirish jo‘n ish emas, albatta. Bu o‘rinda, do‘st va o‘rtoq orttirish haqida bir rivoyat keltirib o‘tishni lozim topdik. Do‘stlik, o‘rtoqlik, hamkorlik, birodarlik, ahillik va birlikning ulug‘ kuchi haqida maqollar, hikmatlarda ham ajoyib fikrlar mavjud (116-rasm).

116-rasm

**Do‘stlik, o‘rtoqlik, hamkorlik, birodarlik, ahillik va birlikning ulug‘ kuchi haqida maqollar, hikmatlarda ham ajoyib fikrlar mavjud:**

Birlashgan daryo bo‘lar, Tarqalgan irmoq bo‘lar.
Birlashgan kuch – yengilmas; Do‘stdan-do‘st kamol topadi.
Do‘sting mingta bo‘lsa ham kam degin, Dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p bilgin

**Rivoyat.** Bir kuni Abu Husayn Abdulloh voyaga yeta boshlagan o‘g‘li Ibn Sinoni yoniga chaqirib:

- Siz shahzodalarni davolash uchun saroyga ko‘p qatnamoqdasiz. Xohlardimki, o‘zingiz saroy qursangiz. Siz qurgan saroy shahar va qishloqda son-sanoqsiz bo‘lsa.

Ibn Sino «xo‘p» deb otasi oldidan chiqibdi-yu o‘ylanib qolibdi. Ko‘plab saroy qurish uchun pulni qayerdan olishga boshi qotibdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, donishmand oqsoqolning oldiga boribdi va otasi istagini aytibdi.

Buxoroi Sharifga atrofdan odamlar ko‘p keladi. Ana shu odamlar bilan ko‘ngil bog‘lang, yaxshilik qiling, shaharu qishloqlarni aylaning, bemorlarni davolang, ko‘ngil yaralariga malham bo‘ling. Siz yaxshilik qilgan behisob odamlarning xonadoni siz uchun behisob saroy bo‘ladi. Qachon borsangiz siz uchun ochiq turadi. Otangiz ana shuni orzu qilibdi.

Do‘stlik guldan nozik, po‘latdtan qattiq, dovuldan kuchli, deyishadi. Do‘stlik o‘zaro munosabatda samimiylikni, ziyraklikni, rostgo‘ylikni, to‘g‘rilikni talab etadi. Masalan, bir kishi do‘stiga ko‘p yaxshiliklar qilgan deylik: qiynalib qolganda uni samimiy qo‘llab-quvvatlagan, ko‘nglini ko‘targan, moddiy yordam berib turgan. Yaxshilik ko‘rgan kishi do‘stining bu yaxshiliklarini unutgani yo‘q, ammo yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga hali uning qurbi yetmaydi. Nima bo‘ldi-yu, do‘stining ko‘ngliga yoqmaydigan bir gap aytib, ranjitib ko‘ydi. Shundan so‘ng yaxshilik qilgan odam ko‘pchilik ichida: «Falonchiga shuncha yaxshiliklar qildim, bilmadi, nonko‘rlik qildi», – deb shikoyat qiladi. Shunda yaxshilik ko‘rgan odam xijolatda qoladi. «Nega o‘sha narsalarni oldim, deb afsuslanadi. Xalqimizda «Minnatli oshni it ham ichmaydi», – deb bekorga aytilmagan.

Bu o‘rinda do‘stiga yaxshilik qilgan odam andishasizlik qilyapti. Agar kishi odamgarchilikni, o‘zaro hamkorlikni, do‘stlikni bir yoqlama tushunsa, u do‘stini tez ranjitib qo‘yadi. Yordam ko‘rgan kishi hatto shu yordamni unutib qo‘yganda ham buni uning yuziga solish odobdan emas.

Har bir yaxshilik beminnat, beta’ma bo‘lganda ma’quldir. Aytadilarku, «Yaxshilik qil, suvga tashla, baliq biladi baliq bilmasa holiq biladi» deb, Vijdonan aytganda, do‘stining qilgan yaxshiligini bilish, unga minnatdorchilik izhor qilish, yaxshilik-ka yaxshilik bilan javob qaytarish yaxshilar ishidir.

***Hakim aytadi.*** Tashakkur – do‘stning qilgan yaxshiligini e’tirof etish, uning o‘ziga so‘zlab minnatdorlik bildirishdir. Tashakkurning g‘oyasi – yaxshilik qilgan kishining qilgan yaxshiligi tan olinganini, o‘rinsiz ketmaganini bilishi, yaxshilik qilgan kishiga uning himmatini, go‘zal axloqini e’tirof qilishdir. Yana bu munosabat fursat kelganda, sen ham unga yaxshilik qilishga shoshil, do‘stingning qilganiga yarasha qaytar deganidir.

Xo‘sh, shunday ekan, do‘st-o‘rtoqlarni ko‘paytirish uchun qanday muomala-munosabat lozim? Buning uchun kishi birov bilan do‘st-yor bo‘lsa yoki do‘st-yorlik da’vosini qilsa, o‘ziga ravo ko‘rmaganini unga ham ravo ko‘rmasligi kerak, ba’zi noxush narsalarni o‘ziga ravo ko‘rsa hamki, do‘stiga ravo ko‘rmasligi lozim.

***Rivoyat.*** Qadim zamonlarda bir mamlakatda ikki qalin va inoq do‘st bo‘lgan ekan. Ular zamona zayli bilan bir-birlaridan ajralishib, bir necha yillardan so‘ng yana uchrashib qolibdilar. Ulardan biri juda boyib ketgan, ikkinchisi esa faqir holda ekan. Faqiri qadrdon do‘sti bilan bir dildan suhbatlashmoqchi bo‘libdi. Badavlati esa do‘stini tanimay, kekkaygan holda undan: «Sen kimsan va nima uchun mening huzurimga kelding?»- deb so‘rabdi. Shunda faqir unga:- Men sening qadrdon do‘stingman. Seni ko‘r bo‘lib qolibdi deb eshitdim. Shuning uchun seni ko‘rgani kelgandim,- degan ekan.

Do‘stlik vafosi bilan go‘zaldir. Va’daga vafo qilish, hamdam, hamdard bo‘lish samimiy do‘stlikning belgilaridandir. Xalqimizda turli ma’rakalarni ko‘pchilik bilan birga o‘tkazish odati bor. Shunday kunlarda do‘stiga do‘stning yordami nihoyatda

zarur. Katta ma'rakalarda yoshlar qiladigan yumushlar ko'p bo'ladi. Shunday chog'da do'st xonadonida o'tayotgan ma'rakada xizmatini ayamagan o'g'il-qiz el hurmatiga sazovor bo'ladi (117-rasm).

117-rasm

***Bir donodan so'rashdi:-* Do'stlik ramzi nima?**

***Dono keksa aytdi: -*** do'stlik ramzi – dilkash va yelkadosh bo'lmoq, ammo, yana uning uch sharti bor: birinchisi - do'stlikni avaylamoq, ikkinchisi — uni ziyon-zaxmatdan saqlamoq, uchinchisi – yaxshi yomon kunda hamdam bo'lmoq. Do'stlik fazilatini bilganlar turmush ziynatini topadilar. Har bir kishi o'zining qayg'usi yoki shodligini ko'ngil tortar do'stiga aytib, yuragini yozgisi keladi. Do'st o'zining yupatuvchi so'zlari, oqil maslahatlari bilan do'stining dardini yengillashtiradi, shodligidan quvonadi.

Odamlar o'rtasidagi do'stlik ko'pincha ochiq ko'ngillilik, to'g'rilik, maqsad birligi va ana shu yagona maqsadga sodiqlik asosida mustahkamlanib kelgan. Do'stlar bir-birlariga hech vaqt xiyonat qilmasliklari va bir-birlarining sirlarini boshqa birovlarga aytmasliklari, o'zaro hurmat va ishonchni ardoqlashlari zarur.

Ayrim pedagoglarimiz turli xil ma'rakalarda yoshlarning ishtirok etishini yoqtirmaydilar. Aslida esa bunday yig'inlar yillar o'tib, yoshlarimiz boshiga ham tushadi. Shumi hisobga olib, bunday ma'rakalarni o'tkazishni, unda xizmat qilish odobini va do'stining g'amu shodligiga sherik bo'lishni yoshlar o'rganib borgani ma'qul.

**Hikmatli namunalar**

Tangriga iymon keltirishdan keyingi amallarning afzali bu odamlar bilan do'stlashish, ya'ni solih amallar qilishdir.

Oliy himmatli, mard odam bir lahzada do'st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnoligini bir lahzada barbod qiladi.

Bir-birlaringizga ehson qilinglar, chunki ehson muhabbatni oshiradi va dildagi g'ashliklarni yo'qotadi.

Odamlar bilan do'stlashish aqlning yarmiga teng.

Sir saqlash – til ostiga cho'g' olib turishdan ham mashaqqatliroqdir.

Kishi birodari uchun hikmatli so'zdan afzalroq narsa hadya qilolmaydi. Chunki shu hikmat sababli Tangri uni to'g'ri yo'lga solib qo'yadi yoki yomon yo'ldan qaytaradi.

Do'stlarning hasadi dushmanlarning xusumatidan yomondir.

Hisobli do'st ajralmas.

Inson qo‘lga kiritgan o‘ljalaridan eng xayrlisi samimiy do‘stliklar.

Shunday qilib, hayot tajribalari do‘stlikni mustahkamlovchi quyidagi omillarni vujudga keltirdi (118-rasm).

Aybsiz do‘st qidirgan kishining do‘sti kamayib qoladi, do‘stlarini ranjitaversa, dushmani ko‘payadi.

*Uch narsa do‘stlikni mustahkamlaydi:* do‘stlarning bir-birlarini ziyorat qilib turishlari, samimiy suhbatlashishlari va birgalashib sayru sayohat qilishlari.

Davlatli, ne’matli bo‘lgan vaqtingizda do‘stlarni yodga oling.

Dushmaningizni kichik deb hisoblamang. Agar dushmaningiz do‘st bo‘lmoqchi bo‘lsa, andisha qilmang.

Do‘st g‘am va kulfat vaqtida ma’lum bo‘ladi.

118-rasm

**Shunday qilib, hayot tajribalari do‘stlikni mustahkamlovchi quyidagi omillarni vujudga keltirdi:**

1) o‘zaro hurmat va ishonch;
2) do‘stga sodiqliq;
3) zarur paytda bir-biridan moddiy va ma’naviy yordamini ayamaslik;
4) kamchiligini yotig‘i bilan o‘ziga aytib tuzatish;
5) do‘st sirini saqlay olish;
6) do‘stning shodligidan quvonish, tashvishiga sherik bo‘lish;
7) maqsad birligi;
8) o‘zaro (munosabatda samimiylik, ziyraklik, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik;
9) bir-birini yurakdan quvontirishga intilish

Faqirlarni do‘st tuting, chunki davlatmandlarni shundoq ham barcha do‘st tutadi.

Kimki do‘stlarining dushmanlari bilan sulh qilsa, do‘stlariga ozor bergan bo‘ladi.

Do‘stu dushman bilan muomalada ehson yo‘lini tutki, do‘stlarning mehru-muhabbati ortadi, dushmanlarning adovati kamayadi.

Do‘stlar dilini ranjitish dushmanni murodiga yetkazishdir.

Hayot ta’mi do‘stlikdadir.

Faqat maslahat berib, qo‘lini cho‘zmaydigan do‘st yarim do‘stdir.

Do‘st tutishdan oldin u bilan avval tuz-namak bo‘l.

Baxt do‘stlik keltirsa, baxtsizlik uni sinovdan o‘tkazadi.

Mehmondorchilik qancha qisqa bo‘lsa, do‘stlik shuncha uzayadi.

Vijdoni nopok odamlar bilan do‘st tutinma. Sovib qolgan do‘stlikni isitib bo‘lmas. Atrofingni devor bilan emas, do‘stlar bilan o‘ra. Jag‘lar birlashib dars bo‘lar.

Daraxt – shoxsiz, shon-shuhrat – safdoshsiz, do‘stsiz bo‘lmaydi.

Daraxt – daraxtga, odam - odamga suyanadi. Do‘stlik – umr bahorining guli. Do‘stlik o‘limni yengadi.

Do‘stlik – bebaho boylik, durdona. Bu ko‘ngil boyligini ko‘z qorachig‘idek saqlashimiz, qadrlashimiz lozim. Do‘stlikda qadrlanadigan tomonlar: o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish, ishonishdir. Do‘st bilan birga bo‘lib, o‘ziga ma’naviy oziq olish, lozim bo‘lganda do‘stdan moddiy va ma’naviy yordamini ayamaslik, uning muvaffaqiyatidan quvonish, qayg‘usiga sherik bo‘lish, xato-kamchiliklarini yuziga aytib tuzatish, do‘stning sirini oshkor etmaslik, do‘stlikning qadriga yetish kabilardir. Do‘stlikning buzilishiga olib keluvchi sabablar: munofiqlik, g‘arazgo‘ylik, soxtalikdir.

## 16-mavzu. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYA METODLARIDAN FOYDALANISH

### REJA:

1. Tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari
2. Tarbiyada ijobiy namuna va ibrat ko‘rsatish metodlaridan foydalanishning ahamiyati
3. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlarining tutgan o‘rni
4. Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlash

### TAYANCH IBORALAR:

O‘quvchi-talabalar, tarbiya, tarbiya metodlari, ijobiy namuna, ibrat ko‘rsatish, shaxs, tarbiyaviy ishlar, shaxs ongi, his-tuyg‘usi, irodasi, munosabatlari, o‘zbek xalq pedagogikasi, tarbiya jarayoni,

### 1. Tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari

Tarbiya metodlari deganda shaxsni har tomonlama shakllantirish maqsadida shaxsning ongi, his-tuyg‘usi, irodasi va munosabatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatish tushuniladi.

Tarbiya metodlari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Yevropada tarbiya metodlarining bir tizimi qabul qilingan bo‘lsa, Markaziy Osiyoda boshqa tizim amalda qo‘llaniladi. Yevropa mamlakatlari uchun “Ochiq tarbiya” ko‘proq qo‘l keladi. Ya’ni bola nima xohlasa shuni qilishi, katta-kichik oldida nimani xohlasa shuni gapirishi, xoh o‘zidan kattani, xoh ota-onasini xohlagan joyida tanqid qilishi mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan, O‘zbekistonda ko‘proq paternalistik tarbiya elementlari qo‘llaniladi. Bunday tarbiya tizimining o‘ziga xosligi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish bilan birga o‘zidan kattaga alohida hurmat,

kattalar gapiga quloq osishlik, rahbariyatning fikrini va topshirig‘im topshirig‘ini so‘zsiz bajarish, nogironlarni ijtimoiy himoyalash kabilar yotadi.[28]

Ma’lumki, ajdodlarimiz davr sinovidan o‘tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarmizni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Yosh avlodda insoniy his-tuyg‘ularni tarbiyalashning asosi – kishilarga mehr-muhabbat qo‘yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarini himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o‘z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol, rostgo‘y bo‘lish kabi odob va axloq qoidalarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbek xalq pedagogikasining muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlaridan yana biri xalq og‘zaki ijodi materiallarida xalq pedagogikasida qo‘llaniladigan tarbiya yo‘llari, usul va vositalarining yoritilishidir. Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalangan. Chunonchi, tushuntirish, odatlantirish (o‘rgatish va mashq qildirish), bolalarning kundalik hayot tartibi, ibrat ko‘rsatish, maslahat berish, o‘git-nasihat, undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, ma’qullash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash, ta’qiq qilish, man etish, ta’na, gina qilish, qoralash, Allohdan qo‘rqishga undash, tanbeh berish, uzr so‘rash, majbur qilish, masxara-mazax qilish, zaxarxandalik, ayblash, uyaltirish, koyish, qarg‘ash, qo‘rqitish, nafrat bildirish, aybiga iqror qildirish, ont-qasam ichirish, la’natlash, so‘kish, urish-kaltaklash; jamoa hukmiga havola qilish kabi usullar tarbiyada qo‘l kelganligi ta’kidlanadi.

Tarbiya jarayoni murakkab bo‘lib, o‘quvchi-talabalar xulqidagi ijobiy fazilatlarni tarkib toptirib borish bilan birga, salbiy holatlarni va odatlarni yo‘qotib borishni taqozo etadi. Mahoratli pedagoglar-o‘qituvchilar o‘quvchi-talabalardagi bu fazilatlarni hisobga olib, tarbiyalashda turli xil usul va vositalardan foydalanadi. Tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanadigan metodlar muhim ahamiyatga ega.

**Tarbiya metodlari** – pedagog-o‘qituvchilarning o‘quvchi-talabalarga ta’sir ko‘rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo‘llaridir. Ayni vaqtda tarbiya mazmunini ko‘p qirraliligi tufayli tarbiya metodlari ham xilma-xil bo‘lib, ulardan qaysi birini tanlash tarbiyaning qaysi jihatlari olib borilayotganligiga bog‘liq. Albatta, tarbiya jarayonining qandaydir bosqichida metod ba’zan ajratib olingan holda alohida qo‘llanilishi mumkin. Biron-bir tarbiya metodidan foydalanish aniq pedagogik sharoitga hamda o‘quvchi-talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga ham bog‘liq.

Bu boradagi vazifalar yosh avlodni O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustaqkamlash, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida faoliyat olib boruvchi faol va barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g‘oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib, ish ko‘rish lozim bo‘ladi.

---

[28] N.Atayeva va b. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O’quv qo’llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 936 bet.

Tabiya metodlari o‘quvchi-talaba shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarbiyaviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta’lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi

Tarbiya metodlari bu o‘qituvchi (tarbiyachi)lar va jamoa tomonidan g‘oyaviy va ma’naviy e’tiqodlarni, ma’naviy his-tuyg‘u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llari demakdir. Tarbiya metodlari o‘quvchi-talaba (tarbiyalanuvchi)larning o‘z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois, hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari pedagog-o‘qituvchilar va o‘quvchi-talabalarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o‘zaro bog‘langan birgalikdagi faoliyati sifatida qarab chiqiladi. Demak, tarbiya ikki tomonlama jarayon bo‘lib, pedagog-o‘qituvchilar (tarbiyachilar) faoliyati bilan o‘quvchi-talabalarning faoliyatini birlashtiradi.

O‘quvchi-talabalarning tarbiyaviy ta’sirga faol tayyor bo‘lishiga erishish uchun buni muayyan sharoitga qo‘yish, uning faol faoliyatini tashkil etish lozim. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning muvofiq tashkil etilgan metodik yo‘llari tarbiya vositalari deb yuritiladi. O‘quvchi-talabalar bilan tarbiyaviy ishlarda foydalaniladigan televidenie, radio, kitoblar, gazeta-jurnallar va hokazolar tarbiyalanuvchi shaxslar jalb qilinadigan faoliyat turlari tarbiya vositalari hisoblanadi.

Pedagog-o‘qituvchilarning jonli nutqi, shaxslarning o‘yinlari, jamoatchilik, havaskorlik va texnik to‘garaklari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Ammo tegishli tarbiyaviy jarayonni tashkil etish uchun ularni albatta, murabbiy-pedagog ishining muayyan tizimiga kiritish kerak. Tarbiya natijasining samarali bo‘lishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tarbiya metodlari, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga va ularni qo‘shib olib borishga bog‘liqdir. Zero, tarbiya metodlari, vositalari va shakllaridan foydalanishning maqsadi va mazmuni barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

O‘quvchi-talabalar u yoki bu tarbiyaviy ta’sirga turlicha munosabatda bo‘ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o‘rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo‘llanganiga bog‘liq.

Tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o‘quvchi-talabalarning o‘zini-o‘zi tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchi-talabalari bilan ishlash jarayonida o‘quvchi-talabalarni mehnat faoliyatiga, xulq-atvor qoidalariga o‘rgatishda ularda kun tartibi aniq bo‘lishi

muhimligini, ularga o‘quvchi-talabalarning qat’iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda dars xonasiga to‘g‘ri kirib kelish, ularni o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlash qoidalarini mashq qildirib, dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o‘quv ishi natijalari rag‘batlantirib borishni taqozo etadi. O‘quvchi-talabalar topshiriqlarni to‘g‘ri bajarganda ma’qullash, maqtash kabi ta’sir vositalaridan, topshiriqlarni bajarmagan, beparvolik qilgan, ishlamagan va ularni oxiriga yetkazmagan o‘quvchi-talabalarga tanbeh berish metodlarini qo‘llay boshlaydi. Tarbiya metodlarining tavsiflanishi 119-rasmda ifodalandi (119-rasm).

Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi o‘quvchi-talabalar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko‘rsatadi. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o‘qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o‘zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

119-rasm




**Birinchi guruh metodlarining** vazifasi o‘quvchi-talabalarning ijtimoiy ongida hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me’yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me’yorlar o‘quvchi-talaba shaxsining e’tiqodi, ishonchi, hayotiy qarashlari va tajribasiga aylanadi. Ushbu guruhga ma’naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko‘rsatish metodlarini kiritish mumkin.

**Ikkinchi guruh metodlarining** yordamida o‘quvchi-talabalarda ma’naviy mazmunga oid odatlar hosil qilinadi. O‘quvchi-talabalar xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma’naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o‘quvchi-talabalarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari

orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarning bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib, bajarilishi zarur boʻlgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi boʻlishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qoʻyilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki koʻrsatma, ishchanlik, yoʻl-yoʻriq beruvchi tavsifdagi koʻrinishda boʻladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuygʻusini uygʻotishi koʻzda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatga nisbatan qiziqish uygʻotish tarzida namoyon boʻladi. Talablar oʻquvchi-talabalarda u yoki bu daraja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda oʻqituvchi oʻquvchi-talabalarga nisbatan qoʻyiladigan talablarning me'yorda boʻlishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Oʻqituvchi tomonidan qoʻllanilayotgan talablar bora-bora jamoat talabiga aylanadi. Jamoat talabi ijtimoiy fikr tarzida namoyon boʻladi. Jamoa (jamoatchilik) fikri oʻzida jamoaning muayyan faoliyati, voqea-hodisaga nisbatan beriladigan bahona yoki muhokama natijasini ifodalaydi va faol ta'sir kuchi boʻlib qoladi.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga oʻrgatib boriladi. Oʻrgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida oʻquvchi-talabalar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

Oʻrgatish oʻquvchi-talabalarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda oʻzaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Mashq qilish oʻrgatish bilan yaqin aloqada boʻladi. Agar oʻrgatib borish negizida oʻquvchi-talabalarning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish oʻrgatib borishga suyangan holda koʻp bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi boʻlib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda koʻpincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tugʻiladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon boʻladi. Pedagogik vaziyatlarda oʻquvchi-talabalar oʻz fikri va xulq-atvorini qayta oʻzgartirishi lozim boʻlgan sharoit yaratiladi. Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa oʻquvchi-talabalar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida oʻquvchi-talabalarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, oʻquvchi-talabalar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yoʻnaltirishga koʻmaklashadi. Musobaqa toʻgʻri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va oʻquvchi-talabalarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqa alohida turlar boʻyicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab, akademik litsey, kasb-hunar ta'lim muassasai, oliy oʻquv yurti va h.k.

Tarbiya jarayonida oʻquvchi-talabalarning oʻzlari tashabbus va gʻayrat koʻrsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va koʻrsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy

muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishni ta’minlash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish zarur. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo‘lib qolishi lozim.

***Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini*** o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki o‘qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o‘quvchi-talabalarning ongi, xulqiga ta’sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko‘ra olishiga bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi o‘quvchi-talaba tarbiya natijasida komil inson darajasiga, ya’ni jamiyatning barkamol a’zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o‘zida shakllantirib borishi lozim.

***Uchinchi guruh metodlariga*** shunday metodlar kiradiki, bulardan tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirish, jazo berish va salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg‘ulari va maqsadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishda foydalaniladi.

***To‘rtinchi guruhga*** o‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari kiradi.

Ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqni shakllantirish metodlari o‘quvchi-talabalarning ongi, his-tuyg‘usi, xulqi va odobiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishni o‘z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy ongni va axloqni shakllantirish metodlari – tushuntirish, uqtirish, ishontirish, o‘git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, suhbat va hikoya shakllaridan iboratdir (120-rasm).

120-rasm




**Tushuntirish metodidan ko‘zlangan asosiy maqsad** – o‘quvchi-talabalarga voqea-hodisalar mohiyatini va shaxs xatti-harakatlari, u yoki bu talablarning

ma'naviy-axloqiy va estetik tavsifini ochib berish, ularda shaxs xulq-atvoriga, odob-axloqiga va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishdir. Masalan, ota-onalarni va kattalarni hurmat qilish, ularga xushmuomalada bo'lish, ko'chada va jamoat joylarida yurganda tartib-qoidalarga bo'ysunish hamda jamoat tartibini saqlash qanday bajarilishi ham aniq qilib tushuntirilishi lozim.

**Uqtirish**. Uqtirish biror axloqiy fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan o'qib olinishini ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchilar va tarbiyachilar o'quvchi-talabalarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini va zarur ekanini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. «O'qigandan uqqan yaxshi» degan xalq maqolida ilgari surilgan fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga yoshlikdan singdirish lozim.

**Ishontirish metodlari.** O'quvchi-talabalarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda eng ko'p qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri ishontirish metodidir. Ishontirish deb, o'quvchi-talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter va xulqlaridagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida ularning ongi, tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatishga aytiladi. Ishontirish metodi o'quvchi-talabalarni ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda va ularning xarakterini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi ishontirish metodini birgina o'quvchi-talabalargagina emas, balki butun jamoaga ham qo'llashi mumkin.

Ishontirish metodi o'quvchi-talabalar jamoasida sog'lom jamoatchilik fikrini vujudga keltirishga yordam beradi, axloq normalariga, axloq qonun-qoidalariga va ayrim o'quvchi-talabalarning xatti-harakatlariga tengdoshlari tomonidan to'g'ri baho bera bilishni tarbiyalaydi.

Demak, ishontirish metodida o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar o'quvchi-talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy, intellektual va boshqa ijobiy xislatlarni shakllantiradi, salbiy illatlarni kamaytiradi, yo'qotadi.

O'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar o'zi aytayotgan, o'zi uzatayotgan axborotga o'quvchi-talabalarni ishontira olsagina, ularni o'z orqasidan ergashtira oladi, o'quvchi-talabalarni bilim olishga, aqliy faoliyatga chorlay oladi. O'qituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar o'quvchi-talabalarni ishontirish uchun turli usul va vositalardan foydalanishi mumkin. Jumladan, ishontirish metodi qo'llanilganda tushuntirish, uqtirish, o'git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, suhbat, ma'ruza va munozaralar kabi shakllardan foydalaniladi.

O'git-nasihat haqidagi ma'lumotlar 121-rasmda ifodalandi (121-rasm).

**Maslahat berish.** Maslahat biror voqea-hodisa ro'y berganida, ishda, shaxsni xatti-harakatida, xulq-atvorida qanday qilsa yaxshi bo'lishi haqida fikr berish demakdir. Har bir shaxs, ayniqsa, o'quvchi-talabalar bir ishni boshlashdan avval bu ish haqida kattalarning, ayniqsa, o'qituvchi-pedagogning fikrini bilishni istaydi. Yoki biror ishda, harakatda qiyinchilik tug'ilib qolsa, shu qiyinchilikni yengish yo'lini topish maqsadida o'qituvchi-pedagoglardan maslahat so'raydi. Bunday maslahat olish o'quvchi-talabalar hayotida tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun o'quvchi-

pedagoglar va tarbiyachilar o‘quvchi-talabalardagi bu xususiyatdan tarbiya maqsadida mohirlik bilan foydalanishlari kerak.

121-rasm

**O‘git-nasihat**

O‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda tajribada sinalgan va xalqimiz tomonidan doim qo‘llanib kelingan o‘git-nasihatdan ham foydalanmoq kerak. O‘qituvchi-pedagoglarning yoshlarga o‘z tajribalari, ko‘rgan-bilganlari va o‘qiganlarini dalillar, konkret misollar bilan, ishonarli qilib aytib berishlari, yaxshi fe’l-atvorga, odobga va axloq qonun-qoidalarini bajarishga da’vat etish, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishga o‘git-nasihat deyiladi. Nasihat qilmoq o‘quvchi-talabalarni yaxshilik tomon yo‘llamoq, yaxshi fazilatlarni egallashda ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmoq demakdir. O‘git-nasihat o‘quvchi-talabalarga yakka holda va guruh-guruh qilib berilishi mumkin

Shuni ham aytish kerakki, o‘quvchi-talabalarning hammasi ham biror ish qilganda yoki biror ishni boshlashdan oldin hamma vaqt ham maslahat olishga jur’at etmaydi. Bunday vaqtlarda o‘qituvchi-pedagoglar yoki tarbiyachilar o‘quvchi-talabalarni maslahat olishga rag‘batlantirmog‘i kerak. Maslahatni ham o‘quvchi-talabalarning mustaqil bo‘lishlariga yordam beradigan qilib berish kerak.

Buyruq va talab haqidagi ma’lumotlar 122-rasmda ifodalandi (122-rasm).

122-rasm

**Buyruq va talab**

Buyruq qat’iy amr-farmon shaklida ifodalangan talabdir. Tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalar oldiga davlatimiz hamda ota-onalar tomonidan qo‘yilgan muayyan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishmoq uchun talab etish va buyruq berish kabi vositalardan ham foydalaniladi. O‘quvchi-talabalardan talab qilinadigan talablar hamda ularga beriladigan amr-farmon va buyruqlar aniq, ravshan, tushunarli, muayyan maqsadga qaratilgan ham qat’iy bo‘lishi kerak

Buyruq qat’iy amr-farmon shaklida ifodalangan talabdir. Tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalar oldiga davlatimiz hamda ota-onalar tomonidan qo‘yilgan muayyan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishmoq uchun talab etish va buyruq berish kabi vositalardan ham foydalaniladi. O‘quvchi-talabalardan talab qilinadigan talablar hamda ularga beriladigan amr-farmon va buyruqlar aniq, ravshan, tushunarli, muayyan maqsadga qaratilgan ham qat’iy bo‘lishi kerak.

Har bir buyruq yoki talabning maqsadi o‘quvchi-talabalarga tushunarli bo‘lsin. O‘quvchi-talabalar bu buyruq yoki talabni nima uchun bajarishlari zarurligini yaxshi anglashlari lozim. Shu bilan birga, ular yaxshi va puxta o‘ylab berilishi lozim. O‘quvchi-talabalar oldiga qo‘yilgan buyruq va talabning albatta bajarilishiga erishish kerak. Agarda qo‘yilgan talablar va beriladigan buyruqlar qat’iy bo‘lmasa, o‘quvchi-talabalarning bajarish imkoniyati susayadi. Bunday buyruqlar bajarilmay qoladi. Shuning uchun buyruq va talab qat’iy bo‘lishi lozim.

Agarda buyruq yoki talabni o‘quvchi-talabalar bajarmasalar, darhol tegishli tadbirlar ko‘rish kerak. O‘qituvchi-pedagog, tarbiyachi va ota-onalar o‘z buyruq va talablarining o‘quvchi-talabalar tomonidan bajarilmay qolishiga befarq qarasalar, ular keyingi talab va buyruqlarni ham bajarmaydilar, oqibatda o‘quvchi-talabalar mas’uliyatsizlik, intizomsizlik va tartibsizlikka o‘rganadilar. Oilada va ta’lim muassasalarida yoshlarga beriladgan har bir buyruq yoki talab o‘quvchi-talaba shaxsining yoshi, imkoniyati, kuchiga qarab berilishi hamda shu buyruq va talablar o‘quvchi-talabaning tarbiyasiga yordam berishi kerak.

**Iltimos va istak**. Iltimos, o‘tinch, so‘rov bilan o‘quvchi-talabalarga murojaat etish, ularga va ular kuchiga bo‘lgan ishonchni ifodalaydi. Shuning uchun ham sinfga, guruhga yoki ayrim o‘quvchi-talabaga biror ishda yordam berishlarini iltimos qilinganda ularga ma’qul tushadi, ularning faolligini safarbar qiladi va buni yoshlar bajonidil bajaradilar. Iltimos o‘quvchi-talabalarning kuchiga ishonish va hurmat etishga asoslanadi. Iltimos yoki so‘rash xushmuomalalik va nazokat bilan amalga oshiriladi. Masalan, «Akbarxon, shu kitobni Burxonga eltib berishingni so‘rayman», «Erkin, Vali bilan dars tayyorlab, unga yordam berishingni iltimos qilaman». Bulardan tashqari, iltimosni istak bilan qo‘shib muomala qilishi mumkin. Masalan, «Umarjon, kitobingizning muqovasiga qog‘oz o‘rab olsangiz yaxshi bo‘lar edi», yoki «Do‘stlar, hozir dam olsak qanday bo‘lar ekan?», «Qariyalarga yordam bersangiz, ular xursand bo‘ladilar», «Men shu kitobni o‘qib chiqishingizni istar edim». Istak, xohish bildirish o‘qituvchi-pedagoglarning o‘quvchi-talabalarga nisbatan muhabbati va ishonchini bildiradi. Bunday muomalani ko‘rgan o‘quvchi-talabada ham o‘qituvchi-pedagog yoki tarbiyachiga nisbatan hurmat va ishonch ortadi. Shu bilan birga bunday muomala, o‘quvchi-talabalarni nazokatli, bir-birini hurmat qiladigan, xushmuomala bo‘lishga o‘rgatadi.

**Hikoya – suhbat.** O‘qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilarning jonli so‘zi asosida o‘quvchi-talabalar shaxsini g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy shakllantirishning ta’sirchan metodi hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu o‘quvchi-talabalar uchun dolzarb, shaxsni ma’naviy ishonch, ijobiy his-tuyg‘ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, o‘qituvchi-pedagog boshqa sinf yoki guruh jamoasi barcha fanlardan “a’lo” baholarga o‘qiyotganligini va tartib-intizomi yaxshiligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligini o‘quvchi-talabalarning qanday

tinglayotganiga qarab, tekshirish mumkin. Agar oʻquvchi-talabalar “Biz ham oʻqishda va intizomda namuna-ibrat boʻlamiz!” – degan umumiy istak bildirsa, demak, oʻqituvchi-pedagogning hikoyasi oʻquvchi-talabalar ongiga yetib borgan va bunga javoban oʻqish va intizomda maqsad yoʻlida faoliyat koʻrsatishga tayyorgarlik tuygʻusini keltirib chiqaradi.

**Suhbat** – oʻquvchi-talabalarni maʼnaviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda keng qoʻllanib kelinmoqda. Suhbat vaqtida oʻquvchi-talabalar passiv tinglovchilar emas, balki muhokama qilinayotgan mavzular boʻyicha faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida oʻqituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning shaxsiga xos xususiyatiga, tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. Oʻtkazilayotgan suhbat oʻquvchi-talabalar uchun ahamiyatliligi hisobga olinishi zarurdir. Yangi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchilarni oʻylashga, mazkur masala boʻyicha oʻz bilimlarini orttirishga yordam beradi. Oʻqituvchi-pedagogning oʻzi qanchalik kam gapirsa, oʻquvchi-talabalar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan barobar ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatli olib boriladi.

Suhbat natijasida qabul qilingan axloqiy meʼyor keyinchalik oʻquvchi-talabalar xulq-atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim. Va keyingi davrga moʻljallangan oʻz xulq-atvorini kuzatishlar bilan bogʻliq boʻlgan topshiriqlar berish imkoniyati tugʻiladi.

Oʻquvchi-talabalarda yaxshi odob-axloq koʻnikmalarini shakllantirishda mashq qildirish metodining ahamiyati katta. Bunda oʻquvchi-talabalar maʼlum bir faoliyat boʻyicha biron bir vaziyatga qoʻyilib, ayrim harakatlarni takroran bajaradilar. Mashq harakatlari takrorlash boʻlib, axloqiy koʻnikma, malaka va odat hosil qilish maqsadida oʻquvchi-talabalarning maxsus uyushtirilgan faoliyatidir. Mashq qildirish metodi taʼlim jarayonida ham ishlatiladi, ammo tarbiyadagi mashq taʼlimdagi mashqdan biroz farq qiladi. Tarbiyadagi mashqda oʻquvchi-talabalar bir xil mashqni turli sharoitlarda qoʻllaydi. Masalan, maʼnaviy-axloqiy mashqlar hayotning turli vaziyatlarida qoʻllaniladi, intizomlilar dars paytida ham, tanaffusda ham, ijtimoiy axloqni shakllantirishda ham bir xilda talab etiladi.

Maʼnaviy-axloqiy mashqlar keng maʼnoda turmushni baholash faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil etish jarayonidir. Mashq va odatlantirish tarbiyalanuvchilar uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq qildirish natijasida oʻquvchi-talabalarning oʻquv malaka va koʻnikmalari, aqliy qobiliyati rivojlanadi, maʼnaviy-axloqiy qarashlari boyiydi.

Mashq qildirishning asosiy metodi faoliyatda mashq qildirishdir. Bunday mashqlarning mohiyati, oʻquvchi-talabalar uchun aniq oʻquv faoliyatini tashkillashtiradi va shu faoliyatda ishtirok etish orqali oʻquvchi-talabalarda xulq-atvor normalari va qoidalariga muvofiq ravishda odob-axloq normalari shakllana boradi

Oʻqituvchi-pedagog oʻquvchi-talabalarni oʻqitilayotgan fan boʻyicha birinchi darsdanoq yangi fan olamiga olib kiradi. Oʻquv faoliyati fan toʻgʻrisidagi

tushunchadan boshlab asosiy qonuniyatlar, iqtisod va ishlab chiqarish jarayoni to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan asta-sekin kengayib boradi. Bu faoliyat ularning o‘sib boruvchi qiziqishlarini qanoatlantirishi, ijtimoiy foydali xarakterda bo‘lishi bilan tarbiya vazifalarini bajarish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mashq qilishning yana bir ko‘rinishi bu muntazam ravishda o‘quvchi-talabalarni tarbiyaga o‘rgatish mashqlari hisoblanadi. Tarbiya o‘quvchi-talabalarni faqatgina o‘quv mehnatini bajarishgagina qaratilmay, balki ularda uyushqoqlik, intizom, sabot, iroda, odat ko‘nikmalarini hosil qilishga ko‘maklashadi. O‘quv-tarbiya jarayonida topshiriqlar tizimi alohida o‘rin tutadi. Topshiriqlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi uchun o‘quvchi-talabalar topshiriqlarning ijtimoiy ahamiyatini, muhimligini, zarurligini tushunishlari kerak.

Shunday qilib, o‘quvchi-talabalarda ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘ulari va irodasiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishda qo‘llaniladigan tarbiya metodlarining roli kattadir.

## 2. Tarbiyada ijobiy namuna va ibrat ko‘rsatish metodlaridan foydalanishning ahamiyati

O‘quvchi-talabalarning barkamol inson bo‘lib rivojlanishida turli ta’sirlar, o‘quv jarayoni va boshqa vositalardan tashqari o‘qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilarning hamda ko‘pchilikning hurmatiga sazovor bo‘lgan kishilarning shaxsiy ibrat-namunasi ham katta ahamiyatga ega. Yoshlar to balog‘at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar ko‘pchilik sharoitlarda bilish, o‘rganish jarayonida asosan, o‘qituvchi-pedagoglarga, ota-onalar va qo‘ni-qo‘shnilarga, kattalarga, badiiy asarlarning qahramonlariga taqlid qilishadi. O‘quvchi-talabalar kattalar tajribasini o‘zlashtira borar ekan, ko‘pincha o‘zi hurmat qiladigan, o‘zi yoqiradigan o‘qituvchi-pedagogning talaffuziga, odob-axloqiga, o‘zini tutishiga taqlid qiladi. **Taqlid** ularda birmuncha tanlash xarakteriga ega bo‘lib, ularni boshqa kishilarning xulq-atvoridagi ma’lum ijobiy xislatlari o‘ziga jalb qiladi.

Yoshlikdagi taqlid va ishtiyoq doirasi namuna-ibrat yordamida kengayib boradi. Taqlid qilish uchun ijobiy namuna-ibratlarni tanlashda g‘oyaviy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy omillarning ahamiyati kattadir. O‘quvchi-talaba shaxsining ruhiy va ma’naviy-axloqiy rivojlanishi uchun “ulkan maqsad” bilan birga “ijobiy shaxsiy namuna” kerak bo‘ladi. Tarbiyalanuvchi shaxsiga ta’sir etishning obyektiv yo‘li shaxsga shaxs orqali, ya’ni o‘qituvchi-pedagogning ijobiy shaxsiy namunasi orqali ta’sir etishdir. O‘quvchi-talabalar o‘zlari yoqtiradigan shaxsga taqlid qilish natijasida o‘zlarini mag‘rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikiday tuyuladi. Taqlid qilishni moslashish (adaptatsiya) tushunchasi bilan aralashtirish yaramaydi. O‘quvchi-talabalar kimlargadir taqlid qilishi va havas qilishi mumkin, bu ijobiy xislat. Birinchidan, taqlid qilish orqali o‘quvchi-talabalarning o‘z tajribasi qo‘shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo‘la boshlaydi. Ikkinchidan, yoshlar yetuklasha borishi bilan taqlid qilish jarayoni ham o‘zgara boradi. Endi taqlid qilinayotgan xislatlar tanalanadi.

Tarbiya jarayonida bevosita sinf yoki guruhda ta’lim olayotganlarning ichida fanlardan yaxshi va a’lo o‘zlashtiruvchilar, odobli va intizomli o‘quvchi-talabalar

namuna sifatida ibrat qilib ko‘rsatilishi mumkin. Bunda juda ham ehtiyotkorlik bilan ish tutish talab etiladi. O‘quvchi-talabalarning ismi, sharifi (familiyasi)dan ko‘ra ko‘proq ibratli xulq-odobi, ibratli ishlariga e’tibor qaratilishi yaxshi natijalarga olib keladi. Aks holda sinf yoki guruhdagi o‘quvchi-talabalarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yilishi guruhbozlik boshlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘quvchi-talabalarning taqlid qilishga moyilligi ko‘pincha salbiy odatlarni ham o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Ba’zan o‘quvchi-talabalarni o‘quv muassasasi ichki tartibini buzuvchilar, ularning qo‘polligi, soxta jasurligi jalb qiladi. Ota-onalar va o‘qituvchi-pedagoglar yoshlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘rtoqlari bilan aloqa qilishini ta’qilasa, bu aksincha, tarbiyalanuvchining hali o‘rtoqlari bilan birga bo‘lish istagini yanada kuchaytiradi. Eng muhimi, yomon odatlar ta’siriga ijobiy namuna-mbratni qarama-qarshi qo‘yish, oila va ta’lim muassasasi muhitida tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish kerakki, toki bu faoliyat tarbiyalanuvchiga zerikarli, mazmunsiz majburiy bir narsa bo‘lib tuyulmasin.

## 3. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlarining tutgan o‘rni

**Rag‘batlantirish metodi** biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta’sirini kuchaytirish hamda o‘quvchi-talabalarning shaxsini rivojlantirish va ijobiy xatti-harakatlarini faollashtirish va baholash maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida milliy mafkuraning g‘oyaviy ma’nosi sifatida o‘quvchi-talabalar shaxsida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Shuning uchun ham tarbiyadagi rag‘batlantirish va jazolash metodi o‘quvchi-talabalardagi ijobiy xislatlarni rivojlantirishda, ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo‘lmog‘i lozim.

Rag‘batlantirish va jazolash metodida o‘quvchi-talabalar shaxsi emas, balki ayni vaqtdagi xatti-harakatlari, qiliqlari, tarbiyalanuvchining individual xususiyati, hodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab-oqibatlar nazarda tutiladi. Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchilarga quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag‘ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, o‘z faoliyati va xulqiga mas’uliyatini oshiradi.

Rag‘batlantirish yoshlarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Rag‘batlantirish o‘quvchi-talabalarning ruhini ko‘taradi, ularni tetiklantiradi, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi, xulqi va xatti-harakatida yangidan-yangi muvaffaqiyatlarga erishishga otlantiradi va ularga ma’naviy oziq beradi. O‘quvchi-talabalarning har bir yaxshi xulqini o‘z vaqtida rag‘batlantirish katta ahamiyatga egadir. O‘z xulqiga ijobiy baho berilganini va ma’qullanganini ko‘rgan o‘quvchi-talaba quvonadi, yana ham yaxshi xatti-harakatlar sari intiladi. Rag‘batlantirishning shakllariga ma’qullash, ko‘nglini ko‘tarish, ishonch bildirish, maqtash, mukofotlash, qayd qilish, og‘zaki va yozma tashakkur bildirish kabilarni kiritish mumkin

Rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim. Har qanday rag‘batlantirish o‘quvchi-talabaning jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Rag‘batlantirish vaqtida o‘quvchi-talabaning jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u ketma-ket bo‘lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo‘shashtirib yuborishga, o‘quvchi-talabada manmanlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Rag‘batlantirishda o‘quvchi-talabaning muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o‘rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o‘ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi. Oila, ta’lim muassasasi va o‘qituvchi-pedagoglar jamoasi o‘rtasida o‘quvchi-talabalar shaxsiga va ularning xulqiga baho berishda bir xil talab bo‘lishi nihoyatda zarurdir. Zero, tarbiyalanuvchining xulqiga baho berishda o‘quvchi-pedagog o‘rtasida kelishmovchilik chiqmasligi uchun o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachilar haqqoniy baho berishi kerak.

**Ma’qullash**. Rag‘batlantirishning eng ko‘p tarqalgan shakllaridan biri o‘quvchi-talabalarning muvaffaqiyati va yaxshi xulq-atvorini ma’qullashdir. O‘qituvchi o‘quvchi-talabalarning xulqini ma’qullaganda bu xulq va xarakterni yanada takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatib bermog‘i kerak. Bosh qimirlatish, tabassum, yuz va qo‘l harakatlari, «balli», «barakalla» kabi so‘z va imo-ishoralar bilan o‘quvchi-talabalar xatti-harakatlari ma’qullanadi. Ko‘ngil ko‘tarish, dalda berish, o‘qish va intizomda yaxshi natijalarga erishmagan va bunga intilayotgan, harakat qilayotgan o‘quvchi-talabalarning ko‘nglini ko‘tarish katta ahamiyatga egadir. Ko‘ngil ko‘tarish tarbiyalanuvchilarga kuch bag‘ishlaydi va ularda optimizmni o‘stiradi va ularning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi.

O‘quvchi-talabalar o‘zlarining kundalik jo‘shqin hayotlarida xilma-xil qulay, noqulay voqealarga duch keladilar. Ba’zan har bir ish va harakatlarida muvaffaqiyat qozonaveradilar, bu ularni quvontiradi va g‘ayratlarini orttiradi. Ba’zan muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Bunday vaqtda ularga dalda berish, ko‘nglini ko‘tarish zarurdir. Ko‘ngli ko‘tarilgan o‘quvchi-talaba tetiklashadi, unda optimistik kayfiyat o‘sadi.

**Ishonch bildirish, ishonish**. O‘quvchi-talabalar mehribon va bilimli o‘qituvchilarini pok qalb bilan samimiy sevadilar va ularga qattiq ishonadilar. Shuning uchun ham o‘quvchi-talabalar oldida bunday o‘qituvchining hurmati va obro‘si g‘oyat kattadir. O‘z navbatida, o‘quvchi-talabalar o‘qituvchidan o‘ziga ishonishni talab etadi. O‘quvchi-talabaga ishonish, ishonch bildirish unga katta mukofotdir. O‘quvchi-talabalardagi bunday holatni o‘qituvchi yaxshi bilishi va ularga ishonch bilan qaramog‘i lozim.

**Qayd etish**. O‘quvchi-talabalar xulq-atvorining yaxshilanib borayotganini ayniqsa, o‘quvchi-talabalar jamoasi oldida qayd etish,, ruhini ko‘tarish o‘quvchi-talabani tetiklantiradi va uni yaxshi intizomga yo‘llaydi. Maqtash va tanbeh. O‘quvchi-talabani biror yaxshi ishi va odobliligi uchun sinfdoshlari va guruhdoshlari oldida, umummajlisda, devoriy gazetada, ota-onalarga xat yozish orqali maqtash katta ijobiy natija beradi. Shuningdek, tanbehning ham ta’siri katta bo‘ladi. Mukofotlash. Maktab va akademik litseylar, kasb-hunar ta’lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlarida yuksak muvaffaqiyatlari uchun o‘quvchi-talabalar mukofotlanadilar. Mukofotning moddiy shakllari: kitob, o‘quv qurollari, teatr va kinoga bilet, dam olish uylariga, sayohatlarga yo‘llanmalar, pul

mukofoti, maqtov yorlig‘i va hokazolar. Mukofotlar o‘quvchi-talabalar o‘qituvchi-pedagoglar va ota-onalar ishtirokida tantanali vaziyatda topshiriladi.

**Jazolash metodlari** – bu o‘quvchi-talabalarning xatti-harakatlari va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me’yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma’qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatish, jamoa oldida uyalishi, o‘zini gunohkor deb bilish hissini uyg‘otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo‘llab-quvvatlashi asosida jazolash metodlari ham xilma-xil bo‘lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o‘rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlashtirish va boshqalar kiradi.

**Jazo** – bu o‘quvchi-talabalarning o‘z xulqi va harakatidagi nojo‘yalik hamda kamchiliklarni anglashiga, tugatishiga, yaramas harakatlardan, sho‘xliklardan o‘zlarini tiyishiga yordam beradi. O‘quvchi-talabalarning xatti-harakatidagi yomon tomonlarni o‘z vaqtida qoralash va ta’qiqlash, ularni ikkinchi marotaba shu nojo‘ya harakatlarni qilmaslikka, o‘z xulq-atvorini tuzatishga yo‘llaydi. Lekin bo‘lar-bo‘lmasga jazolayverish ham zararlidir. Uning o‘rniga bir marotaba o‘rinli jazolash yaxshi natija beradi. Shu bilan birga, o‘quvchi-talabaga xulqining noma’qul ekanligini asosli ravishda tushuntirish, uning ongiga yetkazish, o‘z xatosini to‘g‘rilashga imkon beradi.

O‘qituvchi o‘quvchi-talabalardagi yomon xulq-atvorlarni qoralash bilan birga uning yomon emasligini, unda yaxshi xislatlar ham borligini, agar istasa, o‘z xulqidagi kamchiliklarni yo‘qota olishi va sinf yoki guruh jamoasining eng yaxshi, namunali o‘quvchisi yoki talabasi bo‘lishi mumkin ekanini qayd qilib o‘tishi kerak. Mana bunday nasihat yoshlarda o‘z kamchiliklarini tuzatish va yaxshi fazilatlar paydo qolish istagini uyg‘otadi.

O‘quvchi-talabalarga nisbatan jazo choralarini qo‘llashda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish kerak:

a) jazoning haqqoniyligi;

b) jazo aybdorni tarbiyalashi;

v) aybdor nima uchun jazo olayotganini bilishi lozim.

Asosan, quyidagi jazo choralari qo‘llanishi mumkin: o‘qituvchining, sinf yoki guruh rahbarining, ta’lim muassasalarining o‘quv yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarining tanbehi; parta, sinf doskasi yoki o‘qituvchi stoli yonida tikka turg‘azib qo‘yish; sinf o‘quvchilari va guruh talabalari oldida ogohlantirish berish; bajarilmay qolgan sinf-auditoriya yoki uy vazifasini bajarish uchun darsdan keyin olib qolish; ta’sir ko‘rsatish uchun pedagoglar kengashiga chaqirish; ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ogohlantirish e’lon etish; xulqiga qo‘yilgan bahoni pasaytirish; sanab o‘tilgan jazo choralarini qo‘llanganda o‘qituvchi har bir o‘quvchi-talabaning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, sinf yoki guruhning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmog‘i kerak.

**Po‘pisa.** Po‘pisa - man etilgan va bema’ni xatti-harakatlarni to‘xtatishga va oldini olishga yordam beradi. «Abbos, so‘kishni tashlamasang, sinfga kirgizmayman» yoki «Vali, kelgusi darsga yozib kelmasang, shu yerda olib qolib, yozdiraman». Mana bunday po‘pisa kichik bolalar uchun mos hamda ishonarli bo‘ladi. Shuni ham aytish kerakki, po‘pisa qilgan bilan aytganini qildirolmagan o‘qituvchining obro‘si

tushib ketadi. Shuning uchun o‘qituvchi bolalarga oqilona, onda-sonda po‘pisa qilishi va har bir buyurilgan ishning qat’iyat bilan amalga oshirilishiga erishishi kerak.

**Koyish.** Koyish - bema’ni qiliqlarning yaramasligini aytish va ogohlantirish shakllaridan biridir. O‘quvchi-talabaning salbiy harakatlari, qiliqlari va tartibni buzganliklari uchun ularni koyib qo‘yish zarur. Koyish o‘git-nasihat bilan birga qo‘shilgan holda qo‘llanadi. Ya’ni, o‘quvchi-talabaga qilgan gunohining yaramas ekanligi, bu gunohning oqibati xayrli emasligi yotig‘i bilan tushuntiriladi va uni tuzatish yo‘llari ko‘rsatiladi va yana qaytarmasligi uqtiriladi.

O‘quvchi-talabalarni koyiganda ularni to‘g‘ri yo‘lga solib yuborish ko‘zda tutiladi. Shuning uchun har bir qilingan aybning o‘z darajasiga qarab tarbiyalanuvchiga shu aybning yaramasligi tushuntiriladi. Koyish paytida nihoyatda osoyishta hamda muloyimlik bilan gapirilishi lozim. Uyaltirish, qizartirish. Odamning eng nozik his-sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayo hissidir. Odam o‘z «shaxsi»ning boshqa odamlar ko‘z oldida qadrsizlanishini, ya’ni belgilangan qoidalarni buzganini yoki bilishi kerak bo‘lganini bilmay qolganini anglagan taqdirda qizaradi, uyaladi.

O‘quvchi-talabalarni tarbiyalashda ularning uyat, sharm-hayo hissiga ehtiyotlik bilan ta’sir etish kerak. O‘quvchi-talabalarning uyalishi va qizarishi uni shu ayb-xatoni qaytarmaslikka olib kelishi, u tavba qilishi mumkin. Lekin uyalish-qizarish natijasi hamma vaqt ham tarbiyalanuvchini tavba qilishga olib bormaydi. Bola boshqalar oldida sharmanda bo‘lish, qizarishni istamagani uchun noto‘g‘ri xatti-harakatlarni yashirincha qilishga intiladi. Mana bunday holda uyat ikki yuzlamalik, munofiqlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yoshlarni hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. O‘quvchi-talabani yolg‘izligida yoki tengdoshlari o‘rtasida kamroq uyaltirish kerak.

Yuqorida aytib o‘tilgan metodlardan tashqari kun tartibi, odatlantirish va o‘yin hamda sport vositalaridan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari, ko‘rgazmalari, o‘quv qurollari, badiiy-ilmiy adabiyotlar, san’at asarlari, radio, televidenie, kompyuter, magnitafon, slayd kabi axborot va texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish uchun o‘quvchi-talabalarning ongi, xis-tuyg‘usi va xulq-atvorini tarkib toptirishga ko‘maklashadi. Shunday qilib, rag‘batlantirish va jazolash dastavval o‘quvchi-talabalarning xarakteri va xulqida ijobiy xislatlarni tarbiyalashga yordam beadi, ularning xatti-harakati va xulqini to‘g‘ri yo‘lga solib yuboradi hamda paydo bo‘lgan ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga da’vat etadi.

Rag‘batlantirish va jazolash metodlarini mohirlik bilan qo‘llash orqali o‘quvchi-talabalarni tarbiyalashda g‘oyat katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, har qanday ma’qullash ham, qoralash ham o‘quvchi-talabalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatavermaydi, balki aksincha, salbiy natija berishi mumkin.

O‘quvchi-talabalarni tarbiyalashda rag‘batlantirish va jazolashning samarali natija berishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish kerak. **Tarbiyachining obro‘si**. Agarda tarbiyachi yoki o‘qituvchi o‘quvchi-talabalar oldida obro‘ga ega bo‘lsa, o‘quvchi-talabalar uni sevsalar, uning har bir so‘zi tarbiyalanuvchilarda chuqur

taassurot qoldiradi, o‘quvchi-talabalar uning aytganlarini mamnuniyat bilan bajaradilar. Aks holda, tarbiyachi ham hech qanday ta’sir ko‘rsata olmaydi yoki ta’siri juda zaif bo‘ladi.

Rag‘batlantirish ham, jazolash ham haqqoniy bo‘lishi kerak. Bu masala alohida ahamiyatga egadir. O‘qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan o‘quvchi-talabalarning xatti-harakati va qilig‘iga beriladigan bahoning haqqoniy, adolatli ekaniga o‘quvchi-talabalarning o‘zi va uning o‘rtoqlari ishonch hosil qilishlari lozim. Shuning uchun tarbiyachilar achchiq ustida yoki jahl bilan o‘quvchi-talabalarning xulqiga baho berishdan o‘zlarini tiymoqlari kerak. O‘qituvchining asabiylashishi, o‘quvchi-talabalarning aybini haddan tashqari bo‘rttirib ko‘rsatishi tarbiyalanuvchilar shaxsini haqoratlaydi va ularning ensasini qotirib yuboradi. Bu xilda qoralash o‘quvchi-talaba shaxsini haqoratlaydi, uni o‘z xatosini tuzatish o‘rniga chuqurlatishga, g‘azabini qo‘zg‘atishga olib boradi, hatto o‘quvchi-talabada o‘qituvchiga nisbatan norozilik hissini tug‘diradi va tarbiyalanuvchi uni yomon ko‘rib qoladi.

Tarbiya ishidagi eng muhim shartlardan biri o‘quvchi-talabalar xulqiga berilgan baho yolg‘iz bir o‘qituvchininggina fikri bo‘lib qolmay, balki buni butun ta’lim muassasasi jamoasi ham qo‘llab-quvvatlamog‘i lozim. Bu esa tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan rag‘batlantirish va jazolash metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## 4. Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlash

Tarbiyasi qiyin bo‘lgan yoshlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda qayta ishontirish metodi muhim rol o‘ynaydi. Qayta ishontirish metodini vazifasi faqat odob-axloqni o‘rgatish, nasihat qilishdan iborat bo‘lmay, balki har bir o‘smirdagi shaxsiy nuqsonlar uning hayotini qanday buzayotganini, yalqovlik nimalarga olib kelishi mumkinligini tarbiyasi qiyin yoshlarga ochiq-oydin ko‘rsatishdir.

Qayta ishontirish metodida hikoya, odob-axloq haqida ma’ruza, baxs-munozara, davra suhbati va hokazolardan ham foydalanish mumkin. Bunday tarbiyaviy tadbirlar erkin fikr almashish, bahslashish shaklida, obro‘-e’tiborli kishilar, professor-o‘qituvchilar ishtirokida o‘tkazilsa samaraliroq bo‘ladi. Shaxsni qayta tarbiyalash tarbiyasi qiyin yoshlarning tushunchalari, tutgan yo‘li noto‘g‘riligini ko‘rsatadigan, ularni o‘z xulq-atvori haqida o‘ylashga majbur etadigan amaliy ish tajribadan boshlanishi kerak. Chunki tarbiyasi qiyin bo‘lgan shaxs o‘z atrofidagi odamlar, guruhdoshlari, o‘qituvchilar va tarbiyachilar haqida noto‘g‘ri fikrda bo‘ladi, ularning so‘ziga ishonmaydi. Ulardagi bunday fikr munosabatni, ishonchsizlikni faqat fakt, namuna, shaxsiy tajribagina o‘zgartira oladi.

Tarbiyasi qiyin shaxsning o‘z atrofidagi odamlar, hamguruhlari, o‘qituvchi-tarbiyachilar haqidagi fikri, o‘z xatti-harakatlariga bo‘lgan munosabati o‘zgara boshlagandan keyin ularga xatolarini, qarashlarini noto‘g‘riligini, muvaffaqiyatsizlik va yoqimsiz kechinmalarining sabablarini tushuntirish foydali bo‘ladi. Demak, qayta ishontirishda so‘z vositasi tarbiyalanuvchi xosil bo‘layotgan axloqiy tajriba bilan birga yoki undan keyin ishlatiladi.

Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda jazolash va rag‘batlantirish metodlari ham qo‘llaniladi. Tarbiyasi qiyin bo‘lgan shaxsga jazoning ta’siri ijobiy

bo‘lishi uchun tegishli pedagogik shart-sharoitlar: jazo jamoa tomonidan yoki jamoa manfaatlarini ko‘zlagan holda, o‘qituvchi-pedagoglar, murabbiy-tarbiyachilar, guruh rahbarlari tomonidan berilishi, jazo jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, adolatli va tarbiyalanuvchi shaxsini kamsitmaydigan bo‘lishi, uning adolatli va qonun-qoidalarial ekanini gunoh qilgan shaxsning o‘zi anglashi, jazoni jamoada tarbiyalanuvchining xulqiga bo‘lgan ijtimoiy talablarning o‘ziga xos maxsus shakli deb tushunishi, jazoni qo‘llashda tarbiyalanuvchilarning kelib chiqish sabablari hisobga olinishi kerak. Qayta tarbiyalashdagi jazo tarbiyalanuvchiga o‘z nuqsonlarini anglashda, ularni yo‘qotish zarurligini tushunishda, o‘z xulqini nazorat qilishni o‘rganishida yordam beradi.

Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda rag‘batlantirish metodi ham katta ahamiyat kasb etadi. Qayta tarbiyalashda rag‘batlantirishning tashakkur bildirish, maqtov yorlig‘i, qimmatli sovg‘alar bilan mukofotlash, yaxshi so‘z, samimiy tabassum, maqtab qo‘yish, erishgan muvaffaqiyatlari uchun minnatdorchilik bildirish va boshqa oddiy shakllari ham keng qo‘llaniladi. Yaxshi so‘zni kam eshitadigan, qulog‘i yomon so‘zdan bo‘shamaydigan shaxslarga rag‘batlantirish juda kuchli ta’sir qiladi yoki dimog‘dor, egoist, maqtanchoqlarga esa bu usul deyarli ta’sir etmaydi. Shuning uchun rag‘batlantirish individuallashtirilgan bo‘lishi, ya’ni har bir tarbiyalanuvchi ko‘rsatgan xizmati va shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda alohida taqdirlanishi kerak.

Rag‘batlantirish tashabbusi va uni amalga oshirish o‘quvchi-talabalar jamoasi yoki tarbiyalanuvchilar uchun obro‘li bo‘lgan o‘qituvchi-pedagoglar, murabbiy-tarbiyachilarning har qanday shaklda bildirgan maqtovini uni “sotib” olishga, uning ko‘nglini ko‘tarishga bo‘lgan intilish deb qabul qiladi. Shu sababdan, o‘smirlarni rag‘batlantirishda jamoat tashkilotlarining vaqillari, ta’lim muassasalarining rahbarlari, obro‘-e’tiborga ega o‘qituvchi-pedagoglar va murabbiy-tarbiyachilar qatnashib, ular taqdirlasalar, samaraliroq bo‘ladi. Zero, o‘smirlar xizmatining kattalar tomonidan tan olinishi ular ko‘nglida yaxshi iz qoldiradi.

Rag‘batlantirish tarbiyasi qiyin har bir o‘smirga o‘zining ijobiy fazilatlarini anglashga, haqiqatni tushunishiga yordam berishi va unda yaxshi odam bo‘lish istagini uyg‘otishi kerak. Agar taqdirlash bunday vazifani bajarmay shaxsda o‘zini katta olish, manmanlik, o‘ziga ortiqcha ishonish kabi salbiy sifatlarni rivojlantiradigan bo‘lsa, undan tarbiya metodi sifatida foydalanish mumkin emas.

Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda birinchi marta mashhur pedagog A.S. Makarenko o‘z tajribasida qo‘llagan «portlash» metodidan ham foydalanish mumkin. Bu metoddan odatda, boshqa tarbiya metodlari natija bermaganda, eng oxirgi chora tariqasida foydalaniladi.

“Portlash” metodining mohiyati shundan iboratki, tarbiyasi qiyin shaxs kutilmaganda yuz bergan vaziyat natijasida vaziyat nihoyatda keskinlashib, shaxs oldida hal etilishi kechiktirib bo‘lmaydigan, “endi nima qilish kerak” degan savol ko‘ndalang bo‘lib, mushkul ahvolga tushib qoladi. Shunday vaziyatda shaxsdagi ijobiy asoslar nuqsonlarga qarshi stixiyali ravishda isyon ko‘targandek bo‘ladi. Bunday oshkoralik vaziyatida shaxs o‘z xulq-atvorini ko‘radi, unda o‘zidan norozilik, o‘z turmush tarziga, nuqsonlariga nafrat, yaxshi bo‘lishga extiyoj paydo bo‘ladi. Ana shunday tabiiy “portlash” shaxs ongini noto‘g‘ri tasavvurlardan tozalaydi, yomon

xulqni yo‘qotadi. Shu vaqtdan boshlab yaxshi odatlarni, ijobiy fazilatlarni tarbiyalash yuzasidan tizimli tarviyaviy ishlar amalga oshirilishi zarur. “Portlash”dan keyin shaxsning hayoti va faoliyati yangi asoslarda tashkil qilinsa, ijobiy fazilatlar mustahkamlanib boradi.

Tarbiyasi qiyin bo‘lgan yoshlar o‘z xulq-atvori yaxshi tomonga o‘zgarishini xohlamasa, o‘z nuqsonlari bilan faol kurashmasa, ularni qayta tarbiyalashda samara va natija bo‘lmaydi. Qayta tarbiyalashda tarbiyalanuvchilarni o‘z xulq-atvorini kuzatish, o‘ziga topshiriq berish, o‘zini nazorat qilish metodlaridan foydalanishga o‘rgatish kerak.

Demak, tarbiyasi qiyin shaxsni tarbiyalash uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, pedagogik metodlarning majmuini navbatma-navbat yoki bir yo‘la qo‘llashni talab etishi mumkin. Biroq har bir tarbiya metodi shaxsning tarbiya darajasi, individual xususiyatlariga muvofiq ravishda tanlanishi kerak. Xullas, tarbiyaning umumiy metodlari to‘g‘risidagi fikrlarni yakunlar ekanmiz, tarbiyaning bu metodlari o‘quvchi-talabalarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarining barchasini qamrab olmasligini unutmaslik kerak. Hozirgi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyoti tarbiya jarayonini takomillashtirishning yangi yo‘llarini izlamoqda.

## 17-mavzu. TARBIYAVIY ISHLARNI OLIB BORISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

### REJA:

1. Milliy qadriyatlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni
2. Xalq og‘zaki ijodining janrlari
3. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari

### TAYANCH TUSHUNCHALAR:

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, tarbiyaviy ishlar, milliy qadriyatlar, barkamol avlod, xalq qo‘shiqlari: “Yor-yorlar”; “Allalar”, ertaklar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so‘zlar, aforistik iboralar, asotirlar, afsona va rivoyatlar, tez aytish va o‘yinlar

### 1. Milliy qadriyatlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni

Mustaqillik tufayli, ko‘hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi. Ayni paytda o‘zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta’lim-tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Quyida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi haqida qisqa ma’lumot berildi (123-rasm).

Tadqiqotlarda Ollohning ilohiy mo‘‘jizasi – hayot sarvari Insonning ona qornida paydo bo‘lishidan tortib, to tug‘ilganiga qadar, yoshini yashab to omonatni topshirgungacha bo‘lgan axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik tarbiyasi, shuningdek jismoniy chiniqish bilan bog‘liq o‘yinlar, xalq pedagogik an’analarining

hozirgi zamon yosh avlod ta’lim-tarbiyasida tutgan o‘rni hamda ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. **SHu bilan birga o‘zbek an’anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusumlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o‘ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi dolzarb mavzularni o‘z ichiga qamrab oladi.**

123-rasm

**O‘zbek xalq og‘zaki ijodi –**

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida dono xalqimizning ta’lim-tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlari va uning ma’naviy ustuvorligi, iymon-e’tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usullari, an’analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu-fan haqidagi ta’limotiga bog‘liq holda, muqaddas Qur’oni Karim va payg‘ambarimiz Muhammad Rasulullohning muborak Hadisi Shariflariga suyangan holda yoritish mo‘ljallangan

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida farzandlarimizning estetik idroki, hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish; tarbiyalanuvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish va takomillashtirish; estetik tarbiyada tarbiyalanuvchilar o‘yin folklorining o‘rni va ahamiyati, tarbiyalanuvchilar folklor-etnografik dastalari-estetik tarbiya markazi ekanligi, vorislik, ustoz-shogirdlik an’analarining pedagogik, axloqiy-estetik ahamiyati, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha san’ati - sirk, dorbozlik, askiya, baxshi-shoirchilik, dostonchilik, ertakchilik, qiziqchilik, taqlidgo‘ylik, maddohlik, qiraotxonlik, qissaxonlik, otunlik, voizlik, bo‘zaxo‘rlik alyorlari kabi san’atlarining tutgan o‘rni va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati, xalq an’anaviy sporti, fizkulturasi-farzandlar jismoniy baquvvatligi va etukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi, tarbiyalanuvchilar o‘yin folklorining pedagogik tarbiyaviy ahamiyati, xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayohatning, savdo-sotiq va tijoratning o‘rni, jismoniy tarbiya va sport ko‘nikmalarida xalqning qiziqarli tomosha san’ati, ahloq-odob va ta’limning uyg‘unligi va o‘ziga xosligi, xalq sporti va jismoniy tarbiyasida jinsiy tafovutlarga ahamiyat berishning axloqiy-aqliy ahamiyati; xalq an’anaviy pedagogikasida tabiat va inson uyg‘unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e’zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov-daraxtlar, o‘simliklar va giyohlarga ruxsat; suv, borliq-atrofga insoniy munosabat-xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asoslaridan biri ekanligi, odatlar, udumlar, rasm-rusumlar, marosimlar, irim-sirimlar, qarg‘ish va olqish-duolar, tabiat, diniy bayramlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, xalq ommaviy bayram-sayllari “Navro‘z”, “Mehrjon”, “Hayit-ro‘za”, “Hayit bayrami” va boshqalarning; bolaning dunyoga kelishi, qulog‘iga azon aytish, tish chiqishi, ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-bosh kiydirish, besh, etti kun, o‘n bir kunligi, bir yilligi, uch, to‘rt, besh yilligining alohida bayram qilinishi, o‘quv muassasasiga

borishi, sunnat qilinishi, kokil qo‘yish, kokil oldirish, mo‘ylov oshi, uylanish-nikoh to‘yi, birinchi farzand ko‘rish, qirq, ellik, oltmish yoshlar tantanalari, payg‘ambar yoshi, etmish, sakson, to‘qson yillik yubileylari, kumush to‘y, oltin to‘y, marvarid to‘y va boshqa bayram-sayllar, to‘y-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an’analarning ta’lim-tarbiyaviy, pedagogik yo‘nalishi, ahamiyati va shu kabilar.

Qur’oni Karim, Hadis hamda SHarq mutafakkirlarining axloq-odobga oid qarashlariga doir parchalar ham mazkur qo‘llanmaning sahifalarini bezashi tabiiydir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga oid materiallarni bamisoli ummonga qiyos qilish mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining manbalarini asosan uch turga bo‘lib o‘rganish mumkin (124-rasm).

124-rasm

**O‘zbek xalq og‘zaki ijodi manbalarining turlari**

- xalqimizning buyuk mutafakkirlari tomonidan meros qilib qoldirilgan nasriy va nazmiy asarlar, odobnoma va pandnomalar
- xalqimiz tomonidan yaratilgan xalq og‘zaki ijodi va folklori namunalari, xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlari va turli xil marosimlari
- islom dinining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”, Payg‘ambarimizdan meros qilib qoldirilgan Hadis namunalari va buyuk islomiy ta’limotlarning namunalari

SHuni alohida ta’kidlash kerakki, xalq nazdida, inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo‘lib tug‘ilmaydi – u birday tug‘iladi. YAxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, mahalla-kuy, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat va tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros-oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an’analari, jamiyatning bu sohadagi sa’y-harakatlari hal qiluvchi o‘rin tutadi. Xalq ta’kidlashicha, bola boshdan to‘g‘ri, haqqoniy tarbiyalansa – u kelgusida yaxshi inson bo‘lib etishadi, egri yo‘lda tarbiyalansa – yomon kishiga aylanadi. Zero “ko‘chat boshdan, bola yoshdan” maqoliga amal qilish xalq an’anaviy pedagogikasining bosh yo‘nalishidir.

El-yurt uchun har tomonlama mukammal insonni tarbiyalashga qaratilgan “O‘zbek xalq pedagogikasi” ham ayrim shaxslar yoxud bir-ikki jamoa – ular qanchalik iqtidorli-iste’dodli bo‘lishmasin, uni xalqimiz asrlar bilan o‘lchanuvchi hayotida o‘zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan udimlari, sa’y-harakatlari, yo‘l-yo‘riqlari, aql-zakovatlari bilan yaratilgan.

Hamisha safarlarda bo‘lib, o‘zga yurt kishilari bilan muloqotlarda bo‘lish, izlanishlar olib borishdan toliqmaslik kabi xislatlar o‘zbek xalqi xarakteriga xos fazilatlardandir. Insonparvarlik, baynalmilallik, hushyorlik, zukkolik, topqirlik, bilimdonlik, uquvlikni o‘ziga e’tiqod qilib olgan o‘zbek xalq pedagogikasi ayni choqda SHarq odobnomasi, ibratnomasidan doimiy ravishda bahramand bo‘lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go‘zal namunalarini o‘ziga qabul qilib olgan.

Endi biz shular xususida o‘zimizning fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tmoqchimiz. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo‘lmish Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko‘plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat sarchashmalari o‘zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma’rifatni targ‘ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Navoiyning mashhur “Xamsa” sini, Imom al-Buxoriyning “As-sahih” hadislar to‘plamini, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi ko‘plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo‘lib, ular ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o‘z navbatida yuqorida sanab o‘tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga etkazgandir. SHunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir.

Ma’lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog‘langandir. SHuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarning aksariyati, mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat sarchashmalari aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan.

SHunday ekan, biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to‘g‘ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. CHunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, doimo millatlar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlikni va isoniyatga nisbatan qilinadigan har qanday zo‘ravonlikka qarshi g‘oyalarni targ‘ib etib kelgan.

## 2. Xalq og‘zaki ijodining janrlari

Xalk og‘zaki ijodi – bu yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi bo‘lib, do‘st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat; yaxshilik va yomonlikning oqibati; halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik tarbiyasi; adolat, insof va insofsizlik, do‘st-birodarlik, og‘a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati; botirlik va qo‘rqoqlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo‘stlik, saxiylik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoat va sabrsizlikning oqibati; qadr va qadrsizlik, muhabbat, vafo va bevafolik, tajribakorlik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylik va nosamimiylik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va

isrofgarchilik, reja va rejasizlik, me'yor va me'yorsizlik, mas'uliyat va mas'uliyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, tabiatni e'zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatlari: kattaga hurmat, yoshga mehr-shafqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, to'y va motam, farzand va farzandsizlik, kiyinish, so'zlash, yurish-turish, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati kabi udumlar, rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an'analardan iboratdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodining asosini bir qancha janrlarni o'z ichiga oladi (125-rasm).

1. **Epik ijod namunasi** - Bu qahramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy dostonlar bo'lib, ular ishq-muhabbat vafo qanday bo'lishligi, o'zligini tanish, or-nomus, burchni anglash, iymon-e'tiqodli bo'lish, inson va hayvonot dunyosi, qiyinchiliklar va mushkul ahvollarni mardona enga olish, qat'iyatlik, iroda, matonat kabi xislatlardan iboratdir.

125-rasm




2. **Qo'shiqlar** - Lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari; "YOr-yorlar"; "Allalar", yig'i-yo'qlovlar; o'lim, yanchiq, bayram-sayllar qo'shiqlari; folklor namunalari va boshqalardan iborat bo'lib, ular go'zallik, samimiyat, mehr-shafqat, orzu-umid, quvonch-shodlik, g'am-g'ussa kabi tuyg'ularni tarannum etish orqali kishilarda chuqur insoniy tuyg'ularini o'stiradi. Insonlarda hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

3. **Ertaklar** - Bu orqali kishilar sirli-sehrli olam bilan tanishadi hamda unga oid bilimi, tushunchalari boyiydi, yaxshi odamlardagi yaxshi xislatlar, yomonlardagi badxulqlardan xabardor bo'lib, yaxshilikka mehri toblanadi, yomonlikka nafrati ortadi.

4. **Maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, aforistik iboralar** - Bular xalq donishmadchiligining yuksak badiiy timsoli bo'lib, ular qisqa, sodda ammo, xar birining ma'nolari juda keng bo'ladi.

5. **Asotirlar, afsona va rivoyatlar** - Bular donolar donoligi, ibrati, tabiatni asrab-avaylash, qadriga etish, saqlash, chiroyiga chiroy qo'shishga bo'lgan ishtiyoqni o'stirish, ekologik tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish va kamol toptirishda muhim rol

o‘ynaydi.

Bugungi kunda uzoq asrlar davomida ta’lim-tarbiya masalasi va vositasi bo‘lib kelgan xalqning pedagogik qarashlarini o‘rganish va yosh avlodga etkazish vazifasi turibdiki, bu vazifani bajarish yo‘qolish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz, axloqimiz, urf-odat, rasm-rusumlarimizni, udumlarimizni, an’analarimizni asrab qolish va tiklash uchun nihoyatda zarurdir.

SHu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ushbu mavzuda o‘zbek xalq pedagogikasi fani va uning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rni, barkamol insonni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati, o‘zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi hamda xalq og‘zaki ijodining janrlari xususida atroflicha fikrlar bayon qilingan.

## 3. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari

**Folklor – xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida**

Respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘tgan davrda mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalab etishtirish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada o‘tgan davrda juda katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ta’lim-tarbiya tizimini milliylashtirish, uni insonparvarlashtirish, xalqchillashtirish asosida respublikamiz xalq ta’limi tizimini qayta qurish, milliy o‘quv muassasalar barpo qilish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda O‘zbek xalq pedagogikasi etakchi o‘rin tutadi.

Ma’lumki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi deganda barcha janrlarda aks ettirilgan tarbiya borasidagi qarashlar, g‘oya, urf-odatlar, rasm-rusumlar hamda an’analar yig‘indisi tushuniladi. Demak, bulardan ko‘rinadiki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining asosiy manbai folklor hisoblanadi (126-rasm).

126-rasm

**O‘zbek xalq og‘zaki ijodi:**

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining qamrovi keng bo‘lib, u muayyan xalq tarixi, falsafasi, psixologiyasi, etnografiyasi va xalq tabobatidan tashkil topgan bo‘ladi. Folklor xalq pedagogikasini, ya’ni xalq ommasining - tarbiya borasidagi qarashlari, g‘oya, urf-odatlari, an’analari yig‘indisidan iboratdir. Bulardan tashqari folklor tarbiyani amalga oshirishda qo‘llanilib kelgan usul, vosita, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini ham ifodalaydi

Biroq, afsuski, shu paytgacha o‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganish va uni zamonamiz nuqtai nazaridan qayta ishlab ulgurilmadi va amaliy faoliyatda qo‘llanilmadi. O‘zbek xalqining beqiyos darajadagi boy pedagogik fikr va qarashlari

ildizi karomatli Qur’oni karim hamda Muhammad alayhissalom Hadislariga borib taqaladi.

YOsh avlod tarbiyasi borasidagi an’analar o‘zbek klassik adabiyotida o‘z aksini topgan. Masalan, IX-XII asr allomalaridan Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, “Ro‘shnoma”, YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Ahmad YUgnakiyning ”Hibat-ul haqoyiq”, Kaykovusning “Qobusnoma” kabi asarlarida pedagogik g‘oyalar keng o‘rin olgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, xususan o‘zbek xalqining tarbiya vositasi bo‘lib kelgan va hozirgi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi quyidagicha; aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat va nafosat tarbiyasi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi milliy tarbiyani amalga oshirish usul va vositalari, yoshlarni dastlabki oilaviy odob qoidalariga odatlantirish va uni amalga oshirish yo‘llari, yoshlarni dastlabki oilaviy dastyorlik mehnatiga odatlantirish, uni amalga oshirishda foydalaniladigan usul va vositalarni o‘z ichiga qamrab oladi. YUqoridagilarning hammasi xalq og‘zaki ijodida aks etgan bo‘lib, bular zaminida ilmiy pedagogika shakllangandir[1].

Ilmiy pedagogikaning asosiy maqsadi va vazifasi har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har tomonlama barkamollik yoshlarni aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va nafosat jihatdan etukligini o‘z ichiga oladi. SHunday ekan, xalq pedagogikasi ilmiy pedagogika bilan chambarchas bog‘liqdir.

Endi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlari xususida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

**Tez aytish va o‘yinlarning tarbiyada tutgan o‘rni**

**Tez aytish** tarbiyalanuvchilarning nutqini o‘stirishda muhim o‘rin tutadi. Tez aytishlar orqali tarbiyalanuvchilar gapdagi so‘zlar ma’nosini tez anglab olish, urg‘ularni to‘g‘ri o‘z o‘rnida ishlata bilish, nutqni to‘g‘ri va burro talaffuz qila olish malakalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tez aytishlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir janri hisoblanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa jarangli undoshlar takrorlanadi, so‘zlar ritm, urg‘ular bilan aytiladi. Tez aytishda har bir tovush o‘z o‘rnida to‘g‘ri va ravon talaffuz etilishi kerak. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, nutqi va so‘z boyligini o‘stiradi.

Masalan, “Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uzun quloq”, “To‘p-to‘p ko‘k koptok, har to‘p ko‘k koptokda bittadan katta koptok”, “G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi”, “Olim Olimadan olma oldimi, Olima Olimdan olma oldimi?” va hokazo.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita tarbiya bilan bog‘liq hodisalardan tabiatda eng yaqini **o‘yinlardir.** O‘yin – insonning tabiatga qarab kashf etgan buyuk mo‘jizalaridan biri hisoblanadi. Tarbiya jarayonida o‘yinning ahamiyati g‘oyat katta. Ularda so‘z, ohang va harorat bir-biri bilan uzviy aloqadadir. O‘yinlar vositasida tarbiyalanuvchilarga narsalarning mavjud tartibiga, xalq urf-odatlariga hurmat tuyg‘usi singdirilgan, unda odob qoidalariga nisbatan ko‘nikma hosil qilingan (127-rasm).

---

[1] Z.Jumayev. O’zbek xalqining tarixiy rivoyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: TDPU, 2005

Azaldan har bir xalqda rang-barang o‘yinlar mavjud bo‘lgan. Markaziy Osiyo hududlarida ham ko‘plab o‘yin turlari keng yoyilgan. Taomildagi o‘yinlar bilan bir qatorda u yoki bu mintaqaning, hattoki qishloqning o‘ziga xos o‘yinlari ham mavjud.

**O‘zbek xalq o‘yinlari** o‘zining rang-barangligi, turli yosh, jins, shahar va qishloqqa mo‘ljallangan keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Qisqasi o‘zbek xalq o‘yinlari shu qadar xilma-xilki, goho ularning turkumi, guruhi, turlari, shakllari, xillari ma’nosini chuqur anglamay turib, ularning mazmunini tushunish qiyin kechadi. SHunga qaramay, ularni tahlil qilish va o‘rganish natijasida quyidagi sinflarga bo‘lib chiqish imkoni tug‘ildi:

- turli yoshdagilar o‘yinlari;
- turli jinsdagi odamlar o‘yinlari;
- mavsumiy o‘yinlar (bahorgi, yozgi, kuzgi, qishki);
- turli ifoda vositalaridan foydalanishga asoslangan o‘yinlar (so‘z, kuy-qo‘shiq, raqs-pantomima, syujetli sahna, turli xususiyatli va hokazo).

127-rasm

**O‘yinlar –**

jiddiy mashg‘ulot, mehnatga, kelajakka, hayotga tayyorlovchi o‘ziga xos saboqlarni o‘zida namoyon qiladi. Ijtimoiy faoliyatdan oldin keluvchi o‘yin bamisoli uning hal qiluvchi mashqi sanaladi, goho mehnat bayramlari bilan qo‘shilib ketadi va tarkibiy unsur kabi mehnatning hal qiluvchi qismiga, hattoki mehnat jarayonining o‘ziga kiradi

O‘yinning yana bir muhim vazifasi shundan iboratki, uning vositasida insonning odatdagi rivoji uchun hayotda etishmaydigan narsa ro‘yobga chiqadi. Kam harakatli hayot tarziga cho‘ponlar ko‘proq qimirlashga majbur qiladigan, ammo suruvidan uzoqlashmaydigan o‘yinlarga ehtiyoj sezganlar. Yaylov o‘yin uchun qulay joy, doim qo‘lida ushlab yuradigan tayoq esa, o‘ziga xos “dastak” bo‘lib xizmat qilgan. To‘p tayyorlash uchun qo‘y juni xom ashyo bo‘lib xizmat qilgan. “Podachi”, “Jun to‘p”, “CHim to‘p”, “CHavg‘on” degan cho‘pon o‘yinlari ana shu tariqa yuzaga kelgan. CHavg‘on avvaliga otliq cho‘ponlar o‘yini bo‘lgan, keyin esa uni aholining keng qatlami ham o‘zlashtirib olgan. Bu o‘rta asr harbiylarining sevimli o‘yinlaridan edi. Ular ko‘pgina SHarq mamlakatlarida yoyilgan. Hindistondan Angliyaga ko‘chib o‘tgan, keyinchalik zamonaviy chim hokkeyga asos bo‘lgan.

Ajdodlar hayoti hozirgi kunga nisbatan bir zaylda kechgan, o‘yin esa unga zavq va mazmun bag‘ishlagan. O‘yinda inson hayotda amalga oshira olmagan istaklarini mujassamlashtirgan. Tashvish va muammolardan vaqtincha chalg‘ib, inson hayotida uchraydigan qiyinchilik va tashvishlarni o‘yin bilan bartaraf etishga muvaffaq bo‘lgan. Hatto urush vaqtida ham ochlik va parokandalikdan qiynalib

turganda odamlar o‘yin uchun vaqt va imkon topgan, o‘yin jarayonida ular ko‘ngillarini yozib ertangi kun mehnat faoliyati uchun “quvvat” olganlar.

SHunday qilib, o‘yinlar inson hayotida shu qadar muhim ahamiyat kasb etganki, ularga qarab inson shaxsiyati, fe’l-atvori, manfaatlari, mayllari, qobiliyatlari haqida fikr yuritish mumkin hisoblangan. O‘zbeklar farzandlarining bolaligidanoq bahodirlik, harbiy-jangovarlik malakalarini oshirganlar. Xalq dostoni - “Alpomish”dagi sevimli bosh qahramon Hakimbek haqidagi satrlar shundan dalolat beradi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari 128-rasmda berildi (128-rasm).

128-rasm

**O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari**

**Ma’lumki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi deganda barcha janrlarda aks ettirilgan tarbiya borasidagi qarashlar, g‘oya, urf-odatlar, rasm-rusumlar hamda an’analar yig‘indisi tushuniladi**

- ✓ Folklor – xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida;
- ✓ Tez aytish va o‘yinlarning tarbiyada tutgan o‘rni
- ✓ Topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o‘rni
- ✓ Qo‘shiq, alla, laparlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati
- ✓ Ertak, doston, rivoyat, matal, masallarning tarbiyaviy o’rni kabilar

**Topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o‘rni**

**Topishmoq** qadimdan davom etib kelayotgan va xalqlar orasida keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning topqirligini tarbiyalashda, zehnini o‘tkirlashtirishda, fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq tarbiyalanuvchilar o‘rtasida mustaqil fikrlash yo‘li bilan, savol-javob, tortishuvlar, bahslar orqali olib boriladi. Ular tarbiyalanuvchilarni ko‘proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi.

Topishmoqlar turli xalqlarda turlicha ataladi. o‘zbek tilidagi “topishmoq” so‘zining lug‘aviy ma’nosi «topmoq» fe’lidan olinganligi ma’lum, ya’ni topishmoq top-top o‘ynamoqni bildiradi. Bolg‘orlarda, masalan, topishmoqni «elber» deyishadi. “E” qishloq yo shaharni, «ber» esa, bermoq fe’lining buyruq maylini bildiradi. Topishmoq javobini topgan odam mukofotga shahar yo qishloq «oladi». Kim ko‘proq shahar yoki qishloqqa ega bo‘lsa, o‘sha g‘olib, deb topiladi. O‘zbeklarda esa, aksincha, topolmagan odam jarimaga «shahar» beradi. CHuvashlarda topishmoqni «to‘shmalli yumax», «so‘tmalli yumax» deydilar, bu «jumboqli ertak», «topolmasa

sotib yuboriladigan so‘z», degan ma’nolarni bildiradi. Sotish – bu eng yoqimsiz ish bo‘lib, u kishilar orasida kuyov yoki kelin buyurgan topishmoqni topolmagani uchun belgilangan jazo hisoblanadi. Nima uchun topishmoqni ertak deyishadi? Gap shundaki, ko‘pgina topishmoqlar ertak mazmuniga ega bo‘lib, o‘ziga xos janrdan iborat. Topishmoqni topolmagan odam jarimaga ertak aytib bergan (qo‘shiq aytgan, o‘yinga tushgan yoki boshqa topishmoqni topgan va hokazo). Bunday zvazlar “sotiladigan ertak” deb atalgan.

Biroq aqliy tarbiyadagi topishmoqlarning ahamiyagi faqat fikrni rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki ular yana turli sohalarga xos bilimlar bilan aqlni boyitadi. Aqliy tarbiyada topishmoqlardan foydalanilganda, tabiat va kishilik jamiyati haqidagi ma’lumotlarni bola faol fikrlash jarayonida oladi.

Topishmoqlarda ma’lum tizim mavjud bo‘lib, inson haqidagi ma’lumotlar g‘oyat rang-barangdir. CHaqaloq, odamning alohida tana a’zolari masalan, qorin, bosh, oyoq, qo‘l va hokazolar haqida topishmoqlar ko‘p. So‘ngra ular yana ham maydalashadi: miya, ko‘z, tish, soch, til, barmoqlar, yurak va hokazolar bo‘yicha ham topishmoqlar talaygina. Umuman topishmoqlar, bolani mushohada qilishga hamda shuuriga singdirishga, bir butunlik bilan alohidalikni farqlashga o‘rgatadi.

Topishmoqlar haqidagi ma’lumotlar 129-rasmda berildi (129-rasm).

129-rasm

**Topishmoqlar –**

Topishmoqlar oqilona, shoirona, axloqiy g‘oya bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Binobarin, ular aqliy, estetik va axloqiy tarbiyaga ta’sir ko‘rsatadi. Qadim zamonlarda ular, ehtimol bu vazifalarni ozmi-ko‘pmi darajada ado etgan. Biroq, keyinchalik topishmoqlarda axloqiy tajriba ustuvor bo‘lgan.

Topishmoqlar bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularni atrof-muhidagi turli voqea-hodisalar va narsalar ustida mushohada yuritishga o‘rgatadi, shu bilan birga bir xil narsa haqida ko‘plab topishmoqlarning bo‘lishi narsa (hodisa)ga har tomonlama yondoshishga imkon beradi

Mehnat, mehnat qurollari, qishloq xo‘jaligi ekinlari, uy hayvonlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat va hokazolar haqidagi topishmoqlarda mehnat faoliyatining g‘oyat rang-barang turlari tavsiflanadi. Hatto koinot haqidagi topishmoqlarda ham mehnat qurollari va mehnat mavzusini uchratish mumkin. Masalan, quyosh nuri haqidagi topishmoqlarda o‘lchov tayoq va boshqa mehnat qurollaridir. SHunisi e’tiborga molikki, ko‘pincha topishmoqlarda u yoki bu buyum qismlarga bo‘lib qaraladi, bu qismlar o‘z navbatida mehnat jarayonlarining izchilligi to‘g‘risida hikoya qiladi («Sakson askar, ikki zobit, bir xo‘jayin», degan topishmoqda tom yopish jarayoni to‘g‘risida gapiriladi: ustun qo‘yilib, taxta qoqish). Aynan mehnat va mehnat qurollariga dahldor topishmoqlarda zukkolik va hazil mavjud. «Qirda tentak o‘yinga tushar» (shamol tegirmoni), «Koshona pastda: kelin balandda» (qoziq, to‘qmoq).

Odamlar, hayot va o‘lim, yoshlik va keksalik haqidagi topishmoqlar yoshlarni shaxsiy kamolot sari chorlovchi mazmun bilan yo‘g‘rilgan: Xohlaysan-u sotib ololmaysan

Kerakmasini sotolmaysan.

Topishmoqlarning she’riy shakli go‘zal, fikri-teran (yoshlik va keksalik), yoshlikning qadriga etishga chorlash bola uchun topishmoq, kattalar uchun esa ibratli maqol. YAna bir topishmoq:

YOsh edim - kunday edim, qaridim - tunday bo‘ldim.

Bu nafaqat topishmoq, shu bilan birga inson hayoti haqidagi shoirona hikmat emasmi!

Masalan,

“Ikki ajib qulog‘i bor,
Biri tinglar, biri so‘zlar,
Bir otasi, bir onasi,
Necha yuz ming bolasi” va hokazo.

Topishmoqlar shakl jihatdan g‘oyat rang-barangdir. Ular ichida yodlab olsa bo‘ladiganlari ham bor, yodlagan savol-javob topishmoqlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, e’tiqodni shakllantiradi, ular yordamida bolalarni hayotdagi turli g‘oyalar, hodisalar bilan taiishtirishning muammoli usuli amalga oshiriladi.

Savol-javob topishmoqlar odamlar hayoti va faoliyatining ko‘p tomonlariga dahl qiladi. Ularda xalqning odatdagi tasavvurlari aks etadi. Aqliy tarbiyada bu topishmoqlarning ahamiyati g‘oyat yuksak. Ular nafaqat fahmlash, faol fikriy faoliyatni talab etadi, balki ko‘proq, xotirlashga ham undaydi. Bolalar ayrim savol-javob topishmoqlarga javobni maqollar, qo‘shiqlar va ertaklarda uchratadilar, Ertaklardagi javoblar turli variantlardan iborat. Mazmun jihatdan ishonchli va shakl jihatdan shoirona javob eng muvaffaqiyatlisidir.

Umuman olganda, bolalar tarbiyasida topishmoqlarning tashhis amaliyoti alohida o‘rin tutib, u tarbiyachiga har bir imtihon va so‘rovlarsiz bolaning kuzatuvchanlik, fahmlash, aqliy o‘sish hamda ijodiy fikrlash darajasini aniqlash imkonini tug‘diradi.

**Maqollar** odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to‘plagan tajribalari, dunyoqarashi, o‘zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabati, o‘tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi hamda tarbiyalanuvchi tarbiyasida axloq va odobiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qodir. Maqollarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda asosan ikkinchi shaxs - tinglovchiga nisbatan o‘git-nasihatlar yo‘sinida badiiy o‘xshatishlar orqali aytiladi.

YAxshi bola yog‘ keltirar,
YOmon bola dog‘ keltirar.
So‘z kishining o‘zagi,
Odob kishining bezagi.

Oltin olma, duo ol.
Onangga boshingni ham qil,
Otangga gapingni kam qil.

Har bir maqolda hamisha «Ta’lim ulushi» - ibrat mavjud: maqol ma’nosi ibrat tarzidagi aniq ramzi tushuniladi, ibrat hayotning turli ko‘rinishlarini umumlashtirib, tugal jumla holiga kelgan bo‘ladi. Maqollar mehnatkashlarning ko‘plab ma’naviy ehtiyojini qondiradi, ular aqliy bilim, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lishi, odamiylik, axloqiy fazilatlar va hokazolarni anglatishi mumkin. Maqollar xalqning jonli ovozidir, xalq bugungi zarur va ertaga asqotadigan narsani xotirasida saqlaydi. Maqolda o‘tmish to‘g‘risida gap ketsa, u hozir va kelajak nuqtai nazaridan baholanadi, hikmatlarda aks etgan o‘tmishning xalq orzu-niyatlari, ezgu maqsadlariga qay darajada muvofiqligiga bog‘liq ravishda qoralanadi yoki ma’qullanadi.

Maqol xalq ijodi bo‘lib, unda jamoatchilik fikri o‘z ifodasini topadi. Unda xalqning hayotga bergan bahosi, xalq zakovatining kuzatishlari jo etilgan. YAkka shaxs yaratgan yaxshi hikmat, agar u ko‘pchilikning fikrini ifoda eta olmasa, maqol bo‘la olmaydi. Juda bo‘lmaganda, umumxalq fikri va yakka shaxs fikri bir vaqtning o‘zida yonma-yon qolishi mumkin, xolos. Xalq maqollari eslab qolish uchun juda qulay shaklga ega. Maqollar xotiraga mahkam o‘rnashadi. So‘z o‘yinlari, so‘zlarning turlicha jarangi, qofiyadoshligi, ohangdorligi goho shu qadar jozibaliki, natijada, kishi uni oson esda saqlab qoladi. Ayni holda u donolikni, tarbiya va uning hosilasi – xulqni ifoda etuvchi bilish faoliyati tajribasini asrash va targ‘ib qilish vazifasini ado etadi. Maqollarning eng keng tarqalgan shakli o‘gitdir (130-rasm).

130-rasm

**Maqollarning eng keng tarqalgan shakli o‘gitdir –**

Ta’lim nuqtai nazaridan o‘gitlar quyidagi toifaga bo‘linadi:

- Bolalar va yoshlarni yaxshi xulqli bo‘lishga, shu jumladan, muloyimlikka undaydigan o‘gitlar
- Katta yoshdagi odamlarni o‘ziga yarashadigan xulq-odobga o‘rgatadigan o‘gitlar va nihoyat tarbiya natijalarini aks etgiruvchi, ta’lim maslahatlaridan iborat o‘ziga xos nasihatlar. Bu ayniqsa, ta’lim tajribasini umumlashtirishning o‘ziga xos shaklidir

Maqolning asl maqsadi tarbiyadir, ular qadim zamonlardan buyon ta’lim vositasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bir tomondan, ular ta’lim g‘oyasidan iborat, ikkinchi tomondan, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ta’lim vazifasini bajaradi. Xalq tasavvurlariga mos kelib, tarbiya ta’sirining vositalari, uslublari to‘g‘risida hikoya qiladi, shaxsning ijobiy yoki salbiy jihatlarini baholaydi, shaxsning shakllanish maqsadlarini u yoki bu tarzda aniqlab, tarbiyalashga chorlaydi, o‘zlarining tarbiyachidek qutlug‘ vazifalarini mensimaydigan katta yoshdagi odamlarni qoralaydi va h.k.

Maqollarda bolalarning tug‘ilishi, ularning xalq hayotidagi o‘rni, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublariga rag‘batlantirish va jazolash, o‘qish mazmuni, mehnat va axloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar fe’l-atvori va fazilatlarni meros

qilib olishiga, atrof-muhit va jamoatchilik fikrlarining ta’siriga dahldor ta’lim g‘oyalari o‘z aksini topgan va hokazo.

Xalq va avlodlarning ta’lim mubohazasida katta-yu kichik barcha xalqlar beistisno ishtirok etadi. Bolaning dunyoga kelishi bayram, farzandsiz ikki jonning yashashi dushvor. O‘zbek maqollarida bolalar haqidagi yaxshi gaplar ko‘p takrorlanadi. «O‘g‘il bilan qiz - bir juft qizil gul», «O‘g‘il bilan qiz – uyning mehmoni», «O‘g‘il bilan qiz - tun bilan kun», “O‘g‘il - oftob, qiz - mohitob», «Bolalar - osmondagi yulduzlar, qorong‘i tunni yorug‘ kunduz qiladi». «O‘g‘li yo‘qning o‘rni yo‘q, qizi yo‘qning qadri yo‘q».

Bolani har kim ham tug‘adi, lekin tarbiya har kimning qo‘lidan kelavermaydi. «Tug‘ishga tug‘ib, tarbiya qilolmaydigan» ham ota, ham onaga tegishli bo‘lgan tanbehlar har bir xalqda uchraydi.

Xalq tarbiyaning boshlanishi haqida muayyan fikrlar aytadi: qancha erta boshlasa, shuncha yaxshi. Tarbiyani bola tug‘ilishidan boshlagan yaxshi, chunki tarbiya bola tug‘ilishidan ham muhimroqdir. «Dunyoga keltirgan ota va ona emas, edirib ichirgan. yaxshi tarbiya bergan ota va ona». Ota bilan ona faqat ota-onagina emas, tug‘ilish - bu boshlanishi, ota bilan ona eng avvali tarbiyachilardir, faqat shundagina ular o‘z vazifalarini tugallab, ado etgan hisoblanadilar. «Ota maktabi» otadan ko‘ra muhimroqdir: «Otasi yaxshining bittasi yaxshi, onasi yaxshining hammasi yaxshi», «Onasi miyasiga quyganini ota sug‘urib ololmaydi»,

Xalq tafakkurida merosxo‘rlik, meros va ota-onalar ta’lim faoliyatining natijalari bir butunlikda namoyon bo‘ladi. “YAxshi xotinning bolalari ham yaxshi bo‘ladi» (rus.), «Aql, katta bo‘lganda kiradi, tarbiya tug‘ilgandan boshlanadi» (o‘zb.), «YAxshi g‘aramda yaxshi pichan, yaxshi oilada yaxshi bola» (chuv,), «YAxshi go‘shtning sho‘rvasi totli, yaxshi odamning bolasi totli» (qir.) va h.k. Lekin bolaning o‘z qilmishlari uchun shaxsan mas’ulligi ham inkor etilmaydi: «Axmoq o‘g‘ilga ota ham aql bo‘lolmaydi», «Axmoq o‘g‘ilni ota ham yo‘lga sololmaydi». Maqollarda tarbiyaning qulay va noqulay sharoitlari o‘z aksini topgan. Barcha xalqlarda yosh avlodga tarbiyachi (murabbiy)larni hurmat qilish zarurligi uqtiriladi. Ota-ona obro‘siga, ayniqsa, katga e’tibor beriladi: «Ota puli bilan emas, ota aqli bilan yashash kerak», «Eskichada ham, yangichada ham ota o‘g‘ildan ulug‘», «Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi», Onani ham istehkom devoriga qiyos qilinadi. Ota-onalariga qilgan muomalalariga qarab bolalar taqdiri bashorat qilinadi: «Otangni xor qilganding, senga ham o‘g‘lingdan shu qaytadi» (131-rasm).

**Qo‘shiqlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati**

Qo‘shiqlarda xalqning asriy orzu umidlari va ezgu niyatlari aks ztadi. Tarbiyada uiing ahamiyati beqiyosdir. Qo‘shiqlar etik, estetik va pedagogik g‘oyalarni musiqiy hamda shoirona bezashi bilan qimmatli. Go‘zallik va ezgulik qo‘shiqda yaxlit idrok etadi. Xalq tarannum etgan rahm-shafqatli azamatlar nafaqat mehribon, balki ular go‘zal ham. Xalq qo‘shiqlariga ezgulikni, inson baxti-saodatini qutlovchi milliy qadriyatlar singib ketgan.

Qo‘shiqlar topishmoq va maqollarga nisbatan xalq she’riy ijodining bir muncha murakkab shaklidir. Qo‘shiqlarning bosh maqsadi - go‘zallikka nisbatan muhabbat uyg‘otish, estetik qarash va didni charxlashdan iborat. YOshlarning qo‘shiqchilikdagi ijodini kattalar muttasil qo‘llab-quvvatlab, rag‘batlantiradi.

131-rasm

**Maqol – bu**

tayyor xulosa, lekin u hali so‘nggi manzil, xayolot sarhadi emas. Maqol qandaydir muayyan holatda - xulosa, boshqa holatda - faraz bo‘lib, yangi muammolarni ko‘ndalang qo‘yadi. Maqolning qiymati uning tub-tubiga kirib borishni talab etuvchi ma’nosini sharhlab berilganda ma’lum bo‘ladi. Mulohazalar, suhbatlar, bahslarda maqollarni sharhlab berish xalq ichida keng yoyilgan. Bunday sharhlashlar ko‘pgina hollarda bir qarashda unchalik bo‘lmagan maqollarni ham ta’limiy maqollar sirasiga o‘gkazib yuboradi. «Hayot - dala aylanish emas, uni yashash kerak», maqoli yoshlarga qarata aytilgan nasihat, maslahat sifatida talqin qilinadi

YOsh avlodni tarbiyalash bilan birga hayotning barcha jihatlarini sozga solish, qo‘shiqqa xos xususiyatdir. Qo‘shiqning ta’limiy qimmati shundaki, bolalarni chiroyli qo‘shiq aytishga o‘rgatadi, u esa o‘z navbatida nafosat hamda ezgulikka etaklaydi. Xalq hayotidagi barcha voqealar - mehnat, bayramlar, to‘ylar, azalar va hokazolar doim qo‘shiq bilan hamohang. Odamlarning butun hayoti qo‘shiqda kechib, u go‘zallik va axloqiy mohiyatini ajoyib tarzda ifodalaydi.

132-rasm

**Qo‘shiq –**

Qo‘shiq janri yoshlarning nafosat tarbiyasida alohida o‘rin tutadi. O‘zbek xalq qo‘shiqlari asosan “Alla”, “YOr-yor”, “O‘lan”, “Azayigi” kabi bir necha turda shakllangan. Bola dastavval ona “Alla” sini eshitadi. Binobarin, bola ko‘rish baxtiga muyassar bo‘lgan onalarning qay darajada bo‘lmasin, “Alla”-aytolmasliklarini tasavvur qilish mumkin emas. Hatto, qo‘g‘irchoq o‘ynashni uddalay olgan jajji qizlar ham “alla” aytish bilan go‘yo qo‘g‘irchoqlarini ovuntiradilar va shu orqali qo‘shiq olamiga ilk bor qadam qo‘yadilar

Qo‘shiqni hamma kuylaydi va tinglaydi. Qo‘shiqdan boshqa hech bir janr haqida bunday deb bo‘lmaydi. Maqollar, ertaklar, topishmoqlarni odam ma’lum yoshdan keyin tushuna boshlaydi, u yoki bu toifadagi shaxslar ulardan umrining muayyan davrida foydalanadi. To‘g‘ri qo‘shiqning ham o‘z “sevimli yoshi” yo‘q

emas: O‘n besh-yigirma yoshdagi qizlar shunchalik ko‘p qo‘shiq aytadiki, shu damgacha va umrining oxirigacha aytganlari ham o‘shancha hisobga etmas ekan.

Qo‘shiqlarda ta’lim g‘oyasi hamisha bisyor, bu g‘oya qo‘shiqlarning ma’rifiy-ta’limiy vazifasini belgilaydi, ayrim toifa qo‘shiqlar garchi ularning aksariyati yoshga qarab cheklangan va taqsimlangan bo‘lmasa-da, ma’lum yoshli guruhlarga mo‘ljallangan. Kattalarning ayrim qo‘shiqlarini yosh bolalar alohida ishtiyoq bilan kuylaydilar. SHu bois, gap u yoki bu qo‘shiqning ijro etilishi xususidagina borishi mumkin (132-rasm).

Insonning bugun umri mukammal qo‘shiqlar turkumini tashkil ztadi: beshikda yotgan hali hech narsani tushunmaydigan chaqaloqqa ham, his ztish va anglashdan to‘xtab, tobutda yotgan marhumga ham qo‘shiq aytiladi. Olimlar nafis qo‘shiqning ona qornidagi homilaning ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlaganlar. Alla qo‘shiqlari chaqaloqni uxlatibgina qolmay, balki uni erkalaydi, hatto quvonch ham bag‘ishlaydi. CHaqaloq kayfiyati chog‘ bo‘lib uyg‘onishi va kelayotgan kunni quvonch bilan qarshi olishi uchun maxsus qo‘shiqlar kuylash odati bor.

Ona “alla”sining tarbiyaviy roli muhimdir. X asr Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur mutafakkiri va tibbiyotning buyuk siymosi Abu Ali Ibn Sino ona “alla”sining tarbiyaviy ahamiyati haqida tarbiyalanuvchilarning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerakligi, chunonchi: biri - bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi - uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa-allalashdir, degan fikrni ilgari surgan.

Biz shuningdek ertak va dostonlar xususida ham qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz. **Ertak va dostonlar** xalq og‘zaki ijodidagi topishmoq, maqol, qo‘shiq kabi janrlarda jamlangan bo‘lib, ular pedagogik g‘oyalarning mukammalroq, ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Ertak va dostonlar tarbiyalanuvchi tarbiyasining hamma tarkibiy qismlarini jumladan, aqliy va jismoniy kamolot, ilm va xunarga muhabbat, mehnatsevarlik, ma’naviy sifat hamda nafis didlarning tarkib topishiga doir ko‘pdan - ko‘p pedagogik masalalarni o‘z ichiga oladi. Bular jumlasiga “Zumrad va Qimmat”, “Etti og‘a-ini botirlar”,”Erali va SHerali”, “Saxiy va baxil” va boshqa shu kabi ko‘plab ertaklarni, shuningdek “Alpomish”, “CHambil dostoni” kabi dostonlarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda folklor namunalari to‘g‘ridan–to‘g‘ri tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Bular bilan bir qatorda tarbiyalanuvchi yashab turgan muhit - sharoitning vositachi roli mavjudki, ular yoshlarning ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda katta va samarali tarbiya vositasi hisoblanadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

Bolalar o‘yinlari, choyxo‘rlik (choyxona gurungi), tarbiyalanuvchilar gapi (gap aytish), tarbiyalanuvchilar majlisi, mehmondorchilik, hashar va hokazo.

Tarbiyalanuvchilar tarbiyasida xalq pedagogikasining namunalari hisoblangan xalqning milliy urf-odatlari, turli milliy marosimlari, an’analari, milliy bayramlar muhim rol o‘ynaydi. Ular qo‘yidagilardan iborat:

- To‘y marosimlari - beshik to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, hovli to‘yi;
- Sayllar - dala sayli, gul sayli, qovun sayli;

- Yig‘in (tomosha, tug‘ilgan kunni nishonlash), yigit bazmi, qiz bazmi, kelin salom, uloq, poyga, kurash, turli shakldagi musobaqalar;
- Aza marosimi, aza ma’rakasi;
- Safarga chiqish, ovga borish, kino, teatr, istirohat bog‘i, ommaviy yig‘inu tomoshalarga borish, Ro‘za hayit, Qurbon hayit, Navro‘z bayramlari.

Dunyo madaniyatining beshigi SHarqda ijtimoiy tuzumning qaysi bosqichda ekanligidan qat’iy nazar, shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosi hamisha etakchi o‘rinda bo‘lgan. Islom dinining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri ham sof fikrli, komil, yaratuvchi, beozor insonni tarbiyalash bo‘lgan.

Ushbu bobda folklor va o‘zbek xalq pedagogikasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining namunalari bo‘lmish tez aytishlar, topishmoqlar, maqollar, qo‘shiqlar, o‘yinlar hamda ertaklar va dostonlarning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rni ko‘plab misollar bilan juda tushunarli qilib berilgan.

## 18-mavzu. TARBIYAVIY TADBIRLARNI REJALASHTIRISH, TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

### REJA:

1. Rahbarlikning zarur qonun-qoidalari
2. Rejalashtirishga qo‘yiladigan talablar
3. O‘quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari
4. Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash
5. Sog‘liqni saqlash va sog‘lom avlodni tarbiyalash tadbirlari
6. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari

### TAYANCH IBORALAR:

Rahbar, tadbir, tarbiyaviy tadbir, reja, rejalashtirish, tashkil etish, o’tkazish, qonun-qoidalar, metodika, o’quvchi, bilim, ko’nikma, malaka, munosabat, sog’lom avlod, ota-onalar, guruh

### 1. Rahbarlikning zarur qonun-qoidalari

Tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilib, uni tashkil etishda tashabbus ko‘rsatish, ishbilarmonlik va epchillik, barcha yangi va ilg‘or narsalarni amalda samarali qo‘llay bilish ta’lim muassasasi o‘quvchisi shaxsini rivojlantirish jarayoniga rahbarlik qilish prinsiplaridan biridir.

Samarali rahbarlik uslubini ta’lim muassasasi hayoti va faoliyatiga tatbiq etishning namunasi bo‘lgan kollegial va yakka rahbarlikning birga qo‘shib olib borilishi o‘quvchilar taqdiri, ularning tarbiyasiga pedagoglar jamoasi javobgarligini va direktorning shaxsiy javobgarligini ta’minlaydi.

Rahbarlikning zarur qonun-qoidalari rejalilik bo‘lib, uning yordamida pedagogik ta’sirlar tizimi va tarbiyaviy ishda izchillikka erishiladi. Rejalilik direktorga tarbiyaning barcha masalalarini aniq amalga oshirish istiqbollarini namoyon qiladi.

Mazkur ta'limotga asosan ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni rejalashtirish va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyushtirib borish ta'lim muassasasi ichki boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Guruhdan va ta'lim muassasasidan tashqari ishlarning umumta'lim muassasasi rejasini ma'naviy va ma'rifat bo'yicha direktor o'rinbosari rahbarligida, guruh rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o'qituvchilar, ta'lim muassasasi kutubxonasi, o'quvchi-yoshlar tashkiloti, o'quvchilar uyushmasi, ota-onalar qo'mitasi hamda to'garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni ta'lim muassasasining yig'ilishida muhokamadan o'tkazib, tasdiqlash maqsadga muvofiqdir. Respublikamizdagi qator ta'lim muassasasilar ilg'or direktorlarining ish tajribalarida o'qituvchilar va guruh rahbarlarining tarbiyaviy ishiga pedagogik rahbarlikning yaxshilanishini ta'minlaydigan kompleks tizim tarkib topmoqda.

Direktor o'qituvchilar, guruh rahbarlari, tarbiyachilar va o'quvchilarga nisbatan tutgan qonun-qoidalarial yo'li va faoliyatida birlik bo'lishiga erishadi, ta'lim muassasasining oila, kattalarning mehnat jamoalari, jamoat, tashkilotchilari bilan uzviy hamkorlik qilishiga intiladi.

Ta'lim muassasasining tarbiyaviy jarayoniga rahbarlik qilishda direktor boshlang'ich va o'quv guruhlari tarbiyaviy ishida izchillikka rioya qilishga alohida e'tibor beradi, bu bilan ta'lim jarayonida ham, shuningdek, darsdan tashqari vaqtda ham tarbiyaning uzluksizlik va prisipini amalga oshiradi.

## 2. Rejalashtirishga qo'yiladigan talablar

Guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasi bu majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda. O'tkaziladigan tadbirlarning bajaruvchi shaxslari, muddati va bajarilishi turi aniq ko'rsatilishi lozim. Reja ta'lim muassasasi direktori o'rinbosarlari tomonidan ko'rib chqilib, direktor tomonidan tasdiqlanishi shart. Rejalashtirishda guruh rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi (133-rasm).

133-rasm

**Rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilsa, uning samarasi oshadi:**

1. Reja mahalliy sharoitga qarab, kollejning joylashgan o'rni, albatta, o'quvchilarninrg saviyasi, yoshiga qarab mumkin qadar mos tuzilishi kerak.
2. Reja muayyan maqsadga qaratilishi va real (aniq) bo'lishi zarur.
3. O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi bilan kelishilishi lozim.
4. Rejada o'quvchilarning kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'tillarida qiladigan ishlari aks etishi kerak

Tarbiyaviy ish jarayonini endi boshlagan, kam tajribaga ega – guruh rahbari, odatda, keng qamrovli ish rejasini tuzsa, pedagog esa, chegaralangan reja bilan ishlashi mumkin. Ammo har ikkala holda ham barcha guruh rahbarlarining tarbiyaviy rejasida tarbiyaviy ish faoliyatining asosiy mazmuni hamda yo‘nalishlari to‘la aks ettirilmog‘i darkor.

Quyida ta’lim muassasasining birinchi o‘quv yili yarim yiliga mo‘ljallangan namunaviy ish rejasi keltirildi (134-rasm).

134-rasm

**Guruhga qisqacha tavsif-noma**

Guruhda … o’quvchi bo’lib, ...tasi qizlar va ... tasi o’g’il o’quvchilar.

Shulardan ... tasi “O’quvchilar va o’smirlar” uyushmasi a’zosi.

«O’quvchilarning bilim darajalarini nazorat qilish reytingiga ko’ra a’lochi va o’zlashtirmovchi o’quvchilar soni.

Guruh o’quvchilari darslarda ongli intizomga erishgan va guruhdan tashqari ishlarning ko’pgina masalalarini mustaqil hal etadi. O’quvchilar faol, mehnatsevar va do’stona jamoadir

**Eslatma.** **Tarbiyaviy vazifalar o’quvchilarning yosh xususiyatiga qarab, o’zgartiriladi.**

### 3. O‘quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari

Guruh rahbari tomonidan o‘tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlar shu bo‘limga kiritilib, guruh tarbiyaviy soatlari deb yuritiladi (yil davomida 30-34 soat dars jadvaliga kiritiladi).

Hamda, u soddalashtirilgan, barcha guruhlar uchun qulay quyidagi andozada tushirilishi mumkin. Avvalgi adabiyotlarda berilgan rejalashtirish chizmasiga "Bajarilish turi" qo‘shimcha sifatida kiritildi. Maqsad, rejalashtirilgan mavzu masalan, "Ota-onam - suyangan tog‘im" yuzasidan suhbat, kecha, konferensiya uchrashuv, ekskursiya va hokazolar o‘tkazish mumkin. Albatta, bu tadbirlarning barchasini bir o‘quv yilida o‘tkazib, guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasida bu mavzu har yili takrorlanib, bajarilish turi o‘zgartirib boriladi. Guruh rahbari mehnatining unumli bo‘lishida bu usul ancha samara beradi (135-rasm).

135-rasm

**Guruh rahbari o'quvchilar haqidagi quyidagi ma'lumotlarni shu bo'limga keltirishlari mumkin:**

O'quvchi qayerda yashaydi?
Uning ota-onasi qayerda va kim bo'lib ishlaydi?
Oila tarkibi, oilaning madaniy darajasi.
Oiladagi o'zaro munosabat.
Oiladagi o'quvchiga tarbiya berishning o'ziga xosligi.
O'quvchining uydagi kun tartibi va maishiy ahvoli.
O'quvchining uy va jamoat ishlarida ishtirok etishi.
Fan to'ugaraklariga qatnashishi (kollej va kollejdan tashqaridagi).
O'quvchining kollejdan tashqaridagi do'stlari va tanishlari.
O'quvchi yozda qayerd dam oladia?
O'quvchi hayotidagi eng muhim voqea-hodisalar.
Gazeta va jurnallarga obuna bo'lishi.
O'quvchi salomatligining ahvoli xodimlarining ma'lumotiga ko'ra)

Guruh tarbiyaviy soatlarining mavzulari quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi va yuqoridaga andozaga tartib bilan jamlanadi.

| № | Tarbiyaviy tadbirlar nomi | Bajarish turi | Vaqti | Mas'ul | Ijrosi haqida |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Ota-onam suyangan tog'im | Uchrashuv | Mart oyining 1-haftasi | Guruh ota-onalar qo'mi-tasi raisi | Tadbirga ...ota-ona, ...o'quvchi ishtirok etdi |

**Ma'naviyat va burch tarbiyasi**

Ma'naviyatimizning qadimiyligi, mazmun va mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tamoyillari, uning jamiyatimiz taraqiyotidagi roli va ahamiyati katta.

Prezidentimiz asarlari va nutqlarida insonni jonli mavjudodlardan ajratib turadigan ong va til, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat va sahovat, rahm-shafqat, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, tabiatni e'zozlash, ilm va fanni, adabiyot va san'atni, madaniyatni sevib, ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o'zi va o'zga millat kishilarini, ularning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish va qadrlash xislatlarini tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinadi. Tarbiyaviy vazifalar 136-rasmda berildi (136-rasm).

**Vatanni sevmoq iymondandir**

"Uning baxt-saodati, yorug' istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lsa, jonini fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir".

136-rasm

**Tarbiyaviy vazifalar**

O'quvchilarni mehnatda va o'zbek xalqining mustaqil davlat qurishdagi bunyodkorlik ishlarida ishtirokini ta'minlash.

Yoshlarni baynalmilal va boshqa xalqlarning qardoshlarcha do'stligi ruhida tarbiyalash.

O'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini belgilash.

O'quvchilarni umumiy o'rta ta'limdan keyingi bosqichga tayyorlash.

Yuksak ma'naviyat, iymon va e'tiqodli bo'lish, istiqlol g'oyalarini singdirish.

Guruhdagi barcha o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga erishish.

O'quvchilarning ongli intizomi, o'qishga va mehnatga to'g'ri munosabatida bo'lishi uchun kurash olib borish.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etishda ularning mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirib borish.

"O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi"ga kirish uchun tayyorlash.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov inson uchun ota-ona, aka-uka, do'st-birodar qanchalik zarur bo'lsa, Vatan ham shunchalik mu'tabardir. Uni asrab-avaylash bizning burchimizdir. Chunki "Shu aziz Vatan barchamizniki", ekanligini ta'kidlagani, buning ma'no-mohiyati o'quvchilarga tushuntiradi. Alloh taoloh, tilu zabon, ongu tafakkur bergan inson uchun Vatandan ortiq mehrigiyo va ulug' ne'mat yo'qligi izohlanadi. Tarbiyaviy soat mavzulari 137-rasmda berildi (137-rasm).

**Vatandan ortiq mehrigiyo va ulug' ne'mat yo'qligini isbotlovchi mavzular**

Vatan - sen suygan odamlar manzili.

Vatan - bu tug'ilgan joying.

3. Vatan - bu insonlar yashaydigan muqaddas zamin.

"Davlat", "Hukumat", "Xalq" tushunchalari nima?

Urush va mehnat faxriylarini e'zozlaymiz.

G'alaba va mustaqillik kunini sharaflaymiz.

Harbiy o'yinlarda ishtirok etish.

"Vatanimga xizmat qilaman".

Chin vatanparvarlik o'z o'lkasini sevishdan boshlanadi.

Hadisdan mavzuga ovd parchalarni o'qish va muhokama qilish.

Respublikamiz istiqdolini mustahkamlashda faolmiz.

O'zingiz yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, viloyat tarixini bilasizmi?

Mening vatandoshim - zamondoshim.

"Bizdan ozod, obod Vatan qolsin".

"Yov qochsa, botir ko'payar.

Mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimiz - faxrimiz.

O'zbekiston - Vatanim manim.

Estetik (nafosat) tarkibi 138-rasmda berildi (138-rasm).

137-rasm

**Tarbiyaviy soat mavzulari**

Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur.
Insonning hayotini bezaydigan, go’zallashtiradigan omil ma’naviyatdir.
Davlat va millat ma’naviyati bilan ko’rkamdir.
Ma’naviy barkamol kishilar hayoti biz uchun namuna.
Halollik va rostgo‘ylik - inson fazilati.
Bugun niyat - ertangi haqiqat.
Chin va yolg’on do‘stlik.
Haqiqiy va qalbaki qahramonlik.
Yomon odatdan saqlan.
Iymonsizda Vatan tuyg’usi bo’lmaydi.
O’z g’ururingni himoya qila olasanmi?
Qur’oni karim va Hadisi sharifdan parchalarni o’qish va muhokama qilish.

**Eslatma. Yuqoridagi va endi tavsiya qilinadigan mavzularni guruh o’quvchilarining qabul qilish darajasiga qarab soddalashtirish, murakkablashtirish mumkin.**

**Baynalmilal birlik nima?**

Sen hamdo‘stlik mamlakatlari va ularning o‘quvchilari haqida nimalarni bilasan?

Bu mavzuga tayyorgarlik quyidagicha tashkil etilishi mumkin. Hamdo‘stlik mamlakatlaridan biri tanlanib, uning tashkil topgan vaqti, geografik jihatdan joylashishi, aholisi, tabiiy boyliklari, iqtisodi, adabiyoti-san’ati, chet mamlakatlar bilan aloqasi kabi savollar o‘quvchilarga bo‘lib beriladi. Navbatdagi tarbiyaviy soatga geografiya, tarix va adabiyot o‘qituvchilari taklif qilinib, o‘quvchilar tinglanadi. Fan o‘qituvchilarining suhbati bilan mashg’ulot yakunlanadi.

Bizning mahalla, qishloq va tumanda necha xil millat vakillari yashaydi va ular qanday aloqadalar?

Tuman va viloyatlardagi qo‘shma korxona vakillari bilan uchrashuv uyushtirish, ekskursiya tashkil etish.

Chet tillarni o‘rganish - iqtisodiy mustaqillik poydevori.

Chet tili o‘qituvchisi bilan xorijiy tilda ma’lum mavzuga atalgan kecha o‘tkazish.

Hamdo‘stlik mamlakatlari hamda chet ellik o‘quvchilar bilan aloqa bog’lash.

Chet mamlakatlarda ta'lim olayotgan yurtdoshlarimiz bilan aloqa o'rnatish, ular orqali u mamlakat haqida ma'lumot to'plab, muhokama qilish.

*Rahbarlik vazifalariga javobgarlikni yuklash haqida qo'shimcha qiladigan bo'lsak, rahbar va nazoratchi o'rtasida hamfikrlilikni o'rnatish lozim. Birinchi yig'ilishdayoq, rahbar va nazoratchilar taqsimlash shartlaridagi javobgarlik ishonchi haqida muhokama qilishlari kerak.*[29]

138-rasm

**Estetik (nafosat) tarkibi**

Musiqani qanday tinglash kerak?

Badiiy asar qanday o'qiladi?

Afsuski, hozirgi kunda o'quvchilarimiz kitob mutolaasiga qiziqmay quydilar. Zeroki, mashhur tatar olimi Rizouddin ibn Fahruddinning "Nasiyhat" kitobidan olingan ushbu parcha o'quvchilar bilan birgalikda o'qilishi o'quvchilarning bu "kasalligi"ga shifo bo'lsa ajab emas.

**Kitob va mutolaa**

1. Go'zal kitoblar ajib narsalarni ko'ruvchi ko'z, avloqda sirdosh, yolg'izlikda do'st, ojizlik vaqtlarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, u zamon ahvolidan so'zlovchi, ummatlar voqiotini hikoya etuvchi, aqlli kimsalarning aqllarini ko'rsatuvchi, oz haqli - ko'p foydali narsalardir. Shuning uchun kitob olmaqda baxillik etmangiz, kitoblardan ayrilmangiz.

2. Lekin kitoblar orasida yo'q, narsalar yozilmish - ma'nosiz narsalar ila to'lganlari-da bordir, bo'larni o'qimoq, qiymatli umrni zoi' etmakdir. Shuning uchun fikrlarni nurlantirajak, xulqi poklarga yordam berajak, aqlni orttirajak kitoblarni ixtiyor etib, boshqalardan yiroq bo'lingiz. Foydali kitoblarni o'qimak kungliga shodlik keltirur, fikrga oziq bo'lur, zehnga quvvat berur...

3. Ba'zi kimsalar bo'ladiki, "kitobi ko'b" deb xalq orasida nom chiqarmoq uchungina kitob yig'ib, o'zlari hechda foyda olmaslar. Boshqalarga-da foyda oldirmaslar, hatto ichlarida nimalar borliginida bilmaslar. Bular yuq tashuvchilar misolidadir. Shuning uchun sizlar o'zingiz foyda olajak bo'lgan kitoblarni o'zingaz foyda olmoq uchun ixtiyor etingiz.

4. Mutolaa insonning yuziga nur, kungliga shoddik keltirur. Ushbu sabab uchun zehn xizmati ila mashg'ul bo'luvchilar harnaqadar oriq bo'lsalar- da, aqllari semiz va yo muhabbatli bulur.

5. Musiqaning ajoyib sahifalari - musiqali soat o'tkazish. O'quvchilarga mumtoz ashulalardan birining nomi aytiladi. Topshiriq: she'r muallifi, bastakori haqida ma'lumot to'plab kelish, gramplastinka yoki magnit tasmasiga yozilgan qo'shiqni topish va birgalikda eshitib, muhokama qilish, O'quvchilar o'zlariga

[29] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 158.

topshirilgan vazifani musiqa o’qituvchisi yordamida guruh tarbiyaviy soatida muhokama qiladi.

6. Sen mehmonni qanday kutasan, mehmonda o’zingni qanday tutasan? (Mehmon bo’lish va kutish adabi haqida).

7. "San’atkor dunyosida", "Ulug’ rassom" mavzularida suhbat, uchrashuv, ekskursiya o’tkazish, albom yoki stend tayyorlash.

## 4. Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash

Bu tarbiyaviy tadbirda yuqoridagi kitobdan olingan quyidagi parchalarni guruh tarbiyaviy soatida ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ilm ko‘ngil ko‘zini ochur, nodonlik qorong‘ulikni keltirur, ulug‘ darajalar yetkurur, dushmanlarga qurol bo‘lur, tiriklikni saqlar, dunyo kutmak sabablarini bildirur, yurt ichida va umumxalqlar ila qanday suvratda bo‘lmak kerak ekanini o‘rgatur. Ilm olimlarning hurmati bo‘z, ug‘rilardan qurqusiz davlat va hech bitmayturgan boylikdir.

Olimlar payg‘ambarlarning vorislari, dunyoning nurlari bo‘lib, nodonlarda dunyoda turganlari holda o‘liklar hukmidadirlar, chunki ular Olloh taoloning ajib narsalariga kerak vaqtidagina ko‘z solurlar, lekin ibrat ola bilmaslar. Kerak vaqtida suv ichadilar, ammo suvning nimadan xosil bo‘lgani, chashmalarning qayerdan kelib, qayerga ketganlaridan xabari bo‘lmas.

Ilmi ko‘b kimsalarga qaraganda o‘z ilmli bo‘lmakdan uyalmangiz, balki bilmaq qo‘lingizdan kelajak narsalarni bilmay qoluvingizdan uyalingiz, chunki bunisi aybdir. Ilm ahllariga nafs ortidan yurmak hech kelishilgan ish emas, shuning uchun shariy’at o‘lchovidan tashqari mol sevmangiz, shahvatlarga asir bo‘lmangiz.

Har vaqt ilmga muhabbat qo‘yingiz, o‘rgatilmish narsalarni ixlos ila tinglangiz, kerakliklardan so‘ng kerakliklarni o‘rganingiz va har bir ilmdan ko‘rkam bo‘la bilingiz, hech vaqt ilmga takabburlik ko‘rsatmangiz.

Ilm o‘rganmak harnaqadar go‘zal ish bo‘lsa-da, buzuq niyat ila bo‘lganida go‘zalligi yo‘q olur. Shuning uchun "Bizdan Olloh taolo rizo bo‘lsin ham yaxshi ishlarga sabab bo‘lsin", deb niyat etingiz. Bu esa yaxshi niyatdir. "Imom, muazzin, oxund, qoziy yoki muallim, mudarris va nima bo‘lsa-da, bir martabaga erishsak edi", deb niyyat etmangiz, ko‘nglingizda bu kabi narsalar bu, chiqaringiz, chunki bu yaxshi niyyat emasdir. Zero ilmdan maqsad daraja emas, balki foydali odam bo‘lmakdir.

Xazinangizda bo‘lgan ilmdan ortiqni da’vo etmangiz, o‘z-o‘zingizga ulug‘lik ila hukm aylamangiz. Bilursizmi, donlari ko‘p va yirik bo‘lgan boshoqlar har vaqt boshlarini qo‘yi solib tururlar. Donsiz yoki donli boshoqlar boshlarini yo‘qori ko‘tarib tururlar, ozgina havo silkinsa, silkina boshlaydilar, holbuki, o‘zlarining o‘tga yondirmakdan boshqa foydalari bo‘lmas.

"So‘nggi axborot" daqiqalarini o‘tkazish. O‘quvchilar navbat bilan hafta mobaynida Vatanimiz va chet el yangiliklaridan to‘plab, muhokoma qilinadi. Materiallar gazeta, radio va televideniyadan to‘planadi. Buning uchun har tarbiyaviy soatda 3-4 daqiqa vaqt ajratiladi, har bir o‘quvchi bu tadbirda bir marta qatnashadi.

O‘quvchilarni ta’lim muassasasidagi fan to‘garaklariga qatnashishini tashkil etish va kuzatish.

"O‘ylab ko‘r", "Bahs", "Bilib qo‘ygan yaxshi", "Yangiliklar" mavzularida guruhning munozara burchagini tashkil etish.

Gazeta va jurnallarga obuna bo‘lishni ta’minlash.

Radio va televideniyalarda o‘tadigan o‘quvchilarbop eshittirish va ko‘rsatuvlarni eshitish va ko‘rish, uni muhokama qilish.

Fan haftaliklarida ishtirok etish.

Ta’lim muassasasida tashkil etiladigan fanga oid ko‘rgazma, kecha, badiiy olimpiadalarda qatnashish.

## 5. Sog‘liqni saqlash va sog‘lom avlodni tarbiyalash tadbirlari

Tibbiyot xodimlarining "Tozalik va sog‘lik", haqidagi suhbatlarini uyushtirish. "Sog‘lom tanda – sog‘lom aql", "Sog‘lik - tuman boylik" mavzularida munozara o‘tkazish. Buyuk allomalarning sog‘lik-salomatlik haqidagi o‘gitlarini muhokama qilish. “Gazeta, jurnal va badiiy asarlar qanday o‘qiladi?” – Mavzusida munozara. Jinsiy tarbiya borasida o‘g‘il va qiz o‘quvchilarga alohida ma’lumotlar berish. Shuningdek, "Nasiyhat" kitobidan "Ovqatlanmak" va "Ichmak" odoblari haqidagi ibratli parchani ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq, bo‘ladi.

**Ekologik tarbiya**

Inson samarali mehnati, tabiat noz-ne’metlaridan oqilona foydalanishi va uning go’zalliklaridan bahramand bo’lishi tufayli farovon hayot kechiradi. O’quvchilarda bu tushunchani shakllantirishda ekologik tarbiya muhim o’rin tutadi.

Ekologik tarbiya – bu o’quvchilarda atrof-muhitga nisbatan beparvo bo’lmaslik, tabiat, inson, hayvonot va o’simliklar dunyosini e’zozlashni shakllantirish demakdir. Bu jarayon dars va guruhdan tashqari mashg’ulotlarda amalga oshiriladi.

Yashab turgan tuman, viloyat tabiatini o’rganish.

"Suvsiz hayot bo’lmas", "Yer xazina, suv-oltin", "Tabiat uchinchi - akamiz mavzularida til-adabiyot o’qituvchisi hamkorligida insho o’tkazish, muhokama qilish, namunali insholar ko’rgazmasini tashkil etish.

"Tabiat boyliklari deganda nimani tushunasiz?", "Tabiatni asrash uchun nimalar qilish kerak?", "Qanday zavodlar havoni ifloslaydi?", "Orol dengizi haqida nimalarni bilasiz?", "Qanday daraxt va gullarni sevasiz?" mavzularida munozara tashkil etish.

**Jismoniy tarbiya**

"Badan tarbiya bilan mu’tadil va uzoq vaqt shug‘ullanuvchi kishi tabiblarning davosiga muhtoj bo‘lmaydi". Abu Ali ibn Sino kelajak avlodni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, o‘quvchilarni jismoniy baquvvat, har qanday muxitga, mehnatga qodir va chidamli qilib tarbiyalash maqsadida guruh tarbiyaviy soat darslari va boshqa tarbiyaviy tadbirlarda tubandagi mavzulardan foydalanish.

Salomatlikni saqlash va tiklash uchun jismoniy mashqlardan foydalanish (ta’lim muassasasidaga darsdan oldingi badan tarbiya mashqlariga qatnashishlarini ta’minlash). O‘quvchilarni ta’lim muassasasi va ta’lim muassasasidan tashqaridagi sport musobaqalariga qatnashishlarini ta’minlash.

"Yoshlik-chaqqonlik" mavzusida suhbat.

"Ular bilan faxrlanamiz" mavzusida uchrashuv oʻtkazish, alьbom yoki stend tayyorlash (taʼlim muassasasi, tuman yoki viloyatdan chiqqan sport mashʼallari haqida). "Agrar yursang piyoda, umring boʻlar ziyoda" mavzusida taʼtil vaqtlarida ekskursiyalarga chiqish.

Sport musobaqalariga jalb qilish.

Vatandosh buyuk allomalarimizning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlarini oʻrganish va muhokama qilish. Tarbiyaning muhim sohasi sanalmish jismoniy tarbiya haqidagi oʻzbek mutafakkir olimi, yetuk pedagog Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" kitobidan olingan ushbu parchani oʻrganish oʻrinlidir. "Badanning salomat va quvvatli boʻlmogʻi insonga eng kerakli narsadir. Chunki, oʻqimoq, oʻqitmoq.. oʻrganmoq, va oʻrgatmoq; uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sogʻ badanga boʻlgan insonlar amallarida, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh, ikkisi bir choponning oʻng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini quyub, astarini yuvub, ovora boʻlmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun malham va sogʻlom bir vujud kerakdur".

### 6. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari

Mustaqillik tufayli hayotimiz kundan-kunga farovonlashib borishi shubhasiz. Albatta buning negizida Prezidentimiz va Hukumatimizning yangi-yangi farmon, buyruq va koʻrsatmalari yotadi. Buni biz shartli ravishda rejaga "Eng yangi yangiliklar" deb kiritdik. Bu boʻlim rejaning eng oxirgi tadbirlaridan hisoblanadi va rejaning oxiriga kiritiladi. Tarixiy sanalardan soʻng qayd qilinadi. Tarbiyaviy tadbirlarda ularni oʻrganish va hayotga tatbiq etish zarur, yaʼni zamon talablariga koʻra chiqarilgan yangiliklar reja tuzilgandan soʻng eʼlon qilinsa, guruh rahbari belgilagan tarbiyaviy tadbirni oʻquv yilining qaysi yarim yilligidan qatʼiy nazar, tarixiy sanalardan keyin mavzuni qayd etadi va tegishli tadbir oʻtkazadi.

Taʼlim muassasasi rahbarlari rejani tasdiqlayotgan vaqtlarida bu boʻlimning qay tarzda aks etganligiga ahamiyat berishlari zarur.

**Tarbiyaviy papkada nimalar boʻlishi kerak?**

Guruh tarbiyaviy papkasi guruh rahbarining tarbiyaviy sohasida olib boriladigan ishlar toʻplamidir. Bunda faqat oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga qarab tarbiya borasida kerak boʻladigan materiallar boʻlishi kerak.

Oʻquvchi, oʻqituvchi, ota-onalar bilan suhbatlar alohida-alohida betlarda qayd etiladi. Tarbiviy papkada quyidagilar boʻlishi talab etiladi (139-rasm).

Yuqoridagi tajribalardan kelib chiqib, guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasi bir katta daftarda boʻlishi maqsadga muvofiq, deb topgan edik. Guruh rahbari mehnatini ixchamlashtirish, nazoratni va boshqaruvni ilmiy asosda tashkil etish uchun reja mundarijasi quyidagicha boʻlishini tavsiya etamiz.

Guruhga qisqacha tavsifnoma.

Tarbiyaviy vazifalar.

Oʻquvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari (Eslatma: mundarija mazmuni 1-3 boʻlimlarda tavsiya etilganidek yoritiladi va daftar boʻlim hajmiga koʻra mundarijalanadi).

139-rasm

**Demak, tarbiviy papkada quyidagilar bo‘lishi talab etiladi:**

- tarbiyaviy ishlar rejasi;
- rejalashtirilgan mavzuga oid risolalar;
- yo’l harakati xavfsizligi va yong’indan saqlanish qoidalari yuzasidan dastur va ko’rsatmalar hamda tarbiya borasida kerak bo’ladigan zarur materiallar.
- Haftalik tarbiyaviy tadbirni rejalashtirishda guruh rahbari mavsumni, tarixiy sanani, eng yangi yangiliklarni hisobga olishi kerak. rahbarning, tarbiyaviy soatni to’laqonli va qiziqarli o’tishida yuqoridagilar nazaridan chetda qolmasligi zarur.

*Tarbiyaviy soatlarni hisobga olish (Tarbiyaviy soatga bir soat darsga qanday tayyorlansa, bu tadbir uchun dam shunday hozirlik ko‘rish talab etiladi).*
*Ma’ruza matnini ko‘p sonli talabalarga taqdim etish ko‘pincha asosiy maqsadi ma’lumotni yetkazish bo‘lgan oddiy va didaktik uslubga sabab bo‘ladi. Maslahat soatlari va seminarlar kurs yetkazib berilishining muhim qismi bo‘lgan – ular katta guruhlarni o‘qitishda samarali mustahkamlanishni ta’minlaydi va professor-o‘qituvchilar uchun o‘quv rejasi mazmunida tadqiqot faoliyati ta’siriga urg‘u beradi. An’anaviy ma’ruzalar faqatgina jismoniy joy ta’minoti bilan cheklangan miqdordagi insonlarni sig‘dira oladi. Ko‘p hollarda kichik guruhlardagi maslahat soatlari resurslardagi cheklovlar tufayli chetlab o‘tiladi. Shunday qilib, professor-o‘qituvchilar talabalarni auditoriyada yetkazib berilgan ma’nodan tashqari faktlar, tamoyillarni ko‘rib chiqishlari uchun intellektual dan, undovchi, turtki beruvchi rivojlantiruvchi metodlarni aniqlashlari shart.*[30]

Mundarijaning bu qismida har hafta o‘tkazilgan tarbiyaviy soatning mavzusi, bajarilish turi, vaqti, kim tomonidan bajarilganligi haqidagi qisqacha bayonnoma qayd etiladi.

[30] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 285.

## 1.2. AMALIY MASHG`ULOTLAR BO`YICHA MATERIALLAR

### 1-Mavzu. "TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI" FANINING MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI

**REJA:**

1. Tarbiyaning umumiy ta'rifi. Tarbiya jarayoni va mohiyati
2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning pedagogik tahlili
3. Mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari
4. Tarbiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo'lishi
5. Tarbiyada milliy urf-odatlar va an'analar

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Tarbiyaning umumiy ta'rifi
2. Tarbiya jarayoni va mohiyati
3. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning pedagogik tahlili
4. Mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari
5. Abu Nasr Forobiyning tarbiyaga oid qarashlari
6. Abu Ali ibn Sinoning tarbiyaga oid qarashlari
7. Qadriyatlarning va ularning turlari
8. Umuminsoniy qadriyatlar
9. Mintaqaviy qadriyatlar
10. Milliy qadriyatlar
11. Ma'naviy qadriyatlar
12. Tarbiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo'lishi
13. Tarbiyada milliy urf-odatlar va an'analarning muhimligi

## INTERFAOL O'QITISH METODLARI:



## *“Nima uchun” metodi*

**Tarbiyada milliy urf-odatlar va an’analarning muhimligi isbotlang**




## Quyida berilgan mavzular bo’yicha esse yozing

**1 –Esse**

- **Abu Nasr Forobiyning tarbiyaga oid qarashlari**

**2 –Esse**

- **Abu Ali ibn Sinoning tarbiyaga oid qarashlari**

## *Toifalash sharhini tuzish qoidasi*

1. Toifalar bo’yicha ma’lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta’lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo’yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo’la qolsin

8

## TOIFALASH JADVALI

| “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani | | |
|---|---|---|
| Tarbiyaning umumiy ta’rifi | Tarbiya mohiyati | Tarbiya jarayoni |
| | | |

9

**«Blits-so‘rov» savollarga javob bering, jadvalni to‘ldiring**

| № | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Tarbiya jarayoni va mohiyatini izohlang | |
| 2 | “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning mohiyatini tyshuntiring | |
| 3 | Mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikr va mulohazalarini ayting (misolida) | |

2

# TOPSHIRIQLAR:

## Tarbiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari

## Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari

| Abu Nasr Forobiyning | Abu Ali ibn Sinoning |
|---|---|
| | |

## Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini izohlang

| SHaxs | Davlat va jamiyat | Uzluksiz ta’lim | Fan | Ishlab chiqarish |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |




10

# Qadriyatlarga misollar keltiring

| Umuminsoniy | Mintaqaviy | Milliy | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Ma'naviy-ma'rifiy | | | Moddiy | | |
| | | Xalq ijodi | An'analar | Musiqa va teatr san'ati | Xalq hunar-mand-chiligi | Tasvi-riy va amaliy san'at | Tari-xiy obida-lar |
| | | | | | | | |

# Jadidchilik harakati namoyondalarining tarbiyaga oid qarashriga misol keltiring

| 1. Ablullo Avloniy | 2. Abdurauf Fitrat | 3. Mahmudxo'ja Behbudiy | 4. Munavvar qori Abdurashidov |
|---|---|---|---|
| | | | |

# TARQATMA MATERIALLAR:









## Mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari

- Farobiyning ta'limotida komil inson muammosi shu bilan bevosita bog'lik bo'lgan jamiyatni mukammallashtirish, fozil jamoa kurish, insonga baxt-saodat eshiklarini ochish vositalarini yaratish masalalari markaziy o'rinni egallaydi.
- «Kitob al axl al-madina al-Fozilo» («Fozil shaxar odamlarining qarashlari hakida risola») asarida ta'kidlashicha, insonning bu olamga kelishi va yashashidan maksad – baxt-saodatga erishishdan iboratdir

# MUSTAQIL TA’LIM

## TOPSHIRIQ

| № | Fan bo’yicha mustaqil ishining mazmuni | Mustaqil ta’limga oid bo’lim va mavzular | Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. | Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o’rni | Pedagogik jarayon | Taqdimot o’tkazish | Seminar mashg’uloti davomida |
| 2. | SHarqona tarbiyaa | Sharq mutafakkirlari tarbiya haqida | Buklet tayyorlash | Mavzu yakunida |
| 3. | G’arb tarbiyaasining ahamiyati | G’arb mutafakkirlari ta’lim-tarbiya haqida | Savollar va testlar tayyorlash | Seminar mashg’uloti davomida |

## KEYS STADI

**1-“case stady”:** Siz ko’chada hammaning oldida bolasini qattiq urayotgan ayolni uchratib qoldingiz, bola qichqirib yig’layapti. SHu vaqtda ayolga tanbeh berilsa, uning jahli chiqib, o’g’lini battar urishi mumkin, indamay o’tib ketishlik ham mumkin emas.

**Savol:** Bu holatda qanday yo’l tutish mumkin deb o’ylaysiz?

**2-“case stady”:** Siz ko’chada hech kimga ozor bermasdan ketayotgan edingiz, biroq, to’satdan birdaniga orqangizdan gavdali miliцioner kelib, Sizning tirsagingizdan ushlab deydi: “YUring men bilan”. Sizning taajjublangan savolingizga javob bermay, u bilan ketishni talab qildi.

**Savol:** Bunday holatda Siz o’zingizni qanday tutar edingiz?

**3-“case stady”:** Sizning qadrdon do’stingiz o’zining xotini bilan janjallashib qoldi va Sizni qozilikka chaqirdi. Siz uning xotini bilan umuman tanish emassiz, Siz rad javobini bersangiz do’stingiz xafa bo’ladi.

**Savol:** Bu holatda nima qilish kerak deb o’ylaysiz?

**4-“case stady”:** Sizning yaqin tanishingiz xafa holatda qo’ng’iroq qilib hafaligining sababini aytib shikoyat qildi. U o’zining yolg’izligini va boshqa hayotga bo’lgan ishonchining yo’qolganligini va u faqat o’lim to’g’risida o’ylashini aytdi.

**Savol:** Siz, bu haqda u bilan qanday gaplashgan bo'lar edingiz? Sizning vazifangiz unga yordam berish

**5-"case stady":** SHunday odamlar borki, ular o'z shaxsi bilan qiziqmaydi va o'zlari to'g'risida umuman o'ylashmaydi. Bu ham o'ziga xos kasallikdir. Ayniqsa, bu eski davr odamlariga xos. Tasavvur qiling, Sizning onangiz va otangiz xuddi shu odamlar toifasidandir.

**Savol:** Ular o'z shaxslari bilan qiziqishlari uchun nimalar qilishlari kerak deb o'ylaysiz?

**6-"case stady":** O'qituvchi darsda qo'pol muomala qiladigan, to'polonchi, mahmadona bir o'quvchini direktor oldiga olib keldi. O'qituvchi direktorga "Bu xaqoratlarni eshitish menga og'ir", g' dedi.

**Savol:** Bunday holatda nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

## 2-mazvu: SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA I.A.KARIMOV ASARLARINING ILMIY-IJODIY ME'ROSIDAN TARBIYAVIY MAQSADLARDA FOYDALANISH

### REJA:

1. Forobiyning komil inson haqidagi fikrlari
2. Beruniyning moddiy va ma'naviy olam yaxlitligi to'g'risidagi qarashlari
3. Alisher Navoiy o'qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida
4. Mutafakkirlarnning ilmiy-ijodiy me'rosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish masalasi
5. Ma'naviyat - insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir. Ma'naviyatni anglash[31]
6. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar[32]

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Forobiyning komil inson haqidagi fikrlari
2. Beruniyning moddiy va ma'naviy olam yaxlitligi to'g'risidagi qarashlari
3. Alisher Navoiy o'qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida
4. Ibn Sinoning inson shaxsi va uning kamolati to'g'risida
5. Mutafakkirlarnning ilmiy-ijodiy me'rosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish masalasi
6. SHarq mutafakkirlari tarbiya jarayoni to'g'risidagi qarashlari.
7. Milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.

[31] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, -2008.
[32] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, -2008.

8. SHarqona tarbiya va milliy tarbiyaning o'zaro uyg'unligi.
9. Ma'naviyat - insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir.
10. Ma'naviyatni anglash
11. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar
12. Eng buyuk jasorat

# INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

## Kichik guruhlar uchun topshiriqlar

1. Forobiyning komil inson haqidagi fikrlari
2. Beruniyning moddiy va ma'naviy olam yaxlitligi to'g'risidagi qarashlari
3. Alisher Navoiy o'qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga harakat qiling.

Guruhning har bir a'zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.

Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.

8

## Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing

3




## TOPSHIRIQLAR:

### Alisher Navoiy o'qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida

| O'qituvchilik odobi | Muallimlik kasbi |
|---|---|
| | |

### I.A.Karimov asarlari mazmunida ta'limiy va tarbiyaviy masalalar



| Mutafakkirlarnning ilmiy-ijodiy me’rosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish | |
|---|---|
| **Forobiyning komil inson haqidagi fikrlari** | **Beruniyning moddiy va ma’naviy olam yaxlitligi to’g’risidagi qarashlari** |
| | |

| Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub ekanligini toping | |
|---|---|
| **1.** | **2.** |
| ▪ Haq yo’lida senga bir harf o’qitmish ranj ila,<br>▪ Aylamoq bo’lmas ado oning haqqin yuz ganj ila | Filday kuching bo’lsa ham, mo’r bo’lib ko’rin<br>Moling oshib toshsa ham, ur bo’lib ko’rin.<br>Birovning aybini ro’rganing holda,<br>Hech narsa bo’lmagandek, ro’r bo’lib ko’rin |
| **3.** | **4.** |
| Hech narsa qolmadi ma’lum bo’lmagan<br>Juda oz sir qoldi mavhum bo’lmagan.<br>Bilimim haqida chuqur o’ylasam<br>Bildimki, hech narsa ma’lum bo’lmagan | ➢ Oz-oz o’rganib dono bo’kur,<br>➢ Qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur |

# TARQATMA MATERIALLAR:



## *Forobiyning komil inson haqidagi fikrlari*

Adolat tushunchasi, Farobiyning fikricha kishilarning bir-biriga bo'lgan muhabbatiga asoslanadi

Muhabbat esa fozil shahar odamlarining fazilatli ishlariga moyilligidan kelib chiqadi hamda ularning baxtiga erishish uchun nimalarni bilish va qanday vositalardan foydalanish mumkinligi to'grisida xamfikrligi va umumiy intilishlariga asos bo'ladi

## Beruniyning moddiy va ma'naviy olam yaxlitligi to'g'risidagi qarashlari

1) Alloma «Qadimgi halklardan qolgan yodgorliklar» («Osar ul-boqiya») asarida qadimgi Eron podshohlarining raiyatini boshqarish odatlari hakida hikoya qiladi

2) Rivoyatga ko'ra, Eron shoxlari Hur Moh Xurram Ro'z oyining birinchi kuni xalk bilan uchrashar ekanlar

## Alisher Navoiy o'qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida

- Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, ahloq-odob talablarini ko'rsatadi
- O'z davridagi musulmon ta'lim tizimilarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi
- O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, ta'lim tizimidorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jaaryonini sevishi kerak deydi

12




- Farobiyning ta'limotida komil inson muammosi shu bilan bevosita bog'lik bo'lgan jamiyatni mukammallashtirish, fozil jamoa kurish, insonga baxt-saodat eshiklarini ochish vositalarini yaratish masalalari markaziy o'rinni egallaydi.
- Farobiy ta'limotiga ko'ra, nazariy jixatdan bilimga ega bo'lish, amaliy jixatdan baxtga erishish vositalarini, yo'llarini bilish kerak ekanligi, ya'ni nazariya bilan amaliyotning birligi shart qilinadi.



- Buyuk vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy ahlokiy ideali — tirikilikni o'z mehnati bilan o'tkazuvchi, birovlarning ko'ngliga ozor bermaydigan, mol-mulkiga va joniga qasd qilmaydigan, aksincha miskinu-g'ariblarga yordam beradigan odamdir.
- Uning tasavvuridagi komil inson o'z or-nomusi bilan va qadr-qimmatini saqlagan, oliyjanob muruvvat egasi. Oliyjanob, odam o'zining joni va o'zining mulkidan boshka hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o'ziga tegishli mulkni boshkaradi.

- Komil insonlar – odamgarchilik, mardlik va muruvvatlilik kabi go'zal fazilatlarga ega bo'ladilar. Ular hakida Abu Rayxon Beruniy shunday deb yozadi: «Odamgarchilik, ya'ni muruvvatli mard kishi o'zidagi va o'ziniki ekanligiga xech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshkasiga egalik kilmaydi».

- Komil inson g'oyasini yana bir yuksak pog'onaga ko'targan alloma – Abu Ali ibn Sinodir. Buyuk donishmand odamlarning jamiyat hayotida bir-birlaridan farqi va bunday farqlanishning asosiy sabablarini ko'rsatadi. Bu masalada asosan ikki omil ko'zda tutiladi: kishilarning hulk-atvorlari, urf-odatlari va turli xalklarning yashash tabiiy-geografik shart-sharoitlari.

**Komil inson g'oyasini yana bir yuksak pog'onaga ko'targan alloma – Abu Ali ibn Sinodir. Buyuk donishmand odamlarning jamiyat hayotida bir-birlaridan farqi va bunday farqlanishning asosiy sabablarini ko'rsatadi. Bu masalada asosan ikki omil ko'zda tutiladi:**




«Kitob al axl al-madina al-Fozilo» («Fozil shaxar odamlarining qarashlari hakida risola») asarida ta'kidlashicha, insonning bu olamga kelishi va yashashidan maksad – baxt-saodatga erishishdan iboratdir. Baxt-saodat eshiklarining kaliti insonning o'z qo'lidadir: bu maqsadga odamlar fazilatli ishlari va yaxshi ahloqiy sifatlari sohiblari bo'lish orqali erishadilar.

Fozil jamoa (Farobiy fozil shahar ahli, deydi) odamlarning turmush tarzi va faoliyati boshqa nomukammal shaxar odamlarining turmushidan farqi shundaki, «bir gurux (fozil) odamlar birgalikda ana shu xislatlar (fazilatlar)ga ega bo'lishsa (ya'ni, birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshka (go'zal) hislatlar bo'lsa), ana shu fozillar guruxini yurt rahbarligiga ko'yish zarur. SHu guruxning a'zolari birlashib, o'zaro kelishib xarakat qilsa, har biri fozil odam bo'lishi mumkin, Fozillar shahri, uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt-saodat nima ekanligini bilishlari zarur. YAna … Fozillar shahri axolisi oxiratda nelarga erishuvini, nelardan (qanday ijtimoiy illatlardan – M.J.) saqlanishini bilishlari zarur».

Fozil shahar yoki ideal davlat oqil talablari, adolat va mahabbat asoslari ustiga quriladi. Jamoat hayotining osoyishtaligi, kishilar o'rtasidagi hamjixatlik, hamkorlik, jamiyatning yaxlitligi, adolatli siyosat va undan kelib chiqadigan namunali ishlari orqali ta'minlanadi xamda yuzaga chiqadi.

Abu Ali Ibn Sino etika va ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: O'quvchi tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni

yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi degan fikrni ilgari suradi.

Ibn Sino kollektivdan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan o'quvchining bahtsiz bo'lib qolishni ta'kidlaydi.

Inson o'zining aqliy faoliyati bilan yuksak g'oyalarni mushohada qilish orqali lazzatlanishi mumkin. Aqliy faoliyatdan mamnuniyatli hisob qilish – inson uchun eng oliy darajali lazzatdir. hissiy lazzatlar (maishat, shaxvoniylik) tashqi kuchlarining ta'siri bilan paydo bo'ladi.

Ma'naviy lazzatlanish, mamnun bo'lish nafsning aqliy (insoniy) kuch-quvvatidan paydo bo'ladi va insonni ma'naviy yuksalish sari eltadi.

SHayx Aziziddin Nasofiy komil (etuk) inson hakida so'z yuritar ekan, bunday odam yuksak ahloqli, o'zini tanigan, dunyoviy va ilohiy bilimlarini egallagan bo'lishi zarur, deb aytadi. «Bilgilik, - deydi Nasofiy, - Komil inson shariat, tariqat va haqiqatda etuk bo'lgan odamga aytiladilar va agar bu iborani tushunmasang, boshka ibora bilan aytayin: bilgilki, komil shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga etgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi ahloq va ma'orif».

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, ahloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon TA'LIM tizimilarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, TA'LIM tizimidorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jaaryonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'quvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. SHogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta o'quvchiga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta o'quvchi-guruh jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda guruh rahbari ko'p mashaqqatlarga duch keladi. SHuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. SHogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamoq bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

SHarqning faylasuf shoiri SHayx Sa'diy:

Agarda muallim bo'lsa beozor,
O'quvchilar guruhni qilishar bozor, deb bejiz aytmagan.

Rabbim – fan, payg'ambarim bilimdir.

(Abdurauf Fitrat).

"Badan tarbiya bilan mu'tadil va uzoq vaqt shug'ullanuvchi kishi tabiblarning davosiga muhtoj bo'lmaydi".

(Abu Ali ibn Sino)

# MUSTAQIL TA’LIM

## TOPSHIRIQ

| № | Fan bo’yicha mustaqil ishining mazmuni | Mustaqil ta’limga oid bo’lim va mavzular | Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 4. | Tarbiya jarayoniga qo’yiladigan talablar | Tarbiya jarayoni haqida tushuncha | Taqdimot o’tkazish | Seminar mashg’uloti davomida |
| 5. | Oila pedagogikasi | Oila funkstiyalari | Buklet tayyorlash | Mavzu yakunida |
| 6. | Taarbiyaviy ishlarni tashkil etish muammolari | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakl va vositalari | Taqdimot o’tkazish | Mavzu jarayonida |

R.Maxmudov Koshifiyning ahloqiy g’oyalariga insonni kamolga etkazish maqsadida uni tarkib topdirish uchun zarur bo’lgan hislatlarni unga bo’lib turkumlashtiradi.

1. Komil inson etuk ahloqli haqidagi fikrlarni an’anaga ko’ra buyuk donishmandlar - xakimlar, sarkardalar, shoxlar tilidan bayon etadi va ularni adolatli, dono, oqil va kamtar inson sifatida ta’riflab, o’zining komil inson xaqidagi kontseptsiyasini ilgari suradi.

2. Koshifiy faqat podsholarnigina emas, xar bir oddiy insonda ham eng oliyjanob hislatlar tarkib topishini istaydi.

3. U o’zining ijtimoiy ahloqiy idealini yuzaga chiqarishda asosiy vosita deb ilm ma’rifat va ahloqiy tarbiyani tushunadi.

4. Koshifiy odobli insonni ahloqli deb tushunadi. Inson faqat odobli, sahovatli, to’g’ri, halol, pok bo’lgandagina xaqiqiy inson bo’lishi mumkin deydi.

5. Voiz Koshifiy insonparvarlik va xalollikni eng yuksak insoniy fazilatlardan deb biladi.

6. Koshifiy insonning eng yuksak hulqatvor egasi bo’lishi uchun un qoidaga amal qilish zarurligini ilgari suradi.

a) elga teskari ish qilmaslik;
b) o’z nafsiga insof tilash;
v) kishi aybini ochmaslik;
g) kishilarda uchraydigan yomon xulq atvorni yaxshilikka tomon burish;
d) o’z aybiga iqror bo’lib, uzr so’ragan kishining uzrini qabul qilish;
e) och-yupunlarning xojatini chiqarish;
yo) inson uchun mashaqqat tortish;
j) o’z nafsini tiyish;
z) xalqqa toza yuz bilan ko’rinish;
i) kishilarga yaxshi so’z aytish;

7. Kishilarni inoqlikka, tinch-totuv yashashga chaqirish.

8. Xalqlar o'rtasidagi do'stlikni targ'ib etadi.

9. Kasb-hunar, ilm-ma'rifatni egallashga chaqiradi.

10. Ilmli kishilarning jamiyatda tutgan o'rnini ta'kidlab, olimlarni, umuman ilm ahlini e'zozlash kerak, deydi.

Quyida shu faylasuflarning asarlaridan parchalar keltirilgan.

Rizouddin ibn Faxrutdinning «Oila» nomli asarida o'quvchining vazifasi haqida quyidagilar keltirilgan: «O'quvchi tarbiyasida bo'lgan mashaqqatlarning eng mushkuli onalar ustida bo'lib, bular xatto shariat xukmiga ko'ra o'zlariga yuklanmagan ko'p xizmatlarni o'z yaxshiliklari bilan bajararlar.

Bechora ona o'zi och bo'lgani holda o'quvchisini to'ydirar. Uxlashga fursati bo'lmagani holda, o'quvchisini uxlatishga tirishar, o'quvchisining shodligi bilan shodlanar, qayg'usi bilan qayg'urar. Bu xizmatlar ustiga yana erining ust boshini, mehmonu xodimlarini ham tarbiya qilar. Juda ko'p onalar yosh o'quvchilarini arava bilan tortib, bir necha chaqirim erga borarlar-da kun bo'yi o'roq urarlar, boshqa dala xizmatini bajararlar. To'g'risi, bu kabi xizmat onalardan boshqa hech kimsa bajara olmas. Bunday xotunlarning xar biriga raxmat aytib ko'ngillariga tasalli bermoq lozim bo'lgani holda, ba'zilari raxmat o'rniga erlaridan qayin onalaridan tanbeh eshitib turarlar. Bunday xotunlarning umidlari faqat o'quvchilaridan bular. SHuning uchun shodligu qayg'u kunlarida ota-onalarni unutish emas, balki xar vaqt molu tan bilan yordam bermoq, yiroq erda bo'lganlarida ziyoratlariga bormoq, maktublar bilan bo'lsa-da, xollaridan xabardor bo'lib turmoq, hayri duolarini olib, ezgu ishlarning savobini ularga bag'ishlamoq lozimdir. O'quvchilar kelajak bir kunda naqadar buyuk bir zot bo'lsalar ham, ushbu burchlaridan hech bir vaqt xalos bo'lmaslar. Ota-onasining nasihatlariga g'iloflik etuvchi o'quvchi emas, balodir. Bu kabi o'quvchi yoki bu kabi baloga hech bir insof sohibi mubtalo bo'lmasin.

## 3-mavzu. O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH, IDORA QILISH VA TARBIYALASH

### REJA:

1. O'zini-o'zi boshqarishning nazariy asoslari
2. O'zini-o'zi idora qilish metodlari
3. O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari va shakllari

**Takrorlash va o'zini-o'zi nazorat qilish**

1. O'zini-o'zi boshqarishning nazariy asoslarining mazmuni nimadan iborat?
2. Ijtimoiy jarayonlar boshqaruv nazariyasining ob'ektiv asoslari nimadan iborat?
3. Siyosiy hayot deganda nimani tushunasiz?
4. Iqtisodiy hayot deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy hayot deganda nimani tushunasiz?

6. Jamiyatning farovonligi deyilganda nimani bilasiz?
7. Ilmiy boshqaruv ning mazmuni nimadan iborat?
8. Iqtisodiy boshqaruv ning mazmuni nimadan iborat?
9. Ma'muriy boshqaruv bosqichini bilasizmi?
10. O'zini-o'zi idora qilish metodlari haqida nimalarni bilasiz?
11. O'zini-o'zi nazorat qilish va hisob berish haqida nimalarni bilasiz?
12. O'zini-o'zi tarbiyalash metodlarini bilasizmi?
13. O'zini-o'zi tarbiyalash shakllarini bilasizmi?
14. O'zini-o'zi tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
15. O'zini-o'zi ishontirish deganda nimani tushunasiz?
16. O'zini-o'zi qoralash deganda nimani tushunasiz?
17. O'ziga-o'zi buyruq berish deganda nimani tushunasiz?
18. O'zini-o'zi ruhlantirish deganda nimani tushunasiz?

## INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

### "BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM" metodiga misol

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

1) har bir guruh umumiy chizma asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi;

2) guruhlar umumiy chizmaning alohida bandlari bo'yicha o'qituchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi chizma asosida tashkil etiladi:

**"BBB" JADVALINI TO`LDIRING**

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| Siyosiy hayot | | | |
| Iqtisodiy hayot | | | |
| Ijtimoiy hayot | | | |

**“Nima uchun? metodi**

Nima uchun metodi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi chizmadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib, muammoni hal etish qiyin.

**“Nima uchun?” texnikasining chizmadagi ko’rinishi**




Muammoning yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sababalarni aniqlash va yo’qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu chizmali metod talabalarda aynan ana shu xususiyatlarni rivojlantiradi. Talabalarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Umuman olganda, ushbu metoddan muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo’llash mumkin.

*“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari*

“Nima uchun?” chizmali metodga asosan talabalar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi quyidagilardan iborat:

1. Talabalarni “Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish
2. YAkka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? So’rog’i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi.Qayta-qayta «nima uchun» degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yairishnga sababi topilguncha davom ettiriladi.
3. Talabalar mini guruhlarga birlashtiriladi, o’z chizmalarini taqqoslashga va qo’shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy chizma jamlanadi.
4. Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.
5. Qanday piktogrammadan foydalanishni o’zingiz hal etasiz.
6. Mulohazalarning chizmatik ko’rinishi qanday bo’lishini o’zingiz hal etasiz.
7. Har bir strelka fikr yo’nalishini ko’rsatishi lozim.

## “Nima uchun” metodi

**Jamiyatning farovon bo’lishi nimalarga bog’liq?**




### “KLASTER” metodiga misol

Quyida **“Klaster”** metodi yordamida mavzuni o'rganish masalalari ko'rib chiqiladi. Shu haqidagi ma'lumotlar bo'lg’usi iqtisodchi-pedagog uchun juda muhimdir.

Klaster “Tarmoqlar” interfaol metodi – o’quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishga o'rgatishga ajratilgan.



# TOPSHIRIQLAR:

## O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari va shakllari haqida izoh bering

| O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari | O‘zini-o‘zi tarbiyalash shakllari |
|---|---|
| | |

# TARQATMA MATERIALLAR:

## O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari:

- **shaxsiy majburiyat** (kunlik, haftalik yoki oylik bajarilishi mumkin bo’lgan ishlarni rejalashtirish);
- **o‘z ishi haqida hisobotlarni nazorat qilish** (ushbu rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishini nazorat qilish);
- **xatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi tahlil qilish** (rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishini tahlil qilish, yani nima bajarildi-yu, nimalar bajarilmadi);
- **o‘ziga-o‘zi baho berish** (rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishi nazorat ba tahlil qilinganidan so’ng o’ziga-o’zi baho berishi, yani hamma rejalashtirilgan ishlar bajarildi – a’lo, ayrimlari bajarilmadi o’ta yoki qoniqarli, deb baho beriladi va o’zini-o’zi rag’batlantiradi)

**O'zini-o'zi nazorat qilish va hisob berish**

o'z faoliyati natijalarini hisobga olib borishni, bugun qilingan ishlarni umumlashtirishni, o'z hulkiga baho berish va uni analiz, ya'ni tahlil qilishni talab etadi va o'zini-o'zi tarbiyalashning maksadi, vazifalarini qaytadan kurib chikish, o'z ustida ishlashning yangi dasturini tuzib chiqish bilan tugallanishi kerak. SHuning uchun ham ta'lim muassasalarida birinchi navbatda, o'quvchi-talabalarni o'zini-o'zi tekshirish yuzasidan hisobot tayyorlashga odatlantirish, ularning hisobot berishining muhim sharti o'quvchi-talabalar jamoasida sog'lom tanqid va o'zini-o'zi tanqidning bo'lishidir, aks holda hisobot maqtonchoqlikka o'zini-o'zi ta'riflashga aylanib ketishi mumkin

Hammamizga ma'lumki o'zbek oilasidagi tarbiyada islom dininig xissasi katta. Islom dininig boshqa dinlardan farqli tomonlari bo'lgani kabi, o'zbek oilasida tarbiya o'zining sezish qiyin bo'lgan xususiyatlari mavjud.

Islom aqidalarining, uning ahloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai «Kur'on»dir.

G'arb va SHarq tadqiqotchilari «Qur'on»ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan deb xisoblaydilar.

Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi.

«Kur'on»da insonda imonning o'ziga xos mezoni xisoblangan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan.

«Kur'oni Karimda» ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-ona kiritiladi va ota-ona haqqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23-24-oyatlarida ota-onaga yaxshilik - Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday inson bo'lishidan qat'i nazar, farzand ularga nisbatan xurmat saqlashi, ularning so'zlarini qaytarmasligi; ota-ona ham o'quvchini dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, haqqiga doimo tayer turish ta'kidlanadi.

Mazkur oyatlarda eng oliy insoniy muomala qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:

-ota-ona xatti-harakatining farzandga malol kelmasligi;

- ota-ona bilan gaplashganda ularga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- ota-onaga rahm-shavqat qilish;
- ularning haqiga duo qilish.

SHuningdek, tarbiya haqida ko'pgina faylasuflarning yozib qoldirgan asarlari mavjud.

# MUSTAQIL TA'LIM

## TOPSHIRIQ

| № | Fan bo'yicha mustaqil ishining mazmuni | Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular | Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 7. | Guruh rahbari ishini rejalashtirish | Guruh rahbari faoliyati | "Esse" yozish | Mavzu yakunida |
| 8. | Guruh rahbarining ota-onalar bilan aloqasi | Ta'lim muassasasi va oila hamkorligi | Savollar va testlar tayyorlash | Oraliq baholashda |
| 9. | Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi | Ta'lim-tarbiya jarayoni | Buklet tayyorlash | Seminar mashg'uloti davomida |

## TESTLAR

| Savollar mazmuni | variant | variant | variant | variant |
|---|---|---|---|---|
| 1. **Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining tadqiqot ob'ekti nimadan iborat?** | Ta'lim jarayoni | Tarbiya jarayoni | Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayoni | Shaxs tarbiyasi |
| 2. **Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani qaysi fanlar bilan aloqador?** | Tarbiya nazariyasi, falsafa, etika, matematika | Tabiiy fanlar, gumanitar fanlar | Iqtisodiy fanlar | Pedagogika, etika, sotsiologiya, psixologiya, falsafa, madaniyatshunoslik, ma'naviyat asoslari |
| 3. **Sinfdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni kim tashkil qiladi?** | Sinf rahbari va fan o'qituvchisi | Sinfdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi | O'quv-tarbiya muassasasi rahbari | Ta'lim muassasi rahbari, guruh rahbari va ota-onalar qo'mitasi |
| 4. **Kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar qanday muassasalarda tashkil etiladi?** | Sport majmuasi yoki madaniyat saroylarida | O'quvchilar saroylari va dars jarayonida | O'quv-tarbiyaviy muassasalarida | Ta'lim muassasi oquv jarayonida |
| 5. **Tarbiyaviy ishlar jarayonida qaysi ish usullaridan foydalaniladi?** | Ertaliklar, majlislar, to'garaklar, o'quv jarayoni | Ommaviy va yakka tartibdagi faoliyat turlari | Og'zaki, amaliy va ko'rgazmali ish usullari | O'qitish, tarbiyalash, jazolash, uqtirish ish usullari |

# 4-MAZVU. PEDAGOGIK MAHORAT VA PEDAGOGLIK TEXNIKA

## REJA:

1. Pedagogik mahoratning predmeti, maqsad va vazifalari
2. Pedagogik mahorat tushunchasi va tuzilishi
3. Pedagogik faoliyat va mahorat
4. Pedagogik texnika

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. «Pedagogik mahorat» tushunchasini ta’riflab bering.
3. Pedagogik ijodkorlik nima?
4. «Pedagogik muomala» deganda nimani tushunasiz?
5. «Empatiya» nima?
6. «Pedagogik qobiliyat»ni ta’riflab bering?
7. «Pedagogik texnika» tushunchasini tavsiflab bering.
8. Pedagogik ta’sir vositalari deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagogik talabni ta’riflang?
10. Rag’batlantirish va jazolash metodlarini tavsiflab bering
11. Nutq texnikasi tavsiflang.
12. Ta’sir etish texnikasi deganda nimani tushunasiz?
13. Pedagogik texnikaning tuzilishini aytib bering?
14. Pedagogik texnikani egallash yo’llari haqida gapiring.
15. Mimika va pantomimikani tavsiflang.
16. Nutq malakalari nima?
17. Nutqni ta’riflang.

## INTERFAOL O’QITISH METODLARI:

**Kichik guruh uchun topshiriqlar**

1. “Pedagogik faoliyat”
2. “Pedagogik qobiliyat”
3. “Pedagogik texnika”
4. “Pedagogik ta’sir”
5. “Pedagogik talab”
6. “Pedagogik madaniyat”

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

Har biringiz o’z guruh a’zolaringizni diqqat, e’tibor bilan eshitishga harakat qiling.

Guruhning har bir a’zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan yondoshishi kerak.

Har kim o’ziga yordam kerak bo’lganda so’rashi mumkin.

## Toifalash sharhini tuzish qoidasi

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin

## TOIFALASH JADVALI

| "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fani | | |
|---|---|---|
| **Pedagogik faoliyat** | **Pedagogik qobiliyat** | **Pedagogik mahorat** |
| | | |

## "Tushunchalar tahlili" metodi

**Metodning maqsadi**

Talabalarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish



### "Tushunchalar tahlili" metodi

| "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" faniga oid | | |
|---|---|---|
| O'qituvchi | Ustoz | Murabbiy |
| | | |

## Pedagogik texnika va talab deb nimaga aytiladi?



## TOPSHIRIQLAR:

### Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini ayting

| | |
|---|---|
| 1. | 2. |
| 3. | 4. |

## Pedagogik mahorat va pedagogic texnikaning farqli jihatlari nimada

| Pedagogik mahorat | Pedagogik texnika |
|---|---|
| | |

## Pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi, bularga nisol keltiring:

| | |
|---|---|
| **1.** | **2.** |
| **3.** | **4.** |
| **5.** | **6.** |

## TARQATMA MATERIALLAR:

### Tarbiya nazariyasi

- pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonining mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi

### Tarbiya jarayonining mohiyati

- shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

“Pedagogik mahorat” kursining amaliy darslaridan muayyan qismi ta’lim muassasasilar va kollejlarda o’tkazilishi mumkin va ular nazariy bilimlarni mustahkamlashni ko’zda tutadi

“Pedagogik mahorat” fanining boshqa pedagogik tizimdagi fanlardan asosiy farqi shundaki, u o’qituvchi va o’quvchi munosabatlarida keng ijodiy imkoniyatlardan foydalanish uchun bitmas-tuganmas ijodiy faoliyat uchun maydon hisoblanadi

# Pedagogik mahoratning predmeti, maqsadi va vazifalari

Ma’lumki, tarbiya tushunchasi o’sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo’lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. SHu ma’noda tarbiya deb tarbiyachi o’zi xoxlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadga ko’ra tizimli ta’sir ko’rsatishga aytiladi. Tarbiya o’quvchi tug’ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir.

# *Pedagogik mahorat tushunchasi va tuzilishi*

***Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o’z ichiga oladi:***

- **1. O’qituvchi faoliyatida insonparvarlik ning ustunligi.**
- 2. Pedagogik iste’dod, qobiliyat.
- 3. Pedagogik texnika (san’at).
- 4. O’qituvchining shaxsiy intilishi

Zamonaviy, ilg’or o’qituvchilarning ta’lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari - qobiliyat va mahoratlari “Pedagogik mahorat” ning predmeti hisoblanadi.

Mazkur qobiliyat, mahoratning mazmun - mohiyati, tarkibini sistema sifatida o’rganishda, oliy o’quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda “Pedagogik mahorat” kursini o’rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. “Pedagogik mahorat” o’qituvchilar, jumladan, bo’lajak o’qituvchilarni ta’lim-tarbiyaviy ishlarga ilmiy metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Uning asosiy vazifalari: bo’lajak tarbiyachi, o’qituvchida pedagogik ijodkorlik, topqirlik, pedagogik muloqot, o’qituvchi nutqi, o’quvchiga har tomonlama ijobiy ta’sir etish usullari, pedagogik texnika hamda tarbiyachining tarbiyachilik mahoratini shakllantirishdan iboratdir. Amaliy-seminar darslarida esa, o’qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, pedagogik ta’sirning rang-barang usullari, tarbiyachi o’qituvchining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar o’rganiladi.

**Pedagogik mahoratning tuzilishi**

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o’z ichiga oladi:

1. O’qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
2. Pedagogik iste’dod, qobiliyat.
3. Pedagogik texnika (san’at).
4.O’qituvchining shaxsiy intilishi.

1. Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o’z-o’zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: o’quvchilar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topishish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ishida o’quvchilar o’rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi.

2. Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo’ladi. Ba’zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi;

1. O’rtaga tusha bilish.
2. Tashkilotchilik.
3. O’zini idora eta bilish.
4. Mo’ljallay olish, chamalay bilish.
5. Kuchlilik, zehnlilik.
6. Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo’lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

3. Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo’lib, u o’qituvchidan o’quvchilar bilan muomala qilganda zarur so’z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o’tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini caqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagogik ta’sir ko’rsatishda o’qituvchining pedagogik texnika

sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko'rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo'ladi.

4. O'qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli bir qolipdagi fikrlar sistemasi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. CHunonchi, o'quvchilar bilan albatta xushmuomalada bo'lish, dilkashlik o'quvchi shaxsiga prinsipial yondashishning yuqori darajada bo'lishi, o'zining birorta ham o'quvchisi yomon emasligi, buning ustiga ishonchsiz bo'lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar. Pedagogik faoliyat - yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan o'quvchilarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, o'quvchilarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

Istiqbol - ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u o'quvchilarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qoyish yo'li bilan ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul ta'lim muassasasi o'quvchilarida shaxsning eng muhum fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy ruhiyat nazariyasida va pedagogik amaliyotda o' zaro fikr almashishda ta'sir ko'rsatish ikki usulda olib boriladi: ishontirish va ta'sir etish. Rus pedagogi Uspenskiy "Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirishdir, odamning e'tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta'sir qilish mumkin", degan edi. O'qituvchi faoliyati o'z o'quvchilarini ishontirish va ta'sir etishni talab qiladi. Pedagogning barcha ta'sirlari: tarbiyalanuvchilarning munosabatlari, fikrlari, his-tuyg'ulari, harakatlarini o'zgartirishga va mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lib, u muhit va tabiatning hamkorligiga ta'sirlanadi. O'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatishning natijasi ishonchdir. Ishonch asosida o'qituvchining bilimlar tizimi, dunyoqarashlari, munosabatlari va xulq-atvori shakllanadi.

Ishonch – o'zaro hamkorlikdagi ta'sir etishning natijasi ekanligini ko'ramiz. Ishonch ikki xil, ya'ni haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. Haqiqiy ishonch real borliq hayot talablariga mos bo'lib, u insonni qadrli, obro'li qiladi. "O'quvchilikka buyuk hurmat-ehtirom bilan qarash lozim", degan Iuvenal (123-b). Inson o'z ishonchini himoya qilish uchun o'limga ham boradi. Soxta ishonch o'zi va birovlarning salbiy tajribasi, qarashlari asosida hosil bo'ladi.

# MUSTAQIL TA'LIM

## TOPSHIRIQ

| № | Fan bo'yicha mustaqil ishining mazmuni | Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular | Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 10. | SHaxsga jamoa bilan tarbiyaviy ta'sir qo'rsatish usuli | Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi | Taqdimot o'tkazish | Seminar mashg'uloti davomida |
| 11. | Islom dinida odob-axloq tarbiyasi haqida | Hadis ilmi va uning tarbiyaviy qadr-qimmati | Taqdimot o'tkazish | Mavzu yakunida |
| 12. | Tarbiya jarayonida tadbirlarning ahamiyati | Tarbiyaviy tadbir-larni rejalashti-rish va tashkil etish | Savollar va testlar tayyorlash | Seminar mashg'uloti davomida |

## TESTLAR

| Savollar mazmuni | variant | variant | variant | variant | To'g'ri javob |
|---|---|---|---|---|---|
| **Tarbiya metodlarini ko'rsating** | Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish va o'qitish metodlari | Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari | O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash, rag'batlantirish va maqtash metodlari | Boshqalarga o'rnak bo'lish metodi | 2 |
| **Suhbat va hikoya metodlari tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?** | Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish va uqtirish metodlari | Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari | O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari | Boshqalarga o'rnak ko'rsatish metodi | 2 |
| **Mashq qildirish metodi tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?** | Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish metodlari | Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari | O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari. | Boshqalarga o'rnak ko'rsatish metodi | 1 |
| **Tanbeh berish va ogohlantirish metodlari tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?** | Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish va uqtirish metodlari | Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari | Jazolash metodlari | O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari | 3 |
| **Namuna qilib ko'rsatish metodi tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?** | Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish metodlari | Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari | Rag'batlantirish metodlari | O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari | 3 |
| **O'z-o'ziga baho berish tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?** | Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish metodlari | Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari | Boshqalarga o'rnak ko'rsatish metodi | O'zini-o'zi tarbiyalash metodlari | 4 |

# 5 – mazvu. PEDAGOGLARNING O'QUVCHILAR BILAN O'ZARO MUOMALASI

**REJA:**

1. Muloqot haqida tushuncha
2. Muloqot va faoliyat
3. Pedagogik muomala madaniyati
4. Tarbiya pedagogik kategoriya sifatida
5. Muloqot tarbiya vositasi sifatida, muloqotning ijtimoiy asoslari
6. Pedagogik muloqot vazifalarini amalga oshirish vositalari
7. Bugungi kun pedagoglarining o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Muloqot haqida tushuncha
2. Muloqot va faoliyatning xususiyatlari
3. Muomala tushunchasi
4. Madaniyat tushunchasi
5. Pedagogik muomala madaniyati
6. Tarbiya tushunchasi
7. Tarbiya pedagogik kategoriya sifatida
8. Muloqot tarbiya vositasi sifatida
9. Muloqotning ijtimoiy asoslari
10. Pedagogik muloqot vazifalari
11. Pedagogik nutq
12. Pedagogik munosabat
13. Vazifalarni amalga oshirish vositalari
14. Bugungi kun pedagoglarining o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi

## INTERFAOL O'QITISH METODLARI:



## "B.B.B" JADVALI METODI

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi

5

## "BBB" JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| MULOQOT | | | |
| MUOMALA | | | |
| MUNOSABAT | | | |

# TOPSHIRIQLAR:

## Muloqotning tarkibiy qismlariga izoh bering

| Pedagogik madaniyat | Pedagogik muomala | Pedagogik munosabat |
|---|---|---|
| | | |

## Muloqot va faoliyatning xususiyatlarini ayting



## Muloqotning farqli jihatlarini yozing

| SHaxslararo muloqot | Insonparvarlik asosidagi muloqot |
|---|---|
| | |

# TARQATMA MATERIALLAR:

## Pedagogik mahoratning predmeti, maqsadi va vazifalari

- Zamonaviy, ilg'or o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari - qobiliyat va mahoratlari "Pedagogik mahorat" ning predmeti hisoblanadi
- Mazkur qobiliyat, mahoratning mazmun - mohiyati, tarkibini sistema sifatida o'rganishda, oliy o'quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda "Pedagogik mahorat" kursini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi

3

Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini ham o'rganishi kerak.

Guruh rahbari o'ziga berilgan guruhni qabul qilib olish bilan o'quvchilar haqida ko'pgina ma'lumotlarni aniqlaydi. Bu ma'lumotlar o'quvchining oilasidan o'qituvchilardan, o'rtoqlaridan olinadi va tarbiyaga yagona ta'sir birligi ham shu asosda vujudga keladi.

O'quvchilarga individual yondashishning amalga oshirishi tarbiya va ta'lim berish printsiplaridan biridir. Bu tamoyil o'quvchilar va guruh rahbarliklarining o'quv-tarbiyaviy ish tajribalaridan o'quvchilarni sevish va hurmat qilinishng nomoyon bo'lishi, ularning kamoloti to'g'risida kundalik g'amxo'rlik qilish asosida keng qo'llanadi.

## Pedagogik mahorat tushunchasi va tuzilishi

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- 1. O'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
- 2. Pedagogik iste'dod, qobiliyat.
- 3. Pedagogik texnika (san'at).
- 4.O'qituvchining shaxsiy intilishi

7

## Pedagoglarning o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonining mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'lig' jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqazo etmokda.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi Ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, kollejshunoslik bilan uzviy bog'langandir.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Xamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari vamutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Xamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb biladilar.

Xar bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy qobiliyati rivojlanganligi darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farxlanadi.

Odamning ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy –iqtisodiy hayot va tarbiya kerak.

SHaxsing kamolot topishi va uning hulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. CHunki uning hulqiga, munosabatlariga, aloqalariga yoshi, bilishi, odatlari, tajribasi va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi.

Hammamizga ma'lumki o'zbek oilasidagi tarbiyada islom dininig xissasi katta. Islom dininig boshqa dinlardan farqli tomonlari bo'lgani kabi, o'zbek oilasida tarbiya o'zining sezish qiyin bo'lgan xususiyatlari mavjud.

Islom aqidalarining, uning ahloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai «Kur'on»dir.

G'arb va SHarq tadqiqotchilari «Qur'on»ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan deb xisoblaydilar.

Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi.

«Kur'on»da insonda imonning o'ziga xos mezoni xisoblangan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan.

«Kur'oni Karimda» ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-ona kiritiladi va ota-ona haqqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23-24-oyatlarida ota-onaga yaxshilik - Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday inson bo'lishidan qat'i nazar, farzand ularga nisbatan xurmat saqlashi, ularning so'zlarini qaytarmasligi; ota-ona ham o'quvchini dunyoga

keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, haqqiga doimo tayer turish ta'kidlanadi.

O'quvchilar agarda ota-onalariga muhabbat bilan xizmat qilsalar, o'z o'quvchilaridan ham xizmat ko'rarlar. Agar ularning hurmatini o'rniga qo'ymasalar, o'z o'quvchilaridan ham hurmat ko'rmaslar. Bu esa, tajribadan ko'rilgan bir ishdir.

Er o'quvchilar ko'pincha balog'at yoshiga etib, erlar qatoriga kirarlar va biror kasbu san'at bilan ota-onalarini bir oz bo'lsada, mashaqqatlardan xalos etarlar. Qiz o'quvchilar esa, katta bo'lguncha ota-onaning tarbiyasiga-yu ko'p sarf- xarajatlariga muxtoj bo'ladilar. qizlar balog'atga etib, xatto erga tekkanlaridan keyin ham ota-onalarining xotiralaridan chiqmaslar, ota-onalari hamisha bular uchun qayg'uda bularlar. SHuning uchun qiz o'quvchilar ota-onaning qadrini nihoyatda ortiq bilishi-yu ularga cheksiz muhabbat va hurmat ko'rsatishi kerak.

Qiz o'quvchi tug'ishganlariga nisbatan shavqatli bo'lishi, xar vaqt ularni to'g'ri yo'lga solish uchun intilishi lozim. Ota-onaga itoat etish, qarindoshlarini yaqin ko'rish ham qizlarning oldidagi vazifalardandir. Qizlik umrlari sanoqli kunlar bo'lib, tez o'tib ketadi. Bugun Qo'g'ichoqlarni kiyintirib yoki joynamoz tikib onasi yonida o'tiruvchi qiz, ertaga bir uyga ona bular va o'quvchilarning tizilib to'rganlarini ko'rar. Ota-onaga itoatli bo'lib ularning xayri duolarini olgan qizlar o'z o'quvchilaridan ham izzatu hurmat ko'rarlar, ota-onaga itoatlik bo'lish qanday sharafli bir ish ekanligini shu kunda tajribadan o'tkazarlar.

Ota-ona bu dunyodan o'tganlarida ularga xayri duo qilmoq, sadaqa-yu ehson va boshqa yaxshi ishlar bilan ruhlarini shodlantirmoq o'quvchilarning ulug' burchlaridandir. Mollari qolgan bo'lsa maslahat bilan «Qur'on»da taqsimlanishiga ko'ra bo'lmoq kerak.

«O'quvchi besh-olti yoshidan oshganida so'zlashishga, ko'ziga ko'ringan aqli etgan narsalarni so'rashga va ularni sinchiklab tekshirishishga boshlaydi. YOsh o'quvchilarning xar narsani kuzatib, aslini bilishga intilishlari ko'pincha go'zal va kerakli narsalar xaqida bo'ladi. YAqin qarindoshlarimiz, do'st mehmonlarimiz uzoq bir safardan kelganlarida hol ahvolimizni juda mexribonlik bilan so'raganlari kabi, yosh o'quvchilarning bu xil xar narsani so'rashlari bularga qaraganda ham ma'noli bo'lur.

Nafas oladigan havo, ichadigan suvimizning foydalarini, eydigan non, kiygan kiyimlarimizning qanday amallar bilan vujudga kelganini, qoru-muz, yomg'iru qirov, shudringu o'simliklar, yashinu kamalaklarning nimadan hosil bo'lganini, xayvonlarning zararli va foydalilarini, qog'ozni nimadan yasalganini, kitoblar qanday ravishda bosilib dunyoga tarqalganini, kechayu kunduzlarning uzayib, qisqarganini, kema-yu poezdlarning, aloqa vositalariyu telegrafning qanday qilib odamlarga etib kelishini, shamolu bulutlarning yurishlarini va boshqa shu kabi hollarni o'quvchilarga o'yin orasida ham, o'yin o'ynayotgan paytida ham o'rgatish mumkin. Agarda bu narsalarni o'z onalaridan o'rgansalar, tamom ko'ngillarida qoladi va shunday narsalarni bilishga muhabbatlari ortadi.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi, shuning uchun ham xar bir inson uchun uning ahamiyati katta.

Ta'lim jarayonida faqat induktiv analiz, ya'ni ayrim-ayrim olingan bilimlarning umumlashgan bilimlarga aylanishi yoki, boshqacha qilib aytganda, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga o'tishi printsipida kechishi bilan cheklanmay, xususiy o'ziga xosliklarni deduktiv ravishda ajratib chiqarish jarayonini to'laligicha ko'rsatkichlari bilan birgalikda ko'rish, xollari ham uchraydi.

Tarbiya ob'ektizm - o'quvchini aktiv sub'ektga aylantira olishimiz kerak. CHunki ta'lim-tarbiya ikki tomonlama jarayondir. Dunyo xalqlarining ilg'or pedogagik tajribalarini kuzatmay va o'rganmay, o'zining bilim doirasi bilan chegaralanib qolgan o'qituvchi fan-texnika yutuqlaridan bebaxra qolgan kosibni eslatadi.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, ahloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unga qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. SHu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob - odobning chiki tuyiq ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq - odob normalari majmui.

# MUSTAQIL TA'LIM

## KEYS STADI

**1-"case stady":** O'qituvchi talabalardan o'zlari bilgan xalq og'zaki ijodi namuna (maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, doston kabi) lari mazmunini aytib berishni va ularning echimlarini topishni so'raydi

**2-"case stady":** O'quvchilar kichik yoshdagi sinflardan katta yoshdagi sinflarga o'tgani sayin ulardagi kuzatuvchanlik o'zgarib boradi. Agar, kichik yoshdagi o'quvchilarda bu kuzatuvchanlik u yoki bu predmet, xodisaning sirtidagi belgilarni ko'rishda namoyon bo'lsa, o'rta va katta yoshdagi o'quvchilarda bunday kuzatuvchanlik ularning voqea-xodisalarining mohiyatini tushuntirishga, ularning yashirin, lekin g'oyat muhim belgilarini aks ettirishga harakat qilishlarida namoyon bo'ladi.

**Savollar:**

1. Kuzatuvchanlikdagi bunday o'zgarish, nimalar bilan izohlanadi?
2. O'quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantirishda o'qituvchi qanday o'rin tutadi?

**3-"case stady":** Sizning yaqin tanishingiz xafa holatda qo'ng'iroq qilib hafaligining sababini aytib shikoyat qildi. U o'zining yolg'izligini va boshqa hayotga bo'lgan ishonchining yo'qolganligini va u faqat o'lim to'g'risida o'ylashini aytdi.

**Savol:** Siz, bu haqda u bilan qanday gaplashgan bo'lar edingiz? Sizning vazifangiz unga yordam berish

**4-"case stady":** Ona tovuq xavf ostida qolgan jo'jasining chiyillashini eshitishi bilan hamisha yordamga shoshilishi ma'lum. Lekin jo'jani oyog'idan bog'lab, ovoz eshitilmaydigan, ko'zga ko'rinadigan shisha qalpoqqa joylashtirilgan edi. Ona tovuq uning qiynalishlariga mutloq befarq qarab, tashvishlanmadi ham.

**Savol:** Tovuqning bunday «befarq qarashi»ni nima bilan izohlash mumkin? SHaxsiy kuzatishlaringizdan yoki adabiyotdan shunga o'xshash misollar keltiring.

**5-"case stady":** O'qituvchi darsini o'tgan darsni so'rashdan emas, balki yangi mavzuni o'tishdan boshladi

**Savol:** O'qituvchi to'g'ri ish qildimi, Siz nima deb o'ylaysiz?

## 6 – mazvu. O'QUVCHILARNI O'RGANISH, KUZATISH VA TA'SIR KO'RSATISH METODIKASI

**REJA:**

1. O'quvchilarni turli xil metodlar yordamida o'rganish
2. O'quvchilarni pedagogik kuzatish yo'llari
3. O'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning shakl va metodlari
4. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Insonni shakllanishida fanning maqsadi va vazifalari
2. Yoshlarni tarbiyalashda milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizning ahamiyati
3. Xalq og'zaki ijodining yoshlar ongida milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirishdagi o'rni
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va vazifalari
5. SHarq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari
6. Tarbiya jarayoni to'g'risida tushuncha
7. Ta'lim jarayoni to'g'risida tushuncha
8. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidati o'rni
9. O'quvchilarni pedagogik o'rganish yo'llari
10. O'quvchilarni pedagogik kuzatish
11. O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish
12. Ta'sir ko'rsatishning pedagogik ta'sir texnikasi
13. Pedagogik ta'sir ko'rsatish turlari
14. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari
15. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari
16. Pedagogik ta'sirning ta'lim-tarbiyadagi o'rni

# INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

## Kichik guruh uchun topshiriqlar

1. Pedagogik o'rganish
2. Pedagogik kuzatish
3. Pedagogik ta'sir ko'rsatish

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga harakat qiling.

Guruhning har bir a'zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.

Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.

8

## "B.B.B" JADVALI METODI

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi

5

## "BBB" JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| Pedagogik ta'sir ko'rsatish turlari | | | |
| Pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari | | | |
| Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari | | | |

**«Blits-so‘rov» savollarga javob bering, jadvalni to‘ldiring.**

| № | Savollar | javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Tarbiya jarayoni deganda nima tushuniladi? | |
| 2 | Ta’lim jarayoni deganda nima tushuniladi? | |
| 3 | Pedagogik o’rganish deganda nima tushuniladi? | |

2

# O’quvchilarni pedagogik kuzatish yo’llari



## Quyida berilgan mavzular bo’yicha esse yozing

**1 – Esse**

- O’quvchilarni pedagogik o’rganish va kuzatish

**2 – Esse**

- O’quvchilarga pedagogik ta’sir ko’rsatish

# TARQATMA MATERIALLAR:









Tarbiyachi o'quvchining individual xususiyatlarini yaxshi o'rgangach va tushungan taqdirdagina, bu o'quvchi shaxsini muvaffaqiyatli tarbiyalab etishtira oladi.

O'quvchilarni o'rganish o'qituvchining, ayniqsa guruh rahbarining vazifasidir.

U o'quvchilarpi faqat darsdagima emas, balki guruhdan tashqi vaqtdan ularga tarbiya berish vaqtida ham, o'quvchilar uylariga borganda ham, har xil ekskursiyalar vaqtida ham o'rganadi.

**O'quvchilarni pedagogik kuzatish**

O'quvchilar jamoasi mustaqil tashkilotdir, ammo u pedagogik rahbarlikka muhtojdir. O'quvchilarni o'z holiga tashlab qo'yish ham, ayni vaqtda o'quvchilar jamoasiga nisbatan ma'muriyatchilik ham, buyruqbozlik yo'liga o'tib olish ham mumkin emas. Birinchi holda, guruh rahbari bu ishlardan umuman chetlashib, o'quvchilar bilan aloqaning susayishiga yo'l qo'ysa, ikkinchi holda u tazyiq yo'liga o'tib o'quvchilar mustaqilligini yo'qqa chiqaradi.

Guruh rahbarining bosh vazifasi o'quvchilar jamoasi faoliyatini mohirlik bilan boshqarish, o'quvchilar tashabbuskorligini o'stirish, guruh jamoasi faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishdan iboratdir.

O'quvchilarni pedagogik kuzatish o'quvchilar hayoti va faoliyatini o'rganishning eng ishonchli usullaridan biridir. Bu darslarda, darsdan tashqari vaqtlarda, ijtimoiy-foydali mehnat sharoitida, qo'yingchi, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida amalga oshiriladi. Albatta – bu degani – guruh rahbari hamma vaqt va hamma joyda o'quvchilar izidan yurib, ularni zimdan kuzatadi degan gap emas.

O'quvchilarni kuzatish davomida, ayniqsa ularning ba'zi bir xatti-harakatlarini baholashda ularning keltirib chiqargan sabablarini aniqlab olish juda muhimdir. Masalan, o'quvchi darsga kechikib keldi, deylik. Guruh rahbari uni qo'yishdan oldin vaziyatni aniqlab olishi maqsadga muvofiqdir. Bu holatda balki ota-ona aybdordir, balki u ko'r kishini ko'chadan o'tkazib qo'ygandir, balki yo'lda ag'anab tushib, kiyimlarini qayta almashtirib kelgandir... Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin. Buni inkor qilib bo'lmaydi.

Ba'zan o'quvchi o'qituvchining gaplarini e'tiborsiz tinglaydi. Bu o'qituvchida norozilik uyg'otadi va u haq. Balki uning oilasida notinchlik bo'lganu u tun bo'yi uxlamasdan bezovta bo'lib chiqqan, darsda fikrini bir joyga to'play olmaydi.

Nima bo'lgandayam, o'quvchilarni kuzatish yuksak madaniy, saxiy qalb, o'quvchilar shaxsiga katta hurmat, o'quvchilar tarbiyasini bilish, sinchkovlik, etuk mahorat va malaka talab etadi.

Pedagogning kuzatishi qanchalik qimmatli bo'lmasin, butun guruh haqida va ayrim o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlar o'rganishning boshqa usul va yo'l-

yo'riqlari yordamida aniqlashni va kengaytirishni talab etadi. Bundan kelib chiqib, ta'lim tizimida o'quvchilar shaxsiy ishini samarali tashkil etish zamon talabidir. Buning uchun ularga mehnatni ilmiy tashkil qilishning oqilona eng oddiy usullarini o'rgatish zarur. Bu bilan ularga eng kam kuch sarflab eng ko'p samaraga erishish imkonini yaratgan bo'lamiz.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning quyidagi asosiy talablari mavjud:

Maqsadni aniqlab olish.

Ishni qismlarga ajratish.

3. Qismlarni keraksiz narsalardan tozalash, qolganlarini oqilona joylashtirish.

Eng kerakli qurol-asboblarni tanlash.

Eng yaxshi usullarni o'rganish.

Maqsadga erishish.

Bularni o'quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo'ladi?

O'qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o'quvchilar ta'lim tizimilarda o'qishadi. O'qish – bu o'ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. SHu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko'p yoki oz kuch sarflanishiga qarab u yoki bu darajada samarali bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og'zaki reja tuzib olishga o'rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartiblilik, tejamlilik rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog'liqdir:

Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir.

Reja – harakat uchun dastur.

Rejaning tarkibiy qismlari:

Ish maqsadini aniqlash.

Ish uchun nimalar kerak?

Ish tartibi, ish jarayoni, vaqti, joyi.

Nihoyat, ishning o'zini: uning nimadan boshlanishi, qanday borishi, nimadan keyin nima kelishini aniq tasavvur qilish kerak.

Ishni bajarish uchun eng avvalo tegishli ish o'rni kerak. ta'lim tizimidagi ko'pchilik darslar uchun parta yoki stol singari ish o'rni to'liq kifoya qiladi.

Endi ish o'rniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ish o'rnida hech qanday ortiqcha narsa bo'lmadligi kerak. Aks holda kerakli narsani topish uchun ko'p vaqt sarflanadi.

Ish o'rnida tozalikni ta'minlash kerak. Ish o'rni qanchalik toza bo'lsa, ishlash shunchalik oson, zavqli bo'ladi.

Ish o'rnida bajariladigan ishga muvofiq tartib ta'minlanishi lozim. Bizga kerak bo'ladigan hamma narsani bir tomonda (yaxshisi chapda), bajarilgan va foydalanilgan narsalarni o'ng tomonda saqlash kerak. Ko'p ishlatiladigan narsalar yaqinroq turishi kerak.

Stolda tartib saqlanishi uchun ruchka, qalam, knopka, qisqich, o'chirg'ich va maxsus qalamdondan foydalanish o'rinli. SHuni unutmaslik kerakki, guruh xonasidagi tartib, ozodalik har bir ish o'rnidagi tartib va ozodalikka bog'liq.

Bu xildagi ish jarayoni o'quvchilarni tartiblilikka, ozodalikka, o'z-o'zini nazorat qilishga, qiziqib mehnat qilishga o'rgatadi.

# MUSTAQIL TA'LIM

## KEYS STADI

O'quvchi xulq-atvoridagi yakka-yarim uchraydigan va tasodifiy voqealarni emas, balki uning shaxsida juda kup uchraydigan tipik xususiyatlarni o'rganmoq kerak. SHuni hisobga olish kerakki o'quvchilar hamma vaqt o'sib kamol topib boradilar. Ularning qiziqishlari doim o'zgarib boradi, ularning ichki dunyolari doimo boyib boradi.

| | |
|---|---|
| I<br>Oila;<br>Mahalla jamoatchiligi;<br>TA'LIM tizimi jamoatchiligi;<br>Televidenie;<br>Hozirgi davr yangiliklari;<br>O'zaro muamala. | II<br>O'zining tajribasi;<br>Qadrlaydigan narsalari;<br>SHaxsiy talablari;<br>Niyatlari va umidlari;<br>O'zaro aloqalari;<br>Munosabatlari. |
| III<br>Alohida e'tibor berish;<br>Har bir harakatini kuzatish;<br>Rahbatlantirish;<br>Suhbat o'tkazish;<br>Erkin muloqotga o'rgatish;<br>YAqindan sirlashish | IV<br>Mavzuni to'g'ri tanlash;<br>Tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsata bilish;<br>Qiziqarli o'tkazish;<br>O'quvchilar ijrosini eshitish va ko'rish;<br>Maqsadga erishish;<br>Mazmunli tashkil etish. |

SHuning uchun ham o'quvchilarni faqat rivojlanishga o'rgatmoq va bu rivojlanishni faol boshqarib borish zarur. O'quvchilarni yanada yaxshi, har tomonlama o'rgatmoq uchun qilinadigan muomollalarning barcha imkoniyatlarida foydalanmoq lozim. Faqat o'quvchilarning ayrim hatti-harakatlariga bu hatti harakatlar nomoyon bo'lishlarini tashkil etish tajribalarini o'rganish va tahlil qilish asosida o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin.

# 6 – mazvu. O’QUVCHILARNI O’RGANISH, KUZATISH VA TA’SIR KO’RSATISH METODIKASI

## REJA:

5. O’quvchilarni turli xil metodlar yordamida o’rganish
6. O’quvchilarni pedagogik kuzatish yo’llari
7. O’quvchilarga ta’sir ko’rsatishning shakl va metodlari
8. Pedagogik ta’sir ko’rsatish metodikasi

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

17. Insonni shakllanishida fanning maqsadi va vazifalari
18. Yoshlarni tarbiyalashda milliy urf-odatlarimiz va an’analarimizning ahamiyati
19. Xalq og’zaki ijodining yoshlar ongida milliy mafkura va milliy g’oyani shakllantirishdagi o’rni
20. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va vazifalari
21. SHarq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari
22. Tarbiya jarayoni to’g’risida tushuncha
23. Ta’lim jarayoni to’g’risida tushuncha
24. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidati o’rni
25. O’quvchilarni pedagogik o’rganish yo’llari
26. O’quvchilarni pedagogik kuzatish
27. O’quvchilarga pedagogik ta’sir ko’rsatish
28. Ta’sir ko’rsatishning pedagogik ta’sir texnikasi
29. Pedagogik ta’sir ko’rsatish turlari
30. Pedagogik ta’sir ko’rsatishning shakllari
31. Pedagogik ta’sir ko’rsatishning asosiy usullari
32. Pedagogik ta’sirning ta’lim-tarbiyadagi o’rni

## INTERFAOL O’QITISH METODLARI:

### Kichik guruh uchun topshiriqlar

1. Pedagogik o’rganish
2. Pedagogik kuzatish
3. Pedagogik ta’sir ko’rsatish

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

Har biringiz o’z guruh a’zolaringizni diqqat, e’tibor bilan eshitishga harakat qiling.

Guruhning har bir a’zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan yondoshishi kerak.

Har kim o’ziga yordam kerak bo’lganda so’rashi mumkin.

8

## "B.B.B" JADVALI METODI

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi

5

## "BBB" JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| **Pedagogik ta'sir ko'rsatish turlari** | | | |
| **Pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari** | | | |
| **Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari** | | | |

**«Blits-so'rov» savollarga javob bering, jadvalni to'ldiring.**

| № | Savollar | javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Tarbiya jarayoni deganda nima tushuniladi? | |
| 2 | Ta'lim jarayoni deganda nima tushuniladi? | |
| 3 | Pedagogik o'rganish deganda nima tushuniladi? | |

2

# O'quvchilarni pedagogik kuzatish yo'llari



Quyida berilgan mavzular bo'yicha esse yozing

**1–Esse**

- O'quvchilarni pedagogik o'rganish va kuzatish

**2–Esse**

- O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish

# TARQATMA MATERIALLAR:

O'quvchilarning axloqiy hislatlari, uning yutiqlar va kamchiliklari, eng avvalo uning ta'lim va tarbiya olish jarayonida ijtimoiy uy sharoiti, tevarak-atrofi ham ahamiyat kasb etmaydi.

O'quvchilarni o'rgatish dasturi ularni faqat ta'lim tizimidagina emas, balki shu bilan birga uy sharoitida, oilada ham o'rganishni nazarda tutmog'i darkor.

Guruh rahbari tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o'quvchi hulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rgatishga e'tiborini qaratishi mumkin.

O'quvchini har tomonlama o'rgatishga erishmoq uchun dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish, o'quvchilarni o'rgatish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularni tayyorlab olish zarur.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini ham o'rganishi kerak.

Guruh rahbari o'ziga berilgan guruhni qabul qilib olish bilan o'quvchilar haqida ko'pgina ma'lumotlarni aniqlaydi.

Bu ma'lumotlar o'quvchining oilasidan o'qituvchilardan, o'rtoqlaridan olinadi va tarbiyaga yagona ta'sir birligi ham shu asosda vujudga keladi.

Tarbiyachi o'quvchining individual xususiyatlarini yaxshi o'rgangach va tushungan taqdirdagina, bu o'quvchi shaxsini muvaffaqiyatli tarbiyalab etishtira oladi.

O'quvchilarni o'rganish o'qituvchining, ayniqsa guruh rahbarining vazifasidir.

U o'quvchilarpi faqat darsdagima emas, balki guruhdan tashqi vaqtdan ularga tarbiya berish vaqtida ham, o'quvchilar uylariga borganda ham, har xil ekskursiyalar vaqtida ham o'rganadi.

**O’quvchilarni pedagogik kuzatish**

O’quvchilar jamoasi mustaqil tashkilotdir, ammo u pedagogik rahbarlikka muhtojdir. O’quvchilarni o’z holiga tashlab qo’yish ham, ayni vaqtda o’quvchilar jamoasiga nisbatan ma’muriyatchilik ham, buyruqbozlik yo’liga o’tib olish ham mumkin emas. Birinchi holda, guruh rahbari bu ishlardan umuman chetlashib, o’quvchilar bilan aloqaning susayishiga yo’l qo’ysa, ikkinchi holda u tazyiq yo’liga o’tib o’quvchilar mustaqilligini yo’qqa chiqaradi.

Guruh rahbarining bosh vazifasi o’quvchilar jamoasi faoliyatini mohirlik bilan boshqarish, o’quvchilar tashabbuskorligini o’stirish, guruh jamoasi faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishdan iboratdir.

O’quvchilarni pedagogik kuzatish o’quvchilar hayoti va faoliyatini o’rganishning eng ishonchli usullaridan biridir. Bu darslarda, darsdan tashqari vaqtlarda, ijtimoiy-foydali mehnat sharoitida, qo’yingchi, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida amalga oshiriladi. Albatta – bu degani – guruh rahbari hamma vaqt va hamma joyda o’quvchilar izidan yurib, ularni zimdan kuzatadi degan gap emas.

O’quvchilarni kuzatish davomida, ayniqsa ularning ba’zi bir xatti-harakatlarini baholashda ularning keltirib chiqargan sabablarini aniqlab olish juda muhimdir. Masalan, o’quvchi darsga kechikib keldi, deylik. Guruh rahbari uni qo’yishdan oldin vaziyatni aniqlab olishi maqsadga muvofiqdir. Bu holatda balki ota-ona aybdordir, balki u ko’r kishini ko’chadan o’tkazib qo’ygandir, balki yo’lda ag’anab tushib, kiyimlarini qayta almashtirib kelgandir... Hayotda hamma narsa bo’lishi mumkin. Buni inkor qilib bo’lmaydi.

Ba’zan o’quvchi o’qituvchining gaplarini e’tiborsiz tinglaydi. Bu o’qituvchida narozilik uyg’otadi va u haq. Balki uning oilasida notinchlik bo’lganu u tun bo’yi uxlamasdan bezovta bo’lib chiqqan, darsda fikrini bir joyga to’play olmaydi.

Nima bo’lgandayam, o’quvchilarni kuzatish yuksak madaniy, saxiy qalb, o’quvchilar shaxsiga katta hurmat, o’quvchilar tarbiyasini bilish, sinchkovlik, etuk mahorat va malaka talab etadi.

Pedagogning kuzatishi qanchalik qimmatli bo’lmasin, butun guruh haqida va ayrim o’quvchilar to’g’risida ma’lumotlar o’rganishning boshqa usul va yo’l-yo’riqlari yordamida aniqlashni va kengaytirishni talab etadi. Bundan kelib chiqib, ta’lim tizimida o’quvchilar shaxsiy ishini samarali tashkil etish zamon talabidir. Buning uchun ularga mehnatni ilmiy tashkil qilishning oqilona eng oddiy usullarini o’rgatish zarur. Bu bilan ularga eng kam kuch sarflab eng ko’p samaraga erishish imkonini yaratgan bo’lamiz.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning quyidagi asosiy talablari mavjud:

Maqsadni aniqlab olish.

Ishni qismlarga ajratish.

3. Qismlarni keraksiz narsalardan tozalash, qolganlarini oqilona joylashtirish.

Eng kerakli qurol-asboblarni tanlash.

Eng yaxshi usullarni o’rganish.

Maqsadga erishish.

Bularni o’quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo’ladi?

O’qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o’quvchilar ta’lim tizimilarda o’qishadi. O’qish – bu o’ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. SHu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko’p yoki oz kuch sarflanishiga qarab u yoki bu darajada samarali bo’lishi mumkin.

O’quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og’zaki reja tuzib olishga o’rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartiblilik, tejamlilik rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog’liqdir:

Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir.

Reja – harakat uchun dastur.

Rejaning tarkibiy qismlari:

Ish maqsadini aniqlash.

Ish uchun nimalar kerak?

Ish tartibi, ish jarayoni, vaqti, joyi.

Nihoyat, ishning o’zini: uning nimadan boshlanishi, qanday borishi, nimadan keyin nima kelishini aniq tasavvur qilish kerak.

Ishni bajarish uchun eng avvalo tegishli ish o’rni kerak. ta’lim tizimidagi ko’pchilik darslar uchun parta yoki stol singari ish o’rni to’liq kifoya qiladi.

Endi ish o’rniga quyidagi talablar qo’yiladi:

1. Ish o’rnida hech qanday ortiqcha narsa bo’lmadligi kerak. Aks holda kerakli narsani topish uchun ko’p vaqt sarflanadi.

Ish o’rnida tozalikni ta’minlash kerak. Ish o’rni qanchalik toza bo’lsa, ishlash shunchalik oson, zavqli bo’ladi.

Ish o’rnida bajariladigan ishga muvofiq tartib ta’minlanishi lozim. Bizga kerak bo’ladigan hamma narsani bir tomonda (yaxshisi chapda), bajarilgan va foydalanilgan narsalarni o’ng tomonda saqlash kerak. Ko’p ishlatiladigan narsalar yaqinroq turishi kerak.

Stolda tartib saqlanishi uchun ruchka, qalam, knopka, qisqich, o’chirg’ich va maxsus qalamdondan foydalanish o’rinli. SHuni unutmaslik kerakki, guruh xonasidagi tartib, ozodalik har bir ish o’rnidagi tartib va ozodalikka bog’liq.

Bu xildagi ish jarayoni o’quvchilarni tartiblilikka, ozodalikka, o’z-o’zini nazorat qilishga, qiziqib mehnat qilishga o’rgatadi.

# MUSTAQIL TA’LIM

## KEYS STADI

O’quvchi xulq-atvoridagi yakka-yarim uchraydigan va tasodifiy voqealarni emas, balki uning shaxsida juda kup uchraydigan tipik xususiyatlarni o’rganmoq kerak. SHuni hisobga olish kerakki o’quvchilar hamma vaqt o’sib kamol topib boradilar. Ularning qiziqishlari doim o’zgarib boradi, ularning ichki dunyolari doimo boyib boradi.

| | |
|---|---|
| I<br>Oila;<br>Mahalla jamoatchiligi;<br>TA'LIM tizimi jamoatchiligi;<br>Televidenie;<br>Hozirgi davr yangiliklari;<br>O'zaro muamala. | II<br>O'zining tajribasi;<br>Qadrlaydigan narsalari;<br>SHaxsiy talablari;<br>Niyatlari va umidlari;<br>O'zaro aloqalari;<br>Munosabatlari. |
| III<br>Alohida e'tibor berish;<br>Har bir harakatini kuzatish;<br>Rahbatlantirish;<br>Suhbat o'tkazish;<br>Erkin muloqotga o'rgatish;<br>YAqindan sirlashish | IV<br>Mavzuni to'g'ri tanlash;<br>Tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsata bilish;<br>Qiziqarli o'tkazish;<br>O'quvchilar ijrosini eshitish va ko'rish;<br>Maqsadga erishish;<br>Mazmunli tashkil etish. |

SHuning uchun ham o'quvchilarni faqat rivojlanishga o'rgatmoq va bu rivojlanishni faol boshqarib borish zarur. O'quvchilarni yanada yaxshi, har tomonlama o'rgatmoq uchun qilinadigan muomollalarning barcha imkoniyatlarida foydalanmoq lozim. Faqat o'quvchilarning ayrim hatti-harakatlariga bu hatti harakatlar nomoyon bo'lishlarini tashkil etish tajribalarini o'rganish va tahlil qilish asosida o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin.

## 7 – mazvu. GURUH JAMOASINI TASHKIL ETISH VA UNI TARBIYALASH METODIKASI

### REJA:

1. Jamoa haqida tushuncha
2. SHaxsning jamoada qaror topishi
3. Jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi tamoyili
4. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalash
5. O'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Jamoa haqida tushuncha
2. SHaxsning jamoada qaror topishi
3. Jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi tamoyili
4. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalash
5. Jamoaning o’ziga xos xususiyatlari
6. Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi
7. O’quvchilarni yakka tartibda tarbiyalashda ota-onalar bilan o’zaro hamkorlik
8. O’quvchilarni jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o’zaro hamkorlik
9. Ta’lim tizimi, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta’sirini muvofiqlashtirish
10. Guruh rahbari o’quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashi
11. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalash
12. Jamoa tashkil etishning samarali shakllari

# INTERFAOL O’QITISH METODLARI:

### Kichik guruhlar uchun topshiriqlar

1. SHaxsning jamoada qaror topishi
2. Jamoada shaxsni tarbiyalash
3. Shaxsni yakka tartibda tarbiyalash

***Guruhlarda ishlash qoidasi***

**Har biringiz o’z guruh a’zolaringizni diqqat, e’tibor bilan eshitishga harakat qiling.**

**Guruhning har bir a’zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan yondoshishi kerak.**

**Har kim o’ziga yordam kerak bo’lganda so’rashi mumkin.**

8

## "B.B.B" JADVALI METODI

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi

5

## "BBB" JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| Jamoa haqida tushuncha | | | |
| Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari | | | |
| Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi | | | |

## Quyida berilgan mavzular bo'yicha esse yozing

**1 – Esse**
- Jamoani tashkil etishning samarali shakllari

**2 – Esse**
- Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari

**«Blits-so‘rov» savollarga javob bering, jadvalni to‘ldiring.**

| № | Savollar | javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Jamoa deb nimaga aytiladi? | |
| 2 | SHaxsning jamoada qaror topishini kim tushuntiradi? | |
| 3 | Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi ekanligini kim aytadi? | |

2

## *“Nima uchun” metodi*

SHaxsning jamoada qaror topishini isbotlang




## Jamoaning o’ziga xos xusuiyatlari

- Ijrimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi
- Birgalikdagi umumiy faoliyatni tashkil etilish
- Majburiy, mas’uliyatli munosabatning yo’lga qo’yilishi
- Saylangan umumiy rahbarlik kengashiga ‘ga bo’lishli

8

# TOPSHIRIQLAR:

## O'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik yo'llarini ko'rsating




## SHaxsning jamoada qaror topishi



## Shaxsni tarbiyalash metodlarini izohlang

| Shaxsni jamoada tarbiyalash | Shaxsni yakka tartibda tarbiyalash |
|---|---|
| | |
| | |
| | |

## Jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi tamoyili ekanligi

| | |
|---|---|
| **1.** | **2.** |
| **3.** | **4.** |

## Jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang



8

## Quyidagi tushunchalarga izoh bering

| Jamoa | SHaxs va jamoa |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |

# TARQATMA MATERIALLAR:

## Jamoa haqida tushuncha

- Jamoa (lotincha «kollektivus» so`zining tarjimasi bo`lib, yig`ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo`lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir
- Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi

3

## SHaxsning jamoada qaror topishi

- SHaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a'zosi bo`lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi
- Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy me'yorlar mohiyatini o`zlashtiradi

4

Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi printsipidir.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to'liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etaman, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish; faollarni aniqlash, o'quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (ta'lim tizimi, guruh jamoasi, ta'lim tizimidan tashqari o'quvchilar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarning jamoa turmush, normalari va qoidalarining intizomini bo'zilishiga munosabatlarini kuzatib jamoaning tashkiliy tuzulishi ta'sirchanligi ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida o'quvchilar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va guruh raxbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. SHuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muxokama qilinmaydi va mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamoa rivojlanishning 2-chi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas balki harakatlarini qo'llab quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri – o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi chiqindi qog'oz yoki metallolom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi ta'lim tizimi tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat guruhdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi.

Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalashdan maqsad ta'lim tizimi o'qituvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'yini yor bermaydigan tarbiyasi qiyin o'quvchilar – bu albatta, yomon o'zlashtiruvchilar emas, holbuki ular orasida odatda ular ko'pchiligi ana shunday o'quvchilardir. Zamonaviy guruh rahbar o'quvchidar yomon xulq atvorining, past o'zlashtirishning sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining guruhdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma'naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari – dastavval muayyan printsiplarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar yo'naltirib turadigan o'zaro ma'suliyatli munosabatlardir.

Guruh o'qituvchilari ko'p bo'lgan sharoitda har bir o'quvchi yakka tartibda yondashish, har bir o'quvchi qalbiga to'g'ri yo'l topish juda qiyin. Agar o'quvchilar jamoasi qo'llab quvvatlasa, har xolda bunday yo'lni topish mumkin.

Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o'quvchini jamoa faoliyatigan jalb etishdan jamoani esa mazkur o'quvchi bilan qiziqtirib qo'yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoada tarbiyasi qiyin o'quvchilar bo'ladi, lekin «ajratib qo'yilgan» o'quvchilar bo'lmaydi.

Guruh rahbari o'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda bo'ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda guruh rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba «Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi»dir. Mazkur dastur o'quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil mashg'ulotlarni birga qo'shib olib borishni ko'zga tutadi.

Dasturda o'quv yili mobaynida ikkita umumTa'lim mashg'ulotni va har bir guruh ota-onalari uchun 6 tadan 9 tagacha mashg'ulot o'tkazish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar shunday tarzda quriladiki, ota-onalar pedagogika, psixologiya va fiziologiya asoslari izchil kursini o'zlashtirib, farzandlari bilan guruhdan-guruhga o'tgandek bo'lishadi. Kurs o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq va Ta'limining har bir yildagi Ta'lim-tarbiya vazifalarini hisobga olib qurilgan.

Ota-onalarning yuksak Ta’limiy va madaniy darajasi pedagogik va psixologik ta’sir etish sifatini oshirish uchun ular bilan bevosita muomalada, o’qituvchilarning bu yo’nalishidagi ijodiy jamoa ishida o’rganish mumkin.

YAkka tartibdagi pedagogik suhbat guruh rahbarining o’quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli hisoblanadi.

Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o’rnatish, o’quvchilar oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo’shimcha ma’lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, o’quvchining yakka tartibdagi rivojlanish dasturini birgalikdagi pedagogik xarakatlar sistemasini ishlab chiqish, ota-onalarning tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishlarini va tarbiyasi qiyin o’quvchi hulqini tuzatish va o’quvchilar o’rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish, kabi keng ko’lamdagi Ta’lim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

O’qituvchilar u yoki bu o’qituvchining biror o’quvchi uning darsida intizomni buzganligi xususidagi shikoyatga javoban ota-onani ta’lim tizimiga chaqirtiradilar. Guruh rahbari hamma narsani sinchiklab o’rganib chiqishi kerak. Ba’zan o’quvchilarning darsda yomon ishlashga, gap qaytarishga va hakozolarga o’qituvchining o’zlari aybdor bo’ladilar. Bunday holda o’qituvchida pedagogik odobning yo’qligi yoki uning darsdan, guruhdan tashqari Ta’lim-tarbiya jarayonini yomon tashkil etganligi uchun ma’suliyatni o’qituvchi va ota-onalarga ag’darish noto’g’ri bo’lur edi. Agar o’quvchi bir muncha tarbiyasiz intizomsiz bo’lsa ham guruh rahbari ota-onalarga faqat uning kamchiliklari haqida gapirmasligi kerak. Bu ularning yoqimsiz bo’lib, ular va pedagog o’rtasida ishonchli munosabatlar o’rnatishiga yordam bermaydi.

Har bir ota-ona o’z farzandini yaxshi ko’radi, shuning uchun ular, o’z farzandida hosil bo’lgan yangi, ijobiy kurtaklar xususida quvonchni o’rtoqlashadigan va o’quvchilarning xulqidagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan, birgalikdagi harakatlar xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan guruh rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar. Bunday sharoitda ota yoki ona juda hayrixoh bo’ladi va guruh rahbari bilan bajonidil aloqa bog’laydi.

Guruh rahbarining o’quvchilar oilalarida bo’lishi ta’lim tizimi va oila o’zaro hamkorlikning muhim shakli hisoblanadi. Oilada bo’lishning maqsadini aniq vaziyat belgilab beradi. Guruh rahbari nima maqsadda oilaga berishga muvofiq tarzda unga oldindan tayyorgarlik qo’radi (O’qituvchilar bilan maslahatlashadi, o’quvchining o’zlashtirishi xulqini aniqlaydi, avvalgi borishi natijalari to’g’risidagi mavzularni ko’rib chiqadi, suhbat mazmunini va shaklini belgilaydi, muhokama qilish ota-onalar bilan kelishish uchun masalalarni tanlaydi, yaqin kelajak uchun ota-onalarning tarbiyaviy vazifalarni, tavsiyanomalarni va hakazolarni belgilab oladi).

Oilada bo’lganda faqat maslahatchi bo’lib qolmasdan, o’zi ham ota-onalarning fikri va takliflariga quloq solishlari kerak, chunki ular farzandlarining muvofaqqiyatidan bizga nisbatan kam manfatdor emaslar. YUqori guruh o’qituvchilarining oilalariga borishni zarur deb hisoblaydigan guruh rahbari nohaqdir. YUqori guruh o’qituvchilari oldida kasb tanlash mummosi turadi, ota-onalar esa bunga o’z farzandlarining u yoki bu faoliyatiga qiziqishi va qobilyatini inkor etib, o’z

hayotiy tajribalari asosida yondoshadilar. Bu jihatdan guruh rahbari tamonidan odob bilan yordam berishi zarurligi ravshandir.

Jamoatchi va bilimli guruh rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan guruh jamoasini tashkil qiladi.

Ta'lim tizimi, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirishda – oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodir va odatda ta'sir ko'rsatadi,

Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqiyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishining chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oila darajasida ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shahsiy tiklantirish jarayoninig zarur bo'g'iniga aylantiradi.

Ta'lim tizimilar tajribasida faoliyat odatda ommaviy jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Tabiyki individual shakllar muammolash nazarda tutmaydi.

Jamoa tashkil etganda o'quvchilar muhitida mavjud bo'lgan haqiqiy guruhlarni tutish, bir-biriga va o'zaro do'stlashadigan o'quvchilarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarni xususiyatlarini ularning yo'nalishi, qiziqishlari, malakasini bilishlari hisobga olish va foydalanish kerak. Jamoa ishni tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xusiyatlarni hisobga olish ishining samarodorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan bu hol guruhdagi muammolarni jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomila sohasiga olib kiradi.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o'qituvchilarning shaxslararo real mavjud bo'lgan aloqalarni hisobga olish ikki xil maqsadga erishish: guruh a'zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o'rtasiga muomalaga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

# MUSTAQIL TA'LIM

**Кasb mahorati deyilganda,** bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi



Ko'nikma

- SHaxsning ma'naviy madaniyatini hozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida qurish lozim;
- Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishmoq lozim;
- Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan vos kechmoq zarurdir.

**"Ma'naviyat"** tushunchasi faqat inson zotiga xos bo'lib, tabiatning gultoji, takomili hisoblangan inson mohiyatining ajralmas qismidir.

**Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq DTS ishlab chiqish tamoyillarining asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:**

- gumanitarlash va insonparvarlash;
- nazariylashtirish (fundamentalizatsiya);
- umumta'limiy va kasbiy tayyorlov;
- ta'lim – kasbiy programma dolzarbligi;
- talabalarning akademik zarbdorligi;
- fanlar qismlari va guruhlarning uyg'unligi;
- mustaqil davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- sifatning ko'p bosqichli nazorati.

**Ta'limni gumanitarlashtirish** ta'lim oluvchilarda dunyoni to'la tasavvur etish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va jahon miqyosidagi tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan

**Ta'limni insonparvarlashtirish** insonni oliy ijtimoiy qadriyat bo'lib etishishiga, uning qobiliyatini ochish, turli-tuman ta'limiy ehtiyojini qondirish, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, inson va atrof muhit munosabatidagi uyg'unlikka erishishiga yo'naltirilgan

**Ta'limni nazariylashtirish** oliy ma'lumotli kadrlar tabiatdagi barcha jonivor va narsalar, jarayon va hodisalar haqidagi yaxlit tasavvurlari bilimning ilmiy usullari va tizimli yondashish asosida bilimni yaratish, olg'a siljitish va yoyishlari mumkin. Mustaxassis uchun jiddiy nazariy tayyorgarlik ko'p ilm talab qiluvchi va informatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, o'zlashtirish va samarali tadbiq etish uchun zarur.

# KEYS STADI

## 1-TOPSHIRIQ

Talabalarga A (mashg'ulot shakllari) va B (o'qitish usullari) to'plam kartochkalaridan bittadan tanlab olish taklif etiladi:

**A to'plam**

| |
|---|
| Ma’ruza |
| To‘garak |
| Ekskursiya |
| Seminar |
| Amaliyot |

| **B to‘plam** |
|---|
| Suhbat |
| Kuzatish |
| Tushuntirish |
| **Bahs** |
| Aqliy hujum |

So‘ngra, kartochkani tanlab olgan talaba tanlagan mashg‘ulot shakli va usulini o‘zaro bog‘lagan holda tashkil etiladigan pedagogik jarayon to‘g‘risida so‘zlab beradi.

Misol uchun *Seminar* va *Bahs* kartochkalarini tanlagan talaba seminar mashg‘ulotlarida mavzuga oid bahs uyushtirish uslubi to‘g‘risida gapirib berishi kerak bo‘ladi.

Mashg‘ulot natijasida talabalarning «metod» va «mashg‘ulot shakli» to‘g‘risidagi bilimlari sinab ko‘riladi va rivojlantiriladi.

## 2-TOPSHIRIQ

Talabalarning shaxsiy sifatlarini kuzatishi va aniqlashiga doir ko‘nikmalarini aniqlash uchun quyidagi ko‘rinishda jadval tarqatiladi va 10 daqiqa davomida to‘ldirib berishlari so‘raladi.

**BU KIM?**

| | |
|---|---|
| Ko‘p gazeta o‘qiydi | |
| Bahslashishni yaxshi ko‘radi | |
| SHe’r yozadi | |
| Kelajakda olim bo‘lmoqchi | |
| Ingliz tilini yaxshi biladi | |
| SHaxmat o‘yinini yoqtiradi | |
| Krossvordlar echadi | |
| Sergap | |
| Ochiq ko‘ngilli | |

Mazkur jadvalda keltirilgan sifatlar o‘qituvchi tomonidan guruh xususiyatlari asosida istalgan tartibda ishlab chiqiladi. Bu turdagi mashg‘ulot natijasida talabalar o‘z guruhidagi talabalarni yaxshiroq o‘rganib oladi hamda ijobiy va salbiy sifatlar tahlil qilinadi.

## 8-мavzu. SHAXSGA JAMOA ORQALI TARBIYAVIY TA'SIR KO'RSATISHNING SHAKL VA METODLARI

**REJA:**

1. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi.
2. O'quvchilar jamoasining shakllanish bosqichlari.
3. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi.
4. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Jamoa nima?
2. O'quvchilar jamoasining ishlab chiqarish jamoalaridan farqi nimada?
3. Jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
4. Jamoani shakllantirish bosqichlarini sanang va ularning o'ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtaling.
5. Jamoani tashkil etish metodikasi mazmunini so'zlang.
6. Jamoa an'analari deganda nimani tushunasiz?
7. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati
8. Oila muhiti ahloq-odob, madaniyat qoidalariga asosida tashkil topishi
9. Jamiyatning qanchalik rivojlanganligi oila farovonligining o'rni
10. O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanishi
11. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi
12. Jamoa rivojlanishining dastlabki boskichi
13. Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir

## INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

**Kichik guruh uchun topshiriqlar**

1. O'quvchilar jamoasining shakllanish bosqichlari
2. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi
3. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning o'rli

***Guruhlarda ishlash qoidasi***

**Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga harakat qiling.**

**Guruhning har bir a'zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.**

**Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.**

8

«Blits-so‘rov» savollarga javob bering, jadvalni to‘ldiring.

| № | Savollar | javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Jamoa deb nimaga aytiladi? | |
| 2 | Jamoaning o‘ziga xos xususiyatlarini kim biladi? | |
| 3 | Jamoa an’analari deganda nimani tushunasiz? | |

2

## Quyida berilgan mavzular bo’yicha esse yozing

**1–Esse**
- Shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishning shakllari

**2–Esse**
- Shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishning metodlari

# TOPSHIRIQLAR:

## Jamoaning vujudga kelishi uchun to‘rt bosqich zarur ularni ko’rsating

1.
- matn
- matn

2.
- matn
- matn

3.
- matn
- matn

4.

## Shaxsning aqliy salohiyatga egaligi nimalarda namoyin bo’ladi?




## Farobiy inson kamolotida ta’lim tarbiyaning muhimligini ta’kidlab: «munosib inson» bo’lishi uchun odamda ikki imkoniyat bor deydi




## Mustaqil fikrlovchi va erkin shaxsni shakllantirishga izoh bering

| Mustaqil fikrlovchi | Erkin shaxs |
|---|---|
| | |
| | |
| | |

## Abu Ali Ibn Sino etika va ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda nima deb yoritib bergan?

| Etika tarbiyasi | Axloqiy tarbiya |
|---|---|
| | |
| | |
| | |

## Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasini ayting

## TARQATMA MATERIALLAR:

Mavzuning maqsadi va vazifasi shaxsning shakllanishida oila muhiti, kollektiv va jamiyatning ta'sirini ifodalash, shaxsning jamoaga, jamiyatga aloqadorligi tushunchalarini shakllantirish.

O'qituvchi uyga berilgan ikki topshiriq haqida gaplashib bo'lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki topshiriq haqida gaplashib bo'lgach, uchinchi savolga javob berishni bo'lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki o'quvchidan so'raydi.










## Shaxsga jamoa orqali ta’sir ko’rsatish

Mavzuning maqsadi va vazifasi shaxsning shakllanishida oila muhiti, kollektiv va jamiyatning ta'sirini ifodalash, shaxsning jamoaga, jamiyatga aloqadorligi tushunchalarini shakllantirish.

Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra etuklikning bosh mezoni – ilmlilik, bilimli bo'lishdir.

SHarq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (etuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo'nalishi ekanligiga urg'u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa'yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. SHu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o'zida eng oliy insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql to'g'risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan o'n ikki fazilatni keltirib o'tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda o'z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini mo''tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Jamoaga qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur.

O'quvchi qo'yilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak.

O'quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo'yish metodikasi o'quvchilarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o'quvchilar faoliyat, shuningdek, qo'yilayotgan talablarning bajarilish holatini muntazam suratda nazorat qilib turishdan iborat.

O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko'pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lim muassasasining direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktr o'rinbosari istiqbol rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha sinf majlislari yoki maxsus suhbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. SHu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun

stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo‘yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo‘lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o‘quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Har bir o‘qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o‘quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini o‘quvchilarning o‘zlari, albatta, o‘qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo‘yadi. O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘z-o‘zini boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Oiladagi sharoit, oziq-ovqat va jihozlar ta’minoti, o’zaro munosabatlar: er-xotin, bobo-buvi qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, tog’a-amaki hamda boshqa qarindoshlarning bir-biriga muomalasi oila a’zolarining birgalikda ishlash, dam olishi, adabiyot, san’at, ilm-fan va sport bilan shug’ullanish, daromad, ruhiy-ma’naviy holatlar, qo’ni-qo’shnichilik aloqalari, mahalladagi to’y-ma’rakalarga qatnashish va hakozolar oila muhitini tashkil etadi. Oila muhiti ahloq-odob, madaniyat qoidalariga asosida tashkil topsa, o’quvchi shaxsining to’g’ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, bunda oiladagi o’quvchilar to’g’ri kamol topadi.

Hamqishloqlar bir oiladek yashab, bir-biridan xabardor, bir-birlariga mehribon bo’ladilar, qishloqning, kollektivning ishi haqida hisob berib turadilar, bir-birlarini va shu asnoda o’quvchilarini ham kollektiv ruhida tarbiyalaydilar.

Ibn Sino kollektivdan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan o’quvchining bahtsiz bo’lib qolishni ta’kidlaydi. Inson oilada dunyoga kelgan bilan jamiyatga aloqadordir. Farobiyning fikriga «insonning va jamiyatni qo’lga kiritishi, ahloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi, inson va jamoaning o’z qo’lidadir».

Jamiyatning qanchalik rivojlanganligi oila farovonligida, shaxsning kamolotida ko’rish mumkin. YOki shaxsning barkamolligi, oilaning to’la-to’kisligiga qarab, jamiyatnig iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ahloqiy ahvolini bilish mumkin. CHunki, shaxs-oila jamiyat munosabatlari o’zaro mustahkam bog’langan. SHuning uchun shaxs oila-jamiyat muhitida shakllanadi, kamol topadi.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo’l uzoq bo’lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu guruh rahbarining asosiy ishidir. Umuman ta’lim tizimi o’quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish

qanchalik muvaffaqiyatli o’tishiga bog’liq bo’ladi. Agar o’quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo’lsa, o’quvchi ta’lim tizimini hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik ta’lim tizimi yillarini eslamaydi ham. O’quvchilarni inoq jamoaga birlashtirish mohir guruh rahbari qo’lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg’ayayotgan kishining hyotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo’lini belgilashda o’z vazifasini anglash guruh rahbarining o’quvchilar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat’iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatining muhim sharti hisoblanadi. SHuning uchun har bir o’qituvchi tarbiyaviy ishni guruhdan jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O’qituvchining esa yangi guruh bilan ko’p marta ish boshlashiga to’g’ri keladi: o’z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, guruhni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba’zan esa ta’lim tizimida vujudga kelgan vaziyat taqozo bilan guruh rahbari o’zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to’sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Pedagog guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Guruhda haqiqiy jamoa munosabatlari bo’lmasligi mumkin, bunda o’qituvchi ishni boshidan boshlashga to’g’ri keladi. Ko’pincha bunday holat yangi shakllangan, «yig’ma» guruhlarda, yangi qurilgan TA’LIM tizimilarda bo’lishi mumkin. To’g’ri boshqa hollarda ham shunday bo’lishi, avvalgi guruh rahbarining kuch-g’ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo’lishi, tarkibi o’zgarmagan jamoa VII-VIII cinflarda ham shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan guruh rahbari guruh bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishning boshlang’ich davri bilan ish ko’radi, deb mo’ljallab bo’lmaydi. Boshlang’ich ta’lim tizimidayok (I-IV guruhlarda) ko’pincha yaxshi guruh jamoalari shakllanadi. O’qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo’llaydi.

# MUSTAQIL TA’LIM

## KEYS STADI

### 1-TOPSHIRIQ

Talabalarga quyidagi namuna asosida ishlab chiqilgan jadval tarqatilib, talabalardan uni 20 daqiqa davomida to‘ldirib berishlari so‘raladi:

**Mas’uliyat tushunchasi haqida Sizning fikrlaringiz?**

| Savollar | 1-misol | 2-misol | 3-misol |
|---|---|---|---|
| Mas’uliyat nima? | | | |
| Mas’uliyat kimlar uchun shart | | | |
| O‘zini mas’ul deb hisoblagan | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| shaxslar kimlar? | | | |
| Mas'uliyat nimalarni talab qiladi? | | | |
| Kimlar mas'uliyatga ega? | | | |
| Mas'uliyatsizlikka qanday chora ko'rish mumkin? | | | |

Bu kabi jadvalni o'tiladigan mashg'ulot xarakteridan kelib chiqqan holda shaxsning boshqa sifatlari uchun tuzib, dars mavzuining yanada qiziqarli o'zlashtirilishiga erishish mumkin.

**2-TOPSHIRIQ**

Quyidagi jadvalda X tovarning bozordagi taklif miqdori berilgan.

| Taklifning narx bo'yicha elastikligi | Taklif miqdori (dona) | ***Narx*** (so'm) |
|---|---|---|
| | 0<br>2<br>4<br>6<br>8<br>10<br>12<br>14 | 2<br>4<br>6<br>88<br>10<br>12<br>14<br>16 |

Taklifning narx bo'yicha elastikligini hisoblang va jadvalni to'ldiring!

# 9-мavzu. OILA VA JAMOATCHILIK BILAN OLIB BORILADIGAN TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

**REJA:**

1. Oila haqida tushuncha
2. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida
3. Oila tarbiyasining mohiyati
4. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari
5. Oila muammolari
6. Tashkilotchining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlari

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Oila nima? Uni o‘z fikringiz bilan izohlab bering.
2. Oila tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
3. Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi?
4. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik mazmunidan nimalar aks etadi?
5. SHarq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasini yo‘lga qo‘yish borasidagi qarashlarida qanday g‘oyalar ilgari suriladi?
6. O‘zbekiston Respublikasida oilalarning mustahkamligini ta’minlash, ularning moddiy farovonligini oshirish yo‘lida qanday qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
7. Oila tarbiyasi borasidagi mavjud muammolar nimalardan iborat?
8. Tashkilotchining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlari
9. Milliylikning o’ziga xos an’ana vositalariga tayanish.
10. Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari
11. Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi
12. Kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar o’quvchilarni ijodkorlikka da’vat etuvchi tarbiyaviy maskan ekanligi
13. Oila – tarbiya o’chog’i. Oila – jamiyat negizi ekanligi
14. Guruhdan va kollejdan tashqari tashkil qilingan ishlar – o’quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni mustahkamlaydi
15. Guruhdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalari
16. Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari

# INTERFAOL O’QITISH METODLARI:

### Kichik guruhlar uchun topshiriqlar

1. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari
2. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari
3. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari

***Guruhlarda ishlash qoidasi***

**Har biringiz o’z guruh a’zolaringizni diqqat, e’tibor bilan eshitishga harakat qiling.**

**Guruhning har bir a’zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan yondoshishi kerak.**

**Har kim o’ziga yordam kerak bo’lganda so’rashi mumkin.**

8

## "QANDAY?" IERARXIK DIAGRAMMASI

Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. "Qanday?" ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

"Qanday?" ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda "Qanday?" savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish metodlarini ham o'rganasiz

5




**Quyida berilgan mavzular bo'yicha esse yozing**

**1 – Esse**

- **Oila bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar**

**2 – Esse**

- **Jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar**







# TOPSHIRIQLAR:

## Oila va islom

| Oila, oilaviy munosabatlarga oid qarashlar | | |
|---|---|---|
| **1.** | ***«Qur'oni Karimda»*** | |
| **2.** | ***Islom ma'naviyatida*** | |




## Oila tarbiya turlarini ko'rsating




## Oila muammolarini ayting



## Tashkilotchining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlari

| *Guruhdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:* | |
|---|---|
| 1. | |
| 2. | |
| 3. | |
| 4. | |
| 5. | |

## Tashkilotlar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin, bular:



# TARQATMA MATERIALLAR:

Oilaviy munosabatlar_– ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

***Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.***







**Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi**

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlab, ota-onalarda o‘ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta’siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari

mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

yorog'i tartibli va saranjomli bo'ladi.

ularning o'zaro ahdu-paymoni asosidagi ijtimoiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Oila qurish balog'atga etgan har bir yigit-qiz uchun hayotiy zaruriyat bo'lib,

Oilaning mustahkamligi oila a'zolarining totuvligi, er-xotinning oila yuritish ko'nikma va malakalariga egalik darajasiga bog'liq. Oilaning mustahkamligida ayolning alohida roli bor. Zero, oila tashvishlarining aksariyati uning zimmasida bo'ladi. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy quyidagilarni qayd etadi: «... Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi undan va uylanganning tinchligi undan. Husni bo'lsa ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa eon ozig'idir. Aqlli bo'lsa turmush intizomli va ro'zg'or kerak

SHaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o'ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmi ning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mo''tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg'u xalqimiz ruhiyatidagi o'ziga xos xususiyatlardan biridir. Oila tarbiyasida ob'ektiv va sub'ektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar ob'ektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar sub'ektiv omillar sirasiga kiradi.

Oila tarbiyasida bolalarni <u>aqliy jihatdan tarbiyalash</u> ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat. SHuningdek, ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bolada qg'iziqishni uyg'ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi.

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. SHaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga etishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta

ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo‘lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo‘lishlariga sabab bo‘lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo‘lgan havasini

Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berib borish, o‘z navbatida huquqlaridan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini hosil qiluvchi o‘ziga xos maskan sanaladi. Bolalar «Vatan», «xalq» tushunchalarining mohiyatini dastlabana shu maskanda o‘zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o‘zi Vatanning bir bo‘lagidir. Oila sha’nini himoya qilish, uni saqlash to‘g‘risida qayg‘urishning Vatanning sha’ni,el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo‘lishi lozim.

SHu jihatdan pedagogika fani oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila - ta’lim muassasasi – jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma’rifiy roli ular o‘rtasidagi o‘zaro birlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan unumli foydalanish talabi o‘rtaga qo‘yilmoqda.

## MUSTAQIL TA’LIM

### KEYS STADI

**Insonlarning iqtisodiy fikrlash tarixi.**

**1. Insonlar tanlaydi**. Hamma kim bo‘lishi, nima ish qilishi, qaerda yashashidan qat’iy nazar cheklanganlik muammosiga duch keladi. SHuning uchun tanlash va qaror qabul qilishga majbar.

**2. Insonlarning tanlovi xarajatlar bilan bog‘liq.** Insonlar bekordan bekorga u yoki bu narsani tanlamaydi. Ular har xil muqobil variantlar orasidan eng yuqori naf keltiradigan yoki eng kam xarajat talab qiladigan variantlarini tanlashadi.

**3. Insonlar rag‘batlantirishga qanday tarzda reaksiya qilishlarini qanday munosabatda bo‘lishlarini oldindan aytish mumkin.** Stimullar turli-tuman, jumladan pul shaklida yoki jismoniy qoniqish tarzida ham bo‘lishi mumkin.

**4. Insonlar iqtisodiy tizimlar yaratadilar.** U o‘z navbatida individual tanlov stimullariga ta’sir ko‘rsatadi. Har doim biron bir kishi u yoki bu muqobil variantni cheklovchi, u yoki bu tanlovni afzal ko‘rar ekan, yoki qo‘shimcha muqobil variantni

hosil qilar ekan, boshqalar uchun stimul o‘zgaradi. Har safar qonun yoki tartib o‘zgarganda muqobil variantlar cheklanadi yoki stimullar o‘zgaradi.

**5. Insonlar ixtiyoriy ayirboshlashda qatnashganlarida doimo yutishadi.** Har safar ikki va undan ortiq kishi ayirboshlashni amalga oshirar ekan, har bir kishi o‘zi uchun kamroq qadrlanadigan yoki unchalik zarur bo‘lmagan narsani qadrlanadigan, zarur narsaga almashtiradilar. Natijada ayirboshlash har ikki tomon uchun qo‘shimcha qadr-qimmat yaratadi. SHunday tarzda butun iqtisodiyotda ham ayirboshlash har ikki tomon uchun manfaatlidir.

Insonlarning tanlovi kelajakda namoyon bo‘ladigan ma’lum bir oqibatga olib keladi. Tanlash natijasida ko‘zlangan maqsadga etish mumkin. Lekin kelajakda u qanday oqibatga olib keladi, uni baholash qiyin. SHuning uchun juda ko‘p qarorlar tavakkal bo‘lib ma’lum darajada xatar mujassamlashgan.

Guruhdagi talabalar biron masalani, muammoni o‘rganar ekanlar, insonlarning ana shu iqtisodiy fikrlash tarzini yoddan chiqarmasliklari lozim.

Tadqiqot uslubi talabalarni bevosita o‘rganilayotgan mavzu muhokama qilinayotgan masalaga bevosita qatnashish, ilmiy izlanishga amaliy yondashish imkoniyatini beradi. Bu metodni qo‘llab mashg‘ulotlar o‘tishda dars berishning boshqa uslublaridan ham foydalaniladi.

Demak, bu uslub dars berishning boshqa uslublaridan quyidagicha farq qiladi:

- iqtisodiy fikrlashning yuqori bosqichiga asoslanganligi;
- talabalarning bor intellektual qobiliyatlarini ishga solishi;
- ilmiy izlanishda talabalarni bevosita ishtirok etishlari;
- ma’lumotlar, dalillar asosida hisob-kitob qilib, xulosa chiqarish va baholashga o‘rgatishi bilan farq qiladi.

Tadqiqot uslubini qo‘llab, mashg‘ulot o‘tishni «Mulk munosabatlari» mavzusi misolida ko‘rib chiqamiz.

«Mulk munosabatlari» mavzusi bo‘yicha mashg‘ulot o‘tish jarayonida tadqiqot uslubini qo‘llash osonroq bo‘lishi uchun modellashtiruvchi o‘yindan foydalanishimiz mumkin.

***Maqsad:***

1. Mulkchilik, mulk munosabatlarini, mulkka iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatida tushuntirib berish;
2. Mulk huquqini resurslarni taqsimlanishida qanday rol o‘ynashini tahlil qilish.

***O‘yin o‘tkazish uchun materiallar***:

- auditoriyada taxminan 2x2 metr bo‘sh joy;
- 60 dona skrepka yoki qog‘oz, yoki boshqa material bo‘lishi mumkin;
- rangli skochlar;
- mulk huquqi dastasi va undan kelib chiqib mulk huquqining aniq sifatlari ko‘rsatilgan tarqatma material.

# 10-mavzu. O'QUVCHILARNI BILIMGA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH ORQALI TARBIYALASH

## REJA:

1. Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish
2. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati
3. SHarq mutafakkirlari asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri xususida
4. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi
5. Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi
6. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili
7. O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifalari
8. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish
9. O'quv madaniyatini oshirish
10. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish
11. Guruh o'qituvchilari bilan hamkorlik

## Takrorlash uchun savollar:

1. Dunyoqarash nima?
2. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
3. SHarq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlardan namunalar keltiring.
4. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy tarbiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o'rin tutadi?
6. O'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta'sir ko'ratadi?
7. O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifalari
8. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish
9. O'quv madaniyatini oshirish
10. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish
11. Guruh o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish
12. O'quv jarayonida fanlar bo'yicha o'zaro bog'lanishga katta e'tibor berish

13. O’quvchilarning intizomli bo’lishida guruh rahbarining xizmati
14. O’quvchilarda o’quv mehnatiga javobgarlik va mas’ullik hissini tarbiyalash
15. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayon ekanligi
16. Ongli intizomni tarbiyalash – ta’lim muassasasining’ asosiy vazifasi

# INTERFAOL O’QITISH METODLARI:

**“Qanday?” ierarxik diagrammasi**

“Qanday?” ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1. Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo’llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o’rganish muhim vazifalardan biridir. “Qanday?” ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

“Qanday?” ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo’lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Ketma-ket ravishda “Qanday?” savolini qo’yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish metodlarini ham o’rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro’yxatiga mos bo’ladi.

2. O’ylamay , baholamay va ularni o’zaro solishtirmay tezlikda barcha g’oyalarni yozish lozim bo’ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g’oyalarni kiritish mumkin bo’ladi.

4. Agarda savol chizmada bir qancha “shoxlar”da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo’lishi kerak.

5. YAngi g’oyalarni qanday grafik ko’rinishda qayd etishni o’zingiz tanlab oling (daraxt, kaskad va boshq.) Bunda muammo shajarasi ko’z oldingizda namoyon bo’ladi.

6. To’g’ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish engil kechadi.




**"Esse" metodi**

Esse – frantsuzcha tajriba, dastlabki loyiha, shaxsning biror mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta'lim oluvchi o'zining mavzu bo'yicha taassurotlari, g'oyasi va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog'ozga tushirish, iloji boricha ruchkani qog'ozdan uzmasdan to'xtamasdan yozish, so'ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo'lishi e'tirof etilgan



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi**

Kichik guruhlarda ishlash ta’lim oluvchilarning darsda faolligini ta’minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan guruhda o’rganishga imkoni tug’ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o’rgatadi.

*Qo’llanish metodi:*

1. *Faoliyatni tanlash.* Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada ta’lim oluvchilar uni o’rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko’rsatishlari zarur bo’ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. *Zaruriy asos yaratish.* Ta’lim oluvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo’yicha ba’zi bilim, ko’nikma va malakalarni oldindan egallagan bo’lishlari kerak.

3. *Guruhni shakllantirish.* Odatda har bir guruhda 3-5 ta’lim oluvchi bo’ladi, (ehtimol, kam yoki ko’p bo’lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma’qul. Guruh o’lchovi masalaning muhimligi, guruhdagi ta’lim oluvchilar soni, ta’lim oluvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o’zaro harakatiga bog’liq holda o’zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishidir. (jinsi, o’zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash ta’lim oluvchilar o’rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir ta’lim oluvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o’taydi va hokazo). Guruhni guruhlarga ajratish, hohish bo’yicha yoki hisob bo’yicha amalga oshiriladi.

4. *Aniq yo’l-yo’riqlar ko’rsatish.* Ta’lim oluvchilarga faoliyatni bajarish bo’yicha aniq va xajm jihatdan ko’p bo’lmagan tushuntirish beriladi. O’qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo’lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko’riladi.

5. *Qo’llab quvvatlash va yo’naltirish.* O’qituvchi zarurat tug’ilsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to’g’ri yo’nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga ta’ziyq o’tkazilmaydi.

6. *Muhokama qilish va baholash.* Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo’yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o’z sardorini belgilaydi. Zarurat tug’ilsa, faoliyat natijalari bo’yicha bildirilgan fikrlar o’qituvchi tomonidan yozilib borildi. Muhimi, guruhning yechimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt etarlicha bo’lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o’qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to’g’ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.




## O’quvchilarni bilimga bo’lgan qiziqishini oshirish

SHaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. YOsh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

SHaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi.

SHaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya o‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

Ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

Ilmiy qarash (yunoncha «idea»- g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi»[2]. Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi»[1].

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga

[2] Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент, Давлат нашриёти, 1966. – 7-бет.

[1] Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент, Давлат нашриёти, 1965. – 125-бет.

erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsayu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi»[2].

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. SHuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o‘tishga to‘g‘ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur»[1]. Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg‘u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur»[2].

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o‘rin tutgan mafkuraviy g‘oyalar va ularning mohiyatidan to‘laqonli xabardor bo‘lish o‘ziga xos ahamiyatga ega. SHu bois ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilayotgan ta’lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o‘quvchilarni tanishtirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e’tirof etilgan milliy istiqlol g‘oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma’lumotlar berib borish, ularga nisbatan o‘quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo‘l hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Xalqimizning yo‘li – mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo‘lidir» nomli asarida quyidagilarni bayon etadi: «Bozor munosabatlariga o‘tish davrida o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida bizning iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarnig mohiyati va roli borasida ko‘proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqdir», - deya ta’kidlagan edi.

Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish uning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida Prezidenti I.A.Karimov asarlarida respublika iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, omillari hamda tamoyillari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif bozor munosabatlarini shakllantirishning quyidagi tamoyillariga alohida urg‘u beradi:

1. Iqtisodiyotning har qanday siyofiy mafkuralardan ozod qilish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash[1].

2. Iqtisodiyotni, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish –iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning muhim sharti[2].

---

[2] Ўзбек педагогикаси антологияси /Тузувчи-муаллифлар: Ҳошимов К., Сафо Очил. – Тошкент, Ўқитувчи, 1995. – 137-бет.

[1] Авлоний А. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони. – Тошкент, Ўқитувчи, 1994. – 10-бет.

[2] Авлоний А. Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992. – 22-23-бетлар.

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари. – Тошкент, Ўзбекистон, 1993. – 5-бет.

3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda xalqning tub manfaatlarini ko‘zlash, davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tashkilotchisi va etakchisi bo‘lishi[3].

4. Pul siyosatini olib borishda mustaqil bo‘lish, valyuta zahiralarini boyitish[4].

5. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qonun ustuvorligiga erishish, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi[5].

## AMALIY TOPSHIRIQLAR

### Aqliy tarbiya mohiyatiga izoh bering




### O’quv madaniyatini oshirish yo’llarini ayting




[2] Ўша асар, 7-бет.

[3] Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. – Тошкент, Ўзбекистон, 1994. – 5-бет.

[4] Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари. – Тошкент, Ўзбекистон, 1993. – 48-49-бетлар.

[5] Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. – Тошкент, Ўзбекистон, 1994. – 271-273-бетлар.

## Ilmiy qarash va ilmiy tafakkur tushunchalariga izoh bering

| Ilmiy qarash | Ilmiy tafakkur |
|---|---|
| | |
| | |
| | |

## Axloqiy tarbiya va ekologik tarbiyaning maqsadi va vazifalarini ayting

| Etika tarbiyasi | Axloqiy tarbiya |
|---|---|
| | |
| | |
| | |

# TARQATMA MATERIALLAR

O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish.

O'quvchi bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. O'quvchida o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. O'quvchidagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni engishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

2. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish.

O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'limning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Guruh rahbarlari o'quvchilarga ularning bosh vazifasi – o'qish ekanligini tushuntirishi kerak. O'qishga mas'uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o'qituvchilar, ota-onalar va o'z oldidagi mas'uliyat, ularning fikrlari, ma'qullashlarini eshitishga intilish, guruh, o'quv jamoasida munosib o'rinni egallashga ham tegishlidir.

3. O'quv madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining o'quvchilarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

O'quvchilarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas'ullikni sezmagan o'quvchi pala-partish o'qiydi. Mas'ullik kishini sergak torttiradi, o'quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi

Ma'lumki, ongli intizom va mas'uliyat hissini sezish ta'lim muassasasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

O'quvchilarning intizomli bo'lishida guruh rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, o'quvchilarda intizomni tarbiyalab boradi, guruhda aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni guruh rahbari bir o'zi emas, balki o'qituvchilar, guruh jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

O'quv jarayonida fanlar bo'yicha o'zaro bog'lanishga katta e'tibor berish kerak. Bundan o'qituvchiyu o'quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar echish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o'lchov birliklari qo'llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o'rganadigan mavzular bo'ladiki, ularda ikkala fan o'qituvchisi ham bir darsda o'z sohalari bo'yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo'ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-jo'g'rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. O'quvchining muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini o'rganishga havas uyg'otish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to'garak, fakul'tativ mashg'ulotlari jarayonida kengroq foydalanish lozim. Guruh rahbari o'z o'quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma'lumotlar bilan fan o'qituvchilarini tanishtiradi, o'quvchiga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo'ladiki, biror fandan o'zlashtirmayotgan o'quvchi bilan guruh rahbarining o'zi bevosita ish olib boradi. «Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo'ymaymiz», deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo'lganda, a'lochi o'quvchilarni yoki ushbu fan o'qituvchisini ham ko'makka chaqiradi. Bundan o'quvchini ko'ngli tog'dek ko'tariladi, yolg'iz emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o'zlashtirishga harakat, havas uyg'onadi.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda o'quvchilarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Guruhga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag'-dag'a qilib o'quvchilarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg'aqk qalblarga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqoq, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o’quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg’in, ijodiy, ko’rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg’otish, lol qoldirish, dars o’tilgach birorta ham o’quvchini «beish» qoldirmaslik – har biriga o’ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo’lish nafaqat ta’lim muassasasida, balki o’quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. CHunki, inson hayotining chigal va murakkab so’qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda turli fanlar bo’yicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmoqda: «Mashhur kishilar hayotidan», «Qiziqarli matematika», «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli jo’g’rofiya», «O’simliklar hayoti», «Bizni o’rab turgan olam», «Tariximizga bir nazar» va hokazo ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar o’quvchilar qo’liga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq do’st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi o’zi?

O’quv jarayonida fanlar bo’yicha o’zaro bog’lanishga katta e’tibor berish kerak. Bundan o’qituvchiyu o’quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar echish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o’lchov birliklari qo’llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o’rganadigan mavzular bo’ladiki, ularda ikkala fan o’qituvchisi ham bir darsda o’z sohalari bo’yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo’ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-jo’g’rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. O’quvchining muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini o’rganishga havas uyg’otish mumkin bo’ladi.

O’quvchilarda o’quv mehnatiga javobgarlik va mas’ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas’ullikni sezmagan o’quvchi pala-partish o’qiydi. Mas’ullik kishini sergak torttiradi, o’quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi

Ma’lumki, ongli intizom va mas’uliyat hissini sezish ta’lim muassasasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

# MUSTAQIL TA’LIM

**«Pedagogik muomala orqali o‘quvchini tarbiyalash mumkinmi? »**

Mazkur keys oliy ta’limning- “Kasb ta’limi” (Iqtisodiyot) ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan

**Berilgan keysning maqsadi**: Pedagog mehnati faoliyatini baholash natijalari bo‘yicha talabalar bilimini chuqurlashtirish.

**O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar**:

- Tarbiyaning o‘ziga xos tomonlarini ochib beradi;
- O‘quvchining darslarni o‘zlashtirishiga oila muhitining ta’sirini taxlil qiladi;
- Ta’lim samaradorligi o‘quvchining faolligiga bog‘liqligini asoslab beradi;
- Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi va ularga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish yo‘llarini biladi.

**Mazkur keys institutsional tizimning** real faoliyat asosida ishlab chiqilgan.

**Keysda ishlatilgan ma’lumotlar manbai** quyidagilardan iborat:

M.Ochilov,N.Ochilova. O‘qituvchi odobi.T. “O‘qituvchi” 1997. 109 bet. (Voqeiy hikoyat).

**Texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda keysning tavsifnomasi:**

Mazkur keys xona tadqiqotlari asosida syujetli toifasiga kiradi. Ushbu keys ma’lumotlar va dalillar asosida ishlab chiqilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilmagan bo‘lib, keys-topshiriqqa mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan

Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys – tahlillarni o‘rgatish va baholash hisoblanadi. SHu sababdan, keys muammosining shakllanishi va tuzilishi uning masalasining echimida algoritm va tahlil asosida ishlab chiqilgan.

Rasmiylashtirish tartibi: elektron xolatda, terilgan.

**Mazkur keysdan** Ushbu keysni “Kasb pedagogikasi” fani bilan bir qatorda “Iqtisodiy pedagogika”, “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”, “Iqtisodiyot tarbiya nazariyasi”, “Oliy ta’lim pedagogikasi”, “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi”kabi fanlarni o‘rganishda foydalanish mumkin.

## TALABALAR UCHUN METODIK KO‘RSATMA

**Muammo**

O‘qituvchining o‘quvchiga qo‘llagan tarbiya usulining ta’sirini aniqlash

**Vazifalar**

1. Karimning o‘qishga nisbatan bo‘lgan munosabatini aniqlang.
2. Darsdan tashqari paytda Karimda kuzatiladigan xolatlarni aniqlang.
3. Karimning tarbiyasiga ona-onaning ta’sirini o‘rganib chiqing va baho bering.
4. Sinf rahbarining Karim bilan munosabatini tahlil qiling.

**Muammoni echimini topish**

1. Karimning tarbiyasiga ta’sir qilgan omillarni taxlil qilish.

Karimning kundan-kunga o‘zgarib borayotgan fe’l-atvoriga barcha omillar: ya’ni ijtimoiy muhit ham sababchidir

2. Sinf jamoasida Karimning o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatish.

Doimiy muloqotda bo‘ladigan sinf jamoasi bilan ham Karim befarq bo‘la bordi. CHunki o‘z muammolari uni o‘rtoqlari bilan me’yoriy muloqot qilishiga yo‘l bermas edi.

3.Karimning tarbiyasida oilaning ta’sirini aniqlash.

Onasi kasalligi tufayli farzandining nima ish bilan shug‘ullanayotganini nazorat qila olmaganidan Karim o‘zi bilganicha kundalik faoliyatini rejalashtirar edi. Qilayotgan ishining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini hech kim tahlil qilmaganidan uning tarbiyasida ham kamchiliklar kuzatila boshladi.

4.Sinf rahbarining qo‘llagan tarbiya usulining mohiyatini asoslab berish.

Sinf rahbari Karimning qilgan harakatlari uchun, qorovul ota-onasiga aytish lozim bo‘lgan gaplarni aytganda, u o‘g‘lim deb barcha tanbehlarni eshitti. Hatto uzilgan mevalar uchun tovon ham to‘ladi. Uni o‘z uyiga olib borib, yuvintirdi, kollejga birga borishdi. Darsdan so‘ng ular birga bolaning uyiga bordilar. Karim muallimaga “Bu voqeani onamga aytmang, men bu ishni boshqa qilmayman”,- dedi. Bu voqea sinf rahbari bilan o‘quvchi orasidagi sir bo‘lib qoldi.

## 11-mavzu. O’QUVCHILARDA INTIZOMLILIKNI TARBIYALASHNING SHAKL VA METODLARI

### REJA:

7. Tarbiya metodlari haqida tushuncha
8. Tarbiyaning maqsad va vazifalari
9. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari
10. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari
11. O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari
12. Guruhlarda darslarni turli shakllarda tashkil etish

**Takrorlash va o’zini-o’zi nazorat qilish**

1. Tarbiya metodlarini sanang va ularga ta’rif bering.
2. Tarbiya metodlaridan hikoya, suhbat, namuna hamda ma’ruza qanday hollarda qo‘llaniladi?
3. Xalq pedagogikasi qanday tarbiya metodlariga ega?
4. Rag‘batlantirish va jazolash metodlari haqida gapirib bering.
5. O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari
6. Guruhlarda darslarni turli shakllarda tashkil etish yo’llari
7. O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda pedagogik texnologiyalarning o’rni

8. Guruh xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'siri
9. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishi
10. Guruhdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning asosi ekanligi
11. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish
12. O'quvchilar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlar uchun shart-sharoitlar yaratish

# INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

**"BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM" metodiga misol**

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

3) har bir guruh umumiy chizma asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi;

4) guruhlar umumiy chizmaning alohida bandlari bo'yicha o'qituchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi chizma asosida tashkil etiladi:

**"BBB" JADVALINI TO`LDIRING**

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| Rag'batlantirish metodlari | | | |
| Ishontirish metodlari | | | |
| Jazolash metodlari | | | |

**“Nima uchun? metodi**

Nima uchun metodi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi chizmadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib, muammoni hal etish qiyin.

**“Nima uchun?” texnikasining chizmadagi ko’rinishi**




Muammoning yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sababalarni aniqlash va yo’qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu chizmali metod talabalarda aynan ana shu xususiyatlarni rivojlantiradi. Talabalarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Umuman olganda, ushbu metoddan muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo’llash mumkin.

*“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari*




“Nima uchun?” chizmali metodga asosan talabalar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi quyidagilardan iborat:

1. Talabalarni “Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish
2. YAkka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? So’rog’i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi.Qayta-qayta

«nima uchun» degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yairishnga sababi topilguncha davom ettiriladi.

3. Talabalar mini guruhlarga birlashtiriladi, o'z chizmalarini taqqoslashga va qo'shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy chizma jamlanadi.
4. Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.
5. Qanday piktogrammadan foydalanishni o'zingiz hal etasiz.
6. Mulohazalarning chizmatik ko'rinishi qanday bo'lishini o'zingiz hal etasiz.
7. Har bir strelka fikr yo'nalishini ko'rsatishi lozim.

**"KLASTER" metodiga misol**

Quyida **"Klaster"** metodi yordamida mavzuni o'rganish masalalari ko'rib chiqiladi. Shu haqidagi ma'lumotlar bo'lg'usi iqtisodchi-pedagog uchun juda muhimdir.

Klaster "Tarmoqlar" interfaol metodi – o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishga o'rgatishga ajratilgan.




# TOPSHIRIQLAR:

## Tarbiya metodlari va shakllari haqida izoh bering

| Tarbiya metodlari | Tarbiya shakllari |
| --- | --- |
| | |

# TARQATMA MATERIALLAR:

**Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:**

1. Zamonaviylik – ta'lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish.
2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o'rganib borish.
4. Tarbiya jarayonida o'quvchi bilan o'quvchi faoliyatini optimal-lashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.
5. Ilmiylik – yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish.
6. Buning uchun o'quvchilarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.
7. Ilg'or tajribalarga suyanish.
8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o'quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, ertaklardan o'rinli foydalanish, o'yin teks savollari, ko'rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.
9. YAngi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o'qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo'lishi kerak

**Rag'batlantirish turlari**

- O'quvchining zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklash
- Maqtash (ota-onalar va o'quvchilar jamoasi oldida)
- Estalik sovg'alar berish (badiy kitoblar va o'quv qurollari)
- Maqtov yorlig'i bilan taqdirlash
- Maxsus stependiyalar tayinlash
- Fotosur'atini hurmat taxtasiga qo'yish
- Qo'llab-quvvatlash
- Jamoa nomidan minnatdorchilik bildirish
- Safda birinchi o'rinda turush
- Musobaqalarda bayroqdor bo'lish
- Ta'lim muassasasi devoriy gazetasi yoki radiosi orqali nomini qayd etish

### Diniy tarbiyaning ahamiyati

Hammamizga ma'lumki o'zbek oilasidagi tarbiyada islom dininig xissasi katta. Islom dininig boshqa dinlardan farqli tomonlari bo'lgani kabi, o'zbek oilasida tarbiya o'zining sezish qiyin bo'lgan xususiyatlari mavjud.

Islom aqidalarining, uning ahloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai «Kur'on»dir.

G'arb va SHarq tadqiqotchilari «Qur'on»ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan deb xisoblaydilar.

Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi.

«Kur'on»da insonda imonning o'ziga xos mezoni xisoblangan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan.

«Kur'oni Karimda» ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-ona kiritiladi va ota-ona haqqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23-24-oyatlarida ota-onaga yaxshilik - Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday inson bo'lishidan qat'i nazar, farzand ularga nisbatan xurmat saqlashi, ularning so'zlarini qaytarmasligi; ota-ona ham o'quvchini dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, haqqiga doimo tayer turish ta'kidlanadi.

Mazkur oyatlarda eng oliy insoniy muomala qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:

-ota-ona xatti-harakatining farzandga malol kelmasligi;

- ota-ona bilan gaplashganda ularga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- ota-onaga rahm-shavqat qilish;
- ularning haqiga duo qilish.

SHuningdek, tarbiya haqida ko'pgina faylasuflarning yozib qoldirgan asarlari mavjud.

# MUSTAQIL TA'LIM

### TOPSHIRIQ

| № | Fan bo'yicha mustaqil ishining mazmuni | Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular | Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 7. | Guruh rahbari ishini rejalashtirish | Guruh rahbari faoliyati | "Esse" yozish | Mavzu yakunida |
| 8. | Guruh rahbarining ota-onalar bilan aloqasi | Ta'lim muassasasi va oila hamkorligi | Savollar va testlar tayyorlash | Oraliq baholashda |
| 9. | Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi | Ta'lim-tarbiya jarayoni | Buklet tayyorlash | Seminar mashg'uloti davomida |

# TESTLAR

| Savollar mazmuni | variant | variant | variant | variant |
|---|---|---|---|---|
| 1. **Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni kim tashkil qiladi?** | Sinf rahbari va fan o'qituvchisi | Sinfdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi | O'quv-tarbiya muassasasi rahbari | Ta'lim muassasi rahbari, guruh rahbari va ota-onalar qo'mitasi |
| 2. **Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar qanday muassasalarda tashkil etiladi?** | Sport majmuasi yoki madaniyat saroylarida | O'quvchilar saroylari va dars jarayonida | O'quv-tarbiyaviy muassasalarida | Ta'lim muassasi oquv jarayonida |
| 3. **Tarbiyaviy ishlar jarayonida qaysi ish usullaridan foydalaniladi?** | Ertaliklar, majlislar, to'garaklar, o'quv jarayoni | Ommaviy va yakka tartibdagi faoliyat turlari | Og'zaki, amaliy va ko'rgazmali ish usullari | O'qitish, tarbiyalash, jazolash, uqtirish ish usullari |
| 4. **Tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshirildadigan sayohatlar, olimpiada va to'garaklar qaysi ish usuliga kiradi?** | Amaliy | Og'zaki | Ko'rgazmali | Yozma, fikrlash va tafakkur qilish |
| 5. **Tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshirildadigan ertaliklar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar qaysi ish usuliga tegishli?** | Amaliy | Ko'rgazmali | Og'zaki | Yozma-matnli |
| 6. **Muzeylarga sayohat, kitoblar ko'rgazmasi tashkil etish qaysi ish usuliga taalluqli?** | Amaliy | Og'zaki | Ko'rgazmali | Yozma-matnli |
| 7. **Tarbiya jarayonining asosiy maqsadi nimadan iborat?** | Shaxs tarbiyasi | O'quvchi tarbiyasi | Har jihatdan barkamol shaxsni shakllantirish | O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish |

# 12 – mazvu. GURUH RAHBARI ISHINI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OLISH

**REJA:**

1. Rejalashtirish haqida tushuncha
2. Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati.
3. Rejaga qo'yiladigan talablar
4. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjatdir

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Rejalashtirish haqida tushuncha
2. Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati
3. Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti
4. Rejaga qo'yiladigan bir qator talablar
5. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjat
6. Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti
7. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablar
8. Guruh rahbari o'quv yili oxirida guruh jamoasi ishini tahlil qilishga alohida e'tibor berishi
9. Guruh rahbari turli rejalar tuzib olishi
10. Rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo'lishi kerakligi
11. Rejaning yana bir muhim manbai – o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlili
12. Reja uzluksiz va izchil bo'lishi
13. Rejaning aniqligi
14. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash
15. O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi bilan ishlash
16. Guruh o'qituvchilari bilan ishlash
17. Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish

## INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

## Kichik guruh uchun topshiriqlar

1. Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati
2. Rejalashtirish. Rejaga qo'yiladigan bir qator talablar
3. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjat

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga harakat qiling.

Guruhning har bir a'zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.

Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.

8

## "B.B.B" JADVALI METODI

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi

5

## "BBB" JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| Rejaning asosiy manbai | | | |
| Reja uzluksiz va izchil bo'lishi | | | |
| Rejaning aniqligi | | | |

## «Blits-so'rov» savollarga javob bering, jadvalni to'ldiring

| № | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish yo'llarini ayting? | |
| 2 | Guruh rahbari ishini rejalashtirish nima uchun kerak, uning sabablarini ayting? | |
| 3 | Guruh rahbari turli tarbiyaviy rejalar tuzib olish yo'llarini ko'rsating? | |

2

## Quyida berilgan mavzular bo'yicha esse yozing

**1 – Esse**
- Ta'limiy rejalar

**2 – Esse**
- Tarbiyaviy rejalar

## *"Nima uchun" metodi*

**Guruh rahbari turli tarbiyaviy rejalar tuzib olishini isbotlang**



# TOPSHIRIQLAR:

## Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir

***Rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo'lishi kerak?***

| Bosh manba – bu . . . | Rejaning yana bir muhim manbai – bu . . . |
|---|---|
| | |

## Reja va rejalashtirish haqidagi tushunchalarga izoh bering

| Reja | Rejalashtirish |
|---|---|
| | |
| | |
| | |

## Rejalashtirish haqida tushuncha

**Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi, bular:**



## Rejalashtirishning uchta asosiy shakliga izoh bering

| Muddatli (perspektiv) | Yillik | Yakuniy |
|---|---|---|
| | | |

## Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak, bular:



## Reja uzluksiz va izchil bo'lishini isbotlang



# TARQATMA MATERIALLAR:

## *Rejalashtirish haqida tushuncha*

Har qanday pedagogik jarayonni boshqarish va amalga oshirishning asosi maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iboratdir. Boshqarish va amalga oshirishning asosiy maqsadi – ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad – rejaning asosi

Amalga oshirishda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo'shimcha maqsad qo'yiladi. Ta'lim muassasasi ishini rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma'lum bir muddat davridagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng qabul qilinishi mumkin

Ish rejasini tuzish va uni hayotga tadbiq qilish ishlariga o'quvchilar va ota-onalar faollarini jalb qilish kerak. Avvalo ular alohida topshiriqlarni, asta-sekin esa rejada ko'rsatilgan keng hajmdagi ishlarni amalga oshiradi.

Rejaga kiritiladigan ish va tadbirlar, ularning mazmun-mohiyati, amaliyotga tadbiq qilish haqida mazkur kitobning tegishli bo'limlarida atroflicha fikr yuritilgan.

Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjatdir. Uni amalga oshirish uchun guruh rahbari shaxsan mas'uldir. «Guruh rahbari haqida Nizom»-da: «Guruh rahbarining ishi reja asosida olib borilishi lozim» deb belgilab qo'yilgan.

Guruh rahbari umumkollej ish rejalari, o'quvchilar etakchisi, «Kamolot» jamg'armasi kotibi ish rejalari bilap tanishib, direktor o'rinbosarlari, guruh o'qituvchilari, guruh faollari, ota-onalar bilan fikrlashib, ularning qimmatli takliflarini hisobga olgan holda ishning nstiqbolli rejasiii tuzadi.

Ishning istiqbolli rejasi guruh jamoasi tomonidan to'plangan tajribaga qarab va guruh rahbarining o'z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin. Nizomda «Guruhning yillik ish rejasi tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlaydi» deyilgan.

# MUSTAQIL TA'LIM

**TOPSHIRIQ**

| № | Fan bo'yicha mustaqil ishining mazmuni | Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular | Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 7. | Guruh rahbari ishini rejalashtirish | Guruh rahbari faoliyati | "Esse" yozish | Mavzu yakunida |
| 8. | Guruh rahbarining ota-onalar bilan aloqasi | Ta'lim muassasasi va oila hamkorligi | Savollar va testlar tayyorlash | Oraliq baholashda |
| 9. | Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi | Ta'lim-tarbiya jarayoni | Buklet tayyorlash | Seminar mashg'uloti davomida |

**Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish**

Guruh rahbari o'z ishlarini ta'lim muassasasi ma'muriyati rahbarligi va o'quvchilar tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. SHuning uchun uning faoliyatini rejalashtirish umumkollej hamda o'quvchilar va o'smirlar, «Kamolot» jamg'armasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog'langandir.

Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etadilar, biroq unga guruh rahbari boshchilik qiladi. Guruh rahbarlari oldida juda qiyin vazifa – tarbiyaviy maqsadlarda o'ylangan har bir narsani o'quvchilar o'zlarining shaxsiy fikr va g'oyalari sifatida qabul qilishlariga erishish vazifasi turadi.

Rejasiz ish olib borish guruhdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va uslublari o'lda-jo'lda, tarqoq, noaniq, tasodifiy holatlarda bo'ladi va ko'r-ko'rona harakat qilishga olib keladi. Bunday taqdirda tarbiyaning asosiy vazifalarini hal etish qiyinlashadi, ba'zan esa butunlay samarasiz bo'ladi. Reja guruh rahbariiing tarbiya berish faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun juda katta imkoniyatlar ochib beradi.

Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat?

Guruh rahbarlari o'tkazilayotgan ishlarni hamda ularning o'quvchilar tarbiyasiga ko'rsatgan ta'sirini har kuni tahlil qilishlari, o'zlari erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tushunishga harakat qilishlari, jamoasining rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qayd qilishlari kerak. SHunday qilib, rejalashtirishning har bir bosqichiga tayyorlanish muntazam olib boriladi. Jamoani va ayrim o'quvchilarni o'rganish yuzasidan olib borilgan barcha ishlar yakunida guruhga pedagogik tavsifnoma yoziladi. Mazkur tavsifioma guruh jamoasiniig o'ziga xos aniq xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Guruh rahbari tajriba orttirgan sari ancha murakkab masalalar bilan qiziqa boshlaydi. Uni guruhdagi ishlar qanchalik muvaffaqiyatli o'tgani emas, balki ular

o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatgani, guruhning ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishi emas, balki ishtirok etish sabablari qiziqtiradi.

SHuni nazarda tutish kerakki, guruh rahbari o'z guruh jamoasi oldiga qo'yadigan aniq tarbiyaviy vazifalari dastlabki vaqtlarda uncha murakkab bo'lmasligi mumkin.

Masalan, guruh rahbari guruhga kelgandan so'ng deyarli hamma o'quvchilar yaxshi ishlashini, lekin ularning bir-biri bilan aloqasi yo'qligini aniqladi. Bunday guruhda shunday bir ish topish kerakki, bu ish hamma o'quvchilarni yagona maqsadga olib borsin. O'quvchilarga bu vazifa – mamlakatimizdagi O'zDEU avtomobil' zavodi uchun metallom yig'ish va jo'natish shaklida etkazildi. O'z mazmuniga ko'ra juda oddiy bo'lgan bu topshiriq o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularda temir-tersak yig'ishda bir-birlari bilan musobaqalashib, uni tezroq bajarish ishtiyoqini hosil qiladi.

Guruh rahbari g'oyaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirishda o'quvchilarni faqat kitobiy bilimlar bilan emas, balki amaliy, hayotiy tajribalar bilan qurollantirishni nazarda tutishi zarur. Bu ma'ruzachilar, siyosiy kollejlar, siyosiy klublar va hokazolarni tashkil qilish mo'ljallanayotgan vaqtda o'quvchilarning o'z g'oyaviy e'tiqodlarini qay darajada ekanligini sinab ko'rishga imkon beradigan vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadi. Bu ishlarni munozaralarda, bahslarda, og'zaki va yozma jurnalarda, mehnat harakatlarida, bayramlarda, o'quvchilar va yoshlar tashkilotlari ishlarida, tabiatni, hayvonot dunyosini, tarixiy yodgorliklarni qo'riqlash kabi rang-barang tadbirlarda amalga oshirish mumkin.

Rejaning shakl va yo'nalishlari: rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi. Tarbiyaviy ishning xilma-xil shakl va uslublari bo'yicha ish olib borish tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar uchun yanada rang-barang va qiziqarli tarzda olib borishga yordam beradi. Rejada o'quvchilar bilan faqat umumiy holda emas, balki shu bilan birgalikda o'quvchilarning qiziqishlari va mayllarini hisobga olgan holda ham ish yuritishni nazarda tutish muhimdir.

Reja uzluksiz va izchil bo'lishi. Rejada belgilanadigan tarbiyaviy tadbirlar yagona tarbiyaviy jarayonning tadrijiy bo'laklaridan iborat bo'lmog'i kerak. Har bir tadbir o'zidan oldingi tadbirning davomi bo'lishi va erishilgan tarbiya natijalariga asoslanishi lozim. Bu uzluksizlik va izchillikni ta'minlaydi, erishilgan yutuqlar, qimmatli ko'nikmalarni yo'qolib ketishdan saqlaydi.

Rejaning aniqligi. Rejaga bajarib bo'lmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Ishni rejalashtirishda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish lozim. Rejada hamma narsa: ish vaqti, joyi, mas'ullar aniq bo'lsin.

Rejaning ifodalash shakli juda oddiy bo'lgani ma'qul: ishning nomi, bajarish muddati, mas'ul kishi. Reja qisqa va aniq bo'lishi kerak. Bo'lar-bo'lmas ishlar ro'yxatini qalashtirib, qappaygan reja tuzishga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o'quv yili davomida muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlarnigina kiritmoq lozim. Kiritilgan tadbirlar ham biri bog'dan, biri tog'dan olib yozilmasligi, balki ular tarbiyaviy ishlar tizimida bir-biri bilan bog'langan, bir-birini to'ldiradigan holda bo'lishi zarur.

Reja o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING KLASSIFIKATSIYASI

- Insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiya (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondashuv, demokratik boshqaruv, ochiq insonparvarlikka yo‘naltirilgan mazmun).
- Ta’lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya. (o‘yinli texnologiyalar, muammoli o‘qitish, kerakli tushunchalar, kommunikativ o‘qitish).
- O‘qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqalarga asoslangan pedagogik texnologiya. (programmali o‘qitish, differensiyali o‘qitish texnologiyasi, yakka holda o‘qitish, istiqbolli o‘qitish guruhli va jamoaviy o‘qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya).
- O‘quv materialini metodik takomillashtirish va didaktik rekonstruksiya qilishda pedagogik texnologiya. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).
- Xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiya.
- Muqobil texnologiya.
- Umumiy politexnologiya.

## MUAMMOLI VAZIYATLAR VA ULARNING PEDAGOGIK ECHIMLARI



# MUSTAQIL TA'LIM

## 1-TOPSHIRIQ

Xom-ashyo bazasi qisqarganligi tufayli «Baxmal» firmasi mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirdi. Bundan keyin doimiy va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar o'zgarmadi, o'rtacha umumiy xarajatlar esa 30 so'm (donaga ortdi. O'rtacha doimiy xarajatlarning boshlang'ich miqdori 120 so'm) donani tashkil qiladi. Sotilgan mahsulotdan keladigan daromad o'zgarmasligi uchun firmalar har bir mahsulot narxini necha foizga oshirishi kerak?

## 2-TOPSHIRIQ

«Mashkura» firmasi ijaraga olgan binoning doimiy xarajatlarining 40%ini tashkil qiluvchi ijara to'lovi 150 %ga ortdi. Qolgan o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarmadi. Ijara to'lovi oshgunga qadar har bir mahsulotga ketgan o'rtacha doimiy sarf-xarajat 700 so'm, sotish narxi esa 2800 so'm donani tashkil qilar edi. Har bir mahsulotdan kelgan dastlabki foydani saqlab qolish uchun firma narxini necha foiz o'zgartirishi kerak

## 3-TOPSHIRIQ

Quyonboqar bozordan qora yungli erkak va urg'ochi quyonlar sotib olgan edi. Ular urchiganda naslda faqat qora yungli quyonlargina emas, ozgina miqdorda kul rang yungli va oq rangli quyonlar ham tug'ildi. Quyonboqar hayron. Siz bu hodisani qanday izohlaysiz?

## 4-TOPSHIRIQ

Dastlab «Kelajak tongi» korxonasida o'rtacha doimiy xarajat o'rtacha umumiy xarajatlarning 30% ini tashkil qilar edi. Ishlab chiqarishning xarajatlariga ko'ra foydaliligi esa 40 % ga teng edi. Inflyasiya jarayoni natijasida o'rtacha doimiy xarajatlar 10 %, o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar esa 20 % o'sdi. Agar korxona mahsulot narxini 17 % ga oshirsa, xarajatlarga ko'ra ishlab chiqarish rentabelligi nimaga teng bo'ladi?

## 5-TOPSHIRIQ

O'tgan yili «A» korxonada doimiy xarajatlar umumiy xarajatlarning 25 % ini tashkil qilar edi. Bu yil esa o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar 20 % o'rtacha umumiy xarajatlar esa 10% ga ortdi. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar nisbati o'zgarmaydi. O'rtacha doimiy xarajatlar qanday va qancha foizga o'zgargan?

## 13 – mazvu. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHI KASBIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**REJA:**

1. Tashkilotchi faoliyatining maqsadi, vazifalari va kasbiga qo'yiladigan talablar
2. O'quvchilarning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishning o'ziga xos qoidalari
3. O'qituvchi kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni
4. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari
5. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Tashkilotchi faoliyatining maqsadi, vazifalari va kasbiga qo'yiladigan talablar
2. O'quvchilarning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishning o'ziga xos qoidalari
3. Tashkilotchining huquqlari
4. O'quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishning o'ziga xos qoidalari
5. Tashkilotchi o'quvchilarga nisbatan mehr va muhabbatli, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo'lishi
6. Guruhdan va ta'lim tizimidan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirrali ekanligi
7. Tarbiyaviy ishlar pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi
8. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari
9. O'qituvchi kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni
10. Zamonaviy o'qituvchi shaxsida qanday fazilatlar namoyon bo'lishi kerak
11. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari nimalarni o'z ichiga oladi
12. O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar
13. Ko'nikma va malakalar hosil qilish sohasi
14. Yakuniy hisob, olingan natijalarni baholash va pedagogik vazifalarni belgilash sohasi
15. Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga nimalar kiradi
16. Pedagogik jarayonni to'g'ri uyushtirish sohasi
17. Ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni
18. O'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasi
19. O'quvchi-talabalar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasi
20. O'qituvchidan birinchi navbatda nimalar talab qilinadi

# INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

## Kichik guruhlar uchun topshiriqlar

1. Direktor o'rinbosarining huquqlari
2. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari
3. O'qituvchi kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rn

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga harakat qiling.

Guruhning har bir a'zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.

Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.

8

## "B.B.B" JADVALI METODI

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi

5

## "BBB" JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| O'qituvchi shaxsining xususiyatlari | | | |
| O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar | | | |
| O'qituvchidan birinchi navbatda nimalar talab qilinadi | | | |

Quyida berilgan mavzular bo'yicha esse yozing

**1 – Esse**

- Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga nimalar kiradi

**2 – Esse**

- Ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni

# TOPSHIRIQLAR:

***Tashkilotchining huquqlari***

**Nizomda belgilangan vazifalar bilan bog'liq ravishda tegishli pedagogik xodimlarga ko'rsatma beradi.Xizmat vazifasi doirasidan kelib chiqqan holda guruhdan va ta'lim tizimidan tashqari ishlarni tashkil etish va yangi to'garaklarni ochish masalalarini hal qiladi**

***Direktor o'rinbosari bilan quyidagi ishlar kelishilishi kerak:***



## Guruhdan va ta’lim tizimidan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi

| Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun guruhdan va ta’lim tizimidan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo’lishi lozim: | |
|---|---|
| 1. | |
| 2. | |
| 3. | |
| 4. | |
| 5. | |
| 6. | |
| 7. | |
| 8. | |

## Pedagog-olimlar o’quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekanlar, uni ikki bosqichga bo’ladilar, masalan:




## Pedagoglar tomonidan qo’yilgn talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:



# TARQATMA MATERIALLAR:

Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun guruhdan va ta'lim tizimidan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o'quvchining betakror va o'ziga hosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish lozim;

milliylikni o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;

pedagoglar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish;

ta'lim tizimining jamoat tashkilot, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;

Tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning kundalik hayotidan olingan aniq dalillar va voqealarni, badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, kinofil'mlardan olingan misollarni tahlil etish hamda muhokama qilish asosida o'tkaziladi. Bu ishlarning xususiyati shundaki, bu o'quvchilarning o'zini ahloqiy xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishga va ularga to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

Guruhdan va ta'lim tizimidan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Guruhdan tashqari ish o'quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir vaqtini uzaytiradi, u o'qituvchining darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, o'quvchilarning qobilyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olishlarini uyushtirish imkonini beradi. Guruhdan tashqari ish o'quvchilarni jamiyat hayotiga jalb qilishning katta imkoniyatlariga ega.

Bu borada tashkilotlar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, usuliy va ma'muriy.

# 14 – mazvu. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHINING ISHLASH METODIKASI

## REJA:

1. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatining maqsadi va vazifalari.
2. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish
3. Tarbiyaviy ishlar o’quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to’ldiradi

**Takrorlash uchun savollar**

1. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyati, uning maqsadi va vazifalari
2. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish
3. Tarbiyaviy ishlar o’quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyat ekanligii
4. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash
5. O’quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma’naviyati bilan ongini sug’orish
6. O’quvchi atrofini o’rab turgan vositalar
7. Darsdan tashqari ishlarni to’la qamrab olgan to’garaklar
8. Tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni hamda shakl usullarini aniqlash
9. Tarbiyaviy tadbirlarni o’tkazish
10. darsdan tashqari ishlarni guruhlashtirish boshqaruvchi shaxslarni aniqlash

## INTERFAOL O’QITISH METODLARI:

**Kichik guruh uchun topshiriqlar**

1. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyati, uning maqsadi va vazifalari
2. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish
3. Tarbiyaviy ishlar o’quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyat ekanligii

***Guruhlarda ishlash qoidasi***

**Har biringiz o’z guruh a’zolaringizni diqqat, e’tibor bilan eshitishga harakat qiling.**

**Guruhning har bir a’zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan yondoshishi kerak.**

**Har kim o’ziga yordam kerak bo’lganda so’rashi mumkin.**

8

## "ESSE" METODI

Esse – frantsuzcha tajriba, dastlabki loyiha, shaxsning biror mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta'lim oluvchi o'zining mavzu bo'yicha taassurotlari, g'oyasi va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog'ozga tushirish, iloji boricha ruchkani qog'ozdan uzmasdan to'xtamasdan yozish, so'ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo'lishi e'tirof etilgan

5

## Quyida berilgan mavzular bo'yicha esse yozing

**1 –Esse**

- Darsdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar

**2 –Esse**

- Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish

## "NIMA UCHUN? METODI

Nima uchun metodi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi chizmadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib, muammoni hal etish qiyin. Muammoning yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sababalarni aniqlash va yo'qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim

5

### *“Nima uchun” metodi*

**Tarbiyaviy tadbirlar ta’lim muassasalarida nima uchun o’tkazilari?**




**«Blits-so‘rov» savollarga javob bering, jadvalni to‘ldiring**

| № | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | O’quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma’naviyati bilan ongini sug’orish qanday amalga oshiriladi? | |
| 2 | O’quvchi atrofini o’rab turgan vositalarga nimalar kiradi? | |
| 3 | Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda boshqaruvchi shaxslarni aniqlash qanday amalga oshiriladi? | |

2

## *Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatining maqsadi va vazifalari*

O’quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o’zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko’p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog’liqdir. Guruhdan va kollejdan tashqari tashkil qilingan ishlar o’quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to’ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to’g’ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko’maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog’lanishiga zamin yaratadi.

# TOPSHIRIQlAR:

**Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga nimalar kiradi?**



**Tashkilotchi faolligining uchta asosiy tomonini ko’rsating?**

**Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga bir qator kishilarni kiritish mumkin, masalan:**

| | |
|---|---|
| | |

## Ta’lim muassasasidan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi, masalan:



## Guruhdan tashqari ishlarni to’la qamrab olgan to’garaklar bir necha xilda bo’lishi mumkin, masalan:

### To’garak turlari:



## Tashkilotchilik faoliyatiga bir qator ishlarni kiritish mumkin, masalan:






# TARQATMA MATERIALLAR:

Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferentsiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Guruh rahbarligi kursi bilan kollejdan va guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.



# 15 – mazvu. O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN HAMKORLIKDA ISH OLIB BORISH METODIKASI

## REJA:

1. O'quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayoni maqsadi, vazifalari va bosqichlari
2. O'quvchilar jamoasini uyushtirish va jinslashtirish
3. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar
4. Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir
5. Rivoyat va hikoyatlar

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. O'quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayoni maqsadi, vazifalari va bosqichlari
2. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan talablar
3. O'quvchilar jamoasini uyushtirish va jinslashtirish
4. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analarning o'rni
5. O'qituvchi tomonidan qo'yilayotgan talablar hajmi, tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi
6. Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatishi
7. Jamoani uyushtirish va jinslashtirish
8. Jamoa an'analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri

# INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

### Kichik guruhlar uchun topshiriqlar

1. O'quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayoni
2. O'quvchilar jamoasini uyushtirish va jinslashtirish
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analarning o'rni

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

**Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga harakat qiling.**

**Guruhning har bir a'zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.**

**Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.**

**«Blits-so‘rov» savollarga javob bering, jadvalni to‘ldiring.**

| № | Savollar | javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolarining faoliyatlari qanday bo’lishi kerak ? | |
| 2 | Jamoani uyushtirish va jinslashtirish deganda nima tushuniladi? | |
| 3 | Jamoa an’analari mazmunida munosabatlar xususiyati ? | |

2

**Quyida berilgan mavzular bo’yicha esse yozing**

**1 – Esse**

- O’quvchilar jamoasini uyushtirish va jinslashtirish

**2 – Esse**

- O’quvchilar jamoasining ijtimoiy fikri

# TOPSHIRIQLAR:

**Pedagog-olimlar o’quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekanlar, uni ikki bosqichga bo’ladilar, masalan:**



## Pedagoglar tomonidan qo'yilgn talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:



## *O'quvchilar jamoasi rivojlanishi jarayoni maqsadi, vazifalari va bosqichlari*

***Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:***

| № | *JAMOADA SHAKLLANADIGAN ENG MUHIM BELGILAR* |
|---|---|
| *1.* | |
| *2.* | |
| *3.* | |
| *4.* | |
| *5.* | |

***Pedagoglar tomonidan qo'yilgn talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:***



# TARQATMA MATERIALLAR:

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. SHuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatlaridir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini, ularning jamoa ishlari ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarnint jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini o'quvchilarning o'zlari, albatta, pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashishni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim. Pedagog aynan shu faolga oshirilgan talab qo'yadi

## 16-mavzu. TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYA METODLARIDAN FOYDALANISH

### REJA:

1. Tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari
2. Tarbiyada ijobiy namuna va ibrat ko‘rsatish metodlaridan foydalanishning ahamiyati
3. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlarining tutgan o‘rni
4. Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlash

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaning qanday metodlari bor?
3. Tarbiyada ibrat-namuna ko‘rsatish metodining tutgan o‘rni va ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Rag‘batlantirish metodi nima va uning qanday turlari mavjud?
5. Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.
6. Tarbiya jarayonida nima uchun metodlar qo‘llaniladi?
7. Ishontirish metodiga misol keltiring.
8. Tarbiya metodlari yuzasidan «klaster» tuzing
9. Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlash

## INTERFAOL O’QITISH METODLARI:



## “B.B.B” JADVALI METODI

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo’yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo’llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg’ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi

5

## “BBB” JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| Tarbiyaviy ishlar | | | |
| Tarbiyaviy metodlar | | | |
| Tarbiyaviy ta’sir | | | |

## «Blits-so‘rov» savollarga javob bering, jadvalni to‘ldiring

| № | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Tarbiyada ibrat-namuna ko‘rsatish metodi | |
| 2 | Tarbiyada o’zini-o’zi tarbiyalash metodi | |
| 3 | Tarbiyada rag’batlantirish va jazolash metodi | |

2

# TOPSHIRIQLAR:

## Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlash



## Tarbiya metodlarini izohlang

| Rag’batlantirish | Jazolash n |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |

## Tarbiya metodlarini farqlang

| Ishontirish | Ibrat-namuna |
|---|---|
| | |
| | |
| | |

# TARQATMA MATERIALLAR:

Tabiya metodlari o‘quvchi-talaba shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarbiyaviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta’lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi

Rag‘batlantirish yoshlarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Rag‘batlantirish o‘quvchi-talabalarning ruhini ko‘taradi, ularni tetiklantiradi, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi, xulqi va xatti-harakatida yangidan-yangi muvaffaqiyatlarga erishishga otlantiradi va ularga ma’naviy oziq beradi. O‘quvchi-talabalarning har bir yaxshi xulqini o‘z vaqtida rag‘batlantirish katta ahamiyatga egadir. O‘z xulqiga ijobiy baho berilganini va ma’qullanganini ko‘rgan o‘quvchi-talaba quvonadi, yana ham yaxshi xatti-harakatlar sari intiladi. Rag‘batlantirishning shakllariga ma’qullash, ko‘nglini ko‘tarish, ishonch bildirish, maqtash, mukofotlash, qayd qilish, og‘zaki va yozma tashakkur bildirish kabilarni kiritish mumkin

**Buyruq va talab**

Buyruq qat’iy amr-farmon shaklida ifodalangan talabdir. Tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalar oldiga davlatimiz hamda ota-onalar tomonidan qo‘yilgan muayyan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishmoq uchun talab etish va buyruq berish kabi vositalardan ham foydalaniladi. O‘quvchi-talabalardan talab qilinadigan talablar hamda ularga beriladigan amr-farmon va buyruqlar aniq, ravshan, tushunarli, muayyan maqsadga qaratilgan ham qat’iy bo‘lishi kerak

# MUSTAQIL TA’LIM

# ISHBILARMONLIK O‘YINLARI

**Pedagogik, ishbilarmonlik o‘yinlariga quyidagilar kiradi:**

1. Pedagogik yo‘naltirish vaziyatlari.
2. Pedagogik tanlash vaziyatlari
3. Qarama-qarshilik vaziyatlari.
4. Muvaffaqiyatga erishish yo‘nalishlari.
5. Tavakkalchilik vaziyatlaridan samarali o‘tish.
6. Raqiblik vaziyatlarini musobaqa tarzida tashkil etish.
7. Ishbilarmonlik o‘yinlarini tashkil etish.
8. Biznes reja tuzish va uni himoya kilish.
9. Kelgusi multimillioner va biznes rejasini himoya qilish.
10. Tashqi muhitni ta’sirini engib o‘tish o‘yinlari.

**Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etuvchi o‘yinlar, mashqlar va masalalar**

**1-TOPSHIRIQ**

Talabalarga A (mashg‘ulot shakllari) va B (o‘qitish usullari) to‘plam kartochkalaridan bittadan tanlab olish taklif etiladi:

| **A to‘plam** |
|---|
| Ma’ruza |
| To‘garak |
| Ekskursiya |
| Seminar |
| Amaliyot |

| **B to‘plam** |
|---|
| Suhbat |
| Kuzatish |
| Tushuntirish |
| **Bahs** |
| Aqliy hujum |

So‘ngra, kartochkani tanlab olgan talaba tanlagan mashg‘ulot shakli va usulini o‘zaro bog‘lagan holda tashkil etiladigan pedagogik jarayon to‘g‘risida so‘zlab beradi.

Misol uchun *Seminar* va *Bahs* kartochkalarini tanlagan talaba seminar mashg‘ulotlarida mavzuga oid bahs uyushtirish uslubi to‘g‘risida gapirib berishi kerak bo‘ladi.

Mashg‘ulot natijasida talabalarning «metod» va «mashg‘ulot shakli» to‘g‘risidagi bilimlari sinab ko‘riladi va rivojlantiriladi.

# KEYS STADI

**1-«case stady»**

Yosh kelin kuyovlar bir-biriga qaynoq muhabbat bilan turmush qurishgan edi, lekin oradan sal vaqt oʻtmay ajralish toʻgʻrisida gapira boshladilar. Xoʻsh, sababi nima ekan? “Munosabatlari toʻhri kelmagan emish”.

- Xotinim har doim arzimagan narsani bahona qilib janjal koʻtaraveradi. Rasvo xarakteri bor, hech qachon hech bir «case stady»da yon bosish nimaligini bilmaydi, - deb shikoyat qilar edi er.

- Erim hech bir ishini oʻz vaqtida qilmaydi, men bilan hisoblashmaydi. Men ishdan charchab, doim boshim ogʻrib yotgan vaqtimda u albatta, qaergadir taraqlatib mix qoqoishi kerak. Qachon nimani iltimos qilsang, nuqul ertaga, ertaga deb bahona qiladi... deya unga qarshi javob beradi xotini.

**Savollar**

1. Yuqorida keltirilgan misolda shahsning qanday salbiy xislatlari odamlar oʻrtasida oʻzaro nosogʻlom munosabatlarning sababchisi koʻrsatib bering?
2. Oʻzaro muloqat jarayonida shahsning qanday oʻziga xos xususiyatlari oʻzaro munosabatlari \al qiluvchi ta’sir koʻrsatadi?
3. Xizmat sohasida va oilaviy munosabatlarda odamlar oʻrtasida shaxslararo aloqalarda bir-birini tushunish sogʻlom mikromuhitni vujudga keltirishning asosiy sharti ekanligini izohlab bering?

**2-«case stady»**

Oʻqituvchi bilan talabaning oʻzaro munosabatlari talaba shaxsning shakllantirishga tarbiyaviy ta’sir koʻrsatishning eng muhim yoʻllaridan biridir. Biroq oʻqituvchi faoliyatida har doim ham talaba bilan boʻladigan oʻzaro munosabatlari yaxshi boʻlavermaydi. Bu koʻp jihatdan talaba faoliyatiga qanday rahbarlik qilish uslubiga, oʻqituvchining xarkteriga hamda uning oʻz tarbiyaviy funktsiyasini qanday vositalar bilan amalga oshirishga bogʻiq boʻladi. Auditoriyaga yigʻilgan talabalar tema planini yozib olayotgan vaqtlarida Ivanov choʻntagidan tarogʻini olib, ancha vaqt sochini tarab oʻtiradi.

- Hozir soya tariydigan vaqt emas, - deya tanbeh beradi oʻhqitruvchi. Ivanov bu tanbehga nihoyatda qoʻpollik bilan shunday javob beradi;

- Men bolalar bogʻchasining vakilasi nasihatlariga muhtoj emasman.

“Bu betamizni auditoriyadan xaydab chiqarsammikin, oʻzim chiqib ketsamikin” degan xayollar yosh oʻqituvchining koʻnglidan oʻtdi, lekin u bir daqiqa oʻylab turdi-da, boshqa bir qaror keldi.

- Betamizlik hech qachon aql-idrok belgisini boʻlgan emas. Siz institut dogʻ tushuryapsiz, - dedi u va darsni davom ettirdi.

**Savollar**

1. Sizning fikringiz oʻqituvchi toʻgʻri qildimi?
2. Bu misolda oʻqituvchi oʻz xarakteridagi qanday xususiyatlarni namoyon qiladi.

# 17-mavzu. TARBIYAVIY ISHLARNI OLIB BORISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

**REJA:**

1. Milliy qadriyatlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni
2. Xalq og‘zaki ijodining janrlari
3. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga nimalar kiradi?
2. Milliy qadriyatlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rnini ko‘rsating?
3. Xalq og‘zaki ijodida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari qanday yoritilgan?
4. Xalq ommaviy bayram-sayllarini sanab bering?
5. Odob-axloq, ta’lim-tarbiya borasidagi pandnomalarga misollar keltiring?
6. O‘zbek xalq mutafakkirlarining tarbiya borasidagi ma’rifiy qarashlarining ahamiyati Sizningcha nimada?
7. Folklor va uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni haqida fikr bildiring?
8. Tez aytishlar va uning tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatib bering?
9. Topishmoqlar va ularni tahlil qiling?
10. Maqollar va ularning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rniga misollar keltiring?
11. Milliy qo‘shiqlarning tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatib bering?
12. “Alla”ning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati qanday?
13. O‘zbek xalq o‘yinlarini qaysilarni bilasiz?
14. Topishmoqlar tarbiyalanuvchilarning qanday xislatlarini rivojlantiradi?
15. O‘zbek xalq ertaklaridagi yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalarni tahlil qiling?
16. Milliy qahramonlarimizdan faxrlanish hissi Sizda qanday darajada namoyon bo‘ladi?

# INTERFAOL O'QITISH METODLARI:

**Kichik guruhlar uchun topshiriqlar**

1. O'zbek xalq mutafakkirlari
2. O'zbek xalq o'yinlari
3. O'zbek xalq ertaklari

*Guruhlarda ishlash qoidasi*

Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga harakat qiling.

Guruhning har bir a'zosi faol, hamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.

Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.

8

## Toifalash shartini tuzish qoidasi

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin

8

## TOIFALASH JADVALI

| "Xalq og'zaki ijodida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari" ga oid | | |
|---|---|---|
| Bo'limning mazmuni | Turli kontekstlardagi turli talablar | Asosiy elementlari |
| | | |

9





"BBB" JADVALINI TO`LDIRING

| Mavzu savollari | B-bilaman | B-bilishni istayman | B-bilib oldim |
|---|---|---|---|
| Milliy qo'shiqlar | | | |
| Milliy qahramonlar | | | |
| Milliy o'yinlar | | | |

# TARQATMA MATERIALLAR:

1. Reja mahalliy sharoitga qarab, kollejning joylashgan o'rni, albatta, o'quvchilarninrg saviyasi, yoshiga qarab mumkin qadar mos tuzilishi kerak.

2. Reja muayyan maqsadga qaratilishi va real (aniq) bo'lishi zarur.

3. O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi bilan kelishilishi lozim.

4. Rejada o'quvchilarning kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'tillarida qiladigan ishlari aks etishi kerak

**Guruh rahbari o‘quvchilar haqidagi quyidagi ma’lumotlarni shu bo‘limga keltirishlari mumkin:**

O‘quvchi qayerda yashaydi?
Uning ota-onasi qayerda va kim bo‘lib ishlaydi?
Oila tarkibi, oilaning madaniy darajasi.
Oiladagi o‘zaro munosabat.
Oiladagi o‘quvchiga tarbiya berishning o‘ziga xosligi.
O‘quvchining uydagi kun tartibi va maishiy ahvoli.
O‘quvchining uy va jamoat ishlarida ishtirok etishi.
Fan to‘ugaraklariga qatnashishi (kollej va kollejdan tashqaridagi).
O‘quvchining kollejdan tashqaridagi do‘stlari va tanishlari.
O‘quvchi yozda qayerd dam oladia?
O‘quvchi hayotidagi eng muhim voqea-hodisalar.
Gazeta va jurnallarga obuna bo‘lishi.
O‘quvchi salomatligining ahvoli xodimlarining ma’lumotiga ko‘ra)

**Tarbiyaviy vazifalar**

O’quvchilarni mehnatda va o’zbek xalqining mustaqil davlat qurishdagi bunyodkorlik ishlarida ishtirokini ta’minlash.

Yoshlarni baynalmilal va boshqa xalqlarning qardoshlarcha do’stligi ruhida tarbiyalash.

O’quvchilarning o’zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini belgilash.

O’quvchilarni umumiy o’rta ta’limdan keyingi bosqichga tayyorlash.

Yuksak ma’naviyat, iymon va e’tiqodli bo’lish, istiqlol g’oyalarini singdirish.

Guruhdagi barcha o’quvchilarning bilim darajasini oshirishga erishish.

O’quvchilarning ongli intizomi, o’qishga va mehnatga to’g’ri munosabatida bo‘lishi uchun kurash olib borish.

O’quvchilar faoliyatini tashkil etishda ularning mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirib borish.

"O’quvchilar va o’smirlar uyushmasi"ga kirish uchun tayyorlash.

# MUSTAQIL TA’LIM

## KEYS STADI

### 1-TOPSHIRIQ

Talabalarga quyidagi namuna asosida ishlab chiqilgan jadval tarqatilib, talabalardan uni 20 daqiqa davomida to‘ldirib berishlari so‘raladi:

**Mas’uliyat tushunchasi haqida Sizning fikrlaringiz?**

| Savollar | 1-misol | 2-misol | 3-misol |
|---|---|---|---|
| Mas’uliyat nima? | | | |
| Mas’uliyat kimlar uchun shart | | | |
| O‘zini mas’ul deb hisoblagan shaxslar kimlar? | | | |
| Mas’uliyat nimalarni talab qiladi? | | | |
| Kimlar mas’uliyatga ega? | | | |
| Mas’uliyatsizlikka qanday chora ko‘rish mumkin? | | | |

Bu kabi jadvalni o‘tiladigan mashg‘ulot xarakteridan kelib chiqqan holda shaxsning boshqa sifatlari uchun tuzib, dars mavzuining yanada qiziqarli o‘zlashtirilishiga erishish mumkin.

### 2-TOPSHIRIQ

Quyidagi jadvalda X tovarning bozordagi taklif miqdori berilgan.

| Taklifning narx bo‘yicha elastikligi | Taklif miqdori (dona) | ***Narx (so‘m)*** |
|---|---|---|
| | 0 | 2 |
| | 2 | 4 |
| | 4 | 6 |
| | 6 | 88 |
| | 8 | 10 |
| | 10 | 12 |
| | 12 | 14 |
| | 14 | 16 |

Taklifning narx bo‘yicha elastikligini hisoblang va jadvalni to‘ldiring!

# 18 – MAZVU. TARBIYAVIY TADBIRLARNI REJALASHTIRISH, TASHKIL ETISH VA O’TKAZISH METODIKASI

## REJA:

1. Rahbarlikning zarur printsipi rejalilikdir
2. Rejalashtirishga qo’yiladigan talablar
3. O’quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari
4. Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash
5. Sog’liqni saqlash va sog’lom avlodni tarbiyalash tadbirlari
6. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Rahbarlikning zarur printsipi rejalilikdir
2. Rejalashtirishga qo’yiladigan talablar
3. Kollejning birinchi o’quv yilining yarim yiliga mo’ljallangan namunaviy ish rejasi
4. Guruh rahbari o’quvchilar haqidagi barcha ma’lumotlarni bilishi
5. O’quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari
6. Sog’liqni saqlash. Sog’lom avlodni tarbiyalash tadbirlari
7. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari
8. Tarbiyaviy papkada nimalar bo’lishi kerak?
9. Guruhga qisqacha tavsifnoma
10. Tarbiyaviy vazifalar
11. Ma’naviyat va burch tarbiyasi
12. Vatanni sevmoq iymondandir
13. Baynalmilal tarbiya
14. Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash
15. Sog’liqni saqlash va sog’lom avlodni tarbiyalash tadbirlari
16. Jismoniy tarbiya

## INTERFAOL O’QITISH METODLARI:



## “QANDAY?” IERARXIK DIAGRAMMASI

Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo’llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o’rganish muhim vazifalardan biridir. “Qanday?” ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

“Qanday?” ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo’lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Ketma-ket ravishda “Qanday?” savolini qo’yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish metodlarini ham o’rganasiz

5




**Quyida berilgan mavzular bo’yicha esse yozing**

| | |
|---|---|
| 1 – Esse | • Ma’naviyat va burch tarbiyasi |
| 2 – Esse | • Vatanni sevmoq iymondandir |

# TOPSHIRIQLAR:

***Rejalashtirishga qo'yiladigan talablar:***



**Guruh rahbarining tarbiyaviy vazifalari:**

## *O'quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari*

| № | Tarbiyaviy tadbirlar nomi | Bajarish turi | Vaqti | Mas'ul kishi | Ijrosi haqida |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | | | | | |

Guruh tarbiyaviy soatlarning mavzulari tubandagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi va yuqoridaga andozaga tartib bilan jamlanadi.

## *Ma'naviyat va burch tarbiyasi*

| | |
|---|---|
| 1. | |
| 2. | |
| 3. | |
| 4. | |
| 5. | |
| 6. | |

## *Guruh rahbarining tarbiyaviy papkasida nimalar bo'lishi kerak?*



Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatlarni, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik, o'zaro munosabatlarning qat'iylik, talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarni egallaydi.

O'z-o'zini idora qilish – tashabbuskorlik va mustaqillik maktabidir. O'quvchilar o'z-o'zini boshqaruvi o'quvchilar tomonidan fan va mashg'ulotlarning to'liq o'zlashtirilishiga, biror kasb o'rganishiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga, Vatan himoyachisi bo'lishiga kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, Davlat, jamoat mulkini ko'z qorachig'iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga ko'maklashadi.

Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko'nikmalarini tarbiyalaydi, umumiy g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilar o'z-o'zini idora qilish tizimi kollej o'quvchilari (jamoasi) tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chuqur o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Bu to'g'ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmalardan iborat.

Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatlarni, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik, o'zaro munosabatlarning qat'iylik, talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarni egallaydi.

# II. MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR

## MUSTAQIL TA'LIMNI YOZISH TARTIBI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI

**Mustaqil ta'lim yozish uchun talaba** avvalo, fanni nazariy jihatdan puxta o'zlashtirishi kerak. Tanlab olingan mavzuni "referat" tarzida yoritishi uchun kirish, 3-4 savol qo'yiladi va xulosa, tavsiyalar beriladi. Tahlil qilinayotgan masala bo'yicha mavjud fikrlar, qarashlar bayon qilinadi. Talaba ularga o'z nuqtai nazarini bildiradi. Mustaqil ta'lim hajmi qo'l yozma shaklda 14-16 betdan oshmasligi lozim (slaydlardan tashqari).

**Xususan, mustaqil ta'lim** rejasi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

Titul varag'I (tartib raqami qo'yilmaydi);

Kirish (3-betdan boshlanadi)

Asosiy qism:

1)

2)

3)

4)

Xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar (zarurat bo'lganda)

**Mustaqil ta'limning yozma shakli quyidagi talablarga javob berishi lozim:**

**1. Mustaqil ta'limlashtirilgan matn yangiligi**

- muammo va mavzu dolzarbligi;
- muammo qo'yilishi yangiligi va mustaqilligi, muammoning tahlili uchun tanlangan yangi jihatlar shakllantirilishi;
- muallif mavkei mavjudligi, mulohaza yuritishdagi mustaqilligi

**2. Muammo mohiyati ochib berilish darajasi**

- mustaqil ta'lim rejasining mavzuga mosligi;
- mavzu mazmunining mustaqil ta'lim mavzusi va rejasiga mos kelishi;
- muammo asosiy tushunchalarining to'liqligi va ochib berilish doirasi;
- materiallar bilan ishlash uslubi va usullarining asoslanganligi;
- adabiyot bilan ishlash mahorati va materialarning tartiblashtirilishi;
- matnda iqtibos (sitata) keltirilishi yoki mualliflar ilmiy-tadqiqot ishlaridagi xulosalar, qaydlar, mulohaza va fikrlardan foydalanilgan holatda muqarrar ravishda havolalar bo'lishi

**3. Manbalarni tanlashga asoslanganligi**

- muammo bo'yicha foydalanilgan adabiy manbalar, ulardan to'liq foydalanish darajasi;
- muammo bo'yicha eng yangi manbani jalb etish (jurnalda chop etilgan, ilmiy ishlar to'plamlari va boshqalar)

**4. Rasmiylashtirish qoidalariga amal qilish**

foydalanilgan adabiyotlarga to'g'ri havola (snoska) qo'yish;

- ifoda to‘g‘riligi va madaniyati;
- muammo atamalari va tushunchalaridan samarali foydalanish;
- mustaqil ta’lim hajmiga qat’iy rioya qilish;
- mustaqil ta’lim ilmiy rahbarga taqdim etilishi holatida barcha taraflama maksimal darajada me’yoriga etkazilgan bo‘lmog‘i lozim

**5. Rasmiylashtirish madaniyati**

- xat boshini ajratish, ravonlik, savodlilik;
- orfografik va sintaktik xatoliklar bo‘lmasligi, stilistik tafovutlar yo‘qligi;
- xatoliklar, qisqartirilgan so‘zlar, umumiy qabul qilinganidan tashqari bo‘lmasligi va boshqalar

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan mustaqil ta’lim kompyuterda 14-shrift, 1,5 interval oralig‘ida A4 shaklidagi qog‘ozning bir tomonida chapdan - 3 sm, o‘ngdan - 1,5 sm, yuqori va pastidan - 2 sm. dan kam bo‘lmagan hoshiya qoldirilgan holda terilishi talab etiladi.

Matn sahifalari tartib raqamlariga ega bo‘lishi lozim. Tartib raqamlari bir varaqdan ikkinchi varaqqa o‘tadigan va 3- betdan boshlanishi (birinchi va ikkinchi varaq – bu titul varag‘i va ish rejasi bo‘lib, sahifalanmaydi) lozim bo‘ladi. Varaq tartib raqami yuqori yoki pastiga o‘rtadan yoki o‘ng tomoniga qo‘yiladi.

**Quyida mustaqil ta’limni baholash mezonlari haqida ma’lumotlar berildi.** Mustaqil ta’lim ilmiy rahbar tomonidan baholanadi. Bunda, quyidagi shartli ravishdagi ko‘rsatkich va baholash mezonlari qo‘llanilishi mumkin:

1. Qo’l yozma shakldа 14-16 betlik (talabga binoan) – 3 ball
2. Taqdimot 8-10 betlik (chizma, rasm, jadval shaklida) – 2 ball

**Jami – 5 ball bo’ladi**

Ushbu mustaqil ta’limni baholash uchun tayyorlangan “Baholash mezonlari” 1-oraliq uchun shakllantirildi. Talaba 2-oraliq uchun ham xuddi shu mezonlarga muvofiq mustaqil ta’limni tayyorlaydi va jami 10 ballni yig’ishi talab etiladi.

Quyida “Pedagogika. Psixologiya” o‘quv fanidan “Mustaqil ta’lim” uchun mavzular quyida keltirildi. Ushbu mavzular har bir guruhdagi talabalar uchun alohida-alohida, bir-birini takrorlamaydigan shaklda tayyorlandi. Ushbu mavzular 1- va 2-oraliq mavzulariga bo‘linib, oraliqda har bir talaba tanlashi uchun 4 yoki 5 tadan mavzular to‘g‘ri keladi.

## “TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI” O‘QUV FANI MAZMUNINI O‘RGANISHGA OID MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

### 1-oraliq nazorati uchun mustaqil ta’lim mavzulari

1. Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o’rni
2. SHarqona tarbiya
3. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch
4. G’arb tarbiyasining ahamiyati
5. Sharq ta’lim-tarbiyasida Abu Ali ibn Sinining tutgan o’rni
6. Abu Ali ibn Sinoning kuzatish, tajriba va imtixon usuli
7. Abu Ali ibn Sinoning mukofotlash va jazolash usuli

8. Abu Ali ibn Sinoning mulohaza and munozara usuli
9. Abu Ali ibn Sinoning boshqa tarbiya metodlari xususida
10. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiyaga bo'lgan qarashining falsafiy poydevori
11. Tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar
12. Oila pedagogikasi
13. SHaxsga jamoa bilan tarbiyaviy ta'sir qo'rsatish usuli
14. Islom dinida odob-axloq tarbiyasi haqida (misolida)
15. Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o'rni
16. O'quvchi shaxsining rivojlanishida tarbiya metodlarini qo'llash
17. Mutafakkirlarning tarbiyaga oid qarashlari (misolida)
18. Tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasining ahamiyati
19. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi
20. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining nazariy masalalari
21. SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish (misolida)
22. Pedagogik mahorat va pedagogik texnika
23. Pedagoglarning o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi
24. O'quvchilarni o'rganish, kuzatish va ta'sir ko'rsatish metodikasi
25. Guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi
26. SHaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl va metodlari
27. Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi
28. Yoshlarda insonparvarlik va vatanparvarlik his-tuyg'ularini rivojlantirish yo'llari
29. Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya xususida (misolida)
30. Iqtisodchi uchun zarur bo'lgan pedagogik texnika va qobiliyatlar
31. Ishbilarmonlik muloqoti
32. Pedagogik muloqot va munosabat
33. Pedagogik jarayon
34. Sharq mutafakkirlari tarbiya haqida (misolida)
35. G'arb mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida (misolida)
36. Sharqona ta'limiy-tarbiyaviy va falsafiy qarashlar
37. Oila funkstiyalari
38. Ta'lim muassasasi va oila hamkorligi
39. Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi
40. Hadis ilmi va uning tarbiyaviy qadr-qimmati
41. SHarq va G'arb mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida (misolida)
42. Ta'lim muassasasi ma'muriyati maqsadi va vazifalari
43. Pedagogil muloqot va munosabat
44. Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar
45. Insonparvarlik va vatanparvarlik tushunchasi
46. Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya haqidagi fikrlari (misolida)
47. Pedagogik mahorat
48. Pedagogik muloqot asoslari
49. Diniy tarbiyaning ahamiyati
50. Guruh rahbarining ta'lim muassasasi jamoasi bilan aloqasi

51. Guruh jamoasini tashkil etish usullari
52. SHaxsga jamoa bilan tarbiyaviy ta'sir qo'rsatish usullari
53. Guruh jamoasi bilan ta'lim muassasasi jamoasining hamkorlik ishlari
54. Jamoani tashkil qilish metodikasi
55. Guruh o'quvchisi bilan o'qituvchining muomalasi
56. Guruh rahbarining o'quvchilar ota-onalari bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlari haqida
57. Islom dinida odob-ahloq tarbiyasi haqida (misolida)
58. O'quvchilarni tarbiyalashda jamoaning roli
59. Guruh rahbarining guruh jamoasini jipslashtirishdagi o'rni
60. Guruh o'quvchilarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya asoslari
61. Xalq og'zaki ijodiyotida mehr-shavqat tarbiyasi (misolida)
62. I.A.Karimovning «Vatanni sevmoq iymondandir» asarida shaxs tarbiyasi
63. O'quvchilar tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati
64. Alisher Navoiy asarlarida bola tarbiyasi

**2-oraliq nazorati uchun mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish muammolari
2. Guruh rahbari ishini rejalashtirish
3. Guruh rahbarining ota-onalar bilan aloqasi
4. Talaba motivatsiyasini rag'batlantirish
5. Guruhlarda ma'ruza o'qish tarbiyasi
6. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi
7. Tarbiya jarayonida tadbirlarning ahamiyati
8. To'garaklar tashkil qilishda direktor o'rinbosari vazifasi
9. Talaba-rahbar munosabatlarini rivojlantirish
10. Tajribali pedagogning kareraviy o'sishdagi o'rni
11. Tarbiyaviy tadbirlar rejasining tuzilishi
12. Tarbiya metodlari
13. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakl va vositalari
14. Guruh rahbari faoliyati
15. Faollik va intizomlilikni tarbiyalash
16. Tarbiyaviy tadbir-larni rejalashtirish va tashkil etish
17. Guruh rahbari ishini rejalashtirish
18. Tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish
19. O'quvchilarga tarbiya berish metodlarini izohlang
20. Tarbiyaviy soat mashg'ulotlarining asosiy xususiyatlari haqida
21. To'garaklar tashkil qilishda, direktor o'rinbosari vazifasi haqida
22. O'quvchilarning oila va ta'lim muassasasidagi mehnat tarbiyasining bog'liqligi
23. Ertalik bayramlarini tashkil etish usullari
24. O'quvchilarga tarbiya berish usullarini izohlang
25. Tarbiya jarayonida tadbirlarning ahamiyati
26. Guruhdan va ta'lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni
27. Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o'rni

28. Guruh rahbarining ota-onalar bilan aloqasi
29. O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla ta’lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish usullari
30. Talaba motivasiyasini rag’batlantirish
31. Guruhlarda ma’ruza o’qish tarbiyasi
32. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish
33. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining ishlash metodikasi
34. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi shaxsiga va kasbiga qo’yiladigan talablar
35. Tashkilotchining o’quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi
36. Talaba-rahbar munosabatlarini rivojlantirish
37. Tajribali pedagogning kareraviy o’sishdagi o’rni
38. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o’tkazish metodikasi
39. Tarbiyaviy ishlar jarayonida xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning ahamiyati
40. O‘quvchilarda vatanparvarlik hissiyotini tarbiyalash usullari
41. Guruh majlisini tashkil etish usullari
42. O‘quvchi shaxsining rivojlanishida tarbiya usullarini qo‘llash
43. Guruhdan va ta’lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi
44. Guruh rahbarini tashkil etish metodikasi
45. Ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish haqida
46. Guruh o‘quvchilarida ma’naviy tarbiya asoslari
47. Guruh tarbiyaviy soatlarini tashkil etish
48. Guruh rahbarini ishini rejalashtirish
49. Xalq rivoyatlarida tarbiya masalalari
50. Ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarda guruh rahbarining
51. Tarbiyaviy tadbirlar rejasining tuzilishi
52. Dars jarayonida ta’lim-tarbiya muvozanati, tengligi
53. Oila byudjetining tarbiyaviy ahamiyati
54. Oilada farzand burchi
55. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya
56. Ta’lim muassasasida madaniyat va ma’rifatning bog‘liqligini izohlang
57. O‘quvchilarda vatanparvarlik hissiyotini tarbiyalash usullari
58. O‘qitish jarayonida ta’lim-tarbiyaning birgalikda olib borilishi
59. Ta’limda texnika vositalaridan foydalanish
60. Ta’lim muassasasida ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil qilish metodikasi
61. Ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarda guruh rahbarining faoliyati
62. O‘quvchilarni ma’naviy ahloqiy tarbiyalashda guruh rahbarining o‘rni
63. O‘quvchilarning huquq va burchlari
64. YOsh avlod tarbiyasining ahloqiy mezonlari
65. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda o‘qituvchining tayyorgarlik darajasi
66. Madaniyat va ma’rifatning o‘zaro bog‘liqligi
67. O‘quvchilarga tarbiya berish metodlari

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


### Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konsterni, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: "SHarq" nashriyot-matbaa konsterni, 1998.
4. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, -2008.
10. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. II qism. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 936 b.
11. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
12. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010 y.
13. Sarsenbayeva R.M. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv fanini o'rganish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. –T.: TMI, 2018. – 294 b.
14. Sarsenbayeva R.M. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TMI, 2014. – 108 b.
15. Hasanboyeva O. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Ilm ziyo, 2014. – 166 b.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A handbook for teaching and learning in higher education: enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. –3 rd ed. p. cm.

2. Omonov H.T. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 240 b.
3. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 2013
4. Sarsenbayeva R.M. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TMI, 2015. – 152 b.
5. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2013

## Internet saytlari:

www.ziyonet.uz – ZiyoNet ta'lim portali
www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlarini ma'lumotlari milliy bazasi;
www.tdpu.uz – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti rasmiy veb sayti
www.pedagog.uz – Pedagogika yo'nalishiga oid kitoblar sayti
www.tfi.uz – Toshkent moliya instititi rasmiy veb sayti
www.tdiu.uz – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy veb sayti
www. http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzk.pdf-*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*
www. http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzl.pdf- *Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi*
www. http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzk.pdf-*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*
www. http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzl.pdf. -*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi.*

## III. GLOSSARIY

| O‘zbek | Rus | Ingliz | Izoh |
|---|---|---|---|
| **avtokratlik** | **самодержав-ный** | **autocratic** | *hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko‘rsatmalar berish, jazolash kabi shakllardan foydalangan holda ta’sir etishga moyilligi* |
| **axloq** | **поведение** | **behavior** | *Jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq - odob normalari majmui.* |
| **barkamol shaxs** | **компетентное лицо** | **acompe-tent person** | *kamolga yetgan, bekamu ko‘st, to‘la-to‘kis inson, aqlan va axloqan pok, jismonan sog‘lom, nafosatli, jamiyatda o‘zligini tanigan, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, ishbilarmon, fidoiy shaxs* |
| **baholash** | **оценка** | **assessment** | *Bu dalillar topish, qarshi dalillarni solishtirish, qaror qabul qilish va hokazolar uchun o‘quvchining qobiliyatini o‘z ichiga oladi* |
| **bilim** | **знание** | **knowledge** | *bu o‘quvchilarning o‘qishi orqali bilim bilan qurollanishi hamdaularda ko‘nikma va malaka paydo bo‘lishidir* |
| **boshqarish** | **управление** | **control** | *jarayonni rejalashtirilgan holda amalga oshirish, o’qitish maqsadlariga eri-shish dasturini ro’yobga chiqarish uchun xizmat qi-ladigan pedagogic faoliyat* |
| **do‘stlik** | **дружба** | **friendship** | *inson axloqining bebaho go‘zalligi, ijobiy fazilatlar gavhari.* |
| **ekologik bilim** | **ekologicheskie znaniy** | **environme ntal knowledge** | *tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, er yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o‘rtasida bo‘lib turadigan munosabatlaridir.* |
| **halollik** | **честность** | **honesty** | *shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me’yorlarni rostgo‘ylik bilan saqlash* |
| **hayfsan berish** | **выговр** | **penalty** | *o‘quvchining ma’lum xatti-harakatlarini qat’iy choralar asosida baholash* |
| **ertaklar** | **сказки** | **fairy tales** | *ertaklar tarbiyalanuvchi* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | *tarbiyasining hamma tarkibiy qismlarini jumladan, aqliy va jismoniy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, mehnatsevarlik, ma'naviy sifat hamda nafis didlarning tarkib topishiga doir ko'pdan-ko'p pedagogik masalalarni o'z ichiga oladi* |
| **fozil shahar** | **город фазиль** | **fazil city** | *ideal davlat talablari, adolati va muhabbat asoslari ustida quriladi* |
| **hikoya** | **рассказ** | **story** | *o'quvchilar odatda, hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar* |
| **izohlash** | **объяснить** | **to exaplain** | *tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganligidir* |
| **ilmiy ishlar** | **научный вопросы** | **scientific affairs** | *olimlarning bilimlarini ommaga yetkazadi va boshqa izlanuvchilarga ham tadqiqot uchun imkoniyat yaratib beradi* |
| **ilmiy muammo** | **научная проблема** | **scientific problem** | *fan orqali xalq o'rganadigan asosiy ziddiyatlar* |
| **insonpar-varlik** | **гумани-тарное** | ***humani-tarian*** | *insonning oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishiga asoslangan qarashlar to'plamidir* |
| **ijtimoiy tarbiya** | **социалный образование** | **social education** | *ta'lim oluvchilarda ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlar va tajribalarni shakllantirish jarayoni* |
| **ijtimoiy ongni shakillan-tirish metodi** | **метод формирования социального сознания** | **a method of forming a socially conscious** | *o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi* |
| **individual** | **индиви-** | **the** | *har bir o'quvchini o'z nazar-* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **yondashish** | **дуальный подход** | **individual approach** | *e'tiborida tutishdan, uning xususiyatlarini bilishdan, uniig ijobiy xislatlariga tayanishdan, uni yaxshi xatti-harakati uchun rag'batlantirib turishdan iboratdir* |
| **insoniyat tarixi** | **история челове-чества** | **history of mankind** | *taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimiz-dan qolgan odob-axloq haqi-dagi bilimlardan boxabar etish* |
| **insonpar-varlik odobi** | **гуммани-тарная этика** | **humani-tarian ethics** | *me'yorlarini shakllantirish, birg'birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari* |
| **istiqbol** | **перспективо** | **perspectiv e** | *O'quvchilarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qoyish yo'li bilan ta'minlaydi, maqsadlar ularning shaxsiy intilishlaridir* |
| **izohlash** | **объяснить** | **to explain** | *tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganligidir* |
| **ishonch** | **доверие** | **trust** | *O'zaro hamkorlikdagi ta'sir etishning natijasi ekanligini ko'ramiz* |
| **iqtisodiy tarbiya** | **экономическое воспитание** | **economic training** | *shaxsda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob kabilar haqida qobiliyatni kamol toptirishdir* |
| **iqtisodiy ta'lim** | **экономи-ческое образование** | **economic education** | *ma'lum maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, iqtisodiyotning ma'lum sohasi haqidagi bilimlarni o'qitishdan iborat* |
| **jazolash** | **наказывать** | **punish** | *o'quvchining individual xatti-* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | *harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo'llaniladigan eng so'nggi tarbiya usuli* |
| **jamoa** | **сообщество** | **team** | *bir necha a'zo kishilardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir* |
| **jamoaning rasmiy tuzilishi** | **структура чиновника команды** | **the structure of the team`s official** | *jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi* |
| **jamoa faoliigi** | **обществен-ная активность** | **public activity** | *jamoaning har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berish* |
| **kasbiy tayyorgarlik** | **профессио-нальноя подготовка** | **profession al training** | *bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi* |
| **komil inson** | **совершенный человек** | ***perfect man*** | *odamgarchilik, mardlik va muruvvatlilik kabi go'zal fazilatlarga ega shaxs* |
| **ko'nikma** | **способность** | **ability** | *Mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir* |
| **komil inson** | **совершенный человек** | ***perfect man*** | *odamgarchilik, mardlik va muruvvatlilik kabi go'zal fazilatlarga ega bo'ladi* |
| **mashq va o'rgatish metodi** | **метод обучение и изучение** | **training and teaching method** | *muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir* |
| **мaqollar** | **пословицы** | **proverbs** | *shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi hamda tarbiyalanuvchi tarbiyasida axloq va odobiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir* |
| **munozara** | **метод** | **metod** | *Tarbiyalanuvchilarga hissiy-* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **usuli** | **обсуждение** | **discussion** | *og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli* |
| **muammoli o'qitish** | **проблемное обучение** | **problem-based learning** | *o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi* |
| **mulohaza va munozara usuli** | **метод медитации и обсуждения** | **method of meditation and discussion** | *qilinayotgan ishning sama-rali bo'lishida muhim ro'l o'ynaydi, chunki bu talaba-larni o'zlari istagandek gapirishiga va sabablar keltirishiga imkon beradi* |
| **muloqot** | **комму-никация** | **communi-cation** | *ijtimoiy-faol, individual-ijodiy, amaliy-predmetli faoliyatdir* |
| **namuna** | **образец** | **example** | *O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim* |
| **tarbiya** | **воспитание** | **training** | *deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunasiz* |
| **norasmiy tuzilma** | **неформальная структура** | **informal structure** | *jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi* |
| **pedagogik ta'sir ko'rsatish** | **педагоги-ческое влияние** | **pedagogic influence** | *o'quvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedago-gik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir* |
| **qo'shiq** | **песня** | **song** | *qo'shiqning ta'limiy qimmati shundaki, bolalarni chiroyli qo'shiq aytishga o'rgatadi, u esa o'z navbatida nafosat hamda ezgulikka etaklaydi* |
| **topish-** | **загадки** | **riddle** | *o'zbek tilidagi "topishmoq"* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **moqlar** | | | *so'zining lug'aviy ma'nosi «topmoq» fe'lidan olinganligi ma'lum, ya'ni topishmoq top-top o'ynamoqni bildiradi* |
| **tarbiya-ning maqsadi** | **цел воспитание** | **food vospitaniy** | *har tomonlama kamol topgan-mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir* |
| **rag'batlan-tirish va jazolash** | **поощрение и наказание** | **the encourage-ment and punishmen t** | *tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi* |
| **zamona-viylik** | **современ-ность** | **modernity** | *ta'lim-tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish* |
| **suhbat** | **разговор** | **conversa-tion** | *o'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi.* |
| **oila** | **семья** | **family** | *kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.* |
| **oila muhiti** | **семейное окружение** | **family atmospher e** | *axloq-odob, madaniyat qoidalari asosida tashkil topsa, o'quvchi shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, bunda oiladagi o'quvchilar to'g'ri kamol topadi.* |
| **oilaviy munosabatla r** | **семейнего отношения** | **family relations** | *ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'r tasida turli yo'nalish-larda tashkil etiluvchi munosabatlardir* |
| **ogohlantirish** | **предупреж-** | **caution** | *sodir etilishi mumkin bo'lgan* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | **дение** | | *muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi* |
| **pedagogik ixtisoslik** | **специализи-руются в обучении** | **pedagogic specialize in teaching** | *ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi* |
| **pedagogik mahorat** | **педагогичес-кие навыки** | **pedagogical skills** | *ilmiy bilimlarni va tarbiya-dagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan, o'quvchilar qalbining his qilish mahorati* |
| **pedagogik masala** | **образова-тельный вопрос** | **educatio-nalissues** | *pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. u voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq, tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyat* |
| **pedagogik faoliyat** | **образова-тельная деятель-ность** | **educational activity** | *o'quvchilarga ta'lim-tar-biya berish ishi bilan shu-g'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishi-larning mehnat faoliyati* |
| **pedagogik talab** | **педагоги-ческий требований** | **pedagogic demand** | *ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p qo'llaniladigan usul-lardan biri bo'lib, u tar-biyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosa-batlarda namoyon bo'ladi* |
| **pedagogik texnikalar** | **педагогически е техники** | **pedagogical techniques** | *o'qituvchi faoliyatining botiniy mazmunini hamda zohiriy ifodasining garmonik birligidan iboratdir* |
| **portfolio** | **портфель** | **portfolio** | *portfolio taxminan o'nbetli ko'qtuvchining bayoni hamda 30 betgacha yetishi mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'lumot sahifasidan tashkil topadi* |
| **shaxs** | **личность** | **human** | *кadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.* |
| **shaxsiy** | **характер** | **the nature** | *shaxs tomonidan o'zining axloqiy,* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **fazilat** | **личности** | **of the individual** | *ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish xususiyati* |
| **reja** | **план** | **plan** | *o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir* |
| **rahbarlik bu** | **управление это** | **leadership** | *professional munosabatdir. rahbarlarning talabalar bilan ishlash tarsi urf-odatlar, tajriba va fan turiga ko'ra farqlanadi.* |
| **rag'bat-lantirish** | **продвиже-ние послужбе** | **career advanceme nt** | *Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir* |
| **sintez qilish** | **синтез** | **synthesis** | *Bu o'quvchining tarkibiy qismlarni va ularni avval  u yerda bo'lmagan namuna yoki tuzilma tashkil qilishi mumkin bo'lgan yo'l bilan birlashtirish qobiliyati* |
| **tarbiya** | **воспитание** | **training** | *deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunasiz* |
| **tarbiyaning asosiy maqsadi** | **основная цель образования** | **the main objective of eucation** | *shaxsning aqliy-axlooqiy tarbiyalashda erkin fikr-lovchi va jismoniy rivojla-nishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish* |
| **tarbiya nazariyasi** | **теория воспитание** | **the theory of education** | *pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayoni mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi.* |
| **tarbiya-ning mazmuni** | **общественная педагогика** | **the content of education** | *shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat.* |
| **tarbiya metodi** | **метод воспитание** | **teaching method** | *tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari* |
| **tahlil qilish** | **анализ** | **analysis of the** | *bunda ma'lumot yoki g'oyalarni tarkibiy qismlarga bo'lishda o'quvchining qobiliyati qamrab olinadi.* |
| **ta'lim** | **образование** | **education** | *ta'lim jarayoni pedagogik* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | *jarayonning ajralmas, mu-him qismlaridan biri bo‘lib o‘qitish, bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilish* |
| **ta’lim talablarи** | **образова-тельные требования** | **edication demands** | *o‘quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag‘batlantirishi, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan o‘quvchilarning harakatlari birligidir* |
| **ta’lim-tarbiya jarayoni** | **учебный процесс** | **the process of education** | *ta’lim-tarbiya jarayoni beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma’naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish.* |
| **tafakkur** | **мышление** | **pondering** | *inson aqliy faoliyatining oliy shakli hisoblanadi.* |
| **tanbeh berish** | **замечание** | **reprove** | *eng muhim jazolashi turi. O‘qituvchi o‘qituvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yishi ham mumkin.* |
| **tanlash** | **выбор** | **selection** | *talabalar hayot tarzi omma e’tiboriga havola qilinishi, tanishtirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Oily ta’lim muassasasiga qabul qilinadigan talaba bilan suhbat davomida imkoniyatlar, siyosat va jarayon teng muvozanatda qo‘llab-quvvatlanishi kerak* |
| **tanish-tirish** | **пазнокомить** | **introduce-tion** | *formal tanishtirish bu o‘z nomi bilan talabalarni ma’lumotlar bilan ta’min-lashni o‘z zimmasiga olib talabalarni o‘zlari ishtirok etadigan akademik va ijtimoiy muhitni yaxshi anglab, o‘qishni boshlash-lariday yengillik tug‘diradi* |
| **test metodi** | **метод испытания** | **test method** | *sinovlar metodi bo‘lib, yozma javoblarni ommaviy ravishda yig‘ib olish metodi.* |
| **tushuncha** | **понятие** | **concept** | *atrof-muhitga xodisalar* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | *predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.* |
| **topshiriq** | **задание** | **task** | *o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul.* |
| **ustoz** | **учитель** | **teacher** | *bu pedagogik ta’sir usullaridan foydalangan holda turli-tuman amaliy ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni ustalik bilan hal etishdir* |
| **uyaltirish** | **позор** | **shame** | *o‘quvchining ma’lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish.* |
| **xalq pedago-gikasi** | **народная педагогика** | **people pedagogic** | *o‘zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan.* |
| **o‘quvchilar jamoasi** | **коллектив учеников** | **students team** | *bu o‘quvchini nazardan chetda qoldirilmasiligi, o‘quvchilarning xulq-atvori, tartib-intizomi, o‘zlashtirishi ko‘p jihatdan ularning individual xususiyatlariga bog‘liqdir* |
| **o‘z-o‘zini tarbiyalash** | **самовоспи-тание** | **self raising** | *o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilish va o‘quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta’sirchan vositasidir.* |
| **o‘z-o‘zini tahlil** | **самоанализ** | **self analysis** | *o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.* |
| **o‘rgatish** | **научить** | **teaching** | *tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.* |

# IV. ILOVALAR

## 4.1. Fan dasturi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

| | |
|---|---|
| Ro‘yxatga olindi: | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| № BD_____________ | ___________________ |
| 201__ yil “__”_____ | 201__ yil “__”_____ |

# TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

# FAN DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 | – Gumanitar |
| | 200000 | – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 | – Pedagogika |
| | 230000 | – Iqtisod |
| **Ta’lim yo‘nalishlari:** | 511 000 | – Kasb ta’limi (5230600-Moliya) |
| | 511 000 | – Kasb ta’limi 5230700-Bank ishi) |
| | 511 000 | – Kasb ta’limi 5230900 – (Buxgalteriya hisobi va audit) |

**Toshkent-201__**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 201_ yil “____” _________dagi “____”-sonli buyrug‘ining ____-ilovasi bilan fan dasturi ro‘yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 201_ yil “___” ____________dagi ___ - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

| | | |
|---|---|---|
| **Tuzuvchilar:** | Sarsenbayeva R.M. | –TMI, “Kasbiy ta’lim” kafedrasi, dotsent, ped.fan.nom. |
| | Aglayeva U.S. | –TMI, “Kasbiy ta’lim” kafedrasi, o’qituvchi, faxriy dotsent |
| **Taqrizchilar:** | Ashurov N.R. | –Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI “Pedagogika va kasbiy ta’lim” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi (*turdosh OTMdan.*) |
| | Mahmudov A. | – Toshkent bank kolleji direktori, i.f.n., dotsent *(kadrlar buyurtmachisi).* |

Fan dasturi Toshkent moliya instituti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201__ yil “__” _________dagi ____ - sonli bayonnoma).

## I. Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishishi ta’lim tizimini yangilashni taqozo etmoqda. Bu tizim yangicha fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, uni amalga oshirish jarayonida xalqni ma’naviy uyg‘onishga va mamlakatning aqliy salohiyatini oshirishga olib keladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida ta’lim tizimi jumladan, oliy ta’lim tizimining bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi talabalarini har tomonlama etuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi qo‘yilgan.

Ma’lumki, ma’naviyatsiz hech qanday taraqqiyot bo‘lmaydi. SHunday ekan, respublikamiz mustaqil rivojlanib, taraqqiy etib ma’rifatli, madaniyatli jamiyat tomon boradi. Bu esa, Mustaqillik talablariga javob bera oladigan etuk mutaxassislarning iqtidorini shakllantirishni va ularni yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

## II. O’quv fanining maqsadi va vazifalari

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanining **asosiy maqsadi** – bo‘lajak iqtisodchi-pedagoglarni tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishini nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish yo‘llarini ko‘rsatish, ta’lim mazmuni sifati va samaradorligini oshirishda yangicha ishlashning mazmuni, mohiyati, tamoyili, metodi, vositalari va shakllaridan samarali foydalanish hamda sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – uni o‘rganuvchilarga:

- **“**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**”** asosida o‘quvchilarni g‘oyaviy tarbiyalashning maqsadi, vazifalari va usullarini o‘rganish;
- bo‘lajak iqtisodchi-pedagoglarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning shart-sharoitlarini aniqlash;
- pedagoglarning o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalasini o‘rganish;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, uning sifati va samaradorligini oshirishda yangicha ishlashning metodi, vositalari va shakllaridan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish;
- o‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini aniqlash;
- guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasini yoritish;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi shaxsiga va kasbiga qo‘yiladigan pedagogik talablarni aniqlash kabilar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o‘rganishdan iborat.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari;
- SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish;
- SHarq ta'lim-tarbiyasida Abu Ali ibn Sinoning tutgan o'rni;
- pedagogik texnika pedagoglik mahoratining tarkibiy qismi ekanligi;
- pedagoglarning o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**
- talaba motivatsiyasini rag'batlantirish;
- guruhlarda ma'ruza o'qish tarbiyasi;
- o'quvchilarni o'rganish, kuzatish va ta'sir ko'rsatish metodikasi;
- guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi;
- shaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakllari va metodlari;
- o'quvchilar bilim sifatini oshirish va guruhda intizomni mustahkamlash yo'llarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
- o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlari;
- guruh rahbari ishini rejalashtirish va uni hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarni olib borishda tashkilotchi ishini tashkil etish metodikasi;
- tarbiyaviy ishlarni olib borishda tashkilotchi shaxsiga va kasbiga qo'yiladigan talablarni bilish **ko'nikmalariga ega bo'lish**;
- tashkilotchining o'quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi;
- talaba-rahbar munosabatlarini rivojlantirish;
- tajribali pedagogining kareraviy o'sishdagi o'rni;
- tashkilotchi va o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish ishlarining metodikasi;
- tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish metodikasi kabilar haqidagi **malakalarga ega bo'lishi kerak.**

## ASOSIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

### 1-mavzu. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Tarbiyaning umumiy ta'rifi. Tarbiya jarayoni va uning mohiyati. "Kadrlar tayyrlash milliy dasturi" asosida o'quvchilarni g'oyaviy tarbiyalash maqsadi, vazifalari va usullari. SHarq olimlarining sharqona tarbiya haqidagi bildirgan fikrlari. G'arb olimlarining tarbiya usullari haqidagi fikrlari. Tarbiyaning milliy va

umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo‘lishi. Tarbiyada milliy urf-odatlar va an’analar. Tarbiyaviy ishlarning izchilligi va tizimliligi

**2-mavzu. SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish**

Farobiyning komil inson haqidagi fikrlari. Beruniyning moddiy va ma’naviy olam yaxlitligi to‘g‘risidagi qarashlari. Ibn Sinoning inson shaxsi va uning botiniy hamda zohiriy qiyofasini taqqosiy baholaganligi. Amir Temurning shaxs va jamiyat munosabatlari haqidagi tuzuklari. Alisher Navoiyning o‘zlikni anglash haqidagi g‘oyalari ilmiy-ma’rifiy merosi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Hadis ilmi va uning tarbiyaviy qadr-qimmati haqida. Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya haqidagi an’anaviy va noan’anaviy fikr va qarashlari.

I.A.Karimov asarlari mazmunida ta’limiy va tarbiyaviy masalalar. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch asarining pedagogik ahamiyati. Ma’naviyat – insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbaidir. Ma’naviyatni anglash. Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar. Eng buyuk jasorat.

**3-mavzu. SHarq ta’lim-tarbiyasida Abu Ali ibn Sinoning tutgan o‘rni**

Abu Ali ibn Sino va uning davri haqida ma’lumot. Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan qarashining falsafiy poydevori: Inson va ruhiy bo‘limlar; Inson qalbi; Inson tabiati: yaxshi yoki yomon?; Jamiyatning o‘rni; Qalb bu bilimga yo‘l; Etika, Sabab va aqliy xulq. Abu Ali ibn Sinoning axloqiy o‘qitish usullari haqidagi qarashlari; axloqiy mashqlar; jamoat mashqlari; bilish va aqliy bajarish; hayajonli ehtiyojlardan qoniqish kabi tushunchalari xususida.

Abu Ali ibn Sino inson shaxsi va uning botiniy hamda zoxiriy qiyofasining taqqosiy baholanganligi.

**4-mavzu. Pedagogik mahorat va pedagogik texnika**

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogik mahorat tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik faoliyat va mahorat.

Pedagogik texnika tuzilishi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari va xususiyatlari. Pedagogik mahorat va texnika. Pedagogik san’at vaziyat bilan bog‘liqligi. Pedagogik faoliyat va vositalar. Tarbiyaviy vositalar. Pedagogik texnikani egallash yo‘llari. Pedagogik texnika ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda guruh bilan ish olib borishning ahamiyati.

### 5-mavzu. Pedagoglarning o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalasi

Pedagogning o‘quvchilar bilan muomala olib borishning mohiyati. Muomala – axborot jarayoni. O‘qituvchi muomala sub’ekti sifatida. Pedagogik qobiliyatlar. Qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogning o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalada tutgan yo‘li. Gapirish, tinglash va hamkorlik qilish mahorati. Muomalaning: mavzuli suhbat, ma’ruza, hikoya, savol-javob kabi shakllari.

O‘quvchilarni tarbiyalashda muomalaning o‘rni. O‘quvchilar muomalasining ikki turi: rollararo (amaliy) va shaxslararo (erkin). Muomalaning munozaraviy darajasi. Muomala bilish jarayonidir. O‘quvchilar muomalasini tashkil etish. Pedagogik muomala ijodiy jarayon sifatida.

Muomalaning individual uslubini shakllantirish metodikasi. O‘quvchilarda muomalaning individual usulini shakllantirish bosqichlari

### 6-mavzu. O‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish metodikasi

Guruh rahbarining faoliyati ko‘p qirrali va sermazmun ekanligi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini puxta o‘rganishi va ular haqidagi ma’lumotlarni aniqlashi.

O‘quvchilarni pedagogik kuzatish o‘quvchilar hayoti va faoliyatini o‘rganishning eng ishonchli usullaridan. O‘quvchilarni kuzatish va undan to‘plangan ma’lumotlar umumiylik va nisbiylik kasb etishi.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari va qoidalari. Pedagogik talab. Talabning asosiy shakllari va qoidalari. O‘quvchilar bilan o‘zaro fikr almashish bilan ta’sir ko‘rsatish vositalari

### 7-mavzu. Guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi

Guruh rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini tashkil etish, shakllantirish va jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi qoidasi. O‘quvchilarning jamoa turmush tarzi, me’yorlari va qoidalari. Guruh rahbari ishining o‘ziga xos xususiyati. Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning ahamiyati.

Guruh rahbari o‘quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o‘zaro hamkorligi. Ota-onalar bilan ish olib borishning an’anaviy tarkib topgan shakli bu ota-onalar yig‘ilishlari.

YAkka tartibdagi pedagogik suhbat guruh rahbarining o‘quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli ekanligi

### 8-mavzu. SHaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning shakl va metodlari

O‘qituvchi faoliyatida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish, faollarni tarbiyalash, o‘quv, mehnat, sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish, ko‘paytirish kabilar.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uchta darajasi. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Barkamol inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatning muhim sharti.

O‘quvchining kamolotiga, ruhiyatiga, fe’l-atvorining shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir etishi: biologik omil, ijtimoiy omil va ta’lim-tarbiya

**9-mavzu. Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi**

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan oilalarga ko‘rsatilayotgan e’tibor. Oila haqida tushuncha va uning mohiyati. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida. Oila – tarbiya o‘chog‘i. Oila – jamiyat negizi. Oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Oila tarbiyasi. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. Oila, ta’lim muassasasi, mahalla va jamoatchilik hamkorligi.

Milliylikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish. Ota-onaning pedagogik, tarbiyachilik faoliyatini jonlantirish. Guruh rahbari va tashkilotchining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari. Ota-onalar guruhi majlisini muntazam tashkil etish. Ota-onalarga pedagogik bilim berish. Ota-onalar uchun ma’ruza. Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi

**10-mavzu. O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalash**

O‘quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi: bilimga qiziqish va muhabbat uyg‘otish; o‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lish va unga mas’uliyat bilan yondashish; o‘quv madaniyatini oshirish.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o‘qish va mehnat ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi. O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga qo‘llay olishlarini hisobga olish. O‘quvchilarda o‘quv mehnatiga javobgarlik va mas’ullik hissini tarbiyalash

Talaba motivatsiyasini rag‘batlantirish. Maqsadsiz va maqsadli motivatsiya, motivlar va xulq-atvor. Talaba motivatsiyasini baholash motivatsiyani rivojlantirish. Talaba motivatsiyasini rag‘batlantirish.

**11-mavzu. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlari**

O‘quvchilar ongli intizom va mas’uliyat hissini sezishlarida ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarning ijodiy, noan’anaviy, interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish zaruriyati.

Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda o‘qituvchi amal qilishi zarur bo‘lgan qoidalar. Tarbiyaviy soatlarning maqsadiga ko‘ra xilma-xil shakllarini tashkil etish

yo‘llari. O‘quvchilarni mustaqil fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ta’limiy-tarbiyaviy ma’nodagi teleko‘rsatuvlar, ma’naviy-ma’rifiy o‘yinlar, mushoira kabi tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish samarasi

Guruhlarda ma’ruza o‘qish tarbiyasi. Turli kontingentdagi talabalarga ma’ruza o‘qish tarbiyasi qiyin xulq-atvorli talabalarni boshqarish.

## 12-mavzu. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish

Rejalashtirish haqida tushuncha. Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyati. Reja – o‘quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti. Rejaga qo‘yiladigan bir qator talablar. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjat ekanligi.

Guruh rahbarining ta’lim muassasasi va o‘quvchilar tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ish faoliyati. Uning faoliyatini rejalashtirish kasb-hunar kollejlari hamda “Kamolot” uyushmasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog‘liq. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olishning o‘ziga xos xususiyati. Reja – o‘quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti. Reja guruh rahbarining tarbiya berish faoliyati. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish va hisobga olishga qo‘yiladigan asosiy metodik talablar

## 13-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining ishlash metodikasi

Tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ta’siri ostidagi o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilishi asosiga qurilgan kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda to‘garaklarning o‘rni: fan to‘garaklari, hunarmandchilik to‘garaklari, sport musobaqalari, badiiy havaskorlik to‘garaklari va boshq.

## 14-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi kasbiga qo‘yiladigan talablar

Tashkilotchi (direktor o‘rinbosari)ning o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbati, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo‘lgan holda ish tutishi va muntazam o‘z ustida ishlab, sabr-bardoshli, o‘z fikrlarini puxta bayon qilib, o‘zgalarni o‘ziga jalb qila oladigan xislatlari. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi shaxsiga va kasbiga qo‘yiladigan talablar

Tashkilotchining huquqlari va vazifalari. Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining qobiliyati va ishbilarmonligi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda tashkilotchi faolligining uchta asosiy tomoni: tashkilotchilik, metodik va ma’muriy

**15-mavzu. O‘quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi**

Jamoa o‘zini-o‘zi boshqarish qo‘mitasi sifatida. O‘quvchilar jamoasi maqsadining birligi va tashkil qilish xususiyatlari. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyati sifatida.

O‘qituvchi tomonidan qo‘yilayotgan talablar hajmi, tizimi, talab qo‘yish metodikasi. O‘quvchilarga talablar qo‘yish, talablar mazmuni bilan tanishtirish, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam suratda nazorat qilib borish.

Jamoa an’analari bu barqarorlashgan odat, ularni jamoa a’zolari birdek qo‘llab-quvvatlaydi. Jamoa an’analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri

**16-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish**

Tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari. Tarbiya metodlari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Tarbiya metodlarining tavsiflanishi, turlari va foydalanish yo‘llari.

Tarbiyada ijobiy namuna va ibrat ko‘rsatish metodlaridan foydalanish. O‘quvchi-talabalarning rivojlanishida turli ta’sirlar va hurmatiga sazovor bo‘lgan kishilarning shaxsiy ibrat-namunasi.

Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari. Tarbiyada ma’qullash, ishonch bildirish, ishonish, qayd etish, maqtov va tanbeh ta’siri, jazo, po‘pisa, koyish kanilardan foydalanish yo‘llari.

Tarbiyasi kiyin bo‘lgan yoshlar bilan ishlash. Tarbiyasi kiyin bo‘lgan yoshlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda qayta ishontirish metodidan foydalanish

**17-mavzu. O‘zini-o‘zi boshqarish, idora qilish va tarbiyalash**

O‘zini-o‘zi boshqarishning nazariy asoslari. Ijtimoiy jarayonlar boshqaruv nazariyasining ob’ektiv asoslari. Har qanday jamiyat uch ijtimoiy jabhadan tashkil topadi, ular o‘zaro uzviy bog‘lik bo‘lib, birgalikda «jamiyat hayoti» degan kompleksni tashkil qiladi: siyosiy hayot, iqtisodiy hayot, ijtimoiy hayot. Boshqaruv usullari: ilmiy boshqaruv, iqtisodiy boshqaruv, ma’muriy boshqaruv.

O‘zini-o‘zi idora qilish metodlari. O‘zini-o‘zi nazorat qilish va hisob berish. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarining ish faoliyati. O‘quvchilarning o‘zini-o‘zi idora qilish qo‘mitalari faoliyatida qatnashuvi, ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta’sirchan vositasi.

O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari. O‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o‘z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘ziga-o‘zi baho berish metodlari. O‘zini-o‘zi ishontirish, o‘ziga-o‘zi buyruq berish, o‘zini-o‘zi ruhlantirish metodlari.

## 18-mavzu. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish metodikasi

Rahbarlikning zarur printsipi rejalilikdir. Rejalashtirishga qo‘yiladigan talablar. Rejalashtirishda guruh rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari. Guruhga qisqacha tavsifnoma. Tarbiyaviy vazifalar. O‘quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari

Ma’naviyat va burch tarbiyasi. O‘quvchilar turar joylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. O‘quvchilarning mustaqil tayyorgarligi, ularda mustaqillik, mas’uliyat va mehnatsevarlikni shakllantirish.

Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash. O‘quvchilar ishlab chiqarish (mehnat) uyushmasi va ko‘rik musobaqa tarbiyaviy tadbirini tashkil etish va o‘tkazish uchun uning tarbiyaviy ahamiyati, tashkil etish metodikasi, o‘tkazilish bosqichlari hamda ishtirokchilar faoliyatini baholash mezonlari. Sog‘liqni saqlash va sog‘lom avlodni tarbiyalash tadbirlari. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari

## Amaliy mashg’ulotlar

### Amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg’ulotlarini o’tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

– amaliy mashg’ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
– talabada natijani mustaqil ravishda qo’lga kiritish imkoniyatini ta’minlash;
– talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

Amaliy mashg’ulotlar bo’yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining maqsadi va vazifalari
2. SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish
3. SHarq ta’lim-tarbiyasida Abu Ali ibn Sinoning tutgan o‘rni
4. Pedagogik mahorat va pedagogik texnika
5. Pedagoglarning o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalasi
6. O‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish metodikasi
7. Guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi
8. SHaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning shakl va metodlari
9. Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi
10. O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalash
11. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlari
12. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish
13. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining ishlash metodikasi
14. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi kasbiga qo‘yiladigan talablar
15. Tashkilotchining o‘quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi

16. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish
17. O‘zini-o‘zi boshqarish, idora qilish va tarbiyalash
18. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish metodikasi

**Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim mavzulari tegishli kafedra yig’ilishida tasdiqlanadi va fanning ishchi o’quv dasturida keltirib o’tiladi. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’lim mavzulari:

1. Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o’rni
2. SHarqona tarbiya
3. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch
4. G’arb tarbiyasining ahamiyati
5. Sharq ta’lim-tarbiyasida Abu Ali ibn Sinining tutgan o’rni
6. Abu Ali ibn Sinoning kuzatish, tajriba va imtixon usuli
7. Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiyaga bo’lgan qarashining falsafiy poydevori
8. Tarbiya jarayoniga qo’yiladigan talablar
9. Oila pedagogikasi
10. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish muammolari
11. Guruh rahbari ishini rejalashtirish
12. Guruh rahbarining ota-onalar bilan aloqasi
13. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi
14. SHaxsga jamoa bilan tarbiya-viy ta’sir qo’rsatish usuli
15. Islom dinida odob-axloq tarbiyasi haqida
16. Tarbiya jarayonida tadbirlarning ahamiyati
17. Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o’rni
18. O’quvchi shaxsining rivojlanishida tarbiya metodlarini qo’llash
19. Mutafakkirlarning tarbiyaga oid qarashlari
20. Tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasining ahamiyati
21. To’garaklar tashkil qilishda direktor o’rinbosari vazifasi
22. O’quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi
23. Yoshlarda insonparvarlik va vatanparvarlik his-tuyg’ularini rivojlantirish yo’llari
24. Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya xususida
25. Tarbiyaviy tadbirlar rejasining tuzilishi
26. Iqtisodchi uchun zarur bo’lgan pedagogik texnika va qobiliyatlar
27. Ishbilarmonlik muloqoti
28. Pedagogik muloqot va munosabat

## Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

16. O’zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. –T.: O’zbekiston, 2017.

17. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konsterni, 1998.

18. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “SHarq” nashriyot-matbaa konsterni, 1998.

19. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

20. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

21. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

22. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

23. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

24. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, -2008.

25. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. II qism. O’quv qo’llanma. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 936 b.

26. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

27. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010 y.

28. Sarsenbayeva R.M. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o’quv fanini o’rganish yo’llari. Uslubiy qo’llanma. –T.: TMI, 2018. – 294 b.

29. Sarsenbayeva R.M. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi. O’quv-uslubiy qo’llanma. – T.: TMI, 2014. – 108 b.

30. Hasanboyeva O. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. –T.: Ilm ziyo, 2014. – 166 b.

### Qo’shimcha adabiyotlar:

6. A handbook for teaching and learning in higher education: enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. –3 rd ed. p. cm.

7. Abd al-Rahman al.Naqib (Egypt). Professor and director of the Department of Educational Fundamentals at Mansoura University. Author of numerous articles and books; has participated in several national and international conferences on education. Among his works are: Avicenna's Educational Philosophy; Muslim Theoretical and Practical Medical Training; Studies on Islamic Education; The Degree of Islamic Involvement among Students; and Islamic Education: Vocation and Structure (in Arabic).

8. Anderson, R.S. (1975). *Education in Japan: a Century of Modern Development*. U.S. (elektron shaklda).

9. Omonov H.T. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 240 b.

10. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 2013

11. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2003. – 188 bet.

12. Sarsenbayeva R.M. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TMI, 2015. – 152 b.

13. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi (darslik). –T.: Aloqachi, 2007. –384 b.

14. Mavlonova R. Voxidova N. Raxmonqulova N. Redagogika nazariyasi va tarixi (darslik).– T: "Fan va texnologiya" 2010.

15. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2013

16. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmonov N. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi). 1-qism.,– T.: "Fan va texnologiya" 2011.

17. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: darslik. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2005. – 304 b.

18. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. –T.: «Iqtisod moliya», 2009.

**Internet saytlari:**

www.ziyonet.uz – ZiyoNet ta'lim portali

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlarini ma'lumotlari milliy bazasi;

www.tdpu.uz – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti rasmiy veb sayti

www.pedagog.uz – Pedagogika yo'nalishiga oid kitoblar sayti

www.tfi.uz – Toshkent moliya instititi rasmiy veb sayti

www.tdiu.uz – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy veb sayti

www. http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzk.pdf-*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*

www. http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzl.pdf- *Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi*

www. http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzk.pdf-*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*

www. http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzl.pdf. -*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi.*

## 4.2. Ishchi dastur

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKET MOLIYA INSTITUTI**

| | |
|---|---|
| **O‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ro‘yxatga olindi** | **Toshkent moliya instituti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** |
| **№______________________** | **_________________I.Qo‘ziyev** |
| **2018 yil “____” _______** | **2018 yil “____” ______** |

# TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

## ISHCHI O’QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 | – Gumanitar |
| | 200000 | – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 | – Pedagogika |
| | 230000 | – Iqtisod |
| **Ta’lim yo‘nalishlari:** | 511 000 | – Kasb ta’limi (5230600-Moliya) |
| | 511 000 | – Kasb ta’limi 5230700-Bank ishi) |
| | 511 000 | – Kasb ta’limi 5230900 – (Buxgalteriya hisobi va audit) |

**TOSHKENT – 2018**

Fanning ishchi o’quv dasturi O‘zbekis ... publikasi Oliy va o‘rt... vazirligining 201__yil “__”.___dagi ‘ __ ... nli buyrug’i (buyriqr... bilan tasdiqlangan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fan dasturi asosida

Fanning ishchi o’quv dasturi Toshkent moliya institutii Kengashining 201_ yil “___”__________ dagi “____” - son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

| | | |
|---|---|---|
| **Tuzuvchilar:** | Sarsenbayeva R.M. | –TMI, “Kasbiy ta’lim” kafedrasi, dotsent, ped.fan.nom. |
| | Aglayeva U.S. | –TMI, “Kasbiy ta’lim” kafedrasi, o’qituvchi, faxriy dotsent |
| **Taqrizchilar:** | Ashurov N.R. | –Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI “Pedagogika va kasbiy ta’lim” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi (*turdosh OTMdan*.) |
| | Mahmudov A. | – Toshkent bank kolleji direktori, i.f.n., dotsent *(kadrlar buyurtmachisi).* |

Fanni ishchi o’quv dasturi kafedraning 201_ yil ___ ________dagi ___-sonli yig’ilishi muhokamadan o’tkazilgan va fakultet Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**“Kasbiy ta’lim” kafedrasi mudiri:**
**201- yil “____”_______ ___________________ dotsent Ш.А.Аллаяров**

Fanning ishchi oʻquv dasturi “Moliyaviy menejment” fakulteti Kengashining 201_ yil “___”__________ dagi “____” – sonli majlisida muhokama etilib, institut o’quv-uslubiy Kengashida ko’rib chiqishga tavsiya qilingan.

**“Kredit-iqtisod” fakulteti dekani dots. R.Saidov**

Fanning ishchi o’quv dasturi o’quv-uslibiy fakultet Kengashining 201_ yil “___”__________ dagi “____” – sonli majlisida muhokama etilib, institut Kengashida ko’rib chiqishga tavsiya qilingan.

**O’quv-uslibiy bo’lim boshlig’i:**

**201_ yil “____”_______ ___________________dotsent T.M.Baymuradov**

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishishi ta’lim tizimini yangilashni taqozo etmoqda. Bu tizim yangicha fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, uni amalga oshirish jarayonida xalqni ma’naviy uyg‘onishga va mamlakatning aqliy salohiyatini oshirishga olib keladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida ta’lim tizimi jumladan, oliy ta’lim tizimining bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi talabalarini har tomonlama etuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi qo‘yilgan.

Ma’lumki, ma’naviyatsiz hech qanday taraqqiyot bo‘lmaydi. SHunday ekan, respublikamiz mustaqil rivojlanib, taraqqiy etib ma’rifatli, madaniyatli jamiyat tomon boradi. Bu esa, Mustaqillik talablariga javob bera oladigan etuk mutaxassislarning iqtidorini shakllantirishni va ularni yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

## Fanning maqsad va vazifalari

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanini o‘qitishdan maqsad talabalarni:

- bo‘lajak iqtisodchi-pedagoglarni tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishini nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish yo‘llarini ko‘rsatish;
- ta’lim mazmuni sifati va samaradorligini oshirishda yangicha ishlashning mazmuni, mohiyati, tamoyili, metodi, vositalari va shakllaridan samarali foydalanish;
- sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida o‘quvchilarni g‘oyaviy tarbiyalashning maqsadi, vazifalari va usullarini o‘rganish;
- ✓ bo‘lajak iqtisodchi-pedagoglarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning shart-sharoitlarini aniqlash;
- ✓ pedagoglarning o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalasini o‘rganish;
- ✓ tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, uning sifati va samaradorligini oshirishda yangicha ishlashning metodi, vositalari va shakllaridan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish;
- ✓ o‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini aniqlash;
- ✓ guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasini yoritish;
- ✓ tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi shaxsiga va kasbiga qo‘yiladigan pedagogik talablarni aniqlash kabilar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o‘rganish kabilardan iborat.

## Fan bo‘yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari;
- SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish;
- o‘zini-o‘zi boshqarish, idora qilish va tarbiyalash;
- pedagogik mahorat va pedagogik texnika;
- pedagoglarning o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalasi **haqida tasavvurga ega bo‘lishi;**
- o‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish metodikasi;
- guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi;
- shaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning shakl va metodlari;
- oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi;
- o‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalashni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
- o‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlari;
- guruh rahbari ishini rejalashtirish va uni hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarni olib borishda tashkilotchi shaxsi va kasbiga qo‘yiladigan talablarni bilish;
- tarbiyaviy ishlarni olib borishda tashkilotchi ishini tashkil etish metodikasi **ko‘nikmalariga ega bo‘lish;**
- tashkilotchining o‘quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasini;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiya metodlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyaviy ishlarni olib borishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish;
- tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish metodikasi kabilar haqidagi **malakalarga ega bo‘lishi kerak.**

### Fanning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uzviyligi

**“**Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani asosiy mutaxassislik fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o’quv rejasida rejalashtirilgan aniq va tabiiy fanlar (“Oliy matematika”, “Informatika”, “Iqtisodiy geografiya” kabilar), iqtisodiy fanlar (“Iqtisodiy nazariya”, “Statistika”, “Pul, kredit va banklar”, “Moliyaviy menejment”, kabilar) va pedagogik-psixologik fanlar (“Pedagogika. Psixologiya”, “Kasbiy pedagogika”, “Kasbiy psixologiya”, “Kasbiy fanlatni o’qitish metodikasi”, “Ta’lim texnologiyalari” kabi) fanlardan etarli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlik talab etiladi.

## Fanning “Ta`lim-fan-ishlab chiqarish” integratsiyasi va innovatsiyon rivojlanishdagi o’rni

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun malakali, mahoratli, o’zgarayotgan talablarga moslashuvchan, o’z malakasini oshirishga, mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilishga, oqilona xulosa chiqarish ko’nikmasiga ega bo’lgan iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlanish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi “Pedagogika” fanining bir qismi boʻlib, fan sifatida ajralib chiqdi va oʻzining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga boʻlib oʻrganiladi. Bular quyidagilardir: “Odobnoma fanini oʻqitish” metodikasi, “Jamoani tashkil qilish” metodikasi, “Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarini tashkil etish” metodikasi hamda “Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish” metodikasi va hakozolar.

Demak, bu fanni oʻqitishdan maqsad, kelajakda talabalarga ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashishni, ishni sifat, mazmun jihatdan toʻgʻri tashkil etishni oʻrgatishdan iboratdir.

Shuning uchun iqtisodchi-pedagoglarga alohida talab qo’yiladi. O’rta maktablarda iqtisodiy bilim asoslari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining barcha yo’nalishlarida iqtisodiyot asoslari, kichik biznes va tadbirkorlik, iqtisodiy yo’nalishdagi kasb-hunar kollejlarida esa turli iqtisodiy fanlar o’rganiladi. Shuning uchun ushbu fan mutaxassislik fani hisoblanib, bir tomondan ishlab chiqarish texnologik tizimining, ikkinchi tomondan ta’lim tizimining ajralmas bo’g’inidir.

## Fanni o’qitishda qo`llanilishi tavsiya etilayotgan pedagogik, axborot va internet texnologiyalari

Talabalar “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanini o’zlashtirishda ta’limning innovatsion usullaridan foydalanishi, zamonaviy pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o’zlashtirishda o’quv-uslubiy ta’minot (darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, Modul topshiriqlari)dan foydalanilish tavsiya etiladi. Ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda turli interfaol metodlardan (aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o’yinlar, portfolio, keys-stadi kabi), vositalardan, ya’ni kompyuter dasturlaridan (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint kabi) va internet tizimlaridan keng foydalanishlari mumkin

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani 3-kursning V semestrida o’qitilib, unda ma’ruza, amaliy, mustaqil ta’lim mashg’ulotlari semestr bo’yicha quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

**340000 – Biznes va boshqaruv ta’lim sohasining barcha ta’lim yo’nalishlarida “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti**

| T/r | Fan mavzularining nomi | Jami | Shu jumladan | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ma’-ruza | Amaliy mash-g’ulot | Mus-taqil ta`-lim |
| **I modul. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining nazariy masalalari** | | | | | |
| 1. | “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari | 4 | 2 | 2 | - |
| 2 | SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 3 | O‘zini-o‘zi boshqarish, idora qilish va tarbiyalash | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 4 | Pedagogik mahorat va pedagogik texnika | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 5 | Pedagoglarning o’quvchilar bilan o’zaro muomalasi | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 6 | O’quvchilarni o’rganish, kuzatish va ta’sir ko’rsatish metodikasi | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 7 | Guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 8 | SHaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishning shakl va metodlari | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 9 | Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi | 6 | 2 | 2 | 2 |
| **II modul. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining amaliy jihatlari** | | | | | |
| 10 | O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalash | 4 | 2 | 2 | - |
| 11 | O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlari | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 12 | Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 13 | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchiga qo‘yiladigan talablar | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 14 | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining ishlash metodikasi | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 15 | O‘quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 16 | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 17 | Tarbiyaviy ishlarni olib borishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 18 | Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o’tkazish metodikasi | 6 | 2 | 2 | 2 |
| **V semester bo’yicha jami:** | | **104** | **36** | **36** | **32** |

## V semestrda o’qitiladigan ma’ruza mashg’ulotlarining mazmuni

## 1-modul. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining nazariy masalalari

**1-Mavzu. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari**

Tarbiyaning umumiy ta’rifi. Tarbiya jarayoni va uning mohiyati. “Kadrlar tayyrlash milliy dasturi” asosida o’quvchilarni g’oyaviy tarbiyalash maqsadi, vazifalari va usullari. SHarq olimlarining sharqona tarbiya haqidagi bildirgan fikrlari. G’arb olimlarining tarbiya usullari haqidagi fikrlari. Tarbiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo’lishi. Tarbiyada milliy urf-odatlar va an’analar. Tarbiyaviy ishlarning izchilligi va tizimliligi

**2-Mavzu. SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish**

Farobiyning komil inson haqidagi fikrlari. Beruniyning moddiy va ma’naviy olam yaxlitligi to’g’risidagi qarashlariAmir. Amir Temurning shaxs va jamiyat munosabatlari haqidagi tuzuklari. Alisher Navoiyning o’zlikni anglash haqidagi g’oyalari ilmiy-ma’rifiy merosi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Hadis ilmi va uning tarbiyaviy qadr-qimmati haqida. Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya haqidagi an’anaviy va noan’anaviy fikr va qarashlari

I.A.Karimov asarlari mazmunida ta’limiy va tarbiyaviy masalalar. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch asarining pedagogik ahamiyati. Ma’naviyat – insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbaidir. Ma’naviyatni anglash. Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar. Eng buyuk jasorat

**3-Mavzu. O‘zini-o‘zi boshqarish, idora qilish va tarbiyalash**

O‘zini-o‘zi boshqarishning nazariy asoslari. Ijtimoiy jarayonlar boshqaruv nazariyasining ob’ektiv asoslari. Har qanday jamiyat uch ijtimoiy jabhadan tashkil topadi, ular o‘zaro uzviy bog‘lik bo‘lib, birgalikda «jamiyat hayoti» degan kompleksni tashkil qiladi: siyosiy hayot, iqtisodiy hayot, ijtimoiy hayot. Boshqaruv usullari: ilmiy boshqaruv, iqtisodiy boshqaruv, ma’muriy boshqaruv.

O‘zini-o‘zi idora qilish metodlari. O‘zini-o‘zi nazorat qilish va hisob berish. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarining ish faoliyati. O‘quvchilarning o‘zini-o‘zi idora qilish qo‘mitalari faoliyatida qatnashuvi, ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta’sirchan vositasi.

O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari. O‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o‘z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘ziga-o‘zi baho berish metodlari. O‘zini-o‘zi ishontirish, o‘ziga-o‘zi buyruq berish, o‘zini-o‘zi ruhlantirish metodlari.

**4-Mavzu. Pedagogik mahorat va pedagogik texnika**

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogik mahorat tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik faoliyat va mahorat.

Pedagogik texnika tuzilishi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari va xususiyatlari. Pedagogik mahorat va texnika. Pedagogik san'at vaziyat bilan bog'liqligi. Pedagogik faoliyat va vositalar. Tarbiyaviy vositalar. Pedagogik texnikani egallash yo'llari. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarni shakllantirishda guruh bilan ish olib borishning ahamiyati

**5-Mavzu. Pedagoglarning o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi**

Pedagogning o'quvchilar bilan muomala olib borishning mohiyati. Muomala – axborot jarayoni. O'qituvchi muomala sub'ekti sifatida. Pedagogik qobiliyatlar. Qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogning o'quvchilar bilan o'zaro muomalada tutgan yo'li. Gapirish, tinglash va hamkorlik qilish mahorati. Muomalaning: mavzuli suhbat, ma'ruza, hikoya, savol-javob kabi shakllari.

O'quvchilarni tarbiyalashda muomalaning o'rni. O'quvchilar muomalasining ikki turi: rollararo (amaliy) va shaxslararo (erkin). Muomalaning munozaraviy darajasi. Muomala bilish jarayonidir. O'quvchilar muomalasini tashkil etish. Pedagogik muomala ijodiy jarayon sifatida.

Muomalaning individual uslubini shakllantirish metodikasi. O'quvchilarda muomalaning individual usulini shakllantirish bosqichlari

**6-Mavzu. O'quvchilarni o'rganish, kuzatish va ta'sir ko'rsatish metodikasi**

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmun ekanligi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini puxta o'rganishi va ular haqidagi ma'lumotlarni aniqlashi.

O'quvchilarni pedagogik kuzatish o'quvchilar hayoti va faoliyatini o'rganishning eng ishonchli usullaridan. O'quvchilarni kuzatish va undan to'plangan ma'lumotlar umumiylik va nisbiylik kasb etishi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari va qoidalari. Pedagogik talab. Talabning asosiy shakllari va qoidalari. O'quvchilar bilan o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari

**7-Mavzu. Guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi**

Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini tashkil etish, shakllantirish va jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi qoidasi. O'quvchilarning jamoa turmush tarzi, me'yorlari va qoidalari. Guruh rahbari ishining o'ziga xos xususiyati. Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning ahamiyati.

Guruh rahbari o'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorligi. Ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shakli bu ota-onalar yig'ilishlari.

YAkka tartibdagi pedagogik suhbat guruh rahbarining o'quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli ekanligi

**8-Mavzu. SHaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl va metodlari**

O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, ko'paytirish kabilar.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uchta darajasi. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Barkamol inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatning muhim sharti.

O'quvchining kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvorining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etishi: biologik omil, ijtimoiy omil va ta'lim-tarbiya

**9-Mavzu. Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi**

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan oilalarga ko'rsatilayotgan e'tibor. Oila haqida tushuncha va uning mohiyati. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida. Oila – tarbiya o'chog'i. Oila – jamiyat negizi. Oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Oila tarbiyasi. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. Oila, ta'lim muassasasi, mahalla va jamoatchilik hamkorligi.

Milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish. Ota-onaning pedagogik, tarbiyachilik faoliyatini jonlantirish. Guruh rahbari va tashkilotchining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari. Ota-onalar guruhi majlisini muntazam tashkil etish. Ota-onalarga pedagogik bilim berish. Ota-onalar uchun ma'ruza. Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi

**2-modul. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining amaliy jihatlari**

**10-Mavzu. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalash**

O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi: bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish; o'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish; o'quv madaniyatini oshirish.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish va mehnat ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga qo'llay olishlarini hisobga olish. O'quvchilarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash

**11-Mavzu. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari**

O'quvchilar ongli intizom va mas'uliyat hissini sezishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarning ijodiy, noan'anaviy, interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish zaruriyati.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchi amal qilishi zarur bo'lgan qoidalar. Tarbiyaviy soatlarning maqsadiga ko'ra xilma-xil shakllarini tashkil etish yo'llari. O'quvchilarni mustaqil fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ta'limiy-tarbiyaviy ma'nodagi teleko'rsatuvlar, ma'naviy-ma'rifiy o'yinlar, mushoira kabi tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish samarasi

### 12-Mavzu. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish

Rejalashtirish haqida tushuncha. Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati. Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti. Rejaga qo'yiladigan bir qator talablar. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjat ekanligi.

Guruh rahbarining ta'lim muassasasi va o'quvchilar tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ish faoliyati. Uning faoliyatini rejalashtirish kasb-hunar kollejlari hamda "Kamolot" uyushmasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog'liq. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olishning o'ziga xos xususiyati. Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti. Reja guruh rahbarining tarbiya berish faoliyati. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish va hisobga olishga qo'yiladigan asosiy metodik talablar

### 13-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchiga qo‘yiladigan talablar

Tashkilotchi (direktorning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari)ning o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbati, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo‘lgan holda ish tutishi va muntazam o‘z ustida ishlab, sabr-bardoshli, o‘z fikrlarini puxta bayon qilib, o‘zgalarni o‘ziga jalb qila oladigan xislatlari. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi shaxsiga va kasbiga qo‘yiladigan talablar

Tashkilotchining huquqlari va vazifalari. Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining qobiliyati va ishbilarmonligi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda tashkilotchi faolligining uchta asosiy tomoni: tashkilotchilik, metodik va ma'muriy

### 14-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining ishlash metodikasi

Tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi. Ta'lim

muassasasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni muntazam, ketma-ketlikda reja, dastur asosida olib borilishi hamda nazorati.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ta’siri ostidagi o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilishi asosiga qurilgan kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda to‘garaklarning o‘rni: fan to‘garaklari, hunarmandchilik to‘garaklari, sport musobaqalari, badiiy havaskorlik to‘garaklari va boshq.

**15-Mavzu. O’quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi**

Jamoa o’zini-o’zi boshqarish qo’mitasi sifatida. O’quvchilar jamoasi maqsadining birligi va tashkil qilish xususiyatlari. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo’naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyati sifatida.

O’qituvchi tomonidan qo’yilayotgan talablar hajmi, tizimi, talab qo’yish metodikasi. O’quvchilarga talablar qo’yish, talablar mazmuni bilan tanishtirish, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam suratda nazorat qilib borish.

Jamoa an’analari bu barqarorlashgan odat, ularni jamoa a’zolari birdek qo’llab-quvvatlaydi. Jamoa an’analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri

**16-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish**

Tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari. Tarbiya metodlari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Tarbiya metodlarining tavsiflanishi, turlari va foydalanish yo‘llari.

Tarbiyada ijobiy namuna va ibrat ko‘rsatish metodlaridan foydalanish. O‘quvchi-talabalarning rivojlanishida turli ta’sirlar va hurmatiga sazovor bo‘lgan kishilarning shaxsiy ibrat-namunasi.

Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari. Tarbiyada ma’qullash, ishonch bildirish, ishonish, qayd etish, maqtov va tanbeh ta’siri, jazo, po‘pisa, koyish kabilardan foydalanish yo‘llari.

Tarbiyasi qiyin bo‘lgan yoshlar bilan ishlash. Tarbiyasi qiyin bo‘lgan yoshlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda qayta ishontirish metodidan foydalanish

**17-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish**

Milliy qadriyatlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni. Xalq og‘zaki ijodi janrlari: epik ijod namunasi; qo‘shiqlar, alla va laparlar; maqollar, matallar,

hikmatlar, qayroqi so‘zlar, aforistik iboralar; asotirlar, afsona va rivoyatlar; ertaklar, dostonlar, topishmoq kabilar yoshlarni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati.

O‘zbek xalq og‘zaki namunalari: folklor – xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida; tez aytish va o‘yinlarning tarbiyada tutgan o‘rni; topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o‘rni; topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o‘rni; qo‘shiq, alla, laparlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati; ertak, doston, rivoyat, matal, masallar orqali tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish yo’llari; maqollarning eng keng tarqalgan shakli o‘git kabilar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining asosiy tarkibiy qismidir.

### 18-Mavzu. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o’tkazish metodikasi

Rahbarlikning zarur qonun-qoidasi rejalilikdir. Rejalashtirishga qo‘yiladigan talablar. Rejalashtirishda guruh rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari. Guruhga qisqacha tavsifnoma. Tarbiyaviy vazifalar. O‘quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari

Ma’naviyat va burch tarbiyasi. O‘quvchilar turar joylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. O‘quvchilarning mustaqil tayyorgarligi, ularda mustaqillik, mas’uliyat va mehnatsevarlikni shakllantirish.

Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash. O‘quvchilar ishlab chiqarish (mehnat) uyushmasi va ko‘rik musobaqa tarbiyaviy tadbirini tashkil etish va o‘tkazish uchun uning tarbiyaviy ahamiyati, tashkil etish metodikasi, o‘tkazilish bosqichlari hamda ishtirokchilar faoliyatini baholash mezonlari. Sog‘liqni saqlash va sog‘lom avlodni tarbiyalash tadbirlari. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari.

## 2. Fanning amaliy mashrulotlari mazmuni

### 1-modul. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining nazariy masalalari

#### 1-mavzu. .“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Tarbiyaning umumiy ta’rifi. Tarbiya jarayoni va uning mohiyati. “Kadrlar tayyrlash milliy dasturi” asosida o’quvchilarni g’oyaviy tarbiyalash maqsadi, vazifalari va usullari.

SHarq olimlarining sharqona tarbiya haqidagi bildirgan fikrlari. G’arb olimlarining tarbiya usullari haqidagi fikrlari.

Tarbiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo’lishi. Tarbiyada milliy urf-odatlar va an’analar. Tarbiyaviy ishlarning izchilligi va tizimliligi

### 2-mavzu. SHarq mutafakkirlari va I.A.Karimov asarlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish

Farobiyning komil inson haqidagi fikrlari. Beruniyning moddiy va ma'naviy olam yaxlitligi to'g'risidagi qarashlariAmir. Amir Temurning shaxs va jamiyat munosabatlari haqidagi tuzuklari.

Alisher Navoiyning o'zlikni anglash haqidagi g'oyalari ilmiy-ma'rifiy merosi va uning tarbiyaviy ahamiyati.

Hadis ilmi va uning tarbiyaviy qadr-qimmati haqida. Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya haqidagi an'anaviy va noan'anaviy fikr va qarashlari

I.A.Karimov asarlari mazmunida ta'limiy va tarbiyaviy masalalar. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch asarining pedagogik ahamiyati.

Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir. Ma'naviyatni anglash. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar. Eng buyuk jasorat

**3-mavzu. O'zini-o'zi boshqarish, idora qilish va tarbiyalash**

O'zini-o'zi boshqarishning nazariy asoslari. Ijtimoiy jarayonlar boshqaruv nazariyasining ob'ektiv asoslari.

Har qanday jamiyat uch ijtimoiy jabhadan tashkil topadi, ular o'zaro uzviy bog'lik bo'lib, birgalikda «jamiyat hayoti» degan kompleksni tashkil qiladi: siyosiy hayot, iqtisodiy hayot, ijtimoiy hayot.

Boshqaruv usullari: ilmiy boshqaruv, iqtisodiy boshqaruv, ma'muriy boshqaruv.

O'zini-o'zi idora qilish metodlari. O'zini-o'zi nazorat qilish va hisob berish.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining ish faoliyati.

O'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilish qo'mitalari faoliyatida qatnashuvi, ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasi.

O'zini-o'zi tarbiyalash metodlari. O'zini-o'zi tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o'z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish va o'ziga-o'zi baho berish metodlari. O'zini-o'zi ishontirish, o'ziga-o'zi buyruq berish, o'zini-o'zi ruhlantirish metodlari.

**4-mavzu. Pedagogik mahorat va pedagogik texnika**

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogik mahorat tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik faoliyat va mahorat.

Pedagogik texnika tuzilishi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari va xususiyatlari. Pedagogik mahorat va texnika.

Pedagogik san'at vaziyat bilan bog'liqligi. Pedagogik faoliyat va vositalar. Tarbiyaviy vositalar.

Pedagogik texnikani egallash yo'llari. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarni shakllantirishda guruh bilan ish olib borishning ahamiyati

**5-mavzu. Pedagoglarning o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi**

Pedagogning o’quvchilar bilan muomala olib borishning mohiyati. Muomala – axborot jarayoni. O’qituvchi muomala sub’ekti sifatida. Pedagogik qobiliyatlar.

Qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogning o’quvchilar bilan o’zaro muomalada tutgan yo’li. Gapirish, tinglash va hamkorlik qilish mahorati. Muomalaning: mavzuli suhbat, ma’ruza, hikoya, savol-javob kabi shakllari.

O’quvchilarni tarbiyalashda muomalaning o’rni. O’quvchilar muomalasining ikki turi: rollararo (amaliy) va shaxslararo (erkin). Muomalaning munozaraviy darajasi.

Muomala bilish jarayonidir. O’quvchilar muomalasini tashkil etish. Pedagogik muomala ijodiy jarayon sifatida.

Muomalaning individual uslubini shakllantirish metodikasi. O’quvchilarda muomalaning individual usulini shakllantirish bosqichlari

**6-mavzu. O’quvchilarni o’rganish, kuzatish va ta’sir ko’rsatish metodikasi**

Guruh rahbarining faoliyati ko’p qirrali va sermazmun ekanligi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini puxta o’rganishi va ular haqidagi ma’lumotlarni aniqlashi.

O’quvchilarni pedagogik kuzatish o’quvchilar hayoti va faoliyatini o’rganishning eng ishonchli usullaridan. O’quvchilarni kuzatish va undan to’plangan ma’lumotlar umumiylik va nisbiylik kasb etishi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatish usullari va qoidalari. Pedagogik talab. Talabning asosiy shakllari va qoidalari. O’quvchilar bilan o’zaro fikr almashish bilan ta’sir ko’rsatish vositalari

**7-mavzu. Guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi**

Guruh rahbari ishida o’quvchilar jamoasini tashkil etish, shakllantirish va jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi qoidasi. O’quvchilarning jamoa turmush tarzi, me’yorlari va qoidalari.

Guruh rahbari ishining o’ziga xos xususiyati. Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning ahamiyati.

Guruh rahbari o’quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o’zaro hamkorligi.

Ota-onalar bilan ish olib borishning an’anaviy tarkib topgan shakli bu ota-onalar yig’ilishlari.

YAkka tartibdagi pedagogik suhbat guruh rahbarining o’quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli ekanligi

**8-mavzu. SHaxsga jamoa orqali tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishning shakl va metodlari**

O’qituvchi faoliyatida o’quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa.

Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, ko'paytirish kabilar.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uchta darajasi. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi.

Barkamol inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatning muhim sharti.

O'quvchining kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvorining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etishi: biologik omil, ijtimoiy omil va ta'lim-tarbiya

**9-mavzu. Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi**

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan oilalarga ko'rsatilayotgan e'tibor. Oila haqida tushuncha va uning mohiyati. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida.

Oila – tarbiya o'chog'i. Oila – jamiyat negizi. Oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Oila tarbiyasi. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. Oila, ta'lim muassasasi, mahalla va jamoatchilik hamkorligi.

Milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish. Ota-onaning pedagogik, tarbiyachilik faoliyatini jonlantirish. Guruh rahbari va tashkilotchining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari.

Ota-onalar guruhi majlisini muntazam tashkil etish. Ota-onalarga pedagogik bilim berish. Ota-onalar uchun ma'ruza. Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi

**2-modul. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining amaliy jihatlari**

**10-mavzu. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalash**

O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi: bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish; o'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish; o'quv madaniyatini oshirish.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish va mehnat ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga qo'llay olishlarini hisobga olish. O'quvchilarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash

**11-mavzu. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari**

O’quvchilar ongli intizom va mas’uliyat hissini sezishlarida ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati.

O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari. O’quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarning ijodiy, noan’anaviy, interfaol o’qitish metodlaridan foydalanish zaruriyati.

Pedagogik texnologiyalarni qo’llashda o’qituvchi amal qilishi zarur bo’lgan qoidalar. Tarbiyaviy soatlarning maqsadiga ko’ra xilma-xil shakllarini tashkil etish yo’llari.

O’quvchilarni mustaqil fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ta’limiy-tarbiyaviy ma’nodagi teleko’rsatuvlar, ma’naviy-ma’rifiy o’yinlar, mushoira kabi tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish samarasi

**12-mavzu. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish**

Rejalashtirish haqida tushuncha. Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o’ziga xos xususiyati. Reja – o’quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti.

Rejaga qo’yiladigan bir qator talablar. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjat ekanligi.

Guruh rahbarining ta’lim muassasasi va o’quvchilar tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ish faoliyati. Uning faoliyatini rejalashtirish kasb-hunar kollejlari hamda “Kamolot” uyushmasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog’liq. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olishning o’ziga xos xususiyati.

Reja – o’quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti. Reja guruh rahbarining tarbiya berish faoliyati. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish va hisobga olishga qo’yiladigan asosiy metodik talablar

**13-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchiga qo‘yiladigan talablar**

Tashkilotchi (direktorning ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari)ning o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbati, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo‘lgan holda ish tutishi va muntazam o‘z ustida ishlab, sabr-bardoshli, o‘z fikrlarini puxta bayon qilib, o‘zgalarni o‘ziga jalb qila oladigan xislatlari.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchi shaxsiga va kasbiga qo‘yiladigan talablar

Tashkilotchining huquqlari va vazifalari. Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining qobiliyati va ishbilarmonligi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda tashkilotchi faolligining uchta asosiy tomoni: tashkilotchilik, metodik va ma’muriy

**14-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining ishlash metodikasi**

Tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi.

Ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni muntazam, ketma-ketlikda reja, dastur asosida olib borilishi hamda nazorati.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ta’siri ostidagi o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilishi asosiga qurilgan kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda to‘garaklarning o‘rni: fan to‘garaklari, hunarmandchilik to‘garaklari, sport musobaqalari, badiiy havaskorlik to‘garaklari va boshq.

**15-Mavzu. O’quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi**

Jamoa o’zini-o’zi boshqarish qo’mitasi sifatida. O’quvchilar jamoasi maqsadining birligi va tashkil qilish xususiyatlari. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo’naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyati sifatida.

O’qituvchi tomonidan qo’yilayotgan talablar hajmi, tizimi, talab qo’yish metodikasi. O’quvchilarga talablar qo’yish, talablar mazmuni bilan tanishtirish, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam suratda nazorat qilib borish.

Jamoa an’analari bu barqarorlashgan odat, ularni jamoa a’zolari birdek qo’llab-quvvatlaydi. Jamoa an’analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri

**16-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish**

Tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari. Tarbiya metodlari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Tarbiya metodlarining tavsiflanishi, turlari va foydalanish yo‘llari.

Tarbiyada ijobiy namuna va ibrat ko‘rsatish metodlaridan foydalanish. O‘quvchi-talabalarning rivojlanishida turli ta’sirlar va hurmatiga sazovor bo‘lgan kishilarning shaxsiy ibrat-namunasi.

Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari. Tarbiyada ma’qullash, ishonch bildirish, ishonish, qayd etish, maqtov va tanbeh ta’siri, jazo, po‘pisa, koyish kabilardan foydalanish yo‘llari.

Tarbiyasi qiyin bo‘lgan yoshlar bilan ishlash. Tarbiyasi qiyin bo‘lgan yoshlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda qayta ishontirish metodidan foydalanish

**17-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish**

Milliy qadriyatlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni.

Xalq og‘zaki ijodi janrlari: epik ijod namunasi; qo‘shiqlar, alla va laparlar; maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so‘zlar, aforistik iboralar; asotirlar, afsona va rivoyatlar; ertaklar, dostonlar, topishmoq kabilar yoshlarni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati.

O‘zbek xalq og‘zaki namunalari: folklor – xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida; tez aytish va o‘yinlarning tarbiyada tutgan o‘rni; topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o‘rni; topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o‘rni; qo‘shiq, alla, laparlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati; ertak, doston, rivoyat, matal, masallar orqali tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish yo’llari; maqollarning eng keng tarqalgan shakli o‘git kabilar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining asosiy tarkibiy qismidir.

## 18-Mavzu. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o’tkazish metodikasi

Rahbarlikning zarur qonun-qoidasi rejalilikdir. Rejalashtirishga qo‘yiladigan talablar. Rejalashtirishda guruh rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari. Guruhga qisqacha tavsifnoma. Tarbiyaviy vazifalar. O‘quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari

Ma’naviyat va burch tarbiyasi. O‘quvchilar turar joylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. O‘quvchilarning mustaqil tayyorgarligi, ularda mustaqillik, mas’uliyat va mehnatsevarlikni shakllantirish.

Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash. O‘quvchilar ishlab chiqarish (mehnat) uyushmasi va ko‘rik musobaqa tarbiyaviy tadbirini tashkil etish va o‘tkazish uchun uning tarbiyaviy ahamiyati, tashkil etish metodikasi, o‘tkazilish bosqichlari hamda ishtirokchilar faoliyatini baholash mezonlari. Sog‘liqni saqlash va sog‘lom avlodni tarbiyalash tadbirlari. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari.

## Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta’lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo’lib, auditni o’rganishda fanning biror bir mavzusini to’laroq o’zlashtiradi va mavzu belgilangan shakldа bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o’qishi davomida olgan bilimini mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta’lim uchun o’quv va ishchi o’quv rejada 24 soat ajratilgan. Ushbu soat talabalarning amaliy mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko’rishi, oraliq nazoratlarda, yaruniy nazoratda va boshqa mustaqil shug’ullanishini o’z ichiga oladi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo’yicha talabaning mustaqil ishi shu fanni o’rganish jarayonining tarkibiy qismi bo’lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to’la ta’minlangan.

Talabalar auditoriya mashg’ulotlarida pedagog-xodimlarning ma’ruzasini tinglaydilar, mustaqil ishlaydilar va mavzuni yozib boradilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o’rganish maqsadida qo’shimcha adabiyotlarni o’qib referatlar tayyorlaydilar hamda mavzu bo’yicha professor-o’qituvchi tomonidan berilgan mustaqil ish va testlarni yechadilar. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo’shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o’rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo’llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to’plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to’garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib, ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o’quv faoliyati samarali bo’lishi mumkin emas.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzu ko’rinishida shakllantirilgan.

## V semestr uchun mustaqil ta’lim mavzulari va uni amalga oshirish shakli

| № | MT mavzusi | Mavzuga oid bo’lim | Mtga oid topshiriq va tavsiyalar |
|---|---|---|---|
| 1. | Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o’rni | Pedagogik jarayon | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 2. | SHarqona tarbiya | Sharq mutafakkirlari tarbiya haqida | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 3. | Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch | I.A.Karimovning shu nomli asari misolida | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 4. | G’arb tarbiyasining ahamiyati | G’arb mutafakkirlari ta’lim-tarbiya haqida | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 5. | Sharq ta’lim-tarbiyasida Abu Ali ibn Sinining tutgan o’rni | Abu Ali ibn Sinining tarbiyaviy qarashlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 6. | Abu Ali ibn Sinoning kuzatish, tajriba va imtixon usuli | Tarbiya metodlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 7. | Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiyaga bo’lgan qarashining falsafiy poydevori | Sharqona ta’limiy-tarbiyaviy va falsafiy qarashlar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 8. | Tarbiya jarayoniga qo’yiladigan talablar | Tarbiya jarayoni haqida tushuncha | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 9. | Oila pedagogikasi | Oila funkstiyalari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 10. | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish muammolari | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakl va vositalari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 11. | Guruh rahbari ishini rejalashtirish | Guruh rahbari faoliyati | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12. | Guruh rahbarining ota-onalar bilan aloqasi | Ta'lim muassasasi va oila hamkorligi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 13. | Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi | Ta'lim-tarbiya jarayoni | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 14. | SHaxsga jamoa bilan tarbiya-viy ta'sir qo'rsatish usuli | Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 15. | Islom dinida odob-axloq tarbiyasi haqida | Hadis ilmi va uning tarbiyaviy qadr-qimmati | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 16. | Tarbiya jarayonida tadbirlarning ahamiyati | Tarbiyaviy tadbir-larni rejalashtirish va tashkil etish | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 17. | Guruh rahbarining pedagogik jamoada tutgan o'rni | Guruh rahbari ishini rejalashtirish | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 18. | O'quvchi shaxsining rivojlanishida tarbiya metodlarini qo'llash | Tarbiya metodlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 19. | Mutafakkirlarning tarbiyaga oid qarashlari | SHarq va G'arb mutafakkirlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 20. | Tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasining ahamiyati | Mehnat tarbiyasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 21. | To'garaklar tashkil qilishda direktor o'rinbosari vazifasi | Ta'lim muassasasi ma'muriyati maqsadi va vazifalari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 22. | O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi | Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 23. | Yoshlarda insonparvarlik va vatanparvarlik his-tuyg'ularini rivojlantirish yo'llari | Insonparvarlik va vatanparvarlik tushunchasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 24. | Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya xususida | Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya haqidagi fikrlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 25. | Tarbiyaviy tadbirlar rejasining tuzilishi | Tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 26. | Iqtisodchi uchun zarur bo'lgan pedagogik texnika va qobiliyatlar | Pedagogik mahorat | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 27. | Ishbilarmonlik muloqoti | Muloqot | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |
| 28. | Pedagogik muloqot va munosabat | Pedagogik muloqot asoslari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish |

**V semestr bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me'zonlari**

| **Baholash usullari** | **Baholash mezonlari** |
|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| Testlar, yozma ishlar, og‘zaki savol-javoblar | | **86-100** ***ball “a’lo”:*** Fanga oid nazariy bilimlarni to‘la o‘zlashtira olish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| | | **71-85** ***ball “yaxshi”:*** Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish.Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| | | **5-70** ***ball“qoniqarli”:*** Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lish. |
| | | **50-54** ***ball “qoniqarsiz”:*** Fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik, |

**Reyting baholash turlari**

| Nazorat shakllari | | Maksimal ball | Umumiy ball |
|---|---|---|---|
| 1 | Joriy nazorat | 36 | 100 |
| 2 | Oraliq nazorat | 34 | |
| 3 | Yakuniy nazorat | 30 | |

| Joriy baholash | | Maksimal ball | O‘tkazish vaqti |
|---|---|---|---|
| **Joiry nazorat (20 ball)** | **MT (16 ball)** | **36** | Semestr davomida |
| Darslarga aktiv qatnashganlik va o‘zlashtirish darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlarining yuritilishi va holati. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarining bajarilishi | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining (prezetatsiya, testlat, yozma ish variantlari, keys stadiylar) o‘z vaqtida sifatli bajarilishi | | |

| Oraliq baholash | | | Maksimal ball | O‘tkazish vaqti |
|---|---|---|---|---|
| **№** | **Oraliq nazorat (20 ball)** | **MT (14 ball)** | **34** | **Semestr davomida** |
| I | Darslarga aktiv qatnashganlik va o‘zlashtirish darajasi. Ma’ruza mashg‘ulotlardagi faolligi, mashg‘ulot daftarlarining yuritilish holati. Oraliq nazorat uchun nazorat ishi (10 ball) | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining (prezetatsiya, testlat, yozma ish variantlari, keys stadilar) o‘z vaqtida sifatli bajarilishi (7 ball) | 17 | I oraliq davomida (semester-ning 1-9 haftasi) |
| II | Darslarga aktiv qatnashganlik va o‘zlashtirish darajasi. Ma’ruza mashg‘ulotlardagi faolligi, mashg‘ulot daftarlarining yuritilish holati. Oraliq nazorat uchun nazorat ishi (10 ball) | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining (prezetatsiya, testlat, yozma ish variantlari, keys stadilar)o‘z vaqtida sifatli bajarilishi (7 ball) | 17 | II oraliq davomida (semester-ning 10-18 haftasi) |

## Laboratoriya ishlarini tashkil etish boyicha ko’rsatmalar

Fan bo‘yicha laboratoriya ishlari o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

## Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko’rsatmalar

Fan bo‘yichakurs ishlari o’quv rejada ko’zda tutilmagan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

### Asosiy adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. –T.: O’zbekiston, 2017.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konsterni, 1998.
3. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “SHarq” nashriyot-matbaa konsterni, 1998.
4. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
**8.** Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, - 2008.
10. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. II qism. O’quv qo’llanma. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 936 b.
11. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
12. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010 y.
13. Sarsenbayeva R.M. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o’quv fanini o’rganish yo’llari. Uslubiy qo’llanma. –T.: TMI, 2018. – 294 b.
14. Sarsenbayeva R.M. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi. O’quv-uslubiy qo’llanma. – T.: TMI, 2014. – 108 b.
15. Hasanboyeva O. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. –T.: Ilm ziyo, 2014. – 166 b.

## 16. Qo’shimcha adabiyotlar:

17. A handbook for teaching and learning in higher education: enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. –3 rd ed. p. cm.
18. Omonov H.T. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 240 b.
19. Ochilov M., Ochilova N. O’qituvchi odobi. – T.: O’qituvchi, 2013

20. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2003. – 188 bet.

21. Sarsenbayeva R.M. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TMI, 2015. – 152 b.

22. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi (darslik). –T.: Aloqachi, 2007. –384 b.

23. Mavlonova R. Voxidova N. Raxmonqulova N. Redagogika nazariyasi va tarixi (darslik).– T: "Fan va texnologiya" 2010.

24. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2013

25. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmonov N. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi). 1-qism.,– T.: "Fan va texnologiya" 2011.

26. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. –T.: «Iqtisod moliya», 2009.

**Internet saytlari:**

www.ziyonet.uz – ZiyoNet ta'lim portali

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlarini ma'lumotlari milliy bazasi;

www.tdpu.uz – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti rasmiy veb sayti

www.pedagog.uz – Pedagogika yo'nalishiga oid kitoblar sayti

www.tfi.uz – Toshkent moliya instititi rasmiy veb sayti

www.tdiu.uz – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy veb sayti

www. http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzk.pdf-*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*

www. http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzl.pdf- *Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi*

www. http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzk.pdf-*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*

www. http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzl.pdf. -*Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi.*

## IV.3. Interfaol ta'lim metodlari

**"AQLIY HUJUM" метоdi**



**“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

**“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.




**“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi**

**“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;

2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli
   i. qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. YUqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

**"Aqliy hujum" metodining afzalliklari:**

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

**"Aqliy hujum" metodining kamchiliklari:**

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

## "KICHIK GURUHLARDA ISHLASH"



**"Kichik guruhlarda ishlash" metodi** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. CHunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

**"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.




**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi**

## “DAVRA SUHBATI” метоdi



**“Davra suhbati” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish

lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




**belgilar:**
1-ta’lim oluvchilar
2-aylana stol

**Davra stolining tuzilmasi**

YOzma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. SHundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Davra suhbati” metodining tuzilmasi**

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

**“Davra suhbati” metodining afzalliklari:**

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

**“Davra suhbati” metodining kamchiliklari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

## 4.4. Tarqatma materiallar

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta’lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta’lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o‘xshash emas. Ta’lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.

Bir butun pedagogik jarayonda ta’lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishda mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko‘p qirralidir. Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarni bilimlar bilan qurollantirish bo‘lsa, tarbiya yoshlarning jamiyatimizning qonunlariga javob bera oladigan e’tiqodini, axloqiy tushuncha va ko‘nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir

1-rasm

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining predmeti:**

kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda ta’lim-tarbiya oladigan o’quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga oid nazariy bilimlar va ko’nikmalarni shakllantirishdan iboratdir

2-rasm

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:**

6. **Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

7. **Davlat va jamiyat** – ta’lim va kadrlar tayyorlash faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

8. **Uzluksiz ta’lim** – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini, tuzilmasi va faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

9. **Fan** – yukori malakali mutahassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

10. **Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, ular sifatiga qo‘yilgan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, tizimni moliyalashtiruvchi va moddiy-texnik baza bilan ta’minlash qatnashchisi

3-rasm

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining asosiy vazifasi esa** shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

**Buning uchun:**

yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko‘maklashish, o‘z – o‘zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg’otish;

talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, ularni tobora o‘stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

har bir o‘smirning bilim olish qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish;

insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir–birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik), muomala odobi kabi tarbiya vositalaridan kengroq foydalanish:

tarbiyada tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olinishi, har bir shaxs, o‘smir va yosh yigit-qizning betakror va o‘ziga xosligini e’tiborga olish;

amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksizligiga hamda turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish:

o‘smir yigit va qizlar nafaqat bo‘lg’usi katta hayotga tayyorgarlik ko‘radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar, shu bois ularni aniq hayotga tayyorlash kabilar.

**Fozil jamoa (Forobiy fozil shahar ahli, deydi)** odamlarning turmush tarzi va faoliyati boshqa nomukammal shahar odamlarining turmushidan farqi shundaki, «bir guruh (fozil) odamlar birgalikda ana shu xislatlar (fazilatlar)ga ega bo‘lishsa (ya’ni, birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshqa (go‘zal) xislatlar bo‘lsa), ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga ko‘yish zarur. Shu guruhning a’zolari birlashib, o‘zaro kelishib harakat qilsa, har biri fozil odam bo‘lishi mumkin, Fozillar shahri, uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt-saodat nima ekanligini bilishlari zarur. Yana «fozillar shahri» aholisi oxiratda nelarga erishuvini, nelardan (qanday ijtimoiy illatlardan) saqlanishini bilishlari zarur». Fozil shahar yoki ideal davlat oqil talablari, adolat va muhabbat asoslari ustiga quriladi. Jamoat hayotining osoyishtaligi, kishilar

o‘rtasidagi hamjihatlik, hamkorlik, jamiyatning yaxlitligi, adolatli siyosat va undan kelib chiqadigan namunali ishlari orqali ta’minlanadi hamda yuzaga chiqadi.

**Forobiy ruh tarbiyasi tan (vujud)** tarbiyasidan ustun degan fikrni ilgari surmaydi, balki ular o‘rtasidagi muvozanat, uyg‘unlik ko‘zda tutiladi.



Chunki, sog‘lom tanda ruh o‘z xatti-harakatlarini to‘laroq bajarish imkoniyatiga ega bo‘la oladi, tan xastaligi ruh, vujud va uning qismlari yordami bilan qilinadigan harakatlardan ham mahrum etilishi mumkin. Adolat tushunchasi, Forobiyning fikricha, kishilarning bir-biriga bo‘lgan muhabbatiga asoslanadi. Muhabbat esa fozil shahar odamlarining fazilatli ishlariga moyilligidan kelib chiqadi hamda ularning baxtga erishish uchun nimalarni bilish va qanday vositalardan foydalanish mumkinligi to‘grisida hamfikrligi va umumiy intilishlariga asos bo‘ladi.

Komil inson faoliyatida bilim va yetuk axloq uzviy ravishda bir-biri bilan boglangandir: bilim narsalarning mohiyatini, ichki sababiyatlarini bilish imkonini beradi, axloq (ma’naviyat) esa odamni yaxshi fazilatlarga da’vat etadi. Chunki kamolotga erishish odamdan o‘zining so‘nggi maqsadi – baxtga yetish, baxtni ko‘lga kiritish uchun foydali narsalarni bilishni talab qiladi. Forobiy ta’limotiga ko‘ra, nazariy jihatdan bilimga ega bo‘lish, amaliy jihatdan baxtga erishish vositalarini, yo‘llarini bilish kerak ekanligi, ya’ni nazariya bilan amaliyotning birligi shart qilinadi.

4-rasm

**Qadriyatlar**




**Alisher Navoiy o‘qituvchi odobi va muallimlik kasbi haqida**

Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki u ta'lim-tarbiya masalalariga a'lohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko‘rsatib o‘tgan. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir. Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta’lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko‘rsatadi.

O‘z davridagi musulmon ta’lim tizimilarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O‘qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, ta’lim tizimidorlari ta’lim berayotgan fanini va tarbiya jarayonini sevishi kerak, deydi. O‘ziga xos o‘qituvchi jamiyatda obro‘li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e’zozlashlari zarurligini uqtiradi.



O‘z davridagi musulmon ta’lim tizimilarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O‘qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, ta’lim tizimidorlari ta’lim berayotgan fanini va tarbiya jarayonini sevishi kerak, deydi. O‘ziga xos o‘qituvchi jamiyatda obro‘li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e’zozlashlari zarurligini uqtiradi. Navoiyning fikricha, ba’zan bir kishi bitta o‘quvchiga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta o‘quvchi-guruh jamoasini tashkil etadi va ilmu adab o‘rgatadi.

5-rasm

## O‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari:

- **shaxsiy majburiyat** (kunlik, haftalik yoki oylik bajarilishi mumkin bo’lgan ishlarni rejalashtirish);
- **o‘z ishi haqida hisobotlarni nazorat qilish** (ushbu rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishini nazorat qilish);
- **xatti-harakatlarida o‘zini-o‘zi tahlil qilish** (rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishini tahlil qilish, yani nima bajarildi-yu, nimalar bajarilmadi);
- **o‘ziga-o‘zi baho berish** (rejalashtirilgan ishlarni kun, hafta ba oy davomida bajarilishi nazorat ba tahlil qilinganidan so’ng o’ziga-o’zi baho berishi, yani hamma rejalashtirilgan ishlar bajarildi – a’lo, ayrimlari bajarilmadi o’ta yoki qoniqarli, deb baho beriladi va o’zini-o’zi rag’batlantiradi)

## 4.5. Testlar

**1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining tadqiqot ob‘ekti nimadan iborat?**
A.Ta‘lim jarayoni
*B. Uzluksiz ta‘lim-tarbiya jarayoni
C. Tarbiya jarayoni
D. Shaxs tarbiyasi

**2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani qaysi fanlar bilan aloqador?**
*A. Pedagogika, etika, sotsiologiya, psixologiya, falsafa, madaniyatshunoslik, ma‘naviyat asoslari
B. Tarbiya nazariyasi, falsafa, etika, matematika
C. Tabiiy fanlar, gumanitar fanlar
D. Iqtisodiy fanlar

**3. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni kim tashkil qiladi?**
A. Sinf rahbari va fan o’qituvchisi
*B. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi
C. O’quv-tarbiya muassasasi rahbari
D. Ta’lim muassasi rahbari, guruh rahbari va ota-onalar qo’mitasi

**4. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar qanday muassasalarda tashkil etiladi?**
*A. Sport majmuasi yoki madaniyat saroylarida
B. O’quvchilar saroylari va dars jarayonida
C. O’quv-tarbiyaviy muassasalarida
D. Ta’lim muassasi oquv jarayonida

**5. Tarbiyaviy ishlar jarayonida qaysi ish usullaridan foydalaniladi?**
A. Ertaliklar, majlislar, to’garaklar, o’quv jarayoni
B. Ommaviy va yakka tartibdagi faoliyat turlari
*C. Og’zaki, amaliy va ko’rgazmali ish usullari
D. O’qitish, tarbiyalash, jazolash, uqtirish ish usullari

**6. Tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshirildadigan sayohatlar, olimpiada va to’garaklar qaysi ish usuliga kiradi?**
*A. Amaliy
B. Og’zaki
C. Ko’rgazmali
D. Yozma, fikrlash va tafakkur qilish

**7. Tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshirildadigan ertaliklar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar qaysi ish usuliga tegishli?**
*A. Og’zaki
B. Amaliy
C. Ko’rgazmali
D. Yozma-matnli

**8. Maktab muzeylari, kitoblar ko’rgazmasi tashkil etish qaysi ish usuliga taalluqli?**
A. Og’zaki
B. Amaliy
*C. Ko’rgazmali
D. Yozma-matnli

**9. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining tadqiqot predmeti nima?**
A. Shaxs va tarbiya jarayoni
*B. Tarbiya jarayonini tashkil etuvchi, bilim va tarbiya beruvchilar hamda uni o'ziga qabul qiluvchilar o'rtasidagi pedagogik munosabatlar
C. Ta'lim-tarbiya jarayoni
D. O'qituvchi, o'quvchi

**10. Tarbiya jarayonining asosiy maqsadi nimadan iborat?**
A. Shaxs tarbiyasi
B. O'quvchi tarbiyasi
*C. Har jihatdan barkamol shaxsni shakllantirish
D. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish

**11. Tarbiya metodlarini ko'rsating.**
A. Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish va o'qitish metodlari
*B. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari
C. O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash, rag'batlantirish va maqtash metodlari
D. Boshqalarga o'rnak bo'lish metodi

**12. Suhbat va hikoya metodlari tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?**
A. Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish va uqtirish metodlari
*B. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari
C. O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari
D. Boshqalarga o'rnak ko'rsatish metodi

**13. Mashq qildirish metodi tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?**
*A. Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish metodlari
B. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari
C. O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari.
D. Boshqalarga o'rnak ko'rsatish metodi

**14. Tanbeh berish va ogohlantirish metodlari tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?**
A. Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish va uqtirish metodlari
B. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari
*C. Jazolash metodlari
D. O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari

**15. Namuna qilib ko'rsatish metodi tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?**
A. Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish metodlari
B. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari
*C. Rag'batlantirish metodlari
D. O'zini-o'zi tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari

**16. O'z-o'ziga baho berish tarbiya metodlarining qaysi guruhiga tegishli?**
A. Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish metodlari
B. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari
C. Boshqalarga o'rnak ko'rsatish metodi
*D. O'zini-o'zi tarbiyalash metodlari

**18. Tarbiyachining o'quvchiga bo'lgan barcha talablari nechta guruhga ajratiladi?**

A. Bir guruhga
B. Ikki guruhga
*C. Uch guruhga
D. To’rt guruhga

**17. Shaxs shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?**
*A. Irsiyat, ijtimoiy muhit, ta‘lim-tarbiya
B. Ota-ona, maktab, jamoatchilik
C. Pedagogik jamoa, ota-ona, qo’ni-qo’shni, mahalla
D. O’qituvchilar va o’quvchilar guruhi

**19. Pedagogning tarbiyalanuvchilarga nutqsiz munosabati turlarini ko’rsating.**
A. Qo’l harakarlari va baqirishlar
B. Har xil balandlikda tovushlar chiqarish
C. Parta, stol, doskaga qo’l yoki ,o’r bilan urish
*D. His-hayajonni ifodalaydigan harakatlar

**20. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani nimani o’rganadi?**
A. Ta‘lim usullarini
*B. Ta‘lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish va o’quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir etish usullarnini
C. Axloqiy va aqliy tarbiyani
D. Mehnat, jismoniy va huquqiy tarbiyani

**21. Tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda qanday tamoyillarga amal qilinadi?**
A. Ta‘lim va tarbiyaning ustuvorligi va metodlari
*B. Ta‘lim va tarbiyaning birligi, dunyoviyligi va jahon andozalari darajasiga ko’tarish
C. Ustoz-shogirdlik munosabatlarini davom ettirish va qayta tiklash
D. Ta’lim muassasasi va oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini amalga oshirish

**22. Ta‘lim-tarbiya tizimini demokratlashtirish nimani anglatadi?**
*A. Ta‘lim-tarbiya jarayonini har qanday buyruqbozlikdan xoli ravishda o’zaro hamkorlik, do’stona munosabat va erkinlik asosida tashkil etish
B. So’z erkinligi
C. O’quvchilar erkinligi
D. O’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi o’zato munosabatlarni to’g’ri yo’lga qo’yishlikni

**23. Ta‘lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish nimani anglatadi?**
A. Inson shaxsini ulug’lash, qadrlash masalalari
B. Inson erkinligi
*C. Ta‘lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari shaxsini hurmat qilish, barcha harakatlarni ular kelajagi va baxt-saodatiga qaratish
D. Inson shaxsini har tomonlama tarbiyalash

**24. Insonparvarlik tushunchasi qanday ma‘noni anglatadi?**
*A. Inson shaxsini hurmat qilish, uning baxt-saodatini ta‘minlashga intilish
B. Inson erkinligi va haq-huquqlarini bilish
C. So’z erkinligi
D. Insonni ulug’lash va o’z fikrini bemalol ayta olishi

**25. Demokratiya tushunchasi qanday ma‘noni anglatadi?**

A. «Erkinlik» tushunchasini
B. «Ozodlik» tushunchasini
C. «So'z va fikr erkinligi» tushunchasini
*D. «Xalq hokimiyati» tushunchasini

**26. Ta'lim-tarbiyaga uzluksiz tizim sifatida qarash nimani anglatadi?**
A. Ta'lim tizimining uzluksizligini
*B. Ta'lim-tarbiya jarayonining bir-biri bilan mantiqiy bog'liq va davomiy qismlardan iboratligini
C. Ta'limning uzluksizligini va uzviyligini
D. Tarbiya uzluksizligini va uzviyligini

**27. Tarbiya jarayonidagi pedagog mahorati deganda nimani tushunasiz?**
A. Tarbiya bera olish
B. Axloqiy tarbiyalay olish
*C. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilar va hamkorlar bilan til topisha olish hamda tarbiya usullarini mukammal egallash
D. Mehnat qilishga o'rgata olish hamda aqliy jihatdan tarbiyalash

**28. O'qituvchi mahoratining tarkibiy qismlarini ayting**
*A. Kasbiy bilim va pedagogik qobiliyat
B. Mehnat va malaka oshirish
C. Bilim, ko'nikma, malaka hamda mukammal ong
D. Ta'lim-tarbiya jarayoni

**29. Tarbiya jarayonidagi pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini ko'rsating**
A. Pedagogik mahorat, mimika va ong orqali boshqarish
B. Mimika va pantomimika hamda xatti-harakatlar
C. Nutq madaniyati va so'zlashuv odobi
*D. Nutq madaniyati, mimika va pantomimika, o'qituvchining hissiy holati

**30. Tarbiya jarayonida o'qituvchi qanday mimik holatlardan foydalanishi mumkin?**
*A. Iljayish, tasdiqlash, qovoq uyish, qosh chimirish va h.k.
B. Erkalash, ogohlantirish va imo-ishoralardan foydalanish
C. Maqtov va qoralash
D. Nasihat va o'git

**31. Tarbiya jarayonida o'qituvchi tushkunlik kayfiyatini o'quvchilardan yashira oldi. Bu pedagogik ta'sirning qaysi turiga tegishli?**
A. Pedagogik qobiliyat
*B. Pedagogik takt
C. Nutq madaniyati
D. So'zlashuv odobi

**32. O'qituvchining nutq madaniyati pedagogik mahoratning qaysi tarkibiy qismiga tegishli?**
A. Pedagogik qobiliyatga
*B. Pedagogik texnikaga
C. Pedagogik taktikaga
D. Tarbiya usullariga

**33. O'qituvchi o'quvchilar bilan shaxsiy munosabat o'rnatayotganida oraliq masofa qancha bo'lishi lozim?**

*A. 45 sm dan 120 sm gacha
B. 120 sm dan 400 sm gacha
C. 400 sm dan 750 sm gacha
D. 750 sm dan 1000 sm gacha

**34. O'qituvchi o'quvchilar bilan rasmiy munosabat o'rnatayotganida oraliq masofa qancha bo'lishi lozim?**

A. 45 sm dan 120 sm gacha
*B. 120 sm dan 400 sm gacha.
C. 400 sm dan 750 sm gacha
D. 750 sm dan 1000 sm gacha

**35. Ommaviy munosabatda o'qituvchi va omma orasidagi masofa qancha bo'lishi lozim?**

A. A. 45 sm dan 120 sm gacha
B. 120 sm dan 400 sm gacha
*C. 400 sm dan 750 sm gacha
D. 750 sm dan 1000 sm gacha

**36. Quyidagi pedagogik malakalar majmui pedagogik texnikaning qaysi tarkibiy qismiga tegishli: «Jiddiylik darajasi, xayrixohlik, kayfiyatni saqlash, umidbaxshlik»?**

A. Nutq madaniyati va pedagogik kuzatish
B. Mimika, pantomimika, past-baland va taq-tuqli ovozlar
*C. O'qituvchining hissiy holati va nutq madaniyati
D. Pedagogik kuzatish, o'rganish va ta'sir ko'rsatish

**37. Quyidagi fikr qaysi mashhur pedagogning qalamiga mansub: «Tarbiyachi tashkil etishni, ish yuritishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin»?**

A. Abdulla Avloniy
*B. A.S.Makarenko
C. Mishel Monten
D. Ya.A.Komenskiy

**38. Pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Boshlang'ich, o'rta va yuqori
*B. Reproduktivlik, ijodiylik, ijodiy-novatorlik
C. Past, o'rta va yuqori
D. Oddiydan murakkablikka va osondan qiyinlikka

**39. O'qituvchining o'quvchilarga kommunikativ ta'sir etish usullarini ko'rsating.**

A. Muloqot va muomala
B. So'zlashuv
*C. Ishontirish va singdirish
D. Tajriba almashinuv

**40. Tarbiya jarayonidagi talab nima?**

A. Topshiriqlar berish

*B. Tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini rag'batlantirishni yoki to'xtatishni va aniq amaliy hamda axloqiy sifatlarni namoyon qilishni ta'minlaydi

C. Vazifalar berish

D. Topshiriq va vazifalar berish

**41. Quyidagi belgilarga ega jamoa shakllanishning qaysi bosqichida: «Pedagogning kuch-g'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib-intizom mavjud. O'quvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi o'qituvchining fikrini qo'llab-quvvatlaydi. Sinf faollari faoliyati to'liq yo'lga qo'yilmagan»**

*A. Birinchi bosqichida

B. Ikkinchi bosqichida

C. Uchinchi bosqichida

D. To'rtinchi bosqichida

**42. Quyidagi belgilarga ega jamoa shakllanishning qaysi bosqichida: «Jamoa o'zini-o'zi boshqarishga o'tgan. O'zaro munosabatlar axloqiy qimmatga ega. Bunday jamoada pedagogning talablari jamoa a'zolarining bir-biriga bo'lgan talablari bilan uyg'unlashadi»**

A. Birinchi bosqichida

B. Ikkinchi bosqichida

*C. Uchinchi bosqichida

D. To'rtinchi bosqichida

**43. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalari nimalardan iborat?**

A. Muhim tadbirlarda qatnashish

B. Tarbiyaviy ishlarga bevosita rahbarlik qilgan holda hamkorlarga uslubiy yordam ko'rsatish va ta'lim jarayonini mustahkamlash

C. Tarbiyaviy ishlar jarayonida jamoatchilik kuchidan foydalanish va o'quvchilarni dars mashg'ulotlariga yo'naltirish

*D. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, sinf faollari va pedagogik jamoa yordamida tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish va amalga oshirishni nazorat qilish

**44. O'qituvchining jamoa bilan muloqot shakllari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Kommunikativ, interaktiv va pertseptiv

B. Doimiy, o'zgaruvchan

C. Jamoaviy va yakka

*D. Passiv-ijobiy, faol-ijobiy, o'zgaruvchan

**45. Jamoa a'zolarini nima birlashtiradi?**

A. Tengdoshlik xususiyatlari

B. Tartib-intizom

*C. Yagona maqsad

D. Ta'lim-tarbiya jarayonini mustahkamlash

**46. Pedagogik mahoratni oshirish yo'llarini ko'rsating**

A. Badiiy asarlar o'qish orqali

B. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali

C. Tajriba orttirish davomida

*D. Auditoriyada va auditoriyadan tashqarida

**47. Yuqori darajada shakllangan jamoada boshqaruvni kim amalga oshiradi?**
*A. Jamoa o'zini-o'zi boshqaradi
B. Sinf rahbari boshqaradi
C. Sinf faollari boshqaradi
D. Ota-onalar va mahalla boshqaradi

**48. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida qaysi ish usullaridan foydalaniladi?**
*A. Og'zaki, amaliy va ko'rgazmali ish usullari
B. Ommaviy va yakka ish usullari
C. Ertaliklar, majlislar, to'garaklar
D. Jamoa bilan birgalikdagi ish usullari

**49. Sayohatlar, olimpiadalar va to'garaklar qaysi ish usuliga kiradi?**
A. Og'zaki
*B. Amaliy
C. Ko'rgazmali
D. Yozma-natnli

**50. Ertaliklar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar qaysi ish usuliga tegishli?**
*A. Og'zaki
B. Amaliy
C. Ko'rgazmali
D. Yozma-natnli

**51. Muzeylar, kitoblar ko'rgazmasi qaysi ish usuliga taalluqli?**
A. Og'zaki
B. Amaliy
*C. Ko'rgazmali
D. Yozma-natnli

**52. Iltimos, ishonch, ma'qullash qanday talablar guruhiga kiradi?**
*A. Ijobiy talablar
B. Betaraf talablar
C. Salbiy talablar
D. Xolisona talablar

**53. Maslahat, sha'ma, shartli talab va o'yin shaklidagi talablar qanday talablar guruhiga kiradi?**
A. Ijobiy talablar
*B. Betaraf talablar
C. Salbiy talablar
D. Xolisona talablar

**54. Fosh qilish, ishonchsizlik bildirish va do'q qilish qanday talablar guruhiga kiradi?**
A. Ijobiy talablar
B. Betaraf talablar
*C. Salbiy talablar
D. Xolisona talablar

## 4.6. Baholash mezoni bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

### MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA

**«Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi»**

«Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi bo'layotgan bir qator muammolar, kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida 2018 yil 5 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-sonli qarorida qo'yilgan vazifalarni bajarish ham nafaqat talabalarni, balki barchani o'z ustida mustaqil ishlashini zaruriyatga aylantiradi».

***SH.Mirziyoev***

Ana shu zaruriyatni amalga oshirish **mustaqil ta'limning maqsadi** bo'lib, u talabalarning o'quv mashg'ulotlarida olgan bilimlarini teranlashtirish, axborotlar ummonidan keraklisini tezda ajratib ola bilish, ko'nikma, malakalarini boyitish, yangi g'oyalarni ilgari surishga yo'naltirishdan iborat

### MUSTAQIL TA'LIMNINING SHAKL VA MAZMUNI

1. Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlarni o'rganib, uni referat(esse) shaklida taqdim etadilar.
2. Fan bo'yicha respublikamizdagi muammoli vaziyatni ifodalovchi keys echish

**Ikkinchi oraliq nazorat** uchun esa:

1. xorijiy adabiyotlarni o'rganib, referat tayyorlaydilar yoki esse yozadilar.
2. Fan bo'yicha xorij yoki global miqyosda muammoli vaziyatni ifodalovchi keys echish

### MUSTAQIL TA'LIMNINING SHAKL VA MAZMUNI

Referat (lotincha **refero-** axborot beryapman) — biror ilmiy asar, o'qilgan kitob, maqola kabilar mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni, o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalar sharhini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi doklad hisoblanadi

### JORIY NAZORAT

Joriy nazoratga ajratilgan ballarning mustaqil ishlash uchun semestr davomida 16 ball ajratilgani bu mustaqil ishni katta mas'uliyat bilan bajarilishini hisobga olib, talabalarni kichik guruhlarda loyiha ishi (Assignment)ni bajarishini rejalashtiramiz

## MUSTAQIL TA’LIMNINING SHAKL VA MAZMUNI

| Oraliq baholash | | | Maksimal b | O‘tkazish vaqt |
|---|---|---|---|---|
| **№** | **Oraliq nazorat (20 ball)** | **MT (14 ball)** | **34** | **Semestr davomida** |
| 1 | Oraliq nazorat ma’ruza darsl rida aktivligi, mashg‘ulot daftar-larining yuritilish holatini e’ti-borga olish va oraliq nazorat ishining baholanishi orqali amal-ga oshiriladi. (10 ball) | Respulikamizda nashr etilgan adabiyotlar sha ifodalangan referat 2 b Keys stadi topshiriqla bajarish 3 ball | 15 | 1-oraliq davom (semester-ning haftasi) |
| 2 | Oraliq nazorat ma’ruza darslaridaaktivligi, mashg‘ul daftarlarining yuritilish hola e’tiborga olish vaoraliq nazo nazorat ishining baholanishi orqali amalga oshiriladi. (10 ball) | xorijiy adabiyotlar sh ifodalangan referat 3 b Keys stadi topshiriqla bajarish 6 ball | 19 | 2-oraliq davom (semestrning 10 18 haftasi) |

| Joriy baholash | | Maksimal ball | O‘tkazish vaqti |
|---|---|---|---|
| **JORIY NAZORAT (20 BALL)** | **MT (16 BALL)** | 36 | Semestr davomida |
| Joriy nazorat darslarga aktiv ishtiroki va o‘zlashtirish darajasi, mashg‘ulot daftarlarining yuriti-lish holati va mavzular bo‘yicha vazifalarining bajarilishini e’ti-borga olish orqali amalga oshiriladi. | Kichik guruhlarda loyiha ishini (assignment) tanlash, maqsad, vazifalarni belgilash, natijani ilmiy taxmin qilish, reja tuzish, unda qatnashadigan talabalarning vazifasini aniqlash, axborotlar, ma’lumotlar to‘plash. Loyihani (assignment) bajarish, hisobot, taqdimot tayyorlash va uning muhokamasini o‘tkazish **16 ball.** | | |

**Mustaqil ishni bajarish mazmuni bo‘yicha baholash mezoni va ko‘rsatkichlari**
**(1-oraliq nazorat)**

| **M E Z O N L A R** | **Maksimal ball** |
|---|---|
| Fan bo‘yicha respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar sharhi yozilgan referat | |
| 1. Adabiyot mazmunini qisqa, aniq, lo‘nda ifodalanishi | 1 |
| 2. Boshqa adabiyot bilan taqqoslab berilgan fikr | 1 |
| **Jami** | **2** |
| Fan bo‘yicha respublikamizdagi muammoli vaziyatni ifodalovchi keys echish | |
| 1. Tanlangan muammo va uning dolzarbligi | 1 |
| 2. Keysni echish uchun tanlangan ma’lumotlar va ular bilan ishlash | 0,5 |
| 3. Ish mazmuni qisqa, aniq, lo‘nda ifodalanishi | 0,5 |
| 4. Taklif etilgan echim | 1 |
| **Jami** | **3** |
| **Hammasi** | **5** |

**Mustaqil ishni bajarish mazmuni bo‘yicha baholash mezoni va ko‘rsatkichlari**
**(2-oraliq nazorat)**

| **M E Z O N L A R** | **Maksimal ball** |
|---|---|
| Fan bo‘yicha xorijiy adabiyotlar sharhi yozilgan referat | |
| 1. Xorijiy adabiyot mazmunini qisqa, aniq, lo‘nda ifodalanishi | 2 |
| 2. Boshqa adabiyot bilan taqqoslab berilgan fikr | 1 |
| **Jami** | **3** |
| Fan bo‘yicha xorij yoki global miqyosda muammoli vaziyatni ifodalovchi keys yechish | |
| 1. Tanlangan muammo va uning dolzarbligi | 1.5 |
| 2. Keysni yechish uchun tanlangan ma’lumotlar va ular bilan ishlash | 1.5 |
| 3. Ish mazmuni qisqa, aniq, lo‘nda ifodalanishi | 1,5 |
| 4. Taklif etilgan yechim | 1,5 |
| **Jami** | **6** |
| **Hammasi** | **9** |
| **1 va 2-oraliq nazorat** | **14** |

**1 va 2 –joriy nazorat**
**Talabalar tomonidan tayyorlangan loyiha (assignment) natijasini baholash mezonlari:**

| M E Z O N L A R | Eng yuqori ball |
|---|---|
| 1. Maqsad va vazifalar, ish natijasini aniq, tushnarli tarzda bayon qilinishi | 1 |
| 2. Mazmunning belgilangan maqsadga muvofiqligi | 1 |
| 3. Loyihaning mavzuga oid bo‘lgan etarli miqdorda, sifatli axborot bilan ta’minlangani | 1 |
| 4. Axborotlarning talab darajasida rasmiylashtirilishi | 0.5 |
| 5. Xulosalarni ifodalash, muammoni echish uchun berilgan taklif va tavsiyalar | 1 |
| 6. Hisobot va uni rasmiylashtirish sifati | 1 |
| 7. Foydalanilgan manbalar ro‘yxatini tuzish | 0,5 |
| 8. Ilovalarning borligi | 0,5 |
| 9.Loyiha (assignment) taqdimoti va muhokamasi | 1.5 |
| **Jami** | **8** |

**TALABANING PORTFOLIOSIGA KIRISHI SHART BO‘LGAN ISHLAR RO‘YXATI**

| № | Bajariladigan ishlar mazmuni | Bajarish muddati | Maksimal ball |
|---|---|---|---|
| 1. | 1. Respublikamizda nashr etilgan darslik, o‘quv qo‘llanma, boshqa ilmiy adabiyotlar sharhi asosida referat yoki esse;<br>2. Xorijiy adabiyotlar sharhiga asoslangan referat yoki esse;<br>3. Respublikamizdagi muammoli vaziyatga xos keys stadi echish;<br>4. Xorijiy yoki jahondagi muammoli vaziyatga xos keys stadi echish; | semestr davomida | 2<br>3<br>3<br>6 |
| | **Jami** | | **14** |
| 2. | Tanlangan mavzu bo‘yicha loyiha ishi (assignment) | | 16 |
| | **Jami** | | **30** |